


# MANBASHUNOSLIK



UO'K 930  
KBK 63.2  
M 91

**Manbashunoslik.** Darslik. / O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz, 2019. – T.: «Turon-Iqbol», 2019. – 480 b.

**Mas'ul muharrir:**

*D. Alimova* – tarix fanlari doktori, professor.

**Taqrizchilar:**

*X. To'rayev* – tarix fanlari doktori, professor;

*S. Karimova* – tarix fanlari doktori;

*N. Mahkamova* – tarix fanlari doktori.

Darslikda O'zbekistonning boy tarixiy o'tmishini yorituvchi hamda qadimdan eng yangi davrgacha yaratilgan qimmatli manbalarning qisqa-cha mazmuni, ularning mualliflari to'g'risida, shuningdek, qayd etilgan ma'lumotlarning ahamiyati bayon etilgan. Tarixiy manbalar davriy tarzda tizimlashtirilib, mazmuniga ko'ra tasniflash bo'yicha ko'rsatmalar berilgan.

Darslik O'zbekiston Respublisasi Oliy va o'rta maxsus ta'lrim vazirligining 2018-yil 27-martdagи 274-soni buyrug'iga asosan nashrga tavsiya etilgan.

Darslik FZ-2016-0908223644 O'zbekistonning eng yangi tarixi (4 jild) mavzusidagi fundamental hamda PZ-20170928749 raqamli "O'zbekiston mustaqillikka erishishining tarixiy shart-sharoitlari: ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy omillar" mavzusidagi amaliy loyihibar doirasida tayyorlandi.

ISBN 978-9943-14-612-9

© O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz, 2019.

© «TURON-IQBOL» nashriyoti, 2019.

## MUNDARIJA

<b>O'TMISHNI O'RGANISHDA MANBALARNING O'RNI</b>	5
<b>KIRISH</b>	7
<b>MANBASHUNOSLIK FANI PREDMETI VA TASNIFI</b>	13
1-MAVZU. Manba tushunchasi. Manbalarni turkumlash	13
2-MAVZU. Manbashunoslik evristikasi. Manbalarni o'rganish: aniqlash, tiklash, tahlil qilish	41
<b>MARKAZIY OSIYONING QADIMGI VA ILK O'RTA ASRLAR TARIXIGA OID MANBALAR</b>	63
3-MAVZU. Arab yozuvigacha bo'lgan manbalar	63
<b>ISLOM DINIGA DOIR MANBA VA ADABIYOTLAR</b>	101
4-MAVZU. Islom diniga oid yozma manbalar	101
<b>MARKAZIY OSIYONING O'RTA ASRLAR TARIXIGA OID MANBALAR</b>	133
5-MAVZU. Sharq kitobat tarixi, qo'lyozmalar xazinalari	133
6-MAVZU. IX-XIII asrlar tarixiga oid yozma manbalar	170
7-MAVZU. Amir Temur va Temuriylar davri tarixi yozma manbalari	195
<b>XONLIKLER DAVRI (XVI-XVII ASRLAR) TARIXIGA OID MANBALAR VA ASARLAR</b>	219
8-MAVZU. Mahalliy yozma manbalar va asarlar	219
9-MAVZU. XVII-XIX asrlar tarixiga doir yozma manbalar	250
10-MAVZU. Rus va Yevropa tillaridagi manbalar	278
11-MAVZU. XIX asr birinchi yarmida xonliklarga jo'natilgan diplomatik missiya, elchilik va ekspeditsiyalar natijasida yaratilgan manbalar	317

<b>MUSTAMLAKA DAVRI TARIXIGA OID MANBALAR.....</b>	<b>351</b>
12-MAVZU. XIX asr oxiri – XX asr boshlari Turkiston tarixiga oid manbalar.....	351
13-MAVZU. O'zbekiston tarixiga oid xorijiy manbalar (XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari).....	384
 <b>SOVET DAVRI TARIXIGA DOIR MANBALAR</b>	
<b>VA HUJJATLAR .....</b>	<b>403</b>
14-MAVZU. O'zbekistonning sovet davri tarixi bo'yicha manbalar .....	403
 <b>MUSTAQILLIK DAVRI MANBALARI VA HUJJATLARI ..429</b>	
15-MAVZU. O'zbekistonning mustaqillik yillari tarixiga oid manbalar va hujjatlar .....	429

## O'TMISHNI O'RGANISHDA MANBALARNING O'RNI

Manbashunoslik – tarix fanining tayanch sohalaridan biri hisoblanadi. Zero, tarixni yoritishda turli tarixiy davrlarda yaratilgan manbalarning beqiyos o'rni bor. Insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyoti davomida yaratilgan turli xildagi manbalar muayyan tarixiy davrlardan saqlanib qolgan yodgorlik bo'lib, o'zida ushbu vaqtarda sodir bo'lgan voqealar haqida ma'lumotlarni aks ettradi. Tarixiy manbalarni o'rganish orqali o'tmishda kechgan jarayonlarni asosli tarzda yoritish imkoniyati paydo bo'ladi. Shu sababli manbalarni tadqiq qilishda tarixchi olim manbashunoslik fandan chuqur bilim va ko'nikmaga ega bo'lishi, manbalarning turlari, taranisi, o'ziga xos xususiyatlari, davriy, hududiy, ushyoviy va boshqa xususiyatlari, manbalar bilan ishslash usullari, manbashunoslikning nazariy va amaliy masalalari, mazkur fanda erishilgan yutuqlar va mavjud muammolarni bilishi lozim. Bunday bilimlarni shakllantirishda manbashunoslik fani bo'yicha tayyorlangan o'quv, o'quv-uslubiy, ilmiy adabiyotlar alohida ahamiyatga ega.

O'zbekistonning mustaqil taraqqiyotining zamonaviy bosqichida ilm-fan, ta'lim, texnika sohalarining integratsiyasi masalasiga katta e'tibor qaratiladi. Jumladan, ta'lim jarayonida qo'llaniladigan o'quv adabiyotlarini yaratishda ta'lim va fan integratsiyasini e'tiborga olish zarur. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida "yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratish va ularni oliy ta'lim muassasalarining ta'lim jarayoniga keng tatbiq etish, oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv, o'quv-metodik va ilmiy adabiyotlar bilan ta'minlash" hamda "oliy ta'lim muassasalari ilmiy salohiyatini mustahkamlash, oliy ta'limda ilm-fanni yanada rivojlantirish, uning akademik ilm-fan bilan integratsiyalashuvini kuchay-

tirish, oliy ta'lif muassasalari professor-o'qituvchilarining ilmiy-tadqiqot faoliyati samaradorligi va natijadorligini oshirish" ishlari oliy ta'lif sifatini rivojlantirishdagi muhim vazifalar qatorida belgilangan. Shu nuqtayi nazardan muayyan fan sohasi olimlari, pedagog kadrlar, amaliyotchi mutaxassislar tomonidan hamkorlikda o'quv adabiyotlarini yaratish bugungi kun tartibiga qo'yilgan dolzARB masalalardan hisoblanadi. Xususan, manbashunoslik fani bo'yicha tayyorlangan darslik va o'quv qo'llanmalar aynan shu muammolarni o'zida yoritishi lozim.

O'zbekiston oliy o'quv yurtlari va o'rta ta'lif muassasalarini zamonaviy o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash borasida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha Muvofiglashtiruvchi-metodik markaz tomonidan faoliyat olib boriladi. Markaz tashabbusi bilan tayyorlangan navbatdag'i darslik "Manbashunoslik" deb nomlanadi va u respublikada manbashunoslik sohasida tanilgan olimlar hamda soha mutaxassislari hamkorligida yaratildi.

Ushbu darslik O'zbekiston tarixi manbashunosligi bo'yicha oliy ta'lif muassasalari tarix va arxivshunoslik bakalavriat yo'nalishlari fan dasturlariga mos holda tuzilgan bo'lib, undagi mavzular bo'yicha jamlangan ma'lumotlar talabalarga atrofli-cha nazariy bilimlar berish, amaliy ko'nikmalar hosil qilishda katta ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha Muvofiglashtiruvchi-metodik markaz "Manbashunoslik" darsligini tayyorlashda faol qatnashgan olimlar va soha mutaxassislari, mas'ul muharrir taqrizchilar hamda ishchi guruh a'zolariga o'z minnatdorchiligini bildiradi.

*O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi*

*O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha*

*Muvofiglashtiruvchi-metodik markaz direktori*

*tarix fanlari doktori, professor M.A. Raximov*

## KIRISH

Tarix fani bir qator yo'nalishlarga ega bo'lib, ular orasida manbashunoslik muhim o'rin tutadi. Tarixchi u yoki bu mavzuni tadqiq qilishga kirishar ekan, eng avvalo jamiyat va o'tmish hodisalari haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lgan manbalarga murojaat qiladi. Ulardan tartibsiz ravishda foydalanilganda o'tmishning haqqoniy manzarasini yaratib bo'lmaydi va tarixchi yanglib qolishi mumkin. Shuning uchun ham u (tarixchi) manbalaridan foydalanihning vosita va usullarini o'zlashtirishi zarur. Bu bilan esa tarix fanining maxsus yo'nalishlaridan biri bo'lgan – manbashunoslik shug'ullanadi. Uning predmeti manbalar majmuyi bo'lib, ular yaxlit tizimli obyekt sifatida o'rganilishi kerak.

U yoki bu tarixiy mavzuni o'rganayotgan tarixchi hujjatdan o'ziga saqat kerakli axborotni oladi. Manbashunos uchun esa manba o'zining bir butunligicha muhimdir. Manbashunos o'tmishga manbaning tarixiy jarayondagi o'rnini va vazifasini aniqlash uchun murojaat qiladi. Bunda u manbadagi ma'lumotlarning haqqoniyligi bahosidan kelib chiqadi. Boshqa cha so'z bilan aytganda, tarixning predmeti – o'tmish manbalarda bo'lsa, ayni paytda manbashunoslikning predmeti – manbalarning o'tmishdan guvohlik berishida hisoblanadi. Ayni paytda ularning vazifalari turlichadir. Bunda o'z-o'zidan manbashunoslikning tarixga nisbatan mustaqil ekanligi haqidagi xulosa kelib chiqadi. Manbalar bevosita tarixiy jarayonlarni aks ettiradi va jamiyat o'tmishini o'rganishda vosita bo'ladi. Xalqlarning urf-odatlari, tili va insonlar tomonidan yaratilgan va bizgacha yetib kelgan barcha moddiy madaniyat buyumlari,

yozma yodgorliklar bunga imkon beradi. Manbalar har qanday tarixiy tadqiqotning asosi hisoblanadi. Ularning shakli va mazmunini chuqur dialektik birlikda o'rganmay turib, jamiyat rivoji tarixini ilmiy jihatdan anglash mushkul. Manbashunoslik manbalar xususiyatini o'rganar ekan, turlicha, ijtimoiy axborotlarni oluvchi, uni tanqidiy nuqtayi nazardan tekshiruvchi va talqin qiluvchi usullarni real asosda ishlab chiqadi. Shu bilan birga, u asarlarning madaniyat hodisasi sifatidagi baholar mezonini shakllantiradi. Shuning uchun ham manbashunoslik tarixchi va boshqa ijtimoiy fan vakillari uchun tarixning an'anaviy metodologiyasi taqdim qiladigan nafaqat yordamchi tarix fani, balki, mustaqil soha bo'lib, manbalar haqidagi fandir. U fundamental ahamiyatga ega bo'lgan va o'ziga xos nazariy muammolarni ishlashga yo'naltirilgan. Manbalar inson haqidagi gumanitar fanlarning obyektiv asosini tashkil qiladi. Tarixiy manbalar shartli ravishda 6 guruhga bo'linadi: yozma, ashyoviy, etnografik, lingvistik, og'zaki va kino-foto-fono hujjatlar. Tarixchilar shuningdek, geografiya, antropologiya kabi fanlarning ma'lumotlaridan ham foydalanadilar.

O'rganilayotgan tarixiy manba ijtimoiy subyekt (inson yoki odamlarning bir guruhi) tomonidan yaratiladi va vaqt o'tishi bilan o'tmish haqidagi bilimlar manbasiga aylanadi.

Tarixchining manba ustida ishlash jarayonida matn yaratuvchi va tadqiqotchi madaniyatlarining o'zaro ta'siri ro'y beradi. Tarixchi faol tomon: u o'zaro ta'sirni tashkil qiladi. Manbaning mazmunini to'g'ri baholash va uning mohiyatini ochish uchun tarixchi manba vujudga kelgan davr tarixini yaxshi bilishi lozim.

Tarixiy tadqiqot asosiga qo'yilgan manbalarni o'rganish tarixchining ishidagi birinchi va eng zarur bosqichdir. Bu jarayonda uning faktlardan iborat poydevori yaratiladi va keyinchalik uning ustida tarixiy tadqiqotning butun binosi quriladi.

Bundan kelib chiqqan holda manbashunoslik quyidagi vazifalarga ega: birinchidan, yangi manbalarni izlab topish;

ikkinchidan, hujjatlardagi ma'lumotlarning haqqoniylig darajasini aniqlash; uchinchidan, manbalardan haqqoniy axborotni olish usullarini ishlab chiqish.

Manbalardan foydalanishning vositalari va usullari antik davrdayoq boshlangan. Manbashunoslik XIX asrga kelib tarix fanining alohida bir yo'nalishi sifatida tarix fanining nazariyotchilaridan biri, nemis tarixchisi Leopold fon Ranke g'oyalari ostida to'la shakllanib bo'lgan. U birlamchi manbalarni chuqur bilish va faktlarga to'g'ri munosabatda bo'lish tarixiy faktlarni haqqoniy yoritishga yordam beradi, deb hisoblar edi.

Yevropadan manbashunoslik rivojiga oid ko'pgina g'oyalari Rossiyaga kirib keldi. Unga o'z navbatida pozitivizm, markizm va tarixiy materializm ta'sirini ko'rsatdi. Ushbu nazarayalar ta'siri va o'z davri mafkurasi tomonidan belgilangan nolim vazifalar ostida sovet manbashunosligi shakllandi. Bu tadqiqotchilararning yondashuv va usullarida ham aks etdi. Mafkuraning ta'siri sovet davrigacha bo'lgan manbalar tahlilida ham yaqqol ko'rindi. Biroq, sovet davrining so'nggi yillarida manbashunoslik tadqiqotlari yuzakki ko'rinishda bo'lib qoldi, chunonchi, manbalarni (mamlakat rahbariyati tomonidan qabul qilingan hujjatlarni) tanqid qilishga yo'l qo'yilmas edi.

SSSR parchalanganidan keyin manbashunoslik boshqacha mazmun kasb etdi. Mustaqillikni qo'lga kiritgan davlatlar, xususan, O'zbekistonda mutaxassislar u yoki bu manbaning ahamiyatini haqqoniy baholash va ilmiy iste'molga kiritish imkoniga ega bo'ldilar. Bu O'zR MDA fondlari materiallari va O'zR FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi va boshqa arxiv muassasalari hujjatlariga ham tegishlidir.

O'zbekistonda manbashunoslik tarix fani kabi davrlarga bo'lingan va u quyidagi xronologik bosqichlarga ega:

- O'rta Osiyoning qadimgi va ilk o'rta asrlar tarixiga oid manbalar;
- Markaziy Osiyoning o'rta asrlar tarixiga oid manbalar;

- Xonliklarning XVI–XVII asrlar tarixiga oid manbalar va asarlar;
- Mustamlaka davri tarixiga oid manbalar;
- Sovet davri tarixiga doir manbalar va hujjatlar;
- Mustaqillik davri manbalari va arxiv hujjatlari.

Yaratilgan darsliklarda shu xronologik davrlashtirishga amal qilingan. Shuni ta'kidlash lozimki, "Manbashunoslik" ixtisosligi bo'yicha darslik yaratish yo'lida bir qancha urinishlar bo'lgan. 1992-yilda T.S. Saidqulov birinchilardan bu ishga qo'l urib, tarixshunoslik kontekstidagi "O'rta Osiyo xalqlari tarixinining tarixnavisligidan lavhalar" (o'zbek, rus tillarida) darsligida manbashunoslik fani tarixini ham yoritib bergen. Keyingi nashr akademik B.Ahmedov qalamiga mansub bo'lib, uning 2001-yilda nashr etilgan "O'zbekiston tarixi manbalari" asari O'zbekiston tarixi manbashunosligi bo'yicha birinchi umumiy darslik maqomini oldi. Bakalavr ta'lim yo'naliishlari talabalari uchun maxsus "Manbashunoslik" darsligi A. Madraimov va G. Fuzailova tomonidan 2008-yilda chop etilgan.

Taqdim qilinayotgan yangi darslik O'zbekiston oliv o'quv yurtlari tarix fakultetlari bakalavriat yo'naliishlarining manbashunoslik, tarixshunoslik va arxivshunoslikka ixtisoslashgan kafedralari talabalari uchun mo'ljallangan. Mazkur darslik aynan manbashunoslik va tarixshunoslik sohalarida ko'p yillar davomida tadqiqotlar olib borayotgan olimlar tomonidan yaratilganligi bilan e'tiborga loyiq. Bu o'quv adabiyotini yaratishda O'zR FA O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha muvoqlashtiruvchi-metodik markaz, Tarix instituti, Sharqshunoslik instituti ilmiy xodimlari va O'zbekiston Milliy universiteti professor-o'qituvchilari ishtirok etdilar. Unda chuqurlashtirilgan va kengaytirilgan tarzda manbashunoslikning nazariy masalalari, tahlil usullari, manbalarni o'rganishning amaliy tajribasi, ulardan foydalanish yo'l-yo'riqlari batafsil ko'rsatilgan.

Darslikda O'rta Osiyoning qadimgi va ilk o'rta asrlar tarixi davriga oid arxeologik manbaviy ashyolardan tortib to yozma manbalargacha tavsif berilgan.

O'zbekiston tarixining o'rta asrlar davriga oid arab-fors, turk tillaridagi qo'lyozma manbalar xronologik ketma-ketlikda berilgan bo'lib, ularning har biri alohida ta'riflangan. XIII-XVIII asrlardagi O'rta Osiyo tarixiga tegishli rus va Yevropa tillaridagi manbalar tavsifi alohida mavzu sifatida taqdim qilingan. Kitobda O'zbekiston tarixining xonliklar davriga oid yozma manbalar, ularning yaratilish sabablari, tavsifi uchun ham keng o'rin ajratilgan.

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshidagi tarixiy jayonlari aks etgan mahalliy qo'lyozma manbalar, rus olim va sayyohlarining asarlari, kundaliklari, esdaliklari, diplomatik muniyya, elehitlik va ekspeditsiyalar natijasida yaratilgan manbalar xususida batassil ma'lumotlar berilgan.

O'zbekistonning sovet davri tarixi manbalari ham darslikdan alohida bo'lim sifatida o'rin olgan. Bu yerda O'zbekistonning arxiv fondlari, xususan, Markaziy davlat arxivi fondlarida saqlanayotgan hujjatlar va materiallar klassifikatsiya qilingan.

O'zbekistonda istiqlol yillarida yaratilgan manbalar, xususan, respublikada ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalarda bo'layotgan islohotlarni o'zida aks ettirgan huquqiy-normativ hujjatlar va ularning tahlili berilgan.

O'zbekiston Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning jamiyatning barcha sohalariga oid islohotlar va ular zaminida yuz berayotgan tub o'zgarishlarni ifoda etuvchi asarlari, chiqishlari va nutqlariga yangi davrning muhim tarixiy manbalari sifatida baho berilgan.

Ko'rsatilgan har bir xronologik davr darslikda manbalarning xarakteridan kelib chiqqan holda bir necha mavzularni o'z ichiga oladi.

Mazkur o'quv adabiyotidan nafaqat talabalar, balki mafistratura talabalari, tadqiqotchilar, tarix va yozma manbalarga qiziquvchi keng kitobxonlar foydalanishlari mumkin.

Mavzular quyidagi olim va mutaxassislar tomonidan tayyorlangan: Kirish – t.f.d., professor **D.A. Alianova**; 1-mavzu – s.f.d., prof. **Z.I. Munavvarov**; 2-mavzu – t.f.n., k.i.x. **B.B. Aminov**; 3-mavzu – t.f.d., akademik **A.S. Sagdullayev** va **J.E. Tog'ayev**; 4-mavzu – t.f.n., dots. **M.M. Ismoilov**; 5-mavzu – **M.B. Rahmonqulova**; 6-mavzu – t.f.n. **X.M. Mamadaliyev**; 7-mavzu – t.f.n., k.i.x. **O. Bo'riyev**; 8-mavzu – t.f.d., akademik **D.Yu. Yusupova**, **akademik B.A. Axmedov**; 9-mavzu – t.f.n. **Sh. Qo'ldoshev**; 10-mavzu – t.f.n., dots. **Z.A. Saidboboyev**; 11-mavzu – t.f.n., dots. **Z.A. Saidboboyev** va **G.N. Saidboboyeva**; 12-mavzu – t.f.d., prof. **S.B. Shadmanova**, **t.f.d., prof. N.A. Abduraximova**; 13-mavzu – t.f.d., prof. **D.X. Ziyoyeva** va **D.B. Rasulova**; 14-mavzu – t.f.d., prof. **Q.K. Rajabov**; 15-mavzu – t.f.n., dots. **X.A. Buriyeva** va t.f.n. **S.A. Zaxidova**.

"Manbashunoslik" darsligini tayyorlashda quyidagi ishchi guruh faoliyat olib bordi: t.f.n., k.i.x. B.B. Aminov, t.f.n., dots. Z.A. Saidboboyev, t.f.n., dots. Z.B. Rahmonqulova, t.f.n., dots. X.A. Buriyeva, t.f.n. G.M. Taniyeva, D.A. Choriyeva, J.X. Adilov, S.A. Xamrayev, Z.E. Xalilova.

Mualliflar jamoasi darslikni kelgusida takomillashtirish yuzasidan bildirilgan amaliy fikrlar uchun avvaldan minnatdorchilik bildiradi.

## MANBASHUNOSLIK FANI PREDMETI VA TASNIFI

### 1-MAVZU: MANBA TUSHUNCHASI. MANBALARNI TURKUMLASH

*Manba tushunchasi. Manbalarning tadqiqotlar uchun ahamiyati. Birlamchi va ikkilamchi manba tushunchasi. Turkumlashdagi asosiy tamoyillar: manbalarni mazmuniga, kelib chiqishiga va yo'nalishiga qarab ajratish. Tarixiy manba. Manbalarning asosiy turlari: moddiy yodgorliklar, ma'naviy yodgorliklar. Tarixiy manbalarning shakl va mazmuniga qarab guruhlarga bo'linishi: moddiy (ashyoviy) manbalar, etnologik manbalar va folklor, lingvistik manbalar, og'zaki manbalar. Yozma manbalar. Yozma manbalarning asosiy xillari. Adabiy manbalar, yilnomalar, xronikalar. Epik yodgorliklar. Aktlarga oid hujjatlar: yorliqlar, aktlar, xatlar, yuridik-qozixonada hujjatlari. Arxiv manbalari: normativ va ijroiya hujjatlari; statistik materiallar, jamoat tashkilotlari hujjatlari. Diplomatik hujjatlar, memuarlar, davriy matbuot materiallari. Elektron hujjatlar.*

**“Manba” va “tarixiy manba” tushunchalarining ta’riflari.** Inson, jamiyat, davlat, turli davrlarda dunyoning har xil joylarida sodir bo’lgan voqealari va hodisalar haqidagi ma'lumotlar faqat tarixiy manbalardan olinadi. Zero, ongli va maqsadli faoliyat jarayonida inson tomonidan yaratilgan asar-

lar tegishli shaxslar, davrlar va manzillar to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni o'zida mujassam etgandir. Bunday ma'lumotlarni olish uchun tarixiy manbalarning paydo bo'lishi bilan bog'liq o'ziga xosliklarni tushunish lozim bo'ladi. Manbalarning umumiyligi jamlanmasi tegishli madaniyatning muayyan davrdagi proeksiyasi, ya'ni in'ikosi yoki "surati"ni tashkil etadi. Shuning uchun ham ular inson bilimlari va xalqaro tajribaning xazinasidir.

Har qanday manba inson ijtimoiy faoliyatining mahsulidir. Shuning uchun ham u subyektiv tabiatga ega. Zero, u o'tmishni shaxsiy subyektiv timsollar ko'rinishida aks ettiradi. Ayni paytda u obyektiv dunyo, tarixiy davrlar, mamlakatlar va xalqlarni aks ettirishning muayyan shaklini ifodalab, ularning real tarixiy borlig'ini namoyon etadi. Mazkur ma'noda tarixiy manbalar tarixiy voqelikni bilishning asosiy vazifasini bajarib, o'tmishdagi ijtimoiy hayot bilan bog'liq voqeя va hodisalarни rekonstruksiya qilish, ya'ni xayolan jondorlantirish imkonini beradi.

Ma'lumki, har qanday tushuncha muayyan ilmiy maktab kontekstida yaratilib, uning maqsad va vazifalarini ifodaganı sababli tizimli tarzda talqin etilishi zarur. Manba va uni tanqidiy o'rganish hamda tushunish (germenevtika) haqidagi tushuncha mumtoz qadimiyatga mansub adabiy asarlarning filologik talqini jarayonida vujudga kelgan. Bu faoliyat bilan muqaddas bitiklar matnnini tafsir qiluvchilar, ya'ni sharhlovchilar – ekzegetlar (mufassirlar), gumanistlar, mutafakkirlar va olimlar shug'ullangan. Shu tariqa XIX asrning boshlarida tegishli asar, uning muallifi g'oyasini tushunish, matnning tub ma'nosini idrok etishning umumiyligi tamoyillari shakllangan.

"Tarixiy manba" tushunchasining xilma-xil ta'riflari mavjud. Ulardan biri L. Derbovga tegishli bo'lib, uning fikricha "tarixiy manba tushunchasi ostida ijtimoiy hayotning real ko'rinishlari haqidagi tarixiy ma'lumotlar va inson hamjamiyati taraqqiyotining qonuniyatlarini o'zida ifoda etgan o'tmishning barcha qoldiqlari nazarda tutiladi. Mazmun-mohiyatiga ko'ra, bular – turli-tuman

mahsulotlar va inson faoliyatining boshqa izlarini, jumladan, moddiy madaniyatga tegishli ashyolar, yozma yodgorliklar, mafkuralar, urf-odatlar, tillar va hokazolarni o'z ichiga qamrab olibdi". A.S. Lappo-Danilevskiy tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra, "manba tarixiy ahamiyatga ega faktlarni o'rganish uchun yaroqli inson psixikasining amalga oshirilgan har qanday mahsulidir". O.M. Medushevskayaning ta'rifi bo'yicha, "manba – insonning umayyan maqsadga yo'naltirilgan faoliyati mahsuli bo'lib, undan igitimiy hodisalar va jarayonlar haqidagi ma'lumotlarni olish uchun foydalaniлади". V.O. Klyuchevskiy ta'rifiga ko'ra, "tarixiy manbalar – bu yozma yoki moddiy yodgorliklardan iborat bo'lib, ularda ayrim shaxslar va butun-butun jamiyatlarining mangulik qariga cho'kkан hayoti o'z aksini topgандир". S.F. Platonov tomonidan berilgan ta'rifda "keng ma'noda tarixiy manba tushunchasi o'tmishning har qanday qoldig'i o'zida ifodalaydi", deya ta'kidланади. M.N. Tixomirov bo'yicha, "tarixiy manba tushunchasi ostida bashariyat tarixi haqida guvohlik beruvchi o'tmishga oid har qanday yodgorlik tushuniladi". Tarixiy manbalarga berilgan ta'riflarning turliligidan qat'i nazar, ularning mohiyati 1833-yilda avstriyalik mashhur tarixchi Berngeym tomonidan manbagaga berilgan qisqa va lo'nda ta'rifda o'z ifodasini topgan, ya'ni "manba – bu tarixni tiklash uchun lozim material olinadigan narsadir".

Yuqorida gilardan ayon bo'ladiki, tarixiy manba tushunchasi ostida bashariyat tarixi haqida guvohlik beruvchi o'tmishning har qanday yodgorligi tushuniladi. Demak, qo'lyozmalar, bosma kitoblar, binolar, uy jihozlari, urf-odatlar, qadimgi lahjalarning zamoniaviy tillarda saqlanib qolgan unsurlari, qisqa qilib aytganda, o'tmishdagi tarixiy hayotning barcha qoldiqlari tarixiy manbalar vazifasini o'taydi.

Keltirilgan ta'riflardan "manba" va "tarixiy manba" tushunchalarining keng qamrovli voqelik ekanligi ayon bo'ladı: ayrim manbalar o'tmish qa'rige sho'ng'igan voqelikning bir qismidan yoki unga tegishli ashyolardan (mehnat qurollari, tangalar, arxeo-

logik yodgorliklar, ibodatxonalar, yorliqlar, xartiyalar, shartnomalar, vaqfnomalar va h.k.) iborat bo'lsa, boshqalari o'tmishdagi voqealari haqida xabar berib, ularning tavsifini keltiradi (solnomalar, xronikalar, badiiy asarlar, yodnomalar, kundaliklar, pandnomalar va h.k.). Shundan kelib chiqib, birinchi guruhga tegishli manbalar tarixiy voqealar haqida bevosita ma'lumot beruvchi osori atiqalar, ikkinchi guruh esa, ular haqida xabar beruvchining ongi orqali idrok etilgan bilvosita hikoya qiluvchi rivoyatlar deb nomlanadi.

Umumlashtirgan holda aytish mumkinki, tarixiy manbalar – bu tarixiy jarayonlar, alohida faktlar, sodir bo'lgan hodisalar ni o'zida mujassam etgan moddiy madaniyatga tegishli hujjat va predmetlarning bir-birini to'ldiruvchi majmuyidir. Ularning asosida u yoki bu tarixiy davr haqidagi tasavvurlar shakllantirilib, turli tarixiy voqealarni keltirib chiqargan sabab va oqibatlar haqidagi ilmiy gipotezalar ilgari suriladi. Shuning uchun ham manbaning haqiqiyligi va aslligi darajasini aniqlash uni tanqidiy o'rganishning eng muhim shartini tashkil etadi.

**Manbalarning tadqiqotlar uchun ahamiyati.** Har qanday tarixiy tadqiqot negizida muayyan manba yoki manbalar turkumi yotadi. Sodda qilib aytganda, manbalarsiz biror tarixiy tadqiqotni amalga oshirish amri maholdir. Zero, manbalar gumanitar, ya'ni inson va uning faoliyati haqidagi fanlarning obyektiv asosini tashkil etadi. Yevropa manbashunosligining asoschilarini bo'lgan Sh.-V. Langlua va Sh. Senobos "Tarixni o'rganishga kirish" asarida "tarix matnlar orqali o'rganiladi", deb ta'kidlaganlar. Bunda germenevtikaning orni beqiyosdir.


Germenevtika (yunoncha. ἐρμηνευτική dan – "tafsirlash san'ati", yunoncha ἐρμηνεύω dan – "tafsirlayman") – matnlarni tafsirlash, ya'ni tushuntirish san'ati, jumladan, mumtoz qadimiyatga (klassik davr)ga mansub matnlarni talqin etish va tushunish nazariyasidir. XX asrda adabiy matnlarni talqin etish nazariyasi asosida vujudga kelgan falsafiy yo'nalishdir.

Germenevtikaga bag'ishlangan birinchi umumlashtiruvchi o'sar muallifi nasroniylik mutafakkiri Avreliy Avgustin (354–430) bo'lib, uning kitobi "Nasroniylik fani yoki Muqaddas germenevtika va cherkovga xos balog'at asoslari" deb nomlangan. Germenevtika atamasi ko'proq bizgacha yetib kelgan muqaddas bitiklar matnlariga nisbatan ishlatilgan. Keyinchalik u qisman yoki buzilgan holda, tegishli sharhlarsiz tushunib bo'lmaydigan bizgacha yetib kelgan adabiy yodgorliklarning od ma'nosini tiklash haqidagi ta'limot mohiyatini kasb etган. Mazkur ma'noda germenevtika – bu filologik tanqidiy tahlil haqidagi fandir. Demak, germenevtika adabiyotshunoslikda alohida o'rın tutadi. Zero, har qanday adabiy yodgorlikni o'rganishda uni imkon qadar to'liqroq tarzda va xolisona talqin etish talab etiladi.

Germenevtikaning ushbu vazifasi tarix fani uchun ham benihoya muhimdir. Chunki tarixiy tasavvurlar, asosan, manbalar talqiniga suyanadi. Aytish joizki, germenevtikada "matn" deganda, nafaqat yozma asarlar, balki san'at asarlari, tarixiy voqeя va hodisalar hamda "idrok etish" mumkin bo'lgan barsha obyektlar tushuniladi. Ularni anglash bilan bog'liq jarayon deganda, "germenevtik doira" bo'ylab harakat qilish nazarda tutiladi. Bunda matn, bir tarafdan, tegishli davr va adabiy janr nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda o'rganiladi. Ikkinci tarafdan, matn muallifning ma'naviy hayotini tashkil etib, uning ma'naviy hayoti esa, tegishli tarixiy davrning bir qismidir. Tegishli matnning ushbu ikki kontekstda tasavvur etish, umumiyligidan xususiylikka o'tish va aksincha yo'nalishda harakatlanish – "germenevtik davra"ni anglatadi.

Germenevtika, shuningdek, matn tahlilining falsafiy uslubi bo'lib, uning rivojiga alohida hissa qo'shgan olimlar qatoriga mashhur faylasuflar Gadamer, Shleyermixer va Pol Rikyorlar kiradi.

Real vogelikni ilmiy o'rganish uni muayyan uslubda muhr langan shaklining mavjudligi bilan bog'liq. Vogelikning aynan



shunday muhrlangan “surati” mantiqiy bilish manbayini tashkil etadi. Demak, tarix fani manbalarsiz mustaqil ravishda mavjud bo’la olmaydi, zero, u o’tmishni, ko’p hollarda uzoq o’tmishni o’rganish bilan shug’ullanadi. Chunonchi, manbalarga murojaat etmay turib, real voqelikni bilib bo’lmaydi. Mantiqiy xulosa shuki, har qanday tarixiy tadqiqot, eng birinchi navbatda, manbalarga tayanadi.

Obyektiv borliqni subyektiv tarzda aks ettirgan manbadan kerakli ma’lumotni chiqarib olish uchun tarixchi bir qator shartlar va qoidalarga amal qilishi, uning xohish-irodasidan tashqarida bo’lgan sharoitga moslashishi zarur bo’ladi. Eng avvalo, tarixchi o’z tasarrufidagi manbaning aslligini aniqlashi lozim. Buning uchun yuksak iqtidor va mahorat talab qilinib, u yozuvning o’ziga xosliklari, yozuv uchun foydalanilgan materiallar, manba tilining xususiyatlari, uning leksikasi va grammatik shakllari, voqealar sanasi va manbada qo’llangan metrik (o’lchov) birliklar va yana ko’pchilikka noma’lum anchagina bilimlar sohibi bo’lishi zarur. Biroq hatto manba aslligining isboti ham uning haqiqiyligi, ya’ni bayon etilgan ma’lumotlarning real voqelikni aks ettirishiga kafolat bermaydi. Zero, ko’pincha manbadan olingan ma’lumotlar noaniq, noto’g’ri va, hatto, yolg’on bo’lishi mumkin. Ayrim hollarda manbada keltirilgan ma’lumotlarning ataylab buzib ko’rsatilgani uning muallifi ushbu voqealardan qanchalik xabardor ekani yoki ularning qanday bayon etilishidan manfaatdor bo’lganligini nazarda tutish lozim bo’ladi.

Ko’pincha, manbalarda aks ettirilgan ma’lumotlarning haqiqiyligini bilish uchun juda keng ko’lamli izlanishlarni amalga oshirishga to’g’ri keladi. Manbashunos-tarixchidan tegishli manbaning paydo bo’lishi bilan bog’liq tafsilotlarni aniq-ravshan tasavvur etish, muallifning milliy, diniy, irqiy va boshqa mayllarini bilish taqozo etiladi. Bular barchasi haqiqatni bilib olish uchun lozim. Bularsiz manbada keltirilgan ma’lumotlarning obyektiv negiziga yetib bo’lmaydi.

Tarixchining manbani o'rganish bilan bog'liq faoliyati, o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, ikki madaniyat hamkorligidan iborat jarayondir: matnni yaratgan taraf (muallif) madaniyati va uning tadqiqotchisi madaniyati. Bunda tarixchi, ya'ni tadqiqotchi faol tarafdir: u bunday hamkorlikni tashkillashtiruvchi rolini ado etadi. U hatto manbaga o'z qarashlarini "yuklashi" va uning mazmunini o'zi uchun yaqin bo'lgan qadriyatlar va tushunchalar tizimiga muvofiq talqin etishi mumkin. Ammo bunday qilinganda, o'tmishda mavjud bo'lgan real vogelik ochilmay qoladi. Demak, manbani to'g'ri o'rganish va tushunishning yagona yo'li uning o'zi tegishli madaniyat ramzlari va tilida ustuvor bo'lgan qadriyatlar kontekstida, bog'liqlikda talqin etishdir.

Inson faoliyati natijasida obyektlashtirilgan madaniyat mahsuli bo'lgan tarixiy manba barcha gumanitar fanlar uchun, ular o'rganadigan predmetlarning xilma-xil ekanidan qat'i nazar, umumiy obyekt sifatida xizmat qiladi.

**Birlamchi va ikkilamchi manba tushunchasi. Manbalarni tasniflash tamoyillari.** Tarix fani tomonidan manbalarning bir qator kategoriylar, ya'ni toifalarga bo'lish taomillari ishlab chiqilgan. Turli davrlarda ushbu toifalar turlicha nomlangan: guruuhlar, sinflar, turlar va hokazo. Manbalar, ularda ifodalangan ma'lumotlarning birlamchi yoki ikkilamchi ma'lumot ekanligidan kelib chiqib, turkumlanadi. Bundan "birlamchi va ikkilamchi (ikkinchchi "qo'l'dan olingan) manbalar" haqidagi tushuncha kelib chiqqan. Mazkur masala boyicha XVII–XIX asrlarda Yevropa mamlakatlari kechgan qiziqin bahslarni umumlashtirgan nemis tarixchisi I.G. Droyzen (1809–1884) manbalarni tasniflashning asosi sifatida manba va fakt o'ttasidagi nisbatdan foydalanish tamoyilini taklif etgan: ayrim tarixiy faktlar bizgacha bevosita yetib kelgan (tarixiy "qoldiqlar"), boshqalari esa uchinchi shaxslarning ular haqida bergan ma'lumotlari orqali kelgan tarixiy an'analar (nutq, yozuv, tayyor) bo'lib, ular og'zaki (qo'shiq, afsona, hikoya, latifa, maqol,

otkir so'zlar), yozma (shajara, tarixiy bitiklar, esdaliklar yoki xotiralar, risolalar, gazetalar va h.k.), tasviriy san'at (jo'g'rofiv xaritalar, tarixiy shaxslar ikonografiyasi, shaharlar tarhi, suratlar, mo'yqalam, haykaltaroshlik). Mazkur voqelikdan kelib chiqqan yevropalik olimlar ularni "birlamchi" va "ikkilamchi" manbalarga bo'lishgan. Shu bilan bir qatorda, Droyzen ushbu ikkita belgining bir-biriga qorishib ketish holatlari mavjudligini ham inkor etmagan. Misol uchun, "aralash" manbalar qatoriga u izoh tarzidagi yozuvlarga ega moddiy manbalarni kiritgan.

"Tarixiy manba" birikmasidagi "tarixiy" aniqlashtiruvchi sifat manbaning xususiyatlarini emas, balki tegishli manbani o'z tadqiqotlariga jalb etayotgan ilmiy sohaning o'ziga xosligini – o'tmishni anglash, insoniyat tarixini o'rganishni (tarix sohasi) ifodalaydi. M. Blokning fikricha, tarixiy manbalarning xilma-xilligi deyarli cheksizdir. Inson tomonidan hikoya qilingan yoki yozilgan bor hodisalar, u yasagan hamma ashylolar, uning qo'li tekkan barcha narsalar – u haqda guvohlik berishi mumkin va lozim. Shunga ko'ra, ko'pchilik tarixiy ensiklopediyalarda tarixiy manbalar – tarixni o'zida bevosita aks ettirgan va insoniyat o'tmishini o'rganish imkonini beradigan, ya'ni o'tmishda inson tomonidan yaratilgan va moddiy madaniyat predmetlari, yozma yodgorliklar, mafkuraviy qarashlar, urf-odatlar va tillar shaklida bizgacha yetib kelgan barcha voqeliklarni qamrab olaadi ma'nosida ta'riflanadi. Bundan "tarixiy manba" tushunchasi ostida inson faoliyati jarayonida yaratilgan yoki uning ta'sirini o'zida mujassam etgan barcha narsalar tushunilishi ayon bo'ladi. Inson faoliyatining natijasi bo'lgan har qanday moddiy mahsul, o'z davrining voqeligidan kelib chiqib yaratilgan maqsadlardan tashqari, yana bir-ikkilamchi maqsadga xizmat qiluvchi, ya'ni muayyan voqelik bilan bog'liq jarayonlarni o'zida aks ettirgan tarixiy manba vazifasini ham o'taydi.

**Manbalarni tasniflash.** Tarixiy manbalarning tabiatи turlichadir. Shuning uchun manbashunoslik fanida tarixiy

manbalarni tasniflashning turli tizimlari mavjud. Ularning barchasi, shubhasiz, manbaga berilgan ta'riflarning mohiyati dan kelib chiqadi. Shunga ko'ra, manbalarni tasniflashning bir necha turlarini keltirish mumkin:

1. Nemis olimi I. Droyzen tomonidan taklif etilgan manbalarni yaratilish maqsadlariga ko'ra tasniflash. Ushbu uslubga ko'ra, manbalar uch guruhg'a bo'linadi: aniq maqsadsiz (faktlarni bevosita ifoda etuvchi qoldiqlar), maqsadli (guvohliklar) va aralash (yodgorliklar).
2. Manbalarni tarixiy faktga yaqinligi darajasiga qarab tasniflash. Bu tasnif E. Berngeym tomonidan 1889-yilda taklif etilgan. Unga ko'ra, tarixiy manbalar qoldiqlar va an'analarga bo'linadi. Manbalarni bu tarzda bo'lish, demakki, manbashunoslik tahlilini ham bunday tasniflash o'z vaqtida anchagina keng tarqalgan edi.
3. Manbalarni ularning eltuvchilariga qarab tasniflash. Bu uslub E. Frimen asarlaridan ma'lum bo'lib, u manbalarni quydagiicha tasniflagan: moddiy (yodgorliklar), yozma (hujjatlar) va og'zaki (rivoyatlar). Ushbu tizimning biroz o'zgartirilgan lo'rinishi sovet davri manbashunosligida o'z ifodasini topgan edi. Unda manbalar, ma'lumotlarni kodifikatsiyalash va saqlash uslublariga ko'ra, yetti turga ajratilgan.
4. A. Ksenopol tomonidan taklif etilgan manbalarning yaratilishidan ko'zlangan maqsad va eltuvchisining turiga qarab aralash tasniflash usuli: moddiy (yodgorliklar), aniq maqsadsiz va idrok etilgan yoki maqsadli (hujjatlar).
5. Tarixiy faktning manbada aks ettirilishi uslubiga asoslangan K. Erslev tasnifi: qoldiqlar (odamlarniki va tabiat qoldiqlari), odamlar tomonidan yaratilgan jihozlar, o'tmis hodisalar haqidagi taawwur beruvchi tegishli davr hayotiga oid faktlar.
6. A.S. Lappo-Danilevskiy tasnifi: tarixiy voqelikni aks ettiruvchi manbalar va umuman voqeliklarni aks ettiruvchi manba. Birinchi guruhg'a oid manbalaridan hodisalar haqida bevosita

ta tasavvurga ega bo'lish mumkin, ikkinchi guruh ma'lumotlari "rasshifrovka", ya'ni ularda yashiringan ma'nolarni "chaqish" va kashf etishni taqozo qiladi.

7. Sovet davri manbashunosligida manbalarni taraqqiyotning markscha-lenincha qolipiga joylashtirilgan "ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar"ga asoslangan mutlaqo noilmiy tasnifi ham mavjud edi.

8. Manbalarni turlariga ko'ra guruhlashtirish mumkin: solnomalar, aktlar, memuarlar, davriy matbuot va h.k.

Zamonaviy manbashunoslikda manbalarni, asosan, uchta yirik guruhga bo'lish qabul qilingan:

Birinchi va, eng ko'p sonli guruhni *yozma tarixiy manbalar* tashkil etib, ular, o'z navbatida, quyidagi asosiy turlarga bo'linadi:

- 1) dunyoda mavjud bo'lgan huquqiy tizimlarga oid qonunchilik manbalari;
- 2) aktlar, yorliqlar materiallari;
- 3) ish yuritishga oid joriy hujjatlar;
- 4) statistik hujjatlar, shuningdek, iqtisodiy va jug'rofiy tabiatga ega hujjatlar;
- 5) kelib chiqishi shaxsiy tabiatga ega hujjatlar (memuarlar, kundaliklar, yozishmalar (munshaot));
- 6) davriy matbuot;
- 7) publitsistik va adabiy yodgorliklar.

Ikkinchi guruhga *moddiy (ashyoviy) yodgorliklar* kiradi: me'moriy ansamblilar, turar-joy majmularining qoldiqlari, hunarmandchilik mahsulotlari, san'at asarlari, mashinalar, harbiy texnika va boshqalar. Moddiy yodgorliklar, ya'ni moddiy manbalarning ulkan qismi hamon yer ostida qolib ketmoqda. Ularни qidirib topish bilan arxeologiya shug'ullanadi. Arxeologiya – qazilmalarni amalga oshirish yo'li bilan asosan qadimgi va o'rta asrlar moddiy yodgorliklarini o'rganishga ixtisoslashgan fan bo'lgani uchun ham, hali yozuv mavjud bo'lмаган qadimgi

davrlar va xalqlar tarixini rekonstruksiya qilishda uning roli nihoyatda muhimdir.

Tarixiy manbalarning uchinchi guruhi turli xalqlar, ularning nomlanishi, yashash areallari, madaniy hayotining o'ziga xos jihatlari, shuningdek, diniy aqidalari va urf-odatlari haqidagi ma'lumotlarni o'zida mujassamlashtirgan *etnografik yodgorliklardan* iboratdir.

Etnografik manbalar orasida eng qadimgi yozma hujjatlar alohida ahamiyatga ega. Bunday hujjatlar papiruslar, mixxatlar, xonnomalar, xronikalar turli tabiatga mansub xilma-xil materialdan iborat. Etnografik manbalarning yana bir qimmatli guruhini tasviriy manbalar tashkil etib, ular rasmlar, naqshlar, haykaltoshlik asarlari va boshqalarni qamrab oladi. Masalan, milliy naqshlar, ko'pincha, qadimgi mifologiya bilan bog'liq manzaralar va ko'rinishlarni aks ettiradi, shuningdek, diniy aqidalarning o'ziga xosliklari va otashparastlik davri bilan bog'liq sujetlarni ifodalaydi.

Ta'kidlash joizki, arxeologik va etnografik manbalar bir-biri bilan uyqashib ketadi. Zero, ushbu ikki ilmiy yo'nalish kesishadigan manzillar ko'pdir. Shuning uchun ham ular foydalana-digan manbalar, ko'pincha, umumiy bo'lib, mutaxassislarining fikriga ko'ra, ko'pchilik mavzularni, jumladan, xo'jalik yuritish tarixi, turargohlar va hokazolarni o'rganishda ushbu ikki fanga oid manbalarni bir-biridan ajratish nihoyatda mushkul ishdir. Chunki etnografik materiallar arxeologiyani chuqurroq anglashga yordam berib, arxeologik topilmalarsiz etnik tarixni tushunish anchagina qiyin.

Bulardan tashqari, manbashunoslik fanida manbalarning yana bir qator guruhlari mavjudligi e'tirof etilib, ulardan biri turli davrlar va sivilizatsiyalarga oid xalq og'zaki ijodi mahsuli bo'lgan folklordir. Folklor manbalarga muayyan shaxs yoki voqeа haqidagi xalq rivoyatlari, afsonaviy qahramonlar haqidagi epik dostonlar, avloddan avlodga ko'chib kelayotgan o'tmis haqidagi hikoyatlar, xalqona poetik rivoyatlar, ya'ni xayoliy

qahramonlar ishtirokidagi mo'jizaviy voqealar haqidagi ertaklar va boshqalar kiradi. Folklor guruhiga mansub manbalar, xuddi arxeologik manbalar kabi, eng qadimgi tarixiy davrlarni jonlantirish, ya'ni ular haqidagi tasavvurlarni shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Folklor guruhiga mansub manbalarga turlicha munosabatlar mavjud. Ayrimlar ularning real voqelikni aks ettirishiga shubha bilan qarasalar, boshqa bir guruh, ularning orasida professional tarixchilar ham bor, folklor tabiatli manbalarni ideallashtirishga moyildir. Ikkinci guruhning mashhur va killari qatoriga XX asrda yashagan Nikolay Rerixni kiritish mumkin. U "Koinotning yetti buyuk siri" nomli asarida u "ha, rivoyatlar – uydirma emas, balki voqelikning ayni o'zginasidir... Rivoyatlar mavhum o'tmishgagina tegishli deb o'ylash noto'g'ri. Sog'lom aql Koinotning har bir kunida yaratilayotgan rivoyatlarni ilg'ab oladi. Har bir xalqning yutug'i, har bir dohiy, har bir falokat, har bir qahramonlik qanotli rivoyatlarga aylanadi. Shuning uchun ham rivoyatda o'z ifodasini topgan haqiqatni inkor etmaymiz, balki uni ko'z qorachig'iday asrab-avaylaymiz", deb yozgan edi.

Tarixiy manbalarning yana bir guruhini tilshunoslik fani bo'lgan lingvistikaga oid ma'lumotlar tashkil etadi. Qadimgi tarix manzaralarini tiklashda lingvistikaning tarmoqlaridan biri bo'lgan toponimika alohida o'rin tutadi. U jug'rofiy nomlar, ya'ni joy nomlarini o'rganish orqali tarixiy manzarani aniqlashtirishga yordam beradi.

XX asr boshlaridan industrial texnologiyalarning tez taraqqiy etishi natijasida tarixiy manbalarning yana bir spetsifik turi – foto va kinoxronika tabiatli manbalar guruhi shakllana boshladi. Ular eng yangi tarixni harakatdagi retrospektivada aks ettirish imkonini yaratdi.

Bugungi kunda tarixga oid barcha manbalarni shartli ravishda olti guruhga ajratish qabul qilingan. Ular – yozma, mod-

diy, etnografik, lingvistik, og'zaki hamda kino, fono va fotomateriallardir.

**1. Manbalarni turkumlash. Manbalarning asosiy turlari.** Tarixning har bir davri uchun manbalarning aynan o'sha davr muhitiga xos turlarga tasniflash uslubini belgilash mumkin. Umuman olganda esa, manbalarni quyidagi 5 asosiy turga bo'lishi ko'pelilik tomonidan qabul qilingan:

- tabiiy-jug'rofiy manbalar;
- etnografik manbalar;
- meoddiy manbalar;
- badiiy-tarixiy manbalar;
- yozma manbalar.

Eshg' yasigi (tarix) davri uchun manbalarning yana ikki turini alohida ajratib ko'rsatish qabul qilingan. U manbalarning fono, foto va kinolodijalari guruhi hamda elektron hujjatlar guruhidir.

Zikr etilgan manba turlarining yaxlit birligidagi ko'rinishi yagona informatsion-kommunikativ maydonni tashkil qiladi. Har bir hujjal, manba sisatida, ana shu maydondagi bir zarradan iboratdir. Quyida manbalarning zikr etilgan turlari mazmun-mohiyatining qisqacha tavsifi keltiriladi:

**1. Tabiiy-jug'rofiy manbalar** landshaftlar, ob-havo, topiq, o'simlik va atrof-muhitning boshqa unsurlari haqidagi ma'lumotlarni o'zida mujassamlashtirgan. Bunday ma'lumotlar, bir jihatdan, u yoki bu hududning rivojida tabiiy muhitning o'rnnini ko'rsatsa, ikkinchi tarafdan, insonning tabiatga o'tkazgan ta'siri oqibatlari haqidagi ma'lumotlarni aks ettiradi. Demak, ular nafaqat insonning tabiatga ta'siri, balki tabiatning insonga ta'sirini ham ko'rsatib turadi. Misol uchun, inson atrof-muhitga qarab o'zining turargohi turini tanlaydi. U ochiq, yarim ochiq yoki mutlaqo yopiq bo'lishi mumkin. Uning shakli, eng avvalo, tegishli hududdagi ob-havo va tabiiy muhitga bog'liqdir. Bir daryoning o'zi ayrim hollarda faqat transport vositasi sisatida, boshqa paytlarda esa, bundan tashqari, yana

energiya va oziq-ovqat manbayi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bundan u oqib o'tadigan hududlardagi rivojlanish jarayonlari bevosita ta'sirlanadi. Aynan bir hududdan muayyan davrlarda ovchilik mintaqasi, boshqa paytlarda – qishloq xo'jalik yerlari, keyinroq esa, foydali qazilmalar maydoni sifatida foydalangan bo'lishi mumkin. Inson ta'siri ostida ma'lum hududlardagi flora va fauna o'zgarib boradi, transport vositasi bo'lib xizmat qilayotgan daryolar kanallar tizimi bilan ta'minlanib borishi va buning natijasida yangi yerlar o'zlashtirilishi, ularda yangi shahar va qishloqlar barpo etilishi mumkin. Ayrim hollarda hatto dengizlarning muayyan qismi, masalan, Yaponiya va Bir-lashgan Arab Amirliklaridagi kabi, quruq maydonlarga aylan-tirilishi kuzatiladi. Odamlar o'simliklarni yoqib yuboradilar, botqoqliklarni quritadilar, toshlardan foydalananib uy-joy qura-dilar, to'g'onlar, tegirmonlar, ko'priklar bino etadilar, kanallar va shaxtalar qaziydilar. Haddan ziyod chorva boqilgani yoki o'rmonlarning ayovsiz kesilishi hamda boshqa omillar flora va fauna o'rtasidagi uyg'unlikka putur yetkazadi. Bularning natijasida tegishli hududning landshafti mutlaqo o'zgarib ketadi. Ammo zikr etilgan va boshqa omillar ko'rsatgan ta'sir darajasini har bir holat bo'yicha o'tkaziladigan aniq tahlillar, tadqiqotlar natijasida aniqlangan sabablarning umumiyligini yaxlitligidan kelib chiqqan holdagina oydinlashtirish mumkin bo'ladi.

**2. Etnografik manbalar** qadimiy texnologiyalar, urf-odatlar, fikrlash tarzi ko'rinishlari (stereotiplar), turarjoylarning turlari, liboslar, yeguliklar, folklor, zamонавиј tillarning qadimgi qatlamlarini o'zida mujassam etgandir. Bularning barchasi, umumlashtirilgan tarzda, "arxaika" degan ilmiy isti-loh bilan ifodalanadi. Qoloq xalqlarga oid arxaikani o'rganish orqali bugungi peshqadam millatlar va jamiyatlar rivojining ilk bosqichlari haqidagi tasavvurlarni shakllantirish mumkin. Ularning barhayot va muntazam rivojlanishdagi jamiyatlar si-fatidagi o'ziga xosliklarini idrok etish imkonini paydo bo'ladi.

**3. Moddiy manbalar** arxeologiya yodgorliklari, binolar, mehnat qurollari, transport vositalari, uy buyumlari, qurolyarog' va hokazolarni qamrab oladi. Moddiy manbalar tarixchiga tegishli davrlarda erishilgan ilmiy-texnik yutuqlarni ochib beradi. Ular qishloq xo'jaligi va sanoatda qo'llangan texnikaning rivojlanganlik darajasini ko'rsatib, tegishli davr madaniyati xususiyatlarini ochishga yordam beradi. Tarixiy manbalar sifatida xizmat qiladigan arxeologik yodgorliklarning mazmuni va vazifasiga qarab quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin: 1) turargohlar va alohida uylar; 2) qabrlar; 3) tog'-kon qazilma joylari va ustaxonalar; 4) ibodatgohlar; 5) g'orlar; 6) suv inshootlari (qadimiy sug'orish tizimlari, kanallar, to'g'onlar, vodoprovodlar, sug'orish qurilmalari); 7) qadimgi dehqonchilik maydonlari; 8) yo'llar; 9) istehkomlar (mudofaa xandaqlari, sun'iy tarzda barpo etilgan to'siqlar va h.k.); 10) petrogliflar (qoyalarga chizilgan rasmlar); 11) alohida topilmalar. Mazkur tasnifni arxeologik manbalarni guruhlashtirishga ham tatbiq etish mumkin.

**4. Badiiy-tasviriy manbalar** o'z davri xususiyatlarini badiiy obrazlarda ifodalagan me'moriy va tasviriy san'at yodgorliklari, haykaltaroshlik va amaliy san'atning boshqa turlari mahsulotlaridan iborat. Ular tegishli davr va xalqlarning yashash tarzi va odatlari haqidagi muhim manbalar hisoblanadi. Masalan, portretlar va haykallarda tarixiy shaxslar siyoshi muhrlangan. Peyzajlar va muayyan janrda yozilgan tasviriy asarlarda, amaliy san'at predmetlarida aks etgan rasmlarda tarixiy jug'rofiya, turarjoylarning ko'rinishi, liboslar, turmush tarzi va boshqalar o'z aksini topgan bo'lib, ular tarixiy tadqiqotlar uchun muhim oziqa vazifasini o'taydi. Ayrim tasviriy san'at asarlari ijtimoiy tafakkur taraqqiyotiga oid muhim manba hisoblanadi. Misol uchun, fransuz rassomi O. Dom'e mo'yqalamiga mansub 5 mingta karikatura Fransiyaning 50 yillik tarixini o'zida ifoda etgani (Iyul monarxiyasidan Uchinchi Respub-

likagacha bo'lgan davr) bilan tarixda alohida shuhrat qozongan. O'rta asrlardan bizgacha yetib kelgan musulmon Sharqi qo'lyozmalaridagi miniatyuralarda ham, ayrim atoqli shaxslar siyemosidan tashqari, muayyan tarixiy voqealar o'zining badiiy ifodasini topgandir. Shuning uchun ham ulardan tarixiy manbalar sifatida foydalanilmoqda.

**5. Yozma manbalar** – harflar, raqamlar, notalar va yozuvning boshqa turlarida muhrlangan har qanday matn. Ularni asosan uchta yirik guruhga bo'lish mumkin:

- hujjat ko'rinishidagi manbalar (yorliqlar, vasiyatnomalar, vaqfnomalar, tilxatlar, garov xatlari va h.k.);
- qonunchilik manbalari (hukumat qarorlari, parlament aktlari, hukmdorlar farmonlari, o'zini o'zi boshqarish organlari qarorlari va h.k.);
- narrativ (bayoniy) manbalar – solnomalar, xronikalar, yozishmalar, tarjimai hollar, shajaralar, memuarlar va h.k.

**6. Fono-foto-kinohujjatlar** – dagerrotiplar (otosuratga olishning zamonaviy texnologiyasi ilk pallasiga xos tasvirlar), fotosuratlar, ovozli yozuvlar, hujjatli kinolentalar va hokazolar.

**7. Elektron hujjatlar** – bu elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va uni identifikasiya qilishda foydalaniladigan elektron hujjatning boshqa rekvizitlariga ega bo'lgan elektron shaklda qayd qilingan axborot. Elektron hujjatlar elektron texnik vositalar hamda axborot tizimi xizmatidan foydalangan holda yaratiladi, qayta ishlanadi va saqlanadi.

**Yozma manbalar** tarixiy tadqiqotlarning ko'p sonli qismini tashkil etadi. Yozma manbalar guruhiga quyidagilar kiradi: hujjatlar, solnomalar, tarixiy tadqiqotlar, yodnomalar (memuarlar), vaqfnomalar, manoqiblar (hayotnomalar), qissalar va boshqa adabiy asarlar. Yozma yodgorliklarni muhrlash uchun yozishga yaroqli barcha materiallardan foydalaniladi. Ularning asosiylari qatoriga qog'oz, teri (pergament), papirus, yog'och, daraxtlar

ning po'stlog'i, suyak, sopol metall va boshqalar kiradi. Yozma yodgorliklarning shakli har xil bo'lishi mumkin: muqovalangan kitoblar, yozuvli o'ramlar, sopol, yog'och va metalldan yasalgan "taxtachalar", qoyalardagi yozuvlar va hokazo. Quyida yozma manbalarning ayrim guruhlarini qisqacha tavsifi keltiriladi.

**Hujjatlar.** Amaliy maqsadlar uchun yaratilgan barcha yozma yodgorliklar hujjatlar toifasiga kiradi. Ushbu maqsadlar siyosiy, iqtisodiy, madaniy, huquqiy va boshqacha tabiatga ega bo'lishi mumkin. Hujjatlar ikkita katta guruhga bo'linadi: davlat hujjatlari va xususiy hujjatlar. Ularning sanog'i davlat aktlari, qonundor va kodekslar, farmonlar va farmoyishlar, diplomatik va xususiy yozishmalar, bildiruvnomalar va yorliqlar, vasiyatnomalar va se'sidlik hisobotlari, inventar ro'yxatlar va odamlarning ro'yxatlari (monslan, qillar, humarmandlar, jangchilarining royxatlari), zoldad va qarz tilbotlari, cherkovlar va monastirlerning hisob-kitob daftarlari, xotira va qabr ustti yozuvlari (epitafiylar), imoratlardagi yozuvlar va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Sharqqa oid qol'yezma hujjatlarning dunyodagi eng yirik markazidan biri Abu Rayhon Beruniy nomidagi O'zbekiston DA Sharqshunoslik instituti bo'lib, uning fondlarida 60 ming – qol'yezma, 50 ming litografiya, 10 mingtacha XV–XX asrlarga mansub hujjat saqlanmoqda. Ularning aksariyat qismi arab, fars va turkiy tillardadir. Sharqshunoslik instituti fondlarida jumlangan asl nusxa hujjatlar mutaxassislar tomonidan olti guruhga bo'linadi: yorliqlar, vaqfnomalar, arizalar, cheklar, shaxarlar va e'lolar.

Ularning ichidagi eng qadimiy vaqfnama Ismoil Somoniylar tomonidan avlodlariga vaqf qilib qoldirilgan Buxoro atrofidagi qishloqlar haqidagi hujjatdir. Bu va boshqa qadimiy vaqfnomalar IX–X asrlarda tuzilgan bo'lsa, ularning eng so'nggisi 1923-yilga mansubdir.

Aytish joizki, musulmon mamlakatlarida davlatning oliy mafmuriy idorasidan chiqqan yorliqlar qimmatli tarixiy hujjat

lar hisoblangan. Jumladan, 1378-yilda Amir Temur tomonidan Xorazmdagi Darxon ota mavzesida istiqomat qilgan Abu Muslim avlodlariga berilgan imtiyozlar haqidagi “Inoyatnoma” yorlig‘ining ahamiyati benihoya kattadir.

Institutda Xiva xonligiga oid 650 hujjatning asl nusxasi va “Xiva qozilik daftarlari” deb nomlangan to‘rt jilddan iborat 40 mingga yaqin qo‘lyozma hujjatning ko‘chirma nusxalari saqlanmoqda.

Mamlakatimizda katta miqdordagi diplomatik aktlar ham saqlanadi. Ma’lumki, diplomatika – huquqiy mohiyatlari hujjatlarning kelib chiqishi, shakli va mohiyati, amal qilishi haqidagi tafsilotlar, matnlarning tiklanishi va ularning arxiv bilan bog‘liq taqqadirini o‘rganuvchi fandir. Shunisi muhimki, mazkur fan, aksar hollarda, muallifi va adresati yoki kontragenti (shartnomada ishtirok etgan taraflar) aniq bo‘lgan hujjatlar tahlili bilan shug‘ullanadi. O‘zbekistonga oid bunday hujjatlarni ilmiy o‘rganish XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan.

Rus istilosи oqibatlaridan biri – tarixiy va ilmiy ahamiyatga molik arxiv hujjatlari, jumladan diplomatik hujjatlarning Rossiya ga olib ketilishi bo‘lgan. Masalan, Xiva xonlari arxivlari 1873-yili Rossiya ga olib ketilgan va ularni o‘rganish taxminan o‘sha paytdan boshlangan. Aytish joizki, 1936-yilgacha ular qayerda saqlangani bizning olimlar uchun noma’lum bo‘lgan. Zikr etilgan yili mashhur rus tadqiqotchisi P.P. Ivanov Xiva xonlari arxivlari ning bir qismini topishga erishgan. Topilgan aktlarning soni dastlab soni 137 dona bo‘lib, keyinchalik ularning soni 155 gacha yetgan. Tadqiqotchilar ularni shartli ravishda ikki qismga bo‘ladilar:

- Kirim-chiqim daftarlari (xonning soliqlar yig‘ish uchun mas’ul mulozimlari – mextar, qushbegi, devonbegi va hokazolar tomonidan yuritilgan);
- Navkarlar haqidagi hisob-kitob daftarlari.

1961-yili Saltikov-Shedrin nomidagi Rossiya davlat kutubxonasida Xiva xonlariga tegishli ilgari noma’lum bo‘lgan uch

mingdan oshiq arxiv hujjatlari topilgan va oldingilari bilan birga 1962-yili Toshkentga – O'zbekiston Markaziy davlat arxiviga qaytarilgan. O'zbekiston tarixi, iqtisodi va madaniyatining turli masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlarda ulardan qisman soydalanilgan va bugun ham ushbu jarayon davom etmoqda.

Xiva xonlari arxivlariga tegishli diplomatik aktlarning bir qismi O'zbekiston Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik instituti fondida ham saqlanadi. Ularning ichida qozilik kitoblari yoki daftarlari ham saqlanadiki, ular qozilar devonxonasida tuzilgan zaklad, sotuv, da'vo, da'vodan voz kechish, vasiyatnama, qarzlar bilan bog'liq tilxatlar va boshqa turdag'i muhim hujjatlar haqidagi muntazam yozuvlarni qamrab olgandir. Mazkur hujjatlarning amal qilish doirasi anchagina keng bo'lib, Xiva, Hazorasp, Qipchoq, Mang'it, Qatag'on, Qo'ng'iroq, Shohobod, Tosho (Doshog'uz) va boshqa shahar va qishloqlarni o'z ichiga olgan. Nazarda tutilgan kitoblar 1893–1912-yillarga tegishli bo'lib, ularda 28 205 hujjat haqidagi yozuvlar o'z tajassumini topgan.

**Solnomalar yoki annallar** tarixiy voqeя va hodisalarning yillar bo'yicha qaydnomasidan iboratdir. Ular o'rta asrlarda hukmdorlar saroyida, yirik feodal xo'jaliklar va monastirlarda tuzilgan. Ammo ushbu an'ananing paydo bo'lish tarixi antik qadimiyatga borib taqaladi. Misol uchun, Rim ruhoniylari – pontifiklar tomonidan maxsus kundaliklar yuritilgan bo'lib, ularda jamoat ishlarini amalga oshirish mumkin bo'lgan va bunday ishlar taqiqlangan kunlar qayd etib borilgan. Mazkur kundaliklarda ob-havo va siyosiy-ijtimoiy hayotga taalluqli eng muhim hodisalar yozib borilgan. Ular qatoriga samoviy hodisalar, eng muhim bayramlar, urushlar, non narxining oshishi, tabiiy ofat hamda falokatlar va boshqalar kirgan.

**Tarixiy tadqiqotlar** – eng muhim tarixiy manbalardan bo'lib, ular, ayniqsa, antik davr tarixini o'rganish uchun benihoya qimmatlidir. Tarixiy tadqiqotlarning manba sifatidagi ahamiyati shu bilan belgilanadiki, ko'p hollarda ular yanada

qadimiyroq – keyinchalik yo‘qolib ketgan manbalar asosida yozilgan. Bizgacha to‘liq holda yetib kelgan eng qadimiylardan qatoriga vatandoshlarimiz Abu-l-yusr al-Pazdaviy, Abu-l-Mu’in an-Nasafiy va Abu Mansur al-Moturidiyning islom ilohiyotshunosligiga oid asarlarini ham kiritish mumkin. Zero, ular, asosan, Abu Hanifaning bizgacha asliyatda yetib kelmagan bitiklariga tayangan holda yozilgan.

**Yodnomalar, ya’ni memuar** adabiyotni alohida guruhga ajratish qabul qilingan. Chunki yodnomalar tarixiy tadqiqotlar va badiiy, diniy, ilmiy hamda boshqa bitiklarning oralig‘ida turadi. Sof tarixiy tadqiqot emasligi va asosan shaxsiy tabiatga egaligidan qat’i nazar, memuarlar, ko‘pincha, tarixiy voqeя va hodisalar haqida ma’lumot beradi, ularning mualliflari yashagan muhitni rekonstruksiya qilishga yordam beradi. Memuar janriga oid adabiyotning paydo bo‘lishi Uyg‘onish davridan boshlanadi, biroq antik qadimiyatning ayrim asarlarini ham mazkur janrga nisbat berish mumkin. Sezarning gallar va fuqarolik urushlari haqidagi yozuvlarini bunga misol qilib ko‘rsatsa bo‘ladi. Bibrakt va Aleziyada o’tkazilgan arxeologik qazilmalar aynan ana shu yozuvlarga asoslangan holda amalga oshirilgan. Mumtoz arxeologiya uchun Pavsaniy qalamiga mansub “Elladaning tavsifi” asari ham alohida ahamiyat kasb etadi. Katta Pliniy (mil. 23–79-yillar) “Tabiiy tarix” asarida o‘z davridagi mehnat bilan bog‘liq turli jarayonlarning tafsilotlarini hikoya qiladi. Jumladan, undagi temirkanlik, bronza haykallarning quyilishi jarayonlari, loy, marmar va boshqa moddalar bilan ishslash haqidagi ma’lumotlar o‘ta qimmatli hisoblanadi.

Yozma manbalarning qolgan qismi adabiy asarlarning ko‘p sonli va xilma-xil janrlarini qamrab oladi. Ularga badiiy, ilmiy va diniy asarlar kiradi.

Qadimiyatga mansub yozma yodgorliklar maxsus tarixiy fan paleografiya tomonidan o‘rganiladi. U yozma manbalarni

çöqish bilan shug'ullanib, alifbolar, yozuvlarning turlari va shakllarini tabhil etadi. Arxeologlar – qadimshunoslar yozma yodgorliklarni nafaqat ishlab topadilar, balki o'zlari ham, topilmalardagi yozuvlarni o'qib-o'rganadilar.

Ta'kidlash joizki, yozma manbalar, boshqa turlarga mansub manbalarga nisbatan bir qator afzalliklarga ega. Ular mazmun jihatidan, boshqa manbalardan ko'ra boyroqdir. Ayrim holdorda yozma manbada keltirilgan birligina ibora mingta moddiy manbedan ko'ra qimmatliroq bo'lishi mumkin. Biroq ularning moddiy manbalarga nisbatan zaif tomonlari ham anchaginadir.

Birinchidan, ming yillik tarixiy jarayonlar nuqtayi nazaridan sondaqanda ular nisbatan qisqa vaqt, tegishli jarayonlar kuchiga yetk buhdullarning esa nihoyatda cheklangan bir qismindigina qamrab oladi. Tarixiy davrlar qadimiylashgan sari bunday buhdullar to'g'rib boraveradi. Moddiy manbalar esa, san'iyat tarisi hamda inson qachonlardir yashagan barcha buhdullarini te'liq qurab oladi.

Uchinchidan, deyarli barcha yozma manbalarda shaxsiy mayllar va hissiyotlar ta'siri ko'zga tashlanadi. Hatto hujjatli manbalarning ko'pchiligi ham bundan mustasno emas. Mualiflarning siyosiy dunyoqarashi va shaxsiy mayllari, ayrim holdorda esa, muayyan topshiriq yoki bosim ta'sirida ular ba'zi voqeularning ahamiyatsiz ikir-chikirigacha tavsiflab, boshqa deppatga sazovor jihatlari haqida lom-mim demaydilar, kimloqning xizmatlarini mubolag'ali tarzda ko'klarga ko'tarib, bosbehalarini yerga uradilar, buning uchun hatto faktlarni qasditan buzib ko'rsatadilar. Moddiy manbalar esa, ayrim san'at asarlari ko'p hollarda xolis va hissiyotlardan tashqarida turishi bilan qimmatliroqdir.

Ochinchidan, yozma manbalar, mazmunan boyligiga qaramasdan, baribir, cheklangan tabiatga ega. Ularda siyosiy voqealar, hukmdorlar, daholar, harbiy sarkardalarning faoliyati haqida mufassal ma'lumotlar keltirilgan holda, ko'p hollarda,

keng omma hayoti, iqtisodiy va boshqa ijtimoiy muammolar to'g'risida juda oz ma'lumot beriladi. Moddiy manbalar esa, juda oz so'zli yoki umuman so'zlardan xoli bo'lsa-da, hayotning barcha qirralarini, ayniqsa, keng omma turmush tarzini yoritadi. Chunki moddiy manbalarning aksariyat ko'pchiligi insон mehnati bilan bog'liq faoliyatning qoldiqlaridan iboratdir.

To'rtinchidan, yozma manbalarning ko'pchiligini asliyat tashkil etmaydi. Ularning bizgacha yetib kelgan qismi asosan o'rta asrlarda ko'chirilgan ikkinchi-uchinchi nusxalar bo'lib, bunday nusxalarni ko'chirgan xattotlar tomonidan ko'plab xato va interpolyatsiyalarga (ikkita aniq son oralig'idagi ko'rsatkichni taxminan aniqlash usuli, ya'ni haqiqatni taxminan tiklashga harakat qilish) yo'l qo'yilgan. Moddiy manbalarning katta qismini esa, asliyat tashkil etadi.

Beshinchidan, yozma manbalarning soni cheklangan. Ularning miqdorini oshiradigan kashfiyotlar onda-sondagina amalga oshadigan ishdir. Moddiy manbalarning soni esa, deyarli cheksizdir. Ushbu ma'noda har kun bizga yangi-yangi yuksak darajali manbalarni taqdim etishi mumkin.

Epigrafika fani predmeti bo'lgan tosh, metall, sopol va yog'och "taxtacha"lardagi yozuvlar yozma manbalarning yana bir guruhini tashkil etadi. Shu munosabat bilan aytish lozimki, yozma manbalarni turkumlash yoki guruhlarga ajratish, ko'pincha, ularning mazmuni va shakliga qarab emas, balki ularni o'rganish bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarning yo'nalishlari bilan belgilanadi. Ba'zan yozuvlar (yozma manbalar) quyidagi belgilarga qarab ikki guruhga bo'linadi: faqat tegishli ma'lumotni ifodalash uchun ishlatalgan va boshqa maqsadlarni ko'zlamagan eltuvchiga bitilgan yozuvlar hamda biron-bir amaliy maqsad uchun yaratilgan predmetlarga bitilgan yozuvlar. Birinchi guruhga xotira lavhalaridagi yozuvlar, qoyatoshlardagi bitiklar, alohida toshlarga o'yib yozilgan qonunlar va boshqalar kirsa, ikkinchisiga – guldonlar, haykallar,

tangalar, qabrtoshlar va hokazolarni kiritish mumkin. Yozuv-siz xotira lavhasi oddiy lavhaga aylanib qoladi, biroq yozuvsiz qabrtosh, baribir, qabrtosh bo'lib qolaveradi.

Yozuvlarning mazmuni turlicha bo'lishi – davlat aktidan falsafiy hikmatgacha bo'lgan spektrni qamrab olishi mumkin. Ular uzun va qisqa, bir necha so'zdan, ayrim hollarda bitta so'zdan, ba'zan esa, biron tushunchani ifodalaydigan qisqartma so'z (abbreviatura), ya'ni bir necha harfdan iborat bo'lishi mumkin. Ayrim batafsil yozuvlar birinchi darajali yuksak ahaniyatga molik manba bo'lishi mumkin. Misol uchun, Germaniya imperatori Ferdinand I ning Anqaradagi elchisi vazifasini bajargan flamandiyalik olim Busbek tomonidan 1555-yilda topilgan "Monumentum Anciranura" – "Anqara yodgorligi" ana shunday manbalar qatoriga kiradi. Boshqacha nomi "Ilohiy Avgust faoliyati" bo'lgan mazkur yodgorlik-manba Oktavian Avgust tomonidan yoki uning buyrug'iga ko'ra tayyorlangan bo'lib, uning siyosiy faoliyatini o'zida aks ettirgan.

Ammo bunday manbalar nihoyatda oz bo'lib, ularning yuz minglab qismi juda qisqa, kam so'zli va, ko'pincha, bir xildir. Oz so'zli manbalarning katta massivi (katta sonli jammasi) o'rorganilgandagina, ular qimmatli tarixiy materialga aylanadi. Masalan, bir xildagi ko'p sonli yozuvlar muayyan davlatdagи ichki ijtimoiy-siyosiy vaziyat haqida guvohlik berishi mumkin. Qadimgi Rimga mansub ko'pgina davlat yozuvlarida P. S. Q. R. shaklidagi qisqartma ishlatalgan. Bu harflar "Populus Senatusque Romanus" – "Rim Xalqi va Senati" degan o'moni anglatgan. Ayrim o'rnlarda bu tenglama S. P. Q. R – "Senatus Populusque Romanus" – "Rim Senati va Xalqi" shaklini kasb etgan bo'lib, "Senat" va "Xalq" degan so'zlar ishlatalgan o'rnlarga qarab tegishli davrlarda Rimda kimning mayqeyi balandroq bo'lgani – Senatningmi yoki Xalqning, yoki Xalq komitsiyalarining o'rnnimi degan masalada xulosa chiqarish mumkin.

Manbalarning yirik guruqlaridan birini **arkiv manbalari** tashkil etadi. Ularning orasida, masalan, davlatchilik tarixini tiklash uchun, diplomatik akt toifasiga mansublari alohida ahamiyatlidir. Mamlakatimizda mavjud arxiv manbalarining eng katta qismi O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivida saqlanadi. XV–XIX asrlarga oid bunday manbalarning soni 300 mingdan oshiq bo'lib, ularning ichida diplomatik aktlar sirasiga kiramaganlari taxminan 100 mingtani tashkil etadi. Ular qushbegi, Buxoro amiri, Xiva xoni, viloyatlar boshqaruv organlari, vaqf yorliqlari va boshqalarni o'z ichiga qamrab olgan hamda mutaxassislar tomonidan quyidagicha tasniflangan:

- moliyaviy hujjatlar;
- Buxoro va Rossiya hukumatlari o'rtaсидаги yozishmalar;
- turli davlatlar bilan diplomatik yozishmalar;
- amir va amirlik mol-mulkiga oid hujjatlar;
- mamlakatdagi yer-suv munosabatlariga oid hujjatlar;
- turli yozishmalar.

Diplomatik tabiatga ega arxiv manbalarining o'rganilishi natijasida XX asrda ularning ilmiy nashri bilan bog'liq faoliyat ham rivojlandi. Bu voqelik O'zbekistonni ham chetlab o'tmadi. Jumladan, "Xiva qozilik hujjatlari" nashri amalga oshirildi. Umumiylajmi salkam 700 betdan iborat ushbu qimmatli nashrga kiritilgan hujjatlarning umumiyl soni 1713 tani tashkil qiladi. Ular XIX asr oxiri – XX asr boshlariga oiddir. Hujjatlarning eng qadimgisi 1765-yilga mansub. Xiva xonligi qozilik hujjatlarining ko'pchiligi arab yozuvidagi o'zbek tilida, qolgan qismi esa, fors tilida bitilgan. To'plamga kiritilgan hujjatlarni ikki qismga bo'lish mumkin: hisob-kitob daftarlari (mextar, qushbegi va devonbegi tomonidan yuritilgan soliqlar hisobi, kirim-chiqim hujjatlari) va navkarlarning hisob daftarlari (xonlikning harbiy xizmati hujjatlari). Ularda asosan quyidagi masalalar o'z ifodasini topgan:

- yerlarni ijara qila berish;

- yerkarni merosxo'rlar o'rtasida taqsimlash va davlat mulkiga aylantirish;
- nikoh shartnomalari (xatt-i nikoh);
- vasiyatnomalar;
- hadyanomalar;
- vaqtinchalik boshqaruv yorliqlari va h.k.

Hujjatlar qozixonalarda tasdiqlanib, ro'yxatdan o'tkazilgan. Kitobning so'nggida ayrim hujjatlarning faksimil nusxalari keltirilgan. To'plamda jamlangan hujjatlarning jug'rofiy, topografik va etnografik ko'rsatkichlarga boyligi Xiva xonligi tarixini yoritishda katta ahamiyat kasb etadi.

Keltirilgan misoldan ko'rinish turganidek, Movarounnahrda chiqarilgan qozilik hujjatlarining ahamiyati faqat diniy hayot bilan cheklanmaydi. Aksincha, ularning ko'pchiligi savdo-sotiq, moliyaviy hamda mulkiy munosabatlarga tegishli bo'lgani uchun ham qimmatlidir. Bular Movarounnahr mintaqasiga oid qozilik hujjatlarida o'z aksini topib, nafaqat o'lkamiz, balki tutash hududlar ijtimoiy-siyosiy, savdo-iqtisodiy va ma'nnaviy-diniy masalalar tarixini o'rganishda ham muhim manba vazifasini o'tamoqda.

Ayrim manbashunoslar tomonidan **matbuot-yozma manbalarning alohida guruhi** sifatida tavsiflanadi. Darhaqiqat, matbuot eng ommaviy tarixiy manbalardan biri sifatida nomlanishga haqli. U hodisa va voqealarning ketma-ketligini tilslashga yordam beradi, ularni keltirib chiqargan sabablarni tushuntiradi. Matbuot ma'lumot eltuvchi manba sifatida to'rtta mosiy vazifani bajaradi:

- keng omma va hukumat muassasalarini ma'lumotlar bilan ta'minlaydi;
- shaxsning ijtimoiy integratsiyalashuvida ta'lim tizimiga lo'maklashadi;
- ko'ngilochar vosita rolini bajaradi;
- ruhiy-psixologik muolaja vazifasini o'taydi.

Matbuot deganda, asosan, gazeta materiallari tushuniladi. Jurnallarda esa, ko'pincha, tadqiqotlarning natijalari nashr etiladi. Gazetalarda chop etilgan rasmiy xabarlar, davlat va jamoat arboblarining nutqlari manbalarning boshqa turlari kabi guruhlashtiriladi. Matbuotning harakatlantiruvchi kuchi – journalistikada ikkita asosiy janr ajratib ko'rsatiladi: ma'lumotlar (xronika, reportaj, yozishmalar) va sharhlar. Jurnalistik fakt-larning barchasi ham tarixiy manba bo'lolmaydi. Zero, har qanday ma'lumotning zamirida muayyan tashviqot yashiringandir.

XX asr ikkinchi yarmida ma'lumotlar kommunikatsion texnologiyalari sohasida sodir bo'lgan texnik inqilob manba tu-shunchasining evolutsiyasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatib, **elektron uslubda yaratilgan hujjatlarning** paydo bo'lishiga olib keldi. Bunday inqilobning natijasi sifatida ma'lumotlarni yaratish va uzatishning inson tasavvuriga sig'ishi qiyin bo'lgan yangi-yangi turlari paydo bo'ldi. Shuningdek, ushbu manbalarni tarqatish, ulardan turli masofalarda foydalanish yo'llari kashf qilinib, bunda Internet tarmoqlari yaratilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumotlar *kiberborliq* (*ciber spase*) uzra harakatlanib, ularning tarqalishi yo'lida deyarli hech qanday to'siq qolmadi. Bularning barchasiga sabab Internet tizimining paydo bo'lishi va uning xalqaro hamjamiyat hayotida mustahkam maqom kasb etishidir.

*Internet* tizimi paydo bo'lishining haqiqiy sanasi 1983-yil hisoblanadi. Aynan mazkur yilda kompyuter aloqalari tizi-mini ta'minlovchi programmalashtirish jarayonlarida inqilobiy o'zgarishlar sodir bo'lgan. Ya'ni, o'shanda TCP/IP (*Internet Protocol*) deb nomlanadigan elektron aloqa me'yorlari haqidagi bayonnomma qabul qilinib, ushbu me'yorlar bugungi kungacha Butundunyo tarmog'i asosini tashkil etib kelmoqda.

Elektron formatdagi ma'lumotlarning tarqatilishini boshqaradigan xizmat World Wide Web (qisqartmasi – Web, WWW) deb nomlanadi. Mazkur termin bilan bog'liq voqelik yoki WWW muhiti haqida gapirilganda, o'zaro aloqalar bilan bog'langan

gipermatnlar darajasidagi ko'p sonli veb-hujjatlarning jamlanmasi tushuniladi. Veb-sayt yoki veb-resurslar, ya'ni elektron manbalar tushunchasi (*web – “to'r”, site – “maydon”*) mantiqan o'zaro bog'langan veb-sahifalarning majmuasidir.

Dunyodagi birinchi veb-sayt 1991-yil Tim Berners-Li tomonidan ixtiro etilgan bo'lib, unda World Wide Web, ya'ni “butun dunyo qamrovli tarmoq” texnologiyasining ilk tavsifi berilgan edi. 1998-yildayoq veb-saytlarning soni 1 millionga yaqinlashdi, 2004-yilda ushbu raqam 50 milliondan oshib, ularning ichidagi veb-sahifalarning soni 10 milliarddan o'tib ketgani manbalar haqidagi tushunchalarni mutlaqo o'zgartirib yubordi. 2006-yili Internet tarmog'ida amalda bo'lgan veb-saytlarning soni 88 milliondan ortdi. Elektron saytlarning soni muntazam o'sib borishi tufayli, bugungi kunda ularning sanog'ini davom ettrishning ma'nosi qolmadi. Umumlashtirib aytganda, Internet ko'plab mahalliy, hududiy va korporativ elektron tarmoqlarni birlashtiruvchi global ko'lamli kompyuter “to'ri” bo'lib, o'nlab million kompyuterlarni o'z ichiga qamrab oladi.

### Savol va topshiriqlar

1. Manba tushunchasining yagona – umume'tirof etilgan ta'rifi bormi? “Birlamchi” manba nima?
2. Tarixiy manbalarni tasniflash usullari haqida nimalar bilasiz?
3. Yozma manbalarning asosiy turlarini tavsiflang.
4. Arxiv manbalari deganda nima tushuniladi?
5. O'zbekistonda saqlanayotgan yozma manbalarning yirik markazlari haqida nima bilasiz?
6. Kino-foto-fonohujjatlar haqida ma'lumotlar bering.
7. Elektron hujjat haqida tushuncha bering.

### Manbalar va adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni // “Xalq so'zi” gazetasi, 08.02.2017.

2. Ahmedov B. O'zbekiston tarixi manbalari. – T., 2001.
3. Bekmirzayev I.I. Movarounnahrda qozilik hujjatlari: tarixiy ildizlar va tahliliy yondoshuvlar. – T.: Toshkent islom universiteti nashriyoti, 2014.
4. Бернгейм Э. Введение в историческую науку. СПб., 1908.
5. Блок М. Апология истории или ремесло историка. – М., 1973.
6. Boytullaev R., Ostanova G. Moziy daftaridan sahifalar. – T.: O'zbekiston, 2010.
7. Источниковедение: Теория. История. Метод: Учебное пособие / И.Н. Данилевский, В.В. Кабанов и др. – М., 1998.
8. Каталог Хивинских казийский документов XIX – начало XX вв. // (составители: А. Уринбоев, Т. Файзиев, Г. Жураева, Т. Хорикава, К. Исогая). Место изд.: Издательство Университета Киото, 2001.
9. Киселева Л.И. О чем рассказывают средневековые рукописи. – Л., 1978.
10. Ключевский В.О. Курс лекций по источниковедению: Соч. в 8-и томах. Т. 6. – М., 1959.
11. Кузин А.А., Ромаль Л.М. Кинофотоархивы: Учебное пособие. – М., 1982.
12. Ланглау Ш., Сенъобос Ш. Введение в изучение истории. СПб., 1899.
13. Лаппо-Данилевский А.С. Методология истории. Вып. 1–2. СПб., 1910–1913.
14. Люблинская А.Д. Источниковедение средних веков. – Л., 1955.
15. Медушевская О.М. Современное зарубежное источниковедение. – М., 1983.
16. Пронштейн А.П. Методика исторического источниковедения. Ростов-на-Дону, 1976.
17. Рикёр Пол. Конфликт интерпретаций: Очерки о герменевтике. – М., 1994.
18. Янин В.Л. Очерки комплексного источниковедения. Средневековый Новгород. – М., 1977.
19. The Cambridge History of Islam. Vols. 1–2. Cambridge, 1971, 1980.
20. The Encyclopedia of Islam. New ed. Leiden-London, 1954.

## 2-MAVZU: MANBASHUNOSLIK EVRISTIKASI MANBALARNI O'RGANISH: ANIQLASH, TIKLASH VA TAHLIL QILISH

*Manbashunoslik sohasidagi tadqiqotlar. Manbalarni aniqlash, tahlil qilish uslublari. Manbashunoslik evristikasi va uning bosqichlari. Bibliografik evristikasi. Arxiv evristikasi. Manbalarni mavzular tartibida saralash va uning asosiy shartlari. Manbani tashqi belgilariga qarab tahlil etish. Manbani ichki belgilariga qarab tahlil etish. Nusxalarning asl manbaga yaqinligini aniqlash muammolari.*

**Manbashunoslik sohasidagi tadqiqotlar.** Manbashunoslik ijtimoiy fanlar ichida alohida fan tarmog'i sanaladi. U tarix fanining yordamchi sohasi sifatida ham qaraladi. Manbashunoslik tarixiy, adabiy, ilmiy, hujjatshunoslik kabi alohida tarmoqlarga bo'linadi. Yetakchi olimlarning manbashunoslik sohasida olib borgan tadqiqotlariga nazar tashlasak, mazkur sohada ancha ishlar amalga oshirilgan. Uning nazariy-amaliy tajribalari boshqa fan sohalari singari tadrijiy ravishda, quyidan yuqoriga qarab rivojlana borgan. Yevropa fani va texnikasi taraqqiyoti bilan bir qatorda tarix, tarix manbashunosligi hamda tarix fanining yordamchi tarmoqlariga e'tibor kuchaydi. Bu ayniqsa tarix faniga nisbatan turli tomonidan hujumlar boshlangan paytda uni kuchaytirish va uni himoya qilishga bo'lgan harakatlar bilan bog'liqdir. O'tgan asrning birinchi choragida fransuz tadqiqotchilari tarix fani himoyasi uchun kurash olib bordilar va shu munobat bilan tarixshunoslik hamda manbashunoslik sohasida

ham yangicha qarashlar va yondashuvlar yuzaga chiqdi. Tarix fani nazariyasi va metodikasi yangicha qarashlarni o‘zida ifodalagan mashhur “annallar” maktabi yuzaga keldi. Uning asoslari Fransiya tarixchilari Mark Blok (1886–1944) va Lyusen Fevr (1878–1956) edilar.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Yevropa ijtimoiy fanlari maydonida pozitivistlar chiqib tarixchilar va ularning qarashlarini tanqid ostiga ola boshladilar. Bu ko‘proq tarixiy manbalar bilan tadqiqot ishlari olib boruvchi mutaxassislarga taalluqli edi. Manbalarga mozaika unsurlari sifatida qarash hamda tarix, “birinchi navbatda faktlarni oldindan aniqlashtirib ola-di, so‘ngra ularni amaliyotga tatbiq etadi” degan pozitivistik yondashuvlar “yangi tarix” namoyandalari tomonidan tanqid ostiga olingan edi. Ular madaniy kontekstga kiritilgan tarixni ijtimoiy fanga doxil qildilar.

“Yangi tarix” namoyandalari tomonidan 1929-yilda “Iqtisodiy va sotsial tarixning annallari” (Annales d’histoire economique et sociale) nomli jurnalga asos solindi. U 1939–1941-yillarda “Ijtimoiy tarix annallari” (Annales d’histoire sociale), 1942–1944-yillarda esa “Ijtimoiy tarix to‘plamlari” deb nomlangan. Urush davrida Vishi muvaqqat hukumati rahbari talabiga muvofiq jurnal nomi yana o‘zgartirilib, jurnal asoschisi va bosh muharriri M. Blok o‘z vazifasidan olib tashlandi. M. Blok 1941-yilning may oyida L. Fevrga yozgan xatida Vishi rejimi davrida jurnalni davom ettirish ishlарini to‘xtatish haqida fikr bildirgan bo‘lishiga qaramay, uning o‘zi Mark Fujer taxallusi bilan o‘z maqolalarini e’lon qila boshlaydi. 1942-yilning oktabr oyida L. Fevrga yozgan maktubida esa u o‘zining oldingi nuqtayi nazarları o‘zgarganini aytib, Fevrning qarori adolatli ekanligini ta’kidlagan edi. Mark Blokning urushdan keyin jurnal ishlarda ishtirok etishga hozirlik ko‘rganmi yo‘q bu haqda turlicha munozaralar mavjud. 1946-yili jurnal “Annallar: Ekonomika – jamiyat – sivilizatsiya” nomini oldi. Hozirgi kunda

esa "Annallar. Tarix, ijtimoiy bilimlar" nomi ostida nashr etildi.

O'sha davrda Mark Blok yozma manbalar bilan ishslashda o'zining metodologik usullarini taklif qiladi. Tarixiy manbani u ishonuvchan tadqiqotchi tomonidan qabul qilinadigan qandaydir miqdordagi tarixiy faktlarning joyi bo'lishi mumkin emas, tanqid muallif yetkazib beradigan ma'lumotning faqat ishonechliligi bilan cheklanmasligi lozim deb ta'kidlaydi. M. Blok manbada ma'lumotni maqsadli va maqsadsiz xabarga ajratadi, va bunday vaziyatda maqsadsiz xabar maqsadli xabardan o'z ahamiyati bilan ustun turishi mumkin. Jumladan, aziz avlyolarning hayoti yoritilgan qissalar ularning hayoti va faoliyati haqida batafsil ma'lumot bermasligi mumkin, ammo muallifning maxsus fikr yuritish tarzi va o'sha asar yozilgan davrning hayot tarziga ishora qiladi. Manba dalilining tarixchi diqqat-tiboridan boshqa tarafga og'ib ketmasligi uchun savolnomalari chiqiladi. Har qanday tarixiy tadqiqot va izlanish ma'lum bir yo'nalishda so'rov olib borilishini taxmin qiladi. Muhimi, bu navollar tadqiqotchiga uning noto'g'ri xulosalariga emas, balki sog'lon fikr yoki an'analar bilan aytib turib yozdirish yoli bilan amalga oshirilishi kerak. M. Blok manbaning haqiqiyligini u haqda berilgan ma'lumotlarni tasdiqlash yoki uni inkor etiliga qodir boshqa hujjatlar yordamida tekshirish lozimligi to'g'risidagi fikrni ilgari suradi. "Uydirmalarni oshkor qiluvchi" omillarga manbada eslatilgan siyosiy institutlar haqida qayd etilgan tarixiy dalilning tili, uning aks ettirilgan vaqt va joyi haqqoniyligi kirishi mumkin. Agar dalil haqiqatga to'g'ri kelmasa, tarixchi uydirma bilan asoslangan bunday manbadan yuz o'giradi. Bu o'z navbatida o'tmishni tadqiq qilishning bir qismi, uning xarakterli belgilari sanalib, ehtimol uning avlodidan avlodga bevosita o'tmagan qismi bo'lishi mumkin.

M. Blok faraziga ko'ra o'z davrining odami yoki zamon bilan hammasi yashaydigan inson tushunchasi tarixiy tadqiqotning

predmeti sanaladi. Har bir inson o‘z davrining qonuniyatlarini, shart-sharoitlari, jamiyatda ro‘y beradigan voqealar bilan bevosita bog‘langan bo‘ladi. O‘sma muhitda shakllangan inson tevarak-atrofidagi jarayonlar ta’sirida yashaydi, unga o‘z munosabati va qarashlarini bildiradi. M.Blok davr kishisi tushunchasiga intellektual qatlamga mansub shaxsni nazarda tutgan. Chunki ijtimoiy-siyosiy hayotda va tabiatda ro‘y beradigan voqealar jamiyat, tabiat qonunlarini tushunadigan va ular haqida tasavvuri keng ziyoli inson tomonidan izohlanishi va munosabat bildirilishi mumkin. Muallifning fikricha, insonning aql-idroki vaqt oralig‘ida bir xil tarzda namoyon bo‘lmaydi, balki zamон o‘tishi jarayonida u yoki bu omillar ta’siriga tushib o‘zgarib boradi. Inson ijtimoiy-siyosiy voqealar va tabiatda ro‘y beradigan ta’sirlar ostida ham o‘z qarashlari va tasavvurini o‘zgartirib boradi. Bir shaxsning ko‘zi oldida bir dinastiya o‘rniga boshqasi, bir podsho o‘rniga boshqa bir podsho kelishi bilan qonuniyatlar, tartiblar o‘zgarishi yoki davr kishisining o‘zi tanho bir hukmdor davrida yashab, hayotiy tajribasi, o‘z bilimi hamda amaliyotidan kelib chiqib dunyoqarashi, tasavvurlarini o‘zgartirishi mumkin. O‘tmishning ehtiros sharpalari (g‘ira-shira nurlari) hozirgi zamон ishtiyоqlari bilan qo‘shilib ketsa, insonning real hayoti oq-qora surat aylanib qoladi, shunda tadqiqotchining vazifasi – o‘tmish insonini anglash bo‘lib qoladi. Begona aql-idrokka yorib kirish uchun o‘zlikning “men”idan voz kechish lozim, bu idrokka o‘zlik xususiyatlarini qo‘shib yozmaslik (to‘ldirmaslik) lozim. Yangi tarix tadqiqotchisi o‘tmishni manbadan izlaydi, yozma yodgorlik asrlar qa‘rida bo‘lib o‘tgan tarixiy voqeani tarixchi tili bilan so‘zlaydi. Demak, hozirgi zamон tadqiqotchisi boshqa dunyo va muhitga tushishi, o‘sma davr voqeanavisi bilan ham-nafas bo‘lishi hamda u bilan birga o‘sma zamonga sayohat qilishi nazarda tutilgan. Shunday qilib, M. Blok tadqiqotning subyekti va obyekti o‘zaro munosabatlarini “odamlarning asrlardagi uchrashuvি” deb qaraydi. Bu yondashuvga muvofiq M. Blok tarix-

ni o'rganishda fenomenologik yo'nalish vakili sifatida gavdalanadi. M. Blok manbashunoslik yo'nalishining tadqiqotchisi oldiga murakkab vazifalar qo'yadi. Birinchidan, manbashunos o'tmish tarixchisini uzoqdan kuzatib borishdan boshlab uning dunyoqarashi va fikrlariga yaqinlasha boradi. Manbashunos voqenavisni obdon o'rganadi, uning biografiyasi, genealogiyasi, u yashagan davr, zamonning siyosiy voqealari, ruhiy-ma'naviy dunyosi, eng muhimi esa tarixchilar va olimlar doirasi va ularning qarashlarini anglab oladi. Zamon hamnafasligi vositasida o'tmishdagi jamiyatning nozik jihatlarini ham tushunib olish mumkin. Manbashunos uchun M. Blok va "Annallar" maktabining boshqa namoyandalarining tajribalari katta rol o'ynaydi.

"Annallar" maktabining keyingi davr namoyandalari tomonidan ham tarixiy bilimlarni rivojlantirish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirildi. F.Brodel (1902–1985), Ernest Labruess (1895–1988), Jak Le Goff (1924–2014), Jorj Dyubi (1919–1996) va boshqalar mazkur maktabning namoyandalari sifatida o'z ish tajribalarini yangi fikr-mulohazalar va g'oyalar bilan boyitib bordilar. Hozirgi zamon madaniy-intellektual tarix sohasida yangilangan tarix metodologiyasi kompleks dasturi tatbiq etilmoqda. Bu jahon tarix maktablari tomonidan tan olinigan dasturni zabardast tarixchi Jak Le Goff 1991-yili ishlab chiqqan. Yangilangan tarix metodologiyasi kompleks dasturi uch yo'nalishga ega:

- 1) Intellektual hayot tarixi – tafakkur qilish jarayonlarini o'rganish va tadqiq etish;
- 2) Mental tarix yoki mentalitet tarixi, ya'ni madaniy stereotiplar, ramzlar, afsonalar, kundalik hayot va turmushdagi fikrlash jarayonlari va hokazo;
- 3) Qadriyatlar tarixi, ya'ni qadriyatlar kuchi va ulardagi o'zgarishlarni o'rganadi. Bunda inson xohish-irodasi va intilishlari fenomenini, axloq normalarini qayta tiklash bilan bog'liq jarayonlarni tadqiq etish ko'zda tutiladi.

Shunday qilib, **g'oyalar, stereotiplar va qadriyatlardan iborat uch muhim yo'nalish ma'nnaviy sohaning tarixiy taraqqiyot ta'sir kuchini qamrab olgan.**

O'zbekistonda XX asrning ikkinchi yarmida Sharq qo'lyozma manbalarini o'rganish sohasida juda katta ishlar amalga oshirilgan. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti manbashunoslik va u bilan bog'liq sohalarga oid ilmiy ishlarning markazi sifatida faoliyat yuritadi. Mazkur institut xodimlari tomonidan 1952-yildan boshlab "Sharq qo'lyozma manbalari to'plami"ning o'n bir jildi tuzilib nashrdan chiqarildi. Fan sohalari bo'yicha hozirgi kunga qadar qo'lyozma fehristlari tuzib kelinmoqda. Ayrim asarlarning faksimil nashrlari, tarjimalari o'zbek va rus tillarida nashr qilindi.

Bundan tashqari 1978-yilda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzurida Qo'lyozmalar instituti tashkil etilgan bo'lib, mazkur institutda adabiy manbashunoslik sohasida bir qator ishlar amalga oshirildi. 1988–1989-yillari bu institut olimlari mehnatining samarasini bo'lgan ikki jildlik qo'lyozmalar tasnifi nashrdan chiqdi. Institut amalga oshirgan muhim ishlar orasida Alisher Navoiy ijodini o'rganish ham alohida o'rinn egallaydi. Buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri asarlarining yangi qo'lyozma nusxalari topilib, tadqiq etildi hamda nashr qilindi.

**Manbalarni o'rganish: aniqlash, tiklash va tahlil qilish.** Tarixiy jarayonlarni o'rganish murakkab bo'lganligi sababli, tarix tadqiqotchisi yangi dalillar asosida masala yechimini topish ustida bosh qotiradi. Bunda u o'z e'tiborini birlamchi manbalarga qaratadi va har qanday muammoni hal qilishda ularga suyana boshlaydi. Tarixchi uchun bu ozuqa va shu manbani iste'molga kiritish orqali u o'zi tanlagan mavzu doirasida fikr-mulohaza yuritishga qodir. O'tmishtdan qolgan osori-atiqalar va yozuvlar mutaxassisiga uning ota-bobolari va

ajdodlari bilan aloqador voqeа va jarayonlar haqida tasavvur hosil qiladi. Muarrixni doimo murakkab nazariy-amaliy ishlar qarshilaydi. U faktlarni qidirib topishi, so'ngra ularning ichidan muhimlarini saralashi, aniqlashi va tahlil qilishi lozim. Manbashunoslik tizimida ashyoviy va yozma ma'lumotlarning o'rni benihoya katta. Agar ularni turkumlash ishlari amalga oshirilmasa, manba ustida tadqiqot ishi olib boruvchi mutaxassis qiyin ahvolga tushib qolishi mumkin. Tadqiqotni turli xabarlar majmuyi – axborot bilan ta'minlash asosiy pirovard maqsad bo'lganligi uchun tarixiy dalillarning jamlanma dastasini yaratish ko'zda tutiladi. Mutaxassisiga o'z yo'nalishida uzoq yuz yilliklar ichidan o'ziga kerakli mahsulotni tanlab olish uchun uni izlab topish zaruriyati tug'iladi. Tadqiqot ishlari doirasida izlanuvchi ma'lum bir asrda haqiqatan ham jamiyat yoki davlat hayotida katta rol o'ynagan shaxs ismini yoxud biror-bir sanani aniqlash muammosiga duch keladi. Shunda u ko'plab materiallar hamda tadqiqotlar natijalariga ko'z yogurtirishi, ularni o'rganishi, matnni o'qib chiqib muqoyasa qilishi lozim bo'ladi. Bunday murakkab ishlarni bajarish uchun u bir emas, ko'pgina kutubxonalar, arxivlar va muzeylarga borib, u yerdagi zaxiralar va kitob xazinalaridan o'ziga kerakli manbani ko'rib chiqishi zarur. Ya'ni manba saqlanadigan muassasalarda ish olib borishi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Tadqiqotchi mavzuni tanganidan so'ng, u ma'lum bir maqsadni ko'zlab o'zining zarur manbalari haqida ham tasavvur hosil qiladi va ularni qayerdan olish hamda qanday foydalanish xususida o'zining dastlabki rejasini tuzadi. Izlanish jarayonida manbalarni aniqlash hamda tamlash kabi dolzarb vazifalar oldinga suriladi.

Manbalarni aniqlash tadqiqotchining mavzuni o'rganish borasidagi qo'yadigan birinchi qadami bo'lib, u o'zining barcha imkoniyatlari va kuch-quvvatini ishga solib o'z tadqiqot mavzusiga aloqador bilimlar kalitini qayerda va qanday sharoitda joylashtiganligini aniqlashi, so'ngra ularni o'z ish daftariga qayd

qilib hisobga olishi yoki ular asosida ro'yxat qilishi muhim ishlardan sanaladi. Aniqlash saralash jarayoni bilan bevosita chambarchas bog'langan va shu jarayonda manbaviy axborot va ma'lumotni har tomonlama to'liq holda olish muayyan manbalarni o'rganish vositasida amalga oshiriladi.

Tarix ijtimoiy fanlar orasida ko'p qirraligi bilan ajralib turadi. Yechimini kutayotgan dolzarb mavzular ko'p. Ularni tadqiq etib, tarix fani ilmiy doirasiga kiritish uchun turli manbalarga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Tarix tadqiqotchisining mavzulari turli-tumanligi bois manbalar tanlanishi ham shunga bog'liq bo'ladi. Manba tadqiqotchi oldiga jumboqli savollar qo'yishi mumkin. Muammolar yechimida manbashunos tajribaga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Amaliyotlar va ilmiy ishlar jarayonida mutaxassis o'z yo'llini tanlab oladi. Dalillarga asoslangan tarixchi o'z mavzusi uchun ma'lum yo'nalishda ish olib borib o'z maqsadiga erishish uchun manbani tanlashi kerak. Mavzuni yoritishda ba'zan bir necha manbaga tayanishga ham to'g'ri kelib qolishi mumkin. Ayrim hollarda bitta manba bir necha mavzu uchun dalillar berishi mumkin. Manbaning muhim jihatni shundaki, u tadqiqotchiga yoki tarixchiga real voqealar haqida batafsil ma'lumot beradi. Tarixiy asar uning muallifi tomonidan uning o'zi guvoh bo'lgan voqealarini yoritish barobarida ayrim voqealar tafsiloti asar yaratilgan zamondan oldingi voqealar boshqa bir asarga asoslanib yoziladi. Ammo har bir davrning voqealarida zamonning siyosiy jarayonlari o'z muhrini bosganligini sezish mumkin. Shunday vaziyatda manbashunos siyosiy vaziyatga baho berishi va bu uchun o'sha tarixiy davr xususida yozilgan va amalga oshirilgan ilmiy ishlarning natijalariga o'z e'tiborini qaratishi ham lozim bo'ladi. Manbani tanlash va aniqlashda uning bu jihatlarini ham hisobga olish talab etiladi.

Mavzuni yoritish, uni oldindan bilish, unga qanday manbalar zarur va ularni o'rganish asosida manbalarni topib aniqlash mumkin emas. Shuning ortida oldindan o'rganish lozim

bo'lgan manbalarni qo'shimcha aniqlashning imkoniyati yo'q. Tadqiqotchi qiziqishiga aloqador masala yuzasidan barcha faktlarni hisobga olishning sababi ham shundandir. Faqat faktlar negizida qandaydir qonuniyatlarni o'rnatish mumkin. Shu boisdan tanlangan mavzu doirasida istisnosiz hamma manbalarni jalg qilish mumkin. Ular zamonaviy kutubxona, arxiv va muzey amaliyoti holati (sharoiti)ga muvofiq keladi. O'rganilishi lozim bo'lgan manbalar qanchalik ko'p bo'lsa, tadqiqotchi uchun xato qilish xavfi kamayadi.

Albatta, ayrim manbalar tadqiqotchi nazaridan tushib qolishi mumkin. Ulardan birortasining mavjudligini bilishning holjati yo'q. Ayrimlari tadqiqotchi qo'li yetmaydigan xazinalarda saqlanishi mumkin. Uchinchi xil manbalar esa u ishini nihoya-siga yetkazganidan so'ng topilishi mumkin. Bunday vaziyatda unyan shunday manbalarda qandaydir tafsilotlar bo'lishi mumkin degan taxminni aytaksak bo'ladi.

Manbalarni tadqiq etishda tadqiqotchi quyidagi ishlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishi lozim:

1. Mavzu va uning nomlanishini shakllantirish.
2. Mavzu doirasida amalga oshirilgan barcha tadqiqot ishlari natijalari va bibliografiyalari bilan tanishish.
3. Mavzuga oid manbalarni aniqlash. Buning uchun bibliografik tadqiqotlar, tadqiqotchilarining ilmiy ishlari natijalariga unyanishi ham kerak bo'ladi.
4. Manbalar va ularning turlarini tanlashi (qo'lyozmalar, tashbibosma asarlar, arxiv hujjatlari, kitoblar va turli bitiklar, shuningdek, yozma hujjatlarning turli nusxalari).
5. Davlatga tegishli fondlar, arxiv, muzey va boshqa tashbilotlardagi, jamg'armalardagi zaxira va hujjatlar xazinalarini aniqlash.
6. Davlat arxivlari, shaxsiy fondlarni aniqlash.
7. Qo'lyozma va arxiv fondlari, manbalarni topish yo'lari qilishini bilishi.

### **Manbashunoslik evristikasi va uning bosqichlari.**

Tadqiqot amaliyotida eng muhim va zarur manbalarni aniqlash va tanlab olish amaliyotini o'rganadigan manbashunoslik bo'limi – manbashunoslik evristikasi deb ataladi. Evristika so'zi yunon tilidan olingan bo'lib, u εύρισκω – "heurisko" (eurisko) – "izlayman", "kashf qilaman" ma'nolarini anglatadi. Evristika aslida insonning ijodiy, idrok etilmagan aqliy tafakkurini o'rganadigan bilimlarga taalluqli soha. U aql-idrok bilan bajariladigan ishlarni hamda amaliy, konstruktiv vazifalarni soddalashtirilgan va osonlashtirilgan uslublarda yechadi. Bu vazifalarni bajarishda uning o'z metodlari (usullari) bor va ular asosan ilmiy tadqiqot, ilmiy izlanishlar hamda kashfiyotchilik ijodining mantiqiy usullari va uslubiy qonuniyatlariga asosnadi. Evristikada boshlang'ich ibtidoiy axborot va ma'lumot to'liq hamda vazifani bajarishda aniq ishlangan boshqaruv das-turi bo'lmaydi. Ammo shu vaziyatda evristik uslublar pirovard natijaga olib kelish xususiyatiga ham ega. Evristikada ilgaridan ma'lum bo'lмаган qonuniyatlar asosida kashfiyotlar va ijodiy ishlar ro'yobga chiqishi mumkin.

Evristika degan alohida fan yo'q va u turli ilmiy, bilish yo'nalishlari va tarmoqlarida aql, idrok, amaliyot bilan bog'liq vazifalarni bajarishda ma'lum metodlar va vositalar majmuyini bildirishini yuqorida kuzatdik. Tabiiy fanlardan tashqari uning gumanitar sohada ham o'z usul va uslublari bor.

Manbashunoslik evristikasi deganda tarixiy manbalar, ya'ni tarixiy moddiy ashyolar hamda ma'naviy yoki yozma material-larni o'z ichiga olgan manbalarni qidirish, izlab topish, ulardan foydalanish uchun ijozat so'rash va olishning yo'l-yo'riqlari imkoniyatlari hamda manbalarning mavjud variantlarini har tomonla-ma o'rganish tushuniladi. U manbaning qanday turlari borligini, uning qayerda va qanday joyda saqlanishini, undan foydalanish uchun ruxsat so'rash shart-sharoitlarini, qanday variantlari mavjudligini, tahrir qilingan va nashr etilgan manbalarni aniqlaydi.

Manbashunoslik evristikasida bir-biridan farqli bibliografik va arxiv evristikasi mavjud. Bibliografik evristika ko'paytirilgan kitob materiallari va uning alohida elementlari topilgan bibliografik evristikaning nazariy va amaliy bilimlarga aloqador izlanishlar va tadqiqotlar majmuyi sifatida ta'riflanadi.

**Bibliografik evristika.** Bibliografik evristika – kutubxona mashunoslik haqidagi barcha fan turlari ichida muhim va faol rivojlanib borayotgan bo'limdir. Insoniyat jamiyatida informatsion jarayonlar murakkablashib borayotgan hozirgi zamon shartnalarida bibliografik evristikaga alohida e'tibor berilmoqda. Bibliografik evristika haqida turli adabiyotlar nashr etilishiga qaramay bu sohada xulosa beruvchi ilmiy yutuqlar mustasno.

Bibliografik evristika deganda axborot-informatsion qidiruv va izlanish tarixi, nazariyasi va metodikasini ishlab chiquvchi bibliografik fan sohasi nazarda tutiladi. Axborot yoki informatsiya haqiqatda bibliografik informatsiyani anglatadi va u bu fan sohasining tarkibiy qismi desak maqsadga muvofiq boladi. Buni quyidagicha tushunish kerak, jamiyat bibliografik informatsiya vositasi orqali ijtimoiy informatsiya va bilimlarni shakllantirish, tarqatish va foydalanish jarayonida ijtimoiy vositi, ya'ni funksional rolni bajaradi.

Bibliografik informatsiya orqali jamiyat maqsadli ravishda umuman bi jarayonni, shuningdek, ijtimoiy faoliyatning matbaachilik ishi qismini ham boshqaradi. Haqiqatda, matbaachilik jarayoni, bibliografiya qismi quyidagi maxsus ishlarni amalga oshiradi:

- (i) jamiyatda yaratilgan bosma nashrlar hisob-kitobi (davlat bibliografiyasи);
  - (ii) ularning ijtimoiy baholash, shunga muvofiq ravishda ilmiy mavqeysi (ilmiy-yordamchi bibliografiya)ni aniqlash;
  - (iii) axborot iste'molchilarining aniq ma'lumotlariga ko'ra nashrlardan foydalanish uchun bevosita qo'llanma.
- Olganda, bibliografiyaning mazkur ijtimoiy funk-

siyalarini sifatli ravishda amalga oshirmsandan turib matbaachilik ishining barcha tizimi o'zining maqsadli yo'nalishini o'z qo'lidan chiqaradi, ya'ni boshqarib bo'lmaydigan holatga tushib qoladi.

Demak, ijtimoiy va bibliografik informatsiya, haqiqatda ma'lum ijtimoiy ahamiyatga ega tizimdan (masalan, tabiiy til, adabiyot) va uning vujudga kelishining moddiy-konstruktiv shakli (kitob)dan tashqarida mavjud bo'lmaydi. Bu esa kitobning jamiyatda paydo bo'lishining sharti sanaladi. Aynan shu sabab tufayli kitobning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jarayonidagi muhim rolini tushuntirish mumkin. Kitob kategoriysi o'zida "bibliografik kitob" (bibliografik qo'llanma, bibliografik nashr) tushunchasini ham mujassam etgan. Kitob (jamiyatda barcha bosma nashrning majmuasi) o'zining bibliografiyaviy asosiy ijtimoiy funksiyasiga muvofiq (barcha bibliografik qo'llanmalar, nashrlar) boshqaruvchilik ta'sir obyekti sifatida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, kitob va bibliografik kitob kategoriylarining o'zaro munosabatlarida funksional xoslikni, ya'ni umuman olganda kitob va shu jumladan bibliografik kitobning informatsion muloqot tizimida, matbaa ishida hal qiladigan ijtimoiy vazifasini hisobga olish lozim. Aynan shu funksional xususiyatlardagi noaniq bo'lgan farqlarda bibliografik evristikaning ko'p muammolar va savollarini hal qilishning asosiy qiyinchiliklari ko'zga tashlanadi. Shu bilan bir vaqtda bibliografiya kitob nashr etish, tarqatish va foydalanishga ta'sir qiluvchi boshqaruvchilik funksiyalari bilan informatsiya izlash vazifasini o'z bo'yniga majburiyat oladi.

Hozirgi zamonning "informatsion portlash", "kitoblar dunyosidagi inqilob" sharoitida ijtimoiy informatsiyaning o'sish sur'atlari va hajmi haqiqatda "qo'rquvga soluvchi" raqamlari bilan aniqlanadi. Hozirgi zamon axborot oqimi taxminan 15 yil ichida hajmi jihatdan ikki baravar ko'paya borishining o'zini aytish kifoysa qiladi. Hozirgi vaqtda ijtimoiy informatsiyaning jahoning barcha kutubxonalarida saqlanayotgan bosma shaklda nashrlari-

ning umumiy hajmi taxminan  $2 \times 10^{15}$  bit. Mavjud bashoratlarga qaraganda, dunyoda kitob bosib chiqarish yuzaga kelgandan boyon 60 mln.dan ortiq nomdagi kitoblar nashr etilgan. Bundan to'qiqari, hozirgi vaqtida har yili 700 mingdan ortiq kitoblar va taxminan 100 mingdan ziyod davriy nashrlar bosib chiqariladi.

Informatsiyaning sifatli qidiruvini va istifoda qilishning muhimligini aniqlaydigan, alohida ahamiyatga ega yana bir fakt ni keltirish lozim. Bu yerda insonning jismoniy imkoniyatlari obyektiv cheklanganligi haqida so'z boradi, u o'zining umri davomida muayyan hamda bosma nashrlarning umumiy hajmi bilan qiyoslaganda, nisbatan oz miqdordagi kitoblarni o'zlashtirishi mumkin. Masalan, V.D. Pekelisning ma'lumotlariga qaraganda agar inson har kuni 50 sahifani o'zlashtirsa, umri davomida u 3 mingdan ortiq bo'lмаган kitobni o'qishi mumkin (har biri taxminan 300 bet bo'lgan taqdirda.)

Informatsiyaning shunday bir qudratli oqimini izlash va undan foydalanish, tabiiyki, kundan kunga murakkablashib hornoqda. Masalan, ximiya sohasi bo'yicha mutaxassisga bir yil davomida mazkur ximiya sohasi bilan bog'liq nashr etilgan labiyotlarni ko'rib chiqish uchun aqlga sig'maydigan tezlikda, yani haftasiga 40 soatdan ishlab bir soatda 30 ta bosma nashrni ko'rib chiqsa olsa, buning uchun 5 yil kerak bo'ladi.

**Arxiv evristikasi.** Arxiv evristikasi jamiyat va tarix tani qiziqishi doirasida, arxivlarda hujjatlar mo'l-ko'lligidan, shuningdek, hujjatlarning atributsiyasi (aslligi va haqqoniyligi) asosiy vositalaridan unumli foydalanishning retrospektiv informatsiyalar qidirish metodlarini o'rganish bilan shug'ullanuvchi arxivshunoslik yo'nalishi.

I'luqarolarning moddiy ehtiyojlari, shu bilan birga tarixiy manbalarni aniqlashda ilmiy-tadqiqot ishlari uchun foydalaniladigan retrospektiv (o'tmishta qaratilgan) ma'lumot arxiv evristikasining asosiy vazifasiga kiradi. Arxiv hujjatlarining majmuasi uning obyekti sanaladi. Arxiv evristikasining predmetiga retros-

pektiv ma'lumotni izlashning umumiylari va xususiy metodlari hamda vositalari kiradi. Hujjat informatsiyasi bilan bog'liq ish, arxiv muhitida kerakli hujjatning qidiruvli ishonchli bo'lishiga imkon beruvchi ma'lumotlarni individual kompleksi bo'lgani kabi, arxiv shriftini aniqlashtirishdan boshlanishi kerak. Ish yuritishda hujjatning qayd raqami arxiv shrifti rolini o'ynaydi. Muassasa arxivida shifr bir necha barobar uzun bo'ladi – u fond va ro'yxat raqami, doimiy va uzoq muddatli saqlanish jamlanma ro'yxatning yillik bo'limi uchun ish raqami, shaxsiy tarkib hujjati, varaq raqamidan tashkil topadi. Davlat va munitsipal arxivlarda hujjatlar izlash hisobga olish ma'lumotlarini bilish hamda information ma'lumotnomalarga borib taqaladi. Quyidagilar tadqiqotchi uchun qimmatli qo'llanma sanaladi: arxiv ma'lumotnomasi va qaydnomasi. Bunga qo'shimcha mavzu doirasidagi qidiruvda arxiv kataloglari tizimidan foydalanish ortiqcha ish hisoblanmaydi. Ular tizimliligi, nomlanishi va boshqa jihatlariga ko'ra, ajratilishi mumkin, shuningdek, bunga qo'shimcha ravishda fondlarning sharhlari ham mavjud. Arxivlar bilan ishslash tajribasida turli darajadagi fondlarning tarkibi va mazmun-mohiyati haqida ma'lumot beruvchi ko'rsatkichlar, ma'lumotnomalarning aniq turlari o'rnatilgan. Ularning quyidagi turlari mavjud:

- arxiv fondlari bo'yicha qisqacha ma'lumotnomalar. Ularning izohlari yo'q. Bunday turdag'i ma'lumotnomalar quyidagilarni o'zida mujassam etadi: fondning nomlanishi, raqami, zaxirada birliklar (inventarlar) miqdori; hujjatlarning eng so'nggi sanasi;
- arxiv fondlari bo'yicha izohli (annotatsiyali) hujjatlar. Fond nomlanishi haqida dalillari mavjud, fond raqami, hajmi, uni shakllantiruvchi ma'lumotlar haqidagi qisqacha ma'lumotnoma turi; fond hujjatlari tarkibi va mohiyati to'g'risidagi qisqacha annotatsiya;
- arxiv fondlari uchun ko'rsatkich. Fond raqami, nomlanishi va nomlaridagi barcha o'zgarishlar, hajmi, hujjatlarning so'nggi

sunasi, fond shakllaniruvchi dalillar, fondning ichki tuzilishi, hujjatlar tarkibi va mohiyati haqidagi izohlar. Shubhasiz, arxiv hujjatlarini izlashning eng samarali vositasi opis (qaydnomalar; ro'yxat) hisoblanadi. Ro'yxat (opis) – bu ishning tarkibini ochishiga, fondning ichki tizimini mustahkamlash va ish hisob-kitobi o'chim mo'ljallangan arxiv ma'lumotnomasi. Ro'yxatda fondning har bir ishi ko'rsatiladi. Shu tarzda, tavsiflar obyekti ish hujjati (delo), ya'ni zaxirada saqlash birligi bo'lib qoladi. Qaydnomalar bo'limining har bir qaydnomasi esa o'zida zaxirada saqlash birligining dalilini saqlaydi: zaxirada saqlash birligining tartib raqami, ish yuritish raqami, zaxira birligi sarlavhasi, hujjatlarning so'nggi sanasi, zaxira birligidagi varaqlar miqdori, alohida holatlarda esa hujjatlar izohi. Shunday qilib, arxiv evristikasining asosiy vositalari arxivning ilmiy-ma'lumot apgaroti sanaladi.

**Manbalarni mavzular tartibida saralash va uning asosiy shartlari.** Manbalar o'zining maqsadi va vazifasiga bo'lgan turlicha bo'ladi. Biz ularni mavzularga ko'ra turkumlaymiz va guruhlarga bo'lamiz. Bunda bizga qo'lyozma asarlar alopotadi. Ma'lumki, qo'lyozma tarixiy ma'lumotlar, voqeliklar va ularning tafsilotlarini o'zida mujassam etgan. Yozma asarlar quyidagicha klassifikatsiya qilinadi:

1. Qo'lyozma va toshbosma asarlar. Bunga muayyan davrda yaratilgan va tarixiy real voqealarni o'zida aks ettirgan tarixiy kitoblar va turli tarixiy hujjatlar yig'indisi kiradi. Ular o'z navbatida quyidagicha turkumlanadi:

- a) tarixiy;
- b) vaqf, shajara, vasiqa va hokazolar;
- c) tazkira va maqomotlar (tasavvuf, adabiyot va madaniyat namoyandalarini hayoti va faoliyati bilan bog'liq asarlar);
- d) diniy asarlar (Qur'on, hadislar, tafsirlar va boshqa shu kabi diniy hayat va diniy faoliyat bilan bog'liq asarlar);
- e) badiiy asarlar (badiiy fikrligini qissalar, hikoyalar);
- f) tarixiy afsona va rivoyatlar;
- g) tarixiy geografik asarlar.

2. Epigrafik yodgorliklar. Epigrafik manbalarga me'moriy kitoblar, qabrtosh bitiklar kiradi va ular ham muhim tarixiy manbalar sanaladi.

3. Arxiv materiallari. Ularga asosan xilma-xil hujjatlar, bosma, qo'lyozma, toshbosma materiallar kiradi.

4. Numizmatik materiallar. Bunga tangalar va ularning turlari haqidagi ma'lumotlar kiradi.

5. Memuarlar (esdaliklar, xotiralar, yodnomalar).

Yuqoridagi materiallar va manbalar mavzulardan kelib chiqib saralanadi.

Mavzular tarix fanining turli davrlari va muammolari bilan bog'liqligi sababli manbalar ham shunga muvofiq ravishda saralanadi. Tarixiy mavzular siyosiy, diniy, ijtimoiy, iqtisodiy, harbiy va madaniy hayot bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Siyosiy tarixga doir mavzular siyosiy jarayonlar bilan chambarchas bog'liq va ularda davlatchilik, davlat, ma'muriy-idora boshqaruvi, ularda ish boshqarish va ish yuritish, davlatlararo munosabatlar, elchilik, diplomatik munosabatlar davlat va ma'muriy tizimda mansabdorlar, amaldorlar, martaba egalari



**Arab tilida yozilgan qo'lyozma manbalar**

va ularning mavqelari xususida bo'lishi mumkin. Aynan shu jihatlariga e'tibor bergan holda manbalar saralanadi. Misol uchun Nizomulmulkning "Siyosatnoma", Ahmad Donishning "Navodir ul-vaqoe", Xoja Samandar Termiziyning "Dastur ul muluk", "Temur tuzuklari" kabi manbalar siyosiy mavzularga oid manbalarga kiradi. Ulardan tadqiqotchi o'zini qiziqtirgan navollarga javob olish bilan birga o'z tadqiqotlarida imkon qadar foydalanishi mumkin. Diniy tizim va masalalarga bag'ishlangan mavzular birinchi navbatda Qur'oni karim, bu muqaddas kitobning tafsirlari, hadislar va shunga o'xshash diniy kitoblardan keng foydalanishi mumkin. Ijtimoiy va iqtisodiy masalalarni biz turli manbalardan olingan ma'lumotlar negizida tiklaymiz. Iqtisodiy mavzularga oid manbalarni birinchi navbatda munizematik manbalar, ya'ni tangalar ularning turi, hajmi, qo'shligi, materiali va qaysi davrda qaysi hukmdor tomonidan turb etilganligi orqali aniqlaymiz. Bundan tashqari sarroflik, surrojlik, qandolatchilik, me'morchilik va boshqa kasb-korlar doir risola hamda tazkiralar mavjud bo'lib, ular iqtisodiy jarayonlar bilan bir qatorda ijtimoiy tuzum xususida ham ma'lumot beradi. Ijtimoiy-iqtisodiy mavzularga doir manbalar uchun tartibda saralanadi. O'tmisht, qadimgi zamonlar urushlar, jang-u jadallar, davlatlar o'rtaсидagi o'zaro nizolar, hududlar uchun kurashlar, bosqinchilik, talon-taroj urushlari yuz berган davrlar bo'lganligi uchun ham harbiy voqealar tarixiy manbalarda yaxshi yoritilgan. Harbiy sohaga oid manbalar asosida harbiy mavzularni tanlab olish mumkin. Urush olib borishning strategiyasi va taktikasi, manevrлari, turli usullari, askarlar, qo'shin boshliqlari, ularning mavqelari va hokazolar harbiy manbalarda o'z aksini topgan. Amir Temurning harbiy qo'shini tarkibi, sarkardalar, harbiy boshliqlar, janglarda alohida jasorat bo'rsatgan askar va jangchilar, hukmdorning harbiy rejalarini va huyllari hamda muxolifat davlatlar bilan muzokaralari Sharaf ud-din Ali Yazdiyning "Zafarnoma", G'iyos ad-din Alining "Amir

Temurning Hindiston yurishi kundaliklari”, Muin ad-din Natanziyning “Muntaxab ut-tavorix” kabi asarlarda o’z aksini topgan. Mazkur manbalar va ulardagi ma'lumotlarga asoslangan holda harbiy hayot va tizimning ko'p qirralarini ochish mumkin. Madaniy hayotga doir manbalar tarixiy-adabiy adabiyotlardan iborat bo'lishi mumkin. Zayniddin Vosifiyning “Vaqoe’ ul badee” asari, Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois”, Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob”, Sadri Ziyoning “Navodiri Ziyoya” asarlari shular jumlasidandir. Madaniy hayot mavzusiga epitafiyalari bor qabrtoshlar ham misol bo'la oladi. Ular arxitektura yodgorliklari singari hunarmandchilik san'ati durdonalari sifatida qaralsa, bitiklardagi she'riy jumlalar badiiy adabiyot uchun manbaviy asos bo'lishi mumkin.

Yuqoridaqo qo'lyozma asarlardan harbiy yurishlarga oid bir mavzuga bag'ishlangan va muayyan bir yo'nalishga muvofiq keluvchi asarlar alohida o'rinn egallaydi. Bular orasida nomalarni keltirish mumkin. Nomalar – maktub, risola, kitob ma'nosida kelsa-da, u aslida mashhur hukmdor yoki ma'lum bir sulolarning tarixiga bag'ishlangan bo'lib, davlat boshliqlari va ularning hayoti, faoliyati xususida yozilgan. Nomalar turkumiga Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma”, Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma”, Muhammad Amin Buxoriyning “Ubaydul-nomma”, Muhammad Solihning “Shayboniynama” kabi asarlar kiradi. Ularni alohida mavzu tarzida o'rganish mumkin.

Ma'lum bir manba yirik va ahamiyatlari tarixiy mavzu bilan bog'liq bo'lishi mumkin va uni alohida o'rganish lozim bo'ladi. Mahmud ibn Valining “Bahr ul-asror” tarixiy-geografik asari manbalarga boy asarlar jumlasiga kiradi. XVII yuz yillik mahsuloti bo'lgan mazkur asar haqiqatan ham qiziqarli ma'lumotlarni, tafsilotlarni beradi va o'quvchining qiziqishini oshiradi. Tarixiy voqealar bilan bir qatorda geografik ma'lumotlar, etnografiya, adabiyot, mineralogiya, toponimika, irrigatsiya bilan bog'liq materiallarni taqdim etuvchi bu asar qimmatli manba sanaladi. Mazkur

manbani manbashunoslik, tarixshunoslik, jo'g'rofiyashunoslik, adabiyotshunoslikning turli tarmoqlari bilan aloqador holda alohida o'rganish mumkin. Bundan tashqari tarix fanining yordamchi tarmoqlari bo'lmish genealogiya, germenevtika, lingvistika, atamashunoslik nuqtayi nazaridan ham tadqiq etish mumkin.

**Manbani tashqi belgilariiga qarab tahlil qilish.** Manba bizga qadar kitob holida yetib keladi va shuning uchun ham biz uni kitob shaklida ko'ramiz. Manbalar ichida o'rama charm, pergament va qog'oz shaklidagi hujjatlar ham bor. Kitob shaklidagi qo'lyozma asarlar uni dunyoga keltirgan qog'oz tayyorlovchi, siyoh ishlab chiqaruvchi, sahhof kabi hunarmand ustalarning qo'lidan o'tadi. Bundan tashqari kitobda xattotlar, muzahiblar, musavvirlar mehnati ham o'z aksini topgan bo'ladi. Kitob uslida manbaning tashqi ko'rinishini o'zida mujassam etgan moddiy ashyo. U muayyan o'lchovda qirqilgan varaqlar, muqova ha'mda ayrim hollarda qog'ozdan yoki charmdan tayyorlangan g'ilosdan iborat. Endi uning qog'ozi, qog'ozning turi qayerda ishlab chiqarilgani va tarkibi ham qiziqtiradi. Xattot asarni yozishda xatning uslublaridan birini qo'llashi mumkin, matalan, arab yozuvining suls, nasx, ta'liq, muhaqqaq turlaridan toydalangan bo'lishi mumkin. Husnixatlik uning mahorati va tajribasiga bog'liq bo'ladi. Kitoblar yozishda nasta'liq eng ko'p turqalgan xat turi sanaladi. Xat turi ham qog'oz bilan birga manbaning tashqi belgilari qatoriga kiradi. Demak, tadqiqotchi qog'oz turidan tashqari, matn yozilgan xat turini ham bilishi lo'im. Tajribali tadqiqotchi bunday farqlarni tez anglab yetadi. Buningdek, manbaning tashqi alomatlariga asarning yozilgan yoqti, sanasi, yozilgan joyi, muallifi va yozilishi sabablari ham kiradi. Qo'lyozma asarlarning hammasida ham uning yaratilgan davri yozilavermaydi. Shunday asarlar ham borki, unda muallif va na xattot ismini topish mumkin. Ayrim asarlar uning kunlarga qadar abgor holatda yetib kelganligi sababli uning muqovasi yo'qolib qolgan, chirigan yoki namlik ta'sirida

o‘z ko‘rinishini yo‘qotgan. Kitobdag‘i qimmatli ma’lumotlar ham shu sabab tufayli noma’lum bo‘lib qoladi. Kitoblar orasida xattot ismi yozilib, asar muallifi noaniq bo‘lishi yoki aksincha holatlar ham bo‘lishi mumkin. Ba’zan esa faqat asar yozilgan yoxud ko‘chirilgan vaqt yo‘zilishi mumkin. Asarning kimga bag‘ishlanganligi, qaysi donator yoki hukmdorning buyurtmasiga asosan yozilganligini bilish ham muhimdir. Bundan tashqari qo‘lyozmada sahhofning hamda kitob sohibining muhri ham bo‘ladi. Ayrim asarlar vaqf qilinganligi uchun ham ularda vaqf qilinish sanasi, kim tomonidan vaqf qilinganligi va muhri ham bo‘lishi mumkin.

Tarixiy asarlarda ularning muallifi haqidagi ma’lumotlar benihoya muhimdir. Asarni yozgan shaxs ko‘p hollarda o‘zining ismini kitobning biror-bir yerida, ko‘pincha boshi yoki oxirida yozib qo‘yadi. Ayrim mualliflar o‘zining kelib chiqishi, nisbasi, kunyasini ham qayd etib o‘tadilar. Ba’zi hollarda muallifning yoshi yozilgan raqamni ham uchratishimiz mumkin. Tarixiy xronologiya va muallifning ismi tarixiy davr va shart-sharoit xususida ham bizga tasavvur beradi. Manbadagi shunga o‘xshash qiziqarli ma’lumotlar orqali siyosiy ahvol va ijtimoiy holat haqida tasavvurga ega bo‘lamiz.

**Manbani ichki belgilariga qarab tahlil etish.** Tarixiy manbaning ichki belgilari deganda aynan yozilgan yoki ijod mahsuli bo‘lgan asarlar va matnlari, ularning mazmun-mohiyati hamda boshqa xususiyatlari anglashiladi. Manba matni, unda tarixiy voqealarning yoritilishi va qanday g‘oyalarga asoslanshi muhim o‘rin egallaydi. Manbaning mohiyatini anglashda asarning asl nusxasini aniqlab olish eng muhim vazifa sanaladi. Chunki asl nusxaga tayanib matn va uning mazmunidagi o‘zgarishlar va tuzatishlarni aniqlashtirib olish mumkin. Ammo asarda muallifning g‘oyasi yetakchilik qilishini hisobga olsak, bu g‘oyaning boshqa nusxalarida ta’sirini kuzatib borish orqali asar haqida to‘liq tasavvur hosil bo‘ladi. Muallif asarni yozishda

o'z davridagi voqealarga asoslanib uni zamonga moslashtirib yozadi. Ayrim voqealar salbiy bo'lmasa-da uni ijobiy baholashga harakat qiladi. Ko'pincha tarixchilar o'z asarlarini zamona podshosi yoki hukmdorning farmoni va buyurtmasiga binoan yozib chiqqan bo'lsada, ayrim haqiqatga yaqin fikr-mulohazalarni o'z so'z uslublari vositasida bayon qiladilar. Bunda muallif intiorali so'z uslublaridan foydalanadi. Qo'lyozma matni, tarixiy voqeanning batafsilligi, davrlarning aniq yozilishi, tarixiy baxular nomlarining to'liq keltirilishi, tarixiy atamalarga izoh berilishi va muallif aql-idrok hamda fikr dunyosining boyligi morning qimmatini oshirishga xizmat qiladi.

**Nusxalarning asl manbara yaqinligini aniqlash muammolari.** Manbashunoslardan uchun yozma yodgorliklar eng muhim material beradigan tarixiy obyektlar sanaladi. Uning asosiy qismini qo'lyozma va toshbosma asarlar hamda latifiklar tashkil qiladi. Manbalarning aslligi va haqqoniyligini aniqlash masalasi muhim hisoblanadi. Qo'lyozmaning aslligini aniqlashda tadqiqotchining tajribasi va manbalarni bir-biri bilan muqoyasa qilish katta ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchi haqida dastlabki ma'lumotlarni kataloglardan qidiradi. Uning dunyo kitob xazinalaridagi sonini va nusxasini aniqlaydi. Kataloglarda asarlar haqida bat afsil ma'lumotlar berilgan bo'ladi. Mabodo biror-bir asarning mukammal nashri tanqidiy matn va faksimilesi bilan birga nashr etilgan bo'lsa, u holda tadqiqotchining ishi biroz osonlashadi va u asl nusxani topa oladi. Asl nusxa avtograf bo'lishi ham mumkin yoki muallifning buyurtmasiga ko'ra xattot yoki kotib tomonidan yozilgan bo'lishi ham ehtimoldan xoli emas. Bunday vaziyatda asl nusxa bilan yangidan topilgan asarlar ham qayta solishtirib ko'rilib. Tanqidiy matn mukammal qilingan bo'lsa asarni tadqiq qilish tarixchining oldidagi muhim vazifa va qadam bo'ladi.

Manbashunoslikda asarning eng noyob va qimmatli nusxalari ajratib olingandan so'ng u ilmiy tasnifdan o'tkaziladi.

**Savol va topshiriqlar**

1. Manbashunoslik sohasida amalga oshirilgan tadqiqotlar haqida nimalarni bilasiz?
2. Fransiyada shakllangan "Annallar maktabi" namoyandalari faoliyati haqida qanday ma'lumotlarga egasiz?
3. Manbalarni o'rganish, aniqlash va tahlil qilishda tadqiqotchi qanday yo'l tutishi va qaysi bosqichlardan o'tishi lozim bo'ladi?
4. Manbashunoslik evristikasi nima va uning bosqichlari haqida qanday tasavvurga egasiz?
5. Bibliografik evristikasi va uning ahamiyati haqida nimalar bilasiz?
6. Arxiv evristikasi nima va uning arxiv materiallарini o'rganishdagi ahamiyatini ko'satib bering.
7. Manbalar hamda ularni saralashda asosan nimalarga e'tibor qaratish lozim bo'ladi?
8. Manbalarning asl va boshqa nuxalarini qanday usul va vositalardan foydalangan holda o'rganish mumkin?

**Manbalar va adabiyotlar**

1. *Jacque Le Goff*. Histoire et mémoire. Edition Caillimard, 1988.
2. *Jacque Le Goff*. La Nouvelle Histoire. EditionComplex, 2006.
3. Блок М. Короли-чудотворцы: Очерк представлений о сверхъествеств. характере королев. власти, распростран. преимущественно во Франции и в Англии Les rois thaumaturges / Пер. [с фр.] и comment. В.А. Мильчиной. – М.: Яз. рус. культуры, 1998.
4. Каштанова С.М. Проблемы дипломатики, кодикологии и актовой археографии // Материалы XXIV Междунар. науч. конф. – Москва, 2–3 февр., 2012.
5. Саар Г.П. Источники и методы исторического исследования.– Баку, 1930.
6. Большаков А.М. Вспомогательные исторические дисциплины. 4 изд. – Л., 1924.
7. Каштанов С.М., Курносов А.А. Некоторые вопросы теории источниковедения // Исторический архив, 1962, №4.
8. Фриман Э. Методы изучения истории (пер. с англ.). – М., 1893.
9. Hakimov M. Sharq manbashunosligi lug'ati. – T.: "DAVR PRESS" NMU, 2013.

## MARKAZIY OSIYONING QADIMGI VA ILK O'RTA ASRLAR TARIXIGA OID MANBALAR

### 3-MAVZU: ARAB YOZUVIGACHA BO'LGAN MANBALAR

*Avesto – qadimiy yozma yodgorlik va uning ahamiyati.*  
*Avestoda O'rta Osiyo tavsifi va davlatchilik tarixiga oid*  
*ma'lumotlar. Qadimgi epigrafik manbalar (Behistun,*  
*Persepol, Naqshi Rustam, Doro I, Ayrитom bitiklari).*  
*Qadimgi Hind manbalarida O'rta Osiyo haqida ma'lumotlar.*  
*Qadimgi Yunon va Qadimgi Rim mualliflari asarlari O'rta*  
*Osiyoning qadimgi davr tarixiga oid muhim manba:*  
*Cerodot, Ktesiy, Diodor, Pompey Trog, Arrian, Kvint Kurtsiy*  
*Ruf, Gay Pliniy Sekund, Gekathly, Ksenofont, Strabon, Klavdiy,*  
*Ptolemy asarlari va ularning o'rganilishi. Qadimgi va ilk*  
*orta asrlar Xitoy solnomalarida O'zbekiston va O'rta Osiyo*  
*tarixi bo'yicha ma'lumotlar: Xou Xan shu, Bey shu, Suy shu.*  
*Qadimgi turkiy manbalar ilk o'rta asrlar O'rta Osiyo tarixiga*  
*oid mamba sifatida. Runiy bitiklari (To'nyuquq bitigi, Kultegin*  
*bitigi, Bilga xoqon bitigi, Ongin bitigi). Turkiy manbalarning*  
*o'rganilishi va uning ahamiyati. Sug'd hujjatlari o'rta asr-*  
*lar O'rta Osiyo tarixiga oid muhim manba. Mug' qal'asidan*  
*topilgan hujjatlar, Afrosiyob va Sharqiylar Turkistondan topilgan*  
*so'g'd hujjatlari va boshqalar. O'zbekistonda so'g'dshunoslik.*

**Avesto – qadimiy yozma yodgorlik va uning aha-**  
**miyati.** "Avesto" qadimgi tariximiz to'g'risida keng va boy  
 ma'lumot beradigan mamba bo'lib, u dunyoda biz bilgan eng  
 qadimgi kitoblardan biridir. "Avesto" – zardushtiylik dinining

muqaddas kitobi bo'lib, shu dindagi xalqlarning qonunlari majmuyidir. Bizgacha yetib kelgan "Avesto" qismlari sosoniyalar davrida, ya'ni milodning III–VII asrlarida tahrir qilingan. "Avesto" boblari "paxlaviy" – o'rta fors alifbosi asosida 48 ta belgili yozuvdan iboratdir. "Avesto" so'zi o'rta fors tilidan "Apastak", ya'ni "Asos" ma'nosini beradi.

"Avesto" tili sharqiy eroniylarning eng qadimgi shevalaridan biri bo'lib, mutaxassislar fikriga ko'ra, qadimgi fors tiliga taxminan mil. avv. II mingyillikning oxirlari – I ming yillikning boshlarida paydo bo'lgan.

"Avesto" birinchi bo'lib XVIII asrda fransuz olimi Anketil Dyuperron tomonidan tarjima qilingan. U o'rganib chiqqan "Avesto" qo'lyozmalari XIII asrga oid bo'lgan. K. Geldner, X. Bartolome, V.V. Struve, X. Xumbax, Ye.E. Bertels, V.I. Abayev, S.N. Sokolov, V.A. Livshits, I.M. Oranskiy, I.S. Braginskiy, I.M. Steblin-Kamenskiy va boshqa bir qator olimlar "Avesto" tilini o'rganish bilan shug'ullanganlar. Olimlarning rus tiliga o'girilgan "Avesto" matnlari asosida mazkur manbaning o'zbek tiliga izohli tarjimalari vujudga keldi (A. Mahkam, M. Is'hoqov).

1755–1761-yillarda fransuz olimi Anketil Dyuperron Hindistonning Gujorot viloyatida eron zardushtiyalarining avlodlari – parslarning urf-odatlari va diniy marosimlari bilan tanishib chiqqan. Eng muhimi shundan iboratki, Dyuperron parslarning diniy yozuvlarini o'qishga tuyassar bo'lgan.

A. Dyuperron yurtiga qaytgandan so'ng, 1771-yilda "Avesto"ni tarjima qilgan. XIX va XX asrning boshlarida esa "Avesto"ning yangi tarjimalari vujudga kelgan.

Dastlabki "Avesto" 21 ta kitobdan iborat bo'lgan. Lekin biz gacha uning sosoniyalar davrida tahrir qilingan ayrim qismlari yetib kelgan; xususan: Yasna – "qurbanlik keltirish", Visprat – "barcha hukmronlar", Yasht – "qadrlash", "ulug'lash", Videvdat – "devlarga qarshi qonun".

Yasna kitobi 72 bobni o'z ichiga olib, ulardan 17 tasi "Gotalar", ya'ni zardushtiyalar payg'ambari Zaratushtraning "Muqaddos qo'shiqlari", uning diniy nasihatlaridan iborat.

Gotalarni Zaratushtra sosoniylar davri (III–VII asrlar)dan beri necha asrlar avval yaratgan. Ajablanarli tomoni shundaki, ilo o'rta asrlarda "Avesto" tushunarsiz mavhum tilga aylanganligi qaramay Zaratushtraning noma'lum so'zlari va nasihatlari Yasna kitobiga so'zma-so'z kiritilgan.

Visprat 24 bobdan iborat bo'lib, zardushtiyarning ayrim sinolariiga bag'ishlangan madhiyalardir. Ular diniy marosimlarda ijro etilgan.

Yasht boblari qadimgi qabilalar og'zaki ijodi asosida paydo to'plangan. Uning 21 bobida yozuvsiz zamonalarga oid qadimiy qabilalarning tasavvurlari o'z aksini topgan. Yasht kitobida afsonaviy qahramonlarga va ulug' xudolarga bag'ishlangan madhiyalardan to'plangan.

Videvdlat to'liq saqlangan kitobdir, uning tarixiy sanasi Yasni yoki Yasht qismlariga nisbatan birmuncha yosh hisoblanadi. Videvdlat 22 ta bobdan iborat.

"Avesto" ma'lumotlarini o'rganishga oid turli ilmiy adabiyotlar mayjud. Mazkur manba Zaratushtra faoliyati va zardushtiyiliqning vujudga kelishi muammosi bilan uzviy bog'liqdir. Zaratushtra (yunoncha – Zoroastr, o'rta fors tilida – Zardusht) qadimgi dunyo mualliflari ma'lumotlariga ko'ra, afsonaviy shaxs hisoblangan. Ammo "Avesto"ning Gotalari va Yasht boblariida Zaratushtra tarixiy shaxs sifatida yoritilgan.

Zaratushtraning ismi qadimiy "Zaraushtra" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "Zar" – bu oltin, "ushtra" – tuya yoki uch xil moshnoda – "Oltin tuyali", "Oltin tuya egasi", "Tuyalar yetaklagan odam" deb tarjima qilinadi. (Qiyoslash uchun yunon manbalardan ma'lum bo'lgan Zariasp, ya'ni Baqtra shahri "Oltin od" moshnomin anglatadi).

“Avesto” quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi: qadimgi geografik tushunchalar – daryolar, tog'lar, ko'llar nomlari, hududiy-etnik – qabilalar va viloyatlar nomlari, qadimgi mamlakatlarning ro'yxati, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy va siyosiy tuzum – qadimiy qabilalar o'rtasidagi to'qnashuvlar va harbiy bosqinlar, qadimgi jangchilarning qahramonligi va faoliyati hamda qadimiy podsholarning ro'yxati, diniy nasihatlar, zardushtiylarning falsafasi, dunyo tarixining rivojlanishi haqidagi ma'lumotlar va boshqalar.

“Avesto”da tarixiy viloyatlarning nomlari Yasht kitobining uchinchi va Videvdatning birinchi bobida sanab o'tilgan. Yasht ro'yxatidagi birinchi mamlakat qadimiy dasht qabilalari – oriylarning vatani – Aryonam Vayjo (Arianam Vaychax) yoki “oriylarning sayhon yerlaridir”. U yurtda ko'p yaylovlarga ega baland tog'lar, keng daryolar va chuqur ko'llar mavjud bo'lgan: keyingi mamlakatlar – Porutu, Iskata, Mouru, Gava Sug'da, Bahdi, Xvarizam.

Yasht quyidagicha xabar beradi: “U mamlakatning ja-sur sardorlari ko'p sonli harbiy yurishlar qiladi, uning keng yaylovlarga ega, suvgaga serob tog'larida chorva tinch o'tlov va yemish bilan ta'minlangan, bu yerdagiga sersuv, chuqur ko'llar to'lqinlanib turadi, kema qatnaydigan keng daryolarning oqimi Porutadagi Iskata, Xarayvadagi Mouru, Sug'dagi Gava va Xvarizam tomoniga toshib intiladi”.

Videvdat kitobiga ko'ra, ulug' va donishmand xudo Axuramazda zardushtiylar payg'ambari Zaratushtraga bunday xabar qiladi: “O Spitama Zaratushtra, yashaydigan joylarga, bu yerlarda baxt qancha kam bo'lsa-da, tinchlik tortiq qildiim. Birinchidan, odamlar yashashi uchun eng yaxshi mamlakatni, Vaxvi Datiya daryosidagi Aryonam Vajjoga asos soldim.

Ikkinchidan, men, Axuramazda, eng yaxshi mamlakatlar va o'lkalardan bo'lgan Gava Sug'da makoniga asos soldim.

Uchinchidan, men, Axuramazda, eng yaxshi mamlakatlar va o'llalardan bo'lgan qudratli Mouruga asos soldim.

To'rtinchidan, men, Axuramazda, eng yaxshi mamlakatlar va o'llalardan bo'lgan, baland bayroqli go'zal Bahdiga asos soldim".

Videydatning birinchi bobida sanab o'tilgan mamlakatlar yoki viloyatlari ro'yxatidan ancha farqlanadi, masalan, Aryonam Vayjo, Gava, Mouru, Bahdi, Nisaya, Ariya, Vaekereta, Urva, Zantu, Raga, Chaxra, Varna, nomsiz yetti Hind viloyatlari va daryosi boshlaridagi mamlakat.

"Avosto"da tilga olingan qadimgi mamlakatlar – O'rta Osiyo va Afg'oniston, Eronning shimoli-sharqiy hududlari bilan bog'lanadi. Aryonam Vayjo mamlakatini – bu keng hudудde joylashgan o'lka deb tushunish mumkin. U yerdagi beshonadashlar, vohalari ko'p yaylovlarga ega baland tog'lar – Pamir, Hindiqush, Hisor, Tang'ritog', chuqur ko'llar – Kaspiv. Orol, keng daryolar – Amudaryo va Sirdaryo deb faraz qilinadi.

Avosto jamiyati to'rt asosiy qismga bo'linadi. Uy, oila jamoasi – "umana", "dmana", urug' jamoasi – "vis", qabila – "zantu", qabilalar ittifoqi – "daxiyu" deb atalgan.

Yechtning uchinchi bobida bunday xabar qilinadi: "Xudo Miram biz ulug'laymiz. Unga hech kim yolg'on gapirolmaydi uyu – oila boshlig'i, urug' oqsoqoli, qabila yo'lboshchisi va mamlakat sardori. Agar uy egasi, urug' oqsoqoli, qabila boshlig'i va mamlakat sardori yolg'onchi bo'lsa, g'azablangan Mirro butunlay oilani, urug'ni, qabilani, mamlakatni va ularning boshliqlarini ham tamoman yo'q qiladi".

Odo, urug' va qabila boshlig'ini anglatish uchun "pati" va "chitilgan" – "nmanopati", "vispati", "daxiyupati". "Daxiyu" uchinchi "viloyat" ma'nosini ham anglatgan. Mamlakatni odo qilgan shaxs "kavi" yoki "sastar" deb atalgan. "Sastar" oqali qabilalarning harbiy yo'lboshchisi ham tushunilgan.

Oqsoqollar kengashi – “varzanopati”, “xanjamana”, xalq yig‘ilishi (majlisi) – “v’yaxa” deb atalgan. “Avesto” shahar hayoti va tuzumi haqida ma’lumotlar bermaydi. Manbada “shahar” so‘zi yoki “shahar jamoasi” tushunchasi uchramaydi.

“Avesto” qadimgi jamiyatning to‘rt toifasini ajratib beradi – qohinlar, jangchilar, chorvadorlar va hunarmandlar (Yasna, 19-bob). “Avesto”da tilga olingan “baland uylar”, “ustunlar” maxsus binokorlar mavjud bo‘lganligidan dalolat beradi. Jangchilarning yarog‘-aslahalari nayza, o‘q-yoy, xanjar va jangovar boltalardan iborat bo‘lgan.

“Avesto”ning eng qadimgi qabilalari chorvachilik bilan hayot kechirganlar. Manbada chorvachilik hayotiga oid ma’lumotlar talaygina: “Axuramazdaga murojaat qilib, payg‘ambar ayturki: “Sen o’sha, kim bizga hayot manbayi bo‘lgan chorvani dunyoga keltirib, yaratgansan”.

“Axuramazda yaratgan hamma narsaning ichida birinchi o‘rinda chorva turadi. Biz chorvaga “tinch o’tlov va yemish ta’minlashga chaqiramiz”.

“Avesto”da “xalq”, “elat” ma’nosiga oid tushunchalar uchramaydi. Manbada “oriylar”, “oriylar yurti, o’lkasi”, shuningdek, zardushtiylik e’tiqodini qabul qilgan boshqa qabilalar – “sayrima”, “saina”, “daxa” hamda xudo Axuramazdani va zardushtiylikni e’tirof qilmagan qabilalarning nomlari tilga olingan.

“Avesto”ga ko‘ra, qadimgi podsholarning ro‘yxati quyidagicha: “Xaosh’yonx – birinchi afsonaviy podsho (“Shohnoma”da Xushang), undan keyin Yima (Jamshid) – podsho – podachi, S’yovarshon (Siyovush), Kavi Xaosrov (Kay-Xisrov), Kavi Vishtasp.

Kaviylar (“Shohnoma”da kayyoniylar) – podsholar sulolasidir. Bu sulola vakillari – Kavi Kavat (Kay-Kubot), Kavi Usan (Kay-Qovus), Kavi Pishin (Kay-Pishin), Kavi Arshan (Kay-Aresh) Zaratushtra ta’limotining tarafдорлари edi. Turonliklar orasida esa Zaratushtra ta’limotini qabul qilmagan qabilalar

mavjud bo'lgan, shu bois tilga ular "Avesto"da "soxta", "yovuz-tur" sifatida tilga olinadi.

"Avesto"da din, shaxs, oila, tabiat, muqaddas hayvonlar, jinoyat turlari bilan bog'liq ma'lumotlar mavjud.

Zardushtiyarning qonunlariga ko'ra, jasadni yerga ko'mish, ovga tashlash, gulkanda kuydirish man qilinganligi ham bizga ma'lum. "Avesto"da odam va itlar jasadini "tuproqqa topshirish" gunoh hisoblangan.

Shaxsga qarshi harakatlar ichida qurolni qo'lga olib tahdid solish, birovni kaltaklab, uni hushidan ketkazish, unga jarohat etish, suyagini sindirish va boshini yorish kabi harakatlar ham qattiq jazolangan.

Mulkiy jinoyatlar, xususan, o'g'rilik, firibgarlik, talon-taroj, qinchilik qilish gunoh hisoblangan. Manbada "Kimda-kim qaralni o'z egasiga qaytarmasa, uning bu amali o'sha omonatni qilagan bilan barobar bo'ladi", deb yozilgan.

**Qadimgi epigrafik manbalar.** Mil. avv. 558-yilda Eron-dagi ahamoniylar sulolasining yirik davlatiga podsho Kir II (Kourush) asos soladi. Kir II, Kambiz, Doro I (Daryovush), Xshayarshan (Xshayarshan) kabi fors podsholari Qadimgi Sharqdagi bo'lp mamlakatlar ustidan o'z hokimiyatini o'rnatishni rejalashtirganlar.

Mil. avv. 545–540-yillarda ahamoniylar O'rta Osiyoning Parhyu, Marg'iyyona, Baqtriya va Sug'd viloyatlarini bo'yusunligandor. Massagetlarga qarshi Kir II ning yurishlari mil. avv. 518-yilda muvaffaqqiyatsiz yakunlangan. Saklarni Doro I mil. avv. 518-yilda istilo qilgan.

Doro I davrida (mil. avv. 522–486) ahamoniylar sulo-lash vodiysidan O'rta yer dengiziga qadar bo'lgan keng landdida o'z hukmronligini o'rnatgan. Ahamoniylar davlati ja-bon tarixida birinchi yirik davlat hisoblanadi. Bu davlat ilk bor bo'lp viloyatlar, shaharlar va xalqlarni birlashtirgan. O'rta Osiyoda ahamoniylar ikki yuz yildan ziyod hukmronlik qilganlar (mil. avv. 330-yilgacha).

Ahamoniylar davri mixxat yozuvlarida O'rta Osiyo xalqlari va viloyatlari to'g'risida turli xil ma'lumotlar bor. Bu yozuvlar mil. avv. VI–IV asrlarga oid bo'lib, Behistun va Naqshi Rustam qoyatoshlarida, Suza, Persepol va Hamadon shaharlarida topib tekshirilgan. Ular qadimgi fors tilida turli ijtimoiy, siyosiy va diniy masalalarga doir podsho buyruqlari va nutqlari dan iborat.

Shular jumlasidan eng muhimi Behistun yozuvlari bo'lib, Doro I dayrida Kirmonshoh va Hamadon shahri o'rtasidagi yo'lda baland qoyatoshda yozilgan (Midiya o'lkasi). Behistun yozuvlari qadimgi fors, elam va akkad tillarida bitilgan. Unda Doro I bunday xabar beradi: "Men – Doro, ulug' podsho, shahanshoh, mamlakatlat podshosi, Vishtasp o'g'li, Arshan nevarasi, Ahamoniy shoh Doro ayturki: "Ahuramazda irodasi bilan quyidagi davlatlarni qo'limga kiritib, ularning podshosi bo'ldim: Fors, Elam, Bobil, Ossuriya, Arabiston, Misr, Lidiya, Ioniya, Midiya, Armaniston, Kappadokiya, Parfiya, Drang'iyyona, Ar'yo, Xorazm, Baqtriya, Sug'd, Gandxara, Saka, Sattagadiya, Araxoziya, Maka: hammasi bo'lib 23 davlat".

Hamadon yozuvlarida ham Doro I nomidan shunday so'zlar yozilgan: "Men – Doro, ulug' shoh, shahanshoh, davlatlar podshosi – Vishtasp o'g'li, Ahamoniy".

Shoh Doro yana ayturki: "Mana huzurimda bo'lgan podsholik: Sug'd ortidagi saklar yurtidan Efiopiyyagacha. Hindistondan Midiyagacha – bu podsholikni menga Ahuramazda – xudolar o'rtasidagi ulug' xudo tortiq qilgan".

Behistun yozuvlarida Doro I birinchi bo'lib Ahamoniylar davlatining g'arbiy viloyatlarini ko'rsatib bergen bo'lsa, Naqshi Rustam yozuvlarida mamlakatlar ro'yxati Midiya va Elamdan so'ng sharqiy viloyatlardan boshlanadi: "Men – Doro, ulug' shoh ko'p sonli qabila mamlakatlarining podshosi, keng sayhon yerlarning podshosi, Vishtasp o'g'li, Ahamoniy fors, forsning o'g'li, oriylar urug'idan kelib chiqqan oriy".

Shoh Doro ayturki: "Fors viloyatidan tashqari quyidagi mamlikatlarni men bo'ysundirganman, menga o'lpon to'lovchi bo'lgan, mening so'zimni ijro etgan, mening qonunimga asoslanib rivoyjlanayotgan: Midiya, Elam, Parfiya Ar'yo, Baqtriya, Sug'd Xorazm. Saka Xaumavarka, Saka Tigraxauda dengizdan uorigi yerdag'i saklar".

Bu shahrida topilgan yana boshqa yozuvlarda Doro I bunday elon qiladi: "Suzadagi saroyni men bino qilganimda uning bezalari uzoq yurtlardan olib kelingan. Uaka yog'ochi – Gandaridan, oltin – Sard va Baqtriyadan, yaltiroq toshlar va lojurd – So'g'diyonadan, firuza – Xorazmdan, kumush va bronza – Aksuviyadan, tosh ustunlari – Elamdan yetkazib berilgan".

Erondagi qadimgi Persepol shahridan baqtriyaliklar, xorazmlar, so'g'dlar va saklarning o'yib ishlangan rasmlari topilgan (Doro I va Kserks podsholar saroy devorlaridagi bo'rtma rasmlarda turli xalqlarning o'lpon keltirish manzarasi tasvirlangan). Persepol saroyidagi rasmlar O'rta Osiyo xalqlarining eng qadimgi tasvirlaridir (ularning qiyofasi, kiyimlari, qurollari tasvirlangan).

Turli xalqlar "qatorida sug'diyalar 8-guruhda ko'rsatilgan. Ular yetti kishidan iborat bo'lib, shohga idishlar, gazmollar, nomolom hayvon terisi va ikki qo'yni yetaklab kelayotgani tasvirlangan.

O'n birinchi guruhda uzun cho'qqili qalpoqdagi saklar tasvirlangan. Ular kiyim-kechaklarni ko'tarib va ot ni yetaklab tasvirlapdilar.

O'n bechinchi guruhda baqtriyaliklarning besh vakili idishlarini va tuyani olib berayotganligi tasvirlangan.

O'n yettinchi guruh xorazmliklar bo'lib, ularning du'loma sanjar, harbiy bolta, bilaguzuk va ot ni olib kelayotgani tasvirlangan.

O'n tasvirlarda Sug'd, Baqtriya, Xorazm va saklar yurti bo'lovchilarining ahamoniylarga turli xil hunarmandchilik

buyumlari (kulolchilik, to'qimachilik, zargarlik, harbiy qurollar) hamda Qadimgi Sharqda mashhur bo'lgan otlar va tuyalarini olib kelayotgan manzarasi o'z aksini topgan. Shuningdek, Suza yozuvlariga ko'ra, O'rta Osiyo viloyatlaridan Eronga oltin hamda lojuvard, firuza, sardolik kabi qimmatbaho toshlar olib kelgingan.

Ahamoniylar davri yozuvlarida yurtimiz xalqlarining o'tmish tarixiga tegishli viloyatlar va elatlarning nomlari, siyosiy jarayonlar, saklar yurtiga yurishlar, iqtisodiy tuzum va moddiy madaniyat to'g'risida ma'lumotlar bor.

Ko'plab tadqiqotchilarning qadimgi fors yozuvlariga bag'ishlangan asarlari mavjud (I. Markvart, E. Xertsfeld, R. Kent, A.A. Freyman, A.V. Struve, V.I. Abayev, M.A. Dandamayev va boshq.).

**Qadimgi hind manbalari.** Saklar, massagetlar, toharlar va qadimgi Qang' xalqi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqidagi qimmatli ma'lumotlar hindlarning epik dostoni "Mahabxarata"da ham mavjud.

"Mahabxarata" ("Bharata avlodlari jangnomasi") sanskrit tilida yozilgan bo'lib, 100 ming baytni o'z ichiga olgan 18 kitobdan iborat. Afsonaviy shoh Bharataning ikki toifa avlodlari kavravlar va nandavlarning o'zaro adovatlari hamda urushlari bayon etiladi. U miloddan avvalgi X–VIII asrlarda yaratilgan.

Asar qahramonlaridan biri afsonaviy Vyasa uning mualifi sanaladi. Sujetlar asosan afsona va rivoyatlardan iborat bo'lib, vaqt o'tishi bilan ular yangilanib, o'zgarib, asarning hajmi kattalashib borgan. Jumladan, "Shakuntala qissasi", "Rama qissasi", "Shiva haqidagi qissa", "Nala qissasi" va shu kabi rivoyatlar xalq og'zaki ijodidan kirib kelgan. Eposning hind xalqi hayotida muhim ahamiyatga ega ekanligining sabablaridan biri hinduizmning muqaddas kitobi bo'lmish "Bhagavadgita" ("Ilohiy qo'shiqlar") ham aynan "Mahabxarata" voqealari orqali hozirgi kungacha yetib kelgan.

"Bhagavadgita"dagi ma'bud Krishnaning so'zlari, u ko'tarib  
chiqqan g'oya bugungi hinduizmning asosiy qonun-qoidala-  
rimi tashkil etadi.

Azarda masalan, uzoq Hindistonga, fikrimizcha savdo-  
otiq ishlari bilan borgan saklar, toharlar va qanhalar haqida  
bu muhim ma'lumot keltirilgan: "Uning (podshoh Yud-  
hishtraning) eshigi oldida boshqa xalqlar bilan birga saklar,  
toharlar va qanhaliklar ham navbat kutib turardilar. Paxmoq  
soqol, peshonalari shohlar bilan bezatilgan, qo'llarida turli-  
tuman sovg'alar, jun, rangu, ipak va patta (oq qayinning bir  
turi) daraxti tolasidan, shuningdek, kamyob matolardan,  
postadan to'qilgan gazlamalar, mayin, nafis terilar, uzun va  
qor qilichlar, shamshirlar, temir nayzalar, har xil boltalar,  
qumliklar, xushbo'y narsalar, turli-tuman qimmatbaho tosh-  
lar..."

**Yunon va Rim manbalari.** O'rta Osiyo, shuningdek,  
O'rta ekistonning qadimgi va antik davri tarixini o'rganishda  
qadimgi Yunoniston va Rim tarixchilari hamda geograf olim-  
farining asarlari muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Yunon-fors urushlari boshlanishi bilan ushbu siyosiy vo-  
qeqlarda ishtirok etgan O'rta Osiyo xalqlarining tarixi qadimgi  
yunon tarixchilarining asarlarida yoritilgan.

**Gerodot** (mil. avv. 484–425) – yirik qomusiy olim. O'rta  
Osiyo xalqlari to'g'risida qisqa bo'lsa-da, aniq ma'lumotlar  
taruvchi Gerodotning "Tarix" kitobi ayniqsa, qimmatlidir.  
Qadimgi davrlardan boshlab bu kitob dunyoda eng mashhur  
tarixiy asarlardan biri bo'lib, uning muallifi Gerodot qadimda  
"tarixning otasi" deb nom olgan.

Gerodotni Old Osiyo, Misr, Bobil, Eron va "dunyo chegaralarida"  
joylashgan xalqlar va davlatlar tarixi ham ancha  
qo'shtirgan. Qadimgi Yunonistonda mavjud tasavvurlarga ko'ra,  
O'rta Osiyo va Hindiston o'lkalari inson yashagan dunyo – oy-  
kumenanining sharqiy chegaralarida joylashgan. Gerodot O'rta

Osiyoda hech qachon bo'lмаган va bu hudud haqida o'zi eshitgan hikoyalari, surishtirib bilganlari asosida yozgan.

Gerodot "Tarix" kitobini mil.avv. 455–445-yillar davomida yaratgani bizga ma'lum. Bu muhim asarida Gerodot, Baqtriya, Baqtra, baqtriyaliklarni 13 marta, sug'dlarni 2 marta, xorazmliklarni (xorasmiylar shaklda) 3 marta, saklarni 11 marta, masagetlarni 19 marta tilga olib, ularning moddiy madaniyati, urfodatlari, dini va tarixi haqida hikoya qilgan.

Gerodotning O'rta Osiyo to'g'risidagi ma'lumotlarining asosiy qismi forslarning sak-massagegetlarga qarshi yurishlari, Kir II va To'maris ortasidagi siyosiy munosabatlar, ahamoniylar harbiy qo'shinlari safida yurtimiz xalqlari jangchilarining ishtiroki, ularning yarog'-aslalahalari, yo'llboshchilari, fors-yunon urushlarida ko'rsatgan jasorati, mintaqqa xalqlarining ahamoniylar davlatiga bo'ysunishi va maxsus yillik soliq to'lashi, sak-massagegetlarning urf-odatlari, turmush tarzi va diniy e'tiqodi, O'rta Osiyodagi Akes daryosining suvlaridan foydalanishi haqida va boshqa ayrim ma'lumotlardan iborat.

Gerodot O'rta Osiyoda aholi joylashuvi umumiy hududiy chegaralaridan bexabar bo'lgan. Uning ma'lumotlaridagi "Baqtriyva xalqi" tushunchasi ma'lum bir etnik birlikni birlashtirgan bo'lishi mumkin. "Xalq" ma'nosini beruvchi "etnos" so'zi Gerodot asarida juda ko'p uchraydi (tadqiqotchilar hisobiga ko'ra, tarixchi bu atamani 145 marta tilga olgan) va ikki joydagina bu etnonim Baqtriyaga nisbatan ishlatalig'an.

Quyidagi keltirilgan ma'lumotlar G.A. Stratanskiiy tomonidan rus tiliga o'girilgan Gerodotning "Tarix" asaridan olingan. U yerda Doro I ahamoniylar davlatini 20 ta o'lkaga bo'lganligi haqida ma'lumot keltiriladi. Gerodot O'rta Osiyo xalqlari haqida bunday xabar beradi:

Tarix, III kitob, 92. "Baqtriyaliklardan eglargacha bo'lgan xalqlar 300 talant soliq to'laganlar. Bu – o'n ikkinchi o'lka". (Bir talant 25,92 kg. kumushdir.)

III, 93. "Saklar va kaspiylar 200 talant to'laganlar. Bu – o'n boshinchi o'lka. Parfiyaliklar, xorasmiylar, sug'diyilar va ariylar 300 talant to'laganlar. Bu – o'n oltinchi o'lka".

Gerodot muntazam ravishda ahamoniylar harbiy qo'shinidagi mintaqa xalqlarining jangchi vakillari haqida yoritadi:

Tarix, VII, 64. "Baqtriyaliklarning ust-boshi midiyaliklarning ust-boshiga o'xshagan, ular o'q-yoy va kalta nayzalar bilan qurollanganlar. Saklar esa (skif qabilasi) uzun cho'qqili tig'iz qulpoqlar hamda ishton kiyib, kamon va xanjarlar bilan qurollanganlar, yana ularda ikki qirrali jangovar boltalar – sagarislar bo'lgan. Ushbu qabila (aynan skif qabilasi) amirgiy saklar deb nomlangan. Forslar skiflarning hammasini saklar deb ataganlar. Baqtriyaliklar va saklarning sardori Gistasp–Doro va Kirning qizi Atossaning o'g'li bo'lgan".

VII, 86. "Baqtriya chavandozlarining qurollari piyoda askarlari qurollariga o'xshagan".

Tarix, I, 201. "Shu xalqlarga ega bo'lgandan so'ng, Kir masallarni istilo qilish maqsadini o'z oldiga qo'ygan. Bu masallar jasur va behisob qabiladir. Ular sharqda, quyosh chiqish yo'nalishida, Araks daryosining narigi yog'ida issedonlarga ro'para bo'lib joylashganlar. Ba'zilar ularni skif qabilasi deb hisoblaganlar".

I, 202. "Hikoyachilarning xabarlariga ko'ra, Araks Istr daryosidan yirikroqdir, aksincha, boshqa birlari esa uni kichikroq daryo deb hisoblaydilar. Araks daryosida orollar ko'p... Anduning bir o'zani keng ochiq joyda oqib, Kaspiy deniziga quyiladi: Kaspiy dengizi – bu boshqa dengizlar bilan bog'lanmagan dengizdir".

I, 215. "Massagetlarning kiyim-kechaklari va turmush millarnikidan uncha farq qilmaydi. Ularning otliq va piyoda qo'shinlari bo'lib, odatda ular kamon, nayza va harbiy cho'qmorlar bilan jang qiladilar. Ularning hamma narsalari otlin va misdan ishlangan. Cho'qmor, o'q va nayzalar uchlari

misdan ishlangan, ularning ust-boshlari oltin bilan naqshlangan. Ular otlarining egar-jabduqlarini ham ust-boshlari kabi oltin bilan bezatadilar. Temir va kumushdan yasalgan buyumlar ularning ro'zg'orida ishlatilmaydi, chunki bu metallar mas-sagetcarning yerlarida umuman uchramaydi, biroq oltin va misularda juda ko'p".

I, 216. "Bug'doyni massagetlar ekmaydilar, chorvachilik va baliqchilik (Araks daryosida baliq serob) bilan shug'ullanadilar hamda sut ichadilar. Massagetlar ichida ulug'langan yagona xudo – bu Quyoshdir, Quyoshga ular otlarni qurban qiladilar, chunki dunyodagi eng chaqqon xudoga tez chopar jonliqni qurban qilish lozim deb o'ylaydilar".

Mil. avv. 530-yilda Kir II massagetlarga qarshi yurish boshlagan. Bu voqealar "Tarix"ning birinchi kitobida tasvirlangan: To'marisning yurtiga podsho Kir tomonidan sovchilarining yetib kelishi; podshoga turmushga chiqish Kir taklifining To'maris tomonidan rad qilinishi; forslarning Araks daryosidan kechib o'tishi va massagetlar yelarining ichkarisiga kirib borishi; To'maris boshchiligidagi massagetlarning harakatlari natijasida forslarning butunlay qirib tashlanishi.

Gerodotning Akes daryosi suvlaridan foydalanish haqidagi ma'lumotlariga asoslanib, bir guruh olimlar (F. Altxayim, V.B. Xenning, I. Gershevich) ahamoniylar davridan oldin O'rta Osiyoda markazi Marv va Xirot bo'lgan "Katta Xorazm" davlati rivojlangan degan muammoni ilgari surdilar.

Gerodotning "Tarix" asarida O'rta Osiyo hududi bilan bog'langan geografik tushunchalar kam uchraydi. Shular jumlasidan, daryolar Araks, Akes va Kaspiy dengizidir. Gerodot Baqtriya markazi Baqtra shahrini va shu viloyatdagi Barkanomli manzilohni ikki marta tilga olgan (Gerodot, IV, 204; VI, 9; IX, 113). Boshqa daryolar, tog'lar, ko'llar yoki shaharlар va joylar haqida tarixchi xabar bermagan. Ba'zi xalqlarning

Individuy joylashuvi (saranglar, tamaneylar) bizga noma'lum bo'lib qolgan.

Cerodotning asarida O'rta Osiyo jangchilari Kserks qo'shnlari safida qadimgi dunyo tarixida mashhur yunon-fors qo'shnlari idagi Marafon va Salamin janglarida qatnashganlari haqida ma'lumotlar bor. Marafon jangida saklarning otliq qo'shnlari nihoyatda katta jasorat ko'rsatganlar (Tarix, IX.71).

Manbada saklar va Baqtriya suvoriylari ahamoniylar qo'shnlari idagi eng jasur qismlardan biri sifatida yoritilgan. Cerodot xabariga ko'ra, Kserksning otliq qo'shnlarida faqat ayrim xalqlargina maxsus xizmat qilganlar – forslar, midiylar, askarlar, batstriyaliklar (boxtariylar), hindlar, liviyaliklar, kaspiyler, parikaniylar va arablar (Tarix, VII, 88).

**Ktesiy** (mil. avv. V asr ikkinchi yarmi – IV asr boshlari) cerodotning tarixiy an'analarini davom ettirgan yunon tarixchisi bo'lib, u Kichik Osiyodagi Knid shahridan kelib chiqqan. U mil. avv. 404-yildan boshlab ahamoniylar podshosi Artakserks II (mil. avv. 404–359) saroyida tabib vazifasini bajargan. Podsholi qadimgi Sharq chegaralarida joylashgan uzoq shaharlar, mamlakatlar va xalqlar haqida ko'pdan ko'p hikoyalar eshitishni. Qadimgi yunon afsonalari ta'sirida tarbiyalangan Ktesiy qadimiy Sharq dostonlari va tarixiga ham juda qiziqib, Fors podsholi hududida istiqomat qilgan ayrim xalqlarning tarixi va madaniyatiga oid ancha ma'lumotlarni yig'gan.

Ayniqsa, tarixchini Hindiston va Baqtriya qiziqtirgan. Hindistonga nisbatan katta e'tiborini tushunish mumkin, chunki qadimgi yunonlarning tasavvurlarida, bu o'lka qayosh chiqishida birinchi va dunyoning sharqi chegaralarida o'sishi mamlakat bo'lib hisoblangan. Hindistonga chegaradosh bog'liyaning oltini, qimmatbaho yarqiroq toshlari, kamon va maydonlari bilan qurollangan chavandozlari Eronda mashhur edi. Bu bora Ktesiy "Persika" asarining katta bir qismini baqtriyaliklar tarixiga bag'ishlagan.

Erondan yurtiga qaytganidan so'ng Ktesiy qadimgi forslar tarixini yoritishni rejalashtirgan. Biroq to'plangan ma'lumotlar aynan forslar tarixi mundarijasi doirasidan chiqib baqtriyaliklar tarixini yoritishga ham xizmat qilgan. "Persika" – "Fors tarixi" deb nomlangan asar mil.avv. 398-yildan so'ng yozilgan.

Ktesiy Ossuriya hukmdori Nin va Baqtriy podshosi Oksiart (boshqqa manbalarda Zoroastr-Zardusht) urushlari haqida hamda Kir II ning baqtriyaliklar bilan urushi to'g'risida hikoya qiladi. Odatda, bir guruh olimlar Ktesiyni Gerodotga nisbatan ishonchsizroq muallif deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, Ossuriya podsholari hech qachon Sharqning uzoq chegaralariga yurishlar qilmaganlar, bundan tashqari, Baqtriyaning qo'shinlari uncha qudratli bo'lмаган va Ossuriyaga qarshi chiqolmagan deb faraz qilinadi.

Ktesiy Baqtriyaning ko'p sonli istehkomlari va shaharlari hamda mustahkamlangan poytaxti haqida, bu shaharni qamal qilgan Ossuriya podshosi Nin to'g'risida shunday yozadi: "... Nin baqtriyaliklarga qarshi yurishni boshlagan. U Baqtriyaning qal'alari, aholisining ko'pligi va jasurligi haqida xabardor bo'lib, o'ziga bo'ysundirgan xalqlardan ko'p sonli qo'shinlarni yig'ib olgan. Shu qo'shinlarga sardor bo'lib, Nin Baqtriya yurtiga bostirib kirgan, ammo viloyatdagi xilma-xil tog' daralari uning qo'shinlarini alohida qismlarga bo'lishga majbur qilgan.

Baqtriyadagi ko'pgina yirik shaharlar orasida Baqtra nomli bir mashhur shahar bo'lgan. U mamlakatning markazi bo'lib, ko'p shaharlar ichida, baland va mustahkam mudofaa devorlari bilan ajralib turgan, unda podsho qal'asi alohida joylashgan".

Hatto XX asrning o'rtalariga qadar qadimshunoslar Ktesiyning Baqtriyada qudratli qal'alar va shaharlari haqidagi hikoya larga nisbatan ishonchsizlik bilan qarashgan. Biroq keyingi arxeologik kashfiyotlari natijasida Baqtriy hududida ko'p sonli istehkomlar, mudofaa devorlar va burjlar bilan mustahkamlangan mil. avv. VII–VI asrlarga oid ko'hna shaharlar aniqlandi.

Gekatey va Gerodot asarlaridan kelib chiqqan "Katta Xorazm" davlati masalasi, shuningdek, Ktesiyning Baqtriya podsholigi haqidagi ma'lumotlari O'rta Osiyoda ilk davlatlarning paydo bo'lishi ilmiy muammosiga asos bo'lib xizmat qildi.

**Gekatey** (taxm. mil. avv. 550–490) qadimgi yunon tarixchilaridan biri hisoblanadi. Gekatey Milet shahridan bo'lib (mil. avv. VI–V asrlar) qadim tarixchilar orasida birinchi bo'lib ahamoniylar satrapiyalarining ro'yxatini keltirgan va Qadimgi shaxsqalqlari tarixiga oid ma'lumot bergan (jumladan, parfiyalilar, xorazmiylar, baqtriyaliklar va ariyaliklar (oriylar) haqida ham yozgan). Uning ma'lumotlaridan Gerodot va Ktesiyalar foydalanganlar (Ktesiy o'z asarida ahamoniylarning podsho saroyi podsholardan foydalanganligi haqida e'lon qiladi). Gerodotdan oldin Hindiston haqida Skilak xabar qilgan. U podsho Doro Jining buyrug'ini bajarib, Hind daryosi orqali kemalarda suvni, Arabiston dengiziga chiqqan va Qizil dengizi bo'ylab Misr qirg'oslariga eson-omon yetib borgan.

**Ksenofont** (mil. avv. 430–356) qadimgi yunon tarixchisi. Uning mashhur asarlari "Kir anabasisi" ("Kir yurishlari"), "Yunon tarixi" ("Ellenika"), "Kiropediya". Ksenofont "Kiropediya" nomli asarida, Ktesiy xabarlariga oxshash, Baqtra shahridan osuriyaliklar tomonidan qamal qilinishi to'g'risida ma'lumot beradi. Shuningdek, Ksenofont Kir II va Baqtriya aruslari haqida ham yozadi.

Mil. avv. 329-yilda makedoniyalik Aleksandrning Baqtriya va bug'diyona yerlariga harbiy yurishlari boshlangan. Bu yurishlari O'rta Osiyo tarixida eng yaxshi o'rganilgan mavzularidan biridir. Aleksandrning qo'shinida jangchilar bilan birga bu lojal tarixchilar Ptolemey, Aristovul, Onesikrit, Kallisfen va Xeraslar xizmat qilib, o'z kundaliklarida turli xil siyosiy va mafeniylar voqealarni yozib borganlar. Ularning ma'lumotlari bissa bo'yib kelmag'an, biroq dastlabki manbalardan so'nggi yunon tarixchilari va geograflari foydalanganlar. Jumladan,

Diodor “Tarixiy kutubxona”, Strabon (mil. avv. 61–mil. 24) “Geografiya”, Pompey Trog (mil. avv. I–mil. I asr) “Filipp tarixi” asarlarini, Plutarx (mil. 46–127), Klavdiy Ptolemylar (II asr) o‘z hikoyalarini hamda Pliniy (I asr) “Tabiiy tarix” nomli kitobini yaratdilar. Ammo Aleksandr yurishlari haqida keng va to‘liq ma’lumotlar rimlik Kvint Kurtsiy Ruf va yunon Arrian asarlarida saqlangan.

**Diodor** (mil. avv. 90–21) yirik tarixchi olim bo‘lib, ashi Sitsiliyaga qarashli Argiriya shahridan. Diodorning “Tarixiy kutubxona” nomli asari 40 kitobdan iborat. Mazkur tarixiy asar asosan Yunoniston va Rimning qadim zamonlardan milodiy I asr o‘rtalarigacha bo‘lgan tarixini o‘z ichiga olgan. Shuningdek, O‘rta Osiyo hududida yashagan qadimgi xalqlar (skiflar, saklar, massagetlar, baqtriyaliklar va boshq.), O‘rta Osiyo va Eron munosabatlari xususida ham qimmatli ma’lumotlar mavjud.

Diodor o‘z asarlarida Gekatey, Gerodot, Ktesiy, Efor, Polibiy va boshqa shu kabi mualliflarning ma’lumotlaridan foydalangan. “Tarixiy kutubxona” asarining bizgacha 15 kitobi to‘liq holda yetib kelgan xolos. Bular 1–5 hamda 11–20 kitoblar. 9 va 10 kitoblarning esa, ayrim qismlarigina saqlanib qolgan. Mazkur asar 1774–1775-yillarda I. Alekseyev tomonidan (olti qismda) va 1874–1875-yillarda F.G. Mishchenko tomonidan ikki qism qilib nashr etilgan.

**Pompey Trog** (mil. avv. I asr – mil. I asr o‘rtalari) mash-hur Rim tarixchisi. Uning “Filipp tarixi” nomli asari 44 kitobdan iborat bo‘lib, kitobda Ossuriya podshosi Nin davridan toki muallif yashagan davrigacha bo‘lib o‘tgan voqealar bayon etilgan. Lekin Fillipp II va makedoniyalik Aleksandr davri tarixiga alohida e’tibor qaratilgan.

Mazkur asar yozilishida muallif Gerodot, Ktesiy va Polibiy ma’lumotlaridan foydalangan. “Filipp tarixi” asarida skiflar, Baqtriya, makedoniyalik Aleksandr davrida Baqtriya va So‘g’dda qurilgan shahar va katta imoratlar, Aleksandr vafotidan keyin

shahar bo'lgan voqealar, Parfiya podsholigining tashkil topishi, Baqtriya, Parfiya va Midiyaning o'zaro munosabatlariga oid mukammal ma'lumotlar mavjud.

**Arriian** (mil. 90/95–175) – yunon yozuvchisi, tarixchi va geograf olim. Olim asli Kichik Osivoning Nikomadiya shahridan "Aleksandr haqida", "Parfiyaliklar haqida", "Hindiston" va yillardan iborat "Aleksandr anabasisi" nomli asarlar muallifi. Anabasis – bu "davlat ichkarisiga dengizdan uzoqlashgan hujum yurish" yoki "Aleksandr yurishlari" deb tarjima qilinadi. Quyida Arrian va Kurtsiy Ruf asarlaridan olingan ayrim mukammotlarning tarjimasi keltiriladi (ular rus tiliga M.E. Serovenko va V.S. Sokolovlar tomonidan tarjima qilingan).

**Arriian, III kitob, 27-bob, 9.** "Aleksandr yaqinlashib bolishi haqida eshitib, Bess Oks daryosidan kechib o'tadi va ko'modarini yondirib, Nautaka – sug'diyilar yeriga yo'l oladi".  
"Spitaman va Oksiart bilan birga sug'diyilar suvorilari hamda tunais daylari unga ergashadilar. Baqtriya chavandozlari Bessning qochishidan xabar topib, har tomonlarga qarab o'z uyloriga yo'l oladilar.

Aleksandr Drapsakga yetib keladi, qo'shinlariga dam berib, Baqtriyadagi eng yirik shaharlar – Aorn va Baqtra tomoniga yurgizadi. Bu shaharlarni hujum qilib zabit etadi va Aorn qal'asida Androkolning o'g'li Arxelay boshchiligidagi qo'riqchi qurʼon qoldiradi. Himoyasiz taslim bo'lgan boshqa baqtriyalarga hujum bo'lib fors Artaboz tayinlanadi".

"U o'zi Oks daryosiga qarab yo'l oladi. Oks Kavkazning tomonidan boshlab oqadi; hind daryolaridan tashqari Aleksandr Osivoda qurban daryolar ichida bu eng yirik daryodir: qurʼonning eng yirik daryolar Hindistonda joylashgan. Oks Girbaqiyadagi katta bir dengizga quyiladi".

**IV, n. 2.** "Spitaman o'z jangchilari bilan Maroqanda qal'asini qurʼonlayotgan makedonlarga hujum qiladi. Aleksandr Maroqaniga yordamchi qo'shin yuborganidan xabar topib, Spitaman

qal'a qamalini to'xtatib, Sug'diyonadagi basileya – podsho shahriga otlanadi. Farnux va uning lashkarboshlari Spitamanni davlatdan butunlay siqib chiqarishga harakat qiladilar va Sug'diyona chegaralariga yetib kelib, ko'chmanchi skiflarga hujum qiladilar". 4. "Spitaman yana 600 ta skif otliqlarini o'z qo'shiniga qo'shib oladi va skif ittifoqdoshligidan ko'ngli ko'tarilib, hujum qilayotgan makedonlarga qarshi jang qilishga qaror qiladi. Skif dashtlarining tekisligida turib u dushmanni hujumini ham kutmadni, dushmanga hujum ham qilmadi; faqat uning chavandozlari piyoda makedonlarning atrofida ot qo'yib chopib yurdilar va ularga o'q otdilar". 5. "Farnuhning askarlidan ular osonlik bilan qutuldilar, chunki ularning otlari chaqqonroq bo'lib, o'sha paytda hali charchamagan edi, Andromax qo'shinlaridagi otlar esa olis yo'llarda charchab, yemishi kamligidan zaiflashgandi. Skiflar jang maydonida turgan va chekinayotgan makedonlarga g'ayrat bilan hujum qiladilar". 6. "Ko'pdan ko'p makedonlar yaralanadi va halok bo'ladi; xuldas jangchilar to'rtburchak bir qator saflanib, Politimet (Zarafshon) daryosi tomonga chekinadilar; bu yerda o'rmon bo'lib, o'rmondag'i changalzorlar varvarlarning o'qlariga to'siq bo'ladi va piyoda askarlarning harakatlariga ko'proq foyda keltiradi".

15. 5. "Aleksandr Farasmanga minnatdorlik bildiradi va do'stlik ittifoqchiligi haqida shartnoma tuzib, Pont dengizi tomonga yurishga hozir vaqtim yo'q, deb javob beradi. U Spitamanni Baqtriya satrapi fors Artaboz huzuriga yuborib, vataniga jo'natadi".

**Kvint Kurtsiy Ruf** (mil. avv. I asrning oxiri – mil. I asrning o'rtalari) mashhur Rim tarixchisi. Makedoniyalik Aleksandrning Eron, O'rta Osiyo va boshqa mamlakatlarga qilgan harbiy yurishlari haqida 10 kitobdan iborat "Makedoniyalik Aleksandr tarixi" nomli kitobni yaratgan. Kurtsiy Ruf o'z asarini yozishda Ptolomey Lag va Aleksandr safdoshlari Onesikrit hamda Kallisfenning xotira va kitoblaridan keng foydalangan.

Muallif O'rta Osiyo xalqlarining bosqinchilarga qarshi kurashi, Spitaman boshliq qo'zg'oltonni keng yoritgan. Biroq A'erlanga nisbatan uning hikoyalarida badiiy to'qimalar ko'p uchraydi.

**Kurtsiy Ruf. VII kitob**, IV bob, 26: "Baqtriyaning tabiatini boy va turli-tumandir. Ba'zi joylarda ko'pdan ko'p daraxtzorlar va jok novdasi, shirin meva serob hosil qiladi; unumdar yerlar ni ko'p manoqli buloq-daryolar sug'oradilar; hosildor tuprog'ida buj'doy ekiladi; boshqa yerlar o'tloqlar uchun qoldiriladi". 27. "Davlatning katta bir qismini hosilsiz dashtlar egallaydi; suvsizlik tufayli tashlab qo'yilgan yerlarda na odamlar, na mevalar bo'sh. Ondan (Qora dengiz) esayotgan shamollar tekisliklarga qandam surilib keltiradi; olis masofadan qum uyumlari katta tepaliklarga o'xshab ketadi; shu yerda burungi yo'llarning izlari nisqolib qoladi". 28. "Shu boisdan ham bu tekisliklardan o'tib yurganlar, xuddi dengizchilarga o'xshab, o'z yo'llarini tundagi qulduzlar orqali topadilar".

V. Aleksandr baqtriyilar viloyatini Artaboz idorasiga topdi, bu joydagи qo'riqchilar qo'shini bilan birga ot-arava yukselish qoldiradi. O'zi esa harakatdagи qo'shnlarga yo'lboschchi bo'sh, ang'diyona sahosiga yo'l oladi...".

V. 13. "Xullas, kechki payt u Oks daryosiga yetib keladi. Uning izidan kelayotgan ko'pdan ko'p jangchilar unga yurishadi va orqada qoladilar, shu sababli u baland tog' ustida o't yondirishga buyruq beradi, ortda qolganlar uchun gilang muri lagerga yaqinlashib kelishlarini bildiradi".

V. 16, 17, 18. "Ushbu tunni Aleksandr katta ruhiy hayajon hisob uyuqiz tugatdi. Keyingi kun ham oson bo'lmadi; kemalar edi va daryoning ochiq qirg'oqlarida ko'prik qurish uchun daryo qolalar ham bo'limgan. Shu vaziyatdan u yagona xulosa bo'sh. U askarlarga somon bilan to'ldirilgan meshlarni qaror qiladi; ular meshlar ustida daryodan suzib bo'shlaysilar: daryodan birinchi bo'slib kechib o'tganlari

qo'riqchilar xizmatini bajarib, boshqalarni kutib oladilar. Shu tarzda qo'shinlar oltinchi kuni daryoning narigi qirg'og'iga o'tib olishga muvaffaq bo'ladilar”.

VII. 6, 17. “Aleksandr Maroqandaga yetib keladi. Uning mudofaa devorlarining uzunligi 70 stadiy; shahar qo'rg'oni ikkinchi devor bilan o'ralsan”.

VII. 1, 2. “Tanais ortidagi skif davlatining podshosi make donlar tomonidan daryo bo'yida asos solingan shahar qullil bo'yinturug'i bo'lishini sezib, uni vayron qilish va makedonlarni daryo qirg'og'idan uzoq masofaga quvib chiqarish uchun katta bir otliq qo'shin bilan birga o'z akasi Karatazis nomli yo'lboschchini yuboradi. Tanais baqtriyarlari yevropalik skiflardan ajratadi”.

4. “Ular Istr daryosining narigi yog'idagi boshqa bir viloyatni egallab, Osiyoning chegara yerlarida joylashgan Baqtriyaga ham qo'shni bo'ladilar. Ular joylashgan shimal yerlaridan nariroqda qalin ormonzorlar va odam yashamaydigan jumit sayhon yerlar boshanadi; Tanais va Baqtriya bo'ylab joylashgan yerlar, umumiyy madaniy izlarga ega”. 5. “Aleksandr tayyorgarlik ko'rmasdan birinchi bo'lib jang qilishga erishadi, uning ko'z o'ngida dushman chavandozlari otda chopadilar, u esa yaradorlikdan butunlay tu zalmagan... Xullas, u do'stlarini maslahatga chaqiradi”. 6. “U dushmanidan emas, noqulay vaziyatdan qo'rqqan edi. Baqtriyalar isyon ko'tardilar, skiflar bezovta qilardilar; uning o'zi zo'rqa oyoqda turib, otga minishga ham, yo'lboschchi bo'lib askarlarini ruhlantirishga ham imkon topmadi...”.

30. “Yetib kelayotgan xabarlar uning to'xtovsiz g'alabalari sha'niga mos kelmas edi”.

31. “Yuqoridagi hikoyaga ko'ra, u baqtriyalar qo'zg'oloniga aybdor Spitamanga qarshi Menedemni yuboradi. U make donlar yaqinlashib kelishi haqida eshitib va shahar atrofida qamalib qolishdan saqlanish uchun panagohga bekinadi, shu yerdan o'tishi mumkin bo'lgan dushmanga hujum qilishga qaror qildi”.

32. "Yo'l pistirma uchun qulay joyni kesib o'tadi, shu yerda u daxlarni yashintiradi. Har bir otga ikkita qurollangan chandor minadi, kutilmaganda ular navbat bilan yerga tushib o'tqilalar jangidagi dushmanlarga to'sqinlik qiladilar".

33. "Jangchilarning epchilligi otlarning chaqqonligiga o'shab ketadi. Spitaman changalzorni o'rab olishga buyruq berib dushmanlarga qarshi bordaniga ortdan, ro'para va yon imonlardan hujum qiladi".

34. "Menedem barcha tomondan o'rab olinadi, u notanish joyida pistirmaga tushgan va boshqa hech iloji yo'qligini ko'rib, jangchilariga son jihatdan ustun bo'lgan dushmanlarni qirib o'tdashiga va mag'rur halok bo'lismaga chaqiradi". 35. "Uning osobli uchli ot bo'lgan; ko'p hollarda varvarlar safiga tashlanib, sherga dahshatli zarar keltiradi.

36. "Dushmanlar unga ko'pdan ko'p o'q otadilar. Sanoqsiz qaralardan zaiflanib... u jonidan judo bo'ladi va ot ustidan yerga o'shib qoladi".

37. "Bu jangda 2000 ta piyoda askarlar va 300 ta chavandor halok bo'ladi. Jang maydonidan kelgan askarlarni o'lim bilan qo'rqtib, Aleksandr mag'lubiyat haqidagi xabarni qayotlik bilan sir saqladi".

**Gay Pliniy Sekund** (22/24–79) – rimlik mashhur yozuvchi olim. "Germanlarning urushlari", "Pomponiy olimning hayoti" nomli asarlar muallifi. Olimning 37 kitobdan iborat "Oddiy tarix" asari eng mashhuri bo'lib, unda antik dunyo tarixi, iqtisodiy ahvoli hamda madaniyati bayon etilgan. Shuning asarda O'rta Osiyo, xususan O'zbekiston qadimiy tarixi, yashagan xalqlar, Oks (Amudaryo), Yaksart (Sirdaryo) va Glongning skifcha nomlari, Baqtriya va uning tabiiy boyliklari qimmatli ma'lumotlarni uchratish mumkin.

**Strabon** (mil. avv. 64/63–milodiy 23/24) – qadimgi Yu-nionning atoqli geograf olim. Strabonning eng muhim ijod 17 kitobdan iborat "Geografiya" nomli asar bo'lib, u dunyo geografiyasini o'rganishda eng qimmatli man-

ba hisoblanadi. Asarda Osiyo mamlakatlariga ham katta o'rni berilgan. Bu 11–16 kitoblarni o'z ichiga olgan.

Strabon "Geografiya"sida Girkaniya, Parfiya, Baqtriya va Marg'iyanoning tabiiy holati, shaharlari; Oks va Yaksart daryolari haqida, qadimiy xalqlar: saklar, massagetlar, daylar, atasiyalar, xorazmliklar va ularning kelib chiqishi, shuningdek, Baqtriya va Parfiya munosabatlari xususida qimmatli ma'lumotlarni uchratish mumkin.

**Strabon, "Geografiya". XI kitob**, XI bob, 3: "Oldingi zamонларда бақтрийлар, суг'dиylarning tur mush tarzi va urf-odatлари ко'chmanchilar ning tur mushi tarzidan ko'p farq qilmagan, ammo baqtriy larning an'analarini ancha yuqori madaniyatga ega bo'lgan; lekin ular haqidagi Onesikritning fikri maqtovga sazovor emas. Uning so'zlariga ko'ra, qarilik va kasallikdan qattiq toliqqan odamlarni ular maxsus boqilgan va o'zlarining mahalliy tillarida "go'rkovlar" degan itlarga tashlaganlar, Baqtriy lari poytaxti devorlaridan tashqari joylar toza bo'lgan, lekin davlat ichkarisidagi hududning katta bir qismi odamlar suyaklari bilan to'ldirilgan. Aleksandr bu urf-odatni yo'q qildi. Shunga o'xshagan hikoyalarni kaspiylar haqida ham aytib beradilar: ular 70 yoshdan oshgan o'z ota-onalarini qamab qo'yadilar va och qoldiradilar".

XI. 4. "Aytishlaricha, Aleksandr Baqtriya va Sug'diyonada 8 ta shaharga asos solgan va ko'plarini vayron qilgan. Vayron qilinganlari jumlasidan Baqtriyadagi Kariata (bu yerda Kallisfen qo'lga tushib qamoqqa olingan), Sug'diyonadagi Maroqanda va Kira-Yaksart daryosidagi Kir tomonidan qurilgan oxirgi shahar; bu fors davlatining chekkasi bo'lgan. Aleksandr Kirmi hurmat-izzat qilgan bo'lsa ham, bu shahar aholisining ko'pdan ko'p qo'zg'ololnari sabablariga ko'ra, uni vayron qilishga buyruq bergan...".

XI. 5. "Sug'diyona ichidan oqayotgan daryoni, Aristovulning aytishicha, makedonlar Politimet deb atashgan (xuddi

shunday ular boshqa ko'p nomlarni almashtirganlar va qisqaroq o'gartirganlar). Ariylar yeridan oqayotgan Ariy daryo haqida shab, bu daryo davlat yerlarini sug'orib, dasht va sahro qurilishiiga intiladi va qumlar ichida yo'qolib ketadi".

**Klavdiy Ptolomey** (taxminan 90/100–160/170) – mashhur qomusiy olim, Aleksandriyada yashab ijod qilgan. U astronomiya, geometriya, fizika (optika, mexanika) hamda geografiyaga oid asarlar yozib qoldirgan.

Mashhur "Almagest" – "Al-majasti" (18 kitobdan iborat), astronomiya va trigonometriya ilmlarini o'z ichiga oladi), "Optika" (5 kitobdan iborat), "Germanlar haqida tushuncha" (4 kitobdan iborat) va, nihoyat, "Geografiya" shular jumlasidir. Lekin olimga shuhrat keltirgan asarlari "Almagest" va "Geografiya"dir.

"Geografiya"ning (8 kitobdan iborat) birinchi kitobi, aniqrog'i qurilishi haqida jahon mamlakatlarini tavsiflashga bag'ishlangan va hamma ilmiy qiymatga ega. Shunisi muhimki, asarda shaharlar, mamlakatlar va ularning koordinatalari keltirilgan va unga qarab xarita ilova qilingan.

Ptolomeyning "Geografiya"sida Girkaniya, Marg'iyona, Majuriya, So'g'diyona hamda skiflar mamlakatining geografik hajatlari, Baqtriya va So'g'diyonaning mashhur shaharlari, shuningdek, o'sha mamlakatlar va ular bilan tutash o'lkkalar hamda shaharning abolisi haqida asl va qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

Vunon va Rim olimlarining tarix va geografiyaga oid asarlar, muhim darajada musulmon, shu jumladan yurtimiz olimlar Al-Norazmiy, Al-Farg'oniy, Beruniy va boshqalarning ijodlari asos bo'lib xizmat qildi.

**Xitoy manbalari.** Markaziy Osiyo, xususan O'zbekiston joriisiga bevosita bog'liq bo'lgan Xitoy xalqining qadimgi yozuviga manbalarini chuqur va atroficha o'rganish, ulardagi mu'lumotlarni ilmiy muomalaga kiritish ham muhim ahamiyatga ega.

Xitoy manbalari haqida so'z boshlashdan oldin shuni alo hida qayd etib o'tish kerakki, ular ham xitoy hukmdorlarining maqsad va manfaatlarini ko'zlab yozilgan, boshqa xalqlarning tarixi ko'p hollarda bir taraflama yoritilgan. Lekin Xitoy manbalarida bo'lib o'tgan voqealarning vaqt va o'rni aniq ko'rsatiladi, bir-biriga qarshi turgan qo'shinlarning umumiy soni aniq ko'rsatiladi. Qadimiy O'zbekistonning uzoq o'tmishdagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o'rganishda quyidagi xitoy manbalari muhim rol o'yнaydi. Xitoylik olimlar asarlarida burchun ma'lum va noma'lum ma'lumotlardan tashqari biz uchun qiziq bo'lgan fikr va mulohazalar ham mavjud.

Markaziy Osiyo haqida dastlabki manbalar Sima Syan va Ban Gu asarlarida uchraydi. Umuman olganda o'zida O'rta Osiyoning qadimgi va o'rta asrlar tarixini yorituvchi asosiy Xitoy manbalari quyidagilar: Sima Syanning "*Shi Szi*" ("Tarixiy xotiralar"), "*Syan Xan shu*" ("Birinchi Xan sulolasi tarixi"), "*Xou Xan shu*" ("Keyingi Xan sulolasi tarixi"), "*Jin shu*" ("Jin[sulolasi] tarixi"), "*Vey shu*" ("Vey sulolasi tarixi"), Vey Chjenning "*Suy shu*" ("Suy sulolasi tarixi"), "*Bey shu*" ("Shimoliy sulolalar tarixi"), "*Shin Tang shu*" ("Tang sulolasining yangi tarixi"), "*Tung dyan*" ("Qonun-qoidalar va urf-odatlar bayoni"), "*Tayping xuanyuy ji*" (Tinchlik o'rnatilgan zamin bayoni"), "*Tungjian jishi benmuo*" ("Muhim tarixiy voqealar bayoni"), "*Datang shiyuy ji*" ("Buyuk Tang davridagi g'arbiy mamlakatlar xotiralar"), "*Vang'u tyanchju-guo chjuan*" ("Hindistondagi 5 ta davlatga qilingan safar haqida bayon"), "*Du xuan jingshing ji*" ("Du Xuanning borgan joylari xotirasi") va boshqalar.

Mavzuga oid quyidagi ayrim ma'lumotlar B.Axmedov tad qiqotlari asosida tayyorlangan.

**"Shi Szi"** ("Tarixiy xotiralar"). Saroy tarixchisi Sima Txan oilasida ulg'aygan. Sima Syan "Tarixiy xotiralar" nomli 130 bobdan iborat yirik asar muallifi hisoblanadi. "Tarixiy xotiralar" Xitoyning qadimiy zamonlaridan to miloddan av-

Vodi i asr boshlariga qadar o'tgan tarixni o'z ichiga oladi. Asarda O'rta Osiyo, Farg'on'a va uning qadimgi xalqi, hayoti hujda qimmatli ma'lumotlar uchraydi. Xususan, asarda Davronning ikkita poytaxti – Ershi va Yuchen bo'lganligi haqida xabar beriladi. Bu shaharlarning joylashuvi masalasida olimlar orasida yagona fikr yo'q. Ular O'zgan, Mingtepa (Marhamat), Qo'qon, Koson, Axsikent, O'ratega yoki Jizzax o'rnida joylashtiriladi.

1970-yili Pekinda "Shi Szi"ning to'la matni olti jilda e'lon qildi. Rus tiliga tarjimasi I.Ya. Bichurin, L.S. Vasilev, L.S. Pereboev, Yu.L. Krol va boshqalar tomonidan amalga oshirib, 1972, 1973, 1984, 1986-yillari chop etilgan. E. Shavann (1865–1905) tomonidan esa fransuz tiliga tarjima qilinib, 1895–1918-yillari 12 jilda bosqadan chiqqan.

"Yian Xan shu" ("Birinchchi Xan sulolasi tarixi"). Yidil mansabdar va tarixshunos oilasida tug'ilgan Ban Gu (birinchchi Xan sulolasi tarixi) asari muallifidir. Asarda O'rta Osiyo (qang'li, yuechji va usunlar haqida) va Sharqiy Turkistonning qadim tarixi xususida qimmatli ma'lumotlarni uchratish mumkin.

"Yian Xan shu"ning 95 bobida O'zbekiston (ayniqsa, qang'li, yuechji va usunlar haqida) va Sharqiy Turkistonning qadimiy tarixi, xalqi va uning hayoti haqida ko'p muhim ma'lumotlarni sahbatamiz.

"Yian Xan shu" 1962-yili Pekinda 12 jilda, inglizcha tarjimasi G. Dubs tomonidan Baltimorda (AQSH) nashr qilingan (1637–1944).

"Xou Xan shu" ("Keyingi Xan sulolasi tarixi"). Birinchchi Xan sulolasi tarixchisi hisoblangan Fan Xua (398–445) "Xou Xan shu" nomli katta asar (130 bobdan iborat) yozib qolotigan. Fan Xua kichik davlat lavozimida turgan va 424-yili viloyat hokimligiga ko'tarilgan. Keyinchalik davlatga qarshi joyasdi qatnashganlikda ayblanib qatl etilgan.

Asarda O'rta Osiyo, Sharqiy Turkiston va Jung'oriyaning 25–221-yillar oralig'idagi tarixi haqida muhim ma'lumotlar mavjud.

**"Bey shu"** ("Shimoliy sulolalar tarixi"). Li Yanshou esa Tan sulolasi davri tarixchisi bo'lib, 386–581-yillar oralig'idagi tarixni qamrab oluvchi 100 bobdan iborat "Bey shu" ("Shimoliy sulolar tarixi") nomli asarning muallifidir. "Bey shu" da Xorazm hamda Sharqiy Turkiston haqida qimatli ma'lumotlar bayon etilgan.

**"Suy shu"** ("Suy xonadonining tarixi"). Vey Chjen (580–643) Tan sulolasi davrida yashagan tarixchi. Imperator Chjen-Guan (627–650) davrida uning o'g'li va toju taxt vorisiga tarbiyachi bo'lgan. Ana shu imperator davrida tarixchi olimlar dan Yan Shi-Gu hamda Kxun In-da bilan birgalikda Xitoyning Suy sulolasi davridagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o'z ichiga olgan "Suy shu" ("Suy xonadonining tarixi") nomli 85 bobdan iborat asar yozib qoldirgan. Asarda Janubiy Qirg'iziston, Pomir Toshkent hamda Sharqiy Turkiston haqida ham diqqatga molik ma'lumotlar uchratish mumkin.

**Qadimgi turk manbalari. Turk xoqonligi.** VI asrning ikkinchi yarmidan boshlab Janubiy Sibir va Shimoliy Mongoliya, ya'ni Oltoy hududlarida turkiy qabilalar ittifoqi shakllana boshlaydi. Tarixda muhim ahamiyatga ega bo'lgan Turk xoqonligi xususida talaygina manbalar bugungi kungacha saqlanib qolgan bo'lsa-da, ularning ayrimlari bir-birini inkor etadi.

Ta'kidlash joizki, turk atamasining ilk marotaba tilga olinishi 542-yilga to'g'ri keladi. Turli manbalarda turklar "turk el", "turk", "turkash", "tukdus", "tu-kyu", "tuk-yut" kabi nomlar bilan tilga olinadi. Kuchli, baquvvat, botir kabi ma'nolarni anglatuvchi "turk" atamasi dastavval etnik xususiyatga ega bo'lmay ijtimoiy ma'noga ega bo'lgan. Turklarning kelib chiqishi xususida ko'plab afsonalar mavjuddir. Ayrimlarda turklarning kelib chiqishi Nuh payg'ambarga borib taqalsa, boshqalarda,

ular o'n yashar bola va ona bo'ridan tarqalganligi ta'kidlanadi. Yani boshqa bir afsonaga ko'ra, turk qabilasining ajdodlari o'stovning shimoliy yon bag'irlarida joylashgan So viloyatidan kelib chiqqan bo'lib, bu yerdagi qabila boshlig'i Abanbu ularning ilk yo'lboschchisi bo'lgan.

Iurixiy manbalar ma'lumotlariga ko'ra, Turk xoqonligining paydo bo'lishi 551–552-yillarga to'g'ri keladi. 551-yilda Bumin tsol elining xoqoni sifatida oq kigizga o'tkazilib ko'tariladi. Animo, 552-yilda Bumin to'satdan vafot etib, uning o'rniiga Istami taxtga o'tiradi. Istami xoqon O'rta Osiyo, Volga va Shimoliy Kavkaz yerlari uchun kurash olib borgan bo'lsa, uning o'g'illari Mug'an xoqon va Taspar xoqonlar Markaziy Osiyo hamda Janubiy Sibirda o'z hukmronliklarini o'rnatadilar.

Qadimgi turkiy bitik Turk xoqonlari o'rtasidagi o'zaro harakatlari 20 yildan ziyodroq davom etib 603-yilda davlatning qo'shi G'arbiy va Sharqiy qismlariga bo'linib ketishi bilan yakunlandi. Sharqiy Turk xoqonligi Mo'g'iliston hududlarini, G'arbiy Turk xoqonligi esa, Yettisuv, Chu vodiysi, Volga, Kubanning quyi qismini, Irtish, Ishim daryosi bo'yidagi yerlar, O'rta Osiyo va Sharqiy Turkistonning bir qismini o'z ichiga olgan. Xoqonligo Sheguy va To'n yabg'u davrlarida G'arbiy Turk xoqonligi yuqtinchalik rivojlanish jarayonlarini boshdan kechirdi.

Qadimgi turk manbalari xususida to'xtaladigan bo'lsak, XVII asrda Sibir, Mo'g'iliston, Oltoy hamda O'rta Osiyodan topilgan runiy bitiklari ham alohida qimmatga ega. Bu yozuvlarining hozir yetti guruhi: Lena–Baykalbo'yи bitiklari, Yenisey, Mo'g'iliston, Oltoy, Sharqiy Turkiston, O'rta Osiyo hamda Sharqiy Yevropa bitiklari ma'lum. Mazkur bitiklar O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston xalqlarining arablar istilosini arafasidagi shimoiy-siyosiy hamda madaniy hayotini o'rganishda muhim shumiyat kasb etadi. Mavzuga oid quyidagi ma'lumotlar B. Axmedov tadqiqotlari asosida tayyorlangan.

**O'rxun-Yenisey bitiklari** V–VIII asrlar (ba'zi manbalarda VIII–X asr)ga mansub. O'rxun va Yenisey daryolari

havzalaridan topilganligi sababli shu nom bilan yuritiladi. Tashqi ko'rinishidan got (qad. german) yozuviga o'xshash bo'lganligi uchun uni runik yozuv deb ham atalgan. Rus xaritashunos olimi S.U. Remezov tarafidan XVII asr oxirida Yenisey havzasida (hozirgi Xakasiya avtonom viyatiga qaraydi) topilgan.

Mo'g'ilistonidan topilgan bitiklar orasida To'nyuquq, Kultegin, Bilga xoqon va Ongin kabilarni qayd etib o'tish mumkin.

**To'nyuquq bitigi** Ulan-Batordan 66 km janubi-sharqda, Bain Sokto manzilida joylashgan va ikkinchi turk xoqonligining asoschisi Eltarish xoqon (681–691)ning maslahatchisi sarkarda To'nyuquqqa atalgan va 712–716-yillari yozilgan. 1897-yili rus olimi D.A. Klemens (1848–1914) va uning xotini Yelizaveta Klemenslar tarafidan ochilgan, V.V. Radlov (1899), V. Tomsen (1922), X. Sheder (1924), D. Ross (1930) hamda G. Aydarov (1971) tarafidan yaxshi o'rganilgan va matni nemischa, daniyacha, inglizcha va ruscha tarjimalari bilan chop etilgan. Obida yozuvlaru G.A. Abdurahmonov hamda A. Rustamov tomonidan o'zbek tiliga qisqacha tarjima qilingan (1982).



**To'nyuquq bitigi, Bain Sokto (Mo'g'iliston. VIII asr)**

Bitikda turkiylarning bir qancha dushman qabilalarga qarshi kurashi, To'nyuquqning xalq oldidagi xizmatlari hikoya qilinadi. Bitikda To'nyuquqning xizmatlari yuksak baholanadi. To'nyuquq butun kuch-g'ayratini xalqni dushmanidan himoya qilishga, uning g'alabasi uchun sarflaydi. To'nyuquqning donoligi, tadbirdorligi, jasurligi ko'p g'alabalarning garovi sifatida ta'kidlanadi. Satrlarda bayon etilgan voqealar To'nyuquqning faoliyatini va uning o'z xalqiga sodiqligini ko'rsatadi.

**Kultegin bitigi.** Bilga xoqonning (716–734) inisi Kultegin (vafoti 731) sharafiga yozilgan. Mo'g'ilistonning Kosho Saydan vodiysida Ko'kshin O'rxun daryosi bo'yidan rus arxeolog va ethnograf olimi N.M. Yadrintsev (1842–1894) tomonidan 1889-yili topilgan.

Bitik V.V. Radlov (1891), A. Xeykel (1892), V. Tomsen (1896), P.M. Melioranskiy (1897), X. Sheder (1924), S.E. Malov (1951), G. Aydarov (1971)lar tomonidan nemischa, fransuzcha, ruscha tarjimalarda chop etilgan. O'zbekistonlik olimlardan A. Fitrat, O. Sharafuddinov, A. Qayumov, T. Salimov, G. Abdurahmonov va A. Rustamov kabilarning xizmatlari katta.

Bitiktoshning bo'yи 3 m 15 sm, eni 1 m 24 sm, qalinligi 41 sm. Kultegin bitiktoshi 84 satrdan iborat: 40 satr yuz tomoniga, 13 satrdan 26 satr ikki yon tomoniga, 14 satr orqa tomoniga, 4 satr toshning taroshlangan 4 qirrasiga yozilgan. Bitiktoshdagi barcha voqealar Kulteginning akasi Bilga xoqon tilidan hikoya qilinadi.

**Bilga xoqon bitigi.** Kultegin bitigidan 1 km janubi-g'arbda Ko'kshin O'rxun daryosi havzasidan topilgan. Obida 735-yili bitilgan. V.V. Radlov, S.E. Malov, P.M. Melioranskiy va V. Tomsen tomonidan o'rganilgan va chop qilingan.

Bitiktoshning bo'yи 3 m 45 sm, eni 1 m 74 sm, qalinligi 72 sm. Bilga xoqon bitiktoshi 80 satrdan iborat: 41 satr yuz tomoniga, 15 satrdan 30 satr ikki yon tomoniga, 7 satr orqa tomoniga, 2 satr toshning taroshlangan 2 qirrasiga yozilgan.

**Ongin bitigi** Mo'g'ilistonning Kosho Saydan vodiysi-dan topilgan va kimga atalganligi aniq ma'lum emas. Ba'zi fikrlarga qaraganda, yuqorida tilga olingen Eltarish xoqon va uning xotini Elbiyga xotun sharafiga qo'yilgan (735), boshqa fikrga ko'ra Qopag'on xoqonga (691–716), yana bir ma'lumotga (J. Klossen) qaraganda Bilga xoqonning harbiy boshliqlaridan Alp Eletmish (taxminan 731-yilda o'lgan) sharafiga qo'yilgan.

Obida yozuvlaru 1892-yili V.V. Radlov tarafidan (estmpaji) va 1957-yili J. Klosen tomonidan (inglizcha tarjimasi va tad-qiqot bilan) nashr qilingan.

Bulardan tashqari, Qarabalsag'un shahri (Ulan-Batordan taxminan 400 km janubda joylashgan qadimiyl shahar) xaro-balaridan, Xayto Tamir, Cho'yren, Beyshin-Udzur, Bayan-Xo'ngur va boshqa joylardan topilgan yozuvlar ham muhimdir.

Oltoydan topilgan bitiklardan Chorish, Katandi daryolari, Qo'shog'och hamda tog'li nohiyalaridan topilgan bitiklarni aytib o'tish mumkin. Bular O'rxun-Yenisey bitiklaridan farqli o'laroq, etnografik materialga boyadir. Oltoydan topilgan yozuvlar E.R. Tenishev, A.K. Borovkov, K. Seydakimatov, P.M. Melioranskiy, V.M. Nadelyayev hamda D.D. Vasilev tomonidan e'lon qilingan.

Sharqiy Turkistondan topilgan bitiklar orasida Turfon vo-hasidagi g'orlarga joylashgan ibodatxona devorlariga yozilgan bitiklar alohida o'rinn tutadi. Bitiklar V. Tomsen tarafidan chop qilingan.

Qozog'iston hamda Qирг'изистонда topilgan bitiklar (asrimizning 60–70-yillarda topilgan) hali chuqrur o'rganilmagan. Bular orasida Talas vohasidagi (Ayritom, Teraksoy, Qulonsoy, Toldiqo'rg'on, Urjor, Sirdaryo, Ila, Olma Ota, Tolg'ar, Tinbas va hokazo) topilgan bitiklar muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Qozog'iston hamda Qирг'изистон hududidan topilgan bitiklarning ba'zilari S. Sodiqov, M.E. Masson, A.N. Bernsh-

tam, A.S. Omanjolov, G. Musaboyev, Ch. Jumag'ulov hamda G. Karag'ulovalar tomonidan e'lon qilingan.

Qadimiy turk runiy yozuvlari (asosan sopol idishlarga yozilgan) Farg'ona, Oloy vodiysi hamda Janubiy O'zbekiston va Tojikiston hududidan, ya'ni Bekobod, Isfara, Marg'ilon, Farg'ona, Andijon, Quvasoy, O'sh, O'zgand, Kofirnihon, shuningdek, So'g'ddan ham topilgan va A.N.Bernshtam, B.A. Litvinskiy, E.R. Tenishev, V.A. Bulatova, Yu.A. Zadneprovskiy, S. Klyashtrniy, I.L. Kizlisov, N. Sim-Vilyams tarafidan o'r ganilgan.

Umuman, qadimiy turk runiy yozuvlari xalqimiz tarixini yoritishda juda qimmatli manbadir.

So'g'd tilidagi manbalar. Ma'lumki, so'g'd yozuvi miloddan avvalgi III-II asrlarda shakllangan bo'lib, u o'lkamiz madaniyati tarixida muhim o'r in tutadi. Bu yozuv o'z davrida ijtimoiy va madaniy hayotning hamma sohalarida keng qo'llanilgan. So'g'd yozuvi orqali bizgacha eramiz boshlaridan to X-XI asrlarga qadar yozilgan ko'plab noyob yodgorliklar yetib kelgan. Ular orasida ko'plab numizmatika namunalar (tanga yozuvlari), turli mazmundagi huquqiy hujjatlar-ahdnomalar, nikoh haqidagi shartnomalar, oldi-sotdi hujjatlari, tilxatlar, So'g'd, Shosh, Turk va Farg'ona hukmdorlari o'rtasidagi yozishmalar, turli farmonlar mavjud.

Bugungi kungacha saqlanib qolgan so'g'd yozuvlari orasida Panjikent yaqinida Mug' qal'asidan, Sharqiy Turkistonda Turfan shahri yaqinidan topilgan hujjatlar hamda Samarqandning qadimiy xarobasi Afrosiyobdag'i devoriy yozuylar ayniqsa ahamiyatlidir.

Mug' qal'a xarobalaridan 1932-yili topilgan hujjatlar alohida ahamiyatga ega. Hujjatlar bahorda Tojikistonning Varziminor (hozirgi Zahmatobod) tumaniga qarashli Xayrobod qishlog'ida shu tumanning sobiq birinchi rahbari A. Po'lodiy tomonidan ochilgan.

Mug' tog'i so'g'd arxivi deb yuritiluvchi bu majmua VII asr oxiri – VIII asr boshlariga oid bo'lib, jami 79 ta hujjatdan iborat. Bulardan 74 tasi qadimgi so'g'd, 2 dona arab, 3 tasi xitoy va yana biri qadimiy turk tilidadir. Hujjatlar charm, tol taxtachalari va qog'ozga yozilgan. Ular So'g'd podsholigiga tobe Panj hokimligi (Panjikent) saroyi hamda turli viloyat hokimlari va amaldor a'yonlarga tegishli hujjatlar yig'indisidan iborat. Arab istilosи paytida (722-yilda) Panj hokimi, bir muddat So'g'd podshosi taxtiga da'vogar sifatida ish ko'rgan Devashtich boshliq guruh Mug' tog'ida joylashgan mudofaa qasriga chekingan. Shunda saroy hujjatlari ham qasrga keltirilgan.

Mug' qal'asidan topilgan hujjatlar A.A. Freyman, A.V. Vasiliev, I.Yu. Krachkovskiy, M.N. Bogolyubov, O.I. Smirnova, V.A. Livshits, M. Is'hoqov, U.N. Mansurov, P. Lure, Sh. Shoyoubov, B. Mamarahimovalar tarafidan chuqur o'r ganilgan.

Mug' qal'asi hujjatlarining topilishi tarixi va ular haqidagi dastlabki ma'lumotlar 1934-yili maxsus to'plam shakllida ("Согдийский сборник", Ленинград, 1934) e'lon qilindi. Ayrim hujjatlarining tarjimasi I.Yu. Krachkovskiy va A.A. Freyman tomonidan 30-yillari e'lon qilindi. Huquqiy hujjatlar va maktublar tarjimasi, zarur izoh va tadqiqotlar bilan (Согдийские документы с горы Муг. Чтение, перевод, комментарий. II nashri. 1962.) V.A. Livshits tomoni chop qilingan (2008-yil).

M. Is'hoqovning mavzuga oid tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega. Mug' hujjatlari I.1, Nov. A, B, V kabi turkumlarga ajratilgan. Masalan, I.1 raqamli so'g'dcha hujjatda Abdurahmon ibn Subhning Devashtichga maktubi o'z ifodasini topgan. Xat davomida Abdurahmon ibn Subh quyidagilarni xabar qiladi: "Mana kecha Nijitak keldi hamda kohin Kurchi (keldi). Va ular amirdan menga shunday xat keltirdilarki unda amirning se ning nomingga noroziligi ifodalangan". Ma'lumot o'rnida aytish mumkinki, Abdurahmon ibn Subh Xuroson noibi maslahatchi-

si bo'lgan (Tabariy ma'lumotiga ko'ra) hamda u Devashtichga amir buyrug'ini eslatib qo'yishni lozim topgan.

Nov. 3 va Nov. 4 hujjatlari esa ilk o'rta asrlardagi oilanikoh va shu bilan bog'liq mulkiy hamda ijtimoiy munosabatlar haqida hikoya qiluvchi muhim hujjatlardir. Har ikki hujjat o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, birida Uttakin (Uttegin)ning Dug'dg'unchaga uylanishi rasmiylashtirilsa, ikkinchisida Ut-takinning Dug'dg'unchanini turmushga berayotgan homiy otaxoni Navekat shahri (Yettisuv viloyatidagi qadimgi shahar) hokimi Cher oldidagi majburiyatlari bayon etilgan.

1961 va 1965-yillari O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix va arxeologiya instituti xodimlari ilmiy safar chog'ida Samarqandning Afrosiyobida V–VII asrlarga oid saroy xarobalarini ochdilar. Devorlar turli mazmundagi rasmlar bilan bezatilgan. Oldinda oq fil ustida taxtiravonda malika, fil ortidan qorabayir, to'riq va saman mingan uchta ayol tasvirlangan bo'lib, ular dan birinchisining qo'liga so'g'dcha "malikaning yangasi" degan so'zlar bitilgan. Ayollarni tuyu mingan ikki nafar erkak kuzatib bormoqda. Xonaning g'arbiy devorida shohona liboslarda qim-



Afrosiyob devoriy suratlari (VII asr)

matbaho tuhfalar ko'targan kishilar tasvirlangan. Devorda 16 qator so'g'd yozuvi ham bitilgan. Unda "Men Chag'oniyon dapirpati (elchisi) Buxorzod hukmdor Turontosh nomidan podshohga hurmat va ehtirom izhor etgani Samarqandga keldim", degan mazmundagi so'zlar bitilgan.

Demak, Afrosiyobdag'i tasvirlarda elchilik munosabatlari o'z ifodasini topgan bo'lib, undagi yozuvar VII asr o'rtalaridagi xalqaro munosabatlar tarixini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

So'g'd yozuvlari Qozog'iston, Qirg'iziston hamda Sharqiy Turkistondan ham topib o'rganilgan. Bular orasida ayniqsa Auril Steyn (1862–1943) tarafidan 1907-yili Dunxuan (Xitoyning Gansu viloyatida) va Turfonda (Sharqiy Turkiston) topilgan hujjatlar, Talas daryosining o'ng sohilida, hozirgi Talas shahridan 7 km shimolda joylashgan Qulonsoy hamda Teraksyo daralarida qoyatoshlarga o'yib bitilgan yozuvar alohida e'tiborga molik. Bu yozuvarlar IV–XI asrlarda O'rta Osiyo va Uzoq Sharq mamlakatlari o'rtasidagi savdo aloqlari va bunda so'g'diyarning roli haqida qimmatli ma'lumot beradi.

Dunxuan va Xo'tan hujjatlari A. Steyn, Talasdan topilgan yozuvar esa V.A. Kallaur, M.E. Masson, D.F. Vinnik, A.A. Asanaliyev, K. Ashiraliyev, U. Jumaqulovlar tarafidan o'rganilgan.

Mamlakatimiz tarixi, xususan unda yashagan qadimiy xalqlar tarixini o'rganishda, so'g'd tilida yozilgan "Xalqlar ro'yxati" deb atalgan bir hujjat (VIII asr) o'ta muhimdir. Unda O'rta Osiyoda yashagan 21 xalq va elatning nomi keltirilgan.

### Savol va topshiriqlar

1. "Avesto"da geografik, hududiy nomlar, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tarixga oid qanday ma'lumotlar mavjud?
2. "Avesto"ning manba va madaniy meros sifatida ahamiyatini ta'riflab bering.

3. Ahamoniylar davriga oid manbalarda qadim tariximizga oid qanday ma'lumotlar saqlanib qolgan?
4. Qaysi Yunon tarixchilari asarida Iskandarning yurtimizga yurishlari aks etgan?
5. Qadimgi Rim mualliflarining asarlari qanday ahamiyatga ega?
6. Xitoy solnomalarida O'zbekistonning qadimgi va ilk o'rta asrlar tarixiga oid qanday ma'lumotlarni uchratish mumkin?
7. Qadimgi turkiy bitiklarni o'rganishda qaysi olimlarning tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega?
8. Mug' qal'asi hujjatlarida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga oid qanday ma'lumotlar uchraydi?

**Manbalar va adabiyotlar**

1. Абаев В.И. Миф и история в Гатах Зороастра. Историко-филологические исследования. – М.: Наука, 1974.
2. Авеста. Избранные гимны / Пер. с авестрийского И.М. Стеблин – Каменского. – Д.: Адаб, 1990.
3. Avesto. Yasht kitobi / Rus tili tarjimasidan M. Is'hoqov izohli tarjimasi. – Т.: Sharq, 2001.
4. Avesto. Videvdat kitobi. M. Is'hoqov tarjimasi. – Т.: ToshDSHI, 2007.
5. Ариан. Поход Александра / Пер. М.Е. Сергеенко. – М. – Л., 1962.
6. Axmedov B.A. O'zbekiston tarixi manbalari. – Т.: O'qituvchi, 2001.
7. Is'hoqov M. Unutilgan podsholikdan xatlar. – Т.: Fan, 1992.
8. Кеинт Куртций Руф. История Александра Македонского / Пер.и примеч. под ред. В.С. Соколова. – М.: МГУ 1963.
9. Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. Тексты и исследования. – М. – Л., 1951.
10. Nasimxon Raxmon. Turk xoqonligi. – Т., 1993.
11. Ртвеладзе Е. Историческое прошлое Узбекистана. – Т.: San'at, 2009.
12. Rtveladze E.V., Saidov A.X., Abdullayev Ye.V. Qadimgi O'zbekiston sivilizatsiyasi: davlatchilik va huquq tarixidan lavhalar. – Т.: Adolat, 2001.

13. *Sagdullayev A.* Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda. – T.: O'zbekiston, 1996.
14. *Sagdullayev A.S.* Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. – T.: Universitet, 2004.
15. Сагдуллаев А. Поход Александра Македонского в Согдиану. – Т.: Узбекистан, 2009.
16. Сарианиди В. Задолго до Заратуштры. – М.: Старый сад, 2010.
17. Страбон. География. В 17 книгах / Пер. Г.А. Стратановского. – М. – Л.: Наука, 1964.
18. Вилбер Д. Персепол / Пер с англ. Е.Л. Власовой. – М.: Наука, 1977.
19. Qayumov A., Is'hoqov M. Qadimgi yozma yodgorliklar. – T.: Yozuvchi, 2000.
20. Boyce M. A History of Zoroastrianism. Volume I. The Early Period. Third impression. – NY, 1996.
21. Gharib B. Sogdian dictionary. Sogdian-Persian-English. – Tehran: Farhanghan Publications, 1995.
22. Thomsen V., *Inscription de l' Orkhon.* – Helsingfors, 1896.
23. Cengiz Aluilaz. Orxun yazitlarinin bugunku durumu. Ankara, 2005.

## ISLOM DINIGA DOIR MANBA VA ADABIYOTLAR

### 4-MAVZU: ISLOM DINIGA OID YOZMA MANBALAR

*Arab yozuvidagi dastlabki manbalar. Arab tilidagi yozma manbalar: Qur'oni karim va uning tafsirlari. Hadislar va ularning sharhlari, Muhammad payg'ambar (s.a.v.) va xalifalar hayotiga oid asarlar. Imom al-Buxoriyning ilmiy merosi. Imom at-Termiziy asarlari. Fiqhga oid manbalar ("Hidoya", "Kifoya", "Nihoya", "Muxtasar ul-Viqoya", "Viqoya", "Voqeot", "Jome' ar-rumuz", "Fiqhi Kaydoniy", "Asl", "Mabsut", "Fatovoyi Qozixon", "Attobiya", "Badoye", "Zaxira", "Muhit", "Saloti Mas'udiy"). Abu Mansur al-Moturidiy ilmiy merosi. Aqoidga oid asarlar ("Aqoidi nasafiyya", "Sharhi "Fiqhi akbar", "Aqoidi Azudiyya"). Mantiq faniga oid asarlar ("Isog'ujiy", "Mirqot ul-mantiq"). Tasavvuf ilmi bo'yicha manbalar ("Qut al-qulub", "Kashf al-mahjub li-arbob al-qulub", "Manozil as-soirin ila al-haqq", "Xolisat al-haqqoyiq", "Bahr al-ulum", "Sabot ul-ojizin" va boshqalar).*

**Arab yozuvidagi dastlabki manbalar. Arab tilidagi yozma manbalar.** Arab tilidagi ilk manbalar dastlab og'zaki ijod asosida vujudga kelgan va ularning tarixi islomdan ilgarigi zamонlarga borib taqaladi. VII–VIII asrlardagi siyosiy o'zgarishlar (arab davlatchiligi) ijtimoiy munosabatlardagi o'zgarishlar, turli element (madaniyat)lar integratsiyasi (til, madaniyat, diniy aloqlar qorishuvi) oqibatida arab tili katta

hududda tarqaldi. Buning natijasida, arab tilida yozilgan asarlar soni ortib bordi. Bizgacha yetib kelgan arab tilidagi eng qadimgi kitob – Qur’oni karim nusxalaridir.

IX–XII asrlarda Movarounnahr ilmiy-madaniy jihatdan eng rivoj topgan o’lkalardan biri sifatida mashhur bo’lib, bu yerda islomiy, falsafiy va tabiiy ilmlar – astronomiya, matematika, tibbiyat, kimyo dorishunoslik, jug’rofiya kabi qator fan sohalari rivoj topdi.

Darhaqiqat, o’sha davrlarda Sharqda islom ilmlari bilan bir qatorda siyosiy, falsafiy, ijtimoiy, tabiiy fanlar ham rivojlangan. Bu haqda shveytsariyalik mashhur sharqshunos Adam Metsning “Musulmon renessansi” asaridan ma’lumotlarni olish mumkin. Musulmon madaniyatining “oltin davri” hisoblangan IX–XI asrlarda fan va madaniyat rivoji Xuroson hamda Movarounnahrda ham o’ziga xos yuksak darajada kechgan.

Markaziy Osiyo zaminida Muhammad al-Xorazmiy (783–850), Ahmad al-Farg’oniy (tax. 798–865), Abu Nasr al-Forobiy (873–950), Abu Rayhon al-Beruniy (973–1048), Ibn Sino (980–1037) kabi asosiy faoliyati dunyoviy ilmlarni rivojlantirishga bag’ishlangan mashhur olimlar qatorida Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (810–870), Muhammad at-Termiziy (824–892) kabi o’z hayat yo’llini islomiy ilmlarni o’rganish va rivojlantirishga bag’ishlagan allomalar yetishib chiqdi. O’rtta asrlarda Markaziy Osiyo islom olamining yirik ilmiy markazlaridan biri edi.

Islomiy ilmlarni odatda, quyidagi guruhlarga ajratib o’rganish mumkin: Qur’oni karim va uning tafsirlari, hadislar, fiqh, aqoid va tasavvufga oid manbalar.

**Qur’oni karim va uning tafsirlari.** Qur’oni karimning jamlanishi borasida so’z ketar ekan, uni davrlarga bo’lib o’rganish maqsadga muvofiqdir. Chunki, uni jamlashdagi har bir bosqich o’ziga xos jihatlarga ega bo’lgan.

Qur’on ilmlari bo’yicha yozilgan manbalarda qo’llaniladigan “jamlash” atamasi ikki xil tushunchani ifodalaydi:

Birinchidan, “jamlash” deganda uni qalbda saqlash, yodlash tushuniladi. Ibn Abbosdan rivoyat qilingan hadisda: “*Vahiy nozil bo’lish vaqtி Muhammad (alayhis-salom) uchun juda og’ir kechardi. Rasululloh oyatlarni unutib qo’yishdan qo’rqib, yodda saqlash maqsadida ularni ko’p-ko’p takror qilar edilar*”, deyilgan.

Ikkinchidan, “jamlash” yozish va muayyan tartibga keltirish ma’nosida olinsa, Qur’oni karim uch bosqichda jam qilingan:

**1. Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) davridagi jamlash bosqichi.** Rasululloh (s.a.v.)ga biror oyat nozil bo’lsa, uni sahabiyalar yozib borar edilar. U kishining huzurida Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali, Zayd ibn Sobit, Ubay ibn Ka’b, Muoviya ibn Abu Sufyon, Yazid ibn Abu Sufyon, Zubayr ibn Avvom kabi kotiblari bo’lgan. “Kuttob al-vahiy”, ya’ni “vahiy kotiblari” bo’lgan mazkur sahabiyalar payg‘ambar (s.a.v.)dan eshitgan oyatlarini hayvon terisi, daraxt po’stlog‘i, yirik suyaklar va boshqa shu kabi narsalarga yozib borganlar.

Mazkur bosqichda Qur’oni karim kitob holatiga keltirilmagan. Albatta, buning o’ziga xos sabablari bo’lgan. Bu borada Imom Zarkashiy: “Qur’oni karim Rasululloh s.a.v. davrlarida kitob holatiga keltirilmaganining boisi, u zot ehtimol yana oyatlar nozil bo’lib qolar, deb sahabiylargacha bu vazifani buyurmadilar”, deydi.

**2. Abu Bakr Siddiq davridagi jamlash.** Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) vafotidan so’ng Abu Bakr Siddiq ikki yarim yil xalifa bo’lgan. U kishining xalifalik davri jangu jadallarga to’la bo’lib, xususan, dindan qaytgan – murtadlarga qarshi kurash olib bordilar.


Hijriy 12-sanada ko’plab sahabiy qorilar qatnashgan “Yamoma” jangida 70 ta qori sahabiy vafot etdi. Vaziyatni to’g’ri baholagan Umar (keyinchalik xalifa) Abu Bakr Siddiqning huzuriga borib, holat shu zaylda davom etsa, Qur’oni karimni keyin-

gi avlodlarga yetkazish qiyin bo'lishini aytgan. Xalifaga Qur'oni karimni yagona kitob shaklida jamlash maslahatini bergen.

Dastlab, Abu Bakr "Rasululloh qilmagan ishni men qilmayman", deb rad javobini bergen. Hazrati Umarning ko'p bora urinishidan keyin Abu Bakr bu ishda hikmat bor, deb rozi bo'lgan, hamda ushbu mas'uliyatli vazifani unga topshirgan.

Natijada, "Suhuf" (suralar bitilgan sahifalar) ilk kitob shaklidagi Qur'on suralari jamlangan va Abu Bakr Siddiqning huzurida saqlangan. U vafot qilganidan so'ng, xalifa Umarning huzurida saqlangan. U kishi ham vafot etgach, qizi Hafsa bint Umarning qo'lida qolgan.

**3. Xalifa Usmon davrida Qur'oni karimning jamlanishi.** Usmonning xalifalik davriga kelib, ko'plab arab bo'lmagan xalqlar orasida islom dini tarqala boshladi. Har bir hududga borgan qorilar o'zi o'rgangan usulda Qur'oni karimni o'sha yerdagi insonlarga o'rgatar edi. Masalan, shomliklar Ubay ibn Ka'b qiroatida o'qisalar, iroqliklar Abdulloh ibn Mas'ud qiroatida o'qir edi. Natijada, ba'zi hollarda turli tomonlar qiroatlardagi ayrim farqlarni ko'rib, bir-birlarini ayblash holatlari chiqa boshladi.



Toshkentda saqlanayotgan Qur'oni karim – Usmon Mushafi

Xalifa Usmon Hafsa bint Umarning oldiga odam jo'natib, Abu Bakr Siddiq jamlagan Qur'oni karimning nusxasini berib turishni so'raydi. Hafsadan "Suhuf" olingach, xalifa Usmon tomonidan Zayd ibn Sobit, Abdulloh ibn Zubayr, Said ibn Os va Abdurahmon ibn Horis ibn Hishom kabi qorilar chaqirtirilib, "Suhuf"dan nusxa ko'chirish ularga topshiriq sifatida buyuriladi. Bu tarixiy voqeа 25/646-yilda bo'lib o'tgan.

Qur'oni karim yangi varaqlarga ko'chirilgan va "Mushaf" (sahifalangan, muqovali kitob) holiga keltirilgan. Shundan so'ng Xalifa Usmon amriga ko'ra, Qur'onning boshqa nusxalari, odamlarning chalkashib ketmasliklari uchun yoqib yuborilgan.

Xalifa Usmon davrida ko'chirtirilgan va musulmon o'lkalariiga jo'natilgan Qur'oni karim nusxalarining soni bir ma'lumotga ko'ra, yettita (Makka, Shom, Basra, Kufa, Yaman, Bahrayn, Madina nusxalari), boshqa manbaga ko'ra oltita (Mushafi Imom – hazrati Usmonning o'zidagi Bosh Mushaf, Madina, Makka, Shom, Kufa, Basra nusxalari) bo'lgan. Lekin, ko'pchilik olimlar tomonidan keyingi ma'lumot tasdiqlangan.

O'zbekiston musulmonlari idorasi qoshidagi "Qur'on muzeyi"da saqlanayotgan "Usmon Mushafi" nomi bilan mashhur qo'lyozma ko'pchilik jahon olimlari tomonidan aynan hazrati Usmon ibn Affonning shaxsan o'zlarida saqlangan, qatl etilganda, unga qonlari to'kilgan "Mushafi Imom" (Bosh Mushaf) ekani e'tirof etiladi. Usmon Mushafi qanday qilib Mavarounnahr zaminiga, xususan, Samarqandga olib kelingani to'g'risida Shayx Ismoil Maxdumning (1893–1976) "Toshkentdagи Usmon Mushafining tarixi" risolasida to'qqiz xil faraz qayd qilingan.

Mustaqillik yillarida Usmon Mushafiga e'tibor yanada kuchaydi. Xususan, YUNESKO xalqaro tashkiloti tomonidan 1997-yili Toshkentdagи Usmon Mushafi jahon yodgorligi durdonalari ro'yxatiga kiritildi.

**Qur'on tafsirlari.** Qur'oni karim islom diniga e'tiqod qiluvchi boshqa xalqlar kabi Markaziy Osiyo musulmonlarining

ham asrlar davomida falsafiy, axloqiy va huquqiy qarashlari ning shakllanishida muhim manba bo'lib keldi. Biroq undagi oyatlar hamda so'zlarning mohiyatini tushunish o'ta murakkab bo'lganligi sababli, VII–VIII asrlardayoq Qur'oni karimga tafsirlar (sharhlar) yozishga ehtiyoj tug'ilgan va asta-sekin bu soha alohida yo'nalishga aylangan.

Islom tarqalgan ilk davrdan boshlab, Qur'oni karim va uning tafsiri bilan bog'liq ilmlarga qiziqish xalifalikka bo'ysungan boshqa joylar kabi, Markaziy Osiyoda ham paydo bo'la boshladi va bu yerdagi xalqlar ham qur'oniylar ilmlarni o'rganishdi. Xalqimizdan ko'pgina mufassirlar – Qur'oni karimga tafsir (sharh) yozuvchi olimlar yetishib chiqdilar.

Bizgacha yetib kelgan tafsirlar bilan tanishish jarayonida shu narsa ma'lum bo'ldiki, Markaziy Osiyodagi mufassirlar tomonidan IX–XII asrlarda yozilgan tafsirlarning aksariyati arab tilida bo'lgan, chunki o'sha davrda ilmiy til arab tili bo'lgan. Markaziy Osiyoda yozilgan ilk tafsir "Tafsiri Kabir" muallifi ham aynan buyuk hadisshunos Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (vafotи 870-y.) qalamiga mansubdir. Lekin afsuski, mazkur tafsir bizgacha yetib kelmagan.

Keyinchalik ham bu an'ana davom ettirilib, ko'plab arabcha tafsirlar yozilgan. Jumladan, Imom Abu Mansur Muhammad ibn Mahmud al-Moturidiyning (870–944) "Ta'vilot al-Qur'on" ("Qur'on ta'villari") asari ham Markaziy Osiyoda yozilgan dastlabki tafsirlardan hisoblanadi. Asar ustida tadqiqot olib borgan Sh.Ziyodovning fikricha, Moturidiy hanafiy mazhabini olimlari ichida birinchilardan bo'lib Qur'onga tafsir yozgan. Mazkur asar nafaqat Movarounnahr tafsir maktabiga, balki kalom maktabiga ham katta ijobjiy ta'sir ko'rsatgan. Moturidiy o'z tafsirini uch manbaga, ya'ni Qur'on, hadis va avvalgi mufassirlarning fikrlariga asoslanib yozgan.

Boshqa bir samarqandlik olim Abullays Nasr ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Ibrohim as-Samarqandiy (911–985) ham

“Bahr al-ulum” (“Ilmlar dengizi”) nomli tafsir yozgan. Asarning qo’lyozma nusxalari Berlin, Myunxen, Leyden, Quddus, Tunis, Istanbul, Sankt-Peterburg va Toshkent kutubxonalarida saqlanadi. Misrning al-Azhar universiteti doktorlari Muhammad Muavvaz Abdulmajid va Abdulmajid an-Nutiyilar tomonidan Misr va Edinburgda saqlanayotgan qo’lyozma nusxalari asosida ushbu tafsirning tanqidiy matni tayyorlanib, 1993-yili Bayrutda 3 jildda nashr qilingan. O’zbekistonda ham keyinги yillarda asar ustida A. Abdullayev tadqiqotlar olib borgan va uning dunyo xazinalaridagi nusxalariga oid qimmatli ma’lumotlarni to’plagan.

O’zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida Abu Ali ibn Sinoning (vafoti 1037-y.) arab tilida yozilgan “Tafsir” nomli risolasi saqlanadi. Dunyo xazinalarida mazkur tafsirning bir nechta qo’lyozma nusxalari mavjud. Asardan “Ixlos” surasining tafsiri 1910-yilda Istanbulda chiqadigan “Sirot al-mustaqiym” jurnalida turk tilida nashr qilingan.

Yana bir vatandoshimiz Najmuddin Abu Hafs Umar ibn Muhammad an-Nasafiy as-Samarqandiy (vafoti 1142-y.) qalamiga mansub “Taysir fi-t-tafsir” (“Tafsirda osonlashtirish”) nomli asar ham islam olamidagi mashhur tafsirlardan biri sanaladi.

Imom Jorulloh Abulqosim Mahmud ibn Umar Muhammad ibn Umar Zamaxshariyning (vafoti 1144-y.) “Kashshof al-haqoiqi va uyun al-aqvili fiy vujuh at-ta’vil” (“Ta’vil yo’llaridagi so’zlar mohiyati va haqiqatni ochuvchi”) asari islam dunyosida qisqa-cha – “Tafsiri kashshof” nomi bilan mashhur va filologik tahlil jihatidan boshqa tafsirlardan farq qiladi. Ulamolar “Kashshof” bo’limganda, Qur’oni karim ma’nolari ochilmay qolardi” – deb bu tafsirga yuqori baho bergenlar.

“Tafsiri kashshof” haqida misrlik olim Jaloliddin as-Suyutiyning “Tabaqot al-mufassiriyn”, R. Obidovning “Qur’on, tafsir va mufassirlar” kitoblarida, U. Uvatovning “Mahmud

az-Zamaxshariy”, N. Sulaymonovaning “Al-kashshof Qur’oni karimning mukammal tafsiri sifatida” nomli maqolalarida ayrim ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari B.Z. Xalidov, Ye.A. Rezvan, D.A. Agius kabi olimlarning ham ushbu mavzuga oid ilmiy ishlari mavjud. Shuningdek, asarning qisqa tavsifi nashr etilgan fihristlardan ham o'rinni olgan.

Shayx Zohid Abu Nasr Ahmad ibn Hasan ibn Ahmad Zoriy Sulaymoniy Davrajakiy Buxoriyning (XII asr) “Tafsiri Zohidiy” asari 1125-yili Buxoroda yozilgan. Asarning qo'lyozma va toshbosma nusxalari ko'p bo'lib, birgina O'zR FASHI fondida 9 ta qo'lyozma nusxasi mavjud.

Faxriddin Abu Abdulloh Muhammad ibn Umar ibn Hu-sayn Roziyoning (1149–1209) “Mafotih ul-g‘ayb” (“G‘ayb kallitlari”) nomli asari eng mashhur asarlardan sanaladi. Unda muallif tabiiy fanlarga ko'proq e'tibor qaratgan bo'lib, ayniqsa, astronomiyaga katta ahamiyat bergen. Asar sakkiz jilda nashr qilingan va dunyo bo'ylab keng tarqalgan.

Nosiruddin Abdulloh ibn Umar al-Bayzoviyning (vafoti 1316-y.) “Anvor ut-tanzil va asror ut-ta'vil” (“Nozil bo'lganning nurlari va ta'vil sirlari”) asari mukammal tafsirlardan biri hisoblanadi. Asar islom olamida “Tafsiri Bayzoviy” va “Tafsiri qozi Bayzoviy” nomlari bilan keng tarqalgan. Islomshunos olim R.Obidovning yozishicha, Bayzoviyning mazkur tafsiri “Tafsiri Kashshof”ning qisqartmasidir. Asar fors tiliga ham tarjima qilingan. O'zR FASHI fondida ko'chirilishi va nashr qilinishi turli davrlarga mansub bo'lgan “Tafsiri Bayzoviy”ning nusxalari saqlanadi.

Abulbarakot Abdulloh ibn Ahmad ibn Mahmud an-Nasa-fiyning (vafoti 1310-y.) “Madorik ut-tanzila u haqoiq ut-ta'vil” (“Nozil bo'lgangalarni anglash yetishish va sharhlash haqiqatlari”) nomli asari Markaziy Osiyoda yozilgan tafsirlardan biri bo'lib, islom dunyosida “Tafsiri Nasafiy” nomi bilan keng tarqalgan. Tadqiqotlarda aytilishicha, Nasafiyning mazkur asari

“Tafsiri Kashshof” va “Tafsiri Bayzoviy”ning qisqartmasi bo’lib, to’rt jildda nashr qilingan.

Temuriylar hukmronligi yillariga kelib tafsirga ehtiyoj kuchaygan. Zero, bu davrda ko’plab fors tilida tafsirlar yozilgan. Avvaliga ba’zi suralarga sharhlar bitilgan bo’lsa, bora-bora suralar soni ko’payib tafsirlar hajmi ham kengayib bor-gan.

Bunday tafsirlardan biri “Tafsiri Xoja Muhammad Por-so” hijriy 823-yili Buxoroda yozilgan. Asar muallifi Bahoud-din Naqshbandning xalifasi Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud Hofiz Buxoriy (1420–1421) hazratlari Xoja Muham-mad Porso nomi bilan mashhur.

Asarning bir qo’lyozma nusxasi O’zR FASHI fondida № 2180 raqami ostida saqlanadi.

Bahouddin Naqshbandning yana bir xalifasi mashhur mu-tasavvif olim Ya’qub ibn Usmon ibn Mahmud ibn Muhammad G’aznaviy Charxiy (vafotи 1447-y.) “Tafsiri Charxiy” nomli asar yozgan. Dunyoning qator kitob xazinalarida asarning qo’lyozma va toshbosma nusxalari saqlanadi. O’zR FASHI fondida ham asarning 25 ta ortiq qo’lyozma nusxasi mavjud va ularning ak-sariyati ilmiy kataloglarda tavsiflangan.

Bundan tashqari “Tafsiri Charxiy” asari Sayid Podshoxo-janing iltimosiga binoan 993/1585-yili Hoji Hamadoniy tomoni-dan turkiy tilga tarjima qilingan, O’zR FASHI fondida № 5174 raqami ostida saqlanadi.

Yana bir tafsir Abdurahmon Jomiy (1414–1492) tomoni-dan ta’lif etilgan. Mazkur tafsirning hozircha faqatgina yagona qo’lyozma nusxasi O’zR FASHI fondida № 2702 raqami ostida saqlanadi.

Shuningdek, temuriylar hukmronligining so’nggi yillarida Hirotda qozilik qilgan olim Mu’iniddin Muhammad ibn Sharafid-din hoji Muhammad Farohiy Hiraviy (vafotи 1501–1502-y.) ham Qur’oni karimga tafsir yozgan.

Alisher Navoiyning zamondoshi va Hirotda faoliyat ko'rsatgan fanning ko'pgina sohalarini egallagan Husayn Voiz Koshifiy (vafoti 1505-y.) ham Qur'onga "Javohir at-tafsir li tuhfat al-amir" ("Amirga (Alisher Navoiy) sovg'a bo'lgan qimmat-baho tafsir"), "Muxtasar ul-javohir" ("Javohirning qisqartmasi"), "Jome' us-sittiyn yo tafsiri surai Yusuf" ("Oltmishta fasl jamlamasi yoki Yusuf surasining tafsiri"), "Mavohibi Aliyya" ("Ali(sher)ga tuhfalar") nomli tafsirlar yozgan. Bular orasida "Mavohibi Aliyya" islom olamida "Tafsiri Husayniy" nomi bilan keng tarqalgan.

Yuqorida keltirilganlardan ma'lum bo'ladiki, IX asrdan boshlab Markaziy Osiyoda Qur'oni karimga turli hajmda va har xil nomlar bilan bir qancha tafsirlar tuzilgan. Ularning aksariyati ilm ahliga ma'lum bo'lsa-da, bir xillari hanuzgacha o'rjanilmagan. Bu tafsirlarni tadqiq qilish, yurtimiz tarixidagi ilm-fan ravnaqini hamda mahalliy olimlarning islomiy ilmlarga qo'shgan hissalarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

**Hadislар va ularning sharhlari. Muhammad payg'ambar (s.a.v.) va xalifalar hayotiga oid asarlar.** Muhammad payg'ambar aytgan so'zlar, u zot haqidagi xabarlar va yoki biror voqeani tasdiqlaganlari kabi ma'lumotlarga hadislар deyiladi. Bunday ma'lumotlarni to'plagan olimlar muhaddislar deb ataladi.

Muhaddislar dastlab og'zaki rivoyat qilingan hadislarni to'plab, kitob holatiga keltirganlar. Ulardan oltitasini ulamolar eng sahih, ya'ni ishonchli hadislар, deb e'tirof etganlar. Bu kitoblar "as-Sihoh as- sitta" – "oltita ishonchli kitob" deb yuritiladi. Bu kitoblarning mualliflari Imom al-Buxoriy (vafoti 870-y.), Imom Muslim (vafoti 875-y.), Imom Ibni Mojja (vafoti 887-y.), Imom Abu Dovud (vafoti 888-y.), Imom at-Termizi (vafoti 892-y.) va Imom Nasoij (vafoti 915-y.).

Imom al-Buxoriyning 4 jilddan iborat "Al-Jomi' as-Sahih" nomli hadislар to'plami musulmonlar uchun Qur'on karimdan

keyin ikkinchi manba hisoblanadi. Asar “Sahih al-Buxoriy” nomi bilan ham mashhurdir.

Imom al-Buxoriyning ta’kidlashicha, to’plamga olti yuz ming hadisdan faqat 7275 tasini tanlab kiritilgan. Tarixchi Ibn Hajar al-Asqaloniy barcha fikrlar asosida bunday xulosaga kelgan: “Imom al-Buxoriy “Al-Jomi’ as-Sahih”ni Baytullohda yozishga kirishib, ona yurti Buxoroda nihoyasiga yetkazgan va oqqa ko’chirgan”. Asarga yuzga yaqin sharhlar yozilgan.

Imom Muslimning eng yirik va e’tiborli asari “al-Jomi’ as-Sahih” bo’lib, uni yozish uchun uch yuz mingdan ortiq hadisni to’plab, ularni tahlil qilib chiqqan. Bu asar “Sahihi Muslim” deb ham ataladi va unga ko’plab sharh hamda ilovalar bitilgan.

Imom at-Termiziy “Sunani Termiziy” kitobi bilan mashhurdir. Bu haqida Ibn al-Asir o’zining “Mukamma tarix” asarida shunday yozgan: “(Termiziy) imom va hofiz edi. Bebahoh asarlar tortiq qildi. “Al-Jomi’ ul-kabir” ularning eng mukammalidir”. “Kashf uz-Zunnun”da esa “Sunani Termiziy” asari borasida bunday deyilgan: “Bu hadis bobida tasnif etilgan kutubi sittaning uchinchisidir. Bu kitob “Al-jomi’ as-sahih” deyiladi, shuningdek, “Sunan” ham deb ataladi”.

Imom an-Nasoiy “Sunan al-Kubro” asarini tasnif etgan. Shuningdek, asarning qisqartirilgan “al-Mujtabo” deb atalgan ikkinchi nusxasi ham mavjud. Bu asar kichik hajmda bo’lganidan hadischilar orasida katta shuhrat qozongan.

Imom Abu Dovud besh yuz ming hadis yodlagan va ular dan to’rt ming sakkiz yuzini o’zining mashhur “Sunan” kitobiga kiritgan. Bu asarni sharhlagan taniqli olim Abu Sulaymon al-Hattobi yozadi: “Din ilmida Abu Dovudning “Sunan” asari kabi sharafli buyuk sanalgan kitob haligacha tasnif etilgan emas. Bu asar xalq orasida juda ham yuksak obro’ qozondi. Xuddi Xuroson ahli orasida al-Buxoriy va Muslimning “Sahih”lari e’tibor qozonganidek, Abu Dovudning “Sunan”i ko’plab fiqhiy

hukmlarini qamrab olganligi uchun, boshqa asarlardan ustun sanaladi.

Ibni Mojjaning asosiy kitobi “Sunan” bo‘lib, unda to‘rt ming hadis jamlangan. Imom ibni Moja “Sunan”lari turli ulamolar tarafidan bir necha marta sharh qilingan.

Hadislarni to‘plashda ham markaziy osiyolik olimlar samarali ish olib borishgan. Ularning eng mashhurlari Imom Buxoriy va Imom Termiziydir.

Imom Buxoriyning ustoz va shogirdlari ko‘p bo‘lib, u olimlarning har biri islomi bilimlar borasida jahon ulamolari e’tirof etib kelayotgan ulug‘ zotlardir. Jumladan, Imom Buxoriy bobomiz Ali ibn al-Madiniy, Ahmad ibn Hanbal, Is’hoq ibn Rohavayh, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ja’far al-Musannadiy, Muhammad ibn Salom va boshqalardan dars olganlar.

O‘z navbatida Hammad ibn Shokir, Ibrohim ibn Muakkal, Tohir ibn Muhammad, Abu Talha Mansur, Muslim, Termiziy, Nasaiy, Abu Bakr ibn Is’hoq, Abu Fazl Ahmad ibn Salma, Abu Bakr ibn Abud-Dunyo, Husayn ibn Muhammad al-Qaboniy, Sahl ibn Shadivayh al-Buxoriy va boshqa shogirdlarga ustozlik qilganlar.

Imom Buxoriyning shogirdlari nihoyatda ko‘p bo‘lgan. Manbalarning guvohlik berishicha, ulug‘ olimning “Al-jome’ as-sahih” asaridan uning bevosita rahbarligida 90 ming kishi ta’lim olgan.

Ularning safida mashhur muhaddislar Muslim ibn Hajjoj, Imom Termiziy, Imom al-Nasoiy, Ibn Xuzayma, Ibn Abu Dovud, Muhammad ibn Yusuf al-Firobriy ibn Shakar Nasoviyy, Mansur ibn Muhammad Bazdaniy va yana ko‘plab ulug‘ olimlar bor.

Imom Buxoriy bolalik chog‘idayoq shogirdlarining sanog‘i yo‘q edi. Yoshlik chog‘ida Basra ahlidan ma’rifat toliblari u kishining ortidan yugurar edi. Hatto majbur qilib yo‘l ustiga o‘tkazib olib hadis so‘rashar edi.

Imom Buxoriy ko'p shaharlarni ilm yo'lida kezib, keyincha-lik o'z ona yurtini sog'inib, Buxoroga qaytib kelgan. Imom Buxoriyni Buxoro ahli juda yaxshi kutib oladi, bu yerga kelgan kuni uning boshidan oltin sochishadi.

Imom Buxoriyning ijodiy merosi o'zining hajmi, zamonasi-ning diniy va ijtimoiy fanlarini to'la-to'kis qamrab olgani bilan kishini hayratga soladi.

Xatib Bag'dodiy u kishining o'zlaridan rivoyat qiladi.

"O'n sakkiz yoshga yetganimda sahoba va tobe'iynlarning masalalarini va qavllarini tasnif qila boshladim. Bu Ubay-dulloh ibn Musoning davrida bo'lgan edi. O'sha paytda "Kito-but Tarix"ni Rasululloh sollollohu alayhi va sallamning qabrlari yonida oydin kechalarda tasnif etdim".

Bu kitob hadis rivoyat qiluvchi roviylarning tarixlari ha-qida, ya'ni tarjimayi hollari va hadis rivoyat qilish borasidagi sifatlari haqidagi kitobdir.

Bu kitobning qo'lyozmasi Dorul-kutubul-misriyyada (Misr kitoblar saroyi) 10340 raqamida saqlanadi. 1361-hijriy yilda Hindistonda nashr etilgan.

Imom Buxoriyning hayoti va ijodini o'rgangan mutaxassislarning tadqiqotlari natijasida u zotning qalamiga mansub kitoblarning ro'yxati tuzilgan. Ular quyidagilardan iborat: 1) "Al-jome' as-sahih"; 2) "Al-adab al-mufrad"; 3) "At-tarix al-kabir"; 4) "At-tarix al-asvat"; 5) "At-tarix as-sag'ir"; 6) "Kitob az-zu'af"; 7) "Kitob as-sunan fil-fiqh"; 8) "Xolqu af'ol al-ibod"; (asar hijriy 1306-yili Dehlida va Jiddada chop qilingan); 9) "Al-asmaa va-l-kuno" (bu kitob hadis roviylarning ismlari va kunya-lariga bag'ishlangan bo'lib, Hindistonda hijriy 1360-yilda chop qilingan); 10) "Al-qiroatu xolfal-imom" (Hindistonda va Qohi-rada nashr qilingan); 11) "Kitob al-hiba"; 12) "Rof' al-yadayni fis-solati" (Hindistonda nashr qilingan); 13) "Birrul-volidayn" (ota-onaga yaxshilik qilish haqida kitob); 14) "Al-jome' al-kabir"; 15) "Al-musnad al-kabir", bu ikkala kitobning nomi haqidagini

ma'lumot bor, ushbu kitoblar bizgacha yetib kelmagan; 16) "At-tafsir al-kabir", bu kitobning bir qo'lyozma nusxasi Jazoir milliy kutubxonasida va yana biri Parij milliy kutubxonasida mavjud; 17) "Kitob al-ashriba"; 18) "Asomiy as-sahoba"; 19) "Al-vahdon" (faqat bir dona hadis rivoyat qilgan sahabalar haqidagi kitob, bu kitobni Ibn Hajar "Fathul Boriy"ga yozgan muqaddimasi "Hadyus Soriy"da zikr qilgan; 20) "Kitob al-mabsut"; 21) "Kitob al-ilal"; 22) "Kitob al-favoid", bu kitob haqida Imom Termiziyl xabar bergen; 23) "Kitob qazoyo as-sahobati vat-tobe'iyn", bu asar Imom Buxoriy o'n sakkiz yoshida yozgan ilk kitob edi; 24) "Mashiyxat al-Buxoriy".

Imom al-Buxoriy hijriy 256-yili (milodiy 870) Iyd al-Fitr kechasi (31-avgustda) 13-kuni 62 yoshda olamdan o'tgan.

**Muhammad ibn Iyo ibn Savra ibn Muso ibn az-Zahhok Abu Iyo as-Sulamiy az-Zariyr al-Bug'iy at-Termiziyl** hijriy 209 (milodiy 824)-yilda tavallud topgan va hijriy 279-yilda vafot etgan. Uning tavallud topgan yeri ko'hna Termiz shahridan olti farsah (1 farsax—12000 ming qadamlik yer) narida joylashgan Bug' qishlog'i bo'lib, bugungi kunda O'zbekistonning Sherobod tumani hududidadir.

Muhammad at-Termiziyl yoshlik chog'idan Termiz, Samarqand, Marv hamda Markaziy Osiyoning boshqa shaharlarida yashagan mashhur alloma va muhaddislarning asarlarini qunt bilan o'rgana boshlagan. Ilmu ma'rifatga, xususan, hadis ilmiga bo'lgan ishtiyooq va muhabbat tufayli olim uzoq xorijiy mamlakatlarga safarlar qilgan. U zot faqat hadis ilmi bilan kifoyalanib qolmasdan, qiroat, bayon, fiqh, tarix va boshqa ilm-fan sohalaridan ham saboqlar olib ulug' alloma darajasiga yetgan.

At-Termiziyl 20 yoshga yetganda Xuroson shayxlaridan Is'lioq ibn Rohvayh Marvaziyl va boshqalardan ilm o'rgangan bo'lsa, 25–26 yoshlarida Iroqqa (Basraga) borib, u yerdagi allomalardan dars olgan. Keyinchalik, olim Hijozga ketib,

Makkai mukarrama, Madinai munavvarada yashagan, hamda ko'plab ulamolar, muhaddislar bilan muloqotda bo'lган va ta'lim olgan.

Abu Iso Muhammad Termiziy o'z davrining ko'plab mashhur muhaddislaridan ta'lim olgan. Bular orasida "Kutubi sitta", ya'ni olti ishonchli hadis kitoblari musaniflari Imom al-Buxoriy, Imom Muslim, Abu Dovud kabilalar bor.

Olimning sayohat va izlanishlari ko'п yillar davom etgan. Yigirma yil davomida u o'zga yurtlarda hadislarni o'rgangan va ularni to'plagan.

Ilmiy ma'lumotlarga ko'ra, Imom Termiziy hijriy 225-yilda Nishopurda Imom Buxoriy bilan ko'rishgan va ko'p hadislar xususida u bilan fikrlashgan. Shundan so'ng olim "Al-jomi' as-sahih" ("Sunani Termiziy") kitobini yoza boshlagan.

"Al-jomi' as-sahih" ("Sunani Termiziy") asariga yozilgan sharhlarga kelsak, bu asar ulamolar ommasiga o'ta maqbul bo'lganidan unga ko'plab sharhlar va hoshiyalar yozganlar. Kitobning mashhur sharhlari quyidagilar:

1. Asqaloniy. "al-Lubob fi sharhi Termiziy va fi-l-bob".
2. Alloma Anvarshoh Kashmiriy. "al-arf ash-shaziy taqriri "Jomi' Termiziy".
3. Alloma Sirojiddin ibn al-Mulqan. "Sharhu ibn al-Mulqan".
4. Qozi Abu Bakr ibn al-Arabi. "Orizat al-ahvaziy bi-sharhi "Jomi' Termiziy".

*Muhaddis ulamolar Termiziy haqida gapirib*, u zotni juda maqtaganlar. Bu borada Imom Buxoriyning ushbu mashhur so'zlarini keltirish kifoya; u zot o'z shogirdi Imom Termiziyni g'oyat qadrlab, kamtarinlik bilan: "Sen mendan bahramand bo'lganingdan ham ko'ra, men sendan ko'proq bahramand bo'ldim", degan.

Imom Abu Ahmad Nishopuriy esa bunday yozadi: "Muhammad Ismoil o'zidan keyin Xurosonda zuhud taqvoda Ter-

miziydek zotni qoldirdi". Sam'oniy "Ansob"da uni shunday ta'riflaydi: "U shubhasiz o'z zamonasining imomi edi, tasnifoti ko'p va hadis ilmi peshvolaridandir".

Imom Termiziyy "Jomi" Termiziyy", "Kitab ash-shamoil", "Kitab al-ilal", "Kitab az-zuhd", "Risola fil-xilof val-jadal" kabi asarlar yozib qoldirib, 279 sanada vafot etdilar.

**Fiqhga oid manbalar.** Markaziy Osiyoda yozilgan fiqhga oid asarlar asosan o'lkada yashovchi musulmonlar amal qiluvchi hanafiy mazhabiy asoslarini bayon qiladi. Bu borada Imom Marg'inoniyning "Hidoya", Ubaydulloh ibn Mas'udning "Muxtasari Viqoya" va qator olimlar tuzgan fatvo to'plamlarini misol tarzida keltirib o'tish mumkin.

**"Hidoya".** Islom olamiga mashhur asar. U imom, alloma, Ali ibn Abu Bakr ibn Abduljalil al-Farg'oniyy al-Marg'iloniyy (vafotи 593/1197) asaridir. Bu zot Hanafiy mazhabining buyuk faqihlaridan sanaladi. "al-Muntaqiy", "Nashr ul-mazhab", "Muxtorot an-Navozil" kabi asarlari, "Hidoya"ning boshlanishi hisoblangan "al-Bidoyat al-mubtadiy" va "al-Kifoyat al-muntahiy" asarlari bor.

**"Kifoya".** Ushbu fiqhga doir mashhur asar "Hidoya"ning sharhi bo'lib, uni Sayyid Jaloliddin ibn Shamsiddin al-Gurloniyy al-Xorazmiy ta'lif qilgan. U ilmni Hisomiddin as-Sig'noqiy (vafotи 714/1314) hamda Abdulaziz al-Buxoriy (vafotи 730/1329) lardan o'rgangan.

**"Nihoya".** Bu "Hidoya"ning sharhi bo'lib, muallifi Hisomidin Husayn bin Ali bin Hajjoj bin Ali as-Sig'noqiydir. Sig'noq Turkiston shaharlaridan biri bo'lgan. Hafizuddin Kabir Buxoriydan (vafotи 693/1293) dars olgan va fatvo berish darajasiga yetgan. "Hidoya"ga "Nihoya" nomli sharh yozgan va uni 700/1300-yil yozib tugatgan. Ushbu sharh "Hidoya"ning to'rtta eng mashhur sharhlaridan biridir. Ul zotning yana "Sharh at-tajrid fiy qavoid at-tavhid", "Kosiy sharhi usul al-Pazdaviy", "an-Najoh fis-sarf" nomli asarlari bor. U 714/1314 (yoki 710/1310)-yil vafot etgan.

**“Muxtasar ul-Viqoya”** asari jahonga mashhur. Uni Ubaydulloh ibn Mas’ud ibn Toj ush-shari'a al-Buxoriy (vafoti 747/1346-y.) yozgan. “Muxtasar” asari Ubaydulloh ibn Mas’udning bobosi yozgan “Viqoya”ning qisqartmasidir. U esa “Hidoya”ning faqat fiqhiy masalalari jamlanmasidir. “Muxtasar”ning asl nomi “Niqoya” hisoblanadi. “Muxtasar” esa uning laqabidir. Ba’zi tolibi ilmlar yanglish “Niqoya”ni Mavlono Aliy al-Qori (vafoti 1014/1606-y.)ning sharhiga nisbat beradilar.

**“Viqoya”.** Ushbu asar “Muxtasar al-Viqoya” sohibining bobosi Mahmud ibn Sadr ush-shari'a Ahmad al-Mahbubiy (vafoti 630/1232) qalamiga mansubdir. U Buxorodan chiqqan yetuk hanafiy mazhabiy faqihlaridan bo’lib, al-Kafaviy (vafoti 990/1582)ning aytishiga qaraganda, “al-Hidoya”, “al-Fatovo”, “al-Voqeot” masalalarini intixob (tanlab) qilib ta’lif qilgan. Uni nabirasi Sadr ush-shari'a Ubaydulloh ibn Mas’ud al-Mahbubiy (vafoti 747/1346-y.)ga bag’ishlagan.

**“Voqeot”** mazhabimiz fiqhiy masalalarining tabaqasida uchinchi o’rinda turadigan kitoblar majmuining nomlanishi. Bunday kitoblar uchta imom – Imomi A’zam (vafoti 150/767), Imom Abu Yusuf (vafoti 183/799) va Imom Muhammad (vafoti 189/805)dan rivoyat qilinmagan, lekin ularning eng oxirgi ashoblari yoki ashoblarining shogirdlari tartib bergan fatvolaridir.

Ulardan eng avvalgisi Abul-Lays Samarqandiy (vafoti 376/986) qalamiga mansub deyiladi. U o’z “Voqeot”ida ustozlari, ustozlarining shayxlari Muhammad ibn Muqotil (vafoti 248/862), Muhammad ibn Salama (vafoti 233/847), Nasr ibn Yahyo (vafoti 268/881) kabi zotlarning fatvolarini jamlashga harakat qilgan. Keyinchalik shunday asarlardan an-Notifyiy (vafoti 442/1050) va Sadr ush-shahid (vafoti 536/1141) ning asarlari paydo bo’ldi. Fiqhiy asarlarimizda mutlaq “Voqeot”dan deb keltirilgan masalalar an-Notifyyning asaridan olingan bo’ladi.

**“Jome’ ar-rumuz”** – Mulla Shamsiddin Ko‘histoniyning “Jome’ ur-rumuz” nomli asari ba’zi manbalarda muallif nomi asar nomi sifatida “Shamsuddin” zikr qilingan. “Jome’ ar-rumuz” mashhur “Muxtasar al-Viqoya”ning arab tilida yozilgan 2 jildlik sharhidir. Uning muallifi Shamsiddin Muhammad Ko‘histoniy bo‘lib, Buxoro muftiysi bo‘lgan. 962/1554 (yoki 950/1543)-yil vafot etgan. Bahouddin Naqshband hazratlari ning yonlariga dafn qilingan. Uning “Sharhi “Fiqhi Kaydoniy” nomli asari ham bor.

**“Fiqhi Kaydoniy”**. Fozil Kaydoniy nomi bilan tanilgan Lutfulloh an-Nasafiy (XIV asr) asari. Namoz haqida birlamchi ma’lumotlar beradigan muxtasar risola. Garchi muallifi haqida ma’lumotlar yo‘q bo‘lsada, Movarounnahrda juda mashhur bo‘lgan. Talabalar o‘qigan, yod olishgan. Namoz masalalari sakkiz bobga – farz, vojib, sunnat, mustahab, muboh, harom, makruh va mufsidga bo‘lib tushuntiriladi. Arab tilida yozilgan. Unga juda ko‘plab sharhlar arab, fors, turkiy tillarida btilgan.

**“Asl”**. Hanafiy Mazhabi fiqhiy masalalari bir qancha tabaqaga bo‘lib o‘rganiladi. Shulardan birinchisi “Asl masalalari” deyiladi va unda zohiri rivoyat tushuniladi. Uning eng asosiysi “al-Mabsut”dir. Uning eng mashhur nusxalaridan biri Abu Sulaymon al-Juzjoniy (vafoti 200/815-y.)ga tegishli va u “al-Asl” deb ataladi. “Mabsut”ning bir qancha nusxalari mavjud. Shayx ul-islom Abu Bakr Xoharzoda (vafoti 483/1090-y.) asari “Mabsuti Shayx ul-islom” yoki “Katta Mabsut” deyiladi. Shams ul-aimma as-Saraxsiy (vafoti 500/1106-y.) va ustozи Shams ul-aimma al-Halvoiy (vafoti 456/1063-y.) nusxalari mavjud. Zohiri rivoyat masalalarini to‘plagan Hоким ash-Shahid (vafoti 334/945-y.) “Kitob al-Kofiy” asarini yozgan va u ham “al-Asl” deb ataladi. Uning Shams ul-aimma as-Saraxsiy, Shayx ul-islom al-Isbijobiy (vafoti 535/1140-y.) sharhlari mavjud.

**“Mabsut”** kitobini Imom Muhammad (vafotи 189/805-y.) yozgan deyilsa-da, asl nusxalari yo‘qolib ketgan. Ul zot-dan rivoyat qilingan “Mabsut”lar bir nechtadir. Eng zohiri Abu Sulaymon al-Juzjoniy (vafotи 200/815-y.) niki hisoblanadi. “Mabsut”ga yozilgan sharhlar ham juda ko‘pdir. Shayx ul-isлом Xoharzoda (vafotи 483/1090-y.) ning asari “Mabsuti kabiyr” deyiladi. Shams ul-aimma al-Halvoiy (vafotи 456/1063-y.), Shams ul-aimma as-Saraxsiy (vafotи 500/1106-y.), Abul’usr al-Pazdaviy (vafotи 484/1091-y.), AbulYusr al-Pazdaviy (vafotи 493/1099-y.), Nosiruddin as-Samarqandiy (vafotи 556/1160-y.), Abul-Lays as-Samarqandiy (vafotи 376/986-y.) larning “Mabsut”lari bor.

“Mabsut” asari mutlaq kelganda “Mabsut as-Saraxsiy” tushuniladi. Bu aslida Hokim ash-Shahid (vafotи 334/945-y.) ning “Kofiy” asariga yozilgan sharhdир. Umuman olganda, bar-cha “Mabsut”lar sharhdир. “Mabsut as-Saraxsiy” haqida Alloma Imoduddin Tarsusiy (vafotи 727/1326-y.) “Bu kitobning xilofiga amal qilinmaydi, bungagina suyaniladi, bundagi masalalardan o‘zgasiga fatvo berilmaydi” degan.

**“Fatovoyi Qoziyxon”** – ulug‘ imom Hasan ibn Mansur al-O‘zjandiy al-Farg‘oniyning mashhur “al-Fatovo” kitobidir. Ushbu fatvo asar Hanafiy mazhabning eng mo‘tabar fatvo asarlari-dan biri hisoblanadi. Ushbu asar fiqh kitoblarimizda ko‘pincha “Xoniyya” nomi bilan keladi. Bundan tashqari Imom Qoziyxon “Sharh al-Jome’ as-sag‘iyr”, “Sharh az-Ziyodot” singari yirik asarlar ta‘lif qilgan. U 592/1195-yilda vafot etgan.

**“Attobiyya”**. Muallif nomiga nisbatan atalgan kitob nomi. Abu Nasr Ahmad bin Muhammad bin Umar Zohidud-din al-Attobiyy. Buxoroning Attobiyya mahallasidan bo‘lgan. Zohid ulamolardan, zamonasin ing tengsiz allomalaridan. Asarlaridan “Sharh az-Ziyodot”, “Jome’ al-kabiyr” va “Jome’ as-sag‘iyr”ga yozgan sharhlari, Qur’oni karimga yozgan tafsiri hamda mashhur fatvosi “Fatovoyi al-Attobiyya”si bor. Uni “Ja-

vome' ul-fiqh" ham deyiladi. 586/1190 (yoki 582/1186)-yilda vafot etgan.

**“Badoye”**. Ushbu mashhur asar muallifi Abu Bakr ibn Mas'ud bin Ahmad Malik al-ulamo Alouddin al-Kosoniyidir. “Badoye” Alouddin as-Samarqandiy yozgan “Tuhfat al-fuqaho” asari sharhidir. Al-Kosoniyning yana “as-Sulton al-mubin fiy usul ad-din” nomli kitobi bo'lgan. U 587/1191-yil Rajab oyida Halabda vafot etgan. Halab tashqarisida Alouddin Samarqandiy-ning qizi olima, faqifa Fotima yoniga dafn qilingan.

**“Zaxira” va “Muhit”** kabi mashhur kitoblarning sohibi Burhoniddin Mahmud ibn Sadr us-sa'id Ahmad ibn Sadr ul-kabiyr Abdulaziz al-Buxoriy bo'lib, 544/1149-yilda vafot etgan. Uning “az-Zaxira”, “Sharh al-Jome' as-sag'iyr”, “Sharh az-Ziyo-dot”, “Sharh Adab al-qozi lil-Xassof”, “al-Voqeot” kabi asarlari bor. Uning “Zaxira” asari “Muhibi Burhoniy” kitobining mu-laxxasi – tanlangan masalalari hisoblanadi.

**“Saloti Mas'udiy”**. Bu asar Faqih Mas'ud bin Mahmud bin Yusuf as-Samarqandiy (XIII–XIV asrlar) qalamiga mansub. Fiqhga oid 3 juz'li fors tilidagi asar. Bizning diyorlarda mashhur va ma'mul bo'lgan. Bir paytlar yurtimizda ikki marta turkiyga o'girilgan. Zamonaviy o'zbek tilida asar hali nashr etilmagan.

Mazkur manbalar asosida musulmon qonunchiligi yaratil-gan.

**Abu Mansur al-Moturidiy ilmiy merosi**. Islomiy bilimlardan yana bir turi aqoid ilmi bo'lib, bu sohaga ham markaziy osiyolik ulamolar o'zlarining katta hissalarini qo'shganlar. Ularning eng mashhuri va ustozи Abu Mansur Moturidiyidir.

**Abu Mansur al-Moturidiy** sunniy e'tiqodidagi ikki yirik oqimlardan biri bo'lmish Moturidiya oqimining asoschilaridan hisoblanadi. Uning hayoti haqida ma'lumotlar juda oz. To'liq nomi Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud al-Hanafiy al-Moturidiy as-Samarqandiyidir. Buyuk kalom imomi va fiqh olimi asli Samarqandning Moturid qishlog'idan

(hozirgi Jonboy tumanida joylashgan) bo'lib, uning taxallusi shu qishloqqa nisbatan olingandir. Abu Mansur al-Moturidiy dastlabki ta'limni shu qishloqda olib, keyinchalik Mavarounnahrning o'sha davrdagi diniy va ma'rifiy markazi bo'lgan Samarcandda davom ettiradi.

Al-Moturidiy yashagan davr Somoniylar hukmronlik qilgan davrga to'g'ri keladi. Samarcand dastlab bu davlatning poytaxti bo'lib, so'ngra IX asrning oxiridan boshlab poytaxt Buxoroga ko'chirildi. Biroq o'sha vaqtida ham Samarcand Buxoro bilan bir qatorda Mavarounnahrning iqtisodiy-madaniy markazi bo'lib qolaverdi.

Abu Mansur al-Moturidiy tug'ilgan yili haqida aniq ma'lumotlar yo'q. U Samarcandda 944–945-yilda vafot etgan va shahar chekkasidagi Chokardiza degan qabristonga dafn etilgan.

Ba'zi manbalarda uning Samarcanddagagi al-Ayoziy madrasasida ta'lim olgani qayd etilgan. Al-Moturidiy Abu Bakr Ahmad al-Juzjoni, Abu Nasr Ahmad al-Iyodiy, Imom A'zam mazhabidagi buyuk olim Nasr ibn Yahyo al-Balxiy, Muhammad ibn al-Fadl kabilarni o'zining ustozi deb bilgan.

Al-Moturidiy fiqh va kalom masalalari bilan qiziqib, Hanafiya mazhabi olimlaridan dars olib o'z bilimini oshiradi. Shu vaqt davomida ko'plab mashhur faqihlar va muhaddislar bilan muloqotda bo'lgan va munozaralar qilgan. U umri davomida shu sohaga oid bir necha asarlari yozib qoldirgan.

Mahmud ibn Sulaymon al-Kafaviyning (vafoti 1582-y.) "Katoib ul-a'lom al-axyor fi taboqot va mashaoyix mazhab an-Nu'mon" ("No'mon mazhabiga mansub bo'lgan taniqli alloma faqihlar va shayxlar haqidagi kitob") nomli kitobida al-Moturidiy va uning asarlari haqida ayrim ma'lumotlar beriladi. Masalan, quyidagi asarlari nomlari keltirilgan: "Kitabi Tavhid", "Kitab Maqomat", "Kitab rad avomil lil adila lil ka-biy" ("Ka'biy zalolatlarining boshlanishini rad qilishga bag'ishlangan kitob"),

“Kitab bayon vahm ul-mo‘tazila” (“Mu’tazila g‘avg‘olari va undan qo‘rqmaslik haqidagi kitob bayoni”), “Kitab Ta’vilot al-qur’on” (“Qur’on ta’vili kitobi”).

Hoji Xalifaning (1609–1659) “Kashf az-zunun an-asomil kutub va-l-funun” (“Kitob va fanlar nomlari haqidagi shub-halarни bartaraf etish kitobi”) kitobida e’tirof etilishicha, Abu Mansur al-Moturidiyning “Ma’axiz ash-shari’a” (“Shariat asoslari sarasi”), “Kitab al-jadal” (“Dialektika haqida kitob”) kabi asarlari ham bo’lgan. Bularidan tashqari al-Moturidiyning “Kitab al-usul” (“Diniy-ta’limot usuli kitobi”) asari ham ma’lum.

Abu Mansur al-Moturidiyning ko‘p asarlari bizgacha yetib kelmagan, yetib kelganlari ham asosan xorijiy mamlakatlar kutubxona va qo‘lyozma fondlarida saqlanadi.

Al-Moturidiyning islom olamida juda nozik hisoblangan “Kitab Tavhid” asari bizning davrimizga yetib kelgan va u 1970-yilda Fathulloh Xulif tomonidan Bayrutda nashr etilgan.

Al-Moturidiyning yana bir asari “Ta’vilot ahl as-sunna” yoki “Ta’vilot al-Qur’on” deb nomlanadi. Al-Moturidiy bu asarida sunniy aqidadagi (ta’vilda) zid qarashlarni rad qilishga harakat qiladi va Abu Hanifaning qarashlariga suyangan holda ish ko‘radi.

Bu asar qo‘lyozmasi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanadi. “Ta’vilot”ning bиринчи jildi Qohirada 1971-yilda Ibrohim Avadayn va as-Sayd Avadaynlar tomonidan nashr etilgan.

Al-Moturidiyning shu asari tarix jarayonida ko‘p allomalar asarlariga asos solgan, ular ijodiga turtki bo’lgan. Shulardan biri Alovuddin Abu Bakr Muhammad ibn Ahmad as-Samarqandiyning sharhidir. Asar “Sharh ta’vilot ahli as-sunna” deb nomlanib, yuqorida zikr etilgan institut fondida bu asarning ikkita nusxasi saqlanadi.

Al-Moturidiy ko‘p shogirdlar yetishtirgan bo‘lib, ular orasida Abu-l-Hasan ar-Rustug‘faniy (vafoti 961-y.), Is’hoq ibn Muhammad as-Samarqandiy va Abdu-l-Karim al-Pazdaviy (vafoti 999-y.), Abu Ahmad al-Iyodiy kabi olimlar islam olamida mashhur hisoblanadi.

Al-Moturidiy o‘z davrining islamiy ilmlari sohasida eng yetuk bilim sohibi hisoblanib, musulmon dunyosi olimlari tomonidan tan olingan va hozirda ham turli diniy asarlarda zo‘r ehtirom bilan tilga olinadi. Al-Moturidiyni ulug‘lab “Imom al-Huda” va “Imom al-mutakallimin” (Hidoyat yo‘li imomi va mutakallimlar imomi) kabi nomlar bilan ham ataganlar.

Movarounnahr Markaziy Osiyo xalqlari turli falsafiy, tabiyyi, aniq fanlar, adabiyot, san‘at sohalarida dunyoga mashhur siymolar, allomalar bilan birga islam nazariyasi, diniy ilmlar bo‘yicha al-Moturidiydek butun musulmon olamida nom qozongan olimlarni ham yetishtirib chiqardilar.

Keyingi asrlarda islam aqoidi sohasida ko‘plab asarlar yaratildi. Biz ulardan misol tarzida quyidagilarni keltirib o‘tmoqchimiz.

**Aqoid.** Bu nomdagagi asarlar juda ko‘pdir. Asosiyilari Qozi Azudiddin Abdurrahmon ibn Ahmad al-Iyjiy (vafoti 756/1355-y.) hamda Shayx Najmuddin Abu Hafs Umar bin Muhammad an-Nasafiy (vafoti 537/1142-y.)larning aqida borasida tuzgan muxtasar matn kitoblaridir. Madrasa toliblari yana Imomi Azam (vafoti 150/767-y.)ning “Fiqh ul-acbar” hamda Sirojiddin al-O’shiyning “Bad’ ul-amoliy” asarlaridan ham keng istifoda qilgan. Imom Ahmad bin Muhammad at-Tahoviy (vafoti 321/933-y.)ning aqida kitobini o‘qish Movarounnahrda odat bo‘lmagan.

**Mulla Xayoliy.** U Ahmad bin Muso Mavlo Xayoliy asarining muallif nomi bilan atalishi. Bu zot “Sharhi Aqoidi Nasafiyya”ning eng mashhur hoshiyasini yozgan. Otasi qozi bo‘lgan. Mulla Xayoliy Sulton Muhammadxon davrida Turkiya-

ning eng mashhur mudarrislaridan bo'lgan. 860/1455-yilda va-fot etgan.

Aqoid ilmi mantiq ilmi bilan birga rivojlandi. To'g'ri tafakkur yuritishning asosiy qonunlari va shakllarini o'rganadigan mantiq (logika) O'rta Osiyo va musulmon olamida falsafadan alohida fan sifatida taraqqiy etgan edi. O'rta asrlarda mantiqning asosan formal va dialektik yo'nalishlari mavjud bo'lgan. Abu Nasr al-Forobiy, Abu Ali ibn Sino va Abu Rayhon Beruniy kabi allomalar mantiq fani rivojlanishida xizmatlari katta bo'ldi. Hatto Aristotelning mantiqqa oid ta'limoti buyuk mutafakkir bobolarimiz asarlari orqali Yevropaga kirib kelgan.

**Mantiq faniga oid asarlar.** Markaziy Osiyoda o'rta asr va undan keyingi davr madrasalarida mantiq fani ham alohida o'qitilgan va bu borada maxsus darslik va qo'llanmalarga ega bo'lingan. Mo'g'ullar istilosи davrigacha O'rta Osiyo madrasalarda o'qitilgan mantiqqa oid aniq bir qo'llanma haqida ma'lumot mavjud emas, bu davrda qomusiy olimlarimizning mantiqqa oid asarlari dasrlik vazifasini o'tagan bo'lishi ehtimoldan xoli emas. XIII–XIV asrlarga kelib, mantiq ilmiga e'tibor kuchaygan. Bunga Sohibqiron Amir Temur tomonidan Samarqandga taklif etilgan ikki buyuk alloma Sa'duddin at-Taftazoniy (1322–1392) va Sayyid Sharif al-Jurjoniy (1340–1414) sababchi bo'lganlar, deyish mumkin. Sa'duddin at-Taftazoniyning "Tahzib al-mantiq va-l-kalom", Sayyid Sharif al-Jurjoniyning esa ikkita – "al-Kubro" ("Katta") va "as-Sug'ro" ("Kichik") deb nomlangan asarlari 100–150-yil davomida madrasalarning mantiqqa oid asosiy darsligi vazifasini o'tagan.

Mantiqqa oid asarlar orasida to'rtta asarning qo'lyozma nusxalari ko'p uchrashini kuzatamiz. Bular "Isog'uchi", "ash-Shamsiya", "Odob al-munozara" va "Sullam al-ulum"dir. Ushbu uchta asarga bitilgan sharhlar, sharhlarga hoshiyalar, hoshiyalarga yana superhoshiyalar juda ko'p uchraydi.

Samarqandlik mutafakkirlardan biri Asiriddin al-Abhariy nomi bilan tanilgan Mufazzal ibn Umar ibn Mufazzal al-Abhariy as-Samarqandiy (vafotи 1264-y.) o'zining "Isog'uchi" asari bilan tanilgan. U mashhur olim Faxriddin ar-Roziy (1150–1210) talabasi hisoblanadi.

"Isog'uchi", aslida, "Isogoge" bo'lib, lotin tilidan arab tiliga o'ziga xos tarjima hisoblanadi. U lotin tilida "Kirish" degan ma'noni bildirgan. "Isog'uchi" XX asr boshigacha madrasalarda mantiq fanidan eng asosiy darslik vazifasini o'tagan va "ash-Shamsiya"dan oldin o'qitilgan. Asiruddin al-Abhariy mantiq, falsafa, astronomiya sohalarida yetuk alloma bo'lgan. Uning mantiqqa oid bir necha asarlaridan tashqari "Hidoyat al-hikmat", "Risolat al-usturlob", "Muxtasar fiy ilm al-hay'at", "Diroyat al-aflok", "az-Zij ash-sho'mil", "az-Zij al-ixtiyoriy" ("Ziji Asiriyy") kabi asarlari bo'lgan. "Isog'uchi" o'zbek tiliga tarjima qilingan.

Najmiddin Dabiron laqabi bilan tanilgan Abu-l-Maoliy (Abu-l-Hasan) Ali ibn Umar ibn Ali al-Kotibiy al-Qazviniy (1203–1277) mantiq ilmining eng taniqli olimlaridan bo'lib, uning "ash-Shamsiya" va "Hikmat al-ayn" asarlari madrasalarда 800 yil davomida darslik vazifasini o'tab kelgan. Uning teologiyaga oid "Isboti vojib al-vujud" asari ham shuhrat qozongan. Mazkur uchta asarga o'nlab sharhlar va sharhlarga hoshiyalar bitilgani tabiiy, albatta. Uning ikkita sharhi mashhur, birinchi-sini Nasiriddin at-Tusiyning shogirdi Qutbiddin Muhammad ar-Roziy (1295–1365), ikkinchisini Sa'duddin at-Taftazoniy bitgan. Qutbiddin Roziyning "Tahrir al-qavoid al-mantiqiya fi sharh ash-Shamsiya" nomli mazkur sharhiga Sayyid Sharif Jurjoniy hoshiya bog'lagan. Natijada, ushbu sharh va hoshiya "Qutbiya" va "Sharifiya" nomi bilan ko'proq mashhurlikka erishgan. "ash-Shamsiya" ham o'zbek tiliga tarjima qilingan.

Azudiddin al-Ijiy nomi bilan tanilgan Abu-l-Fazl Abdurrahmon ibn Ahmad ibn Abdulg'affor (vafotи 1355-y.) o'zining

bir nechta asarlari bilan O'rta Osiyo madrasalar ta'lif tizimida muhim rol o'ynagan. Jumladan, kalom ilmiga oid "al-aqid al-azudiya" va "al-mavoqif fiy ilm al-kalom" asarlari darslik bo'lgan. Mantiqqa oid bahs va munozara yuritish qonun-qoidalariga bag'ishlangan "Odob al-munozara" nomli mo'jaz risolachasi mashhur. Unga Sayyid Sharif Jurjoniy kabi bir qancha olimlar sharh bitgan. Bahs va munozara yuritish qoidalariga oid soha mantiqdan alohida ajralib chiqib, ilmi nazar, ilmi munozara, ilmi odobi bahs, shuningdek, ilmi jadal va ilmi xilof nomlari bilan atalib rivoj topgan. Ilmi jadal va ilmi xilof islom huquqshunosligining nazariy masalalarini tadqiq qiladigan usul al-fiqh sohasida yordamchi fan sifatida qo'llanilgan.

XVIII asrdan boshlab O'rta Osiyo madrasalarining so'nggi bosqichlarida mantiq fanidan "Sullam al-ulum" ("Ilmlar narnvon'i") asari o'qitala boshlandi. Uning muallifi Muhibbulloh ibn Abdushshukur al-Bahoriy al-Hindiy (vafotи 1707-y.) bo'lib, u Hind diyorida qozilik va sadrlik lavozimlarida faoliyat olib borgan olimdir. Mazkur asarga ham bir qancha sharh va hoshiyalar bitilgan. Muhibbulloh al-Bahoriy hanafiy mazhabni faqihni sifatida usul al-fiqhga oid "Musallam as-subut" nomli asar ham bitgan.

O'rta asrlar va undan keyingi davrlarda Markaziy Osiyoda ta'lif dasturlariga kiritilgan mantiq faniga oid asarlар va ularga bitilgan sharh-hoshiyalarni o'rganish mazkur hududda ilm-fan rivojini tadqiq va tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqorida sanab o'tilgan mantiqqa oid asarlardan boshqa yana o'nlab qo'lyozmalar borki, ular o'z tadqiqotchilarini kutib yotibdi. Quyida mazkur sohalarga bag'ishlangan ayrim asarlarning qo'lyozmalari haqida ma'lumotlar taqdim etiladi.

"Xulosat ul-alfoz jomi' ul-ulum" (Ilmlarning to'plami – so'zlarning xulosasi) asari fors tilida yozilgan bo'lib, uning muallifi Abu Abdulloh Al'louddin Ali ibn Sa'd ibn Ashraf ibn Ali al-Qurayshiy al-Husayniy hisoblanadi.

Mazkur asar muallifning ustozi va shayxi Abu Abdulloh Jaloluddin Husayn ibn Ahmad al-Buxoriy al-Hasaniyning ilmiy suhbatlarida tilga olingan ilmiy gaplarning izohiga bag'ishlangan. Kitob muqaddimasida ushbu suhbatlarda 178 ta ilm borasida ma'lumotlar mavjudligi qayd qilingan va ushbu ilmlarning nomlari birma-bir sanab o'tilgan. Ular orasida logika, arab tilshunosligi, bahs-munozara, bola tarbiyasi, odob-axloq, madaniyat kabilalar bor. Asarda muallif bilan ustozi o'rtasida bo'lib o'tgan ibratli voqealar ham tasvirlangan, suhbatlarda aytilgan hikmatli gaplar keltirilgan.

"Aqsom ul-ulum al-arabiyya" (Arabiylarning qismlari) asari arab tilida yozilgan. Uning muallifi Sayyid Sharif Ali ibn Muhammad ibn Ali al-Jurjoniy (1340–1414) Temuriylar davrining eng ko'zga ko'rigan allomalaridan bo'lib, Samarqand va Sheroz shaharlarida ilmiy faoliyat olib borgan. U Samarqandda Abu Ya'qub Sirojiddin Yusuf as-Sakkokiy al-Xorazmiy (1160–1229) qalamiga mansub "Miftoh al-ulum" asariga sharh bitgan. Mazkur sharhdan muallifning "Aqsom ul-ulum al-arabiyya" nomli risolasi ham o'rinni olgan. Ushbu kichik hajmli risola arab tilshunosligi, adabiyoti sohasiga aloqador fanlarga bag'ishlangan. Unda fanlar nomlari va qisqacha mavzusi bayon etilgan. Unga ko'ra arab tilshunosligi va adabiyotida 15 ta ilm mavjud bo'lgan. Asarning yozilgan yili noma'lum, u fanlar mohiyati va ilmlar tasnifiga bag'ishlangan.

**Tasavvufiy asarlar.** Islomiy manbalarning katta qismini tasavvuf ilmiga oid asarlar tashkil etadi. Abu Tolib al-Makkiyning (vafotи 386/996-y.) "Qut al-qulub" ("Qalblar ozig'i"), Abulhasan Ali ibn Usmon ibn Abu Ali al-Julо ibn al-Hujiriyy al-G'aznaviyning (vafotи 464/1071-y.) "Kashf al-mahjub li-arbob il-qulub" ("Qalb sohiblari uchun pardani ochish"), Abu Ismoil Abdulloh ibn Abu Mansur Muhammad al-Ansoriyining (396/1005–481/1090) "Manozil as-soirin ila-l-haq" ("Haqqa yetuvchilarining manzillari"), Abunasr Ahmad ibn Abulhasan an-Nomuqiyning

(vafoti 536/1141-y.) “Anis at-toibin va sirotulloh al-mubin” (“Tavbakorlar hamrohi va Allohning ravshan yo‘li”), Abulfath Muhammad ibn Nasr Ahmad an-Namiqiyning (vafoti 641/1243–1244-y.) qalamiga mansub “Hadiqat al-haqqa” (“Haqiqat bog‘i”), Muhiddin Muhammad ibn al-Arabiyning (vafoti 638/1240-y.) “Fusus al-hikam” (“Hikmat ko‘zlar”), Muhammad ibn Ahmad ibn As‘ad al-Buxoriyning (XIII asr) “Maslak al-orifin” (“Oriflar yo‘li”), Abubakr ibn Abdulloh ibn Muhammad ibn Shohovar al-Asadiy ar-Roziyning (“Najmuddin ad-Doya” nomi bilan shuhrat topgan, vafoti 654/1256-y.) “Mirsod al-ibod min al-mabda’ ila al-ma’od” (“Bandalarning avvaldan oxirgacha istagi”), Ali ibn Shihobuddin al-Husayniy al-Hamadoniyning (vafoti 786/1385-y.) “Avrod al-fathiyya” (“Ochuvchi zikrlar”), Kamoluddin Abdurrazzoq Koshoniyning (vafoti 730/1329 yoki 735/1335-y.) “Sharhi “Manozil as-soirin ila al-haq” (“Haqqa yetuvchilarining manzillari” sharhi”), Maylono Ahmad ibn al-Qosim Davlatobodiyning “Nosir” (XIV asrda yashagan) “Odob al-muridin” (Muridlar odobi), Abu Ali al-Husayn ibn Yahyo al-Buxoriy az-Zandavistiyning (vafoti 864/1459-y.) “Ravzat al-ulamo va nuzhat al-fuzalo” (“Olimlar bog‘i va fozillar sayri”), Abdulhaq ibn Sayfuddin al-Qodiriy ad-Dehlaviyning (vafoti 1052/1642-y.) “Odob as-solihin” (“Solihlar odobi”) hamda Ali ibn Ahmad al-G‘uriyning “Kanz al-ibod fi sharh al-avrod” (“Avrod sharhida bandalar xazinasi”) asarlari va boshqalar shular jumlasidandir.

**1. “Qut al-qulub”** (“Qalblar ozig‘i”). Arab tilidagi bu mashhur asarning muallifi Abu Tolib Muhammad ibn Ali ibn Atiyya al-Yamaniy al-Makkiy (vafoti 386/996-y.) hisoblanadi. Tasavvufning umumiylasalalariga bag‘ishlangan mashhur asar. Undan o‘rtaosiyolik mutasavvif olim Xoja Muhammad Porso (1349–1420) ham keng foydalangan, o‘z asarlarida iqtiboslar keltirgan.

**2. “Kashf al-mahjub li-arbob al-qulub”** (“Qalb sohiblari uchun pardani ochish”). Abulhasan Ali ibn Usmon ibn Abu

Ali al-Jullobiy al-Hujviriy al-Faznaviy (vafoti 464/1071-y.) qalamiga mansub. Bu shaxs Sharq tasavvufidagi junaydiyya oqimining nazariyotchilaridan hisoblanadi. Asar fors tilida yozilgan tasavvuf tarixi va mohiyati haqidagi dastlabki manbalar-dandir. Kitob 14 bob; asosiy qismi bo'lmish 2-bobi "Sufiyalar tariqatining (sulukining) mohiyati va ta'limoti" deb nomlangan.

"Kashf al-mahjub"ning Samarqandda chop qilingan litografik nusxasi asosida V.A. Jukovskiy tomonidan uning katta so'zboshisi bilan 1926-yili Leningrad (Sankt-Peterburg)da tanqidiy matni nashr etilgan. Qisqartirilgan inglizcha tarjimasi R.A. Nikolson tomonidan 1911-yilda nashr qilingan.

**3. "Manozil as-soirin ila al-haqq"** ("Haqqa yetuvchi-larning manzillari"). Asar muallifi Abu Ismoil Abdulloh ibn Abu Mansur Muhammad al-Ansoriy al-Hiraviy (396/1006–471/1088). U yana "Piri Ansor", "Piri Hiraviy" va "Shayxulislom" deb ham atalgan. Hirotda yashagan. Abdulloh Ansoriy tariqat piri va ayni paytda shoir ham edi; fors tilida bitilgan adabiy meros qoldirgan.

"Manozil as-soirin ila al-haqq" fors tilida yozilgan nazmiy asar. Unda tasavvufiy masalalar, jumladan, solihlarga oyat-hadislar asosida maslahatlar, nasihatlar beriladi.

**4. "Xolisat al-haqoyiq lima fihi min asalib addaqaiq"** ("Nozik uslublar uchun xolis haqiqatlar"). Asarning muallifi Abulqosim Mahmud ibn Ahmad ibn Abulhasan al-Barobiy (vafoti 607/1209-y.) bo'lib, 592/1196-yilda arab tilida yozilgan. Asarda tasavvuf, axloq-odob va kundalik turmush masalalari to'g'risida so'z boradi.

**5. "Hadiqat al-haqiqa"** ("Haqiqat bog'i"). Abulfath Muhammad ibn shayxulislom Nasr Ahmad ibn Abulhasan ibn Jarir ibn Abdulloh ibn Lays al-Balxiy summa an-Namiqiy al-maruf bi-l-Jomiy (vafoti 641/1243–1244-y.) asari; arab tilida.

Muallif o'z zamonasi ba'zi so'fiylarining shariat, tariqat va haqiqatda noto'g'ri yo'lida borayotgani uchun ularni ogohlangu-

tirib, ularga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatish maqsadida mazkur asarni yozgan.

**6. “Mirsod al-ibod min al-mabda’ ila al-ma’od”** (“Bandalarning avvaldan oxirgacha istagi”). Muallif – Abubakr ibn Abdulloh ibn Muhammad ibn Shohovar al-Asadiy ar-Roziy; “Najmuddin ad-Doya” laqabi bilan shuhrat topgan (vafoti 654/1256-y.).

Asar besh bob, qirq bo‘limdan iborat bo‘lib, unda har xil toifadagi kishilar baxtli bo‘lishlari uchun nimalar qilishlari, qanday hayot kechirishlari kerakligi haqida o‘gitlar keltirilgan; tariqatning mohiyati, shayx va muridning majburiyatlari hamda boshqa shu kabi tasavvufiy masalalarga ham keng o‘rin ajratilgan.

**7. “Ravzat al-ulamo va nuzhat al-fuzalo”** (“Olimlar bog‘i va fazollar sayri”). Ushbu asar Abu Ali al-Husayn ibn Yahyo al-Buxoriy az-Zandavistiyning (vafoti 864/1459-y.) ilohiyot, tasavvuf mavzulari bo‘yicha hanafiya mazhabi ruhida, arab tilida yozilgan bo‘lib, u 2 qism, 107 bob va ularning fihristidan iborat.

Bulardan tashqari keyingi asrlarda Markaziy Osiyoda keng tarqalgan Naqshbandiya tariqatining asoslarini bayon qiluvchi asarlar ham ko‘plab yozilgan. Ularning asosiylari sifatida tariqat asoschisi Bahouddin Naqshbandning (1318–1389) bosh xalifasi, tasavvuf ta‘limotining XIV asr oxiridagi nazariyotchilaridan biri, Xojagon-naqshbandiya tariqatining yirik vakili Xoja Muhammad Porso nomi bilan mashhur bo‘lgan Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud al-Hofiziy al-Buxoriy (1349–1420) qalamiga mansub asarlarni ham keltirib o‘tish maqsadga muvofiqdir.

Xoja Muhammad Porsoning eng katta asarlaridan biri “Tahqiqot” bo‘lib, asar tasavvufning nazariy masalalarini ochib berishga bag‘ishlangan. Muhammad Porsoning “Risolai qudsiya” asari Xoja Bahouddin Naqshbandning qudsiy kalimalarini sharhlashga bag‘ishlangan.

Tasavvufning nazariy masalalariga oid asarlar Xoja Muhammad Porso ilmiy merosining asosiy qismini tashkil qiladi va ularning aksari fors tilida yozilgan. Masalan, "Az anfozi qudsiyai mashoyixi tariqat", "Risolai kashfiya", "Maktubi Xoja Muhammad Porso ba Mavlono Zaynuddin", "Risola dar odobi murid", "Risolai mahbubiya", "Risolai qudsiyya vasoyo suluki mashoyix", "Risol-i tariqat-i Xojagon — Risola fiz-zikr", "Suxanon-i Xoja Porso", "Risola fit-tasavvuf", "Maktub", "Risolat al-haqoiq", "Qavl fil-ajviba hazihi al-asilat al-mursala min Hirot ila Buxoro" kabi asarlar.

Bulardan tashqari "al-Fusul as-sitta", "Risola-i vujud" tarjimasi" kabi asarlar arab tilida yozilgan.

Bahouddin Naqshband haqida Mavlono Ya'qub Charxiyning "Risolai unsiya", Abul Muhsin Muhammad Boqirning "Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband" kabi risolalari mavjud.

Yassaviya tariqati borasida ham qator asarlar yaratilgan. Jumladan, yassaviya tariqatining nazariy jihatlarini yoritish maqsadida yozilgan va fanda ancha tanish bo'lgan "Javohir al-abror", "Lamahot", "Hujjat az-zokirin" kabi asarlar bilan bir qatorda XVIII asrda Buxoroda yashagan Shayx Xudoydodning asarlarini sanab o'tish mumkin. U yassaviya tariqatining namoyandası sifatida uning g'oyalalarini targ'ib qilgan va bu sohada bir nechta ilmiy asarlar ham yozib, ularda yassaviya tariqati ta'lrimoti, zikr qilish uslublarini ilmiy jihatdan asoslab bergen. Uning tasavvufga oid "Bahr al-ulum" ("Ilmlar dengizi"), "Pisandi zikri jahr" ("Zikri jahrga e'tibor"), "Firdavs al-ulamo" ("Olimlar gulshani"), "Bo'ston al-muhibbin" ("Do'stlar bog'i"), "Tanbeh az-zolliyin" ("Adashganlarga tanbeh"), "Jomi' al-bahrain" ("Ikki dengizni birlashtiruvchi"), "Tariqai vusul ilalloh" ("Allohg'a yetishish yo'li") nomli asarlaridan avvalgi to'rttasi bizgacha yetib kelgan.

Markaziy Osiyo tasavvuf tarixi bo'yicha Alisher Navoiyning "Nasoim ul-muhabbat", Faxruddin Ali Safiyuning "Rashahotu ayni-l-hayot" kabi asarlari katta ahamiyat kasb etadi.

**Savol va topshiriqlar**

1. Arab yozuvidagi dastlabki manbalar tarixi haqida so'zlab bering.
2. Arab tilidagi yozma manbalar: Qur'oni Karim va uning tafsirlari, hadislarga oid asarlarni sanab o'ting.
3. Hadisshunoslik ilmining rivojlanish tarixi haqida ma'lumot bering.
4. Imam al-Buxoriyning ilmiy merosi haqida qanday ma'lumotlarga egasiz?
5. Imam at-Termiziyy asarlarining mohiyada nimada?
6. Fiqhshunoslikka oid asarlar xususida nimalar bilasiz?
7. Tasavvuf sohasida ijod qilgan allomalarimiz asarlari haqida so'zlab bering.
8. Aqoid deganda nimani tushunasiz?

**Manbalar va adabiyotlar**

1. Абу Жаффар Табарий. История ат-Табарий. – Т.: Фан, 1969.
2. Абул Фазл Байхаки. История Маъсуда. Перевод с персидского. Введение, комментарии и приложения. А.К. Арендса. – М., 1969.
3. Ahmedov B. O'zbekiston tarixi manbalari (qadimgi zamon va O'rta asrlar). – T., 2001.
4. Библиография арабских рукописей. – М., 1982.
5. Bo'riyev O. Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo. – T., 1997.
6. История Узбекистана в источниках. Известия путешественников, географов и ученых XVI – первой половины XIX века / Составитель Б.В. Лунин. – Т.: Фан, 1988.
7. Мир Мухаммад Амин Бухорий. Убайдулла-наме. Перевод с таджикского с примечаниями А. Семенова. – М., 1957.
8. Рашид ад-дин. Сборник летописей // Пер. с персидского О.И. Смирновой. Прим. Б.И. Панкратова и О.И. Смирновой. Ред. А.А. Семенова. Т.1, кн.2. – М. – Л., 1952.
9. Собрание Восточных рукописей Института востоковедения АН РУЗ. Тт. I–XI. – Т., 1952–1987.
10. Халидов А.Б. Арабские рукописи и арабская рукописная традиция. – М., 1985.

## MARKAZIY OSIYONING O'RTA ASRLAR TARIXIGA OID MANBALAR

### 5-MAVZU: SHARQ KITOBAT TARIXI, QO'LYOZMALAR XAZINALARI

*Sharq kitobat san'ati tarixidan. Amir Temur va Temuriylar davrida kitobat san'atining rivojlanishi. Temuriylar davrida kitoblarni muqovalash tarixidan. XVI–XIX asrlarda O'rta Osiyoda kitobat. Arab yozuvidagi badiiy qo'lyozmalarning o'ziga xos xususiyatlari. Arab yozuvidagi kitoblarni muqovalash tarixidan. O'zbekistonda saqlanayotgan arab yozuvidagi yozma manbalar (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi, Muyi muborak madrasasi, Toshkent Islom universiteti kutubxonasi, O'zbekiston Milliy universiteti Noyob qo'lyozma kitoblar muzeyi).*

**Sharq kitobat san'ati tarixidan.** Sharq xalqlarining ilm-fan va ma'nnaviy madaniyat sohasida yaratib qoldirgan buyuk merosi, bugungi kunga qadar asosan, qo'lyozma asarlar holida yetib kelgan. Arab yozuvida kitobat qilingan arab, fors va turkiy tillardagi madaniy meros tufayli Sharq xalqlari aj-dodollar tomonidan yaratilgan ma'nnaviy xazinadan bahramand bo'lgan va jahon madaniyati taraqqiyotiga o'z hissasini qo'sha olganlar. Barcha musulmonlar uchun yagona bo'lgan arab yozuvi badiiy san'at va bezaklar ifodasi uchun ham universal ahamiyatga ega hisoblangan. Albatta, uning bunday mavqeyi

musulmonlar e'tiqodi, Qur'oni karim ushbu yozuv vositasida ifodalanganligi bilan bog'liq. Arab yozuvida bitilgan kitobat o'z rivojlanish tarixiga ega. Qur'oni karimning VIII–IX asrlarga oid ilk nusxalari arab yozuvining dastlabki shakllaridan biri – kufiy xatida pergamentga yozilgan, kam miqdorda tilla bilan birga turli ranglardan foydalanilgan. Ularda Sharqning qaysi huddida yaratilganligini ko'rsatuvchi alohida belgilar ko'zga tashlanmagan. Yozuv materiali sifatida qog'ozning kashf etilishi va ko'p miqdorda ishlab chiqarilishi kitobat tarixida katta siljishga, kitoblarning ko'payishi, ularning sifat jihatdan yaxshilanishiga imkon yaratdi. Kitoblar ko'payishi bilan birga yozuv an'anasi ham rivojlanib, X asr boshlarida kufiy xati zaminida muhaqqaq, ravhoniy, suls, nasx, tavqi', rigo' xat turlari yaratildi. Bu holat matnni ko'chirishda uning tavsifi, mazmunidan kelib chiqib, turli husnixat usullaridan foydalanishga, sahifalar, titul varag'i va muqova jildida yozuvli bezaklarni ifodalashga ham imkon berdi. X–XI asrlarga kelib, Fotimiylar (909–1171) va Saljuqiylar (1037–1194) hukmronligi davrida kitobat uslubida bir qancha o'zgarishlar kuzatiladi: kitoblar geometrik shakllar bilan bezatilgan titul varag'iga ega bo'ldi, varaqlar yog'och asosga charm qoplangan jild bilan muqovalandi. XII asrdan Saljuq turklari hukmronlik davrida kitobat san'atida me'morchilikka xos bezaklardan, masalan, terilgan g'ishtlarga o'xshash yoki ganchkorlikka xos bezaklardan foydalanishga qiziqish kuchayadi. Hamadon amiri Muzaffariddin O'zbek ibn Muhammadning (1191–1211) vaziri Abulqosim Horun ibn Ja'far Dindon kutubxonasini uchun tayyorlangan qo'lyozma mo'g'llar davrigacha bajarilgan Sharq qo'lyozmalarining go'zal namunalaridan birini ifodalaydi. Tasvirlar bilan bezatilgan dastlabki Markaziy Osiyo qo'lyozmalaridan biri Ayyuqiy (V asr) "Varga va Gulshoh" dos tonining XII asr oxiri – XIII asrga oid nusxasida aks etgan miniatyura uslubi islomgacha bo'lgan davrlardagi devor tasvir larini eslatadi.

Kitobat san'atidagi keyingi rivojlanish davri Eronda xulaguylar (halokuiy) davri, 1295-yilda G'ozonxonning (1295–1304) islom dinini qabul qilishidan keyingi davrga taqaladi. Bu davrda yaratilgan qo'lyozmalar mamluklarning madaniy markazlari Qohira va Damashqqa xos qo'lyozmalar bilan raqobatlasha olgan. Mo'g'ullar bosqini davrida siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotning barcha sohalariga yetkazilgan ulkan talafot bir tomondan hunarmandlarning turli mintaqalarga qochishiga, san'atning kengroq hududlarga tarqalishiga olib kelgan bo'lsa, boshqa tomondan Mo'g'ul imperiyasining boshqa bir chekkasidagi Xitoy san'ati bilan to'g'ridan to'g'ri yaqin aloqalar kuchayishini ta'minlaydi. G'ozonxon hamda Uljoytuxon (1304–1316) hukmronligi davrida xulaguylar davlati vaziri – tabib, ilohiyotchi va tarixchi Rashediddin (vafoti 1318-y.) Xitoy fani, yozuvi, tarixshunosligi va tasviriy san'atidan juda hayratga tushadi. Bu vaqtgacha islom olamida asosan grek faylasuflarining astronomiya, botanika va tibbiyotga oid ilmiy asarlarida tasvirlar aks ettirilgan. Rashididdinning vazirlik davrida Mo'g'ullar davlati markazlarida tasvirlarga boy tarixiy kitoblarga talabning ortishi, matnga tarixiy voqealar tasvirlarini ilova qilishga qiziqishning kuchayishi kuzatiladi. Yirik hajmdagi dostonlar Xitoy tasviriy san'atiga xos suratlar bilan uyg'unlashtirilgan, ham yuqorida, ham yon tomondan aniq aks ettirilgan dramatik tasvirlar bilan boyitilgan.

Xulaguylar davlati qulagandan so'ng (1335) jaloyiriylardan (1340–1410) Sulton Shayx Uvaysson (1356–1375) va G'iyosiddin Sulton Ahmadxon (1382–1386) davrida Tabriz va Bag'dod shahlarida kitobat san'ati rivojiga e'tibor beriladi.

**Amir Temur va temuriylar davrida kitobat san'atining rivojlanishi.** Arab tilida bitilgan kitobat san'atining keyingi rivojlanish davri Amir Temur va temuriylar, ular to-

monidan turli mintaqalardan Mavarounnahr va Xurosonga olib kelgingan kitobat san'ati ustalari nomi bilan bog'liq.

Tarixiy manbalarda keltirilishicha, XIV asr oxiri – XV asr boshlarida Samarqandda Amir Temur kutubxonasining ko'p sonli musavvirlariga mashhur bag'dodlik usta Abdulhay boshchilik qilgan. Amir Temurning katta o'lchamdag'i kitoblarga qiziqishi tarixchi Qozi Ahmad Qumiy (tav. 1546) "Gulistoni hunar" asarida o'sha davrning mashhur xattoti Umar O'qta to'g'risida hikoyat orqali bayon etiladi. Xattot Qur'oni karimni juda mayda xatda bitib, Amir Temurga hadya qiladi, ammo Sohibqiron unga: "Sen Alloh taoloning so'zlarini shunday mayda harflar bilan bitishga qanday jur'at etding", – deydi. Shundan so'ng xattot Qur'oni karimning boshqa bir yirik nusxasini tayyorlagan, undagi har bir harfning kattaligi yarim gazga (0,71 metrga teng uzunlik o'lchov birligi) teng bo'lgan. Mushafni tayyorlash nihoyasiga yetgach, xattot uni katta aravaga ortib, Amir Temur huzuriga borganda, sohibqiron o'z a'yonlari bilan peshvoz chiqib kutib oladi va munosib hadyalar tuhfa etadi. Qozi Ahmad Qumiy mazkur kitobning bir varag'ini Mavlono Malik nomli shaxsda ko'rghanligini ham keltirib o'tadi.

Ibn Arabshoh (vafoti 1450-y.) o'z kitobida Amir Temur saroyidagi madaniy muhit to'g'risida juda qimmatli ma'lumotlarni keltiradi. Uning yozishicha, Amir Temurning "*devoni munshiy*"si, "sirlar kotibi" mavlono Shamsiddin zamonasining qozisi, o'z davrining fozili bo'lgan. Qalamining tig'i o'z iqlimlari fathida (Amir Temur) nayzasidan ham o'tkir edi. Temur o'lgandan keyin u (bu ishdan) o'zini chetga olib, adabiyot bisotini yig'ishtirib: "mening qiymatimni biladigan odam dunyodan o'tdi va endi men boshqalar xizmatida o'z hurmatimni ketkazmayman", – degan ekan. Ibn Arabshoh Amir Temur davrining eng mohir xattotlari sifatida Ibn Bandgir, Abdulqodir, Tojuddin Salmoniy kabilarni keltirib o'tadi. O'sha davr atoqli xattoti Xoja Mirali Tabriziy (vafoti 1404-y.) nasx va ta'liq yozuvlari asosida yangi

nasta'liq yozuv turini ixtiro qilgan va bu yozuv turli mutaxassislar tomonidan “~~xatlar kelinchagi~~” deb atalib, she'riy, tarixiy asarlar qo'lyozmalarini uchun asosiy yozuv turiga aylangan.

Amir Temurdan so'ng temuriylar hukmronligi davrida kitobat san'atiga e'tibor yanada oshdi. Temuriylar davlatining Mavarounnahr va Xurosonga bo'linishi mintaqadagi madaniy hayotga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Biroq hukmdorlar va shahzodalarning ilm-fan, madaniyat va san'atning turli sohalariga homiyligi madaniy-ma'naviy hayotning rivojlanishiga zamin yaratdi. Bu davrda Sheroz (Shohrux mirzo (1405–1447) va uning o'g'illari davrida), Hirot (G'iyosiddin Boysunqur ibn Shohrux (1397–1433) va Sulton Husayn Boyqaro (1469–1506) davrlarida) Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarining siyosiy va madaniy markazlari sifatida tanildi.

Bugungi Afg'oniston, Eron hamda O'rta Osiyo bir davlat sifatida temuriylar tomonidan idora etilgani uchun turkiy xalqlar, shu jumladan, o'zbek xalqi madaniyati qisman Xurosonda, ayniqsa poytaxti bo'lmish Hirotda taraqqiy etgan, ayni paytda uning madaniyatining eng porloq davrlaridan biri hisoblanadi. Bu davrda Hirot bilan bir qatorda, Buxoro, Tabriz, Mashhad, Sheroz, Bog'dod kabi san'at markazlarida ham temuriylar davri badiiy qo'lyozmalarining eng go'zal namunalari yaratildi.

Temuriy hukmdor Shohrux mirzo davrida mamlakat markazida kitobat san'atining Hirot uslubi yaratilishi uchun ilk qadamlar qo'yildi va Boysunqur mirzo (hukmronligi rahbarligida) Hirot kitobat san'ati markazi sifatida rivojlandi. Temuriylarning saroy kutubxonasi o'zida kitob ishlab chiqarish markazini ifodalagan bo'lib, adabiyotlarda unga akademiya, nigorxona sifatida nisbat beriladi. Boysunqur mirzo kutubxonasida kitobat san'atining turli soha mutaxassislari to'planib, kitobat san'ati durdonalarini yaratganlar. Ustalarning ko'pchiligi Boysunquriy nisbasi bilan ijod qilgan. Kutubxonanining bosh xattoti Kamoliddin Jaf'ar Ali Boysunquriy Tabriziy (vafotи 1433-y.) vaqtiga qoyma-

bilan Boysunqur mirzoga ustalar faoliyati bo'yicha axborot berib turgan. Ulardan birining sanasi 830/1427-yil bo'lib, Turkiyadagi ~~To'pqopi saroyida~~ saqlanadi va kutubxonada faoliyat yuritgan kitobat san'ati ustalaridan 25 tasining nomi keltiriladi.

Hirot kutubxonasida 1429–1431-yillar mobaynida badiiy jihatdan yuksak darajada bajarilgan ko'plab qo'lyozmalar yaratilgan bo'lib, Boysunqur mirzo vafotidan so'ng kutubxona katta o'g'li Alouddavla ixtiyoriga o'tadi. 1447-yil Shohrux vafot etgach, Mirzo Ulug'bek ustalarning bir qismini Hirotga xos ijodiy uslublarni davom ettirish uchun Samarqandga olib keladi. Biror 1449-yilda Mirzo Ulug'bek o'limidan so'ng ustaxona ishi barham topadi.

Hirotdagi temuriylar kitobat san'ati Sulton Husayn Boyqaro va uning vaziri Alisher Navoiy (1441–1501) yashagan davrda yanada yuksak rivoj topdi. Xuroson, ayniqsa, Hirot olimlar, betakror ijodkorlar bilan gavjum bo'lgan va har bir kishi muayyan hunarmandchilik bilan shug'ullangan. Dastlab Mavlono Fashiddin sohibdor Husayn Boyqaro kutubxonasining boshqaruvchisi bo'lgan. Mavlono Hoji Muhammad naqqosh (vafoti 1507-y.) avval Husayn Boyqaro, so'ng 1499-yilgacha Alisher Navoiy kutubxonasida boshqaruvchilik qilgan, undan so'ng Alisher Navoiyning kutubxonasini Xondamir (vafoti taxm. 942/1535–1536-y.) boshqargan. Mavlono Hoji Muhammad 1498-yil Hirotni tark etib, Balxda Badiuzzamon kutubxonasiga rahbarlik qilgan. O'rta asrlarning buyuk san'atkori, miniatyura san'atining vakili Kamoliddin Behzod (1456–1537) dastlab 1500-yili Husayn Bayqaro saroyidagi kutubxonaga, keyinchalik, Hirotdan Tabrizga ketgach, shoh Ismoil I (1502–1524) kutubxonasini boshqargan.

Saroy kutubxonalaridan tashqari, so'fiylar xonaqohini ham kitoblar yaratiladigan muassasa sifatida keltirish mumkin. Muhammad Porso nomi bilan mashhur so'fiy Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud al-Hofiz al-Buxoriy (1345–1420) XV

asr boshlarida Buxoroda xalq uchun umumiy kutubxona tashkil qiladi va u XIX asrgacha faoliyat yuritadi.

**Temuriylar davrida muqovalarni badiiy bezatish usullari.** Movarounnahr va Xuroson xalqlari arablardan islam dini, arab yozuvini qabul qilish bilan birga, ularga xos kitobat, jumladan muqovasozlik texnologiyasi amaliyotidan ham foydalandi. Arab muqovalaridagi bezaklar odatda ancha ingichka, unchalik botiq bo'lмаган chiziqlar bilan ajratilgan, geometrik bezaklar va mavhum shakllar keng tarqalgan, o'simliksimon bezaklar kam hollarda qo'llanilgan. Mamluk muqovasozligining ilk bosqichlari XIV asrda Misrda o'zining mukammal ko'rinishiga ega bo'lgan bo'lsa, XV asrda Hirotda har tomonlama farq qiluvchi boshqa uslub va shakllar bilan uyg'unlashgan holda, rivojlandi. Hirot muqovalarida bezaklarning shakli va tarkibiy unsurlari o'zgarib, sathga nisbatan chuqur bo'lishiga urg'u berildi. Ularda o'simliksimon bezakning bo'rtib chiqqanligi, fonda aniq aks ettirilishi ko'zga tashlanadi. Dastlab muqova jildlariga har bir bezakni tushirishda alohida shaklni ifodalagan temir yoki yog'ochdan tayyorlangan qoliplar yoki asboblardan foydalanib kelingan. Muqovaning turli joylari uchun foydalanilgan individual shakl beruvchi muhr asboblар bitta jildning o'zida bir necha o'n mingni tashkil etgan. Hirotda individual qoliplar yoki asboblarni ishlatalishga barham berildi. Yangi texnologiya kashf etilib, geometrik va o'simliksimon bezaklardan iborat an'anaviy uslubdagi, mayda unsurlardan tashkil topgan murakkab tuzilishdagi yaxlit metall blokining ishlatalishiga imkon yaratildi.

Hirot muqovasozlik san'atida butunlay *geometrik* yoki *o'simliksimon* dizayndagi muqovalar alohida bir guruohni tashkil etadi. Hirotda yaratilgan Shohrux mirzo kutubxonasiga oid qo'lyozmalar muqovalari buning yorqin namunalaridandir. Muqova jildining tashqi tomonidan muhr asbob bilan tushirilgan sidirg'a tusdagi va oltin zarvaraqdan foydalanilgan bezak-

lar, jildning ichki tomonidagi murakkab nafis kesma bezaklar bilan birga qo'lyozmalarni durdona ijodiy asar darajasiga yetkazgan.

Temuriylar davrida poytaxt va markaziy shaharlarga taklif etilgan hunarmandlar orasida xanafiyalar bilan birga shialar ham bo'lib, shubhasiz, ularning siyosiy-ijtimoiy tabiatni, dekor-



**Ibn al-Hojib (vafoti taxm. 1248)ning "Al-favoid az-ziyoiya"**  
 ("Munavvar foydalar") nomli asarining "Al-kofiya"  
 (Yetarli") qismi (arab tili grammatikasi bo'yicha) matniga  
**A. Jomiy (1414–1492)ning sharhi. Qo'lyozma buxorolik**  
**xattot Abdulboqi bin Shamsiddin Muhammad**  
**tomonidan ko'chirilgan (1549). Muqovasini usta**  
**Mirma'sumxon Mirsarg'andom Havoximxon ishlagan**

tiv bezak berish mavzusiga qarashlari turlicha edi. Xanafiyarda hayvon, qush va odam (miniatyuradan tashqari) tasviri kuza-tilmaydi, mavhum, umumiy, ma'lum uslubga solingan, to'qilgan va o'zaro bog'langan geometrik shakl, o'simliksimon tasvir-dan tarkib topgan murakkab naqsh turi hukmronlik qiladi. San'atshunoslik adabiyotlarida *arabeska* deb ataladigan ushbu naqsh turi xanafiylik ustun bo'lgan hududlardan keng tarqalgan.

Hirot maktabining muqovalarni bezatishdagi eng muhim yutuqlaridan yana biri muqovalarda yaxlit qolip asboblar yordamida hosil qilingan *manzarali bezak* tasvirining ifodalani-shi bo'ldi. Manzara tasvirli muqovalarda jildning ichki qismini bezatishda ko'pincha *charmdan nafis bezak kesish* texnologiyasidan foydalilanilgan. Bu texnologiyaning Misrda kopt (qibtiy) ustalariga, shuningdek, Sharqiy Turkiston uyg'ur hunarmandlariga ham ma'lum bo'lganligi yuqorida keltirib o'tildi.

Manzarada aks etgan ko'pgina bezak va tasvirlar – ajdarho, qaqnus, olov bilan kurashayotgan hayvon, qushlar, bulutsimon shakllar, aylana bo'ylab tushirilgan dekorativ chiziqlar, keng bargli gullayotgan daraxt, qoyalar Xitoy san'atiga mansub bo'lsa-da, ularning tasviri uslubi Xitoy tasviri san'atidan butunlay farq qiladi. Ularning asl shakl va kompozitsiyasi o'sha davr Hirot miniatyura maktabi uchungina xosdir. Ushbu tasviri shakllar Uzoq Sharqqa xos ramziy va afsonaviy ma'nolar ta'siridan xalos etilgan holda, xayoliy tasavvurlar natijasidagi tasvirlarda ifodalandi. Hirot muqovasozligida keng qo'llanilgan shakllar an'anaviy mumtoz vositalar darajasiga erishgan hamda kitobat san'atining boshqa sohalari bilan bir xillikka ega bo'limgan.

Turli shakllar bilan boyitilgan manzarali bezaklarning tasvirlanishi muqovasozlik va miniatyura san'atlari orasidagi munosabatlardan guvohlik beradi. Xususan, XV asrning ikkinchi choragidan muqovalarda odam tasviri aks ettirila boshlunadi. Jahon Malik Xotun (XIV asr) "Devon"ining 1437-yilda

ko'chirilgan nusxasining muqovasida birinchi marta inson tasviri ifodalanadi. Hirot miniatyurasini karakterlovchi bunday kompozitsiyalar keyinchalik Hirot va Tabrizda hatto gilamlarda ham ko'zga tashlanadi. Bu kabi holatlar, muqovalarda ifodalan-gan bezaklardan foydalanish Sharqning turli markazlariga tar-qalgan bo'lsa ham, san'atning o'ziga xos uslubining dastlabki manbasi Hirot bo'lib qoldi. Temuriylar davlatining viloyat va markazlarida ham muqovasozlik san'atining Hirotg'a xos uslubi dastlab u yerda ijod qilib, turli hududlarda ijodini davom et-tirgan ustalar tomonidan keng qo'llanilgan.

Hirot muqovalarining boshqa bir guruhi *medalon* yo'naliishi bilan ajralib turadi. Asosiy bezakni medalon shakli tashkil et-gan muqovalarda old va orqa jild markazi bodomsimon yoki aylana shaklidagi medalon – *turunj*, *shams* bilan bezatilgan, ko'p hollarda medalonning chorak qismi – *qo'shband* har bir burchakda qaytarilgan. Medalon shakli jildning ichki tomonida charmdan nafis bezak kesish orqali ham aks ettirilgan.

Medalon shaklli kompozitsion uslub arab mamlakatlari muqovalarida ancha oldinroq qo'llanilgan, biroq Hirot makta-bida yaratilgan yangi uslub – muhr asbob yordamida bajarilgan bo'rtma medalon va burchaklardagi nafis bezaklar ushbu juda oddiy dekorativ bezakning qimmatini oshiradi. Markaziy medalon, burchakdag'i chorakta medalonlar va hoshiyalardan iborat kompozitsiyaga ega muqovalarda geometrik shakllar o'rniga o'simliksimon shakllar keng qo'llanilgan, medalonlar tabiat shakllari bilan uyg'unlashtirilgan jimjimador nozik chiziqlar-dan hosil qilingan. Hirot muqovalarining dastlabki namu-nalarida medalonlar orasidagi joylar bo'sh qoldirilgan bo'lsa, keyingilarida jild butunlay kompozitsion tasvir bilan qopланган. Asta-sekin bu kompozitsion tasvir mukammal ko'rinishga ega bo'lib, hech qanday medalonga joy qoldirilmasdan, muqova jildini to'liq qopланган. Medalonlardan juda oddiy, badiiy beza-tilmagan muqovalardagina foydalanilgan.

XV asr Hirot muqovasozlarining faoliyati yuqorida keltirilgan texnik va dekorativ muvaffaqiyatlar bilan cheklanib qolmagan. Birinchi bo'lib Hirotda *lok tasviriy san'ati* muqovasozlik san'atiga olib kirilgan. Mazkur holatga muqovasozlardan ko'ra miniatyurist musavvirlar va naqqoshlar ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Yuqorida qayd etilganidek, Hirot kitobat muassasasi tashkil topgan birinchi yildayoq Xitoy va temuriylar poytaxti o'rtasida badiiy aloqalar yo'lga qo'yilgan edi. Lok texnologiyasini temuriylar davlatiga Xitoy hunarmandlarimi yoki Xitoyga safar qilgan Hirot musavvirlarimi, kim olib kelganligi aniq emas, lekin Husayn Boyqaro kutubxonasiga tegishli 1483-yilga oid ajoyib qo'lyozma lok tasviriy san'atining muqovasozlik san'atida anchadan beri qo'llanilib kelinganidan dalolat beradi.

Temuriylar davri muqovasozligida qo'llanilgan texnologiyalardan yana biri muqovani iplar yordamida tikilgan kashta bezaklar bilan bezatish hisoblanadi. Bu texnologiya sharq muqovasozligining tarixiy rivojlanishida shu vaqtgacha ma'lum emas edi. Istanbul universiteti kutubxonasida 2782/32-raqam bilan saqlanayotgan Alisher Navoiyning "G'aroyib us-sig'ar" devoni uning zamondoshi Sulton Ali Ooiniy tomonidan taxminan 905/1500-yillarda Husayn Boyqaro yoki shoirning o'zi uchun tayyorlangan. Muqova jildining tashqi tomonidagi va qopqoq qismdiagi bezaklarning barchasi ipak va oltin iplar bilan qora charmga tikib ishlangan.

Temuriylar davri muqovalarini bezatishda *yozuvlardan ham foydalanilgan*. Muqova jildidagi yozuvlar – muqovalarga ko'rк bo'lishi bilan birga, san'atga ajoyiblik va bashanglik bag'ishlovchi bezak sohasidagi erishilgan yutuqlardan hisoblanadi. Kitob muqovalari uchun yozuvlar muqovani yuqori san'at asari darajasiga olib chiqish maqsadida aks ettirilgan. Puxta va astoydil bajarilgan murakkab yozuvlar go'zal husnixat, naqsh namunalari va miniatyuraga ega qo'lyozma namunalariga munosib ko'rilgan.

**XVI–XIX asrlarda O‘rta Osiyoda kitobat.** Ko‘chmanchi o‘zbeklardan bo‘lgan Shayboniyxon (1500–1510) 1499-yilda Mavarounnahrni, Sulton Husayn vafotidan so‘ng 1507-yilda Hirotni egallaydi. Xuroson avval shayboniylar (1500–1601), undan so‘ng safaviylarga (1502–1736) o‘tishi bilan Hirot o‘zining avvalgi mavqeyini yo‘qotib, madaniy markaz Buxoro va qisman Samarqandga o‘tadi. Bu holat kitobat san‘atining rivojiga ta’sir qilmasdan qolmasdi. Ko‘plab olim, shoir, musavvir va xattotlar Hirotdan boshqa shaharlarga ko‘chib ketadi. Ana shu paytda Hirot kitobat san‘ati ustalari qatori xattot Sulton Ali Mashhadiy (1437–1520) shogirdlari bilan Buxoroga kelib, Hirot kitobat maktabining an‘analarini davom ettiradilar. Ularning O‘rta Osiyo kitobat san‘atining keyingi rivojiga qo‘shtgan hissalari beqiyosdir.

XV asr oxiri – XVI asrda Sirdaryodan to markaziy Afg‘onis-tongacha bo‘lgan katta hududni egallagan shayboniylar sulo-lasi hukmronligi davrida XV asr o‘rtalaridan Samarqandda faoliyat yuritgan temuriylarga xos kitobat san‘ati maktabi o‘z an‘analarini davom ettirib keldi, Hirotdan kelgan ustalar o‘z ijodi bilan mazkur davr madaniyatini boyitib bordi. Shayboniy-xonning kelib chiqishi begona bo‘lmagan, yoshligida Buxoroda ta’lim olib, turk, arab, fors tillaridan xabardor bo‘lgan, xattotlik san‘atini o‘rgangan va she’rlar yozib turgan.

Xorazmlik Muhammad Solihning (1455–1535) “Shayboniynoma” asari o‘sha davrdagi o‘zbek tilida yozilgan mashhur yirik tarixiy asarlardan biri hisoblanadi. Shayboniylar saroy kutubxona-nasi haqida Hasan Nisoriy (XVI asr) “Muzakkir al-ahbوب” nomli tazkirasida Erondan kelgan ustalarning kutubxonadagi faoliyati to‘g‘risida qisqacha ma‘lumot keltiradi. Kutubxonaga turli davrlarda 3 nafar kitobdor rahbarlik qilgan: Mavlono Sulton Mirak al-Munshiy, Mavlono Abdulloh al-Munshiy va Mir Husayn al-Husayniy an-Nasafiy. Ularning qo‘l ostida uch musavvir va to‘qqizta usta ishlagan. Mulla Muhammad Shodi “Fathnama”

asarining 1507-yillarga oid nusxasi (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi 5369-raqamli qo'lyozmasi) shayboniylar hukmronligining dastlabki davrlariga oid badiiy qo'lyozma namunalaridan hisoblanadi.

Shayboniyxon vafotidan so'ng 1533-yilgacha Samarqand, 1533–1539-yillarda Buxoro poytaxt deb tan olingan. 1540–1551-yillarda Samarqand va Buxoroning maqomi bir xil bo'lgan. 1520–1530-yillarda Buxoro shahrida kitobat san'atining rivoji Ubaydullaxon (1533–1540) nomi bilan bog'liq bo'lib, u Hirotg'a bir necha marta yurishlar qilganda, u yerdan kitobat san'ati ustalarini olib kelgan. Shu davrdan Buxoro kitobat san'ati Hirot uslubi ta'siriga tushadi. Mirzo Muhammad Xaydar (1499–1551) Ubaydullaxon to'g'risida shunday yozadi: "Ubaydullaxon yetti qism birla xat futur erdi ... aning tiriklik vaqtida Buxorodagi fuzalo va bulag'olar, xaloyiq va aloyiqlarning hammasi Hirotdin Mirzo Sulton Husayn zamonin yod berur".

XVI asr o'rtalarida Buxoroda Ubaydullaxonning o'g'li Abdulazizzon I (1540–1550) kutubxonasi faoliyat yuritgan. Abdullaxoni soniy (1583–1598) hukmronligi davrida uzoq davom etgan urushlardan (1557–1582) so'ng Movarounnahrni birlashtiradi, Toshkent va Turkistonni bo'ysundiradi, 1584-yilda Badaxshon va Ko'lob, 1588-yilda Hirot egallandi. Hirot ustalarining Buxoroda Abdullaxoni soniy kutubxonasidagi faoliyati O'rta Osiyo kitobat san'atining rivojiga ulkan hissa bo'lib qo'shildi. Kitobat san'ati ba'zan an'anaviy, ba'zan yangicha uslublarni o'zlashtirgan holda rivojlanishni davom ettirdi. Bu davrdagi an'anaviylik Xuroson va Movarounnahrga xos umumiy madaniy merosga, temuriylar davrining boy madaniyatiga qiziqishga asoslangan edi. 1520–1590-yillarda Buxoro kitob miniatyurlarining uch yo'naliishi qayd etilgan: Hirot uslubi, Hirot-Buxoro uslubi va Buxoro uslubi.

Kitobat san'atida yangicha uslublarning yaratilishiga 1570–1590-yillarda boshqa o'lkalar bilan o'zaro siyosiy, iqtisodiy,

madaniy aloqlar ham o‘z ta’sirini ko’rsatdi. XVI asrgacha O’rta Osiyo san’atida fors madaniyatining ta’sirini kuzatish mumkin bo’lsa, safaviylar shia mazhabini rasmiy ravishda tan olgandan so‘ng Eron bilan badiiy san’at sohasidagi aloqalarga chek qo’yildi. Qo’shni davlatlar, ayniqsa, Shimoliy Hindiston boburiylar davlati bilan badiiy aloqalar mahsuli bo’lgan yangi qo’lyozmalar turkumi paydo bo’ladi. Buning sababi boburiylar asli Movarounnahrdan bo’lganligi uchungina emas, O’rta Osiyo va shimoliy Hindiston hududlarida tarixiy taraqqiyotning sharoitlari, ijodkorlarning badiiy qarashlari va xalqning tafakkur doirasi bir-biriga yaqin ekanligi edi. 1570–1580-yillarda Abdullaxoni soniy va boburiy hukmdor Akbar (1556–1605) o’rtasida diplomatik aloqalar keng yo’lga qo’yildi. Natijada madaniy sohada shoirlar, olimlar, ustalar o’rtasida safarlar uyushtirildi. O’sha davr O’rta Osiyo kitobat san’atida ham hind uslubiga xos jihatlar ko’zga tashlanadi.

XVI asrning oxirgi o’n yilligi Eron va Movarounnahr munosabatlarida o’zaro dushmanlik, harbiy to’qnashuvlar bilan izohlanadi. 1574-yilda Abdullaxoni soniy tomonidan Hirot to’qqiz oy qamal qilinadi. 1598-yilda uning o’g‘li Mashhadni vayron qilishi natijada Mashhad kutubxonasi, temuriylar va safaviylar qo’lyozmalari Buxoroga olib kelinadi. Ayni vaqtida Movarounnahr qo’lyozmalarida Eronning ta’siri, xususan, Sheroz kitobat maktabi faoliyatining tugatilishi tufayli Sheroz uslubiga xos jihatlar ko’zga tashlanadi.

XVII asrda ashtarkoniylarning (1601–1753) hokimiyatga kelishi mamlakatning ijtimoiy hayotida o’zgarishlarga sabab bo’lmadi. XVII asrning birinchi yarmi va o’rtalarida madaniy sohada birmuncha ijodiy yutuqlarga erishildi, Samarqand va Buxoroda yirik qurilishlar bo’ldi (Registon, Labi hovuz), saroya da she’riyat, tarixnavislik, musiqa rivojlandi, kitobat san’atiga homiylik qo’llab-quvvatlandi. Buxoroda ashtarkoniy Imomquixon (1611–1641) kutubxonasida faoliyat olib borgan ikki kitob-



**Buxoro kitobat san'ati namunasi Al-Xasaniy (vafoti taxm. 1465–1466) tomonidan “Daloil ul-xayrot” nomli to‘plamning XIX asrda Buxoroda ko‘chirilgan nusxasi.**

dorning nomi ma'lum: Mirzo Yodgor kitobdor va Mirzo Husayn kitobdor.

XVII asrning birinchi yarmida Buxoro kitobat maktabidagi ustunlik vaqtinchalik o‘z o‘rnini Samarcand maktabiga bo’shatib bergen. Bu davrda Samarcandda Muhammad Murod Samarcandiy va Muhammad Shariflar ijod qilgan. Badiiy ijoddha esa satira aks etgan realistik uslub ustun bo’lgan.

XVII asr kitobat san’atining rivojlanish bosqichidagi yangi davr bo’ldi. Abdulazizzon II hukmronligi davrida (1645–1680) saroy kutubxonasi ancha rivojlandi. Abdulazizzon II saroy kutubxonasida yaratilgan qo’lyozmalar oldingilaridan ancha

o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bu davr kitobat san'atidagi o'ziga xoslik avvaldan mavjud badiiy yo'nalishlarni saqlab qolgan holda, temuriylar, safaviylar va hind uslublarining qorishganligida ko'zga tashlanadi. Badiiy qo'lyozmalar doirasini avvalgidek Sharq she'riyatining mumtoz asarlari, tarixiy asarlar, ba'zan tabiiy fanlarga oid risolalar tashkil etgan. Shu bilan birga, xalq og'zaki ijodiga, afsonaviy yoki ibratomuz-maishiy sujetlarga murojaat qilish ijodkorlar orasida keng yoyilgan. Mumtoz yo'nalishga amal qiluvchilar orasida esa romantik uslub ustun bo'lган. Bu davrga kelib Buxoroda ko'plab hindlar yashay boshlagan. Ular qimmatbaho toshlar, attorlik mahsulotlari, matolar, bo'yoqlar, oltin iplar bilan savdo qilgan. Uchinchi yo'nalishda aynan hind uslubiga murojaat qilinib, kitobatda hind buyumlariga xos bezaklar o'z ifodasini topgan.

XVIII asr O'rta Osiyo uchun, parokanda va beqaror vaziyat tufayli, siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan inqiroz asri bo'ldi. XVIII asr oxiri va XIX asrlarda hududda uchta davlat – Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonligi mavjud edi. XVIII asr oxiri XIX asrdagi siyosiy barqaror vaziyat iqtisodiy va madaniy hayotga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Bu davrda Qo'qon, Toshkent kabi shaharlar madaniy, iqtisodiy markazlarga aylandi.

XVIII asrdagi tanazzuldan so'ng XIX asrda kitobat san'ati rivojlanishi davom ettirildi. O'rta Osiyoning qadimiy ma'rifat markazlari – Buxoro va Samarcanddan tashqari, Xivada Muhammad Rahim I (1806–1825) va Muhammad Rahim II (1865–1910) homiyligida, Qo'qon xonliklari usta Muhammad Sharif Dabir boshchiligidagi kitobat san'ati rivojining yangi davri boshlandi. Kitobat san'ati ustalari qo'lyozma kitoblarni bezatishda o'ziga xos muvaffaqiyatga erishdi. Xalqning siyosiy qarashlari-dagi o'zgarishlar qo'lyozma kitoblar uslubiga ta'sir ko'rsatdi. O'rta Osiyo o'zining tashqi aloqalarida Sharq o'lkalariga ko'proq e'tibor qaratishi natijasida qo'lyozma kitoblar bezaklarida bu

o'lkalarning ta'siri sezila boshladi. An'anaviy kitob ayirboshlash davom etdi, qator Sharq mamlakatlarida kitob tayyorlash rivojlandi, bu esa turli mamlakatlardan O'rta Osiyoga kitob yetkazib berilishini kuchaytirdi. O'rta Sharqning qator davlatlari uchun Bombey, Kanpur, Lakhnou, Lahor shaharlari kitob eksport qiluvchi markazlarga aylandi.

XIX asrga kelib, ayniqsa, O'rta Osiyoning Rossiya bilan iqtisodiy va siyosiy aloqalari kuchaya borgan sari madaniy hayotda yana o'zgarish ro'y berdi. Turkiston general-gubernatorligining tashkil topishi kitobat san'atida yana bir yangi bosqichni boshlab berdi. Ijtimoiy-siyosiy hayotdagi yangi o'zgarishlar O'rta Osyo qo'lyozmalarining tashqi ko'rinishiga ta'sir o'tkazdi. XVIII–XIX asrlarda yaratilgan qo'lyozmalar saviyasi va ishlatalilgan ashyolari bilan ajralib turadi. Zamon ko'p miqdorda arzon bo'lgan kitoblarni ishlab chiqarishni talab qila boshladi. Kitobni arzon qilish uchun yangi materiallarni ishlatish urf bo'ldi. Arzon materiallarning ishlatalishi qo'lyozma kitob sifatining buzilishiga olib kelmadi, balki o'sha davrga mos ravishda o'ziga xos uslub yaratildi. Qo'lyozma kitoblar bir xil o'lcham va ko'rinishga ega bo'ldi, badiiy bezatilish umumiy darajasi butunlay tushib ketdi: ishlatilgan materiallar, ziynat va bezaklar o'rtamiyona, ammo yetarli san'at asari va ilm-fan uchun bemalol foydalansa bo'ladigan manba saviyasida yaratildi. Dastlabki va so'nggi varaq ko'rinishining soddalashuvi, ichki jilda bezakning yo'qligi, ancha arzon materiallardan qo'llanilganligi bu davr qo'lyozmalariga xos xususiyatdir. Charm muqovalar o'rnini yarmi charm muqovalar egalladi. Muqova jildi uchun bo'yangan va loklangan qog'oz qo'llanildi. Charm muqovalar faqat Xorazmda yasalgan, boshqa hududlarda muqovaning o'zak qismi qoplamasи charmdan bo'lgan. Bu davrda ipak va yarmi ipak qog'ozlarni ishlab chiqarish to'xtatilgan bo'lib, qog'ozlar chigitli paxtadan tayyorlangan. Ko'proq fabrika qog'ozlaridan foydalanaligan.

XX asrning dastlabki yillari O'rta Osiyoda qo'lyozma kitob yaratishning so'nggi davri bo'ldi. XIX asrning so'nggi choragi-da O'rta Osiyoning yirik madaniyat markazlari bo'lgan Xiva, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Qo'qon va boshqa bir qator shaharlarda bosmaxonalar vujudga kela boshladi va asta-sekin qo'lyozma usulida kitob ishlab chiqarishni butunlay siqib chiqaradi. Kitobga bo'lgan ehtiyoj asrlar davomida qo'lyozma kitoblar hisobiga qondirib kelingan, lekin bu kitoblarning tayyorlanishi-dagi qiyinchiliklar ularni ko'plab nusxada tarqalishiga imkon bermagan.

**Arab yozuvidagi badiiy qo'lyozmalarning o'ziga xos xususiyatlari.** Arab yozuvida bitilgan qo'lyozma kitoblarni tashqi belgilariga ko'ra badiiy shohona kitoblar hamda keng jamoatchilik va o'rta hol ziyolilar uchun yaratilgan oddiy kitoblarga ajratish mumkin. Badiiy qo'lyozmalarni tavsiflovchi jihatlarga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, ularni yaratishda avvalo sifatli qog'oz tanlangan, ba'zida matn va hoshiya uchun turlicha qog'ozdan foydalanilgan. Matnni yozish uchun xat turini tanlashda asar mazmuni inobatga olingan. Odatda kitobning birinchi varag'idagi unvonlarda, mayda sarlavhalarda foydalanilgan hamda matn yozilgan xat turi boshqa-boshqa bo'lgan. Matnni sahifaga joylashtirish puxtalik bilan amalga oshirilgan: asosiy matn sahifaning o'rtarog'ida, ikki-to'rt ustunda yozilgan. Ayrim asarlarda, ko'pincha, sharh va tafsirlarda qo'lyozma hoshiyaligiga, satrlar orasiga ham matn yozilib, uni asosiy matndan ajratish uchun turlicha xat turidan foydalanilgan. Unvonlar, sarlavhalar matni ham bezatilgan: bunda harflarning chetiga tilla bo'yoq yuritilib, rangli chiziqlar bilan aylantirilgan, ayrim qo'lyozmalarda butun sahifadagi satrlar orasi shu kabi bezaklar bilan to'ldirilgan. Badiiy qo'lyozmalarda unvonlar ikki qat'iy shaklda tasvirlangan: yumaloq medalon shaklidagi hamda ikki sahifaga yoyilgan sarlavhaga o'xshash naqshinkor unvonlar. Ularda mualliflarning ism-sharifi va asar nomi ham

keltirilgan. Badiiy qo'lyozmalarda lavhalar juda nafis tasvirlangan. Odatda, uning markazga naqsh bilan mohirona o'rab olingen asar avvalidagi kichik parcha joylashtirilgan. Bundan tashqari, lavhalarga qaraganda kichik hajmli bezak-kichik unvonlar qo'lyozmaga alohida bezak berib turgan: Sharq kitobat an'analariga ko'ra, sahifa yuqori qismining uchdan yoki to'rtdan birini egallagan va asar boshida, ba'zan bob boshida kelgan. Hoshiyalar qo'lyozmada aks etgan boshqa badiiy bezaklarga uyg'un ravishda tilla yoki kumush jimgimalar bilan to'ldirilgan *girih*, *islimi*y yoki boshqa naqsh turlari bilan bezatilgan, ba'zi hollarda voqeaband miniatyuralar, hatto alohida qiyofalar surati bilan boyitilgan. Badiiy muqova qo'lyozma kitobning qimatini belgilaydigan asosiy jihatlardan birini ifodalagan.

Badiiy qo'lyozma kitobat san'atining rivojlanishi, o'z navbatida, moddiy ta'minot bilan ham bog'liq bo'lib, bu holat kitobat jarayonidagi usslub va yo'nalishlarni belgilashda muhim omillardan biri hisoblangan. Xat uslublarining qo'llanilishi, suratlarning rangi va yo'nalishi, tasvirlanayotgan bezak unsurlari boshqaruvdagi hukmron doira mafkurasiga mos bo'lishiga har doim harakat qilib kelingan. Kitobat san'atidek qiymati baland bo'lgan san'at turi asosiy madaniyat markazlarida, yuqori darajadagi homiylik ostidagina rivojana olgan. XIV asr oxiri–XV asr davomida Markaziy Osiyoda markazlashgan davlatning yuzaga kelishi iqtisodiyot rivojiga, karvon yo'llari tiklanib, savdo-sotiqning kengayishiga, hunarmandchilik va qishloq xo'jaligining o'sishiga, madaniy-ma'naviy yuksalishga, jumladan, kitobat san'ati Movarounnahr va Xuroson madaniy-ma'naviy hayotida muhim ahamiyat kasb etishiga turtki bo'ldi. Bu davrda kitobat san'atining rivojlanishi hukmdorlarning ma'naviy metrosni qadrlash va ehtiyyot qilishga intilishlari, kitobga shaxsan qiziqishlari, kitobga bo'lgan e'tibori orqali xalq oldida hurmatga loyiq bo'lishga harakat qilganligi, turli davlatlar madaniy markazlari bilan doimiy aloqalarning keng yo'lga qo'yilgani

hamda shahar madaniyatidagi yuksalish bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Ilm-fan, mumtoz she'riyat, san'at hamda kitobga bo'lgan qiziqish va talabning ortishi natijasida qo'lyozma kitob tayyorlash jadallik bilan rivojlanib, asta-sekin badiiy ijodning yetakchi sohalaridan biriga aylangan. Ayni vaqtida Sharq mam-lakatlarida shahar madaniyatining rivojlanishi jamiyatdagi asl-zoda kishilarning dunyoviy mazmundagi, tarixiy-qahramonlik, lirik muhabbat va falsafiy-axloqiy mavzulardagi mumtoz sharq she'riyati ijodkorlarining asarlarga qiziqishini kuchaytirgan, she'riy bayozlar, zamonaviy ijodkorlarning g'azallar majmuyi, lirik va falsafiy-axloqiy asarlarni ifodalagan alohida kitoblar yaratila boshlagan.

Qur'oni karim hamda diniy mazmundagi asarlar odatda yirik o'lchamdagisi xat turlari – kufiy, nasx, rayhoniy yoki suls xatlarida bajarilgan; ilmiy, tarixiy, adabiy-badiiy asar matnlari XIV asrgacha nasx, ta'liq xatlarida ko'chirilgan. Nasx va ta'liq xatlarasi asosida hosil qilingan nasta'liq xati dastlab hasham-dor qo'lyozmalarda foydalanilgan va asta-sekin ommalashib, XIV asr oxirlari–XV asrdan asosiy xat turiga aylangan. Nasx, suls xatlarasi diniy mazmundagi asarlarda hamda sarlavhalardagi na ishlataligan. Ko'p joyni talab etmaydigan nasta'liq xatining keng qo'llanilishi kitob hejmi va o'lchamining kichrayishiga, sahifalar-ga bezak berishda vanei usullarning paydo bo'lishiga olib kelgan. Dunyoviy mazmundagi nazmiy asarlarda miniatyuraning nafis jihatlari bilan badiiy uyg'unlik kasb etib, badiiy qo'lyozmalarda ham bezak sifatida muvaffaqiyat bilan qo'llanilgan.

Sharq xalqlari Islom dini qoidalaridan kelib chiqib, kitobni bezatishda, asosan, voqeaband tasvirlardan emas, o'simliksimon, epigrafik naqshlardan, geometrik shakllardan iborat bezaklar-dan foydalanib kelgan. Amir Temur va temuriylar davri kitobat san'atida geometrik shakldagi naqshlar ikkinchi darajali sanalib, murakkab shakldagi, bir-biriga chirmashgan naqshli yozuv, voqeaband tasvir asosiy bezaklardan sanalgan. XV asr-

dan boshlab yaratilgan qo'lyozmalar yuksak saviyasi, xat turi xususiyatlari, badiiy bezak ziynatlari, uning qimmatini belgilovchi asosiy bezaklardan – miniatyura, naqshlar va go'zal husnixatning mayjud bo'lganligi bilan kitobat san'atida alohida ajralib turadi.

Badiiy qo'lyozmani yaratuvchilar – turli soha ustalaridan iborat bir guruh saroy kutubxonalardagi ustaxonalarga jalb etilgan holda faoliyat yuritgan bo'lsa, kitobat jarayonida ishtirok etuvchi ustalarning boshqa bir guruhi alohida birlashib, ziyo'lilar va oddiy aholidan iborat kitobxonlar uchun shaxsiy tartibda ishlagan. Chunki yuqori lavozimli shaxslar buyurtmasi bo'yicha tayyorlangan bezaklarga boy kitoblardan tashqari, adabiyot, ilm-fan namoyandalari va kitob ishqibozlari uchun mo'ljallangan oddiy kitoblarga ham talab yuqori bo'lgan.

Dastlabki davrlarda kitoblarning katta qismini tashkil etgan diniy mazmundagi asarlarning qo'lyozma nusxalari asosan xattot mehnati natijasida yaratilgan. Keyinchalik XV–XVII asrlarda badiiy qo'lyozmalarni yaratishda turli mutaxassislar – qog'ozrez, xattot, lavvoh, muzahhib, musavvir, sahhoflarning mahorat va qunt bilan ishlashi talab etilgan. Bundan tashqari, hunarmandchilikning boshqa sohalarida mehnat qilgan oltin qazuvchilar, loklovchi pardozhchilar, charmdan nafis bezak kesuvchilar, qog'oz, lok tayyorlovchilar va boshqa ustalar ham kitobat jarayoniga o'z hissalarini qoshgan. Ularning kitob yaratishga qaratilgan jamoaviy faoliyati madaniy markazlar orasidagi ijodiy tajriba almashishlarga hamda ancha oldin qo'llanilgan an'analarga asoslangan holda amalga oshirilgan. Ijodiy mehnatdagi o'zaro izchillik va mutanosiblikning mavjudligi esa qo'lyozma kitob uslubidagi yagonalik, yaxlitlik, texnik jihatdan mukammallikni ta'minlagan.

Kitobat jarayonida asosiy ish xattot tomonidan bajarilgan: u kitobni badiiy xat turi bilan ko'chirgan, zarur hollarda tahrir qilib, ayrim kichik o'zgartirish va qo'shimchalar ham kiritib bor-

gan. Avvalo matnni yozish uchun yaxshi qog'oz tanlagan. XV–XVII asrlarda Buxoro va Samarqand qog'oz ishlab chiqarishning yirik markazlaridan bo'lган. Badiiy qo'lyozmalar uchun, odatda, qog'ozning ikki turi – “qog'ozи abreshimiy” (aralashmalar qo'shilmasdan faqat ipakdan tayyorlangan juda pishiq, chiroyli va silliq qog'oz) va “qog'ozи nimkatoniy” (ipak va kanop tolasining taxminan ellik foiz aralashmasidan tayyorlangan pishiq, salmoqli qog'oz) ishlatilgan. Matn ko'chirishda siyoh, qamish qalam, mistar (chiziqsiz qog'ozga xat yozganda satrlar to'g'ri chiqishi uchun qog'oz tagiga qo'yiladigan ip tortib tayyorlangan qog'oz), qalamqati (qamish qalamning uchini kesish uchun suyakdan yasalgan maxsusus ish quroli), siyohdon va boshqa asboblar xattotning ish quroli hisoblangan. Ish qurollari



Xattotlik san'ati Ko'fiy, nasx xati turlari

saqlangan maxsus qalamdonda xato yozilgan harflarni yuvish uchun kichkina yumshoq abr (bulut – gubka), siyohdonga solishga mo'ljallangan bir qancha “ipak los”lar ham bo'lgan.

Xattot qo'lyozmani ko'chirishga kirishishdan avval muqovalanishga mos tarzda qog'oz dastalarni tayyorlab, varaqda satrlar necha qator bo'lishi, matn qanday joylashtirilishini aniqlagan-dan so'ng, mistardan foydalangan. Mistar qalin qog'oz (karton)ga matnning yozilish tartibini aks ettirib, oraliqlari bir xil bo'lgan yonma-yon yoki qiya qilib ipak iplarni tortib tuzilgan. Xattot mistarni qog'ozning ostiga qo'yib, qo'li bilan bosganda, qog'ozga iplarning izi tushgan va ana shu bu izlar bo'yicha matn ko'chirilgan.

Xattot ish jarayonida miniatyurada aks etadigan voqeaband tasvirni belgilab, tegishli sahifalarda bo'sh joylarni qoldirgan va matnning o'sha parchasini yozmasdan ketgan. Musavvir o'zi yaratayotgan tasvirda xattot tomonidan qoldirib ketilgan matn parchasini yozish uchun joy ajratib, to'g'ri burchakli chiziqlar bilan hoshiyalagan hamda o'sha joyga miniatyurada aks etgan tasvirni ifodalovchi parchani qo'shib qo'ygan. Miniatyura ga biriktirilgan matn parchasi tasvirni izohlash bilan birga, sahifalardagi matn bilan miniatyura orasidagi bog'liqlikni ko'rsatgan. *Musavvir* xattot tomonidan bo'sh qoldirilgan sahifa yoki yarim sahifa o'rirlarni voqeaband tasvirlar bilan bezashda dastlab nozik qalam bilan rasmining badiiy tuzilish negizini chizib, ingichka mo'yqalam yordamida rangli bo'yoq, lozim bo'lganda oltin va kumush bo'yoq bilan ziynatlagan. Tasvir, o'quvchi matn bilan tanish bo'lmasdan turib, asarning ayrim epizodlari va umumiylazmuni haqida tasavvur etish imkonini bergen. Asar mavzusiga ko'ra chizilgan tasvir kitob bezagi bo'lishi bilan birga, musavvir yashab, ijod etgan davrni, u xizmat qilgan ijtimoiy doiraning mafkurасini ham ifodalagan.

Musavvir o'z ishini yakunlagach, ishni *lavvoh* davom etirgan. U qo'lyozma kitobni badiiy bezatishda naqqosh va ziy-

natlovchi vazifasini bajargan. Bu ish o‘z ustasidan nozik did, jiddiy mahorat va ish jarayonida foydalaniladigan materiallarni tayyorlashga oid bilimni talab etgan. Uning sahifani bezatish bo‘yicha vazifasi quyidagicha bo‘lgan: badiiy qo‘lyozmalarda matn boshlanishi oldidan bir yoki ikki betni egallagan naqshli lavhani joylashtirgan; ko‘proq o‘simpliksimon yoki geometrik shakldagi jimmador naqshlar aks ettirilgan lavhani rangli va zarhal bo‘yoqlarda chizgan; qo‘lyozma kitobda bir necha asar joy olganda, ularning har biri uchun alohida lavha ishlangan; miniatyura aks etgan sahifalarda tasvirning hoshiyasini ingichka naqsh bilan bezagan; matn boshiga unvon joylashtirgan, turli ranglarda va zarhal bo‘yoqlarda chizilgan naqshning chetlarini ingichka qora rangda aylantirib chiqqan.

Lavvoh qo‘lyozmalarda matn yozilgan oq qog‘ozni hoshiya vazifasini bajaruvchi boshqa rangli qog‘ozga mohirlik bilan yopishtirgan. Birikkan joylarni yashirish uchun zarhal yoki rangli bir necha yonma-yon chiziqlardan foydalangan. Turli rangdagi chiziqlarning bir qismi matn yozilgan oq qog‘ozga, yana bir qismi hoshiyaga to‘g‘ri kelgan.

Hoshiyalarga bo‘yoqlarda rang berishdan tashqari, ba’zan sof oltin bilan nafis o‘simplik tasvirlari chizilgan. Ba’zida hoshiya turli ranglar bilan bo‘yalgan yoki o‘simpliksimon naqshlar o‘rniga ko‘proq yirik yoki mayda oltin zarrachalar, jimmimalar bilan bezatilgan. Qo‘lyozma xattot, musavvir, lavvoh mehnatidan so‘ng sahhof qo‘liga o‘tib, tayyor kitob holiga keltirilgan va qo‘lyozma kitob uzoq saqlanishi uchun muqova bilan qoplangan. Muqovasozlik o‘rta asrlarda badiiy ijodning mustaqil sohalaridan biri hisoblangan.

**Arab yozuvidagi kitoblarni muqovalash tarixidan.** Kitobni muqovalash tarixining xronologiyasi VII asrdan boshlanib, geografik jihatdan Yaman va Ispaniyadan tortib Markaziy Osiyogacha bo‘lgan katta hududni qamrab oladi. Bezaklari, kelib chiqish manbalari turlichcha bo‘lgan muqovalarda ifodalan-

gan o'xshashlik ularni "islom kitob muqovasozligi" deb umum-lashtirish imkonini beradi. Islom kitob muqovasozligi tarixi Misrda xristian diniga e'tiqod qilgan koptlardan (arablar Misrni bosib olgandan so'ng Islom dinini qabul qilmagan misrliklar o'zlarini kopt deb ataganlar) boshlangan. Koptlar dastlab mu-sulmonlarga xizmat qilib, ular uchun kitob tayyorlagan bo'lsa, keyinchalik bu texnologiyani ularga o'rgatadi. Kopt uslubining kuchli ta'sirida shakllangan islom muqovasozligi o'zigagina xos bo'lgan uslub asosida takomillashib boradi. Muqova jildidagi ilk bezaklar bo'yoq bilan chizilgan va kopt qabrtoshlari hamda matolaridan olingan oddiy geometrik shakllarni ifodalagan. As-ta-sekin kopt muqovalari bezaklari texnologiyasi takomillashib, jildning ichki tomoni nafis kesilgan bezaklar bilan bezatilgan.

Turkiy xalqlarga xos muqovasozlik san'ati Sharqiy Turkiston uyg'urlariga borib taqaladi. XX asr boshlarida nemis ekspeditsiyasi tadqiqotlari natijasida Etnografiya muzeyi (Museum für Völkerkunde) ilmiy xodimi Albert fon Le Kok tomonidan Xara Xoto xarobalaridan topilgan VIII va IX asrlarga oid muqova bo'laklarida ifodalangan geometrik shakllar charmni nafis kesish orqali bajarilgan hamda rangli, zarhal charm fon ustida aks ettirilgan. Muqova bo'laklari har ikki mintaqa – Misr va Sharqiy Turkistonda nafis kesilgan bezak texnologiyasining mavjud bo'lganligidan dalolat beradi.

1908-yilda Rus Geografiya jamiyatining Mo'g'ul-Sichuan ekspeditsiyasi a'zosi P.K. Kozlov (1863–1935) tomonidan Janubiy Mo'g'ilistondagi Xara Xoto shahri xarobalaridan topilgan muqova qoldiqlari professor S.F. Oldenburg (1863–1934) tomonidan tahlil qilinib, ularning XIII asrga oidligi aniqlangan. Ushbu muqova bezaklari charm iplarni yopishtirish orqali bajarilgan. Jildning markazida chirmashgan chiziqlardan iborat bezak medalon vazifasini o'tagan va uning ko'rinishi burchak qismida ham o'ziga xos tarzda ifodalangan. Muqovadagi shakllar bir-biriga ulangan aylanacha shakllardan hosil qilingan.

Sharqiy Turkiston turklarining islom dinini qabul qilishi muqovasozlikning rivojlanishiga o‘z ta’sirini ko’rsatdi. Musulmonlar yozuv va kitobni muqaddas deb hisoblagani sababli kitobga bo‘lgan talab, ijodkorning kitobni muqovalash va bezatishga bo‘lgan qiziqishini orttirdi. Uyg‘ur turklari IX asrda abbosiylardan bo‘lgan xalifa Mu’tasim Billah (833–842) himoyasi va homiyligi ostida Tigr daryosi bo‘yida bunyod etilgan Samara shahriga kelib o‘rnashib, bu san’atni islom olamiga keng tarqatadi, ular ta’sirida Iroq va Xuroson shaharlari muqovasozlik san’atining rivojlangan markazlariga aylanadi.

Tulinidlar davriga (VIII–IX asrlar) oid islom muqovalarining dastlabki namunalaridan biri katta hajmdagi ( $49,3 \times 67$  sm) Qur’oni karim muqovasi hisoblanadi. Undagi geometrik bezaklar kopt muqovalariga o‘xshash bo‘lib, yagona farqi jild asosi papirus kartondan emas, kedr daraxti yog‘ochidan yasalgan, jild fil suyaklari, turli xil daraxt bo‘laklari qadab bezatilgan. (Bugungi kunda ushbu muqova Berlinda Islom san’ati muzeyida (Museum für islamische Kunst) saqlanadi.)

Arab muqovalari hijratning ilk asrlarida yog‘och va teridan yasalgan. Ulardagi o‘ta oddiy geometrik bezaklar asosan urib ishlataligidan asboblar yordamida tushirilgan. Qog‘oz ishlab chiqarishning kengayishi bilan yog‘och o‘rniga kartondan foydalanilgan. Bezaklarda aynan oldingi geometrik shakllarni qo’llash davom etib kelsa-da, bu shakllarning bir-biriga chirmashgan, sertugun nafis bezaklar bilan uyg‘unlashgan yaxlit birliklar jildning o‘ziga xosligini ko’rsatadi. Kayruandagi Sidi Uqba masjididan topilgan gorizontal ko‘rinishdagi 12 ta jild ham islom muqovasozlikning ilk ko‘rinishlari sifatida ma’lum. Kayruan muqovasozligi namunalaridan biri XI asrga oid bo‘lib, terak yog‘ochidan yasalgan jildga chilvir iplarni yopishtirib, gorizontal joylashtirilgan *arabeska* (geometrik va o’simliksimon shakllarning uyg‘unlashtirilgan naqsh turi) bezaklardan hosil qilingan.

Ibn al Nadim (vafoti 987–988-y.) “Kitob ul-Fihrist” asarida IX asr boshlarida al-Ma’mun kutubxonasida Ibn Abul Harish, G’olib al-Ma’mun Abbosiy va boshqa taniqli muqovasozlar ishlagani, tarixchi Al-Maqriziy (1364–1442) “Kitob ul-mavoiz val itibor fi zikr ul-xitot val asar” (“Turar joy va yodgorliklar to‘g’risidagi hikoyalarni o‘qitish va o‘rgatish kitobi”) asarida Salohiddin Yusuf ibn Ayyubdan (1138–1193) oldin Qohiradagi Fotimiylar kutubxonasida hashamatli muqovalalar bo‘lganligini, jang vaqtida ular turk askarları uchun oyoq kiyim vazifasini o’tagani haqida ma’lumot beriladi.

Misr va Suriyada Mamluklar hukmronligi davriga (1250–1517) oid muqovalar islam muqovasozlik san’atining o‘ziga xos go‘zal namunalarini tashkil etadi. Mamluk muqovalarida dastlab koptlarga xos geometrik bezaklardan foydalanilgan. XIV asrdan boshlab markaziy medalon va arabeska bezaklarni qo’llash ancha keng yoyilgan. Rangli charm fon ustida tasvirlangan charmni kesib hosil qilingan nafis gullar, o’simliklar yoki zarhallangan geometrik bezaklarning qo’llanilgani VIII–XVI asr Misr muqovalarining o‘ziga xos jihatlaridan sanaladi.

Tashqi himoya vositasi hisoblangan muqovalar qo’lyozmani bezatishda badiiy vosita sifatida kitobning qimmatini belgilaydigan asosiy jihatlardan biri bo‘lgan. Arablar bilan Sharq mamlakatlariga kirib kelgan kitob muqovalarini bezatishdagi shakllar o‘zida ayrim mahalliy ta’sirlarni aks ettirsa-da, XV asr gacha ushbu ko‘rinishni deyarli saqlab qolgan.

Nafaqat O’rta Osiyo muqovasozligining, balki Sharq xalqlari kitobat san’atining keyingi rivojlanish tarixi temuriylar davriga borib taqaladi. Temuriylar davrida muqova bezaklarida yangi uslublarning paydo bo‘lishi butun Sharq muqovasozligi rivojiga o‘z ta’sirini ko’rsatdi. Bunda XIV–XV asrlarda Samarqand va Hirotda ijod etgan ustalar hamda kitobat san’atining rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratgan hukmdorlar muhim rol oynadi. Temuriy hukmdorlar turli o’lkalardan taklif qilingan

kitobat san'ati ustalarini o'z saroylarida tashkil etilgan kutubxonalarga jamlab, mahalliy ustalar bilan birgalikda faoliyat olib borgan. Muqovasozlarning ustaxonalari bozorlarda ham joylashgan. Sahhoflar do'konni ba'zi hollarda kitob va san'at ixlosmandlari to'planadigan joy vazifasini o'tagan. Zayniddin Vosify bu haqda quyidagilarni yozadi: "Bir kuni Samarqandning attorlar bozorida bir to'da shoiru fozillar bilan Mullozoda Mujallid do'konida o'ldirgan edik. Jiddlangan kitob varaqlari singari bir-birimizga inoqlik sherozasi bilan bog'lanib, badeha va mushoira suhbatin o'rtaqa qo'yib, samimiyligi va hushdil suhbat maydonida mutoyiba bayrog'in baland qilib o'tirgan edik. Nogoh bozorning bir tarafida g'ulg'ula va to'polon ovozi keldi".

Temuriylar davrida yaratilgan yuksak madaniyat faqat qo'shni bo'lib qolmasdan, uzoq vaqt davomida yagona boshqaruvga ega bo'lgan Eron, O'rta Osiyo, Kavkazda yashagan turli xalqlar va madaniy birliklarning murakkab hamda ko'p asrlik mahsuli hisoblanadi. Amir Temur tomonidan Misrdan, Eron viloyatlaridan taklif qilingan ustalar faoliyati Shohrux mirzoning 42 yillik hukmronligi davrida va homiyligi ostida Hirotda Sharq muqovasozligini yuqori darajada rivojlantirdi. Shohrux mirzo Hirotda 50–51 yil davomida istiqomat qildi. Samarqand davlat poytaxti bo'lsa-da, uning hukmronligi davrida Hirotda o'z hunarmandchiligi va san'ati bilan shuhrat qozongan yirik, chiroyli shaharlardan biri sifatida dastlab temuriylarning, keyinchalik butun O'rta Sharqning madaniy markaziga aylandi. Mirzo Ulug'bek boshqaruvidagi Samarqanddan farqli ravishda, bu yerda aniq fanlarga emas, ko'proq ijtimoiy fanlarni rivojlantirishga, san'at, adabiyot va tarixga katta e'tibor qaratilgan.

Shohrux mirzoning o'g'li, islom olamida kitob shinavandası sıfatida tanilgan shahzoda Boysunqur mirzo Sharq kitobat san'ati taraqqiyotida yangi davrni boshlab bergen saroy ilmiy muassasasi va kutubxonasiiga asos soldi. Boysunqurning

o'zi mohir xattot va musavvir bo'lib, turk, arab, fors tillarida she'rlar ham yozar edi. 1420-yilda otasining qo'llab-quvvatlashi bilan Hirotda kutubxona tashkil etdi. Saltanatning turli hududlaridan kelgan kitobat san'ati ustalari uning homiyligi va rahbarligi ostida birlashadi. Keyinchalik Husayn Boyqaro, Alisher Navoiylar ham uning ishini davom ettiradi.

Ma'lumki, temuriylar va Xitoy o'rtasida diplomatik aloqalar keng yo'lga qo'yilgan, elchiliklar natijasida nafaqat siyosiy, balki madaniy aloqalar uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Ushbu diplomatik aloqalarda Hirotda kitobat san'ati ustalari ham ishtirok etgan. Xitoy elchilari to'rt marta (1409, 1412, 1417, 1419-yillarda) Hirotda kelib ketadi. Bu holat Hirotda kutubxonasi faoliyatiga ta'sir etib, unda ijod qilgan ustalar ijodida Uzoq Sharqqa xos sifatlarning paydo bo'lishiga olib keladi. 1419–1422-yillarda Xitoyga yuborilgan Shohrux mirzo elchiligidagi Boysunqur mirzoning ikki vakilidan biri Xo'ja G'iyosiddin Naqqosh (XIV asrning ikkinchi yarmi) ishtirok etib, Hirotda qaytgandan so'ng safar kundaliklarini taqdim etadi. Keyinchalik Hofizi Abru (1361–1430) ushbu kundalikni o'zining tarixiy asari "Zubdat ut-tavorix" tarkibiga kiritadi.

Boysunqur mirzo kutubxonasida 1420-yildan faoliyat yuritgan kitobat san'ati ustalaridan Qavomiddin Mujallid Tabriziy tomonidan muqovasozlikdagi bo'rtma tasvirli bezaklar ixtiro qilinadi. Kutubxonada ustalarning ko'pchiligi Boysunqur nisbasi bilan ijod qilib, kitobat san'ati durdonalarini yaratganlar.

Hirotda bajarilgan go'zal husnixat, zarhal va rangli bezaklariga ega qo'lyozma namunalarining muqovalari ushbu san'atning oltin asridan, davrning hamda ularni yaratgan yuqori malakali doiraning yuksak badiiy ma'naviyatidan, shuningdek, ustalarning ajoyib ijodkor kuch, mukammal yaratuvchi bo'lganligidan dalolat beradi. Bu muqovalar barcha davr va xalqlar san'ati orasida texnik-badiiy xususiyatlari bilan ajralib turadi hamda

Sharq xalqlariga xos umumiy sifatlarni ifodalaydi. Umumiy mafkura, diniy va dunyoviy qarashlarning badiiy madaniyat shakllanishidagi salmog'i yuqori bo'lib, Sharq ustalari o'z asalarida ham an'anaviy, ham qo'shni xalqlarga xos bo'lgan shakl va uslublardan foydalanib kelgan va bular Hirot muqovalarida o'z aksini topgan.

Hirotdan tashqarida turli o'lkalarda hukmronlik qilgan temuriy shahzodalar poytaxtdan namuna olganlar hamda shoirlar, musiqachilar, xattotlar, musavvirlar, muqovasozlarga e'tibor berish, ularni turli hududlardan jalb etish bilan o'zlari hukmronlik qilgan o'lkalarning nufuzini oshirishga harakat qilganlar. Shubhasiz, mohir ustalar bilan birga, poytaxtga xos badiiy uslublarni uzoq o'lkalarga olib kelish vazifasi shahzodalar tomonidan amalga oshirilgan. Temuriylar saltanati viloyatlarida bajarilgan muqova namunalarining texnik mahorat va dekorativ uslubida Hirotga bog'liqlik ko'zga tashlanadi.

1405-yilda asos solingan Hirot kitobat muassasasi Husayn Boyqaro hukmronlik davri Alisher Navoiy rahbarligidagi Hirot (kitobat muassasasi) faoliyatining rivojlangan va so'nggi bosqichini o'tkazadi. Yuz yil davomida faoliyat ko'rsatgan ushbu muassasa 1507-yilda shayboniylar tomonidan Hirot egallangan vaqtida yo'q qilindi. Ustalarning bir qismi Yaqin Sharqning turli hududlariga tarqab ketdi. Ular o'zlari bilan Hirotga xos badiiy uslublarni ham olib ketdilar. Muqovalar Sharqning qaysi hududida yaratilgan bo'lmasin, ularda Hirot uslubiga xos betakrorlik yaqqol namoyon bo'ladi. Bu uslublar keyingi ikki yuz yil davomida Hindistondagi Boburiylar davlatiga va Oltin O'rdadan ajralgan Istanbulga ijodiy ilhom bag'ishlovchi vazifasini bajardi. Hirot uslubi XV asrdan boshqa madaniy markazlarda yaratilgan badiiy qo'lyozmalarga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Muqovasozlik san'ati XVI–XVII asrda ham rivojlanishdan to'xtab qolmadidi. Bu davrda muqovasozlik texnologiyalari takomillashiib, charmni istalgan rangga bo'yash imkoniyatlari kengaydi. Qora va malla



ranglar bilan birga anor rang, yashil ranglarning turli tussalaridan, muqova jildining ichki tomonini bezatishda XV asrda qo'llanilgan an'analardan foydalanildi.

**O'zbekistonda saqlanayotgan arab yozuvidagi yozma manbalar.** O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti. Arab yozuvidagi yozma meros bugungi kunda butun dunyo bo'ylab tarqalgan. Aynan O'zbekiston hududidagi qo'lyozma fondlarida ham ko'plab nodir qo'lyozmalar saqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti faqat O'rta Osiyoda emas, MDH davlatlari ichidagi eng boy fond bo'lib, noyob obyekt sifatida YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan. Fondning tashkil etilishi o'z tarixiga ega. 1943-yil O'zbekiston Fanlar akademiyasi tashkil etilgach, O'zbekiston Davlat xalq kutubxonasida saqlanayotgan qo'lyozma asarlar uning ixtiyoriga o'tkazildi. 1950-yilda Akademiya qoshida Sharq qo'lyozmalarini o'rganish instituti tashkil topdi, keyinchalik kengayib borishi natijasida Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutiga aylantiriladi. 1999-yilda O'zbekiston FA Prezidiumining qaroriga muvofiq, Hamid Sulaymon nomidagi qo'lyozmalar instituti Sharqshunoslik institutiga birlashtirildi. Qo'lyozmalar markazining asosiy jamg'armasida 13319 jild qo'lyozma to'plangan. Ularning orasidagi boy jamg'armalardan Xojagon-Naqshbandiya tariqatining yirik vakili va nazariyotchisi Xoja Muhammad Porso (vafoti 1420-y.), Buxoro hukmdori Amir Muzaffarning (1860–1885) o'g'li Muhammad Siddiq Xishmat, Buxoro amirligi qozisi va adabiyotshunos Muhammad Sharif Sadri Ziyo (1867–1935), rus hukmronligiga qarshi 1898-yil ko'tarilgan "Andijon qo'zg'oloni" yo'lboschchisi Muhammad Ali Dukchi Eshon (1856–1898), Qo'qon xonligining taniqli amaldori va ma'rifatparvar Yunusjon Xo'qandiy, xorazmlik ma'rifatchi Bekjon Rahmonov (tax. 1887–1929), taniqli yozuvchi va shoir,

islohotchi ma'rifatparvar Abdurauf Fitrat (1886–1937), rus sharqshunosi V.L. Vyatkin (1869–1932) va boshqalarning shaxsiy kutubxonalarini misol tariqasida ko'rsatish mumkin. Xiva xonlari kutubxonasi kitoblarining anchagina qismi ham shu yerga olib kelingan. Institut xazinasi keyinchalik vaqtiga bilan qadimiy kitoblarni yig'ish uchun uyushtirib turilgan maxsus safarlar davomida aholidan sotib olingan qo'lyozmalar bilan to'ldirildi hamda ayrim shaxslar tomonidan hadya etilgan kitoblar hisobiga boyitib borilmoqda.

Bundan tashqari, dublet jamg'armada 5237 jild, Hamid Sulaymon jamg'armasida 7586 jild, toshbosma asarlar jamg'armasida 39900 jild kitob saqlanadi. Sharqshunoslik instituti jamg'armasi unda saqlanayotgan yozma yodgorliklar miqdori va ularning ilmiy-tarixiy ahamiyati jihatidan dunyoda eng boy va betakror xazina hisoblanadi. Uning tarkibida yagona va nodir asarlar ham talayginadir. Jumladan, yirik ilohiyotchi, tarixchi va tilshunos Abu Hafs Umar an-Nasafiyuning (1068–1142) hijriy 766-yilda (1364–1365) ko'chirilgan "Matla' an-nujum va majma' al-ulum" nomli qomusiy asari (inv. № 1462) shunday asarlar jumlasiga kiradi. XV asrga oid "Majmua-yi murosalot" (inv. № 2178) deb nomlangan xatlar to'plamida esa Alisher Navoiyga yozilgan 594 maktubning asl nusxalari saqlanadi. Maktublar mualliflari 16 nafardir va ular orasida Abdurahmon Jomiy, Xoja Ubaydulloh Ahror (1404–1490) kabi mashhur tarixiy shaxslar ham bor. Ibn Miskavayhning (tax. 932–1030) "Tajoribal-umam" ("Xalqlar tajribasi") asarining (inv. № 595) uchinchi jildi 1199-yil ko'chirilgan va u eng qadimiy nusxalardan biri hisoblanadi. "Kalila va Dimna" asarining (inv. № 3629) 1305-yil Bag'dodda ko'chirilgan, Qur'oni karimning XIII asrda ko'chirilgan deb taxmin qilinadigan qadimiy nusxalaridan biri (inv. № 2008) tadqiqotchilarda katta qiziqish uyg'otadi. Unda arabiyl matn satrlari turkiy va forsiyga so'zma-so'z tarjima qilingan. Yusuf Xos Hojib qalamiga mansub "Qutadg'u bilig" asarining juda noyob nus-

xasi (inv. № 6093) va Bahouddin ar-Rumiyning qo'lyozmalari ham noyob nusxalardan hisoblanadi. "Qalandarnoma" asari (inv. № 11668) (XIV asrda ko'chirilgan).

Shuningdek, fondda ko'plab nodir asarlar qatorida Abdurahmon Jomiyning o'z qo'li bilan ko'chirilgan dastxat "Kulliyoti", Alisher Navoiyning Sulton Ali Mashhadiy, Mir Ali Haraviy, Abduljamil kotiblar tomonidan ko'chirilgan bir qancha devonlari, arab tilida yozilgan tabobatga oid "Al-Iktifo" asarining yagona nusxasi saqlanmoqda.

**O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi.** O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi tarkibida ham qo'lyozmalar fondi tashkil etilgan bo'lib, unda 17000 dan ziyod qo'lyozma, toshbosma, litografik va nodir nashrlar mavjud. Shuningdek, 50000 ga yaqin yozuvchi va shoirlarning arxivlari saqlanmoqda. Qo'lyozmalar orasida Sa'diy Sheroziyning 1636-yili ko'chirilgan devoni, Abdurahmon Jomiyning "Tuhfat ul-ahror" qo'lyozmasining 1578-yili ko'chirilgan nusxasi, Nizomiy Ganjaviyning XVI asrga oid "Maxsan ul-asror", Xusrav Dehlaviyning 1575-yilda ko'chirilgan "Xamsa"si, Fig'oniy, Nozim Hiraviy, Abdullo Hotify, Husayn Koshify, Temurshoh Afg'oniy va boshqa yozuvchi va shoirlar asarlarining qadimiy qo'lyozma nusxalari alohida ajralib turadi.

**Mo'yi muborak madrasasi.** Mo'yi muborak madrasasi taxminan XVI asrda qurilgan bo'lib, kim tomonidan, aniq qaysi munada barpo etilgani haqida ma'lumotlar yo'q. Bugungi kunda madrasa o'rniда qad rostlagan Sharq qo'lyozmalari saqlanayotgan xazina Mo'yi muborak kutubxonasi deb yuritiladi. O'rta Osiyo musulmonlar diniy idorasi tashkil etilgan dastlabki yillarda uning raisi muftiy Eshon Boboxonning shaxsiy kutubxonasiidagi mingdan ziyod nodir qo'lyozma kitoblar idora kutubxonasiga taqdim qilingan. Kutubxona fondi 1943–1970-yillarda

xalqdan sotib olingen va hadya qilingan qo'lyozma va bosma kitoblar hisobiga boyitilgan. Hozir kutubxonada 20 mingga yaqin kitoblar saqlanadi. Shulardan 3 mingga yaqinini nodir qo'lyozmalar tashkil etadi. Kutubxonada saqlanayotgan eng nodir kitob kiyik terisiga yozilgan Usmon roziyallohu anhu Mu-shafi hisoblanadi. Usmon mushafi uzoq yillar Nodir devonbegi madrasasida saqlangan. 1868-yilda Peterburgga olib ketilgan va 1917-yilgacha imperator kutubxonasida saqlangan. So'ng Rossiya musulmonlarining Ufadagi idorasiga berilgan. 1924-yilda Hazrati Usmon mushafi yana O'zbekistonga qaytarilgan va 1941-yilgacha Turkiston islom jamiyati qoshidagi masjidda, 1989-yilgacha O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyida saqlangan. 1989-yildan buyon Mushaf Mo'yи Muborak kutubxonasida saqlanmoqda.

Kutubxonada saqlanayotgan yana bir nodir qo'lyozma "Langar Qur'oni" nomi bilan mashhur mushafning 13 sahifasi hisoblanadi. Langar Qur'oni Qashqadaryo viloyati Qamashi tumani Langar qishlog'idagi "Langar ota" masjidida saqlanib kelgan, hozirgi kunda qolgan sahifalarning 1 tasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Qo'lyozmalar markazida, 2 tasi Ibn Sino nomidagi Buxoro viloyat kutubxonasida, 81 tasi Rossiya Fanlar akademiyasi Sankt-Peterburg bo'limida saqlanadi. Langar Qur'oni varaqlari o'lchami 52x32 sm, har bir sahifadagi yozuv 23–26 satrni tashkil qiladi.

Noyob manbalar qatoridan Qur'oni karimning turli davrlarda ko'chirilgan nusxalari, Mas'ud ibn Umar at-Taftazoniyning "Sharh al-Mutavval" (XIV asr), Husayn Voiz Koshifiyining "Ravzat ush-shuhado" (XIV asr), Burhoniddin Marg'inoniyning "al-Hidoya" (XVIII asr), Mahmud Zamaxshariyining "al-Kashshof", Jurjoniyning tabobat ilmiga oid "Zahirat ul-Xorazmshoh" (XVII asr) qo'lyozmalari saqlanadi.

**Toshkent Islom universiteti kutubxonasi.** Toshkent Islom universitetida ham qo'lyozma va bosma nashrlarni jam-

lash hamda tadqiq etish uchun ixtisoslashgan manbalar xazinasi mavjud. Hozirga qadar ushbu xazinada ikki mingga yaqin qo'lyozma va bosma nashrlar jamlangan. Bu qo'lyozmalar orasida O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I. Karimov tomonidan taqdim qilingan Burhoniddin Marg'iloniy qalamiga mansub "Hidoya" asarining XIII asrning birinchi yarmiga oid nodir qo'lyozmasi mavjud. Shuningdek, manbalar xazinasida Usmon Mushafining teriga ko'chirilgan qo'lyozmasi, Qur'oni karimning turli davrlarda kitobat san'atining noyob namunasi sifatida ko'chirilgan qo'lyozmalari, Imom Muslimning "Sahih" asari (XVII asr), hozircha yagona turkiy tildagi "Siyar ul-aqtob" asari (XVII) nusxalari saqlanmoqda.

**O'zbekiston Milliy universiteti Noyob qo'lyozma kitoblar muzeyi.** O'zbekiston Milliy universiteti kutubxonasi Noyob qo'lyozma kitoblar muzeyi fondining tashkil topishi o'ziga xos tarixga ega. U dastlab ikki fonddan iborat bo'lgan: birinchi fond 1920–1930-yillar mobaynida aholidan yig'ib olin-gan qo'lyozmalar asosida tarkib topgan, ikkinchi fond asosiy hisoblanib, u 1918-yil noyabrda ish boshlagan Turkiston Sharq instituti kutubxonasiga tegishli bo'lgan. Turkiston Sharq instituti kutubxonasidagi qo'lyozmalar xazinasi 1918-yil 18-iyunda ochilgan Turkiston musulmon o'qituvchilar institutiga va so-biq Kitob hokimi Jo'rabeckning (1278/1861–1324/1906) shaxsiy kutubxonasiga tegishli bo'lgan. Turkiston Sharq instituti 1924-yilgacha faoliyat ko'rsatib, so'ngra Sharq fakulteti sifatida O'rta Osiyo Davlat universiteti tarkibiga kiritildi va undagi qo'lyozmalar O'rta Osiyo Davlat universiteti (hozirgi O'zMU) fundamental kutubxonasidan joy oldi.

**Savol va topshirilqlar**

1. Sharq kitobat san'ati tarixiga oid ma'lumotlarni keltiring.
2. Amir Temur va temuriylar davrida kitobat san'ati qanday rivojlangan?
3. Temuriylar davrida muqovalarni badiiy bezatish usullari haqida so'zlab bering.
4. Arab yozuvidagi badiiy qo'lyozmalarining o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?
5. Arab yozuvidagi kitoblarni muqovalash tarixi xususida nimalarni bilasiz?
6. XVI–XIX asrlarda O'rta Osiyoda kitobat sohasi qanday taraqqiy etgan?
7. Mustaqil O'zbekistonda Sharq qo'lyozmalarini saqlash ishi qanday amalga oshiriladi?

**Manbalar va adabiyotlar**

1. *Дуст Мухаммад*. Трактат о каллиграфах и художниках. Перевод Г.И. Костыговой / Мастера искусства об искусстве. – М., 1965. Т. I.
2. *Ibn Arabshoh*. Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur / So'zboshi, arab tilidan tarjima va izohlar U. Uvatovniki. 2-kitob. – Т.: Mehnat, 1992.
3. *Ibn Xaldun*. Tarjimai holdan (Amir Temur va Ulug'bek zamondoshlar xotirasida). – Т.: O'qituvchi, 1996.
4. *Исмаилова Е.М.* Искусство оформления среднеазиатской книги XVIII–XIX веков. – Т., 1982.
5. *Murodov A.* O'rta Osiyoda xattotlik san'ati tarixidan. – Т.: Fan, 1971.
6. *Пугаченкова Г.А., Галеркина О.И.* Миниатюры Средней Азии в избранных образцах (из советских и зарубежных собраний). – М.: Изобразительное искусство, 1979.
7. *Семенов А.А.* Гератская художественная рукопись эпохи Навои и её творцы / В кн.: Алишер Навои. – М. – Л., 1946.
8. *Sulaymonov H.* Temuriy davri badiiy qo'lyozmalari va xattotlik san'atini o'rganish muammolari // Temuriylar davri san'atini

- o'rganish bo'yicha o'tkazilgan YUNESKO Xalqaro simpoziumida qilingan doklad. – S., 1969.
- 9. *Akimushkin O.* Arts of the book, painting andcalligraphy / History of Civilizations of Central Asia. Development in contrast: from the sixteenth tothe mid-nineteenth century. – P.: UNESCO, 2003. Vol. V.
  - 10. *Akimushkin O.* Arts of the book, painting andcalligraphy: Iran and north-western Central Asia/ History of Civilizations of Central Asia. Development in contrast: from the sixteenth tothe mid-nineteenth century. V.5. – P.: UNESCO, 2003.
  - 11. *Akimushkin O.* The Library-Workshop (Kitabkhana) of Baysunghur Mirza in Herat // Manuscripta Orientalia. – S-P., 1997. – №3/1.
  - 12. Arnold T.W. and Grohmann A. The Islamic Book: A Contribution to Its Art and History from the VII–XVII Century. – P., 1924.
  - 13. *Aslanapa O.* The arts of the bookbinding in Central Asia, 14<sup>th</sup>-16<sup>th</sup> centuries / The arts of the book in Central Asia in 14<sup>th</sup>-16<sup>th</sup> centuries. – London: Serindia Publications, – P.: UNESCO, 1979.
  - 14. *Bosch G., Carswell J. and Petherbridge G.* Islamic binding and bookmaking.Catalogue. – Ch., 1981.
  - 15. *Gray B.* Art of the book / The Arts of Islam. Hayward Gallery 8 April-4 July 1976. – L.: The Arts Council of Great Britain, 1976.
  - 16. *Pedersen J.* The Arabic Book. Translated by Geoffrey French. – P.: PrincetonUniversity Press, 1984.

## 6-MAVZU: IX–XIII ASRLAR TARIXIGA OID YOZMA MANBALAR

*O'rta Osiyo tarixiga doir IX–XIII asrlarda yozilgan arab tilidagi yozma manbalar: al-Madoiniy "Axbor al-xulafo", al-Ya'qubiy "Kitob at-tarix", Balazuriy "Kitob futuh al-buldon", Tabariy "Tarix ar-rusul va-l-muluk", Ibn Fazlon "Risola", al-Mas'udiy "Muruj az-zahab", Utbiy "Tarixi Yaminiy", Abu Abdulloh al-Korazmiy "Mafotih al-ulum", Abu Rayhon Beruniy "Osor al-boqiya", Mahmud Qoshg'ariy "Devonu lug'at at-turk", Ibn al-Asir "Al-Komil fi-t-tarix", Yoqut Hamaviy "Mu'jam al-buldon", Muhammad Nasaviy "Sirat as-sulton Jaloliddin", Jamol Qarshiy "Mulhaqat as-suroh". O'rta Osiyo IX–XIII asrlar tarixiga oid forsiy yozma manbalar: Narshaxiy "Buxoro tarixi", "Hudud ul-olam", Nizomulmulk "Siyosatnoma", Nizomi Aruzi Samarcandiy "Chor maqola", Gardiziyy "Zayn ul-axbor", Abulfazl Bayhaqiy "Tarixi Mas'udiy", Avfiy "Javomi al-hikoyot", Juvayniy "Tarixi jahongushoy".*

O'rta Osiyoning IX–XIII asrlar tarixini o'rganishda yozma manbalarning orni katta hisoblanadi. Bu davr mualliflari asosan arab va fors tillarida ijod qilganlar. O'rta Osiyo tarixiga doir ma'lumotlarni beruvchi yozma manbalar asosan mintaqaning arablar tomonidan istilo etilishi, olkada islom dinining tarqalishi, hukmron sulolalar faoliyati, islom dini taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan faqihlar, olimlar va shu kabi buyuk shaxslar hayoti va faoliyati to'g'risida, shuningdek, O'rta Osiyo shahar va qishloqlari, ularda yashagan aholi, suv inshootlari, irrigatsion tizim, diqqatga sazovor joylar va boshqalar to'g'risida ma'lumotlarni beradi. Mahalliy hamda musulmon

mualliflarining asarlari fanda arab-fors manbalari deb ataladi. Ularni arab manbalari yoki fors manbalari deb faqatgina nisbiy ajratish mumkin. Chunki ayrim manbalar dastlab arab tilida yozilgan va bizgacha uning arabcha dastlabki varianti emas, balki fors tiliga qilingan tarjima varianti saqlanib qolgan. Shuningdek, arab-fors manbalari uslub, voqealar bayoni, konseptual jihatdan ham deyarli farq qilmaydi. Shu sababli ular arab-fors manbalari deb ataladi. Quyida aynan tarixni yoritishga bag'ishlangan bir qator asarlarning qisqacha tavsifi keltirilgan.

**O'rta Oziyo tarixiga doir IX–XIII asrlarda yozilgan arab tilidagi yozma manbalar:** Ali Muhammad ibn Abdulloh ibn Abu Sayf Abu al-Hasan al-Madoiniy Iroqning Basra shahrida milodiy 752-yilda tug'ilgan. Uning vafot etgan yillari aniq emas. Ushbu muallif vafoti to'g'risida uch xil ma'lumot mavjud bo'lib, milodiy 830, 840 va 845 kabi sanaclar ko'rsatilgan. Al-Madoiniyning "Axbor al-xulafo" ("Xalifalar xabarlari") asarining ahamiyatlari jihat shundaki, ushbu asar at-Tabariyning mashhur "Payg'ambарlar va podshohlar tarixi" asari uchun asosiy manba bo'lib xizmat qilgan. Al-Madoiniy o'z asarida islomning dastlabki davrlari tarixini yoritishda o'zidan avval yozilgan yozma manbalardan foydalangan. Muslimon tarixshunosligida ushbu muallif birinchilardan bo'lib, har manbaning alohida tavsifini emas, balki turli manbalardagi ma'lumotlarga asoslangan holda asosiy e'tiborni tarixiy jayronlar bayoniga qaratgan. Arablarning O'rta Osiyoga qilgan istilosini yoritishda at-Tabariy asosan al-Madoiniy keltirgan ma'lumotlardan foydalangan. Ibn an-Nadim tomonidan tuzilgan "Fihrist"da al-Madoiniy 200 dan ortiq asarlar muallifi ekanligi to'g'risida ma'lumot keltirilgan. Ushbu muallif asarlarining katta qismi bugungi kunga qadar saqlanib qolmagan. Uning bizgacha yetib kelgan ikki asari bo'lib, ular "Kitob al-Murdifot min Quraysh" va "Kitob at-ta'oziy" asarlari hisoblanadi. Ushbu ikki asar tarixchilar tomonidan deyarli o'rganilmagan.

Tarixga bag'ishlangan asarlar ichida IX asr geografi va tarixchisi **Ahmad Ibn Ya'qub ibn Ja'far ibn Vahb ibn Vozi h al-Ya'qubiyning "Kitob at-Tarix – كتاب التاريخ"** ("Tarix kitobi") asari alohida o'rin tutadi. Al-Ya'qubiyning tug'ilgan yili noaniq bo'lib, yoshlik yillarini u Armanistonda o'tkazgan, keyinroq Xurosonda Tohiriylar xizmatiga kirgan. Bu sulola halokatidan (873-y.) so'ng, Hindistonga sayohat qilib, so'ngra Misrga ketgan. 897-yilda Misrda vafot etgan. Al-Ya'qubiy biografiyasiga doir kam ma'lumotlardan kelib chiqib, uning faol ijodiy faoliyat davri IX asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi, hamda Abbosiy xalifalar al-Mutavakkil davridan boshlab, al-Mu'tadid davrini, ya'ni 848–902-yillarni o'z ichiga oladi, degan xulosaga kelish mumkin.

Xalifalar al-Ma'mun (813–833) va al-Mu'tasim (834–842) zamonidan boshlab, turkiy xalqlar vakillari xalifalik markaziy siyosiy sahnasida muhim o'rin egallaganlar.

Al-Ya'qubiyning asari ikki qismidan iborat bo'lib, birinchi qismi dunyo "yaratilishi"dan to Islom dini paydo bo'lgungacha voqealarni, ikkinchi qismi arab xalifaligining 872-yilgacha bo'lgan (Tohiriylar harakatigacha) tarixini bayon etadi. O'rta Osiyo haqidagi ma'lumotlar asarning ikkinchi qismida keltirilgan.

Al-Ya'qubiyning mazkur asari manbashunoslik nuqtayi nazaridan K.K. Shoniyofov tomonidan o'r ganilgan. Biroq asar hanuzgacha o'zbek yoki yevropa tillariga tarjima qilinmagan. Asarning tanqidiy matni qo'lyozmalar asosida golland sharqshunosi Xoutsma tomonidan nashr etilgan. Keyinroq Bayrutda bu asar ikkinchi marta nashr etilgan.

**Al-Ya'qubiyning** yana bir "**Kitob al-buldon – كتاب البلدان**" ("Mamlakatlar kitobi") asari arab geografiyasida bayon (tavsiyf) janriga muvofiq keladi. Bu asar to'liq saqlanib qolmagan. Shunday bo'lsa-da, Eron, O'rta Osiyo va Afg'oniston haqidagi ma'lumotlar asarda mavjud. Uning Arabiston, Hindiston, Xitoy va Vizantiyaga oid alohida qismlari yo'qotilgan.

Al-Ya'qubiy asarida Movarounnahrga bag'ishlangan alohida bob mavjud bo'lib, unda Turarband Abarkat va boshqa turkiy xalqlarning shaharlari haqida ma'lumotlar bor. Shuningdek, Movarounnahr hududidan o'tuvchi savdo yo'llari va shaharlар orasidagi masofalar keltirilgan. Eng ahamiyatlisi al-Ya'qubiy turkiy xalqlar joylashuvi, ularning an'analarini va odatlari haqida ma'lumotlar beradi.

Golland tadqiqotchisi M.Ya. de Gue (1836–1909) sakkiz tomli "Bibliotheca geographicorum arabicorum" ("Arab geograflari kutubxonasi") to'plamini nashr etgan. Bu turkum to'plamlari 1870–1894-yillarda tayyorlangan bo'lib, ularda asosan IX–XII asr arab geograflari asarlarining tanqidiy matni nashr etilgan. Keyinroq bu seriya 1927 va 1967-yillarda qayta nashr etilgan.

Al-Ya'qubiyning asarlari O'rta Osiyo tarixiga oid qimmatli ma'lumotlar uchraydi. Jumladan, uning O'rta Osiyo mavjud bo'lgan davlatlar, ularda hukmronlik qilgan sulolalar, ularning hukmdorlari, asosiy tarixiy voqealar, mintaqalari, ularning diqqatga sazovor joylari, aholi ijtimoiy va etnik tarkibi, siyosiy, ijtimoiy, madaniy-ma'naviy jarayonlar to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni beradi.

**Abu-l-Abbos Ahmad ibn Yah'yo ibn Jobir al-Balozuriyning** (vafoti 892-y.) "Kitob futuh al-buldan – كتاب فتوح البلدان" ("Mamlakatlar bosib olinishi (kashf etilishi) kitobi") asari ham asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Balozuriy Bag'dodda tug'ilib o'sgan. Ilm olish istagida Suriya va Eron shaharlarida sayohat qilgan. Aynan shu davrda u o'z asarini yozishga kirishgan. Ushbu asarning bizgacha qisqartirilgan varianti yetib kelgan. Asarning to'liq matni Ibn an-Nadim va Xoji Xalifa ma'lumotlariga ko'ra, 40 qismdan iborat bo'lgan. "Kitob futuh al-buldon" asari 90 bobdan iborat bo'lib, 622-yildan 869-yilgacha bo'lgan voqealarni o'z ichiga qamrab oladi. Asarning to'liq matni gollandiyalik sharqshunos

M.Ya.de Gue tomonidan nashr qilingan. Shuningdek, asarning Qohira nashri ham mavjud. Har bir bob muayyan mamlakat yoki tarixiy-ma'muriy birlikning istilosiga bag'ishlanadi. O'rta Osiyo yoki turkiy xalqlarga doir ma'lumotlar "Xuroson fathi" bobida keltirilgan. Qolaversa, Balozuriyning yana bir qator boshqa asarlari ham mavjud.

### **Abu Ja'far Muhammad at-Tabariyning (836–923)**

"**Tarix ar-rusul va-l-muluk**" ("Payg'ambarlar va podsholar tarixi") asari O'rta Osiyoning mazkur davrdagi tarixini yoritishda asosiy manbalardan hisoblanadi. Uning 20 dan ortiq asarlari mavjud bo'lib, "Kitob ixtilof al-fuqaho" ("Faqihlarning qarashlaridagi farqlar haqida kitob"), "Tafsir al-Qur'on" ("Qur'on tafsiri") va "**Tarix ar-rusul va-l-muluk**" ("Payg'ambarlar va podshohlar tarixi") asarlari katta ahamiyatga egadir.

"**Tarix ar-rusul va-l-muluk**" ("Payg'ambarlar va podshohlar tarixi") asari umumiy tarix bayoni tarzida yozilgan bo'lib, dunyo paydo bo'lishidan tortib, 915-yilgacha xalifalikda sodir bo'lgan voqealarni o'z ichiga oladi.

Asarda turkiy xalqlarga oid alohida boblar mavjud emas, lekin asar sinchiklab, diqqat bilan kuzatilsa, ayrim ma'lumotlarni uchratish mumkin. Shuningdek, ushbu asar orqali IX–X asrlarda O'rta Osiyo va Xurosonda yashagan qabila va elatlar haqida boshqa manbalarda uchramaydigan ma'lumotlarni olish mumkin. Lekin shunday bo'lishiga qaramasdan, ushbu asar hali to'liq o'rganilmagan. M.Ya. de Gue o'z tasarrufida mavjud qo'lyozmalar asosida asarni uch seriyada nashr etgan. Asarning 1976-yil Qohirada Muhammad Abul Fazl Ibrohimning yangi tahrirda nashr etilgan nusxasi ham mavjud. Asarning Markaziy Osiyo tarixiga oid qismlari V.I. Belyayev tomonidan rus tiliga tarjima qilingan.

XIX asr oxirida "**Tarix ar-rusul va-l-muluk**" asari Xivada eski o'zbek tiliga tarjima qilingan. Mazkur tarjima hozir O'ZFA SHI fondida saqlanadi.

X asrda (922–923-yillarda) xalifa al-Muqtadirning (908–932) Volga Bulg'oriyasiga elchiligi tarkibida qatnashgan **Ahmad Ibn Fazlonning “Risola”** asarida Xorazm, g'uzlar (o'g'uzlar), boshqiridlar va boshqa turkiy xalq elatlari haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud. Ibn Fazlonning risolasi elchilik missiyasi haqida xalifaga hisobot hisoblanadi. Ibn Fazlon asarida g'uzlar, xorazmliklar haqida etnik ma'lumotlar bilan birgalikda, qimmatli etnografik ma'lumotlar ham ko'plab keltirilgan.

**Abul Hasan Ali ibn Husain al-Mas'udiy** (vafoti 956-yil) haqida biografik ma'lumotlar deyarli mavjud emas. Muallifning to'rt asari bizgacha yetib kelgan.

1. “Axbor az-zamon – ” (“Zamonalar voqealari”) fustotda (al-Qohira) yozilgan bo'lib, 30 qismdan iborat tarixiy-geografik asar hisoblanadi. Asarning muayyan qismlarigina Qohira va Parij kutubxonalarida saqlangan, ushbu qismlar asosida Abdulloh as-Saviy asarning tanqidiy matnnini chop etgan. Mazkur asarda O'rta Osiyo xalqlari xo'jaligi, an'ana, urf-odat va maishiy hayotiga oid ma'lumotlar keltirilgan.

2. “Muruj az-zahb va ma'adin al-javohir – ” (“Muroj al-zahb va madan al-jawahir” (“Oltin yaylovlari va javohir ma'danlari”)) asari 943–944-yillarda yozilgan. Asar umumiy tarix xarakteriga ega, arab tilida Misrda nashr etilgan.

3. “Kitob at-tanbeh va-l-ishraf – ” (“Tanbeh va qayta ko'rib chiqish kitobi”) tarixiy-geografik asar bo'lib, “Muruj...” va “Axbor...” ga qo'shimcha hisoblanadi. Mavjud qoloyzmalar asosida mazkur asar matni M.Ya. de Gue (1836, 1908, oxirgi qayta nashri 1967) tomonidan nashr etilgan bo'lib, uning Bayrut nashri ham mavjud.

4. “Kitob al-avsat – ” (“O'tanening kitobi”) “Axbar az-zamon” kitobidan ayrim qismlar jamlanmasi hisoblanadi.

Al-Mas'udiy asarlarida O'rta Osiyo va Sharqiy Turkistonda yashagan qabila va elatlari haqida noyob tarixiy-geografik hamda etnografik ma'lumotlar keltirilgan. Bu ma'noda muallifning

"Muruj az-zahab..." asari katta ahamiyatga ega. Asar muqaddima va 132 bobdan iborat. Dastlabki 70 bob dunyo "yaratilishi"ga oid afsonaviy ma'lumotlar, dengizlar, daryolar, tog'lar, ular yaqinida yashovchi qabila va elatlar tavsifiga bag'ishlangan. Qolgan 52 bob Muhammad payg'ambar tug'ilganidan boshlab, xalifa Al-Mu'tiy (vafoti 946-yil) hukmronligigacha bo'lgan davr tarixini bayon etadi. Asarda Markaziy Osiyo tarixiga oid ko'plab ma'lumotlar mavjud bo'lib, shu jumladan 8, 9, 14, 15, 16, 17 va 34 boblarda turkiy xalqlar haqida muhim ma'lumotlar uchraydi.

Somoniyalar va G'aznaviyalar zamonida yuksak ma'muriy lavozim egasi bo'lgan raylik **Abu Nasr Muhammad ibn Abd al-Jabbor al-Utbiyning** (961–1035) "Tarixiy Yaminiy – تاریخ یامنی" asari amir Sabuqtakin va uning o'g'li "Yamin ad-davla" (Davlatning o'ng qo'li) ega bo'lgan G'aznaviyalar sultonni Mahmud faoliyatiga bag'ishlanadi. Al-Utbiy yoshligidayoq Xurosonga kelib, G'aznaviyalar noibi Abu Ali Simjuriy (997–1030) xizmatiga kiradi. Keyin u G'azna shahriga kelib, Mahmud G'aznaviy xizmatiga kirgan. Asarda muallif asosiy e'tiborini X asr oxirgi va XI asr birinchi choragidagi voqealarни yoritishga qaratgan. Asarning Turkmaniston tarixiga oid qismlari rus tilida nashr etilgan.

Al-Utbiyning ko'p ma'lumotlari ichida Qoraxoniylar davlati tarixiga doir, xususan, Ilekxon va oxirgi Somoniy Mustansirning to'qnashuvlari, hamda boshqa muhim voqealar va O'rta Osiyoda yashagan qabila va urug'lar to'g'risidagi qaydlari ahamiyatli hisoblanadi.

**Abu Abdulloh al-Xorazmiy.** Milodning IX–XI asrlari Markaziy Osiyoda ilm-fan yuksak taraqqiy etgan va buyuk allomalar davri edi. O'sha davrning keng bilimli, peshqadami olimlaridan biri Abu Abdulloh al-Xorazmiy bo'lgan. Bu olim haqida saqlanib qolgan ma'lumotlar juda kam. Olimning to'liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Yusuf al-Xorazmiyidir. Uning yoshligi Xorazmning Xiva, Zamaxshar va Qiyol

shaharlarida o'tgan. Bu shaharlarda u voyaga yetgan, yashagan, ta'lim olgan. Olim Xurosonda ham yashagan. Uning mashhurligi vazir Abul Hasan al-Utbiy huzurida kotib bo'lib xizmat qilgan davriga to'g'ri keladi. Shu vazifasi tufayli u "al-Kitob al-Xorazmiy" nomi bilan ham tanilgan. O'z xizmat vazifalari yuzasidan Buxoroga tez-tez borib turgan va ko'pgina allomalar bilan hamsuhbat bo'lgan. Ayni vaqtda ilmgaga chanqoq olim xizmat asnosida amirning boy kutubxonasidan foydalanish huquqini qo'lga kiritgan. Abu Abdulloh al-Xorazmiy 997-yilda vafot etgan. Olimning dunyoqarashi o'sha davrda keng tarqalgan qadimgi yunon falsafasi va madaniyati, Sharq namoyandalari Yoqub ibn Is'hoq al-Kindiy, Abu Nasr al-Forobi hamda Abu Bakr ar-Roziy ta'siri ostida shakllandi.

Abu Abdulloh al-Xorazmiyning bizgacha yetib kelgan, ko'pchilik asarlari singari o'sha davrning ilm tili – arab tili da bitilgan, yagona ma'lum asari – "Mafotih al-ulum" ("Ilmlar kalitlari")dir. "Mafotih al-ulum"ning qo'lyozma nusxalari juda ko'p emas. Yaqin-yaqingacha uning to'rt nusxasi bor deb hisoblanib kelinar edi. Ana shu to'rt nusxdan uchtasi Buyuk Britaniya muzeyida 7528, 23429 va 2524 raqamlari hamda Berlin kutubxonasida 1051 raqami ostida saqlanadi. Amerikalik olim K. Bosvort asrimizning 60-yillarda ushbu asarning yana olti nusxasini Turkiya kutubxonalarida mavjudligini aniqladi. Barcha olti nusxa Istanbul shahridagi kutubxonalarda saqlanadi. Abu Abdulloh al-Xorazmiyning bu asari O'rta asarlardagi fanlar rivojlanishi tarixiga oid kamyob manba sifatida ko'pgina olimlarning diqqat-e'tiborini o'ziga jalgab etdi. Birinchi bo'lib bu manbani o'rgangan va 1895-yilda nashr qilgan olim – gollandiyalik sharqshunos Van Flotendir. Shuningdek, I.Yu. Krachkovskiy, V.V. Bartold, K. Brokelman, E. Videman, G. Sarton, M.M. Xayrullayev, U.I. Karimov, G.P. Matvievskaya, H. Hasanov, A. Sharipovlar ham asarning turli tomonlarini tadqiq qilganlar. "Mafotih al-ulum" o'ziga xos qomusiy asar

bo'lib, o'sha davrdagi deyarli hamma asosiy fan sohalarini o'z ichiga qamrab olgan. Muallif O'rta asrlardagi har bir ilm mazmunini sharhlash yo'li orqali tushuntirib beradi.

**Abu Rayhon Beruniy** 973-yilning 4-sentabr kuni Xorazmning o'sha paytdagi poytaxti yaqinida tug'ilgan. 20 yoshga to'lgach, o'z vatani Xorazmni tashlab, Jurjonga yo'l oladi. Uni Tabariston va Jurjon amiri Ziyovuddin Kobus ibn Vashmgir qo'llab-quvvatlaydi. Beruniy o'zining birinchi yirik asari "Osor al-boqiya min al-qurun al-xoliya –" ("Qadim ajdodlardan qolgan yodgorliklar") asarini Kobus ibn Vashmgirga bag'ishlaydi. 1010-yilga yaqin Beruniy Xorazmga qaytib, Ma'mun ibn Ma'mun saroyida yashaydi. Unga qarshi uyuşhtirilgan qo'zg'olon guvohi bo'ladi, uning o'dirilishi, hamda Mahmud G'aznaviyning hokimiyatni egallashini o'z ko'zi bilan ko'radi. Mahmud G'aznaviy Xorazmni egallagach, 1018-yili al-Beruniya o'zi bilan G'aznaga ketishni buyuradi. Mahmud G'aznaviy hukmronligi davrida Beruniy kuchli nazorat ostida qiyin hayot kechiradi. Shunday bo'lsa-da, Abu Rayhon Beruniy 1018–1030-yillar oralig'ida Hindistonga sayohat qilib, uzoq vaqt u yerda qoladi. Sanskrit tilini o'rganib, hind xalqi ilmiy merosi bilan chuqur tanishadi va mahalliy olimlarga aniq fanlardan saboq beradi.

Mahmud G'aznaviydan keyin hukmronlik qilgan Mas'ud va Mavdud davrida unga nisbatan munosabat ancha iliqlashgan. 1048-yilning 13-dekabrida u G'aznada vafot etgan, Beruniy o'zining "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarini 27 yoshida yozgan. Asarning turkiy xalqlar haqidagi qismida, manba sifatida, ibn Xurdodbeh va al-Jayhoniy asarlaridan foy-dalanilgan.

Muallifning "Geodeziya" asarida – g'uz (o'g'uz), pecheneg (bijanak), alan va as qabilalarining joylashgan hududlari hamda turkiy xalq pecheneglarining ta'sirida eroniyzabon as va alan-larning kattagina qismining turkiylashuvi haqida ma'lumotlar



### **Abu Rayhon Beruniy (913–1048)**

mavjud. Beruniy o‘zining ko‘plab zamondosh tarixchilaridan farqli tarzda o‘z asarlarida faqat voqeani tasvirlab qolmasdan o‘quvchini ular haqida ilmiy xulosalar qilishga undaydi, ilmiy va tarixiy uslublarning farqini ko‘rsatib o‘tadi.

Beruniyning Xorazm tarixini o‘rganishdagi o‘rni kattadir. Uning Xorazm tarixiga bag‘ishlangan asari bugungi kunga-cha aniqlanmagan bo‘lsa-da, olimning ilk asari hisoblangan “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”idagi keltirilgan O‘rta Osiyo tarixi haqidagi ma’lumotlar juda muhim hisoblanadi.


Beruniy faoliyatini qadimgi yunon, sanskrit, arab, hind va boshqa tillarni mukammal bilganligi sababli ko'p ilmiy masalalar yuzasidan, uning boy ilmiy merosiga tayanib, Sharq va G'arb bog'lab turuvchi muhim bo'g'in, deya baholash mumkin.

IX–XII asrlardagi O'zbekiston tarixini o'rganishda, o'rta asrda yozilgan lug'atlar katta ahamiyatga ega. Bu turdag'i ijod namunalari ichida **Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'ot at-turk** – ("دیوان اللغات الترك" ("Turkiy tillar devoni")) (XI asr) asarini alohida ko'rsatish mumkin.

Mahmud Qoshg'ariy o'rtaosiyolik mashhur olim Abu Rayhon Beruniyning zamondoshi va izdoshi bo'lgan. Uning to'liq ismi Mahmud ibn Husayn ibn Muhammad al-Qoshg'ariy edi. Tug'ilgan va vafot etgan yillari noma'lum, biroq uning XI asrning 20-yillarida tug'ilib, 80-yillarida vafot etganini faraz qilish mumkin. Uning ota-onasi asli Qashqardan (Qoshg'ar) bo'lgan. Keyinchalik otasi va bobosi Issiqko'l yaqinidagi Barsg'on yoki Balosog'unga joylashganlar. Bu ikki shahar Qoraxoniylar davlatining yirik markazlaridan bo'lgan. Mahmud Balosog'unda tarbiyalanib, bilim olgan. U arab va fors tillarini bilgan va shu tillardagi adabiyotlar bilan yoshligidanoq tanishgan. Ayniqsa, u turkiy elatlarning turli lahjalarini katta ishtiyoq bilan o'rgangan.

Mahmud Qoshg'ariy tomonidan juda ko'p asarlar yozilgan bo'lishi tabiiy, lekin bugungacha ularning faqat bittasi "Devoni lug'ot at-turk" yetib kelgan. Asar nihoyatda katta qiymatga ega. Chunki, Mahmud Qoshg'ariy ma'lumotlarni turli turkiy qabilalar ichida yashab, o'zi shaxsan to'plagan.

Mahmud Qoshg'ariy "Devon"ida davlatlar va mamlakatlar, shaharlar va qishloqlar, tog'lar va dovonlar, daryo va ko'llarning yuzlab nomlari uchraydi. Bu nomlarning juda ko'piga etimologik izohlar, tarixiy va geografik bayonlar beriladi. Uning o'zi yozishi cha, otasi Issiqko'l janubiy sohilidagi Barsgon (Barsxon) shahridan bo'lgan. Boshlang'ich ma'lumotni Qoshg'ariy Qashqarda ol-



Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'ot at-turk"  
asari va undagi dunyo xaritasi

gan. U bilimini mustahkamlash maqsadida O'rta Osiyo va Eron shaharlari bo'ylab sayohatga chiqqan. Qisqa muddat Bag'dodda bo'lib, arab tilini mukammal o'rgangan.

Shuningdek, Mahmud Qoshg'ariy turkiy xalqlar yashaydigan hududlarda bo'lgan, ularning til va lajhalarini o'rganib, o'z asari uchun ma'lumotlar to'plagan. U turkiy tillarning chuqur bilim-doni bo'lgan. O'z "Devon"ida turkiy shevalarni, arab filologiyasi usulida o'rganib chiqib, asar qiymatini yanada oshirgan. Yana shunisi ahamiyatlici, Mahmud Qoshg'ariy asarini nazariy yo'l bilan emas, balki amaliy tarzda, o'zi ana shu qabilalar ichida yashagan holda, jonli materiallari asosida to'plagan. Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'ot at-turk" asari 476-yilning Jumoda as-soniy oyining 12 kuni (1083-yil 27-oktabr)da yozilgan va xalifa al-Muhtadiy bi amrilloh (1075–1094-yillarda hukmronlik qilgan)ga bag'ishlangan va bu xalifaning saljuqiy sulton Malikshoh va Turkon xotinning (1082-yil) 18 yoshli qiziga sovchilik yuborgan sanasiga ham to'g'ri keladi.

Ammo Mahmud Qoshg'ariy asarining turkiy xalqlar, ularning tillari tarixini o'rganishdagi katta ahamiyatini ta'kidlagan holda, yana shuni aytish mumkinki, Mahmud Qoshg'ariyning asarida o'g'uz komponentlari rolini biroz kuchaytirish ko'zga tashlanadi.

IX–XII asrlarga oid gencalogik asarlardan **Abu Sa'd Abdul-Karim ibn Muhammad ibn Mansur as-Sam'oniyning** asarini ko'rsatish mumkin, uning kelib chiqishi o'rtaosiyolik arablardan bo'lgan. U 1123-yili Marvda tug'ilgan. Uning "**Kitob al-ansab – كتاب الأنساب**" ("Nasablar kitobi") asari katta ahamiyatga ega. U Nishopur, Isfahonda bo'lib, Bag'dodda 8 yil (1135–1144) yashagan. Shuningdek, u Hamadon, Damashq, Quddus, Ray, Tus, Bag'dod, Basra va boshqa shaharlarda bo'lib, Marvg'a qaytib kelgan. Shundan so'ng, u faqat O'rta Osiyo va Xuroson shaharlari bo'ylab sayohat qilgan. As-Sam'oniy 1167-yili vafot etgan. Uning 40 dan ortiq asari mavjud bo'lib, ko'pchiligi

bugungacha yetib kelmagan. "Kitob al-ansab" asarining to'liq bo'lмаган qismi saqlanib qolgan.

Shuningdek, biografiyaga murojaat etish ham tarix ilmining asoslaridan biri hisoblangan. Biografiya tarix ilmining eng qat'iy bayon usullaridan biri bo'lган. Musulmon olamida Muhammad payg'ambarning biografiyasini yozish bunga asos bo'lib xizmat qilgan.

Tarixchilarning dunyoviy ehtiyojlari ularni ko'proq xalifalar, hukmdorlar, mansabdor shaxslar va bir qator olim insonlarning axloqiy hayotiga doir ahamiyatli voqealarni topishga undagan. Tarixchilar tomonidan ularning biografiyasini yozib, tarixiy voqealar markazini ularning hayoti atrofiga ko'chirish, o'z-o'zidan tarixiy asarlarni o'quvchining diqqatini jalb etishiga sababchi bo'lган. Bundan tashqari, barcha musulmonlar butun davlat siyosati aynan bir kishining aqлу idroki va bilimlariga bog'liq bo'lган jarayon ekanligiga qattiq ishonganlar. Ko'plab musulmonlarning qarashlarida tarix bu biografiya bilan aynan bir narsa sifatida izohlangan. Turli ta'lim sohalarida diniy ilmning ta'siri natijasida tarix buyuk insonlarning biografiyasi to'plami sifatida baholangan.

Biografik asarlarning tarixni o'rganishdagi ahamiyati shundaki, mashhur shaxslarning shajalarini tadqiq etish yo'li bilan ularning qanday urug'ga mansubligi, qaysi hududlarda yashaganliklarini aniqlash vositasida o'rganilayotgan tarixiy jarayonlari to'g'risida muayyan xulosalar olish mumkin.

Izzaddin ibn al-Asir al-Jazariy nomi bilan mashhur bo'lган mashhur arab tarixchisi Abul Hasan Ali ibn Muhammad ibn Muhammad ibn **Abd al-Karim ibn al-Vohid ash-Shayboniyning** (1160–1233) "al-Komil fi-t-tarix –" ("tarixning mukammal bayoni") asari islom mamlakatlari ning mo'g'illargacha va mo'g'illar bosqinidan keyingi davrni tasvirlovchi muhim manba hisoblanadi. Bu asarning bir necha nashrlari mavjud bo'lib, ulardan oxirgisi 1995-yilgi Bayrut

nashri hisoblanadi. Shuningdek, bu asar Xiva xoni Muhammad Rahimxon II (1865–1910) topshirig'i bilan 1901–1907-yillarda eski o'zbek tiliga tarjima qilinib, nashr etilgan. Asarning O'rta Osiyoga aloqador qismlarining P.G. Bulgakov tomonidan boshlangan ruscha tarjimasi olimning shogirdi Sh.S. Kamoliddin tomonidan nihoyasiga yetkazilgan va 2008-yilda nashr etilgan.

Arablarining Movarounnahrni bosib olish jarayonida ko'chmanchi turkiy qabilalar o'troq xalqlarga arablar bosqiniga qarshi kurashda yordam bergenlar. Bu davrda arab mustamlakachilari turli axborot manbalari vositasida O'rta Osiyo o'troq viloyatlari atrofidagi ko'chmanchi hududlardagi turkiy elatlar haqida ma'lumotlar olishga harakat qilganlar. Musulmon tarixshunosligi endi shakllangan davrlardayoq genealogiyaga qiziqish mavjud bo'lgan. Genealogiya tarixni yozishga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Musulmon tarixshunosligining barcha sohalarida shajaratlarga keng murojaat qilingan. Ularda hukmdorlarning ayollari, farzandlarining ro'yxati keltiriladi va ularning kelib chiqishi haqida ma'lumotlar mavjud bo'ladi. Bu narsa keyinchalik shajara bilan bog'liq juda katta asarlarning yuzaga keliishiga sababchi bo'lgan.

**Mashhur olim Yoqut al-Hamaviy (1170–1221)ning "Mu'jam al-buldon"** ("Shaharlar qomusi") asari ham shular jumlasidan bo'lib, asar o'z mazmun va mohiyati jihatidan tarixiy-geografik va bibliografik lug'atlar sirasiga kiradi. Asarda Movarounnahr o'lkasi geografiyasi, tarixi, fan va madaniyatiga oid qimmatli ma'lumotlar mavjud.

Jumladan, "Mu'jam al-buldon" asarida Samarqand, Buxoro, Xorazm, Farg'ona va boshqa viloyatlarning o'sha davr holatiga tegishli geografik va boshqa ma'lumotlar, ularga qarashli bo'lgan shahar va qishloqlar, ularning jug'rofiy o'rni, tabiat, suvlar, qazilma boyliklari, qadimda mazkur joylarda mavjud bo'lgan binolar, ularning devorlari, minoralari, darvozalari haqida ma'lumot beradi.

Yoqut al-Hamaviy asarda turli shahar va joylar haqidagi geografik va tarixiy ma'lumotlarga ko'pincha biobibliografik xarakterdagи ma'lumotlarni ham qo'shib, o'sha joyning mash-hur kishilari hayoti va faoliyatiga to'xtaladi.

**Shihobiddin Muhammad Nasavyi** (?–1249) O'rta Osiyo, O'zbekiston, Kavkaz, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlaridan mo'g'il istilosи davridagi (1220–1231) ijtimoiy-siyosiy ahvoldan bahs yurituvchi "**Siyrat as-sulton Jalol ad-Din Menkburni**" ("Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti va tafsiloti") qimmatli kitob yozib qoldirgan.

"Siyrat as-sulton" asari esdalik tarzida yozilgan asar bo'lib, muqaddima va 108 ta bobdan iborat. Asarning I–IV boblari-da mo'g'il-tatarlar, Chingizxonning kelib chiqishi, Chingizning xon bo'lib ko'tarilishi va uning Mo'g'iliston va Shimoliy Xitoyni bo'ysundirishi masalalari qisqacha bayon etilgan. V–XXII boblar Xorazmshoh Alouddin Muhammadning hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan. XXIII bobdan boshlab kitobning to oxirigacha mo'g'il istilosи va Xorazmshoh Alouddin Muhammad o'z yurtini sharmandalarcha tashlab qochishi; sulton Jaloliddinning hayoti va uning mo'g'il istilochilari bilan olib borgan qahramonona kurashi, uning Ozarbayjon hamda Iroqdagi faoliyati va nihoyat, sojiali halokati hikoya qilinadi.

"Siyrat as-sulton" asarining, ayniqsa, 1224–1231-yillar voqealarini o'z ichiga olgan boblari noyob va muhim ilmiy qimmatga ega, chunki bayon etilgan voqealarning ko'pchiligidida muallifning shaxsiy ishtiroki ko'rinish turibdi.

**Jamol Qarshiyning "Al-Mulhaqot bi-s-Suroh"** ("Suroh lug'atiga ilova") asari ham nodir asarlar sirasiga kiradi. Unda Xorazmshohlar davlati tarixi, Chingizzon istilosи haqidagi qimmatli ma'lumotlar mavjud. Faxriddin Abu Sulaymon Dovud ibn Abu-l-Fazl Muhammad Banokatiy (?–1330)ning jahon tarixini o'z ichiga olgan "Ravzat uli-l-albob fi favorix al-akobir va-l – ansob ("Akobirlar va asil (kishilar") tarixi xu-

susida oqillar bog‘i”) nomli asari bilan mashhur bo‘ldi. Asar muqaddima va to‘qqiz qismidan iborat: 1) Odam Atodan to Muso payg‘ambargacha o‘tgan davrda yashagan payg‘ambarlar; 2) Qadimiy Eron podsholari; 3) Muhammad payg‘ambar, xalifayi Roshiddin, imomlar, Ummaviya va Abbosiya xalifalari davri; 4) Abbosiylar bilan hamasr bo‘lgan sulolalar (Tohiriyalar, Safforiylar, Somoniylar, Xorazmshohlar va b.); 5) yahudiylarning payg‘ambarlari va podsholari; 6) xristianlar va franklar tarixi; xristianlarning dini va e’tiqodi, Armaniston va frank mamlakatlarining geografik holati; 7) Hindiston tarixi, hindlarning dini va e’tiqodi; 8) Xitoy tarixi va uning geografik holati; xitoylarning dini va urf-odatlari; 9) mo‘g‘illarning tarixi va ularning istilochilik yurishlari. Xullas, Banokatiyning mazkur asari O‘rta Osiyo va O‘zbekistonning XIII–XIV asrning birinchi choragidagi tarixi, geografik holati va aholisining turmushini o‘rganishda muhim manbalardan hisoblanadi.

**O‘rta Oziyo IX–XIII asrlar tarixiga oid forziy yozma manbalar Narshaxiyning “Buxoro tarixi”** asari ham o‘rganilayotgan davrda Buxoro shahri va uning mintaqaga ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’naviy va iqtisodiy hayotida tutgan o‘rnini to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlarni beradi. Asar Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far an-Narshaxiy (899–960) tomonidan arab tilida yozilgan va somoniy amirlardan Nuh ibn Mansurga 943–944-yilda taqdim etilgan. Asarning arab tilida yozilgan asl matni bizgacha yetib kelmagan. Uning bizgacha yetib kelgan varianti fors tilida bo‘lib, uning tarjimasi 1128-yilda Abu Bakr Ahmad ibn Muhammad al-Quboviy tomonidan amalga oshirilgan. Mo‘g‘illar istilosiga qadar bir necha bor unga tahrirlar kiritilgan.

Asar XIX asrning ikkinchi yarmida N. Likoshin tomonidan rus tiliga tarjima qilingan va V.V. Bartold tahriri ostida 1897-yilda Toshkentda nashr etilgan. 1965-yili O.I. Smirnova Narshaxiy asarining o‘zi qo‘lga krita olgan barcha matnlari asosida solishtirma-qiyosiy tahlil orqali asar tanqidiy matnini

tayyorlagan, uning kirish qismi va dastlabki ikkita bobini rus tiliga tarjima qilgan. O.I. Smirnova tomonidan amalga oshirilgan asarning to'liq tarjimasi nashr etilmagan. Shuningdek, asarning A. Rasulev tomonidan amalga oshirilgan o'zbekcha (Toshkent, 1966), R. Fray tomonidan amalga oshirilgan inglizcha (Kembrij, 1954) va Badaviy va at-Tiroziy (Qohira, 1965) amalga oshirilgan arab tilidagi tarjimalari matni asosida Sh.S. Kamoliddin tomonidan asar rus tiliga solishtirma-qiyosiy tarjima qilingan va 2011-vilda Toshkentda nashr etilgan.

**Noma'lum muallif qalamiga mansub "Hudud al-Olam"** ("Olam chegaralari") fors tilida 982–983-yillarda Eronning Juzjon viloyatida yozilgan va shu viloyat hokimi amir Abul Horis Muhammad ibn Ahmadga bag'ishlangan. Asarning to'liq tarzda "Kitob hudud al-olam min al-mashriq ila-l-mag'rib" ("Olamning Mashriqdan Mag'ribgacha bo'lgan chegaralari kitobi") deb nomlanadi. Bu asar o'z zamonasida ham, undan keyingi davrlarda ham yuqorida nom bilan boshqa manbalarda qayd etilmagan. Shu sababli asar boshqa nom bilan mashhur bo'lganligi qayd etiladi. Asar 1258-yilda qayta ko'chirilgan. Asar jami 60 bobdan iborat bo'lib, muqaddimadan keyin quruqlikning chegaralari, dengiz va qo'lliqlar, orollar, tog'lar, konlar, daryolar, cho'llar va qumlar, so'ngra o'sha davr geografiyasida ma'lum bo'lgan viloyatlar ta'rifi berilgan, shuningdek, ko'plab etnografik va iqtisodiy ma'lumotlar keltirilgan. Asarda O'rta Osiyo, xususan O'zbekistonga doir geografik, etnografik ma'lumotlar ko'plab uchraydi. Xususan, Buxoro, Poykend, Sug'd, Karmana, Kushoniya, Samarqand, Kesh, Termiz, Kot, Farg'ona, Shosh va boshqa viloyat hamda shaharlar tavsifi keltirilgan. Asarning yagona qo'lyozmasi Abdulfozil Gulpojonyi tomonidan 1892-yilda Buxorodan topilgan. 1893-yildan sharqshunos olim A.G. Tumanskiy shaxsiy kutubxonasida saqlangan va 1924-yilda Osiyo muzeyi fondiga berilgan. "Hudud al-Olam" usari matni 1930-yilda rus tilida V.V. Bartold va 1937-yilda ingliz tilida V.F. Minorskiy tomonidan nashr etilgan.

**Abul-Fazl Bayhaqiy** (995–1077) “Tarixi Oli Mahmud” (“Sulton Mahmud xonadonining tarixi”) yoki “Jome’ fi tarixi Oli Sabuqtakin” (“Sabuqtakin xonadoni tarixidan hikoyalar majma’si”) nomli asari bilan mashhur “Tarixi Oli Mahmud” asari 30 jilddan iborat bo’lgan. Lekin bizgacha uning kichik bir qismi yetib kelgan xolos. Bu qismlar Sulton Mas’ud (1030–1041) hukmronligi davri tarixini o’z ichiga olgan va “**Tarixi Mas’udiy**” nomi bilan ham ma’lum. Asar muallif o’zi guvoh bo’lgan hamda ishondchli kishilardan eshitgan ma’lumotlari, shuningdek, hukumat mahkamalarida saqlanayotgan rasmiy hujjatlar asosida yozilgan. U daliliy hujjatlarga boyligi, voqealarning chuqur va atroflicha bayon etilishi va nihoyat, zo’r badiiy mahorat bilan yozilganligi bilan boshqa tarixiy asarlaridan farq qiladi. Asarda Sulton Mahmud davrida G’aznaviyilar sultanatining ijtimoiy-siyosiy ahvoliga keng o’rin berilgan. Bundan tashqari asarda Safforiylar, Somoniylar, Saljuqiylar tarixiga oid muhim ma’lumotlar ham bor. Ayniqsa, G’aznaviyilar bilan Xorazm, Saljuqiylar hamda Qoraxoniylar davlati o’tasida bo’lgan siyosiy munosabatlar haqida qimmatli ma’lumotlar ko’p.

**Nizomulmulk** (Abu Ali al-Hasan ibn Ali ibn Is’hoq at-Tusiy) (1018–1092) davlatni idora qilish masalalariga bag‘ishlangan “**Siyosatnama**” (yoki “Siyar al-muluk”–“Podsholar hayoti”) nomli asari bilan nom qoldirgan. Bu asar 51 bobdan iborat bo’lib, unda markaziy davlat apparatining tuzilishi va moliyaviy hisob-kitob ishlari, qo’shining tuzilishi, yuqori davlat mansablari va ularga tayinlash tartibi, qabul marosimlari va ularni tayyorlash hamda o’tkazish tartibi, mansabdorlarning faoliyati ustidan nazorat qilish kabi umum davlat masalalari o’rtaga qo’yilgan. Asarda O’rta Osiyo va O’zbekiston tarixi haqida ham muhim va qimmatli ma’lumotlar bor. Somoniylar davrida turk g’ulomlarining davlatning ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o’rni, Turkiston xonlari (Qoraxoniylar) saroyida xizmat qiluvchi xodimlarning maishiy ahvoli, Somoniylar xizmatida bo’lgan



Nizomulmulkning “Siyosatnoma” asarining  
o’zbek tilidagi nashri (2008)

amirlarning unvonlari, Xorazmshoh Oltintosh (1017–1032) bilan Sulton Mahmud G’aznaviyning vaziri Ahmad ibn Hasan o’rtasidagi yozishmalar shular jumlasidandir. Asarda, bundan tashqari, karmatlar, botiniylar harakati, Muqanna qo’zg’oloni haqida ham ayrim diqqatga sazovor ma’lumotlar mavjud.

**Nizomi Aruzi Samarqandiy** (XI asrning 90-yillarda tug’ilgan–?) “**Majma’ al-g’aroib**” (“Ajoyibotlar majmuasi”) yoki “Chor maqola” nomi bilan mashhur bo’lgan asar muallifidir. Asar 1156–1157-yillarda yozilgan bo’lib, to’rt qismidan iborat: 1) dabirlar (kotiblar) va dabirlik hunari haqida; 2) she’riyat ilmi va shoirning qadr-qiymati xususida; 3) sayyoralar haqidagi ilm va munajjimlar haqida; 4) tibb (meditsina) ilmi va tabiblarga pand-nasihatlar.

Birinchi qismda qoraxitoylar bilan Sulton Sanjar o'rtasida 1141-yilning 9-sentabrida Samarqand atrofida bo'lgan urush, qoraxitoylar bilan Xorazm, shuningdek, Sulton Mahmud G'aznaviy bilan Movarounnahr hukmdori Qoraxoniyy Bug'roxon Muhammad (1033–1056-yillar atrofida vafot etgan) o'rtasidagi siyosiy munosabatlar, qoraxitoylar istilosи arafasida Buxoro sadrlarining umumiy ahvoli haqida qisqa, lekin qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

Asarning ikkinchi qismida, qoraxoniylar davrida Movarounnahrning adabiy va madaniy hayotiga oid ma'lumotlar bor. Xullas, bu asar O'zbekistonning X–XI asrlardagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotini o'rganishda ma'lum ahamiyatga ega bo'lgan manbalardan biri hisoblanadi.

**Abu Sa'id Abdulxay ibn Zaxxon ibn Mahmud Gardiziyy** (XI asr)ning “**Zayn ul-axbor**” (“Tarixlar bezagi”), asosan qadim zamonlardan islomiyatdan avval o'tgan qadimgi Eron podsholari davridan to 1041-yilgacha, ya'ni g'aznaviylardan Sulton Mavdud (1041–1051) bilan Sulton Muhammad (1030–1031; ikkinchi marta 1041) o'rtasida, ya'ni 1041-yili Dinovarda bo'lgan urushgacha Xurosonda bo'lib o'tgan voqealar haqida hikoya qiladi. Asarda, ayniqsa, Xurosonning arab istilosidan 1041-yilgacha bo'lgan tarixi boshqa asarlarga qaraganda kengroq yoritilgan. Asarda rumliklarning madaniyati, turli xalqlarning diniy marosimlari va yil hisoblari, O'rta Osiyoning turkiy aholisi va Hindiston haqida degan boblardan iborat. Gardiziyning ushbu asari Xuroson va O'rta Osiyoning arablar istilosidan to XI asrning o'rtalarigacha bo'lgan siyosiy tarixini o'rganishda muhim o'rinn tutadi.

Nuriddin Muhammad ibn Avfiy al-Buxoriy, Buxoroning atoqli olimlaridan, 1172-yilda Buxoroda tug'ilgan va 1233-yilda Hindistonda vafot etgan. Buxoro madrasalarida tahlil olgan. 1201-yilda Buxoroda Qoraxoniyy hukmdori saroyida kotib lavozimida ishlagan. Bir muddat Xorazmda Najmiddin Kubro va u kishining shogirdlari suhbatida bo'lgan. Ilm talabida Bag'dod,



Gardiziyning “Zayn ul-axbor” asari (Tehron, 1363)

Naysobur, Marv, Hirot, G‘azna shaharlarida bo‘lgan. O‘rta Osiyoga mo‘g‘illar bostirib kelganida Hindistonga ketib qolgan, birmuncha vaqt Gujurot qozisi ham bo‘lgan. “Lubobul-albob”, “Javomi’ al-hikoyot” kitoblari mashhur. Milodiy 1233-yilda Dehlida vafot etilgan. Avfiy qalamiga mansub “Javomi al-hikoyot” tarixiy va folklor materiallariga asoslanib yozilgan bo‘lib, u Sharqda keng tarqalgan. Asar o‘zbek tilida “Nodir hikoyatlar” nomi bilan nashr etilgan.

**Alouddin Otamalik Juvayniy** (1226–1283) Mo‘g‘iliston, O‘rta Osiyo, O‘zbekiston hamda Eronning XIII asrdagi ijtimoiy-siyosiy tarixidan hikoya qiluvchi “**Tarixi Jahonkushoy**” (“Jahongir (Chingizzon) tarixi”) nomli shoh asari bilan shuhrat topdi. Asar 1260-yilda yozib tamomlangan.

Asar uch qismdan iborat: 1) Mo'g'ullar; ularning Chingizxon davrigacha, shuningdek, Jo'chixon, Chig'atoyxon va avlodlarining tarixi; 2) Xorazmshohlar va Xurosonning mo'g'ul hukmdorlari davridagi (1258-yilgacha) tarixi; 3) Eronning 1256–1258-yillardagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli, shuningdek, Ismoiliylarning diniy-harbiy uyushmasi va Ismoiliylar davlati (1090–1258) tarixi.

O'rta Osiyo va O'zbekiston tarixi uchun bu asarning I-II qismlari alohida qimmatga ega. Asarning Xorazm va Xorazmshohlar tarixiga oid (II qism), Movarounnahr va Sharqiy Turkiston tarixi, shuningdek, Mo'g'iliston haqidagi xabarlar asosan muallifning bu mamlakatlarga qilgan sayohatlari vaqtida to'plangan ma'lumotlar asosida yozilgan.

**Hamdulloh Qazviniy (ibn Abu Bakr ibn Ahmad ibn Nasr Mustavfiyning (1281–1350) "Tarixi guzida"** ("Saylangan tarix") umumiy tarix yo'nalishida yozilgan bo'lib, unda qadim zamonlardan to 1330-yilgacha Eron va qisman O'rta Osiyoda bo'lib o'tgan voqealar bayon etilgan. Asar muqaddima (fotiha) va olti bobdan iborat: 1) payg'ambarlar va avliyolar; 2) islomiyatdan avval o'tgan Eron podsholari; 3) Muhammad payg'ambar, xalifayi Roshiddin, Ummaviylar va Abbosiylar tarixi; 4) Abbosiylar davrida Eron, Afg'oniston va O'rta Osiyoda hukmronlik qilgan sulolalar (Safforiylar, Somoniylar, G'aznaviylar, G'uriylar, Daylamiyilar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar, Mo'g'ullar va b.); 5) islomiyat davrida o'tgan shayxlar, olimlar va shoirlar; 6) Qazvin shahri tarixi. Asar Eron, O'rta Osiyo hamda O'zbekistonning XIII–XIV asrning birinchi yarmidagi tarixini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### Savol va topshiriqlar

1. Arab tilida yozilgan asarlarda Markaziy Osiyo tarixini yoritishda mualliflar asosan qaysi jihatlarni yoritishga ko'proq e'tibor qaratganlar?

2. Mahmud Qoshg'ariyning asari qanday nomlanadi va undan Markaziy Osiyo tarixiga oid qanday ma'lumotlarni olish mumkin?
3. IX–XIII asrlarda yozilgan va bizgacha yetib kelgan asarlarning ko'pchiligi hukmdorlarning buyurtmasiga asosan saroylarda yozilgan. Sizning fikringizcha, bu narsa voqeа va hodisalar obyektiv tarzda yoritilishi uchun to'sqinlik qilmaganmi?
4. Markaziy Osiyoda islom dinining tarqalishi va mintaqada dastlab, keyinchalik fors tili mavqeyining kuchayishi turkiy xalqlar tarixini yoritishga qanday ta'sir qilgan?
5. O'rta Osiyo tarixiga doir IX–XIII asrlarda yozilgan arab tilidagi yozma manbalarni qanday guruhlarga bo'lib tasniflash mumkin.
6. O'rta Osiyo tarixiga doir IX–XIII asrlarda yozilgan fors tilidagi yozma manbalarning mualliflari to'g'risida so'zlab bering.

#### **Manbalar va adabiyotlar**

1. *At-Tabari, Abu Ja'far Muhammad bin Jarir.* Tarix ar-rasul va-l-muluk. 10 qismda. Muhammad Abul Fazl Ibrohim tahririda (arab tilida). – Al-Qohira, 1976.
2. Григорев В.В. Об арабском путешественнике Х в., Абу Долефе, странствование его по Средней Азии // Журнал министерства народного Просвещения. – СПб., 1872. – сентябрь.
3. *Ибн ал-Асир.* Ал-Камиль фи-т-тарих (Полный свод истории) / Перевод с арабского языка, примечания и комментарии П.Г. Булгакова. Дополнения к переводу, примечаниям и комментариям, введения и указатели Ш.С. Камолиддина. – Ташкент: Узбекистан, 2006.
4. Ковалевский А.П. Книга Ахмеда ибн Фадлана о его путешествии на Волгу в 921–922 гг. – Харьков, 1956.
5. *Qoshg'ariy Mahmud.* Turkiy so'zlar devoni (Devon lug'ot at-turk) / Tarjimon va nashrqa tayyorlovchi S.M.Mutallibov. 3 томлик. – Toshkent: Fan, 1960–1963.
6. *Mas'udiy, Abul Hasan Ali bin al-Husayn bin Ali bin Abdulloh.* Axbar az-zamon. – al-Qohira, 1935.
7. Материалы по истории Средней и Центральной Азии X–XIX вв. – Ташкент, 1988.

8. Материалы по истории туркмен и Туркмении. VII–XIII вв. Арабско-персидские источники / Под ред. С.Л. Волина, А.А. Ромаскевича и А.Ю. Юкубовского. Изд-во АН СССР. – М. – Л., 1939. Т. 1.
9. Материалы по истории тюрских народов Центральной Азии (Извлечения из источников). – Ташкент: Фан, 2003.
10. Путешествие Ибн Фадлана на Волгу / Перевод и комментарий под ред. академика И.Ю. Крачковского. Институт истории и Институт востоковедения. – М. – Л., 1939.
11. Филиппинский И.М. История арабской литературы. V – начало X вв. – М., 1985.
12. Халидов А.Б. Словари Исхака ал-Фараби и Махмуда ал-Кашгари. – Л., 1987.
13. Abu-Dulaf Mis'ar Ibn Muhalhil's Travel's in Iran (circa A.D.950) / Arabic text with English translationand commentary by V. Minorskiy. – Cairo, 1955.
14. Abu Othman Amr ibn Bahr al-Jahez al-Basrensi. Tria Opuscula Auctore. Quae edidit G. van Vloten (Opus posthumum). Editio photomechanice iterata. Lugdini Batavorum apud E.J. Brill, 1968.
15. At-Tabari – Annales quos scriptisit Abu Djafar Muhammad ibn Djafar at-Tabari. Ed. M.G. Goeje. Series, I–III, Lugduni, Botavorum, 1879–1901. – keyinchalik At-Tabari.
16. BGA. 8 pars. Al-Masudi. Kitab at-Tanbih wa-l-ishraf. – Leiden, 1967.
17. Brockelmann C. History of Islamic Peoples. – London: Routledge and Kegan Paul Ltd, 1949.
18. Cahen C. Les peoples Musulmans dans l'histoire medievale. – Damascus, 1977.
19. Gibb H.A.R. The Arab conquests of Central Asia. – London: The Royal Asiatic Society. James G. Forlong Fund, 1923.
20. Ibn Wadih qui dicitar al-Jaqui. History, ed. M.T.R. Hautsma. Lugdini. Botavorum, 1833.

## 7-MAVZU: AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI TARIXI YOZMA MANBALARI

*Amir Temur sultanati tarixiga oid forsiy tilda yozilgan manbalar. Nizomiddin Shomiy "Zafarnoma", Muiniddin Natanziy "Muntaxab at-tavorix", Hofizi Abru "Zayli Zafarnomai Shomiy", "Hofizi Abru geografiyası", G'iyosiddin Naqqoshning Xitoy safari kundaligi, Sharafiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma" va boshqalar.*

*Amir Temur sultanati tarixiga oid arab tilida yozilgan manbalar: Ibn Xaldun "Muqaddima", "Kitob ul-ibar", "At-ta'rif bi Ibn Xaldun"; Ibn Arabshoh "Amir Temur tarixi" asarlari.*

*Amir Temur sultanati tarixiga oid yevropa tillarida yozilgan manbalar. "Temur tuzuklari" asarining mohiyati. Salohiddin Toshkandiy "Temurnoma" asari.*

*Temuriylar tarixiga oid xitoy tilidagi manbalar.*

**Amir Temur sultanati tarixiga oid forsiy tilda yozilgan manbalar.** Temuriylar sultanati tarixi haqida o'z davridayoq asarlar yaratilgani, uzoq moziyidan bizning zamonamizgacha yetib kelgan yozma merosdan ma'lum va ularning hozirgi vaqtida saqlanib qolgan qismi jahonning turli qo'lyozma xazinalarida mavjud. Mazkur manbalarning bir qismi Amir Temur sultanati haqida hikoya qiladi. Bu haqda Sharafiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma"sida ancha aniq ma'lumot berilgan. U, jumladan, shunday yozadi:

"... sayyidlar, olimlar, faqihlar, fazilat va bilim egalari, shuningdek, uyg'ur baxshilariyu, forsiy (zabon) adiblar hazrat Sohibqironga safarda ham, uyda ham uzlusiz mulozimlikda bo'lgan ekanlar.

Farmonga muvofiq, ulardan bir guruhi muntazam (ravishda) taqdir taqozosi bilan ul Hazratning yurish-turishi va so'zlarida, shuningdek, mulk, millat va arkoni davlat ahvolida nimaiki kechgan bo'lsa, barchasini aniqlab, to'la-to'kis yozib borardilar... So'z ustalari va bilimdon kishilar, ul Hazrat (Amir Temur)ning o'z oliy ishorati bilan, unga iboradan libos kiygizib, nazm va nasrda ta'lif ipiga tizardilar. (Yozilganlarni) oliy majlisda hazrat Sohibqironga bir necha marta o'qib berardilar va shundan keyingina uning to'g'riligiga to'la ishonch hosil bo'lardi. Shu yo'sinda turkiy manzuma va forsiy qissa, har biri ul Hazratning yurish-turishidagi eng yirik (voqealarni) qamrab olgan nazm va nasr qalamiga olingan edi...."

Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"sida keltirilgan yuqoridagi so'zlaridan ma'lum bo'ladiki, Amir Temur sultanati-da uyg'ur baxshilari (turkiy tilda yozuvchi tarixnavislar va dos-tonchilar) va forsiyzabon adiblardan iborat tarixnavislar bo'lgan va ular yurishlarda qatnashib, voqealarni bevosita mushohada etganlar va shu asosda material to'plaganlar. Yig'ilgan ma'lumotlar Amir Temur nazdida tahrirdan o'tkazilgan, so'ngra nazm va nasr qalamiga olingan. Yozilgan ma'lumot oliy majlisda (boshqacha aytganda ilmiy davrada) muhokama qilingan. Shu asosda yaratilgan turkiy manzuma va forsiy qissa Amir Temur sultanati tarixini tuzishda mutasaddi etib tayinlangan tarixchilarning maxsus nazoratidan o'tkazilgan. Ana shunday tarixiy asar (yoki asarlar) yozilgani, biroq ular hali bir yaxlit kitob talabi darajasiga keltirilmaganini, Nizomiddin Shomiy ham ta'kidlab o'tgan.

Afsuski, Amir Temur davrida tuzilgan turkiy manzumalar va forsiy qissalar bizgacha yetib kelgani yo'q, lekin Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" va Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarlari ularga asoslangan holda yaratilgani aniq.

**G'iyo'siddin Ali ibn Jamol al-islom Yazdiyning "Ro'znomai g'azovoti Hindiston"** ("Hindiston muhorabasi kundali-

gi") asari Amir Temur hukmronligi tarixiga bag'ishlab forsiy tilda yozilgan ilk manbalardan biri hisoblanadi. Muallif mazkur asarni 1399-yili yozib Amir Temurga taqdim etganda, Sohib-qiron uni o'ta murakkab uslubda yozilgan, deb qabul qilmagan. Shunga qaramasdan, "Kundalik" keyingi tarixchilarga Amir Temurning Hindistonga yurishini tavsiflashda bosh manba vazifasini o'tadi.

G'iyosiddin Alining ushbu asarining matni keyinroq, 1958-yili rus tiliga tarjima qilingan, 1915-yili Sankt-Peterburgda nashr etilgan. Bu tarixiy asar o'zbek tiliga o'girilmagan, uning bitta qo'lyozma nusxasi O'zR FA Sharqshunoslik instituti fonda saqlanmoqda (qo'lyozma 1520/II).

Mazkur asar Amir Temurning yurishi tafsilotlari bilan bir qatorda, hozirgi Afg'oniston hududining tarixiy geografiyasini bo'yicha materiallar borligi jihatidan ham muhimdir. Unda sharqiy Kofiriston qismining tabiatini, savdo yo'llari, suvlari, aholi maskanlari to'grisida ma'lumot aks etgan.

**Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" asari.** Sohib-qiron Amir Temurning hayotligida, bevosita uning topshirig'i bilan yozilgan. Bu kitob Amir Temur sultanati tarixidan so'zlovchi dastlabki mukammal manba sanaladi.

Asar muallifi Nizomiddin Shomiy Amir Temur bilan birinchini marta 1393-yili Bag'dod shahrida, uning zabit etilishi paytida uchrashadi. Amir Temur uni e'tibor bilan qabul qiladi. Ularning ikkinchi uchrashuvi 1400-yili Halab shahrida, Sohibqiron lashkarlari bu shaharni egallaganda sodir bo'ladi: "...u vaqtida bu banda (Nizomiddin Shomiy) Hijoz safarini niyat qilib, Halab shahriga yetib kelgan va bir jamoaning qo'liga asir tushib qolgan edim", – deb yozadi Shomiy. Bu yerda ham Amir Temur uni yaxshi qabul qiladi va shundan so'ng tarixchi Sohibqiron xizmatida qolgan bo'lishi kerak. Chunki shu voqeadan ikki yil so'ng Amir Temur unga o'z yurishlari tarixini yozishni topshirgan. Bu haqda Nizomiddin Shomiy shunday yozadi:

“Bu kitob yozilishining sababi shul erdikim, garchi ul zotning abadiyatga ulangur davlatining tarixini boshlanishidan, to hozirgi kungacha onhazrat uchun yozgan bo‘lsalar ham, ammolular hali munosib tarzda jamlanib taqdim etilmagan ekan. Bu banda (Nizomiddin) ularni yig‘ib, ortiqcha so‘zlardan tozalab, bob-bob qilib tartib berishga mashg‘ul bo‘lgaymen, lekin shu shart bilanki, takallufu bezak berish, lof urish ziynatidan o‘zimni tiygaymen, (toki) avom xalq uni ma’nisini anglagay, xos kishilar esa unga ayb qo‘ymagaylar”.

Demak, ma’lum bo‘ladiki, Nizomiddin Shomiy Amir Temur haqida ilgari tuzilgan tarixlar va mavjud materiallar asosida bitta mukammal va ixcham tarixiy asar yaratishni maqsad qilib qo‘ygan.

Nizomiddin Shomiy bu vazifani ko‘ngildagiday ado etdi. Uning “Zafarnoma” asarida dastlab, Chingizzon avlodlari, jumladan, Chig‘atoy ulusi hukmdorlari sanab o‘tilgan, so‘ngra sohibqiron Amir Temurning siyosiy maydonga kelishi va uning zafarli yurishlari tavsiflangan. Voqealar sharhi hijriy 806-yil ramazon (1404-yil, mart)gacha yetkazilgan. Tarixchi o‘z kitobini Amir Temurga yetti yillik yurishdan qaytishi chog‘ida Ozarbajonda taqdim etadi.

Hozirgi paytda Nizomiddin Shomiy “Zafarnoma” asaridan sanoqli nusxalar bor; uning Temuriylar davrida ko‘chirilgan ikkita qo‘lyozma nusxasi asosida (birinchisi – 1425-yili ko‘chirilgan; u hozir Istanbuldagi Nuri Usmoniya masjidi kutubxonasida saqlanadi; ikkinchisi – 1434-yilda ko‘chirilgan, Britaniya muzeyi kutubxonasida) hamda Hofizi Abruning “Zubdat atavorixi Boysung‘uriy” asari bilan qiyosiy matni sharqshunos olim Feliks Tauer tomonidan nashr qilingan–Praga, 1937-yil (birinchi jild), 1956-yil (ikkinchi jild). Asar F.Tauer nashridan turk tiliga ham o‘girilib, 1949-yili Anqarada nashr etilgan.

O‘zbekistonda mustaqillik yillarda (1996-yil) Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asari (Hofizi Abruning unga yoz-

gan ilovasi – “Zayli “Zafarnoma”i Shomiy” bilan birga) O’zRFA Sharqshunoslik instituti xodimlari tomonidan to’la ilmiy izohlar bilan o’zbek tiliga o’girildi va u chop ham qilindi. Mazzur kitob asarning bиринчи to’la nashri sanaladi. Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asarida Amir Temur sultanati tarixi 1404-yil voqealarigacha yetkazilgan. Undan keyingi, to Amir Temur vafoti (1405-yil 18-fevral)gacha kechgan voqealar Hofizi Abruning “Zayli Zafarnomai Shomiy” asarida berilgan.

**Muiniddin Natanziy.** “Muntaxab at-tavorix” (yoki “Muntaxab at-tavorixi Muiniy”), hijriy 816 (1413)-yili yozilgan. Asar umumiy tarix, Chig’atoy ulusi tarixi, Amir Temur kechinmalari va O’rta Sharq mamlakatlari tarixi tavsiflaridan iborat.

Hozirgi vaqtida “Muntaxab at-tavorixi Muiniy”ning qo’lyozma nusxalari Eron, Rossiya, Buyuk Britaniya va Fransiya kutubxonalarida saqlanadi. Asardan ayrim parchalar fransuz (1914) va rus (1941) tillariga tarjima qilinib chop etilgan.

O’zbekistonda mustaqillik yillarda Muiniddin Natanziyining “Muntaxab at-tavorix” asarining Amir Temur tarixiga oid voqealar tavsifi matni o’zbek tiliga o’girilib chop etildi (2011-y.).

**Hofizi Abru** (vafoti 833/1430), to’la ismi Shihobiddin Abdulloh ibn Lutfulloh ibn Abdurashid Heraviy, fanda Hofizi Abru laqabi bilan mashhur bo’lgan, Amir Temur va temuriylar tarixiga oid forsiy tilda asarlar yozgan tarixchi olim. Dastlab Amir Temur xizmatida kotiblik qilgan, keyinchalik Mirzo Shohruk saroyida Hirotda tarixnavis, geograf, she’rlar ham yozgan.

Hofizi Abruning sohibqiron Amir Temur tarixiga bag’ishlangan “**Zayli Zafarnomai Shomiy**” nomli dastlabki asari Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asariga 1412-yili yozilgan “Ilva” (“Zayl”)dir.

Yuqorida ta’kidlab o’tganimizdek, Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asarida Amir Temur sultanati tarixi 1404-yil voqealar bilan yakun topadi. Undan keyingi, to Amir Temur vafoti (1405-yil 18-fevral)gacha kechgan voqealarini Hofizi Abru



**“Majmai tavorixi sultoniya” asaridagi Muhammad payg‘ambar sayohati tasvirlangan miniatyura  
(Hofizi Abru, 1425)**

ana shu “Zayl”da bayon etgan. Mazkur “Ilova” mustaqillik yillarda o‘zbek tiliga o‘girilib, Nizomiddin Shomiy “Zafarnoma” asari bilan bir kitobda chop etilgan.

Hofizi Abruning ikkinchi kitobi 1414–1420-yillarda yozilgan geografik mazmundagi asar, maxsus nomi yo‘q, fanda odatda **“Hofizi Abru geografiyasi”** deb tanilgan. Asar ikki jiddan iborat: birinchi jild – Yerning geografik tavsifi, Fors va Kirmon viloyatlarining qisqacha geografiyasi va tarixi, ikkinchi

jild – Xuroson geografiyasi va tarixi hamda Movarounnahrning Qisqacha geografik tavsifini o‘z ichiga oladi. Mazkur kitobda Sohibqiron Amir Temur va Mirzo Shohrux davrlarida amalga oshirilgan bунyodkorlik ishlari haqida qimmatli ma’lumotlar o‘rin olgan.

Hozirgi vaqtida Hofizi Abru “Geografiya”sining o‘nga yaqin qоlyozmalari jahonning turli kutubxonalarida saqlanadi (O‘zbekiston, Rossiya, Eron, Buyuk Britaniya, Hindiston). Ular ichida O‘zR FA Sharqshunoslik instituti fondida saqlanayotgan (№ 5361) qоlyozma nodir nusxalardan biri hisoblanadi, u XVI asrda ko‘chirilgan, nastаliq xatida yozilgan; unda muallif tomonidan chizilgan dunyoning rangli kartasi ham o‘rin olgan. Asarning ilmiy ahamiyati anchagina tadqiqotlarda yoritilgan va ba’zi qismlarining matni nashr etilgan.

O‘zbekistonda mustaqillik yillarda Hofizi Abru “Geografiya”sidan ayrim lavhalar o‘zbek tiliga o‘girilib chop qilingan.

Mazkur asardan Movarounnahrning geografik tavsifi, xususan, Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon daryosi, Orol va Kaspiy dengizlari (Amudaryoning Kaspiy dengiziga quylishi), yirik shaharlari (Samarkand, Buxoro, Xo‘jand, Termiz, Kesh, Qarshi), Xurosonning geografik tavsifi (viloyatlar, tumanlar, shaharlar, qishloqlar, suv tarmoqlari, ekinzorlar), Temuriylar davlatining xalqaro (Xitoy bilan elchilik) munosabatlari haqida muhim ma’lumotlar o‘rin olgan. Ularning bir qismi bevosita muallifning o‘z kuzatuvlari va tadqiqotlariga asoslangan. Uning o‘zi Xurosonning tarixiy geografiyasiga tegishli ma’lumotlarni bevosita podshohlik devoni daftarlardan olganini ta’kidlaydi.

Hofizi Abruning yirik tarixiy asari to‘rt jılddan iborat “**Majmai tavorixi sultoniyā**” nomli to‘plam bo‘lib, uning to‘rtinchchi jildi “**Zubdat at-tavorixi Boysung‘uriy**” deb atalgan, 1423–1427-yillarda yozilgan. Unda Amir Temur va Mirzo Shohrux sultanati tarixi (1427-yilgacha) yoritilgan. Undan tashqari bu jidda 1419–1422-yillarda Temuriylar davlatidan Xi-

toyga borib kelgan elchilar guruhining qatnashchisi G‘iyosiddin Naqqosh yozib qoldirgan “Kundalik” ham o‘rin olgan.

Hozirgi vaqtida “Majmai tavorixi sultonija” asarining ayrim jildlarining qo‘lyozma nusxalari anchagina va ular jahonning turli kutubxonalarida saqlanadi. Temuriylar davri tarixidan iborat to‘rtinchi jildning qo‘lyozma nusxalari Eron, Turkiya, Buyuk Britaniya kutubxonalarida mavjud.

Hofizi Abruning mazkur asaridagi ayrim qismlargina nashr bo‘lgan va boshqa tillarga tarjima qilingan. O‘zbekistonda mustaqillik yillarida ushbu asardan ba’zi parchalar o‘zbek tiliga o‘girildi va tarjima qilindi.

**G‘iyosiddin Naqqosh. Xitoy safari kundaligi.** 1419–1422-yillarda yozilgan. Mirzo Shohrux boshqargan Temuriylar davlati bilan Xitoy o‘rtasida qadimgi Buyuk Ipak yo‘li orqali savdo va elchilik aloqalari rivojlangan edi. Xitoy imperatorining taklifi bilan 1419–1422-yillar davomida O‘rta Osiyo va Xurosondan elchilarning katta guruhi Xitoya borib keldi. Ushbu safar qatnashchisi G‘iyosiddin Naqqosh shahzoda Boysung‘ur Mirzo topshirig‘i bilan barcha ko‘rgan-kechirganlarini kundalik shaklida yozib borgan va safardan qaytgach, “Kundalik”ni unga taqdim etgan. U esa o‘z navbatida asarni saroy tarixchisi Hofizi Abruga tarixga kiritish uchun bergen degan ehtimol bor. Zero, “Kundalik”ning asl nusxasi saqlanmagan va u dastlab Hofizi Abruning “Zubdat at-tavorixi Boysung‘uriy” asaridan o‘rin olgan. Keyingi davrlar tarixchilari “Kundalik”ni o‘z asarlariga kiritganlar.

Hozirgi vaqtida G‘iyosiddin Naqqosh “Kundaligi”, undagi ma‘lumotlarning tarixiy jihatdan o‘ta muhimligi tufayli, ko‘p marta nashr qilingan va turli tillarga o‘girilgan. Asar O‘zRFA Sharqshunoslik institutida o‘zbek tiliga tarjima qilindi va 1991-yilda o‘zbek tilida va 2017-yilda uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz) chop etildi.

**Sharafiddin Ali Yazdiy. “Zafarnoma”.** Sohibqiron Amir Temur yurishlari tavsifidan iborat eng mukammal tari-

xiy asar. Mirzo Shohruxning o'g'li Ibrohim Sultonning buyrug'i va bevosita rahbarligi ostida yozilgan. U 1420-yili bobosi Amir Temur haqida turkiy va forsiy tillarda yozilgan ma'lumotlarni mushohidlar vositasida sinchiklab tekshirtiradi. To'plangan materiallar ilmiy tahrirdan o'tkazilgach, Sharafiddin Ali Yazdiy shahzoda topshirig'iga ko'ra, uni o'ziga xos badiiy mahorat bilan forsiy tilda kitob shakliga keltirgan. Uning "Muqaddima"sida ushbu tarixni yozishga hijriy 1419-yili kirishilgani qayd etilgan. Uning hijriy 1424–1425-yillarda yozib tugallanganligi haqida Abdurazzoq Samarqandiy "Matlai sa'dayn" asarida xabar beradi.

Asar "Muqaddima"si Ibrohim Sulton talabi bilan ancha keng yozilgan va unda Amir Temur nasabi turkiy sultonlar oilasidan bo'lganligi isbotlangan hamda Chig'atoy ulusida 1360-yilgacha hukmronlik qilgan Chingiziyalar xususida so'z boradi.

"Zafarnoma" aniq ma'lumotlarga boyligi va yuksak badiiy mahorat bilan yozilganligi sababli, o'z davrida ham, keyinchalik ham diqqat-e'tiborda bo'lib keldi. Chunonchi, bu asar XV–XVI asrlarda shoirlar Lutfiy va Hotify tomонlaridan qisqa nazm etilgan. Shayboniy Ko'chkunchixon (1510–1530) topshirig'i bilan Muhammad Ali ibn Darvesh Ali Buxoriy asarni o'zbek tiliga o'girgan. Keyinchalik Hofiz Muhammad ibn Ahmad al-Ajamiy uni turkcha tarjimasini yaratgan, 1822-yili Xivada Xudoyerdi ibn Qo'shmuhammad so'fi kitobni qisqartirilgan holda o'zbek tiliga o'girgan. Mayjud tarjimalar qisqartirilgan va erkin tarjimalar edi, lekin manba sifatida ularning ma'lum ahamiyati bor, albatta.

Hozirgi vaqtida "Zafarnoma"ning qo'lyozma nusxalari an-chagina, biroq ularning aksariyatida "Muqaddima" berilmagan. Eng to'la yaxshi saqlangan nusxalaridan biri Toshkentda O'z FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar xazinasida saqlanadi (№ 4472). "Zafarnoma" fransuz (Parij, 1722), ingliz (London, 1723), turk (Istanbul, 1929) tillariga tarjima qilingan; matni

Hindistonda (1885–1888), Eronda (1957) va O‘zbekistonda (Toshkent, 1972) nashr etilgan.

O‘zbekistonda mustaqillik yillaridagina Amir Temur bilan bog‘liq tarixni o‘rganishga imkoniyat yaratildi. Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma”sining dastlabki qismlari o‘zbek tiliga o‘girilib, “Sharq Yulduzi” jurnalida chop etildi (1992-yil, №3–12; 1993-yil, № 1–2). Asarning “Muqaddima” qismidagi Chig‘atoy ulusi hukmdorlari tarixidan iborat lavhalar o‘zbek tiliga o‘girildi va 1992-yilda “Amir Temur ajdodlari” nomi bilan nashr etildi. “Zafarnoma”ning asosiy qismidagi 1360–1370-yillarda Mova-rounnahrda kechgan tarixiy voqealar tafsiloti ham o‘zbekchaga o‘girilib, alohida kitob shaklida nashr qilindi.

Shuningdek, asardagi Mo‘g‘iliston, Dashti Qipchoq va Xorazmga oid materiallar ham o‘zbek tiliga tarjima qilinib “Amir Temur va Ulug‘bek zamondoshlari xotirasida” nomli to‘plamda e’lon qilindi.

**“Muizz al-ansob fiy shajarat al-ansob”** (“Nisbalar shajarasida izzatli shaxslar nasabnomasi”). Fors tilida yozilgan, muallifi aniqlanmagan. Asarning uchta qo‘lyozma nusxasi ma’lum. Ular Istanbul, Parij, Britaniya kutubxonalarida saqlanadi.

Turkiy sultonlar xonadoni shajarasi uslubida tuzilgan (Chingizzxon xonadoni), unga Amir Temur va avlodlari shajarasi (Husayn Boyqaro hukmdorligi) ilova qilingan. Tadqiqotlarda asar dastlab Rashidaddin Fazlulloh (1247–1318) tomonidan tuzilgani va temuriylar davrida davom ettirilgani qayd etilgan. Temuriylar davriga oid ma’lumotlarning bir qismi tarixchi Hofizi Abru tomonidan kiritilgan, degan fikrlar mavjud va bunga ma’lum asos bor. Aniqrog‘i, Hofizi Abruning “Zubdat at-tavorix” asarida Amir Temur ajdodlari shajarasi va bu xonadonga mansub ayrim shaxslarning muallif davridagi holati haqida yozilgan. Hozirda “Muizz al-ansob” faksimile va ilmiy izohlar bilan rus tiliga o‘girilib chop qilingan (Olmaota, 2006-yil).

**Amir Temur sultanati tarixiga oid arab tilida yozilgan manbalar.** **Ibn Xaldun** (to'liq ismi: Valiuddin Abu Zayd Abdurahmon ibn Muhammad ibn Xaldun; 1332–1406), arab tarixchisi, Mag'rib (Tunis, Marokash) va Misr mamlakatlarida yashab ijod etgan, Qohirada madrasalarda dars bergan, qozilik vazifasida ham ishlagan. 1400-yili Misr sultoni Faraj Damashq shahri ostonalariga yetib kelgan Amir Temur qo'shinlari bilan jang qilmoq maqsadida katta lashkar bilan yo'lga chiqadi va Ibn Xaldunni ham o'zi bilan birga olib ketadi. Faraj mag'lub bo'lib Misrga qaytadi, Ibn Xaldunga esa, Damashqda sohibqiron Amir Temur bilan uchrashish va suhbatlashish nasib etadi.

Asosiy asarlari: "Muqaddima", tarix ilmi haqida kitob; 1965-yili Moskvada monografiya shaklida nashr etilgan; "Kitob ulilibar" ("Ibratlar kitobi"), musulmon mamlakatlari tarixini o'z ichiga oladi; "At-ta'rif bi Ibn Xaldun" ("Ibn Xaldun bilan tanishshuv"); muallif bu asarda o'zining tarjimayi holini bataysil yozadi. Mazkur asarning O'rta Osiyo tarixi uchun muhim tomoni shundaki, unda Ibn Xaldunning sohibqiron Amir Temur bilan uchrashuvi va suhbati tafsilotlari bayon qilingan. Ibn Xaldunning asosiy tarixiy asarlari 1988-yili Bayrutda "Tarix ibn Xaldun" nomi bilan nashr qilingan.

O'zbekistonda mustaqillik yillarda mazkur arabcha nashrdan Ibn Xaldunning sohibqiron Amir Temur bilan suhbat haqida yozganlari o'zbek tiliga o'girilib, ilmiy izohlar bilan "Amir Temur va Ulug'bek zamondoshlari xotirasida" nomli to'plamda va alohida risola shaklida chop etildi.

**Ibn Arabshoh** (to'liq ismi: Shahobiddin Ahmad ibn Muhammad ibn Abdulloh ibn Ibrohim, 1389–1450) arab tarixchi olimi. Amir Temur Shom o'lkasiga yurishi chog'ida, uni oilasi bilan Samarcandga yuborgan; 1408-yili vataniga qaytgan, 1436-yili Qohiraga borib, o'sha yerda yashab qolgan; bir qancha asarlar muallifi, jumladan, Amir Temurga bag'ishlab yozilgan "Ajoyib al-maqdur fi-tarixi Taymur" ("Temur tarixida

taqdir ajoyibotlari”), 1436-yili yozib tugallangan. Ibn Arabshoh sohibqiron Amir Temurga nisbatan salbiy fikr yuritgan bo’lsa-da, uning asarida anchagina muhim tarixiy ma'lumotlar o'rin olgan.

“Ajoyib al-maqdur”ni O’zbekistonda o’zbek tiliga o’girish sharqshunos olim Ubaydulla Uvatov tomonidan ancha ilgari boshlangan bo’lsa-da, biroq uni kitob holida nashr etish faqat mustaqillik yillarida amalga oshdi. Asar “Amir Temur tarixi” nomi bilan 1992-yili chop etildi.

**Amir Temur sultanati tarixiga oid yevropa tillarida yozilgan manbalar. Rui Gonsales de Klavixo** (vafoti 1412) “**Samarqandga, Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi**”. XV asr boshida Amir Temur davlati va G’arbiy Yevropa davlatlari o’rtasida elchilik munosabatlari rivojlandi va Sohibqiron Fransiya, Angliya, Ispaniya, Italiya kabi bir qancha yirik davlatlar hukmdorlari bilan elchilar orqali yozishmalar olib borgani ma'lum. Jumladan, Ispaniya (Kastiliya va Leon qiroli Genrix III) elchilari Payo de Soto Mayor va Ernan Sanches de Palasuelosga hukmdorlari tomonidan Kichik Osiyoga safar qilib, o’sha davrning eng qudratli davlatlari – Amir Temur davlati va Usmonli Turk sultonligi haqida aniq ma'lumotlar olib kelish topshirilgan edi. Taqdir taqozosi bilan elchilar Amir Temur va sulton Boyazid lashkarlari o’rtasida 1402-yil Anqara ostonasida yuz bergen katta jangni ko’rishga muvaffaq bo’ldilar. Amir Temur mazkur jangda zafar qozongach, Ispaniya elchilari o’sha yerda ekanligidan xabar topadi va ularni yaxshi qabul qiladi. Ularga qaytishga ruxsat etar ekan, Sohibqiron o’z nomidan Mahomat Al-kagi (*Muhammad al-Hojj*) ismli kishini maktub, payg’om, sovg’a-salom va kanizaklar bilan Ispaniya qiroli huzuriga elchi qilib yuboradi.

Bunga javoban Kastiliya va Leon qiroli Genrix III de Trastamara (1390–1407) ham katta xayriyohlik bilan Amir Temur huzuriga o’z elchilari – dinshunoslik magistri Fra Alfonsa Pag’om

de Santa Mariya, Rui Gonsales de Klavixo va Gomes de Salasarlnarni maktub va hadyalar bilan yuboradi. Elchilar 1403-yili yo'lga chiqib, O'rta dengiz va Qora dengiz suv yo'li orqali dastlab Tarabzun (Trabzon) bandarigacha (portigacha) yetib keladilar, u yerdan ularga ot-ulovlar berib, to poytaxt Samarqandgacha har bir manzilda katta ehtirom va izzat-ikrom ko'rsatib kuzatadilar.

Ushbu elchilikda bevosita qatnashgan Rui Gonsales de Klavixo safar (1403–1406) davomida ko'rgan-kechirganlarini kundalik tarzida yozib boradi va u fanda "Samarqandga, Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi" nomi bilan tanilgan.

Klavixo "Kundaligi" nafaqat Amir Temur davlatining Kastiliya qirolli bilan Amir Temur davlati diplomatik munosabatlari tarixi, balki Movarounnahrning o'sha davrdagi tabiatni, xo'jaligi, shaharlar yuksalishi va hunarmandchilik, xalqaro savdo-sotiq aloqalari, ayniqsa Sohibqironning mislsiz buniyodkorlik faoliyati to'g'risida aniq ma'lumotlar beruvchi manbadir.

Kastiliya qiroli elchilari 1404-yil 21-avgustda Termit (Termiz) shahri yonida Amudaryodan o'tib Movarounnahr hududiga qadam qo'yganlar va shu yilning 10-dekabrida Omo'ya guzari orqali yana shu daryodan Xuroson tomon o'tganlar. Safardan maqsad Amir Temur huzuriga kelish bo'lganligi sababli, ularning Movarounnahrda turgan vaqtлari jami uch oy va yigirma kunni tashkil qilib, asosan kuz fasliga to'g'ri kelgan. Shu sababdan Klavixo o'z safarnomasida Samarqand shahri haqida batafsil yozgan, ayniqsa Amir Temurning yetti yillik yurishdan qaytgach, bir necha oy elga osh-non ulashib, to'y-hashamlar o'tkazgani xususida kengroq to'xtalgan.

"Kundalik" ikkita qo'lyozma nusxada saqlangan. U dastlab ispan tilida Ispaniyada chop etilgan (Sevilya, 1582) va bir necha marta qayta bosilib, yevropa hamda rus tillariga (1881; 1990) tarjima qilingan.

Klavixoning mazkur "Kundaligi"ga O'zbekistonda mustaqillik yillaridagina jiddiy e'tibor qaratildi. Undagi Movarounnahr-

ga oid ma'lumotlar ruscha nashri asosida o'zbek tiliga o'girilib, "Amir Temur va Ulug'bek zamondoshlari xotirasida" nomli to'plamda va alohida risola shaklida chop etildi. Asar o'zbek tiliga to'la tarjima qilinib chop etildi (2010-yil).

**"Temur tuzuklari"** ("Tuzuki Temuriy"). Asarning boshqa nomlari: "Malfuzoti Temuriy" – "Temurning aytganlari"; «Vо-  
qioti Temuriy» – "Temur haqida xotiralar". Mir Abu Tolib al-Husayniy at-Turbatiy ismli shaxs (XVII asr) Yaman hukmdori Ja'far podshoh kutubxonasida Amir Temurning kechmishtilarini ifoda etuvchi turkiy-chig'atoy (eski o'zbek) tilida yozilgan bir asar borligi haqida xabar beradi. Mazkur asarni forsiy tilga o'giradi va uni Boburiylar sultanati hukmdori Shoh Jahonga (1592 – 1666-yy.; hikmdorligi 1628 – 1658-yy.) sovg'a qiladi. Shoh Jahon asar bilan tanishib chiqib, saroy tarixchisi Muhammad Ashraf Buxoriyga qayta ishlab, tuzatib to'ldirishni buyuradi. Natijada asarning yangi, kengaytirilgan tahriri yaratiladi. Unda Amir Temurning tarjimayi holi, davlat va qo'shinining tuzilishi, Chig'atoy ulusining tarixi haqida ma'lumot berilgan edi.

Keyingi asrlarda "Temur tuzuklari" boshqa tillarga tarjima qilindi. Chunonchi, 1858-yili Xivada o'zbek tiliga o'girilgan. Uning nashrlari ham ko'p. O'zbekistonda "Temur tuzuklari" 1967-yili Alixon To'ra Sog'uniy (1885–1976-yillar) tomonidan hozirgi o'zbek tiliga o'girilgan va "Guliston" jurnalida chop etilgan. Asarning tuzatilgan, to'ldirilgan yangi tarjimasi Q'ZR FA Sharqshunoslik instituti xodimlari H. Karomatov va B. Ahmedovlar tomonidan amalga oshirildi va u kirish so'z hamda ilmiy izohlar bilan 1991-yili chop etildi. 1992-yil esa A. Ahmedov, uning XIX asrdagi ruscha tarjimasidan o'zbek tiliga o'girib, "Zafar yo'li" nomi ostida nashr qilindi.

1996-yilda "Temur tuzuklari" 1991-yilgi nashri asosida qayta bosildi va shu yili asarning uch tildagi (o'zbek, ingliz, fransuz) nashri ham chiqdi. Bu manba 1999-yili rus tilida (forsiy matn bilan birga) ham bosildi. Keyinroq, asarning "Voqi-

oti Temuriy”ni qo’shib kengaytirilgan shakli, uning XIX asrda Xorazmda qilingan o’zbekcha tarjimasi nusxasidan (Sankt-Peterburg qo’lyozmasi asosida) matni va hozirgi o’zbek tiliga tabdili bilan chop etildi.

**Salohiddin Toshkandiy** (to’la ismi: Mullo Salohiddin ibn mullo Alouddin xoja eshon), “**Temurnoma**” – XIX asr oxirida sohibqiron Amir Temur kechinmalariga bag’ishlab o’zbek tilida qahramonlik janrida yozilgan tarixiy asarlardan biri. Muallif Toshkentda yashab ijod etgan, she’rlar ham bitgan.

“Temurnoma” erkin badiiy ijod namunasi, unda tarixiylik bilan badiiylik qorishib ketgan. Muallif o’z asarini Amir Temur sultanati haqida forsiy tilda yozilgan tarixiy manbalarga tayangan holda yozgan. Asar 47 doston (bob)dan tarkib topgan. Asarda dastlab Mavarounnahrning Amir Temur davridan oldingi tarixidan so’z boradi, so’ngra shajarasи va kechinmaları bayon qilinadi (tug’ilishidan tortib to vafotiga qadar).

O’zbekistonda “Temurnoma” 1990-yili kirill alifbosiga tabdil etilib, so’zboshi va lug’at tuzilgan holda chop etilgan.

Mustaqillik yillarida O’zbekistonda Amir Temur va Temuriylar tarixiga bag’ishlangan bir nechta to’plamlar ham nashr etildi. Ular orasida 1996-yili sohibqiron Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash munosabati bilan “Amir Temur jahon tarixida” nomli to’plamning to’rt tilda (o’zbek, ingliz, fransuz, rus) chop qilinganligi temurshunoslik tarixida katta yangilik bo’ldi (qayta nashri 2001-yil). Unda tarixda birinchi marta Amir Temurning tarixdagagi o’rni keng ko’lamda o’z ifodasini topgan va xalqaro hamkorlik asosida, O’zbekiston olimlari bilan bir qatorda, Fransiya olimlari ham ishtirot etganlar. Shuningdek, “Amir Temur va Ulug’bek zamondoshlari xotirasida” (1996-yil; lotin alifbosidagi qayta nashri 2009-yil) va “Temuriylar bu nyodkorligi davr manbalarida” (1997), to’plamlarida ham bevosita Temuriylar davri tarixiy manbalaridan tarjima-lavhalar berilgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, mustaqillik sharofati bilan O'zbekistonda Amir Temurning sarkardalik va davlatdorlik faoliyati, fan va madaniyatga homiyligi bilan bog'liq tomonlariga haqqoniy baho berish imkoniy yaratildi, temuriylar tarixiga oid ko'pgina manbalar ilmiy muomalaga kiritildi va bu sohada manbalarni o'zbek tiliga o'girib chop etish yetakchi o'rinn egal-ladi.

### **Temuriylar tarixiga oid manbalar.**

#### **Fasih Ahmad ibn Jaloliddin Xavofiy (1375–1442).**

**"Mujmali Fasihiy"** – ("Fasihiyning qisqa tarixi", 1441-yilda yozilgan) forsiy tilda. Muallif o'z davrining taniqli tarixchilaridan biri, Mirzo Shohrux sultanatida Hirotda tarixnavislik bilan mashg'ul bo'lgan. Asarda dastlab umumiy tarix, so'ngra Temuriylar davriga oid muhim voqealar, tarix (sana) ko'rsatilgan tartibda bayon qilingan.

O'zbekistonda "Mujmali Fasihiy" dastlab rus tiliga o'girilib chop etildi. Mustaqillik yillarida mazkur asardan lavhalar sharqshunos olima Dilorom Yusupova tomonidan o'zbek tiliga o'girilib ikkita to'plamda chop etildi.

**Mirzo Ulug'bek (796–853/1394–1449) "Tarixi arba' ulus"** ("To'rt ulus tarixi") – tarixiy asar, forsiy tilda yozilgan (boshqa bir nomlanishi: "Ulusi arba'yi Chingiziy" – "Chingiziy-larning to'rt ulusi"). Mazkur kitobda uning bir qismi "Shajarat ul-atroq" ("Turk xoqonlarining shajarasi") nomli (muallifi noma'lum) asardan saylanma shaklida olinganligi qayd etilgan.

**"Tarixi arba' ulus"** muqaddima va vetti bobdan iborat bo'lgan. Dastlabki ikki bob qadimiy turkiy sultonlar tarixi, keyingi boblarda esa, Chingizzxon va uning avlodlari (jumladan, yettinchi bobda Chig'atoy ulusi hukmdorlari tarixi berilgan.

"Tarixi arba' ulus" musulmon tarixnavisligi an'anasisiga ko'ra, payg'ambarlar tarixi bayoni bilan boshlanadi. Asarning keyingi qismlarida turkiy sultonlar, mo'g'ul tabaqasi, Chingizzxon sultanati tarixlari berilgan. Keyingi tafsilotlar Chingizzxon avlodlari

hukmronligi tarixi bayoniga bag‘ishlangan va unda Chingizzonning to‘rt o‘g‘li hamda ularning avlodlari hukmdorligi shajarasini xususida so‘z boradi. Xusan, Ugedey-qoon qisqacha tarixi, To‘li va asosan, uning o‘g‘li Halokuxon va ularning avlodlari hukmronlik shajarasini berilgan.

Asarda Dashti Qipchoqni boshqargan Jo‘chi va avlodlari hamda Turonzaminda hukmronlik qilgan Chig‘atoy va avlodlari shajarasini nisbatan mufassal bayon qilingan. Chig‘atoy avlodlari shajarasini Amir Temur tomonidan tayinlangan xon – Sulton Mahmudxon tarixi bilan tugaydi.

Hozirgi vaqtida “Tarixi arba’ ulus”ning faqat qisqartirilgan uchta nusxasi bor: bir nusxa Angliyada, bir nusxa Bankipur shahri kutubxonasida (Hindiston), bir nusxa Harvard universitetida (AQSH). Mustaqillik yillarda O‘zbekistonda Mirzo Ulug‘bekning “Tarixi arba’ ulus” asari, uning Britaniya muzeyi (Angliya) nusxasi (ADD 26190)dan o‘zbek tiliga o‘girilib chop etildi.

**Abdurazzoq Samarqandiy** (to‘la ismi: Kamoliddin Abdurazzoq ibn Jaloliddin Is’hoq Samarqandiy 816–887/1413–1482) – Temuriylar sultanatining XV asrdagi asosiy tarixnavisi, Hirot shahrida yashagan, podshoh devonida mas‘ul vazifalarda ishlagan; 1442–1444-yillarda poytaxt Hirotdan Janubiy Hindistonga jo‘natilgan elchilarga boshchilik qilgan va ushbu sayohat tafsilotini kundalik shaklida yozib qoldirgan.

Asosiy tarixiy asari – “**Matlai sa’dayn va majmai bah-rayn**” (“Ikki saodatli yulduzning chiqishi va ikki dengizning qo‘shilish joyi”) bo‘lib, 1467–1470-yillarda fors tilida yozilgan, ikki jiddan iborat.

Birinchi jild – XIV asrda O‘rta sharq mamlakatlari kechgan jarayonlar tarixi, ikkinchi jild – XV asrda Temuriylar sultanatidagi siyosiy voqealar bayonidan iborat.

“Matlai sa’dayn”ni qo‘lyozma nusxalari ko‘p va dunyoning turli kutubxonalarida mavjud, jumladan, O‘z FA Sharqshunos-

lik instituti qo'lyozmalar fondida ham bu asarning bir nechta qo'lyozma nusxasi saqlanadi. Asar matni pokistonlik sharqshunos olim Muhammad Shafe tomonidan 1933–1949-yillarda La-horda nashr etilgan. Undan anchagini lavhalar ingliz, fransuz, turk, rus tillariga tarjima bo'lgan. Ular orasida salmoqli tarjima fransuz sharqshunosi Katrmerning fransuz tiliga amalga oshirilgan tarjimasidir (1843).

"Matlai sa'dayn"ni o'zbek tiliga tarjima qilishga XX asrning 60-yillarida kirishilgan va "Abdurazzoq Samarqandiy-ning Hindiston safarnomasi" hamda ikkinchi jilddan bиринчи qism (1405–1429-yillar voqealari) o'zbek tilida chop etilgan. Shuningdek, Sharqiy Turkiston tarixiga oid lavhalar rus tiliga tarjima qilingan.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida "Matlai sa'dayn"dan dastlab Temuriylar bunyodkorligiga oid ma'lumotlar, so'ngra asarning ikkinchi jildi to'la o'zbek tiliga o'girilib chop etildi (2008-yil).

**Muhammad ibn Xovandshoh ibn Muhammad (Mir-xond, 1433–1498)** – Temuriylar sultanatidagi taniqli tarixchi olim, Hirotda yashab, Alisher Navoiy homiyligida ijod qilgan. Asosiy tarixiy asari – "**Ravzat us-safo fiy siyrat al-anbiyo va-l-muluk**" ("Payg'ambarlar, podshohlar va xalifalarning tarjimayi holi haqida jannat bog'i"), fors tilida. U muqaddima va yetti jilddan iborat (1467-yil voqealarigacha bo'lib, oxiriga yetkazilmagan). Shu sababdan, mazkur jildni tarixchining nabirasi Xondamir nihoyasiga yetkazgan va voqealar bayonini to 1523-yilgacha bergen. Dastlabki besh jild umumiy tarix va O'rta Sharq mamlakatlarining Amir Temur sultanati davrigacha bo'lgan tarixini o'z ichiga oladi. Oltinchi va yettinchi jilda Temuriylar sultanati tarixi xususida so'z boradi.

"Ravzat us-safo"ning qo'lyozma nusxalari ko'p, turli kutubxonalarda, jumladan, O'zR FA Sharqshunoslik instituti va O'zbekiston Milliy universiteti qo'lyozmalar fondida ham bor.

Asarning matni bir necha marta nashr etilgan: Tehron, 1853–1857; Lakhnav, 1883; Tehron, 1960-yillar.

Asar Turkiyada bir necha marta turk tiliga tarjima qilingan; Xiva xonligida Munis, Ogahiy va Muhammad Yusuflar tomonidan o'zbek tiliga ham o'girilgan (XIX–XX asr boshi); 1737-yili Sharqiy Turkistonda uyg'ur tiliga tarjima qilingan. Asardan lavhalar yevropa tillariga o'girilib chop etilgan.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida “Ravzat us-safo”ning Xorazmda bajarilgan o'zbekcha tarjimasidan lavhalar sharqshunos olim Mahmud Hasanov tomonidan hozirgi o'zbek tiliga tabdil qilindi va u to'plamda nashr etildi.

**Xoja Ahror Valiyning vaqf hujjatlari.** Mazkur hujjatlarning bir qismi O.D. Chexovich tomonidan “Самарканские документы XV–XVI вв.” nomli kitobda nashr qilindi va unda hujjatlarning rus tiliga tarjimasi ham (ilmiy izohlar, muqaddima va ko'rsatkichlar bilan) berilgan.

Ushbu kitobda Xoja Ahror Valiyga tegishli Samarcand, Buxoro, Toshkent, Qashqadaryo viloyatlari va Afg'onistonda joylashgan 400 ta ishlov beriladigan yer mulki, 64 ta qishloq va ularga tegishli ekinzorlar, 30 ta shahar atrofidagi bog'lar, 11 ta shahar hovlilari, o'nlab savdo-hunarmandchilik rastalari (*tim*), hammomlar, tegirmonlar va boshqa mulklar qaydga olin-gan hujjatlar berilgan. Mazkur mulklar madrasalar va masjidlar qurish hamda ularning faoliyati uchun vaqf qilingani ham ta'kidlab o'tilgan.

**Davlatshoh Samarcandiy (1435–1495)** “Tazkirat ush-shuaro” (“Shoirlar zikrida”) 1486-yilda yozilgan, fors tida. Mazkur asarda X–XV asrlarda O'rta Sharq va O'rta Osiyoda, jumladan, Temuriylar davrida yashab ijod etgan shoirlar va ayrim tarixchi olimlar haqida ma'lumotlar hamda ayrim tarixiy lechinmalar ham qayd etilgan.

“Tazkirat ush-shuaro”ni 1900-yili Xivada Muhammad Rafi' o'zbek tiliga o'girgan. Asar matni bir necha marta nashr bo'lgan

(Bombay, 1887; London, 1901; Tehron, 1958). O'zbekistonda mustaqillik yillarida "Tazkirat ush-shuaro"dan ayrim lavhalar o'zbek tilida chop etilgan.

**Xondamir** (to'la ismi: G'iyo'siddin ibn Humomaddin Muhammad; 1475–1535), tarixchi Mirxon'dning nevarasi, Temuriylar tarixchisi, dastlab Hirotda, so'ngra Hindistonda Boburiylar saroyida tarixnavis bo'lib xizmat qilgan. Bir qancha tarixiy asarlar muallifi. Asosiy tarixiy asari – "**Habib us-siyar fi axbor va afroz al-bashar**", 1529-yili yozib tugallangan. Asar uch jiddan iborat; oxirgi jilda Temuriylar sultanatining XV asr ikkinchi yarmi va XVI asr birinchi choragi tarixiy jarayonlari aks etgan.

Asar muhim tarixiy ma'lumotlarni o'z ichiga olganligi tufayli ko'p martalab ko'chirilgan. Shu sababdan, hozirgi vaqtida turli kutubxonalarda uning to'la yoki ayrim qismlarining nusxalari ko'p. Jumladan, O'zR FA Sharqshunoslik instituti fonda "Habib us-siyar"ning to'la qo'lyozma nusxasi mavjud. Asar matni bir necha marta nashr etilgan (Bombay, 1857; Tehron, 1855; 1955). "Habib us-siyar"ning bir qismi eski o'zbek tiliga ham o'girilgan (1860).

O'zbekistonda mustaqillik yillarida D.Yusupova tomonidan Xondamirning ilmiy faoliyatiga bag'ishlangan yirik ilmiy tadqiqot ishi amalga oshirildi.

**Zahiriddin Muhammad Bobur** (1484, Andijon–1530, Agra) – temuriy shahzoda, Mironshoh avlodidan, Umarshayx mirzoning (1483–1530) o'g'li, Boburiylar sulolasiga asos solgan davlat arbobi, tarixchi olim va shoир sifatida tanilgan: bir nechta nazmiy asari bor. Asosiy tarixiy asari – "**Boburnoma**" nomi bilan ma'lum.

"Boburnoma" (boshqacha atalishlari: "Voqi'oti Boburiy"; "Tuzuki Boburiy"), eski o'zbek (chig'atoy) tilida yozilgan memuar shaklidagi tarixiy asar; Temuriylar sultanati tarixining XV asr oxirgi choragi va XVI asr boshlariga oid, shuningdek, Boburiy-

lar sultanatida XVI asr birinchi choragida kechgan voqealardan hikoya qilinadi, asosan, Boburning o‘z ko‘rgan-kechirganlari bayonidan iborat. Uning qo‘lyozma nusxalari Angliya (London) va Hindiston (Haydarobod) kutubxonalarida saqlanadi va asar dunyoning qator tillariga tarjima qilingan, ko‘plab nashrlari mavjud.

O‘zbekistonda “Boburnoma”ning Qozon nashridan (1857) ko‘chirilgan qo‘lyozma nusxalari O‘zR FA Sharqshunoslik instituti fondida saqlanadi. Asarning o‘zbek va rus tillaridagi to‘la ilmiy nashri ham amalgalashirilgan va u bir necha marta qayta chop qilingan. Mustaqillik yillarda “Boburnoma”ning ruscha va o‘zbekcha tarjimalari qayta nashr etildi (1993; 2002).

“Boburnoma” memuar asar bo‘lishi bilan bir qatorda ikki xil mavzu – tarixiy va geografik ma’lumotlari jihatidan ilmiy qimmatga ega.

**Mirzo Muhammad Haydar (1499–1551) “Tarixi Rashidiy”** – forsiy tildagi tarixiy asar, unda Markaziy Osiyo va unga yondosh hududlar tarixi, asosan, Mo‘g‘iliston xonlarining XIV–XVI asr birinchi yarmi oraliq‘idagi hukmdorligi tarixi xususida so‘z boradi; Markaziy Osiyoning sharqiy qismi – Mo‘g‘uliston va Manglay-Sube (Sharqiy Turkiston)ning XV–XVI asr birinchi choragi tarixi nisbatan batafsil berilgan bu mavzu bo‘yicha asar yagona ishonchli manbadir va uning muallifi asarning yozilish sababi xususida quyidagicha bayon qilgan: “Mo‘g‘ullar dasht odamlaridirlar va tarix yozmaganlar, o‘z ajdodlari haqida esa faqat og‘zaki xabarlardan eslaydilar. Hozir to‘qqiz yuz ellik birinchi (1544–1545) yilda (Mo‘g‘iliston va mo‘g‘ullar tarixi to‘g‘risida) og‘zaki ma’lumotga ega odam ham qolmagan. Men ana shu muhim ishga kirishdim, aks holda mo‘g‘ullar tarixi umuman yo‘q bo‘lib ketardi”.

Mirzo Haydar tarixiy asarlarda mo‘g‘ullar tarixi Chingizzon sultanatidan to Tug‘luq Temurxon sultanatigacha yozilganini va undan keyin hech narsa qayd etilmaganini alohida ta’kidlab

o'tgan. Muallifning so'zlariga ko'ra, asar ikki kitobdan iborat: birinchisi – Mo'g'ulistonning XV asrdagi tarixi, ya'ni Tug'luq Temurxon hukmronligidan to Abdurashidxon sultanatigacha, ikkinchisi – muallifning o'z ko'rgan-kechirganlari. Muallif davriga oid mazkur qism memuar uslubida yozilgan va aniq tarixiy voqealarni o'z ichiga oladi. Mirzo Haydar ushbu asarini hijriy 952-yil zulhijja oyining oxirgi kunida (1546-yil, 3-mart) Kashmirda yozib tugatganini aytgan.

Asarning qo'lyozma nusxalari anchagina, jumladan, O'zR FA Sharqshunoslik instituti fondida ham bir nusxasi mavjud. "Tarixi Rashidiy" Yevropada ingliz tiliga o'girilib chop etilgan (London, 1895). O'zbekistonda mustaqillik yillarda mazkur asar O'zR FA Sharqshunoslik instituti olimlari tomonidan rus tiliga to'la ilmiy tarjima qilindi va bosilib chiqdi. Asar O'zbekistondagi nashri asosida Qozog'istonda qayta chop etildi (Olmaota, 1999).

**Xitoy tilidagi manbalardan** Xitoyning XIV–XVII asrlar oralig'idagi tarixi ancha mukammal aks etgan solnoma – "Min shi lu" ("Min sulolası imperatorları hukmronligi haqidagi haqqoniy xotiralar")da tarixiy jarayonlar yilma-yil yozilgan bo'lib, unda 1388–1398-yillar oralig'ida Xitoya Mavarounnahrdan ~~to'qqiz~~ marta elchilar kelganligi va shundan 1395-yilgacha bevosita Amir Temur nomidan olti marta elchilar tashrif buyurgani qayd etilgan. Amir Temur va Temuriylar davlatining Xitoy bilan savdo-elchilik munosabatlari tarixi, asosan, xitoy tilida yozilgan xitoy solnomalarida hamda forsiy tildagi Sharq yozma manbalarida qayd etilgan.

Temuriylar davlati bilan Xitoy o'rtaasidagi keyingi yillardagi elchilik munosabatlari ko'proq xitoy diplomatlari Fu An va Chen-Chen nomlari bilan bog'liq. U 1414-yili O'rta Osiyoga elchi qilib jo'natilgan va xitoy manbalarida yozilishicha Chen-Chen jami uch marta Temuriylar davlatiga elchi bo'lib kelgan: 1414–1415; 1416–1418; 1420.

**Savol va topshiriqlar**

1. Amir Temur sultanati tarixi aks etgan dastlabki tarixiy asarning muallifi kim?
2. Amir Temur sultanati tarixiga oid forsiy manbalarni sanab bering va ularni qisqacha sharhlang.
3. Amir Temur sultanati tarixiga oid arab tilida yozilgan manbalarni sanab bering.
4. Amır Temur davlati haqida yozilgan de Klavixoning asari qanday nomlanadi?
5. "Temur tuzuklari" asari to'g'risida ma'lumotlar keltiring.
6. Tarix aks etgan manbalarni sanab bering.
7. Amir Temur davlati xususida ma'lumotlar beruvchi xitoy tilidagi manbalar bo'yicha ma'lumotlar bering.

**Manbalar va adabiyotlar**

1. A. O'rinboyev. Abdurazzoq Samarcandiying Hindiston safarnomasi. – T., 1960.
2. Abdurazzoq Samarcandiyy. Matla'i sa'dayn va majmai bahrayn. II jild birinchi qism, 1405–1429-yillar voqealari; II jild ikkinchi va uchinchi qismlar, 1429–1470-yillar voqealari. Fors tilidan tarjima va izohlar muallifi – Asomiddin O'rinboyev. Geografik nomlar izohli ko'satkichi O.Bo'riyev tomonidan tuzilgan. – I, II jiddlar. – T.: "O'zbekiston", 2008.
3. Amir Temur ajdodlari. (Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asaridan terma-tarjimalar). Fors tilidan tarjima, kirish so'z va izohlar muallifi Omonullo Bo'riyev. – T., 1992.
4. Amir Temur jahon tarixida. Mualliflar jamoasi. – T., 1996.
5. Bo'riyev O. Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo tarixiy geografiyasi. – T.: "Mumtoz so'z", 2017.
6. Ibn Xaldun. "Tarjimai hol"dan. Arab tilidan A.Habibullayev tarjimi. – To'plam: Amir Temur va Ulug'bek zamondoshlari xotirasida. – T., 1996.
7. Karimov G. "Muntaxab at-tavorixi Muiniy" asaridagi turk-mo'g'il harbiy atamalari./To'plam: "Sharqshunoslik", № 6. – T., 1995.

8. Klavixoning Samarqandga sayohati. Rus tilidan tarjima, kirish so'z va izohlar Omonullo Bo'riyevniki. – T.: "Adolat", 2004.
9. *Mirzo Ulug'bek*. To'rt ulus tarixi. Forsiy tildan B.Ahmedov, N. Norqulov, M. Hasaniy tarjimasi. Mas'ul muharrir, kirish so'z va izohlar muallifi B. Ahmedov. – T., 1994.
10. *Muiniddin Natanziy*. Muntaxab ut-tavorixi Muiniy (Muiniy tarixlari tanlanmasi). Fors tilidan tarjima, so'z boshi va izohlar muallifi: G'ulom Karimi. Ilmiy-ommabop nashr. – T.: "O'zbekiston", 2011.
11. *Nizomiddin Shomiy*. Zafarnoma. Fors tilidan o'giruvchi-Yunusxon Hakimjonov. Tarjiman qayta ishlab nashrga tayyorlovchi va mas'ul muharrir – A. O'rinoiboyev. Izohlar va lug'atlar tuzuvchi-Habibullo Karomatov (geografik nomlar izohi – O.Bo'riyevniki). Hofizi Abruning *Nizomiddin Shomiy* "Zafarnoma"siga yozgan "Zayl"i – ("Ilova")ni forsiydan o'giruvchi va izohlarini tuzuvchi – Omonulla Bo'riyev. – T.: "O'zbekiston", 1996.
12. Самаркандские документы XV–XVI вв. (О владениях Ходжи Ахрара в Средней Азии и Афганистане). Факсимиле, критический текст, перевод, введение, примечания и указатели О.Д. Чехович. – М.: Наука, 1974.
13. *Стори Ч.А.* Персидская литература. – М., 1972.
14. "Temurnoma" (Amir Temur ko'ragon jangnomasi). Nashrga tayyorlovchi, so'zboshi va lug'at muallifi Poyon Ravshanov. – T., 1990.
15. Temur tuzuklari. Forschadan A. Sog'uniy va H. Karamatov tarj.; B. Ahmedov tahriri ostida (so'zboshi va izohlar B. Ahmedovniki). – T., 1996.
16. *Sharafiddin Ali Yazdiy*. Zafarnoma. Movarounnahr voqealari. 1360–1370-yillar. Fors tilidan tarjima va ilmiy izohlar muallifi O. Bo'riyev. Mas'ul muharrir, nashrga tayyorlovchi va so'zboshi muallifi A.O'rinoiboyev. – T., 1994.
17. *O'rinoiboyev A., Bo'riyev O.* G'iyosiddin Naqqoshning Xitoy safarnomasi. – T., 1991.
18. *Hofizi Abru*. "Zubdat at-tavorix"dan: "Hazrat Sohibqironning mo'tabar nasl-nasabi haqida" (O. Bo'riyev tarjimasi). – To'plam: Amir Temur va Ulug'bek zamondoshlari xotirasida. – T., 1996.

## XONLIKALAR DAVRI (XVI–XVII ASRLAR) TARIXIGA OID MANBALAR VA ASARLAR

### 8-MAVZU: MAHALLIY YOZMA MANBALAR VA ASARLAR

*Orta Osiyoning XVI–XVII asrlar tarixiga oid manbalar: fors-tojik tilidagi manbalar: Mulla Shodiy “Fathnoma”, Fazlulloh ibn Ro’zbexon “Mehmonnoma-yi Buxoro”, Xondamir “Habib as-siyar”, Zahiriddin Bobur “Boburnoma”, Zayniddin Vosifiy “Badoe’ ul-vaqoe”, Mirzo Muhammad Haydar “Tarixi Rashidiy”, Höfiz Tanish Buxoriy “Sharafnama-yi shohiy” (“Abdullanoma”), Mahmud ibn Valiy “Bahr al-asror”, Mir Muhammad Amin Buxoriy “Ubaydullanoma”, Xoja Samandar Termiziyy “Dastur al-muluk”, Muhammad Yusuf Munshiy “Tarixi Muqimxoniy”, Abdurahmon Davlat “Tarixi Abulfayzxon”.*

**O’rta Osiyoning XVI–XVII asrlar tarixiga oid manbalar: fors-tojik tilidagi manbalar. Mulla Shodiy (1447 yilda tug‘ilgan) “Fathnoma” asari.** Hayoti va faoliyatiga oid ma’lumotlar juda kam. Shayboniyxonning inisi Mahmud Sulton xizmatida bo’lganligi va uning topshirig‘i bilan o’zining “Fathnoma” dostonini yozganligi, mazkur asarni tamomlagan yili (1502)-55 yoshda bo’lganligi ma’lum, xolos.

“Fathnoma” fors tilida yozilgan tarixiy poema bo’lib, unda Shayboniyxon tavalludidan (1451) to ko’chimanchi o’zbeklar tomonidan Samarqandning istilo etilishigacha (so’nggi marta 1501-yil iyun oy) Dashti qipchoq, Xorazm va Movarounnaharda sodir bo’lgan asosiy ijtimoiy-siyosiy voqealar talqin etiladi.

Asarda ayniqsa Abulxayrxon vafotidan (1468) keyin ko'chmanchi o'zbeklar davlati—Dashti qipchoqda yuz bergan voqealar keng yoritilgan. Ushbu ma'lumotlarga ko'ra, undan keyin Shayboniylardan Arabshohning avlodni Yodgorxon taxtni egallagan. Ushbu xon davrida yuz bergan voqealar orasida Sirdaryo bo'yida joylashgan Qoratu nomli mavzesida ko'chmanchi o'zbeklarning Yunusxon mo'g'illari o'rtaсидагиjanglari batafsil yoritilgan. Ushbu jang hijriy 877-yilning qishida (1472–1473) sodir bo'lgan. Abulhayrxonning o'g'li va taxt vorisi Shayx Haydarxonga kelsak, u Mulla Shodiyning ma'lumotiga ko'ra, ota taxtiga Yunusxonдан keyin o'tirgan. XV–XVI asrlar Xorazm toponomikasiga doir nihoyatda muhim ma'lumotlar keltirilgan. Ayniqsa uning Urganch, Vazir va Adoq singari shaharlari, Dashti qipchoqning aholisi, xususan mang'itlarning turish-turmushi, shuningdek, Shayboniyxon askarlarining Turkiston, Andijon, Buxoro, Dabusiya va Qarshi viloyatlarida qilgan yovuzliklari haqida qimmatli ma'lumotlar bor.

Asarda mo'g'il – Temuriylar munosabatlariga (Toshkent mo'g'il hukmdori Sulton Maxmudxon va Samarqand Temuriylar o'zaro munosabatlariga) katta e'tibor qaratilgan.

Ushbu va boshqa ma'lumotlar hech qanday shubhasiz, mulla Shodiyning "Fathnoma"sini O'rta Osiyo va Qozog'istonning XV asr ikkinchi yarmi–XVI asrning boshini yoritadigan qimmatli birlamchi manbalar qatoriga qo'yadi.

Asar to'la ravishda bironta tilga tarjima qilinmagan. Uning qo'lyozma nusxalari ko'pgina mamlakatlarning kutubxonalarida saqlanib kelmoqda: ikki nusxasi Sankt-Peterburg universitetining kutubxonasida, yana bir nusxasi Dushanbeda (Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida) va bittasi Toshkentda (O'zR FA Sharqshunoslik institutida) saqlanadi. Ushbu nusxa (inv. № 5369) juda qimmatli bo'lib, XVI asrda ko'chirilgan va turli sujetdagi 9 nafar ajoyib miniatyura bilan bezatilgan.

**Fazlulloh ibn Ro'zbexonning "Mehmonnomma-yi Buxoro".** XV asrning oxiri va XVI asrning birinchi chora-gida o'tgan yirik olim. To'liq ismi: Fazlulloh ibn Ro'zbexon al-Isfahoni (1457–1521) bo'lib, ko'pincha, xoja Mullo nomi bilan mashhur. Ro'zbexon 1457-yili Fors viloyatining (Eron) Xunni qishlog'da tug'ilgan. Otasi Jaloluddin Ro'zbexon yirik ilohiyot va fiqh olimi hamda mansabdar bo'lgan. Fazlulloh ibn Ro'zbexon asosiy ma'lumotni Isfahon maktablari va madrasalarida oldi, so'ng bilimini yanada kengaytirish va chuqurlashtirish maqsadida ikki marta (1474–1482) Arabisonga bordi va yirik ilohiyot olimi shayx Jamoluddin Ar-dastoniy (vafoti 1474) hamda misrlik mashhur tarixshunos va tilshunos olim Shamsuddin Muhammad as-Sahaviydan (1427–1497) ta'lif oldi.

Xullas, Fazlulloh Ro'zbexon o'rta asr fanining birmuncha sohalarini, xususan, ilohiyot, fiqh, falsafa, tarix va sharq adabiyyotini keng va chuqur egallagan olim bo'lib yetishdi. Bu hol uning talaygina hukmdorlar saroyida zo'r e'tibor qozonishiga sabab bo'ldi. Ro'zbexon Sulton Yaqub Oq quyunlu, Sulton Xu-rayn Boyqaro (1470–1506), Shayboniyxon va nihoyat, Buxoro hukmdori Ubaydullaxon (1533–1539) saroyida xizmat qildi. Eng muhimi, u bu sohalar bo'yicha birmuncha yirik ilmiy asarlar yozib qoldirdi.

"Halli tajarrid" ("Abstraksiyaning hal etilishi"), "Ta'liqot bar muxolot" ("Aqlga sig'maydigan (narsalar)ning izohi"), "Badli'uzzamon fi qissa-yi Xayy ibn Yaqzon" ("Hayy ibn Yaqzon" qissasida zamon badi'alari"), "Tarixi clamorayi Aminiy" ("Aminiyning jahonga bezak bo'lувчи tarixi"), "Abtol nahj al-botil va kashf al-o'til" ("Noto'g'ri yo'ldan voz kechish va bid'atni inkor etish"), "Suluk al-muluk" ("Podshohlarning xulq-atvori haqida (risola)", sharhi "Qasida-yi burda al-Busiriy" ("al-Busiriyning" (payg'ambarning) jandası risolasining sharhi"), "Mehmonnomma-yi Buxoro" shular jumlasidandir.

O'rta Osiyo va Qozog'istonning XV asrning ikkinchi yarmi va XVI asr boshlaridagi tarixini o'rganishda Ro'zbexonning "Mehmonnomma-yi Buxoro" asari zo'r qimmatga ega. Mazkur asar 1509-yilning fevral-sentabr oylari orasida yozib tamomlangan.

"Mehmonnomma-yi Buxoro" Shayboniyxonning 1509-yil qish oylarida qozoq sultonlari Jonish sulton, Ahmad sulton va boshqalarning ulusi ustiga qilgan bosqinchilik yurishi tarixini bayon etadi. Bu yurish Ro'zbexon keltirgan ma'lumotlarga qaraganda, mazkur sultonlarning 1508-yilning kuzida va 1508–1509-yilning qish oylarida Movarounnahrning o'troq rayonlari ustiga qilgan talonchilik hurujiga javoban qilingan. Ro'zbexon bu yurishda shaxsan ishtirok etgan, yuz bergan voqealarning ko'pchiligini o'z ko'zi bilan ko'rgan, ba'zilarini esa xon va uning yaqin kishilaridan xonlarining kelib chiqishi hamda ularning o'zaro munosabatlari haqidagi voqealar esa Shayboniyxon qo'lida bo'lgan "Nasabnama" ("Tarix-i xumoyun" deb ham ataladi) asosida yozilgan.

Asarning qimmati shundaki, unda Dashti qipchoq, Turkiston va qozoq ulusining geografik holati, o'zbek va qozoqlarning kelib chiqishi, etnik tarkibi, turish-turmushi, urf-odati, shuningdek, feodalarning xo'jaligida qo'l mehnatidan foydalanish hollari haqida benihoyat qimmatli ma'lumotlar uchraydi.

Mazkur asar Shayboniyxon va ko'chmanchi o'zbek feodalining maqsad va manfaatlarini ko'zlab yozilgan. Masalan, Ro'zbexon Shayboniyxonning qozoq ulusi ustiga qilgan bu bosqinchilik yurishini g'ayridinlarga qarshi qilingan g'azot, deb ataydi va bu bilan uning yovuzliklarini oqlamoqchi bo'ladi. Shuning uchun ham asar va unda keltirilgan materialdan foydalanganda uning mana shu tomoniga e'tibor berilishi zarur.

"Mehmonnomma-yi Buxoro"ning qo'lyozma nusxalari kam. Hozirgacha uning faqat uch nusxasigina aniqlangan, xolos. Ulardan biri avtograf bo'lib, O'zR FA Sharqshunoslik institu-

tida (inv. №1414), ikkinchisi undan nusxa bo'lib (inv. №5885), u ham ushbu institutda saqlanmoqda. Uchinchisi Turkiyada, "Nuri Usmoniya" kutubxonasidadir (inv. №3431). Asarning matni, keyingi nusxa asosida, eronlik mashhur sharqshunos olim Minuchehr Setude tarafidan 1962-yilda Tehronda chop etilgan. "Mehmonnoma-yi Buxoro"ning qisqartirilgan ruscha tarjimasi 1976-yili R.P. Jalilova tomonidan nashr etilgan.

**Xondamirning "Habib as-siyar" asari.** Hirotlik tarixchi Xondamir (to'liq ismi G'iyosiddin Muhammad ibn Xoja Xumomuddin ibn Xoja Jaloluddin Muhammad ibn Burhonuddin) (1473/1476–1534) o'z asarlari bilan XVI asr boshlarida fan taraqqiyotiga kirib kelgan allomalardandir. Uning hayoti, ijodi haqida o'z asarlaridagi, zamondoshlari yozib qoldirgan oz-moz ma'lumotlardan tashqari, deyarli boshqa ma'lumot yo'q.

Ona tomonidan u "Ravzat us-safo" ("Musaffolik bog'i") muallifi, mashhur tarixchi Mirxondning nabirasi bo'lgan. Otasi Xoja Xumomuddin Muhammad ibn Xoja Jaloluddin Muhammad ibn Xoja Burhonuddin Muhammad Sheroyi o'z zamonasining ziyoiliaridan edi va Sulton Mahmud Mirzo Temuriyning (Hisori Shodmon va Badaxshonda hukmronlik qilgan) vaziri bo'lgan.

Xondamir Hirot shahrida tug'ilgan va o'sha yerda ta'lim olgan bo'lsa kerak, deb taxmin qilinadi. U tarix, adabiyot va inshoni puxta egallab, o'z zamonasining yirik olimi sifatida nom qozongan tarixchidir.

Xondamirning olim sifatida shakllanishida ma'rifatparvar shoir Mir Alisher Navoiyning hissasi katta bo'lib, u bo'lajak olimga, o'zining juda boy kutubxonasidan foydalanishga ruxsat bergen va shu bilan birga ilmiy ishlariga rahbarlik qilgan.

Tarixchining o'zi haqida keltirgan ma'lumotlardan shu narsa ma'lumki, u yoshlik chog'idayoq Navoiy qo'liga kelgan, dastlab uning kutubxonasida kutubxonachi, keyinroq esa mudir bo'lib ishlagan.

Alisher Navoiy vafotidan so'ng, Xondamir Xurosondagi siyosiy voqealar girdobiga tushib, dastlab Balxga Sulton Husayn Boyqaroning to'ng'ich o'g'li Badiuzzamon Mirzo saroyida xizmat qiladi. Ayni shu paytda Badiuzzamon Qunduz hokimi Xisravshohni Shayboniyxon (1500–1510) lashkari tomonidan kutilayotgan hujumdan Xurosonni himoya qilishda ishtirok etishga og'dirish orzusida yuborilgan elchilar qatoriga Xondamir ham qo'shilib, shaxsan o'zi Badiuzzamonning maxsus topshirig'ini bajardi. Shu davrda unga "sadr" unvoni berilgan.

Xondamir biroz fursatdan so'ng yana Badiuzzamon topshirig'iga binoan Shayboniyxonga qarshi tuzilgan ittifoqqa Qandahor hokimini birlashtirish maqsadida u yerga jo'natildi. Ammo Badiuzzamon qizining vafoti tufayli Xondamir safarni to'xtatib, Hirotg'a qaytishga majbur bo'lgan va 1506-yili Shayboniyxon Hirotning zabit etishini shohidi bo'lgan hamda Xuroson markazi Hirotni topshirishdagi shartlarni ishlab chiqishda ishtirok etgan.

Sulolalar hukmronligi o'zgargandan so'ng, Xondamir Temuriylar sulolasining tarafdoi bo'lganligi bois, Hirotdan ketishga qaror qiladi va 1507-vildan to 1510-yilgacha Shimoliv Afg'onistonidagi Dasht qishlog'ida ijod bilan shug'ullanadi. Hirot taxtiga Safaviylar sulolası, uning asoschisi Shoh Ismoil (1407–1424) kelishi bilanoq, 1510-yili Xondamir Hirotg'a qaytib keladi. Shoh Ismoil vafotidan so'ng (1527) Hirotdan butkul yuz o'girib, Qandahorga, 1528-yili u yerdan Boburiylar poytaxti Agraga (Hindiston) Zahiriddin Muhammad Bobur huzuriga o'tadi.

Xondamir Agraga kelgach, Boburning yaqin odamlari qatoridan joy oladi va 1529-yili Boburni Bengaliya va Gang daryosi sohili tomon qilgan yurishi paytda kuzatib boradi. Bobur vafotidan so'ng, uning vorisi Humoyunning (1530–1559) xizmatida bo'lib, 1534-yili u bilan birga Gvaliorda bo'ladi va Gujoratga qilgan yurishida qatnashadi. Ayni vaqtida, u "Hu-

moyunnomalar” asarini yozadi va bu xizmati uchun “Amir al-muarrixin” (“Tarixchilar amiri”) unvoniga sazovor bo’ladi. Xondamir 1534-yili Humoyun bilan Manduga qaytib kelayotganda vafot etadi. Uning vasiyatiga ko’ra, jasadi Dehlidagi qabristonga—Nizomiddin Avliyo, shoir Xusrav Dehlaviylar yoniga dafn etiladi.

Xondamirning ikki farzandi – birining ismi Amir Mahmud, ikkinchisi Sayyid Abdulxon bo’lgan. Amir Mahmud Shoh Ismoil va Shoh Taxmasp (1524–1576) hukmronlik qilgan davr tarixini yoritgan asar muallifi bo’lib, asar Muhammadxon Sharafuddin Takaliyga bag’ishlangan.

Xondamir butun umri davomida, taxminan o’n uchta asar yozgan bo’lsa, bizgacha sakkiztasi yetib kelgan: “Ma’osir ul-muluk” (“Hamasr podshohlarning tarixi”), “Xulosat ul-axbor fi bayon ul-ahvol ul-ahyor” (“Xayrli kishilar ahvolini bayon etish borasida xabarlar xulosasi”), “Makorim ul-axloq” (“Olijanob xulqlar”), “Dastur ul-vuzaro” (“Vazirlar uchun qo’llanma”), “Nomai nomi” (“Atoqli nomalar”), Mirxondning “Ravzat us-safo fi sirat ul-avliyo va-l-muluk va-l-xulafo” (“Xalifalar, podshohlar, avliyolar hayotiga oid musaffolik bog’i”) asariga Xondamir tomonidan 1522-yilda yozib tugatilgan ilova (7-jild) va “Jo‘g’rofif qo’shimcha” qismlari, “Habib us-siyar” (to’liq nomi: Habib us-siyar fi axbor afrod ul-bashar” – “Inson xabarlari va fardlarida do’stning tarjimayi holi”) va “Humoyunnomalar” nomli asarlar shular jumlasidandir.

Xondamirning ilmiy merosida “Habib us-siyar” alohida o’rin tutadi va O’rta Osiyo hamda Xurosonning XV asr oxiri va XVI asrning birinchi choragidagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o’rganishda muhim va qimmatli manbalardan hisoblanadi. Asar 1521–1524-villar orasida yozilgan. Lekin olim Hindistonda turgan yillari ham asar ustida muntazam ish olib bordi: uni yangi faktlar bilan boyitdi, tahrir qildi. “Habib us-siyar” to’la ravishda 1529-yili yozib tamomlandi.

“Habib us-siyar” umumiy tarix tipidagi asar bo‘lib, muqaddima (iftitoh), xotima (ixtitom) va uch jild (mujallad)dan iborat. O‘z navbatida har bir jild to‘rt qismga (juz) bo‘linadi. Asarning I-II jiddlari hamda III jildning 1–2-qismlari Turkiston xonlari, Chingizxon va uning Mo‘g‘iliston, Dashti qipchoq, Movarounnahr va Eronda hukmronlik qilgan avlodni, Mamlyuklar, Kirmon Qoraxitoylari, Muzaffariylar, Luriston, Rustamdar hamda Mozandaron hukmdorlari, Kartlar va Xuroson sarbadorlari tarixini o‘z ichiga oladi. III jildning 3 va 4-qismlari asl bo‘lib, Xuroson va Movarounnahrning XV asrning 90-yillaridan to 1524-yilgacha bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy ahvolini chuqur va atroficha bayon etadi. Xondamir ham hukmron feudal sinfning vakili edi, Shuning uchun ham mehnatkash xalqning og‘ir va ayanchli ahyoli uning diqqat-e’tiboridan chetda qolgan. Shunga qaramay “Habib us-siyar”da feudal ekspluatatsiya, tinimsiz urushlar tufayli xalqning yelkasiga tushgan og‘irliliklar xususida ayrim, diqqatga sazovor faktlarni uchratish mumkin. Masalan, asarda o‘z aksini topgan 1498-yil Samarqand qamali vaqtidagi (ko‘chmanchi o‘zbeklar tomonidan) shahar xalqining ayanchli ahvoli, 1512-yili Qarshi xalqining qizilboshlar va Bobur qo‘smini tarafidan qirg‘in (qatli om) qilinishi, 1514, 1515-yillari Xurosonda yuz bergen ochlik va qahatchilik haqidagi xabarlar shular jumlasidandir. Bundan tashqari “Habib us-siyar”da muhim ijtimoiy-iqtisodiy masalalarga oid, masalan, feudal – yer egaligi, taxxonlar suyurg‘ol egalari va ularning jamiyatda tutgan o‘rni, feudal ekspluatatsiya, Temuriylar davlatining ma’muriy tuzilishi haqida qimmatli ma’lumotlar bor. Shuningdek, asar etnografik va geografik materialga ham boy.

“Habib us-siyar”ning qo‘lyozma nusxalari ko‘p. Asarning matni Bombey (1857) va Tehronda (1954) chop qilingan. Undan ayrim parchalar rus, fransuz va ingliz tillarida e’lon qilingan. “Жизнь и труды Хондамира” nomli D. Yusupova tomonidan 2006-yilda chop etilgan monografiyasida Xondamirning ushbu

asarining tahliliga alohida o'rin ajratilgan. "Habib us-siyar"ning III jildining 3 va 4-qismlarining o'zbek tiliga tarjimasi xalqaro Bobur fondi tomonidan chop etilgan.

**Zahiriddin Muhammad Bobur (1483–1530).** O'rta asr Sharq madaniyati, adabiyoti va she'riyatida o'ziga xos o'rin egallagan adib, shoir, olim bo'lish bilan birga yirik davlat arbobi va sarkarda—Zahiriddin Muhammad Boburdir. Bobur keng dunyoqarashi va mukammal aql-zakovati bilan Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos solib, bu mamlakat tarixida davlat arbobi sifatida nomi qolgan bo'lsa, serjilo o'zbek tilida yozilgan "Boburnoma" asari bilan jahonning mashhur tarixnavis olimlari qatoridan ham joy oldi. Uning nafis g'azal va ruboiylari turkiy she'riyatining eng nodir durdonalari bo'lib, "Mubayin" ("Bayon etilgan"), "Xatti Boburiy", "Harb ishi", aruz haqidagi risolalari esa Islom qonunshunosligi, she'riyat va til nazariyasi sohalariga munosib hissa bo'lib qo'shildi.

Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yilning 14-fevralida Andijonda, Farg'ona ulusining hokimi Umar Shayx Mirzo oilasida dunyoga keldi. Bu davrda Markaziy Osiyo va Xurosonda turli hokimlar, aka-ukalar, tog'a-jiyanlar, amakivachchalar o'rtasida hokimiyat – ulug' bobolari Amir Temur tuzgan yirik davlatga egalik qilish uchun kurash nihoyat keskinlashgan edi. Adabiyot, nafis san'at, tabiat go'zalligiga yoshligidan mehr qo'ygan Bobur, barcha Temuriy shahzodalar kabi bu ilmlarning asosini otasi saroyida, yetuk ustozlar rahbarligida egalladi. Biroq uning betashvish yoshligi uzoqqa cho'zilmadi. 1494-yili otadan yetim qoldi. 12 yoshida otasi o'rniga Farg'ona ulusining hokimi etib ko'tarilgach, Bobur qalamni qilichga almashtirib, Andijon taxti uchun ukasi Jahongir Mirzo, amakisi Sulton Ahmad Mirzo, tog'asi Sulton Mahmudxon va boshqa raqiblarga qarshi kurashishga majbur bo'ldi. Bobur ukasi Jahongir Mirzo bilan murosaga kelish uchun unga yon berishga – Farg'ona ulusini ik-

kiga taqsimlab, yarmini ukasiga topshirishga qaror qildi va o'zi Samarqand uchun olib borilayotgan kurashga kirishib ketdi. Bir necha yil davom etgan bu kurash qirg'in-barotdan boshqa biror natija bermadi: unda katta harbiy kuch bilan aralashgan Shayboniyxonning qo'li baland keldi va Bobur Samarqandni tashlab ketishga majbur bo'ldi. 1504-yili Shayboniyxon Andijonni ham qo'lga kiritgandan so'ng, Bobur janubga qarab yo'l oldi va Qobul ulusida o'z hokimiyatini o'rnatdi.

1511-yilning kuzida Bobur Eron podshosi Ismoil Safaviyning (1502–1524) harbiy yordamiga tayanib Samarqandni egallashga muvaffaq bo'ldi, lekin uning hukmronligi bir yilga ham yetmadi. 1512-yilning bahorida Ko'li malik (Xayrobod va Qorako'l orasida joylashgan mavze) degan joyda bo'lib o'tgan jangda Shayboniylarning (Ubaydullaxon, Muhammad Temur sulton, Jonibek sulton va b.) birlashgan kuchlari uni tor-mor keltirdi. Bobur Hisori Shodmonga qochdi va qariyb ikki yil mobaynida o'sha viloyatda kun kechirdi va 1514-yili yana Qobulga qaytdi. U 1514–1526-yillar orasida Shimoliy Hindistonga, uni bo'yundirish maqsadida besh marta qo'shin tortadi, lekin faqat so'nggi yurishda (1526) u bu boy mamlakatni bosib oldi va tarixda Boburiylar (g'arbda Buyuk mo'g'illar) imperiyasi nomi bilan mashhur bo'lgan feodal davlatga asos soldi. Zahiriddin Muhammad Bobur 1530-yilning 26-dekabrida, 47 yoshida Agra shahrida vafot etdi va keyinroq uning vasiyatiga ko'ra farzандлари hokini Qobulga olib kelib dafn etdilar.

Bobur o'zining ajoyib lirik she'rlari hamda "Boburnoma" nomli ensiklopedik asari bilan tarixda o'chmas nom qoldirdi.

**"Boburnoma" asari.** "Boburnoma" memuar tarzda yozilgan asar bo'lib, unda Farg'ona, Toshkent, Samarqand, Hisori Shodmon, Chag'oniyon, Afg'oniston hamda Shimoliy Hindistonning XV asrning 80–90-yillari va XVI asrning birinchi choragidagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli yoritilgan. Bundan tashqari, asar geografik hamda etnografik faktlarga (Farg'onaning turk-

mo'g'il qabilalari, ko'chmanchi o'zbeklar qo'shinining tuzilishi, Movarounnahr, Afg'oniston va Hindiston xalqlarining urf-odati va hokazolar) ham juda boy.

"Boburnoma" ko'p marotaba nashr etilgan. Uning tanqidiy matni I.N. Ilminskiy (1857) va A. Beverij (1905) tomonidan chop etilgan. Hozirgi o'zbek imlosida (1960, 1982) nashr qilin-gan. Uning forsiycha (1589), inglizcha (1826, 1921), fransuzcha (1871, 1986), turkcha (1943–1946) hamda rus tiliga (1958, 1982) qilingan tarjimalari ham bor. 1995–1996-yillarda yaponiyalik olim Eyje Mano "Boburnoma" matnini nashr etdi. Asardan ay-rim parchalar Rossiya va xorijiy mamlakatlarda chop etilgan. Asarning qo'lyozma nusxalari bizgacha kam yetib kelgan. O'zR FA Sharqshunoslik institutida uning ikki nusxasi saqlanib kel-iniqda.

**Zayniddin Vosifiyning "Badoe' al-vaqoe"** asari. XV asrning oxiri va XVI asrning birinchi yarmida o'tgan adib va olim Zaynuddin Vosify to'liq ismi: Zaynuddin Mahmud ibn Abdujamol bo'lib, 1485-yili Hirotda tug'ilgan. Otasi o'ziga tinch va ma'lumotli kishi bo'lib, Sulton Husayn saroyida kichik lavozim-lardan birini (munshiy yoki voqe'anavis) egallagan.

Zaynuddin Vosify yaxshi o'qidi, ilohiyot, tarix, adabiyot va boshqa ilmlarni chuqur egalladi. 16 yoshida qarindoshi va Hirotdning taniqli kishilaridan bo'lgan amir Sohibdoroning yordami orqasida Alisher Navoiy bilan yaqindan tanishishga tuyas-sar bo'ldi. U 1500–1502-yillari hirotlik nufuzli amir Shohvali ko'kaltoshning xonadonida muallimlik qildi. 1502–1507-yillari Sulton Husayn mirzoning o'g'illaridan Faridun Husayn kutubxonasida kitobdorlik (kutubxonachilik) mansabida ishladi. 1507–1511-yillari Vosify Shohrux mirzo madrasasida Xurosonda ko'zga ko'ringan ilohiyat olimi Imodiddin Ibrohimdan ta'lim oldi.

Vosify Xurosonda Safaviylar hukmdorligi o'rnatilishi (1551) va sunna mazhabidagi musulmonlarni ta'qib etish kuchayib ketganligi tufayli 1512-yilning 17-aprelida bir guruh ruhoniy-

lar (sayyid Shamsuddin Kurti, Amir Husayn va b.) bilan birga Movarounnahrga ketib qoldi va umrining oxirigacha shu yerda istiqomat qildi. Vosify Movarounnahr va Turkistonning ko'pgina shaharlarida (Samarqand, Buxoro, Yasi, Savron, Shohruhiya, Toshkent va b.) istiqomat qildi va mudarris, imom, tarbiyachi (masalan, Suyunchixonning kichik o'g'li Navro'z Ahmadxonning tarbiyachisi bo'lib ishladi). Shohruhiyada bo'lgan yillari esa Keldi Muhammadxon hukumatida qozi askarlik lavozimida xizmat qildi. Vosify 1551-yili Toshkentda vafot etdi va mashhur Xasit Imom mozoriga dafn etildi.

Zaynuddin Vosify "Badoe' al-vaqoe'" ("Nodir voqealar") nomli memuar asari bilan shuhrat qozondi. Asarda 1512–1532-yillar orasida muallifning Xuroson va Movarounnahrda ko'rgankechirganlari zo'r mahorat va yuksak san'at bilan bayon etiladi. "Badoe' al-vaqoe'"da Movarounnahrning XV asrning oxiri va XVI asrning birinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotiga oid qimmatli ma'lumotlar ko'p. Asar 1535–1539-yillari yozib tamomlangan.

"Badoe' al-vaqoe'" asosan ikki qismdan iborat. Uning birinchi qismi (11 bobdan iborat) Vosifiyning Hirotdan qochib chiqishidan (1512) to uning Shohruhiyaga Keldi Muhammadxon saroyiga kelguniga qadar (1518) Xuroson va Movarounnahrda bo'lib o'tgan voqealarni o'z ichiga oladi. Ikkinci qismda Vosifiyning mazkur xon saroyida tez-tez bo'lib turadigan adabiy yig'inlar haqidagi esdaliklari joy olgan.

"Badoe' al-vaqoe'"ning qo'lyozma nusxalari ko'p. Birgina O'zR FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar xazinasida mazkur asarning yigirmata nusxasi saqlanmoqda. Asarning tanqidiy matni Sankt-Peterburglik yirik sharqshunos olim A.N. Boldirev tomonidan 1961-yili chop qilingan. U Xorazmda 1826 va 1907-yillarda Dilovarxoja va Muhammad Amin to'ra tomonidan eski o'zbek tiliga (Xorazm lahjasida) tarjima qilingan. Ayrim parchalar rus tilida A.N. Boldirev va V.P. Yudin

tarafidan e'lon qilingan. "Badoe' al-vaqoe'"ning ayrim qismlari Naim Norqulov tomonidan hozirgi o'zbek tiliga tarjima qilingan va 1979-yili nashrdan chiqqan.

**Mirzo Muhammad Haydarning "Tarixi Rashidiy" asari.** Mirzo Muhammad Haydar Dug'lot (1499–1551). Markaziy Osiyoning XVI asrdagi atoqli muarixi, adibi va davlat arbobi bo'lib, mashhur "Tarixi Rashidiy" asarining muallifi sifatida tarix sahifalaridan mustahkam o'rin olgan. Adabiyotda ko'pincha Mirzo Haydar ismi bilan ataladi. Uning ota-bobolari (O'rtubu, Po'lodchi, Xudaydod, Sa'id Ahmad, Sa'id Ali, Sonsiz Mirzo, Muhammad Haydar, Muhammad Husayn) XIV–XVI asrlarda Mo'g'ulistonda hukm surgan turklashgan mo'g'ul urug'laridan dug'lot (mo'g'. "dog'lot"—cho'loq) qabilasiga mansub bo'lib, Mo'g'uliston xonlari (Chig'atoiylar) davrida ulusbegi, Qoshg'ar viloyatining hokimi lavozimlarda turganlar hamda Chig'atoy xonlari tomonidan in'om etilgan imtiyozlarga va tarxonlik unvoniga ega bo'lganlar.

Mirzo Haydarning otasi Muhammad Husayn Mo'g'uliston xoni Sulton Mahmudxon (1487–1503) bilan yaqin munosabatda bo'lib, 1493-yili uning singlisi Xo'b Nigor xonim Yunusxonning kichik qiziga uylangan va ko'ragon (xon kuyovi) unvonini olgan. Muhammad Xusayn bir vaqtlar Andijonda Umar Shayx mirzo, so'ngra Toshkent hokimi Sulton Mahmudxon (1487–1503) xizmatida bo'lgan.

U 1495–1503-yillari ana shu Sulton Mahmudxon nomidan O'rategani idorat qilgan. Shu bilan birga bir necha yil Toshkentda Sulton Mahmudxon huzurida yashagan va Mirzo Haydar bu shaharda hijriy 905 (1499-yil, avgust – 1500-yil, iyul)-yilda tavallud topgan. Yunusxonning o'ttancha qizi – Qutluq Nigor xonim Zahiriddin Muhammad Boburning onasi ekanligi bilan Mirzo Haydar Boburga qarindosh bo'la (xolavachcha)dir.

1503-yili Mahmudxon Axsida Shayboniyxon lashkari bilan jundga mag'lubiyatga uchragach, Muhammad Husayn O'rategani lashlab Qorateginga, u yerdan Qobulga Zahiriddin Muham-

mad Bobur huzuriga boradi. 1506-yili Bobur Xurosonga ketgan vaqtida Muhammad Husayn hukumatni egallahsga qasd qilgan kishilar bilan birlashadi. Ammo bu urinish natijasiz chiqadi. Bobur qaytib kelgach, garchi gunohidan o'tgan bo'lsa-da, Muhammad Husayn endi bu yerda turolmaydi va Farg'onaga jo'naydi. 1509-yili u Shayboniyxon buyrug'i bilan qatl qilinadi.

Otasini Shayboniyxon qatl etgan vaqtida 9 yashar bola – Mirzo Haydar o'z murabbiysi Mavlono Muhammad bilan Buxoroda, Ubaydullaxon nigohida bo'lgan huzurida edi. Shayboniyxon uni ham qatl etish uchun Buxoroga maxfiy odamlar yuboradi. Buni payqagan murabbiy Mavlono Muhammad turli hiylalar bilan ularni chalg'itib, darvesh kiyimda bolani shahardan olib chiqib ketadi. Ular Badaxshonga, Mirzoxon (1507–1521) oldiga keladilar. Buni eshitgan Bobur Mirzoxonga xat yozib, uning viloyati Shayboniyxon xavfida emasligini aytib, Qobulga yuborishni tab lab qiladi.

Mirzo Haydar Qobulda, 1509–1512-villarda Bobur saroyida istiqomat qiladi. Undan 17 yashar katta bo'lgan Bobur Mirzo Haydarga otalarcha g'amxo'rlik ko'rsatadi, tarbiyalaydi, bilim, hunar o'rgatadi. Boburning ko'rsatgan g'amxo'rligi haqida Mirzo Haydar o'z asari "Tarixiy Rashidiy"da chuqur minnatdorchilik bildirib, bir necha bor eslab o'tadi.

1512-yili Mirzo Haydarning amakisi, Mo'g'uliston xoni Sulton Sayyidxon uni Boburdan so'rab oladi. Mirzo Haydar avval Andijonga, Sayyidxon huzuriga, so'ngra esa Sayyidxon Qoshg'arga jo'naydi va to Sayyidxon vafot etguniga qadar (1533) uning xizmatida bo'ladi. Unga, "Tarixi Rashidiy"da ay tilganidek, butun lashkar va davlat ishlarini boshqarishda va barcha boshqa ishlarda cheksiz ishonch bildirib, shularning barchasini topshirib qo'ygan". Hatto o'z o'g'li Abdurashidni tarbiya qilishni ham Sayyidxon Mirzo Haydarga ishongan edi.

Hayotining ko'p qismi xuddi Boburnikidek tinimsiz safarlar va harbiy yurishlarda o'tganligiga qaramay, Mirzo Haydar

o'z davri uchun yuqori darajada bilim olishga muvaffaq bo'lgan edi. Chunonchi, Mirzo Haydarning chuqur bilimli, barcha hunarlardan xabardor, yuksak qobiliyatli ekanligini Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma"da qayd qilib o'tgan: «Otasini Shayboniyxon olturgandan so'ng Kobulga kelib mening mulozimatimda uch-to'rt yil turib, so'ng ijozat tilab Koshg'arga (Sulton Sayyidxon) qoshiga bordi... Bu tarixda (ya'ni, "Boburnoma" yozilayotgan 1525–1530-yillar orasida) deydurlarkim, toyib bo'lub, yaxshi tariqa paydo qilibtur. Xat va tasvir va o'q va payxon va zihgir-har nimaga ilmki chaspondur. Tab'i nazmi ham bordur. Manga arzidosht qilib erdi, inshosi ham yomon ermas» ("Boburnoma", – T., 1960, 68-bet).

Haqiqatan ham "Tarixi Rashidiy"ni o'qir ekanmiz, mualif Mirzo Haydar o'zining hayotiy-falsafiy mulohazalari, o'z davri ma'naviy-madaniy tushunchalari haqida so'zlaganida aytib o'tgani – o'zi o'qigan oltmishdan ortiq asarlarni nazarga olsak, aytish mumkinki, tarixnavisning bilim doirasi o'z davrining yuksak ma'rifatli, bilimli kishilarini qatorida bo'lgan. Chunonchi mazkur asarlar mazmuniga ko'ra, Mirzo Haydar tanish bo'lgan quyidagi sohalarni sanab o'tish mumkin: tarix, adabiyot va she'riyat nazariyasi (aruz, muammo, insho san'ati), jug'rofiya, astronomiya, tasavvuf, fiqh, Islom dini tarixi, falsafa, arab grammatikasi va hokazo. Asarda keltirilgan Temuriylar, ayniqsa, Alisher Navoiy doirasidagi adabiy-ma'naviy hayot haqidagi ma'lumotlar esa mukammalligi bilan Mirzo Haydarning o'zi ham shu davr ilmiy-madaniy va adabiy an'analarini bo'yicha tarbiya olganlikni bildiradi.

Sulton Sayyidxon xizmatida ekanligida Mirzo Haydar Badaxshon, Kofiriston, Tibet, Kashmirga bir necha harbiy yurishlarni boshqargan.

Sulton Sayyidxon 1533-yili vafot etdi. Uning o'g'li Abdurashidxon taxtga o'tirgach, u dug'lot amirlarini davlat ishlardan chetlata boshladи. Dastlab u ko'p yillar davomida Sulton

Sayyidxon qoshida davlatning ikkinchi shaxsi hisoblanib, ulusbegi mansabini egallab turgan Mirzo Haydarning amakisi Sayyid Muhammad Mirzoni qatl etdi. Bu vaqtida Tibetda harbiy yurishda bo'lgan Mirzo Haydar bundan voqif bo'lib, Mo'g'ilistonga qaytishga jur'at qilolmay, bir qancha vaqt Badaxshonda yurdi, so'ng u yerdan Lohurga Boburning o'g'li Komron Mirzo huzuriga, 1539-yili esa Agraga, Xumoyun xizmatiga bordi.

Muhammad Haydar 1541-yili, Xumoyunning harbiy yordami bilan Kashmirni bo'ysundirdi va u yerda qariyb 10 yil hukmronlik qildi. U 1551-yili tog'lik qabilalar bilan to'qnashuv vaqtida noma'lum kishilar tomonidan uyushtirilgan suiqasd natijasida halok bo'ldi.

Muhammad Haydar zamonasining o'qimishli va keng ma'lumotli kishilaridan edi. Boburning guvohlik berishiga qaraganda, Muhammad Haydar durustgina shoir, xattot, rassom, shuningdek, nayza va kamon yasovchi usta bo'lgan.

Ba'zi adabiyotlarda qayd etilishicha (Ch.A. Storining fors adabiyoti tarixiga oid asarida) Mirzo Haydarning "Jahonna" nomli turkiy tilda nazm bilan ertak sujetida bitilgan asari ham bor. Muallif turkiy va forsiy tillarda she'rlar yozganligi "Tarixi Rashidiy"ning o'zida keltirilgan she'riy parchalardan ham ko'rindi hamda Mirzo Haydarning Bobur aytganidek, "ta'bi nazmi ham bo'lganligi"ni isbotlaydi.

"Tarixi Rashidiy"ga kelsak, uni Mirzo Haydar Kashmirda ekanligida, 1541–1546-yillar orasida yozgan. Asarning muqaddimasida aytlishicha, uni yozishdan maqsadi Mo'g'iliston mamlakatining 1347-yili taxtga o'tirgan Tug'luq Temur davridan to muallif zamonigacha to'liq tarixini yaratishdir. U aytadi: "Mo'g'illar islom dinini qabul qilgandan so'nggi davr haqida kichkinagina bo'lsa ham bir tarixiy asar yo'q".

"Tarixi Rashidiy" ikki qismdan iborat, muallif ularni "daf-tar" deb ataydi. Birinchi daftarda Mo'g'iliston va Qoshg'arda hukm surgan Chig'atoy xonlari tarixi, ularidan birinchi bo'lib,

islom dinini qabul qilgan Tug'luq Temurxonidan boshlab, to 1533-yili taxtga o'tirgan Abdurashidxon tarixi izchil ravishda yoritilgan.

Ikkinci daftar 1541–1542-yillarda yozilgan. Unda tarixiy voqealar va muallifning o'z sarguzasht-kechinmalari esdaliklar janrida bayon etilgan. Esdaliklar XV asr oxirlariga oid voqealar dan boshlanib, 1542-yilgacha, ya'ni Mirzo Haydar Kashmirlni zabit etib, shu yerda muqim turib olgan vaqtigacha davom etadi.

Asarning birinchi qismi ikkinchisidan to'rt yil keyin yozilgan. Muallif o'z esdaliklarini yozar ekan, ko'p hollarda voqeabandlik taqozasicha, o'tgan davrlar tarixini eslatib o'tishga to'g'ri kelgan. Bunday tafsilotlar davom etaversa, maqsadni ifodalash chalkashib ketishi muqarrar edi. Shuning uchun muallif ko'pincha esdaliklar orasida "bu haqda birinchi daffarda so'zlaymiz" deyish bilan cheklanib, esdaliklarni davom ettiraverdi va oradan bir qancha vaqt o'tgach, haqiqatdan ham birinchi daftarni yozib, qariyb 200 yillik Mo'g'iliston tarixini yoritadi.

Asarning birinchi qismini yozishda Mirzo Haydar Aloudin Atomalik Juvayniyning "Tarixi jahongo'sho" va Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarlariga tayangan. Chunonchi, sohibqiron Amir Temurning Movarounnahrda mustaqil davlat barpo etishi, uni tashqi tazyiqlardan himoya etishda Mo'g'iliston xoni Tug'luq Temur (1360-yillar), keyinroq esa asli dug'lot amirlaridan bo'lib, hokimiyatni qo'lga olgan Qamariddinga qarshi yurishlari butunlay "Zafarnoma"dan olinadi. Bunday hollarda muallif "Zafarnoma"dan naql deb o'quvchini ogohlantiradi. Juvayniyning "Tarixi jahongo'sho"sidan olingan ba'zi parchalar oldidan ham shunday ogohlantirish beriladi. Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari ham Mirzo Haydar uchun manba vazifasini o'tagan.

Bulardan tashqari, Mirzo Haydar yoshi yuzlarga borib qolgan odamlar, otasidan eshitganlari, amakilari va boshqa

ishonchli zamondoshlarining hikoyalaridan ham manba sifatida foydalanadi. O‘z davri tasavvuf namoyandalarining risolalari, adabiy asarlaridan ham parchalar keltiradi.

Ammo “Tarixi Rashidiy”ning ikkinchi daftarini yozishda muallif asosan o‘z esdaliklariga tayanadi, ularni garchi, ayrim-ayrim sarlavhalar ostida ma’lum voqealarga bag‘ishlab yozsa-da, esdaliklar uslubini saqlaydi. Bunda xolavachchasi va tarbiyachisi Boburning “Boburnoma”siga taqlid qiladi. Balki, aytish mumkinki, “Boburnoma” Muhammad Haydarning ham esdalik uslubida asar yozishiga timsol-o‘rnak bo‘lgan. Biroq Bobur o‘z asarini o‘zbek tilida yozgan. Ammo asar matnida ba’zi o‘rinlarda keltirilgan turkiy parchalar muallifning ona tili turkiy til ekanligidan dalolat beradi.

“Tarixi Rashidiy”ni chuqur o‘rganib, uni “Boburnoma” bilan solishtirish natijasida V.V. Bartold shunday yozgan edi: “Mirzo Haydarning asari ko‘p hollarda uning xolavachchasi Boburning yodnomalarini eslatadi. Uning tarixiy ma’lumotlari huddi Boburnikidek haqqoniyligi va betarafligi bilan ko‘zga tashlanadi, jug‘rofiy tavsiflar esa joylarni aniq va ravshan tasvirlaydi”. V.V. Bartold yana xulosa qilib aytadiki: «Gar-chi “Tarixi Rashidiy” mayda tafsilotlarning izchilligi, voqealar kechgan sanalarning aniqligi borasida “Boburnoma”dan keyinda tursa-da, biroq unda Mo‘g‘iliston tarixiga oid shunday ma’lumotlar keltiriladiki, ularni boshqa tarixiy manbalardan topib bo‘lmaydi». V.V. Bartoldning fikrini davom ettirib aytadigan bo‘lsak, “Tarixi Rashidiy”ning ma’lumotlari, tadqiqotchilar aniqlaganidek, “Boburnoma”ning bizgacha yetib kelmagan yoki o‘z vaqtida yozilmay qolgan ayrim kamchil joylarini to‘ldirishga yordam beradi. Undan tashqari “Boburnoma”da bayon qilingan voqealarning jo‘g‘rofiy kengligi Boburning o‘zi bosib o‘tgan joylar – Mavarounnahr, Xuroson, Qobul, Badaxshon, Hindiston doirasida ifodalansa, Mirzo Haydar esdaliklarida bu yerlardan tashqari yana uning o‘zi yurgan joylar: Mo‘g‘iliston, Qoshg‘ar,

Tibet, Kashmirlar tasvirlanadi. Binobarin, har ikki asarni bir-biriga qiyoslab o'rganish, ulardagi tarixiy ma'lumotlar doirasini kengaytiradi va har ikkala asarning ham tarixiy manba sifatidagi ahamiyatini oshiradi.

Asarning "Tarixi Rashidiy" deb atalganligiga Mirzo Haydar uch sababni ko'rsatadi:

1. Mo'g'iliston xoni Tug'luq Temurni islomga keltirgan Shayx Arshaduddin nomini abadiylashtirmoq uchun.

2. "Haq yo'l", "To'g'ri yo'l" ma'nosini anglatuvchi "Rushd" so'zini ta'kidlamoq uchunki, islomni qabul qilgan Tug'luq Temur o'z tobellarini ham shu yo'lga boshlagan.

3. Asar yozilayotgan vaqtida Mo'g'ilistonda hukm surib tur-gan Abdurashidxon nomini eslatmoq uchunki, garchi u o'z tarbiyachisiga yomonlik istagida bo'lib do'stlik va'dalarini unutgan bo'lsa-da, uning otasi Sulton Sayyidxonning muallifga qilgan yaxshiliklarini qadrash uchun.

Mirzo Haydar o'z asarida Markaziy Osiyoning hozirgi O'zbekiston, Qirg'iziston, janubi-sharqiy Qozog'iston hamda Sharqiy Turkiston hududlariga to'g'ri keladigan o'lkalar haqida yozar ekan, bu joylarda yashovchi o'zbek, qozoq, uyg'ur, qalmoq kabi xalqlarning siyosiy xo'jalik sohalariga madaniy hayot va birlari bilan aloqalariga oid ko'plab ma'lumotlar keltiradi. Tibet, Kashmir, Badaxshon hududlariga bo'lgan harbiy yurishlarni yoritganida, bu mamlakatlar haqida ham tarixiy, etnografik, jo'g'roffiy ma'lumotlar beradi.

"Tarixiy Rashidiy"da bulardan tashqari Husayn Boyqaro, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiyalar doirasidagi Xirot madaniy-adabiy muhitiga, Movarounnahrda Ulug'bek, Xoja Ubaydulloh Ahror davridagi ilmiy-ma'naviy hayotga oid, tasavvuf namoyandalari, ularning risolalariga oid ishonchli va qiziqarli ma'lumotlarni uchratish mumkin.

"Tarixiy Rashidiy"ning qo'lyozma nusxalari keng tarqalgan. Undan Mirzo Haydardan keyinroq yozilgan Markaziy Osyo,

Sharqiy Turkiston, Hindiston tarixiga oid asarlarning barchasida foydalanilgan.

XVIII–XIX asrlarda “Tarixi Rashidiy” Muhammad Sodiq Qoshg’ariy va Muhammad Niyoz ibn Abdulg’ofurlar tomonidan turkiy tiliga tarjima qilingan.

Yevropaliklardan bu asarga birinchi bor 1840-yilda V. Erskin e’tibor berib, undagi ma’lumotlarni o’z asariga jalb etgan. Undan so’ng G. Elliot foydalangan sharqshunos S.D. Ross 1895-yili “Tarixiy Rashidiy”ni ingliz tiliga tarjima qilib, nashr etdi. Bu nashrga V.V. Bartold kattagina taqriz ham yozgan. Xullas, “Tarixi Rashidiy” ma’lumotlari o’zbek, qozoq, qirg’iz, qalmoq va boshqa Markaziy Osiyo xalqlariga, ularning o’tmishtagi aloqalariga, iqtisodiy, siyosiy-madaniy hayotiga, shu mintaqaning jo’g’rofiy sharoitiga oid tarixiy tadqiqotlarning deyarli barchasidan foydalanib kelinmoqda.

O’ZR FA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida asarning rus tiliga tarjimasi bir necha forsiy asl nusxalari asosida bajarilib, ilmiy izohlari bilan 1996-yildagi nashrdan chiqarildi. Ushbu nashrdan to’la foydalangan holda, qozoq tilidagi kirish qismi bilan qozoqcha tarjimasi ham bor.

**Hofiz Tanish Buxoriy** (1549–1589) – XVI asrda o’tgan buxorolik shoir va yirik tarixchi olim. Nufuzli mansabdar xonardonida dunyoga kelgan bo’lib, otasi Mir Muhammad al-Buxoriy Buxoronning ko’zga ko’ringan boyonlaridan bo’lib, Shayboniy Ubaydullaxonning yaqin kishilaridan edi. 1550-yil boshlarida Qoshg’arga ketib qolgan va oradan ikki yil o’tgach, o’sha olkada vafot etgan.

Hofiz Tanish o’z davrining chuqur va keng ma’lumotli kishilaridan bo’lib, 1584-yili Qulbobo Ko’kaltoshning tavsiyasi bilan Abdullaxonning (1583–1598) xizmatiga qabul qilingan va xonning shaxsiy voqenavisi (tarixchisi) vazifasiga tayinlangan. Hofiz Tanish umrining oxirigacha shu lavozimda xizmat qildi. Ba’zi ma’lumotlarga (Maleho Sa-

marqandiy) ko'ra, Hofiz Tanish 1589-yili xotini tomonidan zaharlab o'ldirilgan.

Hofiz Tanish 1585-yili yozilgan o'zining "**Sharafnama-yi shohiy**" ("Podshohni sharaflovchi kitob") nomli kapital asari bilan nom chiqqagan. Asar nomi bilan ham mashhur. O'rta Osiyo, Qozog'iston, shuningdek, qisman Afg'oniston va Eronning XVI asrdagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o'z ichiga oladi. Asar XVI asrning 80-yillari oxirlarida yozib tamomlangan.

"Sharafnama-yi shohiy" muallifning rejasiga ko'ra, muqaddima, ikki qism (maqola) va xotimadan iborat qilib yozilishi mo'ljallangan. Masalan, muqaddimada, odatdagidek, oliv hukmdorning (Abdullaxonning) sha'niga hamdu sano, asarning yozilish sabablari, Abdullaxonning ota-bobolari, qadimdan Markaziy Osiyoda istiqomat qilgan turk-mo'g'il qabilalari, Chingizzon va uning avlodи haqida qisqacha ma'lumot; birinchi maqolada O'rta Osiyo, Qozog'iston va qo'shni xorijiy mamlakatlarda 1583-yildan keyin yuz berishi mumkin bo'lgan voqealar; xotimada esa Abdullaxonning sifatlari, uning bilan zamondosh bo'lgan shayxlar, olimlar, shoirlar, vazirlar va amirlar, shuningdek, Abdullaxon zamonda qurilgan binolar haqida ma'lumot berilishi aytilgan. Lekin, asar yozilish jarayonida reja o'zgargan, birinchi va ikkinchi maqolalar qo'shib yozilgan, xotima esa muallifning bevaqt vafoti tufayli yozilmay qolgan. Muallif asar muqaddimasini yozishga Narshaxiyunning "Tarix-i Buxoro", shayxulislom Safiuddin Abubakr Abdulloh Balxiynning "Fazoil-i Balx", Istarriyning "Kitob masolik al-mamolik", Juvayniyning "Tarix-i jahonkushoy", Rashiduddinning "Jome at-tavorik", Mirxonning "Ravzat as-safo", Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" va Muhammad Haydar Dug'lotning "Tarix-i Rashidiy" asarlarida keltirilgan ma'lumotlardan foydalangan. XVI asrning 30–60-yillari orasida yuz bergan voqealar saroyda muntazam yuritib turiladigan kundalik daftар, sodir bo'lgan muhim siyosiy voqealarning shohidi bo'lgan keksa kishilarning og'zaki ax-

boroti asosida, 70–80-yillar voqealari asl muallifning shaxsan o‘zi qatnashib to‘plagan faktik material asosida yozilgan.

“Sharafnama-yi shohiy” saj, ya’ni murakkab uslubda yozilgan. Unda she’riy parchalar (Firdavsiy, Rudakiy, Kamoliddin Binoiy, Mushfiqiy va muallifning o‘z she’rlari), “Qur’on” oyatlari va hadislardan parchalar ham ko‘p.

“Sharafnama-yi shohiy”da siyosiy voqealar bilan bir qatorda ijtimoiy-iqtisodiy xarakterdagi ma’lumotlar (masalan, feudal yer egaligining iqto‘, suyurg‘ol, tanhoh kabi) shakllari; turli-tuman soliq va jarimalar: xiroj, ixrojot, tag‘or, ulufa, qo‘nalg‘a, madadi lashkar, boj, tamg‘a, begar, o‘lja va uning feudal jamiyatdagi roli, asirni qulga aylantirish hollari), XVI asr shaharlari va hunarmandchilikning umumiy ahvoli; Shayboniylar davlatining ma’muriy tuzilishi, Buxoro xonligi bilan Rossiya, Hindiston va Qoshg‘ar o‘rtasidagi munosabatlar haqida ham qimmatli faktlar mavjud. Bundan tashqari asar etnografik (masalan, o‘zbek xaqli tarkibiga kirgan urug‘ va qabilalar) hamda topografik (masalan, Buxoro, Samarcand, Toshkent, Termiz, Ko‘lob, Balx kabi shaharlardagi diqqatga sazovor binolari, asori-atiqlari, shuningdek, mazkur shaharlarning geografik o‘rni va topografiyasi) ma’lumotlarga nihoyatda boydir.

“Sharafnama-yi shohiy”ning qo‘lyozma nusxalari ko‘p, tanzidiy matni nashr qilinmagan. Ba’zi parchalar rus tilida ilmiy to‘plamlarda e’lon qilingan. Asar 1942–1952-yillari toshkentlik mashhur sharqshunos olimlar Sodiq Mirzayev va oxirgi qismi Yusupjon Xakimjonov tomonidan 60-yillarda o‘zbek tiliga tarjima qilinib, 1–2-jildlari zarur tuzatishlar, tadqiqot va izohlar bilan 1966 va 1969-yillari Bo‘rivoy Ahmedov tomonidan chop qilingan. Asarning ruscha nashri ham (Sankt-Peterburglik olimma M.A. Salohiddinova tomonidan) 1983-yili (birinchi qismi), 1989-yili (ikkinchchi qismi) nashr etildi.

**1596-yilda tug‘ilgan Mahmud ibn Vali** – XVII asrda o‘tgan balxlik yirik qomusiy olim. Otasi Mir Muhammad Vali

asli farg'onalik (kosonlik) bo'lib, Shayboniylardan Pirmuhammadxon I (1546–1567) davrida Balxga kelib qolgan. U o'qimishli va keng ma'lumotli kishi bo'lib, asosan fiqh ilmida zamonasining peshqadamlaridan hisoblangan. Mir Xislat taxallusi bilan she'rlar ham yozgan. Mahmud ibn Valining amakisi Muhammad Poyanda (1602-yili vafot etgan) Samarcand hokimi Boqi Muhammad (1603–1606-yillari Buxoro xoni) devonida xizmat qilgan, akasi amir Abulboriy esa fiqh, tafsir va tib ilmini yaxshi egallagan olim kishi edi.

Mahmud ibn Vali 19 yoshga to'lganda, ya'ni 1614-yili yirik fiqh va hadis olimi Mirakshoh Xusayniyning xizmatiga kiradi va qariyb 10 yil undan saboq oladi. Mirakshoh Xusayniyning boy kutubxonasi bo'lib, unda Mahmud ibn Valining so'zlariga qaraganda, tarix, geografiya, klassik adabiyot, fiqh, hadis bo'yicha juda ko'p kitoblar saqlanar edi. Bu yosh olim uchun bebahov vazina edi, albatta. Mahmud ibn Vali bulardan ko'p foydalanligini aytadi. Mirakshoh Xusayniy vafot etgandan (1624-yil 13-aprel) keyin Mahmud ibn Vali kitobiy bilimini chuqurlashtirish maqsadida boshqa mamlakatlarga sayohat qilishga qaror qildi va bir yillik tayyorgarlikdan keyin, 1625-yilning iyul oyida savdo karvoniga qo'shilib Hindiston tomon yo'l oldi. U Hindistonda qariyb yetti yil bo'ldi va uning Peshovar, Lohur, Dehli, Agra, Roj mahal, Haydarobod, Vijayanagar, Kalkutta, Bihar kabi bir qator yirik shaharlarini borib ko'rди va ularning xalqi, urf-odati, tarixi, madaniyati va nihoyat, asori-atiqalari haqida qiummatli ma'lumot to'pladi. Balxga qaytib kelgandan (1631-yil 20-avgust) so'ng Nadr Muhammadxonning (1606–1642 Balx, 1642–1645 Buxoro xoni) xizmatiga kirdi va to umrining oxirigacha unning kutubxonasida kitobdor bo'lib ishladi. Mahmud ibn Valining qachon vafot etganligi ma'lum emas.

Mahmud ibn Vali fanning juda ko'p sohalarini: tarix, geografiya, astronomiya, mineralogiya, botanika va hokazo-larni qamrab olgan "**Bahr al-asror fi manoqib al-ahyor**"

## **(“Oliyjanob kishilarning jasorati haqida sirlar den-gizi”)** nomli ensiklopedik asar mualifidir.

Bundan boshqa u “Ravoix-i Tayyiba” (“Xushbo‘y islar”), “Risola-yi bahoriya” (“Bahor haqida risola”) va “Axloq-i Hu-sayniy” (“Yaxshi xulqlar”) kabi talaygina ilmiy va adabiy asarlar ham yozgan. Lekin “Bahr al-asror”dan boshqasi bizgacha yetib kelmagan.

“Bahr al-asror” (1634–1640-yillar orasida yozilgan), asar mundarijasida ko‘rsatilishicha, yetti jilddan iborat bo‘lgan. Uning II–VII jiddlari tarixga bag‘ishlangan bo‘lib, O‘rta Osiyo va u bilan qo‘shni mamlakatlarning qadim zamonlardan to 1640-yil-gacha kechgan tarixidan bahs etadi. Birinchi jild esa astronomiya, geografiya, mineralogiya va botanika fanlariga oid ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan. Afsuski, faqat I va VI jiddlarigina saqlangan xolos.

Asarning birinchi jildida yetti iqlim mamlakatlarning, shuningdek, O‘rta Osyoning o‘rta asrlardagi shahar va viloyat-larinin geografik holati, xalqi va uning hayoti hamda urf-odati haqida qimmatli ma‘lumotlar keltirilgan.

“Bahr al-asror”ning ayniqsa VI jildi alohida qimmatga ega. Unda XIII–XVII asrning birinchi yarmida O‘rta Osiyo, Mo‘g‘iliston, Dashti qipchoq va Shimoliy Afg‘oniston tarixi keng va atroficha yoritilgan.

Asarning oltita qo‘lyozma nusxasi mavjud. To‘rttasi O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida (I jild va VI jilding 1–3-qismlari, ikki nusxasi Angliya va Pokistonda (VI jildining 4-qismi) saqlanmoqda.

Asar to‘la ravishda biron tilga tarjima qilinmagan. Undan ayrim parchalar V.V. Bartold, B.A. Ahmedov va K.A. Pishulina tomonidan chop qilingan.

**Mir Muhammad Amin Buxoriyning “Ubaydulla-noma” asari** (1643-yilda tug‘ilgan). Mir Muhammad Amin Buxoriy – buxorolik o‘qimishli fozil kishilardan, 1643-yil yoki 1653-yilda tug‘ilgan, Ashtarxoniy Ubaydullaxon (1702–1711) sa-

royida bosh munshiylik vazifasida xizmat qilgan. Boshida u xon xizmatidan chetlashtirilgan edi va u o'zini tarixni o'rganishga bag'ishladi, lekin 59 yoshga kirganida Buxoro xonligining davlat xizmatchisi Bek Muhammad dodhoxning (1121/1709-yil boshida vafot etgan) yordamida yana Ubaydullaxon saroyiga xizmatga olingan. Ubaydullaxon Mir Muhammad Aminga aynan shu vaqtida o'zining hukmronligi tarixi haqida kitob yozishni buyurdi.

Mir Muhammad Amin Buxoro xonligining 1702–1716-yillar orasidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti haqida hikoya qiluvchi va Ubaydullanova nomi bilan mashhur bo'lgan muhim asarni yozgan. Asar yana "Tarix-i Ubaydullaxon" (Ubaydullaxon tarixi) nomi bilan ham mashhur. Asarning matnida bu nom keltirilmagan, muallif asarning muqaddimasida asarni oddiy so'z "Majmu'a" ("To'plam") deb ataydi.

Asar 1122/1710–1711-yil yozila boshlangan va 1128/1715–1716-yildan keyin tugatilgan va muqaddima, 80 bob va xotimadan iborat.

Muqaddimada muallifning ahvoli, ya'ni Subhonqulixon hukmronligining so'nggi yillarida xizmatdan chetlashtirilib, og'ir ahvolga tushib qolganligi va Ubaydullaxon xizmatiga qabul qilinishi; Abdulazizzon va Subhonqulixon davrida Buxoro xonligining ijtimoiy-siyosiy ahvoli qisqa tarzda bayon qilingan.

1–80-boblarida, yuqorida aytiganidek, Buxoro xonligining qariyb 15 yillik (1702–1716) ijtimoiy-siyosiy tarixi batafsil yoritilgan. Muallif asarda feodal yer egaligi; feodal ekspluatatsiya (masalan, aholidan to'lanadigan soliq va jarimalar); Buxoro xonligining davlat tuzumi; feodal tarqoqlikning kuchayishi, mamlakat boshiga tushgan iqtisodiy qiyinchiliklar va uning ayrim sabablari kabi masalalarga ham keng o'rinn bergan. Bundan tashqari, asarda geografik va etnografik ma'lumotlar ham ko'p.

Xotimada muallif bilan zamondosh bo'lgan va Buxoroda isliqomat qilgan olimlar, shoirlar (masalan, Sayyido Nasafiy, Qo-

simxoja, mulla Sarfaroz, Fitrat, Mulham va b.) mashhur qozilar haqida qisqacha, lekin e'tiborga molik ma'lumotlar keltirilgan.

Ubaydullanomaning 10 dan ortiq qo'lyozma nusxalari mavjud. O'zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida uning 7 ta nusxasi saqlanib kelmoqda. Asar to'la ravishda rus tiliga tarjima qilingan (A.A. Semenov) va 1957-yili nashr etilgan.

**Xoja Samandar Termiziyning “Dastur al-muluk” asari.** XVII asr tarixchilari jumlasidan: haqiqiy ismi Muhammad Baqoxoja. Mir Haydariy tariqati shayxlaridan biring oilasida dunyoga kelgan. Hoja Samandar Termiziyning tug'ilgan va vafot etgan yili ma'lum emas. U Ashtarkoniylardan Abdulazizzon (1645–1681) va Subhonqulixon (1681–1702) bilan zamondosh bo'lgan. U 1702-yilgacha Qarshida raislik mansabida (XVII–XIX asrlarda musulmonlar tomonidan shariat ko'rsatmalari qanday bajarilishini nazorat qilib turuvchi mansabdor. X–XVI asrlarda mushrif atalgan) turgan. Abdulazizzon va Subhonqulixonning harbiy yurishlarida ishtirok etgan. Oxiri ana shu Mir Haydariy tariqati shayxlaridan ba'zilarining ig'vosi bilan 1702-yili raislik lavozimidan iste'foga chiqishga majbur bo'ldi va umrining oxirigacha (1735-yillari u hali hayot bo'lgan) faqat ilmiy ish bilan mashg'ul bo'lgan.

Muhammad Baqohoja o'z davrining keng ma'lumotli kishilaridan bo'lgan. O'sha vaqtarda yozilgan bir qator manbalarning (“Muzakkir al-ahbob”, “Muhit at-tavorix”) ma'lumotlariga ko'ra, u yetuk shoир, yozuvchi va tarixchi olim bo'lgan, ilohiyat fanini ham yaxshi egallagan. Muhammad Baqohoja ko'p sayohat qilib, nazariy bilimini chuqurlashtirgan.

Bizzacha olimning ikki muhim asari yetib kelgan. Bularidan biri “Dastur al-muluk” (“Podshohlarga qo'llanma”), ikkinchisi “Onis al-fuqaro” (“Faqirlar do'sti”) nomi bilan mashhur. Birinchi asar taxminan 1695, ikkinchisi esa 1735-yilda yozilgan. O'zbekiston xalqlari tarixini o'rganishda Xoja Samandar

Termiziyning “Dastur al-muluk” asari katta ahamiyatga ega. Asar Buxoro xonligining XVII asrning 70–90-yillaridagi ijtimoiy-siyosiy ahvolini, shuningdek, Buxoro bilan Xiva xonliklari o’rtasidagi siyosiy munosabatlarni o’rganishda zo’r ahamiyat kasb etadi. Asarda feodal kurash, oliv martabali mansabdorlar orasida keng tarqalgan buzuqlik, poraxo’rlik feodal ekspluatatsiya va mehnatkash xalqning og’ir ahvoli haqida qimmatli ma’lumotlar mavjud. “Dastur al-muluk”da o’zbeklarning etnik tarkibi haqida ham muhim faktlarni uchratamiz.

“Dastur al-muluk” 1973-yili (forscha matni, ruscha tarjimasи, zarur izohlar bilan) M.A.Salohiddinova tomonidan nashr etilgan. Asarning o’zbekcha tarjimasi ham bor.

### **Muhammad Yusuf Munshiy “Tarixi Muqimxoniy”.**

Mualif – Muhammad Yusuf Munshiy ibn Xoja Baqo (XVII–XVIII asrlar), o’z zamonining keng ma’lumotli allomasi. U o’z davrining siyosiy hayoti va Markaziy Osiyo tarixi bilan qiziqqan.

U asli balxlik bo’lgan va Subxonqulixon (1651–1681 Balx, 1681–1702 Buxoro xoni) hamda Abu-l-Muzaffar Muqimxonning (1702–1707 Balx xoni) saroyida munshiy bo’lib xizmat qilgan va Muqimxon tomonidan Hindistonga jo’natilgan elchilikda qatnashgan.

Muhammad Yusuf Munshiy, Muhammad Muqimxonga bag’ishlangan “Tarix-i Muqimxoniy” asari bilan mashhur. Ushbu nomni mualif o’z asarining muqaddimasida keltiradi (asarning boshqa (keng tarqalgan) nomi: Tarix-i Muqimxoniy (“Muqimxon tarixi”), Tazkira-i Sayyid Muqimxoniy (“Sayyid Muqimxon tarixi”), Muqimnoma (“Muqimxon haqida kitob”), Tarixcha-i Abu-l-Muzaffar Sayyid Muhammad Bahodirxon (“Abu-l-Muzaffar Sayyid Muhammad Bahodirxonning qisqa tarixi”).

Asar 1697–1707-yillar orasida yozilgan bo’lib, Balx va qisman Buxoro xonligining XVII asrdagi ijtimoiy-siyosiy tarixini bayon etadi. Muhammad Yusuf Munshiy agar “hayot alangasini

o'chirmasa, yo'qsizlik dengizining to'lqinlari esa o'ynoqi otini o'z girdobiga tortib ketmasa" ushbu asarning ikkinchi jildini ham yozish niyatida ekanligini aytadi. Lekin "Tarix-i Muqimxoniy"ning ikkinchi kitobi yozilmay qolgan. Ehtimol, bunga qandaydir kutilmagan hodisa, balki muallifning bevaqt vafot etgani sabab bo'lgan.

"Tarix-i Muqimxoniy" muqaddima, uch bob (maqola), ular esa kichik bo'limlarga (zikr) bo'lingan va xotimadan iborat.

Muqaddimada turkiy xalqlarning afsonaviy onasi Alanquya, Chingizxonning ota-bobolari, mo'g'il qo'shirlari tomonidan Movarounnahr, Balx va Badaxshonning bosib olinish tarixi qisqacha bayon etilgan.

Asarning birinchi bobi Shayboniylar davrida Movarounnahrning umumiy ahvoli haqida hikoya qilinadi.

"Tarix-i Muqimxoniy"ning eng asl va muhim qismi – uning II–III boblaridir. Ikkinchi bobda Balx va qisman Buxoro xonligining XVII asrdagi ijtimoiy-siyosiy hayoti hamda Buxoro va Balx xonliklarining Hindiston, Eron, Turkiya va Qoshg'ar bilan bo'lgan siyosiy munosabatlari, uchinchi bobda esa 1702–1704-yillar voqealari, xususan Buxoro bilan Balx o'rtasida boshlangan qurolli kurash o'rinni olgan.

Asarda xonlar va feodallar zulmi, mehnatkash xalqning og'ir ahvoli haqida ham qimmatli ma'lumotlar uchraydi.

"Tarix-i Muqimxoniy"ning qo'lyozma nusxalari nihoyatda ko'p. Birgina O'zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida 31 ta nusxasi saqlanib kelmoqda. Uning nusxalari xorijiy mamlakatlarning kutubxonalarida ham saqlanadi. Asardan ayrim parchalar fransuz va rus tillarida e'lon qilingan. U to'la ravishda eski o'zbek tiliga (1861), rus tiliga prof. A.A. Semenov tomonidan tarjima qilinib, 1956-yilda chop etilgan.

**Abdurahmon Davlat va uning "Tarixi Abulfayzxon" asari.** Abdurahmon Davlat (XVIII a. birinchi yarmi),

Tole nomi (“baxt”, “baxtli yulduz”) bilan mashhur. Hayoti va faoliyati haqida ma'lumotlar nihoyatda kam. Uning asarida keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, u o'z zamonasining eng ma'lumotli kishilaridan biri bo'lgan, astrologiya, she'riyat va tarix kabi klassik fanlaridan keng ma'lumotga ega olim edi. Abdurahmon Davlat Ubaydullaxon va Abulfayzxon saroylarida xizmat qilgan. Tug'ilgan va vafot etgan vaqtin ma'lum emas. Abdurahmon Davlat “Tarix-i Abulfayzxon” nomli tarixiy asar yozib qoldirgan. Mazkur asar hajm jihatdan kichik (161 varaq) bo'lib, unda Buxoro xonligining dastlabki o'n to'rt yil (1771–1724) davomidagi Abulfayzxon hukmronligining (1771–1747) siyosiy tarixi yoritilgan. Asar yuqorida zikr etilgan Mir Muhammad Amin Buxoriyning “Ubaydullanoma”sining davomi hisoblanadi va Miyonqol, Samarqand, Qarshi, Shahrisabz, Termiz va boshqa vohalar o'lka hukmronlarining g'alayonlar va fitnalarini tufayli mamlakatda iqtisodiy va siyosiy o'rashgan tartibsizlik haqida muhim faktik material keltirilgan. Hamma ushbu hollar Farg'ona vodiysini Buxorodan ajralib chiqishga (XVIII asr boshlarida (1709), u yerda esa mustaqil Qo'qon xonligi tashkil topishiga va Buxoroning o'zida Abulfayzxon boshchiligidagi va Samarqandda Rajabxon boshchiligidagi (1772–1728) Ashtarkoniylar davlatining markazida qo'shhokimiyatchilik o'rnatilishiga olib keldi. Bundan tashqari, asarda Buxoro xonligining davlat tuzumi va o'zbek xalqining etnik tarkibi haqida ham ayrim, diqqatga sazovor faktlar va ma'lumotlar bor.

“Tarix-i Abulfayzxon”ning to'la ruscha tarjimasi zarur izohlari bilan 1959-yili A.A. Semenov tarafidan nashr qilingan.

#### Savol va topshiriqlar

1. Mulla Shodiying “Fathnoma” asari bo'yicha ma'lumotlar keltiring.
2. Fazlulloh ibn Ro'zbexonning “Mehmonnomma-yi Buxoro” asarining manbaviy ahamiyatini yoritib bering.

3. Xondamir qalamiga mansub "Habib us-siyar" asari qayerda yozila boshlangan va qayerda yakunlangan?
4. Nima sababdan Alisher Navoiy Xondamirga xayrixohlik qilgan?
5. Zayniddin Vosifiyning "Badoe' al-vaqoe'" asari haqida ma'lumot bering.
6. "Tarixi Rashidiy" necha qismidan iborat va uning asosiy mazmuni nimalardan iborat?
7. Hofiz Tanish Buxoriyning qalamiga mansub bo'lgan "Sharafnomiya-yi shohiy" nomli asari yana qanday nom bilan mashhur?
8. Mahmud ibn Vali qalamiga mansub "Bahr al-asror" asarining o'rGANIshishi xususida so'zlab bering.
9. Muhammad Yusuf Munshiy qaysi asari bilan mashhur?

### **Manbalar va adabiyotlar**

1. Абдураимов М.И. "Тарих-и Абул-л-Файзи-хан" Абдурахмана Даулта к источнику о политическом и экономическом укладе Бухарского ханства в первой половине XVIII в. // Известия АН УзССР, 1957. №3.
2. Абдурахман Даулат. Абу-л-Файзханова история. Перевод с перс., предисловие, примечания и указатели А.А. Семенова. – Т., 1959.
3. Axmedov B.A. O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari (Qadimgi va o'rta asrlar). – Т.: O'qituvchi, 1991.
4. Ахмедов Б.А. Историко-географическая литература Средней Азии XVI–XVIII вв. Письменные памятники. – Т.: Фан, 1985.
5. Ахмедов Б.А. Хондамир. – Т.: "Фан", 1965.
6. Бартольд В.В. Отчёт о командировке в Туркестан. Соч. VIII. – М.: Наука, 1973.
7. Бартольд В.В. Хайдар-мирза. Соч. Т. VIII. – М.: Наука, 1973.
8. Vosifiy. Badoe' al-vaqoe' / Forsiyidan Naim Norqulov tarjimasi. – Т., 1979.
9. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. / Nashrga tayyorlovchi: Porso Shamsiyev. – Т.: Yulduzcha, 1989.
10. Историография общественных наук в Узбекистане. Биобиблиографические очерки. Составитель Б.В.Лунин. – Т., 1974.


11. Ma'nnaviyat yulduzlari (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, al-lomalar, adiblar). – Т., 1999, 2001.
12. Материалы по истории Средней и Центральной Азии X–XIX вв. – Т.: Фан, 1988.
13. Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных (география) / Введение, перевод, примечания, указатели Б.А. Ахмедова. – Т.: Фан, 1977.
14. Мир Мухаммад Амин-у Бухари. Убайдулланаме / Перевод с персидско-тадж. с примечаниями А.А. Семенова. – Т., 1957.
15. Мирза Мухаммад Хайдар. Тарих-и Рашиди. Введение, перевод с персидского А. Урунбаева, Р.П. Джалиловой, Л.М. Эпифановой, Примечания и указатели Р.П. Джалиловой и указатели Р.П. Джалиловой и Л.М. Эпифановой. – Т.: Фан, 1996.
16. Мухаммад Юсуф Мунши. Мукимханская история. – Т., 1956.
17. Стори Ч.А. Персидская литература. Библиографический обзор. В трех частях / Перевод с английского, переработал и дополнил Ю.Е. Брегел, Ч.II. – М., 1972.
18. Фазлаллоҳ ибн Рузбекан Исфахани. Михманнаме-йи Бухара ("Записки бухарского гостя") / Перевод, предисловие и примечания Р.П. Джалиловой / Под ред. А.К. Арендса. – М., 1976.
19. Xafiz Tanish ibn Mir Muxammad Buxoriy. Abdulla-noma (Sharaf-nomayi shohiy). 1–2 jild, – Т., 1966–1969.
20. Ходжа Самандар Термези. Дастур ал-мулук ("Назидание государям"). Факсимиле старейшей рукописи, Перевод с персидского, предисловие, примечания и указатели М.А. Салахетдиновой. Москва, 1971.
21. Чехович О.Д. Бухарская летопись XVIII века "Убайдулла-нома" // ПИ.Т.VIII. – М., 1959.
22. Юсупова Д.Ю. Жизнь и труды Хондамира. – Т.: Фан, 2006.
23. Юсупова Д.Ю. Рукописные источники по истории Индии XVI–XVII вв. в фонде Института востоковедения АН РУз. // Из истории культурных связей народов Средней Азии и Индии. – Т.: Фан, 1986.
24. Teufel F.F. Quellenstudien zur neueren Geschichte der Chanate, ZDMG, Bd XXXVIII. 1884. S.239-376.

## 9-MAVZU: XVII–XIX ASRLAR TARIXIGA DOIR YOZMA MANBALAR

*Fors tilidagi yozma manbalar: Mir Muhammad Salim “Silsilat us-salotin”, Muhammad Vafo Karminagiy “Tuhfai xoniy”, Mir Olim Buxoriy “Fathnomayi sultoniy”, Ahmad Donish “Navodir al-vaqoe”, Abduazim Somiy “Tarixi salotini mang’itiya”, Mirzo Salimbek “Tarixi Salimiyy”, Muhammad Solih “Tarixi jadidayi Toshkand”, Niyoz Muhammad Xo‘qandiyning “Tarixi Shohruxiy” asarlari. O‘rtal Osiyonining XVI–XIX asrlar tarixiga oid eski o‘zbek tilidagi yozma manbalar: muallifi noma'lum “Tavorixi guzida” (“Nusratnoma”), Muhammad Solih “Shayboniynoma”, Abulg‘ozzi Bahodirxon “Shajarayi tarokima”, “Shajarayi turk va mo‘g‘il”, Munis va Ogahiy “Firdavs ul-iqbol” va Mirzo Olim Toshkandiyning “Ansob as-salotin” asarlari.*

**XVII–XIX asr birinchi yarmida O‘rtal Osiyoda yuz bergan asosiy ijtimoiy-siyosiy jarayonlar.** Markaziy Osiyo hududida Shayboniylar (1500–1601) va Ashtarxoniyolar (1601–1757) davrida boshlangan ichki va tashqi nizolar tu-fayli uch davlat, ya’ni Xiva xonligi (1505–1920), Buxoro xonligi (1533–1757; Buxoro amirligi 1754–1920) va Qo‘qon xonligi (1709–1876) vujudga kelgan. Ushbu davlatlarni o‘zbek qabilalari, jumladan, Xiva xonligini qo‘ng‘irotlar, Buxoro amirligini mang’itlar va Qo‘qon xonligini esa minglar boshqargan. Ushbu xonliklar o‘rtasida yuz bergan urushlar, qabilalarning o‘zaro nizolari Markaziy Osiyoda siyosiy porakandalik va tarqoqlikning kuchayishiga sabab bo‘lgan. Xiva xoni, asli shayboniylardan bo‘lgan Abulg‘ozzi Bahodirxon (1603–1663) va uning o‘g‘li

Anushaxon (1664–1686) qo'shinlari Chorjo'y, Buxoro, Samarqand shaharlari va ularning atrofidagi qishloqlarga bostirib kirkgan. Ashtarxoniylardan bo'lgan Ubaydullaxon (1702–1711) davrida o'zbek qabilalarining o'zaro kurashi keskinlashdi. Oqibatda 1706-yilda Mahmudbiy boshchiligidagi qatag'on urug'i vakillari Balxni o'z qo'liga olgan bo'lsa, Buxoro xonligida yuz bergen siyosiy va iqtisodiy inqiroz tufayli 1709-yilda o'zbeklarning ming urug'i Qo'qonda o'z hukmronligini o'rnatgan va Qo'qon xonligiga asos solganlar. Shahrisabz va Qarshida kenagas va mang'it urug'lari, Samarqand va Hisorda yuz urug'lari Ubaydullaxonga qarshi isyon ko'targanlar. 1711-yilda Ubaydullaxon bir guruh



XVI asrda Samarqand

fitnachilar tomonidan o'ldirilgach, uning o'rniqa Abulfayzxon (1711–1747) nomigagina xon bo'lib, hokimiyat asosan bir guruhi nufuzli amirlar qo'liga o'tib qolgan. 1757-yilda mang'itlardan bo'lgan Muhammad Rahimbiy (1709–1758) taxtni egallagach, Buxoro xonligi endi Buxoro amirligi deb atalgan. O'rta Osiyo xonliklarining o'zaro kurashlaridan foydalanib 1740-yilda Eron hukmdori Nodirshoh (1688–1747) Buxoro xonligiga, 1745-yilda esa jung'or urug'lari Toshkent va Qo'qon xonligiga harbiy yurishlarni amalga oshirgan. 1841–1842-yillarda Buxoro amiri Nasrulloxon (1806–1860) Qo'qon xonligi hududiga bostirib kiran. Bu vaqtga kelib Buxoro amirligi, Xiva xonligi va Qo'qon xonligi o'rtasidagi nizolar kuchaydi va Rossiya imperiyasining ham Markaziy Osiyoga qiziqishi ortgan edi.

### **Fors tilidagi yozma manbalar. Mir Muhammad Salimning "Silsilat us-salotin" asari.**

Asar muallifi Ashtarkoniylar sulolasi vakili Hoji Mir Muhammad Salim bo'lib, asar 1731-yilda yozilgan. Ammo, asarning qo'lyozma nusxalari juda kam bo'lib, bir nusxasi Buyuk Britaniyadagi Oksford shahri Bodlen kutubxonasida (inventar raqami № 269) saqlanmoqda. Ushbu asarni dastlab akademik Bo'riboy Ahmedov o'rgangan. 1990-yilda Azamat Ziyo Homid o'g'li "Silsilat us-salotin" – tarixiy manba sifatida" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

"Silsilat us-salotin" ("Hukmdorlarning shajarasi") asari muqaddima va to'rt qismdan iborat. Muqaddimada asarning yozilishi haqida so'z boradi va muallif, ashtarkoniylardan bo'lgan hukmdor Ubaydullaxonning 1711-yilda o'ldirilishidan so'ng o'z vatani, ya'ni Buxoroni tark etganligini yozgan. Shuningdek, u musofirlikda Eron, Iroq, Arabiston va Hindistonda bo'lganligini ta'kidlagan.

Asarning birinchi qismida payg'ambarlar, qadimgi turk va mo'g'il qabilalari, xususan, barloslar, Amir Temur ajdodlariidan Qochuli bahodirdan tortib, otasi amir Tarag'aygacha, Amir

Temur va uning Movarounnahr va Hindistonda hukmronlik qilgan avlodlari haqida qisqacha bayon etiladi. Asarning ikkinchi qismi Mo'g'ilistonning hukmdori Tug'luq Temurxon (1348–1363)dan to Suyurg'at mishxon (1370–1388)gacha bo'lgan davr voqealari bayon qilingan.

"Silsilat us-salotin"ning uchinchi qismida esa XVI–XVIII asrda Buxoro xonligining ijtimoiy-siyosiy tarixi bayon qilingan. Bu qism aslida "Shayboniyalar davrida Buxoro xonligi tarixi" deb nomlangan. Unda Buxoro xonligida iqta, suyurg'ol va vaqf mulkchiligi, shuningdek, bu davrda O'rta Osiyo va Shimoliy Afg'onistondagi madaniy hayot hamda xonlikning Eron, Hindiston, Qashqar bilan bo'lgan aloqalari, Buxoroda hokimiyatning Shayboniyardan Ashtarxoniyalar qo'liga o'tishi aniq tafsilotlari berilgan. Ashtarxoniyalar davrida Buxoro xonligi tarixiga oid ma'lumotlar, xususan, XVII asrda, boburiylardan bo'lgan Shoh Jahon (1628–1658)ning Balx va Buxoro xonligi ichki ishlariga qurolli aralashuvi va Boburiylar qo'shinining Balx va unga tobe bo'lgan yerlarni bosib olishi, Xorazmning XVI–XVII asrlarda siyosiy ahvoli xususida boshqa manbalarда uchramaydigan qimmatli dalil va ma'lumotlar keltiriladi. Asardagi ulus tizimi, tiul va solona kabi soliq turlari, shaharlar, ularning aholisi va turmush tarzi haqida keltirilgan ma'lumotlar ham alohida qimmatga egadir.

Mir Muhammad Salimning "Silsilat us-salotin" asaridagi maktublarning nussalari muhim ahamiyatga ega bo'lib, asosan Buxoro xonligi hukmdorlari – Abdullaxon II, Abdumo'minxon, Dinmuhammadxon, Imomqulixon, Abdulazizzon, Subhonqulixonga tegishlidir. Ushbu maktublar Buxoro xonligining tashqi siyosati bilan bog'liq masalalarni o'rganish uchun qimmatli manbalar hisoblanadi.

**Muhammad Vafo Karminagiying "Tuhfai xoniy" asari.** Ushbu asar "Tuhfat ul-xoniy" ("Xonning tuhfasi") yoki "Tarixi Rahimxoni" ("Muhammad Rahimxon tarixi") nomi bi-

lan ham mashhurdir. Asar muallifining to'liq ismi Mulla Muhammad Vafo ibn Muhammad Zohir Karminagiy (1685–1769) bo'lib, u Buxoroning o'qimishli va taniqli kishilaridan biri bo'lgan. "Ubaydullanova" asarining muallifi Mir Muhammad Amin Buxoriyning qayd etishicha, Muhammad Vafoyi Karmenagiy Ashtarkoniylardan Ubaydullaxon saroyida kitobdor bo'lib xizmat qilgan. Ubaydullaxonidan keyin taxtga o'tirgan Abulfayzxon davrida ham shu lavozimda faoliyat olib borgan. Muhammad Vafo Karminagiy "qozi Vafo" nomi bilan mashhur bo'lgan. U qozilik lavozimiga yangi sulola – mang'itlar sulolasining asoschisi Muhammad Rahimxon (1753–1759) zamonida erishgan.

Muhammad Vafo Karminagiy 1769-yili "Tuhfat ul-xoniy" nomli asarning faqat 1772–1768-yillarda yuz bergen voqealarni o'z ichiga olgan qisminigina yozib ulgurgan, xolos. Uning davomi, ya'ni 1768–1782-yillar voqealari bayon qilingan qismini nasaflik domla Olimbek ibn Niyozqulibek tomonidan yozilgan.

"Tuhfat ul-xoniy" asari badiiy jihatdan qofiyali nasr, saj usulida yozilgan. Asarda Buxoro xonligining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, geografik hamda etnik tarixiga oid ma'lumotlarning ko'pligi bilan qimmatli hisoblanadi. Ayniqsa, Buxoro xonligida XVIII asrning 20-yillardan boshlangan iqtisodiy va siyosiy inqiroz, ijtimoiy-siyosiy tarqoqlikning kuchayishi oqibatida markaziy davlat boshqaruvining zaiflashuvi, mang'it hukmdorlarining amirlikdagi urug'larni bo'ysundirish uchun olib borgan urushlari hamda shahar va qishloqlarning vayron bo'lishi haqidagi ma'lumotlar berilgan.

Asarda yana o'zbek qavmlari, ulug'lari va ularning ijtimoiy-siyosiy hayotda tutgan o'rni, ashtarkoniylar va mang'itlar hukmronligi davrida qo'shin va mang'itlar davlatining tuzilishi, 1722–1782-yillarda Buxoro xonligining Eron, Afg'oniston, Qozoq va Qo'qon xonliklari hamda Qashqar bilan olib borgan siyosiy munosabatlari haqida ham e'tiborga molik ma'lumotlar ko'p uchraydi.

“Tuhfat ul-xoniy” asarining qo’lyozma nusxalari ko’p bo’lib, uning Sankt-Peterburg, O’zbekiston, Tojikiston kutubxonalarida 23 ta qo’lyozmasi mavjud. 1938-yili asarning Muhammad Rahimxonning 1747-yili Saraxs atrofida Eron qo’shinlari bilan to’qnashuvi to’g’risida bayon qilingan qismi rus tilida e’lon qilingan.

**Mir Olim Buxoriyning “Fathnomayi sultoniy” asari.** Mir Olim Buxoriy (XIX asr) buxorolik tarixchi olim bo’lib, Buxoro amiri Nasrulloxon (1826–1860) davrida G’uzor hokimi Muhammad Olimbekning xizmatida bo’lgan va uning topshirig’i bilan “Fathnomayi sultoniy” (“Sultonlar fathnomasi”) tarixiy kitobini yozgan. Asar muqaddima va 29 bobdan iborat. U amir Shohmurod (1785–1800) davridan to Amir Nasrulloxon hukmronligining dastlabki yillarigacha Buxoro amirligida bo’lib o’tgan voqeа-hodisalarni o’z ichiga oladi. Amir Shohmurod va amir Haydar davri qisqa, Nasrulloxon davri voqealari esa batafsil yoritilgan. Muallifning vafoti tufayli asarning ikkinchi qismi yozilmay qolgan.

Asar O’zR FA Sharqshunoslik institutida qo’lyozmalar fonda inv. № 1838 raqam ostida saqlanadi. Ushbu asarning birinchi qismi O.D. Chexovich tomonidan rus tiliga tarjima qilingan. Tarjima qo’lyozmasi shu institutning kutubxonasida saqlanmoqda.

**Ahmad Donishning “Navodir al-vaqoe” asari.** Ushbu asar Ahmad Donishning eng yirik asari hisoblanadi. Muallif o’zining bu shoh asarini butun umri davomida yozgan. Ahmad Donish asarning kirish qismida shunday yozgan: “...zamona ahlining qilgan ishlari, ularning harakatlari menga yoqmas edi. Juda ko’nglim olinib, yuragim torayib ketganda qayg’u – alamlarimni chiqarish uchun do’stlarim yoniga qalam ko’tarib borib qog’oz yuzini qoralash bilan shug’ullanar edim. Bu qog’oz sahifalarini qora qilishimdan oydin va ravshan ma’nolar kelib chiqar edi. ...Mening mijozimni bilganlar shu yozilgan tarqoq

varaqlarni tartibga kiritilmagan hikoyalarni ko'rib: ... agarda bu yozilgan narsalar shunday qolsa, shamolga sovrilar, o'tga tushib yonar, suvgaga oqib ketur, shuning uchun o'z yozganlarimni boshqalarning so'zlarini ajratib, bir to'plam qilib kitob holiga kiritsin, sendan shu qoladi, do'stlaring uchun esdalik bo'ladi, yo'qliginda bor bo'lib, o'lganingda tirilasan, – dedilar. Yozganlarimni do'stlarning xotiri deb tarqoq holda kitobga aylantirdim. Bu kitobga "Navodir-ul-vaqoe" ("Nodir voqealar") deb nom berdim".

"Navodir-ul-vaqoe"ning mundarijasi boy, xilma-xil bo'lib, u o'z ichiga ilm-fanning falsafa, axloq, xulq, jamiyatning ijtimoiy hayotiga oid masalalarni o'z ichiga oladi. Ahmad Donishning ushbu asari muqaddima, uch fasl, 23 bob va xotimadan iborat. Asarning "mamlakatni boshqarish va xalqni ma'rifatli qilish" deb nomlangan risolasi eng katta hajmga ega. Ushbu risola falsafiy-didaktik ahamiyatga ega bo'lib, 4 ta fasldan iborat. Birinchi faslda amir va raislarning fe'li va davlat amaldorlarining xalq bilan qanday muloqotga kirishi-shi haqida ma'lumotlar berilgan. Ikkinci faslda esa amirlarning o'z askarlari bilan bo'ladigan muomalalari xususida fikr yuritilgan. Uchinchi faslda esa shohlarning yurtni boshqarish tartibi haqida, to'rtinchi faslda esa turli nodir voqe-hodisalar xususida so'z boradi.

Ahmad Donish bu asarini yozishda xalq og'zaki ijodidan foydalangan va klassik adabiyotning qoida-an'analariga rioya qilgan. Muallif muayyan voqe-hodisani hikoya qilishda xalqning so'zlashuv tilidan foydalanishga harakat qiladi; voqe-hodisalarni publisistik usulda bayon qilgach, ularni tojikcha-forscha she'riy misralarda ifodalaydi. U hikoyalardan chiqarilgan xulosalarni ham she'riy usulda qit'a, bayt va fardlar vositalasi bilan beradi. Bu hol kitobning qimmatini yanada oshiradi, hikoya qilinayotgan voqe-hodisalarning mohiyatini tezroq va to'g'ri tushunib olishga yordamlashadi.

“Navodir ul-vaqoe” asari o‘zining tuzilishi jihatidan badiiy hikoyalar to‘plamiga o‘xshab ketadi. Asarning “Eronlik bir savdogarning hikoyasi”, “Bir hojining hikoyasi”, “Mulla Holmatning sarguzashtlari”, “Yana she’rning himmati va muruvvati haqida” kabi qismlarda bayon etilgan voqeа-hodisalar kichik-kichik novellalar shaklida yuksak mahorat bilan hikoya qilinadi. Asar muallifi bu haqda shunday yozgan: “Mening bu kitobim qariyalar uchun bori taolo dargohida yo‘l topish taraqqiysiga vositadir. Yoshlarning insof va tavfiqli bo‘lishlariga sabab bo‘lur. Agar bu kitobni g‘ofillik bilan o‘qisalar, hikoyaga o‘xshab ketadi. Agar hushyorlik bilan nazar solsalar hidoyat yo‘lini topadilar”.

“Navodir-ul-vaqoe” asari Sadreddin Ayniy, rus sharqshunosи Ye. Bertels, I. Mo‘minov, Z. Rajabov va boshqa bir qator olimlar tomonidan o‘rganilgan. Asar 1964-yilda I. Mo‘minov umumiy tahriri ostida fors-tojikchadan o‘zbek tiliga A. Hamroyev va A. Shokirovlar tomonidan tarjima qilinib kitob shaklida nashr qilingan.

**Abduazim Somiyning “Tarixi salotini mang‘itiya” asari.** “Tarixi salotini Mang‘itiya” (“Mang‘it sultonlarining tarixi”) asari buxorolik tarixchi olim va shoир Mirzo Abduazim Somiy Bo‘stoniy (1838/39–1914) qalamiga mansubdir. Tarixchi boshlang‘ich ma’lumotni o‘zi tug‘ilib o‘sgan Bo‘ston qishlog‘ida olgan, so‘ngra Buxoro madrasalaridan birida o‘qigan. U umri davomida Buxoro amiri Muzaffarning shaxsiy kotibi, munshiyisi bo‘lib xizmat qilgan. Amir Abdulahad hukmronligi davrida saroydan chetlatilib, umrining oxirini nochorlikda kechirgan.

Abduazim Somiy bir necha adabiy va tarixiy asar yozib qoldirgan. “Mir‘ot ul-xayol” (“Xayol ko‘zgusi”), “Insho”, “Tuhfayi shohiy” (“Podshohning tuhfasi”), “Tarixi salotini Mang‘itiya” shular jumlasidandir. Bularidan tarix ilmi uchun eng muhim so‘nggi ikki asardir. 1900–1902-yillar orasida yozilgan “Tuhfayi shohiy” va 1907-yili yozib tamomlangan “Tarixi salotini Mang‘itiya” asari Buxoro xonligining amir Muzaffar davridagi

Buxoro amirligi tarixiga bag'ishlangan. Biroq ular ma'lum darajada bir-biridan farq qiladi. Masalan, "Tuhfayi shohiy" to'laroq, lekin oliv hukmdorni ko'klarga ko'tarib maqtash, ya'ni panegirik ruhida bitilgan. "Tarixi salotini Mang'itiya" esa nisbatan xolisona yozilgan. Ushbu asardagi ma'lumotlar Buxoro amiri Doniyolbiy (1758–1785) taxtga chiqishidan boshlangan. Unda Amir Shohmurod (1785–1800), Amir Haydar (1800–1826) davridagi voqealari, xo'jalar va ko'chmanchi urug'lar hujumi, Buxoro amirligining Xorazm va Qo'qon xonligi bilan munosabatlari xususida ma'lumotlar berilgan. Ayniqsa, Amir Nasrul-ning (1826–1860) o'z qo'shini bilan Qo'qon xonligi hududiga bostirib kirishi, Sherobod va Hisori Shodmonga qo'shin yuborishi haqida bat afsil hikoya qilinadi. Buxoro amiri Abdulahadxon davridagi voqealar bilan asar tugallagan.

Asarning ilmiy ahamiyati shundaki, unda Buxoro amirligining O'rta Osiyoning Rossiya tarafidan bosib olinishi arafasidagi iqtisodiy va siyosiy ahvoli, shuningdek, Buxoro-Rossiya munosabatlari birmuncha keng yoritilgan. Uning L.M. Epifanova tomonidan qilingan ruscha tarjimasi, so'zboshi va zarur izohlari bilan birga, 1962-yilda Moskvada chop etilgan.

**Mirzo Salimbekning "Tarixi Salimiyl" asari.** Mirzo Salimbek ibn Muhammad Rahim (1850–1930) tarixchi, shoir, davlat arbobi, diplomat bo'lib, u Buxoro amirligining Toshkentdagi savdo vakili (1873–1885); Yakkabog' (1893–1898), Nurota (1898–1902), Boysun (1902–1905), Sherobod (1905–1909), Shahrisabz (1910–1913), Chorbog' (1920) viloyatlari hokimi bo'lgan. 1885-yilda amir Abdulahad jo'natgan elchilar tarkibida Peterburgda bo'lgan. 1920-yil 29-avgustda Sibirga surgun qilingan. 1922–1924-yillarda Buxoro Respublikasidagi "Anjumani tarix" ("Tarixchilar jamiyati")da faoliyat yuritgan. Shuningdek, Mirza Salimbekning "Kashkuli Salimiyl" ("Salimiyning kashkuli"), "Jomi' ul-gulzor" ("Gulzorlar majmu'i"), "Ka'b al-axbor hikoyalari", "Hikoyati Abdulla ibn Muborak", "Tarixi Salimiyl" kabi

tarixiy, falsafiy va adabiy asarlari mavjud. Ular orasida tarixiy ma'lumotlarga boy asar “Tarixi Salimiy”dir. Asar Buxoro amirligi hukmdorlari amir Muzaffar (1860–1885), amir Abdulaxadxon (1885–1910), amir Olimxon (1910–1920) davrida yuz berган siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqidagi ko'pgina qimmatli ma'lumotlar beradi. Muallif ushbu asarni 1917-yildan 1920-yillar oralig'ida yozgan. “Tarixi Salimiy” asarining qo'lyozma nusxalari ko'p. Ushbu asarni A. Semyonov, L.M. Epifanova, N. Norqulov o'rgangan. Ayniqsa, tadqiqotchi N. Norqulov ushbu asarni 1968-yilda rus tiliga tarjima qilgan bo'sada, ammo kitob holida nashr qilinmagan edi. Ushbu asar 2009-yilda akademik A. Sagdullayev muharrirligi ostida nashr qilingan. Uning muqaddima qismida Chingizxonidan to amir Muzaffar davrigacha bo'lgan tarixni umumlashtiruvchi xarakterga ega hisoblanadi. Asarda “Amir Sayiid Muzaffar va uning o'n to'rt o'g'li hayoti haqida”, “Jo'ybor hojilarining avlodlari xususida”, “Amir Abdulla-hadxon davri”, “Amir Olimxon davri”, “Buxoro amirligining bosib olinishi”, “jadidlar haqida”, “afg'onlar haqida” kabi mavzularda tarixiy ma'lumotlar berilgan. Asarda amir Muzaffar davrida Hisor, Ko'lob, Baljuvon, Qorategin va Darvoz viloyatlarida bo'lib o'tgan qo'zg'olonlar, Buxoro amirligining Qo'qon va Rossiya bilan munosabatlari, shuningdek, Buxoro amirligining umumiyligi va ma'muriy tuzilishi haqida qimmatli ma'lumotlar bor. Shuningdek, asarda Mirzo Salimbek xalq ommasining ahvoli haqida eslatadi, yashash uchun eng zarur bo'lgan oziq-ovqat va boshqa mahsulotlarning o'sha davrdagi narxlarini ko'rsatib o'tadi. Umuman olganda, ushbu asar manbashunoslikda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

**Muhammad Solihning “Tarixi jadidayi Toshkand” asari.** “Tarixi jadidayi Toshkand” (“Toshkentning yangi tarixi”) nomli asari yana “Tarixi viloyati Toshkand” (“Toshkent viloyati tarixi”) deb ham nomlangan. Uning muallifi Muhammad Solih domla Qoraho'ja o'g'li bo'lib, 1830-yilda Toshkent shah-

rida tug'ilgan. U 1840–1848-yillarda Toshkent madrasalarida, 1849–1850-yillarda Qo'qonda, 1853–1854-yillarda Namangan va Marg'ilonda, 1856–1863-yillarda esa Buxorodagi Ko'kaldosh madrasasida tahsil olgan. Muhammad Solih Buxoroda tahsilni yakunlagach, 1863-yilda Toshkentga qaytib kelib, umrining oxirigacha Qiyot mahallasidagi Bekmuhammadbiy masjidida imomlik qilgan. Muhammad Solihxojaning vafot etgan yili noma'lum.

“Tarixi jadidayi Toshkand” asari umumiy tarix uslubida yozilgan bo'lib, Muhammad Solihning o'zi bir necha joyda asar muqaddima, to'rt rukn va xotimadan iboratligi va shartli ravishda ikki jildga bo'linganligini ta'kidlaydi. Bugungi kunda “Tarixi jadidayi Toshkand” asarining uchta qo'lyozmasi O'zR FA Sharqshunoslik institutida saqlanadi.

“Tarixi jadidayi Toshkand” asari manbalarini mazmuniga ko'ra tarixiy voqealarning ishtirokchilari va ularni o'z ko'zi bilan ko'rgan muallifning yaqinlari, tanish-bilishlari bergan ma'lumotlardir. Muhammad Solih Olimxonning Toshkentga yurishi bayonida boshqa mualliflardan alohida ajralib turadigan jihat shundaki, ko'pchilik tadqiqotchilarning e'tiborini o'ziga tortgan. Muhammad Solih shu yo'l bilan o'zi foydalanigan manbalarga tanqidiy yondashadi, zarur topganda ayrim aniqliklar ham kiritadi. Masalan, tarixchi Niyoz Muhammad Xo'qandiying “Tarixi Shohruxiy” asarida Olimxon Toshkentni zabit etgach, “Yunusxoja Buxoroga qochdi”, deb xato yozganini to'g'rilab, Buxoroga Yunusxoja emas, balki uning o'g'li Homidxoja qochganligi haqida yozadi va uning avlodlarini Buxoroda ko'rganini ta'kidlaydi. “Tarixi jadidayi Toshkand” asarida tilga olingan Rossiya imperiyasining 1865–1876-yillarda Buxoro amirligi, Xiva xonligini bosib olishi va 1875–1876-yillarda yuz bergen Po'latxon qo'zg'oloni hamda Qo'qon xonligining tugatilishi bilan bog'liq harbiy harakatlari tilga olingan. Aftidan, Muhammad Solih Toshkentdagisi qonli janglardan so'ng bosqinchilarning butun O'rta Osiyodagi harbiy harakatlarini

kuzatib borgan va ko'rganlari hamda voqeal qatnashchilaridan eshitganlarini o'z asarida qayd etgan. Shu sababli ham Muhammad Solih eshitganlari asosida amirlik hududidagi janglar, Po'latxon boshchiligidagi ozodlik harakati kabilarni ancha aniq yoritadiki, uning yozganlari Mirzo Abdulazim Somiy, Mirza Salimbek, Ahmad Donish, Mirzo Olim Mushrif, Muhammad Aziz Marg'iloni, Ibrat kabi o'sha davrning boshqa mualliflari asarlarida uchramaydi. Muhammad Solih Toshkent shahrini tavsiflaganda Toshkent viloyati hududini ham qamrab olgan. Uning tarkibidagi bir qancha shaharlar, qishloqlar va mavzelar Sirdaryoning boshlanishidan oxirigacha, Toshkentning sharqiy sarhadni Qurama tog'larigacha bayon qilingan.

"Tarixi jadidayi Toshkand" asari ustidagi dastlabki ilmiy tadqiqotlar Ya. G'ulomov, Murodxo'ja Solihxo'ja o'g'li, A. Nosirov, A. O'rinoiboyev, Z. Rajabov, O.D. Chexovich, Sh. Vohidov, T. Beysimbiyev, O'. Sultonov tomonidan o'rganilgan. 1983-yilda A. O'rinoiboyev va O. Bo'riyev birgalikda "Toshkent Muhammad Solih tavsifida" nomli risola, 2007-yilda tadqiqotchi O'. Sultonovning "Muhammad Solihxo'ja va uning "Tarixi jadidai Toshkand" asari" nomli kitobi nashr etilgan. Shuningdek, 2009-yilda qozog'istonlik tarixchi T. Beysimbievning "Кокандская историография: Исследование по источниковедению Средней Азии XVIII–XIX веков" nomli kitobida ushbu asar dan parchalar nashr qilgan.

**Niyoz Muhammad Xo'qandiyning "Tarixi Shohruhiy" asari.** Niyoz Muhammad Xo'qandiy 1803-yilda mullo Ashurmuhammad oilasida dunyoga kelgan. U Qo'qondagi Mahdumi Hammom madrasasida ta'lif olib, Niyoz Muhammad Xo'qandiy madrasani tugatgandan so'ng to 1860-yilgacha Xudoyorxon qo'shinida xizmat qilgan va keyinchalik attorlik bilan ham shug'ullangan. Qozog'istonlik olim T.K. Beysembiyev o'z tadqiqotida Niyoz Muhammad taxminan 1877-yilda vafot etgan, deb ko'rsatgan. Biroq, Sh. Vohidov 2006-yil Namangan

shahridan sotib olgan qo'lyozmadagi ma'lumotlar asosida Ni-yoz Muhammadni 1889-yilda ham tirik bo'lgan deb ma'lum qiladi. Asarning qachon yozilganligi haqidagi ma'lumotlar ham turlicha bo'lib, T. Beysembiyev asar taxminan 1872-yilda yozilgan deb ko'rsatgan bo'lsa, Sh. Vohidov bu asar 1890-yilda Xu-doyorxon farmoni bilan yozilgan deb bayon qilmoqda.

"Tarixi Shohruxiy" asarining toshbosma nusxalaridan tash-qari 12 ta qo'lyozma nusxasi ham mavjud. Ular Sankt-Peterburg, Qozon, Toshkent, Dushanbe, Parij kutubxonalarida hamda shaxsiy fondlarda saqlanadi. Mazkur nusxalarning tavsifini T.K. Beysembiyev o'z tadqiqot ishlarida qayd qilgan.

Asarda Qo'qon xonligining tashkil topishidan to XIX asrning 70-yillarigacha bo'lgan tarixi bayon qilingan. Xonlik tarixining ayrim davrlari qisqa, ba'zi davrlari mufassal bayon qilingan.

Kirish qismidan keyin asarda "Oltin beshik" qissasi keltiriladi. So'ng Qo'qon xonligi tarixi to Norbo'tabiy davrigacha bayon etilgan. Keyingi boblar quyidagi mavzularni o'z ichiga olgan: Olimxonning taxtga o'tirishi, uning O'ratega, Jizzax, Toshkent va Dashti Qipchoqqa uyushtirgan harbiy yurishlari, Devona So'fining Olimxonga qilgan suiqasdi va Olimxonning o'limi.

Umarxon davri haqida asarda quyidagi ma'lumotlar uchraydi: "Umarxon ibni Norbo'taxon sultanati davrida yuz bergan voqealar bayonidakim, u nur sochib adl oftobi bilan mamlakat tunini shariat chirog'i bilan yoritib, bid'at zulmatining zulmini yo'q qilgan va fitnasoz dahr va shu'badaboz osmon Farg'ona mulki sultonlari boshiga turli qiliq ko'rsatayotgan kunlarda paydo bo'ldi" deb yozilgan.

Qo'qon xoni Muhammad Alixonni taxtga chiqishi haqida shunday yozilgan: "Tez jilovli va ho'l zabonli qalamning oti, tezsur'at xo-maning ulog'i varaq maydonida yo'rtib chiqib yozadiki, Umarxon asosi zaif va ommaga oshnoyu xoslarga begona bo'lgan bu taxtgoh bilan vidolashganida latif jasadi va zarofatli vujudini bir kecha-yu kunduz haramda maxfiy saqlab, barcha vazirlar va nadimlar,

sarkardalar yig'ilishib olib, Furqon kitobini o'rtaga qo'yib ahdu paymon qilishib, qasam ichdilar va Muhammadalixonni o'n to'rt yoshida podshohlik ramzi bo'l mish oq kigizga solib, otasi o'rni ga xon ko'tardilar. Yusuf *mingboshi* tog'liq Muhammadalixonning qaynotasi, sarkardalar va amirlarning sarasi va yetakchisi edi".

Asar muallifi Sheralixon hukmronligi haqida quyidagilarni yozgan: "Sheralixonni Muhammadalixon taxtiga o'tirgani va Buxoro amirini kelib (Xo'qandni) qamal qilgani, maqsudga erisholmay o'zining yomon muomalasidan xijolat tortganining bayoni". Xudoyorxonning ikkinchi marta taxtga chiqishi haqida quyidagilarni yozgan: "Muxoliflar ishlari saranjomni topishi bilan ulamo va mashoyixlarni yig'ib olib, Xudoyorxonni ikkinchi marta oq kigizga solib, shohlik sultanati taxti va shahanshohlik to'shagini bezatdilar. Sultanat taxtini ul podshohlik daryosining gavhari shahanshohlik sadafidek oro berdi, tojdorlik to'shagini bezatdi" deb yozilgan.

Niyoz Muhammad Xo'qandiy o'z asarida Qo'qon hukmdori Mallaxon (1858–1862) davridagi quyidagi voqealarni yozgan: "Endi tezyurar qalam oti boshini Mallaxon voqeoti va umuroti, qirg'iziya va qipchoqiyaning saltanat boshqaruvi va hukmronligi bayoniga burib, varaq maydonida chopqir xushbo'y ufor tarqatadigan xomani haydab, varaq sahifalari maydonida bu qavmi bebosh va guruhi avboshning qilmishlari bayonida javlon berib, sultanat va hukmronliklari yozilajaq". 1862–1865 yillar voqealari tafsiloti asarning keyingi bobida bayon etilgan. Ushbu bobda Niyoz Muhammad Hudoyorxonning qirg'iz-qipchoq urug'lari bilan olib borgan urushlari, Buxoro amirligining Farg'ona o'lkasini zabit etishi, Aliquli amirlashkarining hukmronligi, xonlikning Rossiya tomonidan bosib olinishi, Chimkent mudofaasi, Toshkent himoyasi va shaharning Rossiya imperiyasi askarlari tomonidan bosib olinishi voqealari bayon etgan. Shu bobda Hudoyorxonning 1866-yili uchinchi marotaba Qo'qonda xon bo'lib ko'tarilishi ham o'rinni olgan. Xudoyorxon-

ning o'g'li O'rmonxonni to'yi haqidagi qasida va tarixi masnaviy shaklida nazm qilingan. Asarning oxirgi qismlari 1871-yilgacha bo'lgan ba'zi ijtimoiy-siyosiy voqealar bayoniga bag'ishlangan.

Ushbu asarning qimmati shundaki, Qo'qon xonligi tarixi, unda yuz bergen ijtimoiy-siyosiy voqealar, janglar o'rta tabaqaga mansub, ko'p tarixiy voqealarning ishtirokchisi va shohidi bo'lgan shaxs tomonidan yozilgan va tahlil etilgan.

Asarning dastlabki nusxasi 1885-yilda N.N. Pantusov tomonidan Qozonda toshbosma usulida nashr qilingan. 1876-yilda Qo'qon xonligi tugatilgan bo'lib, 1890-yilda ushbu asarning ikkinchi nusxasi ko'chirilgan bo'lishi kerak. N.N. Pantusov nashridan so'ng asarning ayrim parchalarini V.V. Bartold, N.G. Mal-litskiy va V.A. Romodinlar tomonidan rus tiliga tarjima qilingan. Bu asar T.K. Beysembiyev tomonidan chuqur va atroficha o'rganilib, 1987-yilda rus tilida Olmaota (Almati)da alohida kitob holida chop etilgan. 2014-yilda Sh. Vohidov tomonidan "Ibrat al havoqin" nomi ostida o'zbek tilida nashr qilindi.

**O'rta Osiyoning XVI–XIX asrlar tarixiga oid eski o'zbek tilidagi yozma manbalar. "Tavorixi guzida" ("Nusratnama") asari.** "Tavorixi guzida, Nusratnama" ("Saylanma solnomalar, g'alabalar kitobi") nomli tarixiy asar XVI asrda yaratilgan yozma obidadir. Ushbu asar muallifining nomi qat'iy aniqlanmagan. Tadqiqotchilar orasida bu xususda turlichaliklar mavjud. Sharqshunoslardan A.A. Semenov, R.G. Mukminova va V.P. Yudin ushbu kitobni Shayboniyxon tomonidan yoki uning faol ishtirokida yozilgan, deb hisoblaydilar. Ushbu asarni chuqur va atroficha o'rgangan A.M. Akramovning fikricha, "Tavorixi guzida, Nusratnama" ijodkori mashhur "Shayboniy-noma" dostonining muallifi Muhammad Solihdir. Adabiyotshunos A. Ibrohimovaning fikricha bu asar Muhammad Solihning qalamiga mansub emas, balki muallifi noma'lumdir.

"Tavorixi guzida Nusratnama" asari muqaddimasida mualif o'zini "Ojiz", "G'arib", "Hokisor" deb ataydi. U Munke qooni

nomiga yozilgan “Tavorixi jahongushoy”, G’ozonxonning qizi nomiga bitilgan “Tavorixi guzida” va Mirzo Ulug’bek nomidan yozilgan “Muntahab ut-tavorixi shohiy” nomli kitoblardan saylab tartib qilish haqida buyruq olganligi va unda Shayboniyxon tarixini ham qo’shib bir asar yaratganligi va unga “Tavorixi guzida, Nusratnama” deb nom qo’yanligini ochiq aytadi. Bundan ma’lum bo’lishicha, asar Shayboniyxonning topshirig’i bilan saroy tarixchilarining biri tomonidan yaratilgan.

Ushbu asar 1502–1505-yillar orasida yozilgan bo’lib, asosan uchta mustaqil qismdan iborat. Birinchi qismi Chingizxonga bag’ishlangan bo’lib, unda voqealar rivoji Nuh payg’ambar davri bayonidan boshlangan. O’g’izzon va qadimgi turklar, Chingizxon hamda uning Mo’g’iliston, Dashti Qipchoq, Mavarounnahr va Eronda hukmronlik qilgan avlodlari tarixi yozilgan. Muallif ushbu qismda Rashididdin va Juvayniyning asarlidagi ma’lumotlardan foydalangan.

Ikkinci qism esa Amir Temurga bag’ishlangan bo’lib, uning boshi va oxirgi parchalari yo’qolgan. Ushbu qism Mirzo Ulug’bekning “To’rt ulus tarixi” kitobidan foydalanib yozilgan.

Uchinchi qism Muhammad Shayboniyxonga bag’ishlangan bo’lib, uning tavalludidan (1451) to Mavarounnahrni istilo qilishigacha (1500–1505) bo’lgan davrda Dashti Qipchoq hamda Mavarounnahrning ijtimoiy-siyosiy ahvoli bayon qilingan. Shuningdek, Shayboniylar qo’shinining tuzilishi, hudud aholisining etnik tarkibi, shuningdek, ko’chmanchilarning Qorako'l, Hisor, Chag’oniyon, O’ratepa hamda Xo’jand viloyatlarida qilgan talon-tarojlari haqida muhim va qimmatli ma’lumotlar bor. Asarning yana bir qimmatli tomoni shundaki, unda sodir bo’lgan voqealarning vaqtি aniq ko’rsatilgan. Bundan tashqari, Shayboniyxon qo’shinlari tomonidan Farg’ona viloyatining bosib olinishi faqat “Tavorixi guzida, Nusratnama” asarida to’g’ri va to’liq yoritilgan. Asarning ushbu qismini yozishda Muhammad Solihning “Shayboniynoma” asaridan keng foydalanilgan

“Tavorixi guzida Nusratnama” asarining asl nusxasi topilmagan. Ammo asarning ikkita ko‘chirilgan qo‘lyozma nusxalari, 7 ta qisqartirilgan parchalari bizgacha yetib kelgan. Ulardan biri Rossiyada Sankt-Peterburgdagi Osiyo xalqlari muzeyida V-745 raqam ostida saqlanmoqda. Ushbu qo‘lyozma 147 varaqdan iborat. Ikkinchi qo‘lyozma esa Britaniya muzeyida Or-3222 raqam ostida saqlanmoqda. Ushbu qo‘lyozma 1562–1563-yillarda ko‘chirilgan bo‘lib, 148 varaqdan iborat. Kitobning matni faksimilesi (fotonusxa) zarur ilmiy izohlar va tadqiqotlar bilan 1967-yili Toshkentda A.M. Akramov tomonidan e’lon qilingan. Undan ayrim parchalar rus tilida 1969-yili Olmaotada V.P. Yudin tomonidan e’lon qilingan.

**Muhammad Solihning “Shayboniynoma” asari.** “Shayboniynoma” tarixiy dostonining muallifi Muhammad Solih (taxm. 1455–1535) bo‘lib, turkiy qabilalardan bo‘lgan bilkut urug‘idan chiqqan. U temuriylardan bo‘lgan Shohruh Mirzo (1409–1447) va Mirzo Ulug‘bek davri (1409–1449)da nufuzli amirlardan amir Shohmalikning nabirasi va amir Nur Saidbekning o‘g‘li bo‘lgan. Otasi Sulton Abu Sa’id Mirzo xizmatida, keyinchalik 1464–1467-yillarda Xorazm hokimi bo‘lgan. Ammo u 1467-yili Sulton Abu Saidning farmoni bilan qatl etilgan. Muhammad Solihning yoshligi Hirotda kechgan va o‘scha yerda madrasalardan birida o‘qigan. Keyinchalik Hirot hukmdori Sulton Husayn 1494-yilda Samarqand hokimi Darvish Muhammad tarxon va Xoja Ubaydulla Ahrorning o‘g‘li Muhammad Yaxoening xizmatida bo‘lgan. U umrining oxirgi yillarida Muhammad Shayboniyxon va Ubaydulloxon saroyida kotib bo‘lib ishlagan.

Muhammad Solihning yaratgan tarixiy dostoni “Shayboniynoma”da Muhammad Shayboniyxonning hayoti va olib borgan urushlari haqida she’riy uslubda hikoya qilinadi. Asar qahramonning tug‘ilganidan boshlab, to 1505-yilgacha Dashti Qipchoq, Movarounnahr hamda Xorazmning ijtimoiy-siyosiy tarixidan bahs yuritadi. Dostonda qo’shinlarning yovuz-



**Muhammad Solih “Shayboniynoma”  
asarining o‘zbek tilidagi nashri (1989)**

liklari, xalqning og‘ir ahvoli, Qorako‘l, Qarshi va G‘uzorda Shayboniyarga qarshi ko‘tarilgan qo‘zg‘olonlar haqida ham qimmatli ma‘lumotlar uchraydi. Asar geografik va etnografik ma‘lumotlarga ham boydir. “Shayboniynoma” asari jami 76 bobdan va 4456 baytdan iborat. Asarning dastlabki boblarida Muhammad Shayboniyxon madh qilingan. Jumladan, 4 bob shunday nomlangan: “So‘z ta’rifida aytilg‘on abyotdur va so‘z taqribi bila suhandon podshohi oliynishon imom Muhammad Shayboniyxonning madhi”. Keyingi boblarda Shayboniyxonning aqli, ilmi, Qur’oni karimni o‘qishi, davlat boshqaruvi, hunarlari haqida so‘z yuritilgan.

*“Ul kishi bordur Shaybonixon,  
 Xoni Shaybondur, u mahdiy zamon.  
 Holi oning yeri Turkistondur,  
 O’zbak eliga muazzam xondur.”*

Asarning 15 bobi lirik chekinishlar va qolgan 60 bobi tarixiy voqealarga bag’ishlangan. Asardagi voqealar afsonaviy yoki rivoyatlardan iborat bo’lmasdan, balki muallifning o’zi ko’rganlari asosida yozilgan. Bu tarixiy voqealar Muhammad Shayboniyxonning Buxoroga yurishidan boshlangan. Keyinchalik Samarqand, Qarshi, Huzor yeri, Qorako’nning olinish voqealari berilgan. Zahiriddin Muhammad Bobur bilan Samarqanddagi to‘qnashuvi haqidagi ma’lumotlar ham asardan joy olgan. Boburning tog’alar Ahmad Tanbal va Xonokoxonlarni yengib Shohruxiya va O’ratepani bosib olishi yoritilgan. Asar so’nggida Shayboniyxon tomonidan Balx shahrining qamal qilinishi va Husrav shohning qochishi, Andijondagi Ahmad Tanbalga qarshi askar yuborgani va nihoyat so’nggi qismida Xorazmda Chinso’fi bilan olib borgan janglar tasvirlangan. Asar Shayboniyxon g’alabasi to‘g’risidagi matn bilan tugaydi.

“Shayboniynoma” asari 1505-yildan keyin yozilgan. Uning ikkita nodir qo’lyozmalari saqlanib qolgan bo’lib, biri Avstriyaning Vena shahrida, ikkinchisi esa Sankt-Peterburg universiteti kutubxonasida saqlanadi.

### **Abulg’oziy Bahodirxonning “Shajarayi tarokima” va “Shajarayi turk va mo‘g’il” asarlari.**

Abulg’oziy Bahodirxon shayboniylar sulolasidan bo’lib, tarixda Xiva hukmdori (1643–1664), tarixchi va tabib sifatida nom qoldirgan. U 1603-yil 23-avgustda Urganchda tug’ilgan va 1619-yilgacha ana shu shaharda istiqomat qilgan. So’ngra og’alari Xabash sulton va Elbars sultondan yengilib, Buxoro hukmdori Imomqulixon (1611–1642) huzuriga qochib borgan. 1623-yilda akasi Asfandiyorxon Xiva taxtini egallagach,



Abulg'oziy Bahodirxon Urganchga hokim qilib tayinlangan. Ammo Asfandiyorxon bilan nizo chiqadi va u 1627-yilda qozoq xoni Eshimxon (1598–1628) huzuriga qochib boradi. Keyinchalik, yana bir qozoq xoni – Tursunxon huzurida 1630-yil oxirigacha istiqomat qilgan. Ko'p o'tmay, turkmanlarning taklifiga binoan yana Xorazmga qaytadi. Asfandiyorxon uni Xivaga hokim qilgan. 1629-yilda turkmanlar Eronga tobe bo'lgan Niso va Durunni bosib oldilar. Asfandiyorxon Eron bilan munosabatlarning tamoman jiddiyashib ketishidan cho'chib, aybni Abulg'oziy Bahodirxonga to'nkadi va uni 1630-yil qishida Eron podshohi huzuriga garov tariqasida yubordi. Abulg'oziy Bahodirxon shu tariqa 10 yil Eronda, Isfaxon yaqinidagi Taborak qal'asida qamoqda yashadi. 1639-yilning yozida u tutqunlikdan qochishga muvaffaq bo'ldi. Abulg'oziy Bahodirxon bir necha yil taxt uchun kurash olib borib, nihoyat 1644-yili Xiva taxtiga o'tirgan. Abulg'oziy Bahodirxon markaziy hokimiyatni mustahkamlash uchun kurash olib bordi. U 1663-yilda hokimiyatni o'g'li Anushaxonga topshirdi. Abulg'oziy Bahodirxon yirik tarixchi olim sifatida ham e'tiborga sazovor. Uning "Shajarayi tarokima" va "Shajarayi turk" asarlari O'zbekiston, umuman O'rta Osiyo tarixiga oid qimmatli manbalardan hisoblanadi. Abulg'oziy Bahodirxon tib ilmiga oid "Manofi'ul inson" ("Insonga foydali narsalar") nomli asar ham yozgan. U 1664-yili vafot etgan.

"Shajarayi tarokima" asari 1658–1661-yillar oraliq'ida, eski o'zbek tilida yozilgan bo'lib, unda turkiy qabilalarning, xususan turkman xalqining kelib chiqishi haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Asarda barcha turkiy xalqlarning afsonaviy podshosi O'g'izzon va uning avlodи tarixi, shuningdek, turkman urug'lari (solur, boyandur, taka, yovmut, tevachi, xizr eli, sari, Ali eli, yozir, ershori va boshqalar)ning kelib chiqishi qisqa tarzda bayon etilgan. "Shajaroyi tarokima" Abulg'oziy Bahodirxonning o'z so'zlariga qaraganda turkman mullalari, shayhlari va beklatining iltimosi bilan yozilgan. Ushbu asarning tanqidiy matni,

ruscha tarjimasi katta ilmiy tadqiqot bilan qo'shib, 1958-yilda akademik A.N. Kanonov (1906–1986) tomonidan nashr qilingan. Abulg'ozixon Bahodirxonning "Shajarayi tarokima" asari XIX asrning oxirlarida turli mutaxassislar e'tiborini o'ziga tortgan.

1660–1661-yillari yozib tugallangan bu asarni dastlab A.G. Tumanskiy 1893-yilda rus tiliga tarjima qilgan. Keyinchalik A.N. Kanonov uni rus tiliga qayta tarjima qilib, qiyosiy matnining grammatik ocherkini yaratgan. 1992-yilda tarixchi olim Quvomiddin Munirov va adabiyotshunos olim Qozoqboy Mahmudovlar hamkorlikda "Shajarayi turk"ning kirill alifbosidagi o'zbekcha nashrini chop ettirganlar. "Shajarayi tarokima"ning to'xtalib o'tish mumkin bo'lgan nashrlardan biri 1992-yilgi turkman tilidagi nashridir. Ushbu nashrni R. Rajabov tayyorlagan bo'lib, unga noshir tomonidan so'zboshi yozilgan va ko'rsatkichlar ilova qilingan.

"Shajarai tarokima"ning jami 9 ta nusxasi mavjud bo'lib, shundan 5 tasi O'zR FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida 1522, 1807, 5973, 1223, 9985 raqamlari ostida saqlanadi. Asarning ikkita nusxasi Rossiya FA Sharq qo'lyozmalari institutida D-109, A-895 raqamlari bilan, ikkita nusxasi Turkmaniston Respublikasi Mahtumquli nomidagi Til va adabiyot instituti fondida 546, 555 raqamlari bilan saqlanadi.

Abulg'oziy Bahodirxonning ikkinchi asari "Shajarayi turk" nomi bilan mashhurdir. Asarning asosiy qismi 1663–1664-yillarda yozilgan. Unda Xorazmning XVI–XVII asrning birinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy tarixi bayon etilgan.

"Shajarayi turk"ning yozilishi sabablari haqida muallifning o'zi bunday yozgan: "Ammo bizning ota-aqalarimizning beparvoliqi va Xorazm xalqining bevuqufliqi, bu ikki sababdin, bizning jamoatimizning Abdullaxonning (Shayboniylardan bo'lgan Buxoro xoni Abdullaxon II; 1583–1598) otalari (Abulhayrxon; 1528–1568) birlan bizning otalarimizning (Shayboniy Yodgorxon; XV asr) ayrılgan yeridin to bizga kelguna tarixlarini bitmay erdilar.

Bu tarixni bir kishiga taklif qilali teb fikr qilduk, he munosib kishi topmaduk, zarur bo'ldi (va) ul sababdin o'zimi aytduk”.

Asar qisqa muqaddima va to'qqiz bobdan iborat: “Tarix hijriy ming taqi yetmish to'rt (1074) 1663–1664 erdikim, biz bu kitobni ibtido qilduq va taqi “Shajarayi turk” deb ot qo'yduq. Taqi to'qqiz bob qilduq”.

“Avvalgi bob – Odamdin to Mo'g'ulxon gacha.

Ikkinchchi bob – Mo'g'ulxondin Chingizgacha.

Uchinchi bob – Chingizzxonning tuqqonidan o'lgonigacha.

To'rtinchchi bob – Chingizzxonning uchinchi o'g'li O'gaday qoonning va aning avlodining va Chingizzxonning o'g'lolarining naslindin har kim Mo'g'ul yurtinda podshohlik qilg'on bo'lsa aning zikri.

Beshinchchi bob – Chingizzxonning ikkinchi o'g'li Chig'a-toyxzonning avlodindin Mavarounnahr va Qoshg'ar yurtinda podshohliq qilg'onlarining zikri.

Oltinchchi bob – Chingizzxonning kichik o'g'li To'lixonning avlodindin Eron mamlakatinda hukumat qilg'onlarining zikri.

Yettinchchi bob – Chingizzxonning ulug' o'g'li Jo'chixonning avlodindin Dashti Qipchoqda podshohlik qilg'onlarining zikri.

Sakkizinchchi bob – Jo'chixonning o'g'li Shaybonxonning avlodindin Mavarounnahr va Qirm va Qozoq va Turonda xon bo'lg'onlarning zikri.

To'qqizinchchi bob – Taqi Shaybonxon avlodindin Xorazm mamlakatinda podshohlik qilg'onlarining zikri”.

“Shajarayi turk” asari omma tushunadigan tilda va omma-bop usulda yozilganligi bilan ajralib turadi. Hodisalar bayonidagi ixchamlik, ifodaning izchilligi, voqealarni latifa va rivoyat uslubida sodda, ravon tasvirlash asarning muhim tomoni hisoblanadi. Manba grammatik qurilishi, lug'at tarkibi nuqtayi nazaridan xalq so'zlashuv tiliga yaqin turadi. Abulg'oziy Bahodirxonning “Shajarayi turk” asarini yozishda ilgari bitilgan bir nechta tarixiy asarlari, xususan, Rashid ad-dinning “Jome' ut-tavorix”, Sharafiddin

Ali Yazdiyning “Muqaddimayi Zafarnoma”sidan kerakli o’rinlarda unumli foydalangan. Mazkur asar rus, fransuz va nemis tillarida nashr etilgan. “Shajarayi turk” asarining tasnif etilishi sababini quyidagicha keltiradi: “...Muhibbul ulamo va murabbiyyul fuzalo Arab Muhammadxon o’g’li Abulg’oziy Bahodirxon Chingiziy va Xorazmiy andoq etatururkim, Chingizxonning ota va ajdodlarini har viloyatlarda podshohlik qilib tururlar. Muarrihlar turkiy va forsiy tili birlan onlarning podshohlik qilg’on, tug‘g’on va o‘lg’on tarixlarini, yaxshi va yomon qilg’on ishlarini yozib tururlar. ...Ammo bizning ota va oqalarimizning beparvoliqi va Xorazm xalqining bevuqufliqi, bu ikki sababdin, bizning jamoatimizni Abdulloxonning otalari birlan bizning otalarimizning ayrilg’on yeridan to bizgacha kelguncha tarixlarini bitmay erdilar”.

**Munis va Ogahiyning “Firdavs ul-iqbol” asari.** “Firdavs ul-iqbol” (“Jannat bog’i”) nomli Xorazm tarixiga bag’ishlab yaratilgan shoh asarning ijodkorlari XVIII asr so’nggi choragi va XIX asrda o’tgan shoir, tarjimon va tarixnavis Shermuhammad ibn Avazbiy Munis (1778–1829) va uning jiyani va shogirdi Muhammad Rizo Erniyozbek o’g’li Ogahiy (1809–1847) hisoblanadi. Ushbu asarda qadim zamondan boshlab 1825-yilgacha bo’lgan tarixiy voqealarni o’z ichiga oladi. Munis o’zining asarini sharq tarixchilari an’anasiga muvofiq hamd va na’t bilan boshlagan. So’ngra o’z hayoti va asarning yozilish tarixi haqida qisqacha ma’lumot berib, bevosita Xorazm tarixini yozishga kirishadi. Munis o’zining “Firdavs ul-iqbol” asarini yozib tamomlay olmagan. U qadim zamondan to Muhammad Rahimxon I hukmronligining 7-yili (1813)gacha bo’lgan voqealarni yozishga ulgurgan. Asarning qolgan qismini, uning jiyani Ogahiy davom ettirgan. Munis “Firdavs ul-iqbol” asarini Eltuzarxonning buyrug’i asosida yozgan. U o’z navbatida Muhammad Rahimxonga ham nadim bo’lib, undan moddiy yordam olib turgan. Munis “Firdavs ul-iqbol” asarining muqaddimasida Eltuzarxonning otasidan so’ng 1804-yili mart oyida inoq bo’lgani

va tez orada qo‘g‘irchoq chingiziy xonni taxtdan tushirib, o‘zi xon taxtiga o‘tirganini yozadi. Asarda she’riy bezak ham juda kuchli berilgan. Munis jami 2915 misradan iborat 683 she’riy parcha beradi. Ogahiy esa 514 misradan iborat 84 ta she’riy parchalarni kiritgan. She’riy parchalar Mullo Sayyidoyi Buxoriy, Nizomiy, Sa’diy, Firdavsiy, Mirzo Nozim Hiraviy va oltiasi noma'lum shoirlarga tegishli. Asarda Munis va Ogahiyning ham tarix, masnaviy va qasidalari bor.

Asar “bismilloh”dan so‘ng: “Oliymakon sultonlarning dab-dabai hashamati va garduntavon xoqonlarning kavkaba (ulug‘-vorlik, shon-shavkat) davlati ul podshohi alalitloq (mutloq, butunlay)ning qullug‘i bilan intizom toparkim ... ”, deb boshlanib, keyin: “Muqaddima ba’zi maxsusoti a’loxoqoniy zikridakim osori iqboli sohibqironiy erdi”, degan jumla bilan boshlangan muqaddima, beshta bob va xotimadan iborat.

Birinchi bobda Odam atodan to Nuh payg‘ambar avlodiga-cha bo‘lgan hodisalar, ikkinchi bobda Yofas alayhissalomdan to mo‘g‘il hukmdorlarigacha bo‘lgan voqealar haqida, uchinchi bobda Qurlos avlodiga mansub podshohlar davrida sodir bo‘lgan voqealar haqida bayon qilinadi. To‘rtinchi bobda Eltuzarxonning ota va bobolari haqida, beshinchi bobda Eltuzarxonning tug‘ilishidan boshlab, to bu asarning yozilishi tamom bo‘lishiga qadar sodir bo‘lgan voqealar haqida gapiriladi. Xotimada esa u davrda yashagan olimlar, avliyolar, shoirlar, donishmandlar, hunarmandlar va boshqalar haqida yozmoqchi bo‘lgan.

Yevropada “Firdavs ul-iqbol” mualliflari Munis va Ogahiy haqidagi birinchi ma’lumotni Herman Vamberi bergen. Biroq uning ma’lumotlari biroz chalkash ekanini Yu. Bregel ko‘rsatadi. H. Vamberi 1863-yili Xivaga kelganda Munis vafot etgan edi. Ogahiy ham Vamberi bilan uchrashmagani aniq. H. Vamberi xivaliklardan olingan ma’lumotlarni yig‘ib, Munisga nisbat berilgan juda bir zaif she’rni nemischa tarjimasi bilan keltirgan. Mazkur axborotida H. Vamberi Munis va Oga-

hiy tarixiy asarlaridan xabardor ekanini bildirib, yaqin kela-jakda ularning adabiy merosidan namunalar tarjima etishni rejalashtirayotganini yozgan. Keyingi ma'lumot Aleksandr Kunga tegishli bo'lib, u 1873-yili Xiva xoni saroyining talon-tarojida ishtirok etib 300 jild qo'lyozma kitoblar orasida Munis va Ogahiy kitoblarini ham qo'lga kiritgan. U zudlik bilan "Туркестанские ведомости" nomli davriy nashrda shu haqda axborot berib, Munis asarining oxirgi bobি mazmuni va Ogahiy asarları haqida ma'lumot taqdim qilgan.

Munis va Ogahiy tomonidan bitilgan "Firdavs ul-iqbol" asarining to'qqizta nusxasi mavjud bo'lib, bu nusxalar asosan, Rossiya FA Sharq qo'lyozmalari institutida 571, E6 VIII raqamlari, O'zR FA Sharqshunoslik institutida 5364/1, 821/1, 9979, 5071, 7422, 275/1 raqamlari ostida saqlanadi. Shuningdek, asarning bir nusxasi Finlandiya poytaxti Xelsinkida saqlanadi.

**Mirzo Olim Toshkandiy "Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin".** Mirza Olim Mushrif Toshkandiyning "Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin" (Sultonlar nasablari va xonlar tarixi) asari Qo'qon xonligi tarixiga oid muhim asarlar-dan biri hisoblanadi. Asar muallifining to'liq ismi Mirzo Olim ibn domla Mirzo Rahim Toshkandiy bo'lib, u garchi Toshkentda tug'ilgan bo'lsa, Qo'qonda Mallaxon va Xudoyorxon saroyida xizmat qilgan. Ammo uning tug'ilgan yili va vafot etgan yillari aniq emas.

"Ansob us-salotin va tavorix al-havoqin" asari muallifning boshdan kechirgan voqealar tafsiloti, guvohlar naqli hamda ko'p tarixiy manbalar asosida yozilgan. Mirzo Olim asari o'zbek tilida bo'lib, matni goh nazmda, goh nasrda bayon etilgan. Asar tarkibidan quyidagi mavzular o'rın olgan:

- Muqaddima;
- Oltin beshik voqeasi;
- Qo'qon xonligining birinchi xonlari (Muhammad Alixon davri haqida ham bu bobda bayon qilingan);
- Zikri julusi Sheralixon ibn Xojibek ibn Abdurahmon;

- Zikri julusi Xudoyorxon ma'dalatnishon;
- Xudoyorxonning ikkinchi julusi sana 1279 (milodiy 1863-yil);
- Zikri julusi Sulton Sayidxon;
- (Xudoyorxonning uchinchi marotaba xon bo'lishi) va uni ma'zul bo'lib hayotining oxirgi kunlarigacha bo'lgan voqealar;
- Zikri julusi shahzodai davron sohibqiron Sayid Nasrid-dinxon ibn Xudoyorxon hoji al-haramayn;
- Uchqo'rg'on ustiga Urusiyani kelishi (Farg'ona Rossiya ma'muriyati ostida);
- Bayoni hasbi xoli Mullo Olim Mirzo.

Mirzo Olim shoir sifatida A.P. Qayumovning "Qo'qon adabiy muhiti" asarida o'r ganilgan va ushbu asar orqali tahlil qilingan. Asar A. Matg'oziyev va M. Usmonovalar tomonidan 1995-yilda "Qo'qon xonligi tarixi" nomi ostida nashr qilingan. O'zR FA Sharqshunoslik institutida 5325 raqam ostida saqlanayotgan nusxasi asosida qo'qonlik olim S. Yo'ldoshev tomonidan rus tiliga o'girilgan asarda sharhlar, izoh va ko'rsatkichlari bilan 2007-yilda nashr qilingan. Tarixchi Sh. Vohidov tomonidan tayyorlangan "Qo'qon xonligida tarixnavislik" asarida Mursifning o'z qo'li bilan ko'chirilgan, hozirda O'zR FA Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida 5325 raqami ostida saqlanayotgan qo'lyozmasi tavsif qilingan.

#### **Savol va topshiriqlar**

1. XVII–XIX asr birinchi yarmida O'rta Osiyo xonliklaridagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar xususida qanday ma'lumotlarni bilasiz?
2. Buxoro xonligi tarixiga oid manbalar va ular dagi tarixiy ma'lumotlardan misollar keltiring.
3. Xiva xonligi tarixiga oid manbalardan qaysilarini bilasiz?
4. Fors tilidagi manbalar to'g'risida ma'lumot keltiring.
5. O'rta Osiyoning XVI–XIX asrlar tarixiga oid eski o'zbek tilidagi yozma manbalariga misollar keltiring.

6. Abulg'ozixon Bahodirxonning "Shajarayi tarokima" asarining möhiyati va tarixiy ahamiyati nimada?
7. Mustaqillik yillarda O'rta Osiyoning XVII–XIX asrlar tarixiga oid yozma manbalaridan qaysi biri nashr qilindi?
8. Qo'qon xonligi tarixiga oid manbalar bo'yicha ma'lumotlar keltiring.

### Manbalar va adabiyotlar

1. Abulg'oziy, Shajarayi turk. – Toshkent: Fan, 1992.
2. Азамат Зиё Хомид угли. "Силсилат ас-салотин" как исторический источник. Автореферат дисс. На соисканой ученой степени кан. ист. Наук. – Ташкент, 1990.
3. Ahmad Donish. "Navodir-ul-vaqoe". I. Mo'minov umumiyl tahriri ostida. – Toshkent: Fan, 1964.
4. Ahmedov B. O'zbekiston tarixi manbalari. – Toshkent: O'qituvchi, 2001.
5. Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. – Санкт-Петербург, 1865.
6. Vohidov Sh. Qo'qon xonligida tarixnavislik. – Toshkent: Akadem-nashr, 2007.
7. Ibrohimova A. Nusratnoma va uning muallifi // O'zbek tili va adabiyoti. 6-son. – Toshkent, 1967.
8. Иванов С.Н. "Родословное древо тюрок" Абу-л-Гази-хана. Грамматический очерк. – Ташкент, 1969.
9. Madraimov A., Fuzailova G. Manbashunoslik. Bakalavriat ta'llimi yo'naliishi talabalari uchun darslik. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2008.
10. Mirzo olim Mushrif. Qo'qon xonligi tarixi: Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin. – Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1995.
11. Мирза Алим ибн Мирза Рахим Тошканди. Ансаб ас-салатин ва таварих ал-хивакин (генеология султанов и история хаканов) / перевод, примечания и указатели С. Юлдашева. Введение, научный редактор Ш. Вохидов. – Ташкент, 2007.

12. Мирза Салимбек. Тарих-и Салимий (источник по истории Бухарского эмирата) / перевод: Н. Наркулова. – Ташкент: Академнаср, 2009.
13. Мирза Мухаммад Салимбек. Кашул-и Салими. Литография. – Ташкент, 1912.
14. *Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. Arab yozuvidan tabdil etgan, kirish va izohlar mualliflari Sh. Vohidov, I. Bekjonov, N. Polvonov.* – Toshkent: Yangi asr avlod, 2010.
15. *Niyozmuhammad Ho'qandiy – Niyoziy. Ibrat ul havoqin (Tarixi Shohruxiy).* Tarjimon, tabdil, izohlar muallifi Sh. Vohidov. – Toshkent: Turonziyo, 2014.
16. *Saidqulov T. O'rta Osiyo xalqlari tarixining tarixshunosligidan lavhalar.* – Toshkent, 1993.
17. *Sultonov O'. Muhammad Solihxojanining "Tarixi jadidayi Toshkand"* asari muhim tarixiy manba sifatida (XIX asr). – Toshkent, 2007.
18. Таварихи гузиде, нусратнама. Исследование, критический текст, аннотированное оглавление и таблица сводных оглавлений А.М. Акрамова. – Ташкент, 1967.
19. *Xolmo'minov S. "Shajarai tarokima"ning o'rganilishi tarixi // Yosh sharqshunoslarning 8 ilmiy amaliy konferensiya tezislari.* – Toshkent, 2010. – В. 18–20.
20. *Halun H. Handbook of Oriental collection in Finland: Manuscripts, xylographs, inscriptions, and Russian minority literature.* London-Malmuts, 1979.
21. *Beisembiev Timur K., ed. Andi trans. The Life of Alimquli: A Native Chronicle of Nineteenth Century Central Asia, by Mulla Muhammad Yunus Djan Shigavul Dadkhah Tashkandi.* London: Routledge Curzon, 2003.
22. *Munis, Shir Muhammad Mirab, and Muhammad Riza Mirab Agahi. Firdaws al-Iqbal: History of Khorezm.* Trans. And ann. By Yuri Bregel. Leyden: E.J. Brill, 1988.
23. ÇELİK, Muhammed Bilal. "Firdevsü'l-İkbal'e Göre Hive Hanlığı Tarihi ve Teşkilatı", Yayınlanmamış Yüksek Lisans Tezi, Sakarya Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Tarih Anabilim Dalı, Sa karya. 2004.
24. Qayumov A. Qo'qon adabiy muhiti. – Toshkent: Adabiynashr, 1967.

## 10-MAVZU: RUS VA YEVROPA TILLARIDAGI MANBALAR

*O'rta Osiyo haqida Yevropa tillaridagi yozma ma'lumotlar, sayyoh va elchilar – Plano Karpini, Vilgelm de Rubruk, Marko Polo sayohatnomalari, Iogann Shiltberger, Rui Gonsales de Klavixo va Entoni Jenkinson kundaliklari (XIII–XVI asrlar). Rus va Yevropa tillaridagi manbalarda O'rta Osiyo tavsifi (I.D. Xoxlov axboroti, "Книга Большому Чертежу", aka-uka Pazuxinlar hisobotlari, Florio Benevini ma'lumotnoma (relyatsiya)si). V.N. Tatishevning "История Российской" (1720–1739) va «Лексикон российский исторический, географический, политический и гражданский» (1744–1746) asarlari, D. Gladishev va I. Muravin ma'lumotlari, Danila Rukavkin safarnomasi. P.I. Richkovning "Топография Оренбургской губернии" (1762) asari, F. Efremov, I. Georgi, mitropolit Xrisanfning safarnoma va qaydlari, T. Burnashevning O'rta Osiyo safari xotiralari (XVIII asrning ikkinchi yarmi).*

XI–XV asrlarda Yevropa mamlakatlarida ilm-fan va aniq bilimlarning taraqqiy etishi, avvalo Uyg'onish davri, shu bilan birga ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi bilan bog'liqidir. Salib yurishlari va o'zaro mahsulot almashish yevropaliklarining geografik dunyoqarashlarini o'zgartiribgina qolmay, sharqiylar haqida ma'lumotlar to'plab, unga eltuvchi yo'llarni aniqlash va savdo munosabatlarini yo'lga qo'yishi zaruriyatini tug'dirdi. Shuningdek, Rus davlatini iqtisodiy jihatdan birlashtirishga yordam qilgan sanoat markazlarining paydo bo'lishi chet el mamlakatlari bilan savdo munosabatlari o'rnatish uchun katta ahamiyatga ega bo'lib, Sharq hamda G'arb mamlakatlari bilan yaqin aloqalar o'rnatildi. Rus dav-

lati yangi bozorlar qidirib topish uchun qo'shni davlatlarga o'z elchilarini yubortirdi.

Bu davrda Rus va Yevropa davlatlaridan O'rta Osiyoga elchilar kelishi ko'paydi. Vizantiya imperiyasi qulagan zamondan (1453) beri diplomatiya ishi ancha faollashdi. Chet ellarga elchi yuborish uchun hukumatlar asosan, ko'pni ko'rgan, turli texnik ma'lumotlarga ega bo'lgan kishilarni tanlar edilar. Ulardan o'zları vakil qilib yuborilgan mamlakatlardagi saroy ahllarining niyat va rejalarini to'g'risidagina emas, balki o'sha mamlakatning ichki hayoti, xalqining mashg'uloti va urf-odati, boyligi, mol ishlab chiqarish darajasi, ayrim guruhlar o'rtasidagi ichki kurash va nizolar to'g'risida ham mukammal ma'lumotlar keltirishni talab etar edilar.

XV–XVI asrlardagi vakolatxona elchi va agentlarining aksari etnograflar, geograflar, tarixchilaridan iborat bo'lgan.

Safarga jo'nab ketayotgan elchi odatda, ishonch yorlig'i, ya'ni o'z elchiligin tasdiqlovchi va hukmdorning elchiga ishonishni iltimos qilingan qog'ozini olardi. Ikkinchidan, elchiga "Dasturulamal" ham topshirilib, unda elchining qiladigan ishi, elchixonaning maqsad va vazifalari mukammal bayon qilingan. Shuningdek, turli vaziyatlarda chet elda bo'lgan elchi o'zini qanday tutishi kerakligi ham ko'rsatilgan. Elchiga safarda, podsho huzurida muzokara vaqtida o'zini qanday tutishi to'g'risida muhammal yo'l-yo'riq berilgan.

O'zbek hukmdorlari saroylarida ajnabiylar qabul qilish tartibi chet el hukmdorlari saroylaridagi singari maxsus qoidaga muvofiq o'tkazilar va ko'p jihatdan ulardagi qabul mafrosimlariga o'xshab ketar edi. Farqi shunda ediki, xon elchilari aksari saroy ichida emas, balki bog'da qabul qilardi. Bunga mamlakatning iqlimiylar sharoitlari sabab bo'lsa kerak.

**Plano Karpini.** Rim papasi Innocentiy IV ning Chingizzxon huzuriga yuborgan elchisi fransiskan monaxi Plano Karpini 1246-yilda Rossiyaning janubi, O'rta Osiyo hudud-

laridan o'tib Qoraqurumga boradi. Sayohati asosida "Mo'g'illar tarixi" ("История монголов") nomli kitobini yozib qoldirgan. Kitob 1911-yilda rus tilida ham chop etilgan (Карпини Плано. История монголов / Введение, перевод и примечания А.И. Малеина. – СПб.: Изд. А.С. Суворина, 1911). Aynan uning O'rta Osiyo haqidagi ma'lumotlari Yevropa uchun Markaziy Osiyoga eltuvchi quruqlik yo'llari haqida bat afsil ma'lumot berdi.

Karpini o'zining sayohat yo'nalishi haqida bayon qilib, komanlar yurtidan so'ng, qang'itlar (qang'lar) yeri boshlanishini, suv kam bo'lganidan odamlar bu yerlarda kam yashashini, u yerdan bisermanlar yurtiga qarab yo'l olganliklarini, ushbu yurtda kattagina daryo bo'lib, uning nomini bilmaganliklarini, lekin uning bo'yida Yankent, Barchin, Ornas va o'zlari bilmagan boshqa shaharlar borligi haqida yozgan.

Karpini kattagina daryo deganda har holda Sirdaryoni tushungan. Barchin – bu Barchinlig'kent bo'lib, Jand va Sig'noq o'rtasida joylashgan. Bisermanlar deganda Karpini musulmon turklarni tushungan. Karpini qang'lar yerini 32 kunda bosib o'tganliklarini aytgan.

U Tatariya (Mo'g'iliston)ning geografik holatini quydagicha ta'riflaydi: "...sharqda xitoyliklarning, shuningdek, solangliklarning (Manchjuriya) yerkari, janubdan sarratsinlar (Afg'oniston, Eron), janubi-g'arbdan guirlar (mo'g'illar), g'arbdan naymanlar viloyati; shimolda esa okean bilan chegaralangan".

Bu yerda Karpini Kaspiy dengizini okean qo'ltig'i, deya o'rta asr geograflari yo'l qo'ygan xatolikni takrorlaydi.

Plano Karpiniga ko'ra, O'rta Osiyoda "ulkan tog' tizmalari mavjud bo'lib, ular janubdan Ierusalim va Baldax (Balx?)gacha tutashib ketgan". Bu kabi noaniq ma'lumotlar Karpinining hisobotida ko'p uchraydi, uning ma'lumotlarida ilmiylik bo'lmasada, ammo Yevropa faniga O'rta Osiyo va Sharq mamlakatlari haqida ma'lumot bergani bilan qimmatlidir. O'zining elchiligi

oldiga qo'yilgan diniy maqsad bajarilmagan bo'lsa-da, Karpini sayohati haqida ajoyib hisobot yozib qoldirgan. Sayohatnomasiga ilova tarzida karta ham tuzgan, lekin u yo'qolgan bo'lsa kerak.

**Vilgelm de Rubruk.** Fransiya qiroli Lyudovik IX tomonidan elchi Vilgelm de Rubruk (Rubrukvis) mo'g'illar davlatiga jo'natilgan bo'lib, o'sha davrda fransuzlar oltinchi salib yurishida ishtirok etishayotgan edi. Rubruk Shimoliy Falastindagi Akra shahridan 1252-yilning bahorida yo'lga chiqib, dengiz orqali Konstantinopolga keladi. Ammo bu yerda u 1253-yilning inayigacha qolib ketadi.

Rubrukning sayohatnomasi rus tiliga tarjima qilinib, XX asrning boshlarida nashr etilgan (Рубрук Вильгельм. Путешествия в восточные страны / Введение, перевод и примечания А.И. Малеина. – СПб.: Изд. А.С. Суворина, 1911). Shundan so'ng u Qrimga keladi. Uning sayohati Karpining sayihat yo'nalishiga juda o'xshaydi. Itil daryosidan Ural daryosigacha yo'l bosib, Sirdaryo havzasiga keladi va bu yerdan janubi-sharqqa yo'l oladi. Yetti kun davomida tog' yo'llaridan, eftimol Olatovning shimoli-g'arbiy qismidan o'tib Talas daryosi vodiysi va Kenchat shahriga yetib keladi. Bu haqda Rubruk shunday yozadi: "Men ushbu tog'lar haqida so'rab, uning Kavkaz tog'larining davomi ekanligini bildim. U g'arb va sharqdan Kaspiy dengizi bilan tutashgan. Itil daryosi quyiluvchi ushbu dengizdan o'tganimizni ham bildim". Rubruk bu yerda antik geograflar fikriga qo'shilib, Tyanshanni Kavkaz tog'lari bilan bog'lab, Olatovni Kavkaz tog'larining davomi, deya noto'g'ri orografiq xatoni takrorlagan.

Ammo Rubrukning Markaziy Osiyo haqidagi boshqa geografik ma'lumotlari qimmatlidir. Masalan, Talas vodiysidagi sug'orish kanallari va dehqonchilik madaniyati haqida yozib, quyidagilarni ta'kidlaydi: "Tog'dan (Talas tizmalaridan) katta daryo (Talas) boshlanadi, u butun mamlakatni suv bilan

ta'minlaydi... Bu daryo hech qanday dengizga quyilmaydi, yerga singib, ko'p botqoqliklarni paydo qiladi".

Rubrukning Kaspiy dengizi haqidagi ma'lumotlari ham qiziqarlidir: "Dengiz uch tomonidan tog'lar bilan o'ralgan bo'lib, shimoliy qismi tekisliklarga tutashgan... Dengizni 4 oyda aylanib chiqish mumkin. ....U okeanga tutashuvchi ko'rfa emas yoki hech bir yeri okeanga tutashmaydi. Hamma tomoni quruqlik bilan qoplangan".

Rubruk Yevropa adabiyotida ilk bor Markaziy Osiyo reyefining xususiyatlarini tog'lar bilan bog'lab ochib berdi. Ma'lumotlari shunisi bilan ahamiyatliki, u o'zi ko'rghan narsalari haqida yozgan.

**Marko Polo sayohatnomasi.** 1295-yilda Genuya qamoqxonasida o'tirgan venetsiyalik sayyoh Marko Polo Osiyoga qilgan sayohatini o'z sherigi Rustichianoga aytib turib yozdirgan. U "Dunyoning rang-barangligi haqidagi kitob" (qisqacha Marko Polo "Kitob") deb nomlangan. Ushbu qo'lyozma Parij Milliy kutubxonasida 1116 raqam ostida saqlanadi.

1271–1272-yillarda Marko Polo savdo munosabatlarini yo'lga qo'yish maqsadida Qoraqurumga yo'l oladi. Bungacha otasi Nikollo Polo Osiyoni uch marta kesib o'tgan edi. Bu safar unga 17 yoshli Marko ham qo'shiladi. Ular Akra–Mosul–Bag'dod–Basra–Ho'rmuz–Kirmon–Sabzavor–Balx–Koshg'ar yo'nalishi bo'yicha Qoraqurumga Xubilayxon huzuriga keli-shadi. Marko bir necha yil uning saroyida xizmatda bo'ladi va 1294–1295-yillarda yana Ho'rmuz–Kirmon–Tabriz–Tarabzun orqali o'z yurtiga qaytadi.

Marko Poloning "Kitob"ida O'rta Osiyo shaharlari va geografik manzillari haqida qimmatli ma'lumotlar uchraydi.

Marko Polo kitobining IV bo'limida uzoq yo'l bo'sib Buxoroga yetib kelganliklari haqida yozadi: "...Sahrolar osha Buxoroga yetib keldik. Shahar katta, ulug'vor. Butun mamlakat ham Buxoro deb ataladi. U yerda Baroq podsholik qiladi.

Persiya (Eron)ga qaraganda Buxoro juda yaxshi shahar hisoblanadi”.

Amudaryoni Marko Polo Jon va Geyjon nomlari bilan tilga oladi va uni Gleveshelan (Gilon-Kaspiy) dengiziga quyilishini yozadi. Undan “boshqa bir dengizgacha borish uchun 12 kun kerak bo‘ladi” deganida Orol dengizini nazarda tutgan deb aytilish mushkul. Chunki uning g‘arb yoki sharqda ekanligi yozilmagan.

Marko Polo Samarcand shahri haqida ma'lumot berib, shunday yozadi: “Samarcand katta va mashhur shahar; u yerda sarratsinlar bilan birga musulmonlar istiqomat qiladilar. Buyuk xon shaharni jivaniga bergen bo‘lib, u tog‘asi bilan kelisha olmay bir necha bor janglar olib borgan. Shahar shimoli-g‘arbda joylashgan”.

XIV–XVI asrlarda Marko Poloning “Kitob”i kartograflar uchun qo’llanma sifatida xizmat qildi. Uning geografik ma'lumotlari 1320-yilda tuzilgan Pyotr Viskonti, 1375-yildagi Katalon va 1459-yilgi Fra Mauroning doiraviy kartalarida o‘z aksini topdi. Shuningdek, Marko Poloning “Kitob”i Buyuk geografik kashfiyotlar uchun ham asosiy qo’llanma sifatida XV–XVI asrlardagi portugal va ispan ekspeditsiyalari tashkilotchilari uchun asosiy kartografik manba bo‘lib xizmat qildi.

**Iogann Shiltberger.** Nemis sayyohi Iogann Shiltberger (1381–1440) asli bavariyalik qurchi bo‘lib, Yevropa qirollari bilan turk sultonni o‘rtasida Nikopol yaqinidagi bo‘lgan jangda turklar qo‘liga asirlikka tushadi (1396). Anqara yaqinida Turk sultonni Boyazid va Amir Temur qo‘smini o‘rtasidagi jangda Temur askarlari tomonidan asir olinib, Samarcandga olib ketilgan. Sohibqiron Temur vafotidan so‘ng uning o‘g‘li Shohruh, so‘ngra Mironshoh hamda uning o‘g‘li Abubakr mirzo xizmatida bo‘lgan. Jami 31 yil davomida bu yerda qolib, Gretsiya, Kichik Osiyo, Eron, Gruziya, Oltin O‘rda, Ural, Sibir, Qrim, Armaniston mamlakatlari bo‘ylab ko‘plab sayohatlarda bo‘lgan.

1427-yilda yana to'rt nafar nasroniy bilan o'z vataniga qaytib, bu yerda gersog Albrekt III saroyida ish yurituvchi (kamergor) bo'lib xizmat qilgan.

Iogann Shiltberger ajnabiy o'lkalarda o'zining ko'rgan-kechirganlarini esdalik tarzida yozib qoldirgan hamda u 1475-yilda Mayns shahrida ilk bor "Iogann Shiltbergerning Yevropa, Osiyo va Afrika bo'ylab 1394-yildan 1427-yilgacha sayohati" nomi ostida chop etilgan (ruscha nomi "Путешествие Иоганна Шильбергера по Европе, Азии и Африки с 1394 года по 1427 год"). Uning sayohat va sarguzashtlarga boy tavsifdan iborat kitobi XV asrda katta muvaffaqiyat qozonib, 4 ta nashri bosmadan chiqqan. 1859-yilda Myunxenda nemis, 1879-yilda Londonda ingliz tilidagi yangi nashrlari amalga oshirilgan. 1866-yilda Odessa universiteti professori F.K. Brun tomonidan eski nemis tilidan rus tilidagi tarjimasi chop ettirilgan. Yana 1984-yilda ozarbayjonlik akademik Z. Buniyatov tomonidan, 1997-yilda Toshkentda qayta nashr etilgan.

Amir Temurning Kichik Osiyo, Hindistonga yurishi, uning o'limi, o'g'illari haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, Temurning Boyazidga qarshi kurashdagi g'alabasidan so'ng, uning "...butparastlikda eng birinchi o'rinda turgan qirolsultonlarga qarshi kurash boshladi. 1200 ming odami bilan Xalab sultonligiga hujum qildi va 200 ming xonadoni bor Xalabni qamal qildi", deyiladi.

Dashti Qipchoq va uning xalqi haqida Iogann Shiltbergerning asarida shunday deyiladi: "Men shuningdek, Buyuk Tatrionda ham bo'ldim. Xalqi don ekinlaridan faqat tariq ekadi. Ular umuman non va vino iste'mol qilmaydilar. Vino o'rniga ot va tuyaning sutini ichadilar, shu va boshqa hayvonlarning go'shtini yeydilar..."

**Rui Gonsales de Klavixoning "Kundaligi".** XV asr boshlarida Ispaniya (Kastiliya va Leon) qiroli Genrix III elchilari Payo de Soto Mayor va Ernan Sanches de Palasuelos Kichik

Osiyoga safar qilib, ularga o'sha davrning eng qudratli davlatlari – Amir Temur davlati va Usmonli Turk sultonligi haqida aniq ma'lumotlar olib kelish topshirilgan edi. Elchilar Amir Temur va sulton Boyazid lashkarlari o'rtasida 1402-yilgi Anqara ostonasida yuz bergen katta jangni o'z ko'zlari bilan ko'rishga muvaffaq bo'ldilar. Amir Temur mazkur jangda zafar qozon-gach, Ispaniya elchilarini o'sha yerda ekanligidan xabar topadi va ularni yaxshi qabul qiladi, izzat-ikrom ko'rsatib, qaytishga ruxsat etar ekan, o'z nomidan Muhammad al-Hoji ismli kishini maktub, sovg'a-salomlar bilan Ispaniya qiroli huzuriga elchi qilib yubordi.

Bunga javoban Kastiliya va Leon qiroli Genrix III de Trastamara (1390–1407) ham katta xayrixohlik bilan Amir Temur huzuriga o'z elchilarini – dinshunoslik magistri Fra Alfonsa Pag'om de Santa Mariya, Rui Gonsales de Klavixo va Gomes de Salasarlni maktub va hadyalar bilan yuboradi. Elchilar 1403-yili yo'lga chiqib O'rta yer va Qora dengizlaridan suv yo'li orqali dastlab Tarabzungacha, u yerdan poytaxt Samarqandgacha ot-ulovlar bilan yetib keladilar.

Amir Temur Ispaniya elchilariga juda katta iltifot ko'rsatadi, ularning sharafiga ziyoflatlar tashkil etadi va nihoyat, qimmat-baho sovg'a-salomlar bilan qadrlab qaytishga ruxsat etadi. Elchilar 1406-yili o'z vatanlariga qaytganlar.

Ushbu elchilikda bevosita qatnashgan Rui Gonsales de Klavixo o'z sayohati haqida batafsil kundalik yozib borgan.

Klavixo "Kundaligi" tarixda nafaqat Kastiliya qirolligi bilan Amir Temur davlati diplomatik munosabatlari tarixi, balki Movarounnahrning tabiatni, xo'jalik hayoti, shaharlar va hunarmandchilik, xalqaro savdo-sotiq aloqalaridagi muhim o'rni to'g'risida aniq ma'lumotlar qayd etilgan manbadir.

Elchi Rui Gonsales o'z asarida Kesh (Shahrisabz) haqida shunday yozadi: "Keyingi kun, ya'ni payshanba kuni (yigirma sakkizinchchi avgust 1404-yil) tush paytida Kex (Kesh) atalmish

katta bir shaharga yetib keldik. U turli tomondan sug'orish tarmoqlari va jilg'alar kesib o'tgan tekislikda joylashgan. Shaharni qishloqlar va bog'lar o'rabi turadi, atrofda keng sayxonliklar va ularda aholi gavjum qishloqlar, ariqlar, o'tloqlar ko'zga tashlanadi. Yozda bu yerlar juda chiroyli. Sug'oriladigan yerlarda bug'doy, uzum, paxta, qovun va baland-baland mevali daraxtlar o'sib yotardi".

"Kundalik"da Amir Temur lashkari haqida qimmatli ma'lumatlar keltirilgan: "Senorning har doim o'z qoshida saqlaydigan lashkari bor va ular quyidagi tartibda: u boshliqlar tartibida taqsimlangan; yuzliklar, mingliklar, o'n mingliklar boshliqlari va bitta (qo'mondon) barchasiga, xuddi konnetablga o'xshash. (Senor) biror qo'shinga otlanmoqqa buyruq bersa, ana shu boshliqlarni chaqiradilar va u o'shalar orqali askarlarni o'z xohishi bo'yicha taqsimlaydi. Hozir bosh qo'mondon Yansa (Jahonshoh) ismli mirassa edi..."

Asarda Amir Temur saroyi devoni dagi qozilik mahkamasi faoliyatiga shunday ta'rif keltirilgan: "Senor har doim o'zi bilan qozilarni olib yuradi, ular senorning Iashkarlarini va xonardonini kuzatib boradilar. Ular biror joyga borib qolsalar, o'sha yerdagi aholi ularga qulq tutadi. Mazkur qozilar quyidagicha mansablarga qo'yilgan: birlari yuz beradigan muhim ishlar va bahslarni eshitadi; boshqa birlari senorning pul (moliya) ishlarini, uchinchilari esa viloyatlardagi va shaharlardagi unga tobe hokimlarni nazorat qiladi; yana birlari elchilar bilan shug'ullanadi. Lashkar qo'nganda, ularning har biri qayerda bo'lishini va nima ish qilishini (yaxshi) biladi. Ular uchta chodir tikib, o'sha yerda ish bilan kelganlarni qabul qiladilar. (So'ngra) senorning huzuriga borib hisobot beradilar, undan qaytib (bir paytning o'zida) oltita yoki to'rtta (ish) yuzasidan qaror chiqaradilar".

Elchi Klavixoning "Kundaligi"da qayd etilishicha, xorijiy elchilar Amir Temur davlati hududiga qadam qo'yishlari bi-

lan maxsus tayinlangan kishilar ularni kutib olib to poytaxt Samarqandgacha boshlab borganlar, Sohibqiron huzuriga esa, elchilarni shahzodalar va ulug' amirlar boshlab olib kirganlar. Ularni jo'natganda, ko'plab qimmatbaho sovg'a-salomlar berilgan.

Klavixo Amir Temur saroyida muhrdorlik xizmati haqida muhim ma'lumotlar yozib qoldirgan. U jumladan, shunday yo'zadi: "Senor har doim o'zi bilan qozilarni olib yuradi, ular senorning lashkarlarini va xonadonini kuzatib boradilar. Ular biror joyga borib qolsalar, o'sha yerdagi aholi ularga quloq tutadi. Mazkur qozilar quyidagicha mansablarga qo'yilgan: birlari yuz beradigan muhim ishlar va bahslarni eshitadi; boshqa birlari senorning pul (moliya) ishlarini, uchinchilari esa viloyatlardagi va shaharlardagi unga tobe hokimlarni nazorat qiladi; yana birlari elchilar bilan shug'ullanadi".

Klavixo kundaligi "Samarqandga Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403–1406)" ("Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403–1406)") nomi bilan tanilgan. Kundalik 1582 va 1779 yillarda eski ispan tilida, ruscha tarjimasi esa K.I. Sreznevskiy tahriri ostida 1881 va u I.S. Mirokova tomonidan 1990-yilda, o'zbekcha tarjimasi esa O. Tog'ayev tomonidan 1989, 1990, 1996 va tarixchi O. Bo'riyev tomonidan 2004-yilda chop etilgan.

**Entoni Jenkinson.** Ingliz savdogari Entoni Jenkinson O'rta Osiyoga 1558–1599-yillarda kelgan bo'lib, uning sayohat yo'li Mang'ishloq yarim orolidan boshlangan; so'ngra Xivaga, u yerdan esa Buxoroga kelgan. Aslida Jenkinson Moskva davlati bilan savdo qiluvchi Angliya kompaniyasining vakili bo'lgan.

U 1557-yilda Xitoyga boradigan qadimgi savdo yo'lini qidirib aniqlash maqsadida sharqqa yuboriladi. Chunki Xitoyga boradigan dengiz yo'lini portugallar egallab olganligidan inglizlar boshqa yo'l qidirishga kirishgan edilar. Jenkinson Ivan Groznnyining haqiqatdan ham ishonchiga sazovor bo'la olganmi yoki



### Entoni Jenkinson hisobotiga ilova qilingan karta (1562)

Ivan Grozniy inglizlar bilan yaqin aloqalar o'rnatish uchun uni O'rta Osiyoga yuborganmi, buni aytish qiyin. To'g'rirog'i, 1557-yili Xiva va Buxoro hukmdorlari o'z a'yонларини sovg'a-salom bilan yuborib, ularga Rossiyada erkin savdo-sotiq qilishga ruxsat bering degan nomaga javoban, Jenkinsonni podsho Buxoro va Xivaga elchi qilib yuborgan bo'lsa kerak. Jenkinson o'zi o'tgan yo'llar haqida yozma hisobot qoldirgan va unga ajoyib karta ilova qilgan.

"16-oktabrda Urganch deb nomlanadigan shaharga yetib keldik, bu yerda o'zimizga hamda ot va tuyalarimizga boj to'ladik". Xorazmda inglizlar ilk marotaba qovun va tarvuzlarni ko'rdilar, ular haqida Jenkinson shunday yozadi: "Katta bodringga o'xhash, lekin sariq bo'lib xuddi qandday shirin edi".

Jenkinson Urganch shahri tekislikda joylashgan va devorlar bilan o'rab olinganligini, shaharda savdo-sotiq qilinadigan

uzun ko'cha borligini, lekin tez-tez bo'lib turadigan urushlar tufayli savdo aloqalari ancha yomonlashgan, shu bois savdogarlarining mollari kam hamda shaharda sotiladigan mollar asosan Buxoro va Erondan keltirilganligini tasvirlaydi.

"Shahardagi ko'pgina binolar, – deb yozadi Jenkinson, – paxsadan qurilgan, bu esa ularning tezda yemirilishiga sabab bo'ladi". Haqiqatan ham bu o'rmonsiz o'lkalarda turar joylar paxsa yoki xom g'ishtdan qurilgan.

Jenkinson Xorazm podshohi tomonidan qabul qilinadi, shunda u hukmdorga rus podshosining maktubi hamda sovg'alarini topshirdi. "Shuni ta'kidlash joizki, – deb yozadi ingliz sayyohi, – u bizni juda yaxshi qabul qilib, shohona ziyofat qildi. Ertasiga u yana meni o'z huzuriga taklif qilib, mamlakatimiz va qonunlarimiz haqida so'rab-surishtirdi. Suhbat oxirida esa, u menga xavfsizlikni kafolatlovchi xat taqdim qildi".

"26-martda hukmdor bilan shaxsan tanishish imkonini tug'ildi, – deb yozadi Jenkinson. – Biz unga rus podshosining maktubini va sovg'alarimizni topshirdik, podshoh sovg'alarini mainmnuniyat bilan qabul qildi va shu munosabat bilan ziyofat uyushtirdi. Bir necha kun o'tgandan so'ng u meni huzuriga chaqirtirdi va biz turli-tuman narsalar, ya'ni Buyuk Turklar, mamlakatimiz, davlat boshqaruvi, qonunlar, din haqida bir necha soat suhbatlashdik..."

"23-dekabrda Buxoroga, sobiq Baqtriyaga yetib keldik. Shahar ko'plab darvozali baland devor bilan o'ralgan. Mazkur katta shahardagi ko'pgina uylar paxsadan qurilgan, lekin toshdan qurilgan va nihoyatda hashamdar bezatilgan inshoot va yodgorliklar ham bor. Bu dunyoda tengi yo'q me'moriy durdonalar bo'lib, ularning qurilishi juda uzoq muddatni talab qilgan", – deb yozgan Jenkinson.

Jenkinsonning aytishicha, Buxoro juda katta shahar bo'lib, unda g'ishtin binolar, ibodatxonalar, serhasham imoratlar ko'p bo'lgan. Jenkinsonni xususan hammomlar hayratda qoldirgan.

Uning qayd qilishicha, do'kondor va hunarmandlar shaharning uchdan birini ishg'ol qilgan. Har bir hunarning o'z mahallasi va rastalari bo'lgan. Jenkinsonning Buxorodagi savdosoti q to'g'risidagi ma'lumotini unchalik to'g'ri deb bo'lmaydi. Ya'ni u savdo-sotiqa raqobatchi bo'la oladigan savdogarlarni chalg'itishga harakat qilgan. Xususan, Jenkinson bunday yoza-di: "Buxoroga har yili qo'shni mamlakatlar – Hindiston, Eron, Balx, Rossiyadan va boshqa mamlakatlardan savdogarlar karvonni kelib turar ekan, ammo uning aytishicha, bu savdogarlar qashshoq bo'lib, juda kam mol keltirar ekanlar. Bu mollar ham ikki-uch yillab sotilmay yotib qolar ekan".

XVI asrning eng yaxshi hisoblangan Jenkinson yozma hisoboti va kartasi, bir necha bor nashr etilgan va keng tarqal-gan.

**Rus va Yevropa tillaridagi manbalarda O'rta Isiyo tavsifi. I.D. Xoxlov axboroti.** Rus tashqi siyosatida O'rta Osiyoga ixtisoslashtirilgan yo'nalishida muvaffaqiyatli faoliyat olib borgan birinchi rus diplomati hisoblangan I.D. Xoxlov boshchiligidagi elchilar podshoh Mixail Fyodorovichning farmoni bilan 1620–1622-yillarda O'rta Osiyoda, Buxoro va Xiva xonliklarida bo'lishgan. I.D. Xoxlovnning zimmasiga xon huzurida bo'lib, Buxoro xonligi bilan savdo-elchilik aloqalari o'rnatish va rus asirlarini ozod qilishga erishish hamda Buxoroning siyosiy holati, O'rta Osiyo xonliklarining harbiy iqtidori xususida ma'lumot toplash kabi vazifalar yuklangan.

1622-yil 12-dekabr kuni Rossiyaga qaytgandan keyin I.D. Xoxlov birmuncha vaqt Moskvada istiqomat qildi, 1623-yilning boshlarida unga Qozonga qaytishiga ijozat berildi hamda voevoda Odoevskiyning xizmatida bo'ldi. Uni 1624-yilning 8-dekabrida yana Moskvaga chaqirib oldilar va Buxoro va Xiva xonliklari haqidagi ma'lumotlarni tartibga solish haqida topshiriq oldi.

I.D. Xoxlovdan ikki muhim hujjat; podshohning maxsus topshirig'i (Nakaz) va I.D. Xoxlovnning Buxoro va Xiva xonlikla-

riming ahvoli haqida podshohga yozgan axboroti (Статейный список).

Birinchi hujjatda elchilik zimmasiga yuklatilgan vazifalar haqida so'z boradi. Uning vazifasi eng avvalo, har ikki xonlik hukmdorlarini Rossiya bilan do'stlashish, savdo va bordi-keldi aloqalarini o'rnatishga ko'ndirish, xonlarni Rossiya qudratli davlat ekanligi va uning boshqa nufuzli mamlakatlar bilan yaxshi munosabatda ekanligiga ishontirish, xonliklardagi rus asirlarini ozod qilish, har ikkala xonlik o'rtasidagi mavjud munosabatlar, xonliklarning Eron, Turkiya va Gruziya bilan munosabatlar qanday ekanligini, tabiiy boyliklari va harbiy qudratini aniqlashdan iborat bo'lgan.

I.D. Xoxlovnning Elchilar mahkamasi (Посольский приказ) ga yozgan axboroti (Статейный список)ga qaraganda, u o'ziga yuklatilgan vazifaning katta qismini bajargan.

Buxoro va Xiva xonliklarining ichki ahvoli va harbiy salohiyati haqida ham I.D. Xoxlov muhim ma'lumotlar to'plagan: "Hozirgi vaqtida Buxoro yeri ikkiga bo'lingan; davlatni ikki aka-uka boshqaradi: poytaxt Buxoro shahri va boshqa shaharlar akasi Imomqulixonga tegishli, ikkinchi yarmi esa, uning ukasi Nodirxonqa qaraydi, uning qarorgohi Balx shahrida. Balx – bu Buxoro davlatiga qarashli qizilbosh shoh Abbos va Hind podshosi shoh Salim bilan chegaradosh shahar sanaladi. Ikkala buxorolik aka-ukalarni podshoh hisoblashadi. Buxoro o'lkasi aholisi aka-ukalardan kichigiga ko'proq e'tibor qaratmishlar va ko'p odamlar podshoh Imomqulidan, uning ukasi podshoh Nodir tomonga o'tib ketganlar.

Harbiylar Buxoro mamlakatining ikkala qismini qo'shib hisoblaganda, 100 000 tacha chiqadi.

Urganch yerida harbiylarning soni 12 000 tacha.

Buxoro va Urganch davlatlarida oqliqlar o'q-yoy va nayza bilan jang qiladilar, biroq chavandozlar ozchilikni tashkil qildi, nishonga olishlari ham zaif; jangovar piyoda qismlar ikkala

davlatda ham yo'q". Bundan ma'lum bo'ladiki, mamlakat o'zaro urushlar iskanjasida qolgan, Balx, Toshkent va Samarqand us-tida turgan noiblar markaziy hukumatga bo'y sunishdan bosh tortib, o'zlarini mustaqil tutayotganliklari natijasida Buxoro hukumati kuchsizlanib qolgan.

Xiva xonligida ham aynan shunday vaziyat hukm surar edi. Bu yerda Arab Muhammadxon (1602–1623) bilan uning o'g'llari Xabash va Elbars o'rtasida toj-taxt uchun kurash borardi. I.D. Xoxlovnning Elchilar mahkamasiga yozgan axborotida: "Urganch zaminida isyon boshlangan. Arabxonning o'g'llari Xabash va Elbars sultonlar (otasini) tutib olib ko'zini ko'r qilganlar. Arabxonning boshqa o'g'llari; Abulg'oz bilan Sharif Sulton Buxoro xoni huzuriga qochib ketganlar, katta akasi Asfandiyor qamalda" ekanini yozadi.

Rossiya elchisi axborotida Buxoro, Xiva shahar va qishloqlarining umumiyligi ahvoli haqida ham muhim ma'lumotlar keltiriladi. "... Buxoro o'lkasida 30 ta shahar bor deyishadi; ularning qanday atalishini eslayolmaydi. Ular kundalik yozib yurgan ekanlar, lekin ul kundalik Urganch yerida yo'qolib qolipti. Urganch shahzodasi Xabash o'ldirib qo'yishidan qo'rqib, o'zlarida bor barcha nakaz va xatlarni yerga ko'mishiqt. Ular ga Urganch yeridan chiqishga ruxsat bergach, qidirib topa olmag'anlar.

Urganch yerida hammasi bo'lib aholi yashab turgan 4 ta shahar bor, ba'zi shaharlar bo'm-bo'sh; qishloqlar kam, chunki hamma aholi ko'chmanchilar. Ikkala mamlakatda, Urganchda ham, Buxoro yerida ham shaharlar loydan qurilgan; g'ishtdan, biroq pishiq g'isht emas; loyni somon qo'shib ot yordamida qorishtiradilar, so'ng g'isht qilib kesadilar va kuydirmasdan teraveradilar; mustahkam, sababi, yozda yomg'ir kam. Quroslahaga kelsak shaharlarda to'plar va miltiqlar yo'q. Buxoroda ular bitta temir miltiq ko'rishiqt, uzunligi taxminan 2 yarim sajen". Ular elchi kelgan paytda ancha xarobalikka yuz tutib

qolgan edi. Elchining so‘zlariga qaraganda, bunga tinimsiz o‘zaro urushlar, toju taxt uchun kurash va qozoq, qalmoq va yoyiq kazaklarining tez-tez qilib turgan xurujlari sabab bo‘lgan. Axborotda bojxona to‘lovlari haqida ham ma’lumotlar bor.

**“Книга Большому Чертежу” (“Katta Chizmaga Kitob”).** Rus davlatida O‘rta Osiyo haqida XVI asr oxiriga-chá to‘plangan ma’lumotlar ilk geografik-kartografik hujjat – “Книга Большому Чертежу”da o‘z aksini topgan edi.

U bizgacha yetib kelmagan, XVII asr oxirida tuzilgan atlasi – “Большой Чертеж” va 1627-yildagi Rus davlatining janubiy qismlari – “dashtlar” kartalariga yozilgan ilovama’lumotnomadan iborat matn sifatida tuzilgan. Dastlab u rasmiy hujjat sifatida hukumat muassasalari va turli amaldagi xizmatchilar uchun tavsiya etildi va XVII asr davomida ushbu maqsadda qo‘llanib kelindi.

“Книга Большому Чертежу” 1627-yilda yaratilgan edi. Kitobning alohida bobni O‘rta Osiyoning o‘scha davrda ma’lum tekislik qismiga bag‘ishlangan bo‘lib, u o’lkaning yer yuzasi, suvlari va ayrim aholi maskanlari tavsifidan iborat.

Kitobning dastlabki sahifasida chizma Moskva davlati va unga tutash bo‘lgan davlatlar, “...Buxoro va Yurgen (Urganch) shaharlari ...to Xvalim (Kaspiy) dengizigacha bo‘lgan yerlar... o‘laroq butunlay yangi chizma qilib yaratildi”, degan so‘zlarni o‘qish mumkin.

Kitobda O‘rta Osiyoning 50 ga yaqin geografik nomlari keltirilgan. Unda Orol dengizi, Sirdaryo va Amudaryo haqida to‘xtab o’tilgan. Shuningdek, Buxoro va Toshkent shaharlari haqida ba’zi ma’lumotlar bor.

Tyanshanning shimoli-sharqiy bo‘lagi Qoratov haqida, Shuningdek, Toshkentdan janubda joylashgan tog‘ tizmalari haqida ham bir necha bor so‘z boradi. “Kitob”da Qorabog‘-tog‘ (Turkiston tizmasi) 400 km. ga cho‘zilganligi haqida ma’lumot keltirilgan.

Orol bilan Kaspiy dengizi orasidagi masofa ancha aniq berilgan: "Xvalim dengizidan Sinee (Orol) dengiziga yozgi shimoliy tropik chizig'i yo'nali shida 250 verst ... Sinee dengizning suvi sho'r; Sinee dengizidan Arzan daryosi oqib Xvalim dengiziga, Arzan daryosiga esa sharqdan Amedariya (Amudaryo) quyiladi, uning uzunligi 300 verst", deb yozilgan.

Yuqoridagi sharh shuni ko'rsatadiki, "Книга Большому Чертежу"даги ма'lumotlar, tavsiflangan joylarning geografik o'rni nisbatan haqiqatga yaqinroqdir.

Kitobda O'rta Osiyoning aholi punktlari va asosan shaharlari ko'rsatilgan. Masalan, Buxoro va uning atrofidagi hududlar haqida shunday yoziladi: "Buxoro shahrining qarshisida 170 verst uzoqligida O'gus ko'lidan daryo oqib o'tib, Xvalim dengiziga quyiladi (uzunligi 1000 verst). O'gusdagi ko'l bo'yida Kagan shahri joylashgan bo'lib, unda Yurgen (Urganch) shohining ukasi yashaydi".

Kitobda Sayram va Toshkent shaharlari haqida qimmatli ma'lumotlar bo'lib, shaharlarning joylashishi haqida yozilgan qaydlar o'zining aniqligi bilan ham diqqatga sazovordir: "Sairyam (Sayram)dan 160 verst Sir daryosi tomonida Tashkun (Toshkent) shahri bo'lib, u esa Sir daryosidan 30 verst uzoqlikda joylashgan".

Sirdaryo bilan Amudaryo bo'yidagi shahar va qishloqlar hamda ular orasidagi masofalar berilgan. Biroq "Книга Большому Чертежу"да berilgan ma'lumotlar juda qisqa, uzuquyuq, ba'zan esa xatodir. Masalan, Buxoro shahri haqida so'z ketar ekan: "Buxoro shahri va butun Buxoro o'zining hosilli yerlariga Sir daryosidan suv oladi, chunki u (yerlar) suvsizdir", deb yozilgan. Bundan shuni bilish mumkinki, Zarafshon daryosi haqida Rossiyada hatto XVII asrlarga qadar ham aniq ma'lumot bo'lмаган.

**Aka-uka Pazuxinlar hisoboti.** Aka-uka Pazuxinlar kelib chiqishi aslzoda oilasidan bo'lgan. Katta Pazuxin – Bo-

ris Andreyevich Pazuxin 1667–1673-yillarda davlat xizmatida bo'lgan va Semyon Ivanovich bilan birgalikda Rus podshosi Aleksey Mixaylovich elchilari sifatida Buxoro xoni Abdulaziz, Balx hokimi Nodir Muhammad va Xiva xoni Anushaxon huzuriga 1669–1773-yillarda yuborilgan.

Pazuxinlar elchiligi tafsilotlari haqida ma'lumot beruvchi asosiy manba bu podshohning maxsus topshirig'i (nakaz) va ularning podshohga yozgan axboroti (статьейный список) hisoblanadi. Bular dastlab 1894-yilda A. Truvorov tahriri ostida va 25 tomlik Rus biografik lug'atida nashr qilingan. Shuningdek, O'zbekistonda B.V. Lunin tomonidan tuzilgan va 1988-yilda nashr qilingan "История Узбекистана в источниках. Известия путешественников, географов и ученых XVI – первой половины XIX в" va B. Ahmedov tomonidan yozilgan "O'zbekiston tarixi manbalari (qadimgi zamon va o'rta asrlar)" nomli kitoblarida elchilik faoliyati tarixiylik va manbashunoslik jihatdan o'rganilgan. Shuningdek, B.A. Pazuxin 1679-yili Qrimga elchi qilib yuborilgan. Yo'lda isyonchi rus kazaklarining hujumiga duchor bo'lgan va olishuv paytida o'dirilgan B.A. Pazuxin elchiligi haqida 1912-yilda N.I. Veselovskiy "Неудавшееся посольство в Крым стольника Бориса Андреевича Пазухина в 1679 году" kitobini nashr qildirgan.

1670-yil 16-mayda Xiva xonligining Kat shahriga kelgan, 18-mayda Xivaga yetib kelgan va 21-mayda xon uni o'z bog'ida qabul qilgan.

Elchilar 3-iyunda Xivadan chiqqan, 8-iyunda Qorako'lga, 10-iyunda Buxoroga kelgan, 21-iyunda Buxoro xoni Abdulaziz Balx hokimiga qarshi yurishdaligini bilishgan, 23-iyunda Buxoroda qabul qilishgan va Abdulazizga xabar yuborilgan, xondan esa dekabrda qaytishi haqidagi xabarni olgan. Nihoyat, 30-dekabrda Abdulaziz tomonidan qabul qilingan.

Xiva yo'li xavfli (oldinroq Xiva elchilari Rossiyaga borayotganda halok bo'lgan edi) bo'lgani uchun 1671-yil 17-noyabrda

Buxorodan Eronga Marv, Mashhad orqali yetishgan. Keyin Langar va Baku, Kaspiy dengizi orqali yo'lga chiqib, 1673-yil 29-iyunda Astraxanga yetib kelgan.

Elchilar Xiva va Buxoro xonliklarida 1670-yil 16-maydan 1671-yil 17-noyabrga qadar bo'lishgan. Shu vaqt davomida Pazuxinlar Markaziy Osiyo xonliklarining umumiy ahvoli, xonliklarga, Eron va Hindistonga Astraxan orqali olib boradigan karvon yo'li haqida keng ma'lumot jamlaganlar. Ular Buxoroda yashagan davrda Xiva, Balx, Buxoro, Eron va Hindiston o'rta sidagi munosabatlarni, ularning qo'shini, kuch-qudratini, aloqa yo'llari va ipak ishlab chiqarish haqida ma'lumot toplashgan.

Elchilar Xiva xoni bilan uchrashuvda asosan rus asirlari haqida suhbatlashishgan va xon o'zida asirlar yo'qligini, biroq, qalmiq va boshqirdlardan Xiva xonligi aholisi tomonidan sotib olingan qullar borligini va ularni qaytarib sotib olsa qo'yib yuborishini aytgan. Buxoro xoni Abdulazizzon esa, 1671-yil 20-sentabrda 9 rus asirini ozod qilgan. Shuningdek, Pazuxinlar Buxoro, Balx va Xiva xonlarining shaxsiy xo'jaliklarida 3000 dan ortiq rus asiri mehnat qilayotganini aniqladilar. Shundan 22 nafarini 685 so'm oltin hisobida to'lab ozod qilishga muvafaq bo'ldilar.

Axborotnomada ko'rsatilishicha, Pazuxinlar badavlat kishi-larning qo'lidagi rus asirlari sonini aniqlay olmaganlar. Pazuxinlar elchilik yakunida Moskvaga 24 ta rus asirini olib borgan, bundan tashqari 4 kishini Xivada sotib olgan va o'sha joyda qoldirgan, ularni S. Ivanov olib kelishi kerak edi.

Aka-uka Pazuxinlarga O'rta Osiyo xonliklarining ichki va xalqaro ahvolini bilish, Moskva hukumati tomonidan esa Buxorodan Hindistonga olib boradigan qulay yo'lni aniqlash vazifasi yuklatilgan edi.

Aka-uka Pazuxinlarning ma'lumotnomasida O'rta Osiyo xonliklarining iqtisodiy ahvoli, mavjud harbiy-siyosiy ahvol, xu-

susan, Buxoro xonligining, ma'muriy va davlat tuzilishi haqida ham diqqatga sazovor ma'lumotlar keltirilgan. Unda, yuqori man-sabda turgan amaldorlar, masalan, otaliq, devonbegi, mehtar, parvonachi, dodxoh, yasovul, bakovul, to'pchiboshi, dorug'a va ularning vazifalari va mavqeい haqida muhim ma'lumotlar keltirilgan. Masalan, dorug'a bilan mehtarga elchilarни zarur oziq-ovqat, ot-ulov, yem-xashak bilan ta'minlash vazifasi yuk-latilgan. Devonbegi otaliqdan keyin turgan va elchilarни, ular o'zi bilan olib kelgan maktublar va sovg'a-salomlarni qabul qilgan, to'pchiboshilar esa zambaraklar va piyoda askarlarga boshchilik qilgan.

Axborotnomada o'zbek xonlari saroyida amalda bo'lgan qabul marosimlari haqida ham ma'lumotlar keltirilgan.

Aka-uka Pazuxinlar elchiligi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni deyarli to'liq bajargan va juda qimmatli ma'lumotlarni Rossiya podshosiga olib borgan. Ushbu ma'lumotlar Rossiya va O'rta Osiyo xonliklari o'tasidagi munosabatlarning keyingi davrlarida muhim ahamiyat kasb etgan.

**Florio Benevini ma'lumotnoma (relyatsiya)si.** Asli italyan millatiga mansub Florio Benevini (hayot yillari noma'lum) 1708–1727-yillarda ruslar xizmatida bo'lgan.

Florio Benevini 1714-yilda Rossiyaga keladi, ammo bun-gacha 1708-yildan graf Pyotr Tolstoyning Konstantinopoldagi elchiligi xizmatida bo'lgan. 1718-yilda esa Pyotr I ning Sharq ekspeditsiyasiga kotib etib tayinlangan.

A.Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasi halok etilgandan so'ng Pyotr I O'rta Osiyoga kattaroq qo'shin yuboradi, degan xavf tug'ilgan edi. Shu sabab 1717-yilda Abulfayzxon Rossiya ga elchi yuborib, u bilan do'stona va savdo-sotiq aloqalarini o'rnatish istagini bildirdi.

1718-yil 13-iyul kuni Pyotr I Florio Benevini uchun tuzilgan qo'llanmani tasdiqlagan. Benevini Eron, Buxoro va Xivada bo'ladi. Buxoroda uch yarim yil (1721-yil 6-noyabrdan 1725-yil

8-aprelgacha) turib, podshoning qo'llanmada keltirgan topshiriqlari bo'yicha qimmatli ma'lumotlar to'plagan. Buxoro va Xiva xonliklari haqida ko'plab tarixiy va etnografik ma'lumotlar, har ikki davlatning siyosiy vaziyatiga doir ancha keng tavsif keltirgan. Buxorodagi savdo-sotiqlari, uning qo'shin tuzilishi va qurol-yarog'lar haqida ham to'xtalib o'tgan. Elchining ko'plab ma'lumotnomalarini maktublari o'zi kezgan mamlakatlarning tarixi, geografiya va etnografiyasi uchun favqulodda muhim xabarlarni jamlagan.

Buxoro va xalqning qurol-aslahalari haqida Florio Benevinining o'z hukumatiga bergan ma'lumotnomasi (relyatsiya)sida xususan quyidagilarni o'qiyamiz: "(Qal'asi) yarim vayron bo'lgan xandaq bilan o'ralgan. Shaharda qurilgan 15 ming hovli-joy mavjud. Shahar markazida pishiq g'ishtdan qurilgan baland minorali xon madrasalar joylashgan.

Juda kam o'zbekda miltiq bor. Ular asosan o'q-yoy va nayza bilan qurollangan. Shaharda hammasi bo'lib 15 nafar zambarak bor. Lekin, ularning faqat bittasidan bayram kunlarida otish mumkin".

Ma'lumotnomada Buxorodagi rus asirlari haqida ma'lumot bor. "Buxoroda, – deb aytildi, – va boshqa o'zbeklar qo'lida 250 ga yaqin asir bor... Ularning umumiyligi soni 1000 ga yetadi. Aytishlaricha, ularning soni Buxoro xonligida 2000, Xiva bilan Orolda 1500 ga yetadi".

Mamlakatning yer osti va yer ustii boyliklari haqida turli vaqtarda jo'natilgan ma'lumotnomalarda (F. Benevini Buxoroda to'plagan ma'lumotlarini qo'lida saqlashdan qo'rqiб odamlari orqali Moskva va Peterburgga jo'natib turgan) quyidagilarni o'qiyamiz:

"Amudaryoning bosh qismida oltin yo'q. Lekin, unga Ko'kcha daryosi kelib qo'shilgan joyda qumloq yerlarda oltin bor, chunki Ko'kcha daryosi oltin va boshqa rudalarga boy tog'lardan boshlanadi. Ko'kchaning boshlanish qismida, xu-

susan yoz faslida mahalliy aholi katta-katta oltin parchalarini topib oladilar... Badaxshondan tashqari, oltin, kumush, ach-chiqtosh, qo'rg'oshin, oliv navli temir konlari Samarcand va Buxoroda ham bor".

Benevini 1725-yilda Buxorodan Xivaga keladi. Xiva xoni Sherg'ozixon Beneviniga qo'shib o'z elchisini avgust oyida Rossiyaga jo'natadi. Ular bilan A. Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiya-sining 92 ta asiri ham keladi. 1725-yilning dekabrida yetti yillik elchilikdan so'ng Benevini Buxoro va Xiva xonlarining Pyotr I ga yorliqlari bilan Moskvaga qaytadi. Bu paytda Pyotr I olam-dan o'tgan edi. Ikki yildan so'ng Benevini o'z vataniga ketib, Rossiyaga boshqa qaytmaydi.

**Vasiliy Nikitich Tatishev.** Rossiyalik mashhur olim, davlat arbobi, tarix, geografiya, iqtisod, etnografiya, tilshunoslik, falsafa fanlariga oid qator asarlar muallifi Vasiliy Nikitich Tatishev (1686–1750) faoliyatining dastlabki o'n to'rt yilini harbiy soha, ayni vaqtda hukumat buyurtmalariga ko'ra tarixiy-geografik yo'nalishlar bo'yicha tadqiqotlar olib borish, kartalar tuzishga surf qilgan. Sibirda ma'muriy hamda jamoatchilik ishlarida faol qatnashgan. Orenburg va Astraxanda gubernatorlik qilgan. Umrining oxirgi besh yilda o'zi tug'ilgan joy – Podmoskoviyedagi Boldino qishlog'iga qaytib, ilmiy-tadqiqot ishlarini keng ko'lamda davom ettirib, qator ilmiy ishlarini tugatishga muvaffaq bo'lgan, biroq ba'zi asarlari nihoyasiga yetkazilmay qolgan. Uning tarix fani sohasida olib borgan tadqiqotlari ilmiy ishlarining asosiy qismini tashkil qiladi. O'z asarlarini yozish mobaynida olim nafaqat qadimgi va o'rta asrlarga oid mahalliy manbalar, solnomalar, balki xorij adabiyotlaridan ham o'rinli foydalangan. U nemis hamda polyak tillarini bilgan, ingliz tilidagi asarlarni ham tarjimalar asosida ishlariga jallb qilgan.

"История Российской" ("Rossiya tarixi") asari ustida V. Tatishev qariyb yigirma yil ishlagan (taxminan 1720-yildan to 1739-yilgacha). Mazkur asar Rossiyada vatan tarixi bo'yicha

yozilgan dastlabki umumlashtiruvchi tadqiqot hisoblanadi. Tuzilishiga ko'ra asar qadimgi rus solnomalariga o'xshab, unda voqealar bayoni qat'iy xronologik tartibda berilgan. Kitobda Rossianing qadimgi davrlardan boshlab to o'rta asrlar, aniqrog'i 1577-yilgacha bo'lgan tarixi manbalar asosida o'ziga xos uslubda yoritib berilgan.

"История Российской" asari to'rt qismidan iborat. Kitobning faqat birinchi va ikkinchi qismlari muallif tomonidan nisbatan to'liq holda tugallangan va ularda talaygina izohlar berilgan. Kitobning uchinchi va to'rtinchchi qismlarida esa izohlar keltirilmagan.

O'rta Osiyo haqidagi ma'lumotlarning katta qismi kitobning birinchi qismi o'n sakkizinchchi bobidan o'rin olgan. Ushbu bob "Остатки скиф, турки и татара" ("Skif, turk, tatarlar avlodlari") deb nomlangan bo'lib, uning asosiy qismi Turkiston yershisi va xalqlariga bag'ishlangan.

Xususan, asarda Buxoro va Samarcand haqida qiziqarli ma'lumotlar berilgan: "Buxoro shahri va Buxoro o'lkasining o'z xoni bo'lgani, uning yigirma besh mingga yaqin qo'shini mavjudligi, bu hududda oltin, qimmatbaho toshlar, mevalar serobligi, aholisi qo'ychilik, ipakchilik, qog'oz tayyorlash va boshqa hunarmandchilik mashg'ulotlari bilan, shuningdek, mashhur olimlari, qadimiylar boy kutubxonasi bilan shuhrat qozongan... Samarcand shahrining ilgari vaqtarda mashhur ziyo maskani, boy kutubxonasi bo'lgan, o'zining xoni bor, atrofida besh mingga yaqin o'zbek va mang'itlar mavjud. Ushbu shahar bir tomonidan Turkiston, Toshkent, boshqasidan Buxoro, uchinchisidan qoraqalpoqlar, to'rtinchchi tarafdan xo'jandliklar bilan chegaradosh..."

Toshkent shahri haqida shunday deyiladi: "Toshkent Sirdaryo bo'yida joylashgan, hududi Xivanikiga teng, yettita shahar va uyezdi bor. Toshkentda besh yuztagacha masjid (ulardan qirqta-si madrasa) mavjud, deyishadi, aholisi to'rt yuz mingga yaqin.

Bu shahar shunchalik kattaki, uni otda minib aylanib chiqish uchun bir kun vaqt ketadi..."

"Лексикон российской исторической, географической, политической и гражданской" ("Rossiya tarixiy, geografik, siyosiy va fuqarolik leksikoni") – V.N. Tatishevning yana mashhur asarlaridan biri. Muallif kitobni XVIII asr 30-yillari boshlarida yozishga kirishgan. 1745-yilda uning bir qismini Fanlar akademiyasiga yuborgan, qolgan qismi ustida ishlashni davom ettirgan, afsuski, kitobni nihoyasiga yetkazishga ulgurmay qolgan.

"Leksikon"ning ikkita qo'lyozma nusxasi hamda 1793-yili nashr etilgan matni saqlanib qolgan. Kitobning mazmuniga ko'ra, muallif uni dastlab ijtimoiy-siyosiy mazmunda yozishni maqsad qilgan, keyinchalik esa bu ilmiy tadqiqotni qator tarixiy ma'lumotlarga ega bo'lgan geografik lug'atga aylantirishga qaror qilgan. Asarda O'rta Osiyodagi geografik joylar va ularning nomlanishi, ayrim xalqlarga berilgan tavsiflar, shuningdek, O'rta Osiyoning Rossiya bilan olib borgan savdo aloqalari to'g'risida bir qancha tafsilotlar bayon etilgan. Massalan: "...Orol va Orol dengizi, Qalmiq orolida joylashgan, yoki orolli dengiz degani, sababi unda orolchalar juda ham serob, ruslar uni Ko'k dengiz deb atashadi, Tatariyadagi Buxoroga yaqin hududda joylashgan, unga taniqli daryolar quyiladi: Sir, Amun yoki Ulu hamda Quvon. Undan hech qanday irmoq oqib chiqmaydi. Biroq, aytishlaricha, ilgari shunday irmoq bo'lgan va Kaspiy dengiziga borib quyilgan, ba'zilar kartalarda turli joylarda uni ko'rsatganlar... Uning (Orol dengizining) uzunligi 550 verstgacha boradi, kengligi esa uchdan biri (uning), biroq bu haqda bizgacha yozilmagan, uning g'arbiy qirg'og'i haqida hech narsa ma'lum emas. Uning atrofida qoraqalpoq, orolliklar, xivaliklar va turkmanlar yashaydilar, qirg'iz-qaysaqlar tez-tez kelib turadilar. Suvi sho'r va unda baliqlar mavjud.

...Buxoroliklar, bu Sharqi-Shimoliy Osiyodagi kattagina davlat. Yevropaliklar uni Zag'atoy, Maral Nachra va Maurenagar (Movarounnahr) deb ataydilar, biroq bu nomlarning bari ni buxoroliklar aytmaydilar. Ularning xoni bor, dastlab uning taxti Samarqandda bo'lgan, hozir esa Buxoro shahrida. Ularda ko'pgina oltin, qimmatbaho toshlar, ayniqsa Badaxshon yaqinida la'l bor, yana lojuvard va boshqalari ham. Kulrang va qora qo'ylar ko'p, faqat qaysaqlar bostirib kelganlarida, ularni talontaroj qilishadi, shuning uchun hozirda bu junni kam olib chiqadilar, yana ularda shoyi hamda Osiyodagi eng yaxshi sanalgan chit matosi bor, uning ko'p miqdorini Hindistonga olib chiqadilar. Bu (xalqdan) talaygina qismi Astraxanga borib joylashgan va u yerda savdo bilan mashg'uldir...

...Karvonsaroy turk, fors va tatarlarning yirik shaharlarida safarda yuradigan savdogarlar uchun quriladigan uylar, bular da yashash, tovarlarni saqlash hamda sotish mumkin bo'lgan, biz bularni mehmonxona hovlilar deb ataymiz. Ba'zilari tunab qolish uchun yo'l chekkalarida quriladi, biroq katta-katta va mustahkamlari ham bor, ularni mehmonxona deb ataydilar...

...Qoraqalpoqlar, tatar xalqi, nomi qora rangi bosh kiyim ma'nosini anglatadi, ular katta-katta qishloq bo'lib, Orol den giziga yaqin joylarda, Sir daryosining shimolida orol xalqigacha bo'lgan hududda yashaydilar, ba'zilari esa ko'chib yuradilar va janubiy hududlarda, orollarda yashab, baliq hamda hayvonlarni ovlaydilar, o'zlarining xoni bor..."

V.N.Tatishevning yuqoridagi ikkita asarida nafaqat Rus davlati, balki O'rta yer dengizi atroflari, Sharqiy Yevropa, Boltiqbo'y, Kavkaz O'rta Osiyo xalqlari, ma'muriy boshqaruvi, shaharlari, geografik obyektlari to'g'risida ham manbalar asosida qiziqarli ma'lumotlar keltirilganligi bilan haligacha o'z qimmatini yo'qotmagan.

**Poruchik Dmitriy Gladishev va geodezist Ivan Muvavinning Orol dengizi va Xivaga ekspeditsiyasi (1740—**

**1743).** Bu ekspeditsiya tarkibida yana Gladishev, Muravin, muhandis Nazimov, tarjimon Usmon Araslonov bo'lib, quyidagi yo'nalish bo'yicha safar qilishgan: Orenburg–Manitepa tog'lari – Orol dengizi – Xiva xoni Abulxayrxonning Quvondaryo yaqidagi qarorgohi – Shohtemir – Xiva – Xonqa – Shovot – Xo'jayli – Abulxayrxon qarorgohi – Orsk.

Qozoq va qoraqalpoqlar hamda Xiva aholisining etnografiyası, mashg'uloti savdo munosabatlari to'g'risida keng ma'lumot to'plangan. Gladishev va Muravin to'plagan ma'lumotlarning ahamiyati shundaki, ularda Orol dengizining sohillari, Xorazmning Xiva, Shohtemir, Xo'jayli, Xonqa va Shovot shaharlari haqida, shuningdek, o'zbek, qozoq, qoraqalpoq va turkman aholisi haqida ayrim ma'lumotlar keltirilgan. Yo'nalish bo'yicha tabiiy-geografik tasvir, Orol dengizi, uning qirg'oqlari, Sirdaryo etaklari to'g'risida qiziqarli ma'lumot berilgan. Geodezist Muravin Orenburgdan toki Orol dengizi, Abulxayrxonning qarorgohi va Xonqagacha bo'lgan barcha yo'lni topografik belgilari bilan tavsifланан.

Dmitriy Gladishevning Xivada istiqomat qilib turgan rus asirlari haqida keltirgan ma'lumotlari ham o'ta muhimdir. U yozadi: "O'sha yerda asirda bo'lgan Yoyiq kazagi Andrey Borodindan eshitdimki, Xivada Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasidan asirga tushib qolgan ruslar, qalmoqlar va boshqa yerkilarning soni 3000 kishiga yetadi. U (Andrey Borodin) ularni yaxshi biladi. Bahorda ularni Xiva tevaragidagi ariqlarni tozalashga haydar boradilar. Orolda shunday asirlar soni 500 kishi. Taxminan shuncha asir Qozoq va Qoraqalpoq o'rdalarida yashab turibdilar..."

Xivaliklarning kasb-kori haqida ham Gladishev ayrim ma'lumotlar keltirgan: "Ular, – deb yozgan edi u, – bug'doy, arpa, jo'xori, tariq, kunjut, paxta va tamaki ekadilar. Yeri, ba'zi yerlari qumloq, ba'zilari loyqadan iborat; sug'orib ekadilar. Uni ho'kiz bilan haydaydilar..."

Chorvalari: tuya, ot, mol, arg'umoqlar va oddiy otlar, eshak, qo'y, echki".

Bu sayohat hisobotidan o'z davrida (1760-yillar) P.I. Richkov foydalangan, lekin uning to'lal matni va kartasini mashhur sharqshunos Ya. Xanikov o'zining kirish so'zi bilan Geografiya jamiyatining xabarnomasida 1850-yildagina nashr etirgan ("Поездка из Орска в Хиву и обратно, совершенная в 1740–1741 годах поручиком Гладищевым и геодезистом Муравиным", Санкт-Петербург).

Ivan Muravin kartasining oldingi barcha kartalardan afzalligi shundaki, unda ko'pdan ko'p joylar (masalan, Orol dengizining sharqiy qirg'og'i) birinchi marta instrumental tasvirlar olingan materiallar asosida chizilgan. Shu jihatdan ushbu karta Orol dengizining keyingi barcha kartalariga asos bo'ldi. Kartada hozirgi Qoraqalpog'iston va Xorazm hududlarining katta qismi Orol yerlari (Аральское владение) va Xiva yerlari (Хивинское владение) nomi bilan tasvirlangan.

**Danila Rukavkinning Xivaga safari.** Samaratik savdogar Danila Rukavkin Xivaga safarini 1753-yilda amalga oshirgan. Safarning asl maqsadi savdo-sotiq masalalarini yo'lga qo'yish bo'lib, Rukavkin bilan birga Chuchalov, Gulyayev degan amaldorlar kelishgan. Ular Orenburgdan Uralsk orqali Ustyurt, Urganch, Shovot, Xiva, Sirdaryo vodiysigacha sayohat qilishgan.

Danila Rukavkinning Xivaga safarnomasi ilk bor 1776-yilda "Orenburgdan Xiva va Buxoroga yo'l va safar tafsilotlari, 1753-yili Orenburgdan u yerlarga savdo karvoni bilan jo'natilgan samaratik savdogar Danila Rukavkin tavsifida" nomi ostida Moskvada nashr etilgan (Описание пути от Оренбурга к Хиве и Бухарам с принадлежащими обстоятельствами бывшего при отправленном в 1753 г. из Оренбурга в те места купеческом караване самарского купца Данилы Рукавкина). Keyinroq 1823, 1839-yillarda ham qayta chop qilingan.

Safarnomada XVIII asr Xiva xonligi etnografiyasi va tarixiga oid qimmatli ma'lumotlar berilgan. Orenburg-Xiva karvon yo'llari, Amudaryoning eski o'zani O'zboy haqida ham ma'lumot bor. Xonlikdagi shaharlarning miqdori, qal'a va manzilgohlar, harbiy tizimi, donli ekinlar, bog' va tomorqalardagi ekinlar, paxta va ipak matolar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Danila Rukavkin "Xiva xonligida hamma ko'rganlarini bayon etishni o'zining burchi ekanligini" ta'kidlagan. Xiva haqida shunday yozadi: "Xiva shahrida Xiva xonlarining saroyi bo'lib, yana xonga bo'ysunuvchi qo'rg'onlar bor: 1) Anbiri, 2) Shabat, 3) Kent, 4) Chep, 5) Azaris (Xazorasp) va 6) Urbanich, hammasi Amudaryodan qazib kelingan kanallar yoqasida joylashgan; istehkomi baland bo'lмаган paxsa devor va kichikroq xandaqdan bo'lak hech nimasi yo'q..."

...Xivadagi inshootlar va boshqa qo'rg'onlarda ham, xonning hamda oddiy xalqning yashashi uchun bari paxsadan bunyod etilgan.

Xivada qish ikki oy: dekabr va yanvardan oshmaydi. Yer biroz to'ngiganday bo'ladi, qor esa turmaydi; ko'p yoqqan mabali ham bo'ladi, lekin quyosh chiqib, erib ketadi. Xuddi shunday yoz vaqt yomg'ir kam bo'ladi, ekinlar kanallar suvlaridan sug'orilib o'stiriladi".

Xonlikdagi soliqlar to'g'risida ma'lumot berar ekan: "Xiva xonlari o'zining aholisidan katta soliqlarni yig'maydi; Qachon ehtiyoj bo'lsa har hovlidan oladi va aytishlaricha, ba'zan yiliga har hovlidan uch yoki besh rubldan to'g'ri keladi", deb bayon qilgan.

Danila Rukavkin xonlikdagi ichki savdo haqida fikr yuritib, xivaliklar haftaning ma'lum bir kunlari savdo-sotiq qilishlari, katta tijorat qirg'iz-qaysaqlar va Orenburgga yaqin bo'lganidan Urganchda bo'lishini yozadi.

Rukavkinning hamrohi Gulyayevning maktublaridan esa Xivada faqat mis tangalar zarb qilinganini, oltin va kumush tan-

galar sifatida buxoroliklar, hindlar yoki eronliklarning tangalari amal qilishini bilish mumkin. Holbuki, tangalar Xivada zarb qilinsa-da, lekin Buxoro hukmdorining nomidan zarb etilar ekan.

Rukavkin qiziqarli sayohatni amalga oshirishdan tashqari, o'zidan ilm-fan uchun ma'lum iz qoldirgan safarnomasini ham yozib qoldirgan.

**P.I. Richkovning “Топография Оренбургской губернии” (“Orenburg guberniyasi topografiyasi”) asari.** O'rta Osiyo haqidagi xilma-xil va boy materiallarni toplash, tartibga solish va bayon qilishda Peterburg Fanlar akademiyasining birinchi muxbir a'zosi, rus tarixchisi va iqtisodchisi P.I. Richkovning (1712–1777) “Топография Оренбургской губернии” (“Orenburg guberniyasi topografiyasi”) kitobi (1762) o'lkamiz tarixida salmoqli o'rin tutadi. P.I. Richkovning shaxsan o'zi O'rta Osiyoning kam o'rganilgan va borish qiyin bo'lgan manzillarini kezgan ko'plab sayyoh va savdogarlar bilan tanish bo'lgan. Olim o'z asarida O'rta Osiyoga oid o'zigacha ma'lum bo'lgan barcha tarixiy va geografik manbalarni umumlashtirib, tahlil qilgan. Ushbu kitob 1755-yilda tugallangan bo'lib, o'sha yilning 2-fevralida P.I. Richkov uning qo'lyozmasini M.V. Lomonosovga jo'natadi. U akademikdan qo'lyozmani diqqat bilan o'qishni va kamchiliklarini tuzatib, so'ngra Fanlar akademiyasi muhokamasiga qo'yishni so'ragan.

Akademianing 31-iyul va 2-avgustdagagi konferensiyalari M.V. Lomonosov tomonidan taqdim etilgan asarni muhokama qiladi hamda uning tavsiyasini o'rganib, P.I. Richkov asarini chop etishni ma'qullaydi.

Kitobning birinchi qismida Orenburg shahri va guberniyasining tarixiga tavsif berilgan bo'lib, ikkinchi qismida Orenburg guberniyasining atrofidagi hududlar va xalqlar haqida ma'lumot berilgan. Umuman kitobning ikkinchi qismi o'z mazmuniga ko'ra yangi tashkil etilgan Orenburg guberniyasiga chegaradosh O'rta Osiyo yerlari haqidagi geografik ma'lumot edi. “Orenburg

topografiyasi"ning jami 7 ta bo'limida O'rta Osiyo hududlari haqida ma'lumotlar bor. Ular quyidagilar: 1. Turkmanlar haqida. 2. Xiva va xivaliklar haqida. 3. Orolliklar haqida. 4. Qoraqalpoqlar haqida. 5. Qozoqlarning katta O'rdalari. 6. Turkiston mulklari haqida. 7. Toshkent mulki haqida.

Xiva xonligi haqida quyidagicha tavsif keltirilgan: "Xiva mulklarini Kaspiy dengizi tomonidan turkmanlar bilan Eron hududlari, keyin Buxoro va qisman jung'or mulklari qoraqalpoqlar, orolliklar va qirg'iz-qaysaqlar bilan chegaradosh yerlar o'rabi turadi. Buxoro, Balx va Badaxshondan Orenburgga yo'l olgan savdo karvonlari Xiva mulklarini chetlab o'tolmaydilar. Shuning uchun ham Orenburg tijoratida Xiva shahri asosiy port hisoblanadi".

Qoraqalpoqlar haqida ham qimmatli ma'lumotlar keltirilgan: "Bu xalq Yuqori va Quiyi qoraqalpoqlarga ajratiladi. Ammo yuqorida keltirilganidek, Quiyi qoraqalpoqlar Orenburgga yaqin – Orol dengizi atrofida, Quvondaryo bo'ylab qirg'iz (qozoqlar bilan yonma-yon yashaydilar va Rossiya tobeligiga o'tganlar. Yuqori qoraqalpoqlar Sirdaryoning o'zani bo'ylab Orolga quyilish joyidan Toshkentga tomon yo'nalgan yerlarda yashashadi. Ular asosan, dehqonchilik va yirik shoxli chorva boqish orqali kun kechirishadi. Ularda chorva mollari ko'pdir. Qishda o'tovlarda, yozda esa ko'chib yurishadi. Ularda xon bo'lsa ham, unchalik katta ta'sirga ega emas, aksincha, xo'jalar katta siyosiy kuchga ega hisoblanadi. Qoraqalpoqlar orasida xo'jalar ko'p bo'lib, ular Muhammad (payg'ambar) shogirdlarining avlodlari sifatida qadrlanadilar. Yuqori qoraqalpoqlar ko'p sonli bo'lsa-da, ularda jangovarlik qobiliyati kam, ko'proq dehqonchilikda usta xalq hisoblanadi".

Keltirilgan ma'lumotlarni jamlab, ulardagi tavsiflarning qimmatini baholar ekanmiz, ayniqsa, Toshkent shahri haqidagi bayon ancha qiziqarlidir: "Toshkent aholisi ko'p sonli shahar. Orenburgdan janubga o'rtacha 20 kunlik masofa uzoqlikda.

Katta qismi tekis joyda barpo qilingan. Eniga va uzunligiga 4 vyorst masofani egallaydi. Unda hech qanday daryo yo‘q, ammo undan 10 vyorst uzoqlikdagi masofada Sirdaryoga quyiluvchi Chirchiq oqib o‘tadi. Undan shahargacha uncha katta va chuqur bo‘lmagan kanallar qazilgan hamda ularning soni ko‘p. Bundan tashqari shaharda quduq va ko‘llar qazilgan. Toshkentda 6000 va undan ko‘proq uylar bo‘lib, hammasi paxsali va bitta derazali. Tomlari qamishdan, yog‘ingarchilikdan yaxshi himoya qilmaydi”.

So‘ngra muallif shaharning katta ko‘chalari – Samarqand, Beshyog‘och, Terserek, Shayxontohur, Taxtakus, Tosoxon, Qopqon, Ko‘chki (Ko‘kcha)ni sanab o‘tadi.

“Orenburg topografiyasi” o‘z davrida ko‘plab tillarda nashr qilingan bo‘lib, uning nemis tilidagi nashridan xorijlik mualiflar o‘z faoliyatlarida keng foydalanishgan. P.I. Richkovning “Orenburg topografiyasi” kitobi orqali rus kitobxonlari va Rossiya hukumati Orenburg o‘lkasi, kam o‘rganilgan O‘rta Osiyo hududlari haqida kengroq tasavvurga ega bo‘ldilar.

**Filipp Yefremovning “To‘qqiz yillik safar”i.** Taqdir taqozosiga ko‘ra O‘rta Osiyoda bir necha yil tutqunlikda bo‘lib, bu yerdan sarguzashtlarga to‘la sayohat qilishga majbur bo‘lgan rus serjanti Filipp Yefremovning “To‘qqiz yillik safar” (“Девятилетнее странствование”) asari ham o‘lkamiz tarixida muhim o‘rin tutadi. Uning bu sarguzasht sayohati to‘qqiz yil (1774-yildan 1782-yilgacha) davom etgan.

Filipp Yefremov 1774-yil harbiy to‘qnashuvlarning birida qirg‘iz-qorsaqlar (qozoqlar) tomonidan asir olinadi va bir guruh o‘ziga o‘xshash ruslar bilan Buxoroga eltib qul qilib sotiladi, keyin Buxoro amiri Doniyolbek otaliquqa tortiq qilinadi. Yefremov amirlik xizmatida ellikboshi unvonigacha ko‘tariladi, yurishlarda qatnashadi va shu bahonada Markaziy Osiyoning ancha joylarini ko‘rishga muvaffaq bo‘ladi. Qoraqum va Qizilqumni kezib, Xiva, Buxoro va Samarqand hamda Farg‘ona vodiysida

bo'lgan. Bu yerdan Koshg'arga qo'chib, Qoraqumni oshib o'tib, Hindiston va dengiz yo'li orqali (Afrikani aylanib o'tib) Peterburgga qaytib kelgan. U safar davomida ko'rgan-kechirganlarini kundalik shaklida yozib borgan va 1782-yili Peterburgga qaytgach, uni kitob shakliga keltirib, chop qilgan (1786).

Kitobga Orenburgdan Buxorogacha va Buxorodan Mang'ish-loqqacha bo'lgan turli yo'llar, ular orasidagi masofa (necha kunlik yo'l hisobida) hamda o'zbekcha va tojikcha so'zlar lug'ati ilova qilingan. Filipp Yefremovning sayohatnomasida O'rta Osiyo tabiatini va aholisi quyidagi kabi sarlavhalar ostida juda ixcham, lo'nda tasvirlangan: "Qirg'izlar yeri (Qozog'iston ma'nosida) nimalarga boy, havosi va odamlari qanday", "Samarqand nimalarga boy, havosi va odamlari qanday" va hokazo. Masalan, Samarqand haqida shunday yozadi: "U yerda havo sog'lom va mo'tadil, tuprog'i oq-qizg'ish (bo'z tuproq) va qumli hamda hamma joyda bir xil hosildor.

Bu yerda ko'plab uzum, turli mevalar, bug'doy, arpa, jo'xori, sholi, tariq, yong'oq va paxta yetishtiradilar. Samarqandliklar bo'yiali baland, yuzlari tiniq, oq va sog'lom xalq..."

Filipp Yefremov, chunonchi, Buxoro hududi – "Buxariya"ning dastlab iqlimi, so'ngra asosiy ekinlari va mevalari, to'qiladigan xilma-xil matolari, chorvachiligi, so'ngra Buxoro shahri, uning qal'a devorlari, yirik binolari (saroy va madrasalar), harbiy qudrati (artilleriyasi), lashkarlari soni, quroq-aslahalari, atrofdagi xonliklar bilan olib borayotgan janglari, ayollar libosi, aholining asosiy taomlari va boshqalar yoritiladi. Muallif O'rta Osiyoning yuqori sifatli qog'ozi va shoyisi haqida maxsus to'xtaladi. Nihoyat, Buxoro xonligiga qo'shni yerlar, bu xonlikka kelgan rossiyaliklar, Buxoro xoni va lashkarboshilari haqida ma'lumot beriladi. Jumladan, Buxoro tavsifi ancha qiziqarlidir: "Shahar devori loy (paxsa)dan qurilgan, qalinligi pastki qismida 2 sajen, tepa qismida bir sajen. O'n bitta darvozasi bor, shahar o'rtasida balandligi 50 sajen keladigan doira shak-

lidagi tosh minora (minora aslida pishiq g'ishtdan) qurilgan, qalinligi 3 sajen. O'sha minoradan sal narida bozor joylashgan, uni Chorsu deydilar, ertalab tushgacha savdo bo'ladi; bozorda toshdan [pishiq g'isht] qurilgan 4 ta karvonsaroy bor. Tushdan so'ng savdo xon saroyi [yoni]da bo'ladi. Bu bozorni Registon deydilar”.

Yog'inlari haqida quyidagicha yozadi: “Ilgarilari bu yerda [qor] ko'pi bilan 2 vershok qalinligida yog'arkan; 1774-yildan boshlab, ya'ni Buxoroga xristianlar kelaboshlagach, yarim ar-shin, ba'zan esa undan ham qalin [yoqqan emish]; quyosh chiqishi bilan [qor] erib ketadi; ayozli [kunlar] ham bo'ladi. Buxoroliklarning aytishicha, ruslar yo'q paytda qor ham, ayoz ham bo'lмаган emish va yana oxir-oqibat ularning shaharlari Rossiya ixtiyoriga o'tadi, deb ta'kidlab ham qo'yadilar”.

Filipp Yefremov Buxoroga chegaradosh hududlar va boshqaruvini tasvirlab, shunday yozadi: “Hozirgi vaqtida Doniyor (Doniyol)bek otaliqning baxtiga Buxoro o'lkasi hammasi uning qo'lida erur, uning chegaralari ancha keng; Buxoro [xonligi] hududi bir tomondan Qo'qon [xonligi] bilan, Qo'qon [xonligi] esa [o'z navbatida] Qoshg'ar viloyati bilan [chegaradosh]; boshqa tomonda Balx, Afg'on bilan, u esa Hindiston bilan; uchinchi tomonda Persiya (Eron) bilan; to'rtinchi tomonda Mang'ishloq dashti bilan chegaradosh; Buxoro shahrida u yergacha bir kunlik otliq yo'l yoki 35 verst.

Bu yerning boshqaruv tizimiga kelsak, yakkahokimlik ustuvordir, otaliqning xohish-istagi va hukmiga bo'ysunadilar, unga xon ham bo'ysunadi. Buxoro hanuzgacha biror-bir davlatga qaram bo'lмаган: xitoylar bu yerni egallash uchun qirlar oshib aziyat chekishni istamaydilar; hindlarning o'z tashvishlari boshidan oshib-toshib yotibdi; eronliklar tinmay ichki nizolar olib boradilar va boz ustiga kichik bir daryodan nariga o'tishga ham qo'rqedilar. Shulardan kelib chiqib, faqat Rossiya bu yerda o'zining oliy hukmronligini o'rnatishi mumkin”.

Asarda joylarning geografik tasviri bilan bir qatorda, aholi, uning kasb-kori, udumlari, davlat qo'shinlari, yarog'-aslahalari kabilar haqida qimmatli ma'lumotlar o'rin olgan.

**Ivan Georgi.** Taniqli etnograf va tabiatshunos olim, 1783-yildan Peterburg Fanlar akademiyasining akademigi Ivan (Iogann Gotlib) Georgi (1729–1802) Rossiya bo'ylab 1768–1774-yillar davomida sayohat qilgan.

Asli nemis ruhoniysi oilasidan chiqqan. Shvetsiyadagi Upsala universitetini tamomlab, tibbiyot doktori darajasini olgan hamda dorishunos bo'lib ishlagan. Peterburg Fanlar va Badiiy akademiyasining taklifiga binoan 1768-yilda Rossiyaga kelgan. Rossiya bo'ylab uyushtirilgan ko'plab ekspeditsiyalarda ishtirok etgan (Volgabo'y, Janubiy Uralbo'y, G'arbiy Sibir, Baykalbo'y).

Georgi qatnashgan etnografik tadqiqotlar natijasida bezakli, ancha boy mazmunga ega "Описание всех в Российском государстве обитающих народов" ("Rossiya davlatida yashovchi barcha xalqlar tavsifi") nomli asarini yozgan. Asar 1776–1780-yillarda Sankt-Peterburgda nemis tilida, 1776–1777-yillarda rus tilida qisman chop etilgan.

Asarda Buxoro va buxoroliklar haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan: "Kichik Buxoro, bilishimcha, Kaspiy dengizi va Orol ko'lidan sharqda joylashgan; Persiya (Eron), Shimoliy Hindiston va ko'pgina kichik-kichik tatar viloyatlari (Татарские владения) bilan chegaradosh.

Sirdaryo bo'yida joylashgan bosh shahri – Buxoro Orenburgdan to'g'ri yo'l bilan hisoblaganda, 1500 verst janubi-sharqda; savdogarlar odatda tuyalarda yuklar bilan yurganlari sababli, besh yuzdan 1000 verstgacha ortiqcha yo'l bosishlari kerak bo'ladi. Chunki ular o't-o'lan va suv qidirib ancha aylanib yuradilar. Bu o'lka Hind tog'larining shimoliy yon bag'rida yastangan, katta qismi tekislik; ba'zi joylari tog'lardan iborat. Buxoroliklar o'zlarini bevosita utslarning (o'g'uzlarning), ya'ni hozirgi turkmanlarning avlodlari deb bilishadi. Tatarlarning

g'arbga harbiy yurishi chog'ida ular shu yerda qolganlar va bu joyning hosildor yeri hamda sog'lom iqlim sharoitini ko'rib doi-miy yashab qolganlar; chorvachilik hayot tarzini dehqonchilikka, o'tovlarni bir xonali uylarga o'zgartirganlar".

Ivan Georgi Buxoroning siyosiy tarixiga ham to'xtalib: "Buxoroni xon boshqaradi, u xon avlodidan; qo'shni davlatlar xonlariga qaraganda uning hukmi ko'proq o'tadi, biroq to'la mustaqil emas va taxtdan olinishi mumkin. Bu mamlakatda xalqning to'la-to'kis bo'ysunishi kamdan kam uchraydigan holat, xonlar esa faqat o'zlarining mulklaridan keladigan daromad bilangina, davlat soliqlarisiz yashayolmaydilar, dabdabalar, katta xarajatlardan voz kechaolmaydilar", – deb qayd etgan.

**Mitropolit Xrisanfning qaydlari (1790).** Taniqli rus sharqshunosi V.V. Grigorev (1816–1881) Orenburgda xizmat-daligi paytida bir zabitdan yunon mitropoliti Xrisanfning sayohat qaydlari bitilgan matnni oladi. Xrisanf "Qaydlari" 1861-yilda kirish so'zi va izohlari bilan V.V. Grigoryev tomonidan Moskvada chop etilgan.

Xrisanf asli Afina yaqinidagi Novopatrask ibodatxonasida keyinroq, Konstantinopol yaqinida ham mitropolit bo'lgan. Suriya, Maskat, Hindiston, Kashmir, Kobul, Balx va O'rta Osiyoni sayohat qilib, 1795-yilning 3-mayida Astraxanga yetib kelgan. Bu yerdagi ruhoniylarning tavsiyasi bilan u Moskvaga davlat xizmatiga jo'natilgan. 1796-yilda tuzgan sayohat qaydlarini graf Zubovga taqdim etgan. Graf undan kerakli ma'lumot jamlagani uchun Eron ekspeditsiyasida foydalangan bo'lishi kerak.

Xrisanf "Qaydlari"da Buxoro xonligining yirik shaharlari dan Samarqand, Buxoro va Balx hamda Xorazmning XVII–XIX asrlardagi poytaxti Xiva haqida ma'lumotlar ham o'r'in olgan. Masalan, Xrisanf Samarqand haqida mana bularni yozadi: "Samarqand shu kunlarda deyarli bo'sh qolgan. Uni egallab olgan bahaybat maxluq samarqandlik noib (Rajabxon) uni ilgarigidek obod qilish uchun qanchalik urinmasin, mehnati zoye ketdi. Es-

hitishimcha, uning tevarak-atrofidagi tog'larda konlar bor, tabiatи yoqimli... Tevarak-atrofida ham o'zbeklar istiqomat qiladilar".

Buxoro haqida: "Buxoro to'q shahar. Unda savdogarlar va boshqa (boy-badavlat) odamlar ko'p. U asosan kumush, oltin, marvarid va qimmatbaho toshlarga boy. Xon tez-tez Balx va Mashhad ustiga talon-taroj yurishlari uyuştirib turadi. Buxoroliklar jon-jahd bilan jang qiladilar".

Balx haqida: "Balx viloyati haqida gapirmasam gunohi azim bo'ladi. Agar Buxoro hukmdorlari tez-tez hujum uyuştirib, uni talon-taroj qilmaganlarida u obod, qudratli va boy viloyat bo'lur edi. Nodirshoh vafot etgandan beri shu vaqtgacha afg'on podsholari qo'lida. Uning qal'asi chor tarafdan (suv bilan to'ldirilgan xandaq bilan o'ralgan) tepalikda joylashgan. Balx ataluvchi katta qal'asi bor. Qal'a hozirgacha mustaqil".

Xiva shahri haqida: "Yerli aholi ikki toifadan: mahalliy kotliklardan (Xrisanf ularni Қидиты deb ataydi) va boshqa yerdan ko'chib kelgan qo'ng'irotlardan tashkil topgan. Ular kotliklardan chiqqan vazir o'ldirilgandan beri o'zaro yovlashib keldilar. Kotliklar 5000 ga yaqin xonadondan iborat. Ular o'ta kek saqllovchi xalq. Kotliklarning tayyor qo'shini yo'q. (Zarur bo'lib qolganda) kelishib odam yollaydilar. Oyiga kimga o'n so'm, kimga bir so'm beradilar. Aytishlaricha xivaliklarning harbiy kuchi 20000 kishini tashkil qilar emish", deb qayd etgan.

**T. Burnashevning Buxoro (1795) va Toshkentga (1800) sayohati.** 1794-yilda tog'-kon ishi bo'yicha harbiy mutaxassis Timofey Burnashev va uning hamkasbi Aleksey Beznosikov Omskdan tabiiy boyliklari, aholisi haqida ma'lumotlar to'plash uchun Buxoroga jo'natiladi. Ular Troitsk orqali Qoraqum (Orolbo'y), Qizilqum, Quvondaryo, Yoyiqdaryo, Qizqal'adan o'tib, nihoyat 1795-yilda Buxoroga yetib kelishadi. T. Burnashev sayohati natijalarini 1818-yilda G.I. Spasskiy tomonidan chop etilayotgan "Сибирский вестник"da ("Sibir xabarnomasi") hammulliflikda nashr ettirgan (Бурашев Т.

Путешествие от Сибирской линии до города Бухары в 1794 г. и обратно в 1796 г.).

Buxoro haqida xilma-xil ma'lumotlar, uning siyosiy-iqtisodiy ahvoli, karvonsaroylari, shaharning o'zi haqida, tuprog'i, iqlimi, sug'orish tizimi, amirlik ma'murlari bilan olib borgan muzokaralari batafsil yoritilgan.

"Buxoroning siyosiy bo'linishi va statistikasi bo'yicha" nomli qismida aholining mashg'uloti, ziroatchilik, sanoat, savdo-sotiq, shuningdek, til, din, urf-odat va an'analarga oid ma'lumotlar berilgan. Xususan, suv ta'minoti haqida shunday deyilgan: "...Buxariyaning mashhur daryosi – Amu... Buxariyada daryolarning kamligidan shahar va qishloqlarni suv bilan ta'minlash, yana dala va bog'larni sug'orish uchun Amu, Buxor, Vabkan va boshqa manbalardan har xil kenglikdagi suv quvurlari tortilgan".

T. Burnashev hisobotida Qizilqumga quyidagicha ta'rif berilgan: "Sir va Yani orasidagi yerlarda saksovulzorlar ko'p, ammo suv va ekinli yerlar kam; Yanidan boshlanuvchi yo'l suvsiz va o't-o'lansiz Qizilqum (Красный песок)dagi saksovulzorlar orqali o'tadi".

"Buxoroning boshqaruв ahvoli" qismida esa davlat muassasalari, qonunlar, sudlov tizimi, davlat xazinasi, qo'shini va urush olib borish turlari bayon etilgan.

T. Burnashevning hamrohi A. Beznosikov esa O'rta Osiyoga doir to'rtta karta tuzgan. Uning kartalarida relyef nihoyatda sxematik ravishda chunonchi tog'lar oddiy rasm tasviri bilan berilgan bo'lsa ham, daryo va sug'orish tarmoqlari esa ancha mukammal tasvirlangan. Kartalarda ruslarning O'rta Osiyo haqidagi kartografik manbalari orasida ilk bor avval qayd etilmagan Qizilqum ("Пески Кызылкум") toponimi uchraydi.

1800-yilda T. Burnashev bilan yana bir boshqa tog'-kon muhandisi M. Pospelov bu safar Toshkentga sayohat qilishib, Toshkent va uning atroflari, tabiiy shart-sharoiti, boshqaruв usuli, qo'shini, tijorat turlari, urf-odat va tog'-kon ishlari haqida

ma'lumot yig'ishgan. Toshkent hokimi Yunusxo'janing iltimosiga ko'ra shahar yaqinidagi konlarni o'rganishgan. Ularning sayohati natijalari ham dastlab 1818-yilda "Сибирский вестник"да ("Путешествие от Сибирской линии до Ташкента и обратно в 1800 г."), keyinroq Rossiya Geografiya jamiyatining axborotnomasida chop etilgan (1851).

### Savol va topshiriqlar

1. O'rta Osiyo haqida Yevropa tillaridagi yozma manbalar, sayyoh va elchilarning yozib qoldirgan ma'lumotlaridagi umumiyligi jihatlar nimalardan iborat?
2. Rui Gonsales de Klavixoning "Kundaligi"dan Amir Temur davlatining harbiy salohiyati haqida ma'lumot to'plang.
3. XVI asrdagi O'rta Osiyo tavsifi keltirilgan rus va Yevropa tillaridagi yozma manbalar haqida nimalarni bilasiz?
4. Internet veb-sahifalaridan V.N. Tatishevning hayoti va ilmiy faoliyati bo'yicha mustaqil ish tayyorlang.
5. P.I. Richkovning "Orenburg topografiyasi" asarida o'l kamizning qaysi joylari haqida ma'lumot uchraydi?
6. "Книга Большому Чертежу"да O'rta Osiyodagi manzilgohlarga qanday ta'rif berilgan?
7. XVII–XVIII asrlardagi manbalarning qaysilari tarixiy-kartografik sanaladi?
8. Yirik safarnoma va qaydlar (XVIII asrning ikkinchi yarmi) bo'yicha chop etilgan tadqiqotlarning bibliografik ro'yxatini tuzing.

### Manbalar va adabiyotlar

1. Английские путешественники в Московском государстве в XVI веке / Перевод с англ. Ю.В.Готе. – Л., 1937.
2. Ахмедов Б.А. Историко-географическая литература географическая литература Средней Азии XVI–XVIII вв. (Письменные памятники). – Т.: Фан, 1985.
3. Веселовский Н.И. Иван Данилович Хохлов (русский посланник в Персии и Бухаре в XVIII веке) // Журнал Министерства народного просвещения, ч. 273. – М., 1891.

4. Ефремов, Филипп. Девятилетнее странствование / Под ред. со вступит. стат. и comment. Е. Мурзаева. – М.: Гос. изд-во географической литературы, 1950.
5. История Узбекистана в источниках. Известия путешественников, географов и ученых XVI – первой половины XIX века / Составитель Б.В. Лунин. – Т.: Фан, 1988.
6. Карпини Плano. История монголов / Введение, перевод и примеч. А.И. Малеина. – СПб.: Изд. А.С. Суворина, 1911.
7. Klavixoning Samarcandga sayohati / Rus tilidan tarjima, kirish so'z va izohlar Omonullo Bo'riyevniki. – Т.: "Adolat", 2004.
8. Книга Большому Чертежу / Под ред. К.Н. Сербиной. – М. – Л.: Изд-во АН СССР, 1950.
9. Наказ Б.А. и С.И. Пазухиным на посольство в Бухару, Балх и Юргенч, для выкупа russ. пленных, с прилож. статейного списка. 1669–73 / Изд. под ред. А.Труворова. – СПб., 1894.
10. Путешествие Марко Поло / Перевод старо-французского языка И.Р. Минаева. Под ред. В.В. Бартольда // Записки Императорского Русского Географического общества. Т. XXVI. 1902.
11. Рубрук Вильгельм. Путешествия в восточные страны / Введение, перевод и примечания А.И. Малеина. – СПб.: Изд. А.С. Суворина, 1911.
12. Руи Гонсалес де Клавихо. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403–1406) / Перевод, предисловие и комментарии И.С. Мироковой. – М.: Наука, 1990.
13. Статейный список посольства в Бухару дворянина Ивана Хохлова // Сборник князя Хилкова. – СПб., 1879.
14. Татищев В.Н. История Российской. В семи томах. – М. – Л.: Наука, 1964.
15. Топография Оренбургской губернии. Сочинение П.И. Рычкова 1762 года. – Оренбург: Тип. Б. Бреслина, 1887.
16. O'zbekiston tarixi (xrestomatiya). – Т.: "Fan va texnologiya", 2014. 3-jild.
17. Nebenzahl, Kenneth. Mapping the Silk Road and Beyond. 2000 years of Yexploring the East. – New York, 2005.

## 11-MAVZU: XIX ASR BIRINCHI YARMIDA XONLIKLARGA JO'NATILGAN DIPLOMATIK MISSIYA, ELCHILIK VA EKSPEDITSIYALAR NATIJASIDA YARATILGAN MANBALAR

*Mir Izzatullaning Qo'qon xonligiga sayohati* (1812), *F. Nazarovning "Записки о некоторых народах и землях Средней части Азии" асари*. *N. Muravyevning Xiva xonligi* (1819–1820), *Ye.K. Meyendorfning Buxoro va Xiva xonliklariga doir tafsilotlari* (1820). *Diplomatik missiya, elchilik va ekspeditsiyalarning ma'lumot va qaydlari* (E. Eversman, Budrin, G.I. Spasskiy, N. Potanin, A. Byorns, P.I. Demezon, P.S. Savel'yev, Ya.V. Vitkevich, K.F. Butenev). *G.I. Danilevskiyning "Описание Хивинского ханства" асари* (1842–1843), *sharqshunos N.V. Xanikovning Buxoro amirligiga oid tausifi* (1841–1842), *A.I. Butakovning kundalik qaydlari* (1848–1849).

XIX asr birinchi yarmida O'rta Osiyoga jo'natilgan diplomatik missiya, elchilik va ekspeditsiya ishtirokchilarini tomonidan o'lkaza boir qimmatli ma'lumotlar to'plangan. Ularning diqqat markazida Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklari, ularning ijtimoiy-siyosiy, xo'jalik hayotini o'rganish bo'lgan. Shu asosda o'lkaning boy tarixi, etnografiyasi, statistikasi bo'yicha ko'plab tafsilotlarga boy yozma asarlar yuzaga kelgan. Garchand XIX asrning boshlarida O'rta Osiyoni o'rganish jarayoni biroz sekin kechgan bo'lsa-da, uni ilmiy tadqiq qilish XIX asrning 20–30-yillaridan faollashdi.

**Mir Izzatullaning Qo'qon xonligiga sayohati.** 1812-yilda Hindistondagi inglez koloniyasining taniqli vakili Vily-

am Murkroft topshirig‘iga ko‘ra Qo‘qon xonligiga, shuningdek, Markaziy va O‘rta Osiyoning qator yerlariga Mir Izzatulla tashrif buyuradi. Uning sayohati 1812-yil 20-apreldan boshlanib, 1813-yil 16-dekabrgacha davom etgan. U O‘rta Osiyoning Qo‘qon, Samarqand va Buxoro yo‘nalishlari orqali o‘tib o‘z sayohatnomasini yozib qoldirgan. Ushbu sayohatnoma o‘lkaga oid qimmatli tarixiy-geografik va tarixiy-etnografik ma’lumotlar beradi. Chunki aynan Mir Izzatullaning O‘rta Osiyoga tashrifidan so‘ng XIX asrda Ost-Indiya kompaniyasining zabit va xizmatchilari o‘lkani o‘rganish maqsadida ko‘plab sayohatlar uyuşhtirishdi. Ana shunday sayohatchilar sirasiga Mir Izzatullaning sayohatini uyuşhtirgan V. Murkroftning o‘zi ham bo‘lib, u Amudaryoning yuqori oqimini shaxsan o‘zi tadqiq etgan.

Mir Izzatulla o‘zi safar qilgan manzillarga alohida tavsif bergan. U qayd etgan “bekatlar” deganda nomi yo‘q manzillar tushuniladi. U yerda yoqilg‘i, yem-xashak va suv zaxiralari mavjud bo‘lib, mazkur hududlar karvon yo‘llari bo‘yida joylashgani bois yo‘lovchi, sayohatchilar uchun qulayliklar yaratgan.

Mir Izzatullaning Qo‘qon xonligiga qarashli O‘sh, Marg‘ilon va Qo‘qon shaharlari haqidagi ma’lumotlari qimmatlidir. Ayniqsa, Qo‘qon shahri, uning siyosiy hayoti haqidagi bayoni xususida quyidagilar keltiriladi: “...devorlar bilan o‘ralmagan bu yirik shaharning shakllanishi Norbo‘tabiy davriga to‘g‘ri keladi; avvallari qo‘rg‘ondan uncha katta bo‘lmagan. Suvlari shaharning barcha ko‘chalari bo‘ylab oqadi. Hozirgi hukmdorning nomi – Umarxon.

Ikki yil avval 1228 hijriyda (1813-yil 4-yanvar) uning katta akasi Olimxon (sobiq xon)ning butun mamlakat abolisiga zulmi natijasida qo‘l ostidagi qo‘sishlari uning Toshkentda ekanligidan foydalanib, Umarxonni xon etib saylashdi. Shundan so‘ng xon Olimxon bir o‘zi hokimiyatni qarshiliksiz qaytarib olish maqsadida poytaxtg‘a yo‘l oldi. Biroq shaharga yetmay yo‘lda o‘ldirildi. U va ukasi Umarxon Norbo‘tabiyning o‘g‘illari edi”.

Shuningdek, Mir Izzatulla Qo'qon armiyasi, aholisi, tili, ularning diniy e'tiqodlari, pul munosabatlari haqida ham ma'lumot bergan. Qo'qon xonligiga qarashli shaharlarni to'g'ri qayd etgan: O'sh, Namangan, Koson, Chust, Andijon, Marg'ilon, Konibodom, Isfara, Xo'jand, Toshkent, Sayram, Turkiston.

Mir Izzatullaning sayohatnomasi bilan tanishib shunga amin bo'lishimiz mumkinki, u asosan ma'lum maqsadlar uchun tuzilgan. Ya'ni u Qo'qon xonligining harbiy holati, aholisi, geografik tuzilishi, daryolari, yem-xashak, yoqilg'i manbalarini, qulay yo'llarini batafsil yoritgan.

**F. Nazarovning "Записки о некоторых народах и землях Средней части Азии" асари.** XIX asr boshiga oid muhim tarixiy va geografik manbalardan biri 1813–1814-yillar davomida Filipp Nazarovning Qo'qon xonligiga sayohati natijalari asosida "Записки о некоторых народах и землях Средней части Азии" ("Osiyoning O'rta qismidagi bir necha xalqlar va davlatlar haqida qaydlar") nomli kitobidir. Mazkur kitobdan Qozog'iston dashtlari va cho'llari tabiatining qisqacha sharhi, bu yerlar aholisi hamda uning mashg'uloti, Turkiston va Toshkent viloyatlari to'g'risida umumiy ma'lumot, so'ngra esa Qo'qon xonligi haqida keng materiallar berilgan. Muallifning ko'rgan-kechirganlari haqidagi xilma-xil ma'lumotlar tafsilotidan iborat bu asar ko'proq tarixiy-etnografik ahamiyatga ega bo'lib, u ilk bor 1821-yilda Sankt-Peterburgda rus tilida nashr etilgan.

F. Nazarov 1789-yilda Omskdagi "Osiyo maktabi" (Osiyo bilim yurti)ni tamomlagan. 1804-yilda Tobolsk guberniyasidagi istehkom qal'aga tarjimon bo'lib ishga kiradi. Keyinroq xizmat yuzasidan turli chegara joylarida ishlab, bir qator xorijiy safar-larga jo'natiladi.

Aynan 1813-yilda uni Qo'qon xonligiga maxsus vazifalar bilan jo'natishadi. Toshkentga kelgan F. Nazarov bu yerdan kazak otryadi hamrohligida 1813-yil oktabrida Qo'qonga yetib keladi.

Bu haqda F. Nazarov shunday yozadi: “Bizlar Qo‘qonga oktabr oyining boshlarida yetib keldik. Bu yerda havo sovuq emas, ob-havo iliq, daraxtlarning bargi hali to‘kilmagan, yer o‘t-o‘lan bilan qoplangan. Kunduzi issiq bo‘lib, tunlari qorong‘u va bir qadar sovuqroq edi”.

O‘sha oydayoq Qo‘qon ma’muriyati tomonidan kazak otryadi ortga – Rossiyaga qaytarib yuboriladi. F. Nazarov esa qolgan 5 ta kazak bilan Qo‘qonda qariyb bir yilcha qoladi. Xonlikning turli shahar va qishloqlariga safar qilishadi. So‘ngra O‘ratepa va Xo‘jand orqali Toshkentgacha kelib, 1814-yil avgustida qo‘qonlik elchilar bilan Rossiyaga qaytgan.

F. Nazarov Qo‘qon shahrini quyidagicha tavsiflaydi: “Shahar ancha keng va gavjum [unda to‘rt yuzcha masjid bor deb hisoblashadi]; tekis yerda joylashgan va hukmdorning saro-yidan boshqa mustahkam biron imorati yo‘q. Atrof tevarakda qishloqlar, yaylovlar va shudgor yerlar yastanib yotadi. Yeri sho‘rxokroq. Shahar ko‘chalari tordan tor, uylari guvala va loydan qurilgan.

Shahar o‘rtasida toshdan bunyod etilgan uchta bozor bo‘lib, ularda haftada ikki marta savdo bo‘ladi. Bir qancha joylarda qadimiy yodgorliklar mavjud hamda qal‘a yaqinida xonning arg‘umoqlari uchun pishiq g‘ishtdan qurilgan ulkan otxona bor; qo‘smini 20 000 askardan ziyod”.

Qo‘qon xonligida pillakashlik sohasida qilinayotgan ishlari haqida shunday yozadi: “Shaharga kirganimizda hamma bozorlar ipak qurtining urug‘i solingan qutilar bilan to‘la edi. Men uchun qo‘qonliklarning qanday qilib ipak qurtini ko‘paytirishlari ajablanarli edi”.

Xonlikning iqtisodiy-xo‘jalik hayotini ta’riflab, “Qo‘qon va unga qarashli yerkarda paxta yetishtiradilar, ipak qurti boqiladi. Yetishtirilgan paxta va ipakdan mato to‘qiydilar va uni buxoroliklarga Rossiyadan keltirilgan mollar evaziga, masalan, temirga, suvsar terisi, to‘tiyo, bo‘yoq, qozon, temir va po‘latdan

yasalgan uy-ro'zg'or buyumlari va boshqalarga almashadilar", – deb yozgan.

**Nikolay Muravyevning** (1794–1866) Kaspiy dengizining sharqiy qirg'oqlaridagi turkmanlar yeri va Xiva xonligiga sayohati 1819–1821-yillarda amalga oshirilgan. A. Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasidan keyin N. Muravyev safari ilk sayohat hisoblanadi. U Xivada xon bilan uchrashgan, keyinchalik xivalik elchilar bilan Kavkazga sayyohat qilgan.

N. Muravyev Xiva xonligi, uning tarixi va xo'jaligimadaniyatini aks ettiruvchi batafsil tavsif yozib qoldirgan. Uning ikki qismdan iborat "1819 va 1829-yillarda muzokaralar uchun Turkmaniston va Xiva mamlakatlariga jo'natilgan Gvardiya bosh shtabining kapitani N. Muravevning sayohati" ("Путешествие в Туркмению и Хиву в 1819 и 1820 гг. Гвардейского генерального штаба капитана Николая Муравьева, посланного страны для переговоров") kitobi 1822-yilda Moskvada nashr etilgan. Birinchi qismi 3 bobdan iborat: 1. Sohilbo'yи Turkmanistonga sayohat. 2. Xivaga sayohat va Xiva xonligida bo'lish. 3. Ortga qaytish.

Ikkinci qismi 5 ta bobdan iborat.

Birinchi bobda Xiva xonligi hududi haqida umumiy ma'lumot berilgan. Jumladan, "Xiva xonligi shimolda Orol dengizi va uning shimoli-sharqida joylashgan cho'l bilan chegaradosh. Cho'lda qozoqlar istiqomat qiladilar. Shimoli-sharqiy hududi Amudaryo bilan tutash. Shimoli-g'arbiy tarafi cho'l va qumliklardan iborat. Bu hududda turkmanlarning Taka qavmi istiqomat qiladi" deb keltirilgan.

"Xiva -- poytaxt shahar. Aytishlaricha, qadimda Xivaq deb atalgan. Amudaryo o'z o'zanini o'zgartirmasdan burun, buniyod etilgan. U katta shahar bo'lib, mashhur imoratlari: madrasa, xon muroyi va ibodat qiladigan masjid bo'lib, masjid gumbazi feruza rangli koshin bilan qoplangan. Xonning hovlisi katta bo'lmay, unda ham bir necha kichik masjid mavjud. Uylari loydan qu-

rilgan, ko'chalari tor. Shaharda bir necha kichik do'konlar ham bo'lib, (bozorida) haftada ikki marta oldi-sotdi bo'ladi. [Xivada] 3000 ga yaqin xonadon bo'lib, xalqi 10000 ga yaqin".

N. Muravyev kitobining ikkinchi bobida xonlikdagi o'zaro urushlar, xon va uning boshqaruvi, sudlar, mirshablar va o'lim jazosi haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

Uchinchi bobda xonlikning iqtisodiy ahvoli tahlil etilgan: "Xiva xonligida istiqomat qilgan xalq ko'proq g'alla yetishtirish va bog'dorchilik bilan mashg'ul. Ularning daromadi asosan g'alladandir. Hamma yerda obod qishloqlar, kanal va ariqlarning bo'yalarida ekinzorlar, uzumzorlar va serhosil bog'lar... Sabzavotdan, Rossiyada o'sadigan karam, sholg'om va kartoshkadan boshqa ham sabzavot yetishtiriladi. Piyozi yirik bo'ladi. Xivaning qovuni va tarvuzi katta va shirin bo'ladi".

To'rtinchi bobda esa xonlikning harbiy salohiyati bayon etilib, shunday ma'lumot keltiriladi: "Xivaliklarda muntazam qo'shin yo'q. Urush chiqib qolgudek bo'lsa, qo'shin o'zbeklar va turkmanlardan tuziladi. Qo'shin asosan sipohiyilar tabaqasidan. U xonning buyrug'i bilan belgilangan yerga to'planadi va asosan otliq askardan iborat bo'ladi".

Beshinchi bobda esa urf-odat, an'ana, diniy e'tiqodlar va etnik ma'lumotlarni berib, o'zbeklarni quyidagicha ta'riflaydi: "O'zbeklar umuman aqli va yoqimli, hazil-mutoyibani yaxshi ko'radigan, biron ishga jazm qilgudek bo'lsa, qarorida qat'iy, to'g'riso'z, yolg'lonni va egrilikni yomon ko'radigan, ruhi tetik, xushbichim va jismoniy kuchli xalq".

**Ye.K. Meyendorfning Buxoro va Xiva xonliklari doir tafsilotlari (1820).** Yegor Kazimirovich Meyendorf (1794–1863) harbiy sohadan tashqari ilmiy faoliyat bilan shug'ullangan, ayniqsa matematikaga katta qiziqish bilan qaran. O'rta Osiyoga uyushtirilgan elchilikda Ye.K.Meyendorfga alohida vazifa yuklatilgan, xususan, u Troitskdan Buxoroga cha bo'lgan yo'lning tavsifini yozishi, astronomik kuzatishlar

o'tkazishi, bosib o'tilgan yo'nalishlarini sharhlashi, "umumiyl batafsil karta" tuzishi hamda Buxoroga borish va ortga qaytish chog'ida kundalik yozib borishi lozim bo'lgan.

Peterburgga qaytgach, Ye.K. Meyendorf "Rossiya elchiligi-nning Orenburgdan Buxoroga 1820-yilgi sayohati" ("Путешествия Российского посольства из Оренбурга в Бухару в 1820 году") nomli monografik tavsifini tayyorlagan va 1826-yili ushbu asarni Parijda fransuz tilida chop ettingan. Mazkur asar keng ja-moatchilik e'tiboriga tushgan va o'sha yili Yena shahri (Germaniya sharqi)da nemis tilida chop qilingan. Kitobining rus tiliga to'liq tarjimasi taniqli bibliografiyalim Ye.K. Betger tomonidan amalga oshirilgan. Bunga qadar asarning faqat ayrim lavhalar tarjima qilinib, nashr qilingan.

Kitobning birinchi qismi kundalik shaklida yozilgan. Ikkinchi qismida esa ma'lumotlar tizimlashtirilgan. Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklarining hududi, tabiatni, aholisi to'g'risida ma'lumotlar berilib, Buxoro, Yangi Urganch, Xiva, Qo'qon, Toshkent, Samarcand, Termiz, Boysun, Sherobod va boshqa shaharlar haqida qiziqarli sharhlar keltirilgan. Shuningdek, asarda O'rta Osiyodagi yirik gidrografik obyektlar – Orol dengizi, Amudaryo va Sirdaryo, Zarafshon, Murg'ob daryolari bilan bog'liq ma'lumotlar berilgan. Xonliklarning geografik joylashuvi, iqlimi, aholisi soni, etnik tarkibi va mashg'ulotlari, shaharlarining tuzilishi, devor va darvozalari, savdo inshootlari, me'moriy obidalari, qishloq joylari va ulardagagi aholining kasb-kori, turmushi to'g'risida guvohlik beruvchi, shuningdek, amir va uning Shayboniyxon davridan boshlangan ajodalari to'g'risida tarixiy ma'lumotlar keltirilgan.

Masalan, Xiva haqida shunday ma'lumotlar qayd etiladi: "Xiva aholisi – o'zbeklar, mamlakatni zabt etganlar va ega-lari, ko'chmanchi va yarimko'chmanchi turkmanlar, qoraqalpoqlar, orolliklar, biroz yahudiy va nihoyat tojiklar, yoki sart-larni tashkil etib, ...Xiva iqlimi, Buxariyanikiga qaraganda,

birmuncha salqinroq. Tabiiy sharoitlari o'xshash, har ikkala mamlakatda ham bir xil mahsulot ishlab chiqariladi, biroq, Xivada ishlab chiqarish kam miqdorda. Ayniqsa, Xivada shoyi kam to'qiladi, shu bois undan na xom ashyo, na matolar olib chiqiladi. Odatda, Buxoroga qaraganda u yerda non qim-matraq”.

Ye.K. Meyendolf Buxoro hududini “Buxariya” deb atagan va amirlikdagi shaharlar, joylarning relyefi, devorlar, ko'chalar, xonardonlar, arklar, saroylar, madrasalar, masjidlar, bozorlar, qim-matbaho toshlar, bozorlardagi qullar haqida ma'lumot keltirgan. O'lka savdosida rus, hind, ingлиз, qozoq, eroniy mahsulotlarini sanab o'tadi. Buxoro shahrining o'zbek, tojik va yahudiy aholisiga bat afsil tavsif bergan: “Mamlakat cho'llar bilan o'ralgan va o'zida ham ko'plab cho'llar bor, shu sababdan Buxariya aniq chegarasiga ega emas... Faqat ikkita daryosi bor bo'lib, ular juda uzun va qishloq xo'jaligi uchun nihoyatda ahamiyatlidir, bu – Zarafshon va Qashqa...”

...Buxoro vohalari daraxtlar hamda ko'pgina bog'lar bilan qoplangani bois uni uzoqdan ko'rish mushkul. Vobkent tomonidan keladigan bo'lsa, u faqat taxminan 3 verst qolgandagina ko'zga tashlanadi. Bu manzara yevropalikni hayratga soladi. Shahar ichki qismida qad ko'targan gumbazlar, masjid, baland peshtoqlar, madrasalar, minoralar, saroylar, ular atrofidagi dandanali devor, devor yaqinidagi hovuz hamda tekis tomli ular va ularning chiroyli tomorqa, bog'chalari, va nihoyat, dala, bog', daraxtlar, hamda butun poytaxt bo'y lab va uning atrofida hukm surgan harakat, – bularning bari juda yoqimli taassurot uyg'otadi...

...Buxoroning ilm shahri sifatidagi qadimiy nufuzi uni juda uzoq vaqtlardan buyon ma'rifat o'chog'i bo'lganini is-botlaydi. Bunga, u shubhasiz, savdo hamda boyliklari tufayli erishgan, zero bular sivilizatsiya taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatadi”.



Ye.K. Meyendorfning "Rossiya elchiligining Orenburgdan Buxoroga 1820-yilgi sayohati" asari va unda O'rta Osiyo xonliklari hamda shaharlariga berilgan tafsilotlar o'lka xalqlari tarixi, hududning tabiatni, iqtisodiy holatini yoritishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

**Diplomatik missiya, elchilik va ekspeditsiyalarining ma'lumot va qaydlari. E.A. Eversman.** O'rta Osivoni mu-kammal ilmiy tadqiq qilish XIX asrning 20–30-yillaridagina boshlanib, bu yangi bosqichni Rossianing Buxoroga A. Negri boshliq uyushtirgan elchilar tarkibidagi mutaxassis tabiatshunoslar X. Pander va E.A. Eversmanlar boshlab berdilar.

Eduard Aleksandrovich Eversman (1794–1860) bir qator universitetlarda tahsil olgan (Magdeburg, Berlin, Drezden). 1816-yilda Derpt universitetida esa tibbiyot doktori darajasini olgan. 1818-yilda rus ma'muriyati xizmatiga o'tgan. 1820-yilda Orenburgga kelib, bu yerda shifokor bo'lib, yetti yil yashagan. 1828–1860-yillarda Qozon universitetida zoologiya va botanika professori bo'lib ishlagan. 1820-yilgi Negri boshchiligidagi "missiya" va 1825-yilgi Berg ekspeditsiyasida ishtirot etgan.

Qozon universitetida ishslash davomida Qirg'iz (qozoq) cho'llariga yirik safarlarni amalga oshirgan. Uning "Orenburgdan Buxoroga sayohat" ("Путешествие из Оренбурга в Бухару") nomli asari 1823-yil Berlinda nemis tilida chop qilingan. Kitobning ikkinchi qismida Buxoroning tavsifi berilgan. Asarning rus tiliga yangi tarjimasi Ye.K. Betger tomonidan amalga oshirgan bo'lib, u tibbiyot sohasida taniqli olim, akademik V.N. Ternovskiy tahriri asosida nashr etilgan. Sababi, unda muallif Buxorodagi an'anaviy tibbiyot haqida boy ma'lumotlar bergen. E.A. Eversman ma'lumotlari B.V. Lunin tomonidan 1988-yilda e'lon qilingan kitobga ham kiritilgan.

E.A. Eversman tibbiy sohada Buxoro maktabining ilg'or okanligini alohida ta'kidlab, shunday yozadi: "Buxoroda shifoforlar haddan tashqari ko'p, dori-darmonlar esa undan ham

ko'p. Har bir o'qimishli kishi tibbiy kitoblarni o'qiganidan qaysidir ma'noda shifokor sanaladi. Bu yerdagi shifokorlar amalda qo'llaydigan tizim va unga ko'ra davolash Braun tizimiga o'xshab, hamma kasalliklarni davolash yoki davolashga xohishlarida bo'lib, dori-darmon va taomlar singari kasalliklarni ham issiq va sovuqqa ajratishadi".

Hududdagi kasalliklar haqida so'z borganda muallif birinchi bo'lib, teri osti qurti (reshta) kasalligi haqida alohida to'xtalib o'tgan.

E.A. Eversmanning yana eng yirik 3 jildli "Orenburg o'lkasining tabiiy tarixi" ("Естественная история Оренбургского края") nomli asari ham nashr etilgan (1840). Ilmiy va faktologik jihatdangina emas, balki metodik jihatdan ham katta e'tiborga loyiq bu kitobda Orenburg va Qozog'iston dashtlari tabiatni kompleks tarzda tasvirlangan. Bunda sayyoh Janubiy Uralni va O'rta Osiyo cho'llarini ilk bor tabiiy sharoiti xususiyatlariga ko'ra landshaft polosalariga ajratib, ularning har birining o'ziga xos ekologik va geobotanik xususiyatini izohlab bergen. U ajratgan Janubiy Ural tog' o'rmonlari, tekislik o'rmonlari, unum-dor qora tuproqli dashtlar, Ustyurt quruq dashtlari (cho'llari), Kaspiybo'yи va Orolbo'yи cho'llari haqiqatan ham zonal-regional tafovutlar tufayli bir-biridan ajralib turadi. Olimning sinchkov kuzatuvchilari hatto chala cho'llar bilan cho'llar landshaftlarini ilk bor bir-biridan farqlashga imkon berdi.

**Budrinning Buxoro safari bo'yicha qaydlari (1820).** 1820-yili Rossiyadan Buxoroga A.F. Negri boshchiligidagi diplomatik missiya yuboriladi. Missiya tarkibiga taniqli tabiatshunos olimlar X.G. Pander va E.A. Eversman, kotib va tarjimon P. Yakovlev, topograflar, harbiylar kirgan.

Missiya oldiga Rossiya bilan Buxoro o'rtasida savdo aloqalarini kengaytirish, Buxoro va Xivadagi rus asirlarini sotib olish maqsadida ma'lumotlar toplash, Buxoroning ichki va tashqi siyosiy ahvolini o'rganish kabi vazifalar qo'yilgan.

Missiya qatnashchilarining (Meyendorf, Pander, Eversman, Yakovlev) turli davrlarda e'lon qilingan nashrlari Buxoro amirligini (geologiyasi, botanikasi, etnografiyasi, ma'muriy tuzilishi, tabiiy zaxiralari, iqtisodiyoti, tarixi va boshqa) o'rganish yuzasidan qimmatli ma'lumotlarni jamlagan.

Negri missiyasining oddiy qatnashchilari orasida ruhoniy Budrin ham bo'lgan. U haqda biografik ma'lumotlar mavjud emas, bu borada Budrin qaydlarining noshirlari ham adashgan ko'rindi. Chunki, ular Budrinni 1820-yili Buxoroda faoliyat yuritgan graf F.F. Berg boshchiligidagi elchixonha xodimi deb aytishgan. Aslida u elchixonaga emas, balki, tarkibida Budrin bo'lмаган va 1825-yili Ustyurtga uyushtirilgan ekspeditsiyaga boshchilik qilgan.

Budrinning Buxoro haqidagi jonli qaydlari muallifning qiziquvchan va kuzatuvchan bo'lganligidan darak beradi. Kundalik ruhidagi Budrinning Buxoroga sayohati bo'yicha qaydlarida etnografik jihat ustuvorlik qiladi.

Budrin Buxoro haqida shunday yozadi: "...Buxoro – Buxoroning bosh shahri, tekislikda, daryodan tortilgan bir qancha ariqlar (suv) bilan to'la yotadi. Tashqaridan Buxoro balandligi 5 sajen, qalinligi 3/2 sajen, yuqorida – arshinga teng paxsa devor bilan o'ralgan. Shaharga kirish uchun gumbazli qilib birlashtirilgan va chiroqli ustunli o'n ikki tosh darvoza mavjud. Uylar, toshrastalar, masjidlar va karvonsaroylar Buxoro inshootlarini tashkil etadi".

Dehqonchilik haqida so'z yuritib, Buxoroda yaxshi hosil va foyda olinishi, u yerda bug'doy, arpa, guruch, oqlangan lalmi tarig'i, yasmiq va no'xat ekilishi, yerning omoch bilan haydalib, yo'ng bilan o'g'itlanishini yozadi.

Shaharning masjid, karvonsaroy va savdosi, dehqonchilik haqidagi ma'lumotlari ancha qiziqarlidir: "Shaharda 360 masjid bor. Ularning ayrimlari juda mahobatli va yaxshi tashqi ko'rinishga ega. Ularning bari pishgan g'ishtdan qurilgan, ular-

ning ko'pchiligi tashqi tomonidan turli ranglar bilan bo'yalgan, turli o'lchamdag'i derazalar bo'lib, ayrimlariga loydan qilingan panjaralar o'rnatilgan.

...Buxoroga keladigan savdogarlardan hindlar, xivaliklar, no'g'aylar, eronliklar, armanlar, qirg'izlar va boshqalar uchun 13 ta tosh karvonsaroylar joylashgan... Bundan tashqari, Buxoroda ko'pgina ipak va qog'oz fabrikalari, tosh rastalar borki, ular ko'rinishi bo'yicha salobatli va e'tiborga loyiqdир... Buxoroda non va boshqa narsalarni sotishda oddiy tarozilardan foydalanishadi. U yerdagi pud 50 Rossiya funtidan iborat bo'lib, 10 choriqqa bo'linadi".

**G.I. Spasskiyning "Osiyo xabarnomasi" dagi (1825–1826) ma'lumotlar.** 1810-yili Fanlar akademiyasiga muxbir a'zo sifatida saylangan olim, tarixchi Grigoriy Ivanovich Spasskiy tomonidan 1825–1827-yillarda Peterburgda nashr etilgan "Osiyo xabarnomasi" ("Азатский вестник") ilmiy-ommabop jurnalida Buxoro haqida ma'lumotlar mavjud.

G.I. Spasskiy 1783-yilda Ryazanda tug'ilgan. 1799-yildan davlat xizmatida ish boshlagan. Maxsus oliv ma'lumotga ega emas, Fanlar akademiyasining ochiq ma'ruzalarini tinglab, o'z ustida ishlagan.

1805-yili Xitoyda graf Yu.A. Golovkinning elchixonasida ilmiy ishlar bo'yicha qatnashib turgan. 1835-yili Qrimdagi tuzkon qazuv ishlariga mudir etib tayinlanib, ilmiy tadqiqotlar olib borgan. G.I. Spasskiy 1838-yildan iste'foga chiqib, 1864-yilda Moskvada vafot etgan.

G.I. Spasskiyning Sibir bo'yicha to'plagan materiallaridan taniqli tarixchi N.M. Karamzin "Rossiya davlatchilik tarixi" kitobida foydalangan.

"Osiyo xabarnomasi"da O'rta Osiyo mintaqasidagi "Ulug' Buxoroning eng yangi bayoni" ancha mukammal berilgan. Jumladan, "Geografik va tarixiy kirish"da: "Katta Buxoro o'z tarkibiga arablar Mavalnagr (Movarounnahr), yunonlar va rimliklar

Transoksiyana, ya'ni o'sha vaqtida Oksus va Jiguna, hozir Amu bilan ataluvchi daryoda yotuvchi – deb nomlangan mamlakatni qamrab oladi. Yunonlar va rimliklar fikricha, So'g'diyona va Baqtriya ham qisman Buxoro tarkibiga kirgan. Bu mamlakatlar mo'g'llar bosqinidan (taxminan Iso tug'ilishidan 1220-yillar atrofida) keyin Chingizzxonning ikkinchi o'g'li Chig'atoyga tegishli bo'ldi, uning sharafiga Chig'atoy yerlari deb atala boshlandi”, deb yozilgan.

Bu yerda yashovchilar, savdo haqida “...Buxoroda yashovchilarni asosan o'zbeklar, turkmanlar va... tojiklar... tashkil etadi.

...Buxoroliklarning o'zлari tan olib aytishlaricha, Rossiya bilan savdo ular uchun foydali va boshqa mamlakatlar uchun nisbatan ahamiyatli narsalarni ishlab chiqarishadi”, deb ma'lumot berilgan.

“Osiyo xabarnomasi”da O'rta Osiyo mintaqasidagi boshqa shahar Xiva haqidagi ma'lumotlar ham ancha qiziqarli: “Mazkur mamlakat makon va aholisi jihatidan Buxoroga nisbatan katta ahamiyatga ega emas. Xiva shahri hukmdor xon, kelib chiqishi o'zbek Muhammad Rahimning poytaxtidir. Unda aholi soni 15 000 kishiga yetadi. U balandlikda qurilgan bo'lib, yer devor bilan o'ralgan va ikki tarafidan ikki kichik ko'lga ega”.

Qo'qonga esa quyidagicha ta'rif berilgan: “Qo'qond yerlari avvallari u qadar keng bo'limgan va shimaldan Tosh Qirg'iz va Burut deb nomlanadigan joylar, janubdan Eron bilan chegaralangan, lekin keyinchalik Toshkent va Turkiston qo'shilishi bilan hududi kengaydi. Qo'qond shahri Sirdaryo bo'yidagi keng tekislikda joylashgan”.

**Nikolay Potanining Qo'qon xonligiga oid qaydlari.** Kazak harbiysi N.Potanin 1829–1830-yillarda Qo'qon xonligiga safar qilgan. Unga hukumat tomonidan Peterburg shahridan qaytib kelayotgan qo'qonlik vakillarga hamrohlik qilish, ayni vaqtida safari davomida ko'rgan joylarini tasvirlash va

o'zi tashrif buyurgan hududlar to'g'risida batafsil ma'lumotlar to'plash vazifasi ham yuklatilgan.

N. Potanin safari Semipalatinskdan boshlanib, Chimkent, Toshkent, Xo'jand, Qo'qon shaharlariga tashrif buyurgan. O'z safari davomida to'plagan axborotni u "Qo'qon xonligi to'g'risida qaydlar" ("Записки о Кокандском ханстве") nomi bilan yozib qoldirgan. U ilk bor Rossiya "Harbiy jurnal" ("Военный журнал")ida nashr etilgan (1831). Asarning qimmatli tomonlari shundaki, birinchidan, undagi O'rta Osiyo hududlari, xususan, Qo'qon xonligi bilan bog'liq etnografik va geografik ma'lumotlarning boshqa zamondosh sayyohlarga ko'ra ko'proq va batafsil berilishida bo'lsa, ikkinchidan, N. Potanin yurgan yo'nalishning boshqalaridan farq qilganligidadir.

N. Potaninning yozishicha, u qo'qonlik vakillar bilan 1829-yili 13-may kuni yo'lga chiqib, uning Qo'qonga safari bir yilga yaqin vaqt davom etgan.

Qaydlarining Toshkent haqidagi qismida quyidagilarni qayd etadi: "Toshkent iqlimi ajoyib, qish deyarli bo'lmaydi; biroq yozda chidab bo'lmaydigan jazirama tanangni bo'shashtiradi. Aholi bug'doy yetishtirish hamda bog'dorchilik bilan shug'ullanadi..."

Shoyi va chit matolar ishlab chiqarish, pilla boqish bilan band bo'lib, ularning asosiy masjidlari va madrasalarida bolalarni nafaqat o'qishga, balki tatarcha (mahalliy o'zbek tili na-zarda tutilgan), forscha, qo'qoncha, turkcha tillarda boshlang'ich saboq berilgan... Toshkentliklar o'rta bo'yli, kelishgan, mu-loyim, tantanalarni xush ko'rvuchi va ayollarini juda e'zozlovchi xalqdir..."

N. Potanin Qo'qon xonligining chegaralari va iqlimi, aholisining mashg'ulotlari, qo'shini, sud tizimi, xon boshqaruvi, tangalari va og'irlik o'lchovlari, xonning tantanali qabul marosimi, xonlikdagi shaharlar haqida boy ma'lumot qoldirgan. Jumladan: "Rossiya, Xitoy, Koshg'ariya, Buxoro, Xiva va Qirg'izlar

bilan savdo xalq boyligining muhim manbasi sanaladi... Harbiy xizmatga odam yig'ilmaydi, ixtiyoriy tarzda kiradilar. Tinch davrda qo'shin shaharlar va qishloqlardagi o'z uylarida yashab, xuddi oddiy fuqarolardek turli ishlar va hunarmandchilik bilan band bo'lishadi; kerak bo'lgan taqdirda to'planishadi... Yozilgan qonunlari yo'q, ishlar Qur'on hamda qadimiy urf-odatlarga ko'ra hal qilinadi...

...Qo'qon mulkiga kiruvchi shaharlarning ba'zilarida mehmonxona hovlilar bor, bu shaharlarda katta savdo olib boriladi... Qo'qon shahri tekis yerda, Qoratol daryosining ikki qirg'og'ida joylashgan va hech qanday istehkomi yo'q... Shahar aylanasisiga 25 verstga teng; uylari soni 3 000 ga yaqin, ularning ko'pi yaxshi qurilgan, loydan bo'lsa ham, biroq did bilan qurilgan. Xonning ikki qavatli saroyi shahar o'rtaida qad ko'targan, unga tegishli ko'plab binolar, baland paxsa devor bilan o'ralgan, bir qismi g'ishtdan, bir qismi paxsa devordan bunyod etilgan bo'lib, tashqarisidan alebastr bilan suvoqlangan. Shaharda 100 ga yaqin masjid bor, peshtoqlari anchayin chiroyli. Ularning ko'pchiligi paxsadan emas, g'ishtdan bunyod etilgan. Aholi soni, ayollarini qo'shmaganda, 15 000 ga yetadi, shu jumлага yana 4 000 tacha askari kiradi...

...Qo'qonning tosh hovli (saroy)lari bor 6 ta bozor mavjud, ularning ikkitasida mahalliy aholi, qolgan to'rttasini turli mammakatlardan kelib egallagan karvonlar savdo qiladi... Savdo haftada uch kun: yakshanba, chorshanba va juma bo'ladi. Bu mahal atrofdagi shaharlar va qishloqlardan ko'plab turli mahsulotlar olib keltiriladi".

**Kapitan Aleksandr Byornsning Buxoroga sayohati (1832).** Yevropalik sayyoohlар ichida Buxoroga ilk tashrif buyurganlardan biri ingliz kapitani Aleksandr Byorns (1805–1841) sanaladi. Forsiy va hind tillarini bilganidan, 16 yoshidan Britaniyaning Ost-Indiya kompaniyasiga tarjimon sifatida ishga qabul qilingan.

1826-yilda Britaniya siyosiy agentining yordamchisi sifatida Kach (Hindistonning sharqiy sohilidagi shahar)ga o'tkazilgan. Aynan shu davrdan shimoli-sharqiy Hindiston va unga tutash mamlakatlarning tarixi, geografiyasi bilan qiziqsa boshlagan.

1831-yilda A. Byorns Kobulga kelib, Afg'oniston haqida boy material to'playdi. 1832-yilning iyulida Qunduz, Balx va Qarshi orqali Buxoroga keladi. Ikki haftadan so'ng yana karvonlarga qo'shilib, o'z sayohatini Mashhad tomonga qarab yo'naltiradi. 1832-yil oktabr oyida Tehronda bo'lib, so'ngra Sheruz va Busher orqali Hindistonga qaytgan. Uning safari Afg'oniston, O'rta Osiyo va Eron haqida to'liq ma'lumot toplash maqsadida, Angliyaning Hindistondagi general-gubernatori tomonidan uyushtirilgan.

A. Byorns 1834-yilda Londonda bo'lgan chog'ida Afg'oniston, Buxoro va Eron safari haqidagi uch jiddli kitobini chop ettirgan. Kitob "Buxoroga sayohat: Buyuk Britaniya qirolining sovg'alarini bilan Hind daryosi bo'ylab, dengizdan Lahorga sayohat hikoyasi va yana 1831, 1832 va 1833-yillarda Hindistonning oliv hukumatni buyrug'iga asosan Hindistondan Kobul, Tatariya va Eronga amalga oshirilgan safar tafsiloti" ("Travels into Bokhara; being the account of a journey from India to Cabool, Tartary and Persia; also, Narrative of a voyage on the Indus, from the sea to Lahore, with presents from the king of Great Britain; performed under the orders of the supreme government of India, in the years 1831, 1832, and 1833") deb nomlanib, u o'z davrining eng ommabop nashrlaridan biri hisoblangan. Dastlab ingliz, keyin fransuz va nemis tillarida ham chop etilgan. 1848–1849-yillarda savdogar Platon Golubkov tomonidan rus tiliga tarjima qilinib, Moskvada nashr ettirilgan.

A. Byornsnинг yuqoridaли асаридан Бuxoroga oid quyidagi qaydlar ancha qiziqlarlidir: "...Darhaqiqat, mamlakatning geografik joylashuvi ushbu shaharning qadimdan mavjudligiga imkon beradi: bu dashtlar o'rtaida vujudga kelgan serhosil

tuproqli yer katta bo'lмаган дарё суви билан суг'орилади, денгизчига қо'нимгoh singari sayyoхга ham xuddi shunday xizmat qilgan. Buxoro bog'lar va daraxtзорлар билан о'ralganidan, uni uzoqдан ko'rishning iloji yo'q.

Bu yer juda go'зal va u ajoyib iqlimga ega.

...Buxoro aylanasisiga sakkiz ingliz milyasidan ortiqroq o'lchamga ega. U uchburchak shakliga ega va yigirma futga teng balandlikka ega hamda yigirmata darvozasi bor paxsa devor bilan o'ralgan. Sharq odatiga ko'ra, ushbu darvozalar olib boradigan yo'nalishiga ko'ra, ya'ni uchta shahar va yana boshqa joylarning nomlari bilan atalgan. Katta imoratlar bois, devor ortidan uncha ko'p binolar ko'rinxmaydi; biroq, shaharga kirgan sayyoх, g'ishtdan qurilgan baland imoratlar, gumbazli bozorlar oldidan o'tib, shaharning har bir qismida ma'lum bir savdo turini – bir yerda belbog' sotuvchilari, boshqasida poyabzal, boshqa bir tim ostida gazlama sotuvchilari, boshqasining ostida shoyi matolarining o'ramlarini ko'radi. Hamma joyda o'quv yurti – madrasalar, masjid va baland minoralarning ulkan binolari; yigirmata karvonsaroy turli millatga mansub bo'lgan savdogarlarning joylashishi uchun xizmat qiladi; silliqlangan toshdan bunyod etilgan yuzga yaqin favvora va hovuzlar, ko'p sonli aholini suv bilan ta'minlaydilar. Butun shahar hududini kanallar kesib o'tadi, ular Samarqand daryosidan suv oldi; atroflariga tut daraxtlari ekilgan. Bu yerning xalqida ajoyib bir gap bor: buxoroliklarning fikriga ko'ra, ularning shahridagi eng baland minora 150 futga teng bo'lib, u Temurning mashhur poytaxti Samarqand shahri joylashgan tepalikka tengdir.

...Buxoroning 150000 aholisi bor; shahar ichida biror-bir mozor yoki bog' yo'q. Jamoat binolaridan tashqari, uylar kichik bo'lib, bir qavatlari; shunga qaramasdan ularning ko'pchiligi juda chiroysi: ba'zilari suvalgan va yaxshilab naqshlab chiqilgan, yana boshqalarida tilla suvi bilan ishlangan yoki lojuvard toshi bilan bezatilgan, gotik uslubdagi arklar mavjud. Ichki ko'rinishi

muhtasham qulay. Oddiy uylar oftobda quritilgan g'ishtlardan qurilgan, yog'och bilan bir-biriga sinch qilib biriktirilgan bo'lib, sharqona uslubga ko'ra baland devorlar bilan o'rالgan".

A. Byorns amirlikni yaxshi o'rganib, Buxoro bilan aloqalar o'rnatgani uchun "Buxoro Byornsi" degan nom ham olgan.

**P.I. Demezonning Buxoroga sayohati qaydlari (1833–1834).** Taniqli sharqshunos, O'rta Osiyo tadqiqotchisi Pyotr Ivanovich Demezonning (1807–1873) otasi asli meditsina doktori bo'lib, rus fuqaroligini qabul qilgan. Pyotr Qozon universitetiga o'qib, keyin Sankt-Peterburgda sharqshunos olim G.M. Vlangali rahbarligida sharq tillarini o'rganadi.

1829–1831-yillarda avval Qozon universitetida ishlab, keyin esa Orenburgga yo'llangan. Bu yerda u harbiy bilim yurtida sharq tillarini o'qitish bo'yicha katta o'qituvchi hamda Orenburg chegara komissiyasida tarjimon bo'lib ishlaydi.

1833–1834-yillarda, Orenburg harbiy gubernatori V.A. Perovskiy topshirig'iga ko'ra, Ja'far ismi bilan, tatar mulla kiyimida Buxoroga tashrif buyuradi. Sayohat davomida P. Demezon tadqiqot ishlarini amalga oshiradi, Markaziy Osiyo g'arbiy qismining geografiya va etnografiyasi bo'yicha qimmatli materialarni to'plashga muvaffaq bo'ladi.

1836–1856-yillarda P. Demezon Peterburgda yashab, Tashqi ishlar vazirligi huzuridagi Osiyo departamenti sharq tillari bo'limining turk tillari kafedrasida faoliyat olib boradi. 1843-yildan P. Demezon butun o'quv bo'limini boshqaradi. 1846-yilda u imperatorning Moskva Arxeologiya jamiyatini tashkil etishda ishtirok etadi va uning a'zosi bo'ladi. 1857-yildan to umrining oxirigacha P. Demezon Parijda yashagan. Bu davrda u Xiva xoni Abulg'ozixonning turkiy tildagi "Shajarayi turk" asarini fransuz tiliga tarjima qilib, Peterburgda nashr ettiradi (1871–1874).

P. Demezonning sayohat qaydlari 1983-yilda N.A. Xalfin muharrirligi ostida rus tilida, Moskvada chop etilgan.

Buxoro haqida shunday yozadi: "Buxariya (Buxoro) yettita viloyatga bo'linadi: 1) Qorakul; 2) Yettita okrugi (tumanlari) bilan birgalikdagi Buxoro; 3) Karmana; 4) Miyonkol yoki Kattaqo'rg'on; 5) Samarkand; 6) Jizzax; 7) Qarshi; 8) Sabia (Sabiab) – Oksus daryosi qirg'oqlarida; 9) Janubiy okruglari bilan birga Balx.

Buxoro shahri dengiz sathidan 1200 fut balandlikda joylashgan. U 30 fut balandlikdagi va 26 fut qalinlikdagi devor bilan o'rالgan. Devorining 11 darvozasi mavjud.

...Buxoroning bosh maydoni – Registon bo'lib, to'g'ri saroy darvozasining ro'parasida joylashgan. Ushbu maydon ancha katta bo'lsa-da, odamlar, tuyalar, otlar, eshaklar, kichik chodirlar, mahsulotlar va turli ishlab chiqarish turlari bilan shunchaki to'lib toshganki, harakat uchun atigi ikkita tor yo'lak qolgan; ulardan biri saroydan uning ro'parasidagi hovuzga qadar bo'lsa, ikkinchisi Dor-ush-shifo madrasasidan To'ko'mdo'z bozoriga qadar davom etgan".

P. Demezonning sayohat qaydlarida amirlikda ipak qurti, paxta, qorako'l terilari ishlab chiqarish haqida boy ma'lumotlar berilgan: "Ipak qurtini Buxoro va uning atrofidagi Karmana, Miyonkol hamda umuman, suvi yetarlicha bo'lgan va tut daraxti yaxshi o'sadigan boshqa yerkarda yetishtirishadi. Buxoroda bu daraxtning ba'zilari nihoyatda qalin bo'lib, ularni Buxorodagi anhor va barcha suv havzalari bo'yalarida uchratish mumkin. Ipak qurtlari bargi bilan oziqlanadigan tut daraxtining balandligi kamdan kam hollarda 10–14 futdan oshadi.

...Paxta odatda 15 dan 25-aprelgacha ekiladi, 15-avgustdan 10-sentabr oralig'ida esa yig'ishtirib olinadi. Hech bo'limganda haftada bir marta chopiq qilish (osimlik atrofida o'sgan va Buxoroda balandligi 3–4 futga yetadigan begona o'tlarni o'toq qilish) lozimligi tufayli paxtakorning ishi ko'p e'tiborni talab qiladi.

...Qora qorako'l terilari eksporti so'nggi vaqtarda Xuroson va Koshg'arda sodir bo'lgan tartibsizliklar tufayli anchagini

ziyon ko'rsa-da, bugungi kunda ham Buxoro uchun savdoning eng daromadli sohasi hisoblanadi. Karvonlar xavf to'la bo'lgani uchun yo'lga chiqishga botinmadilar: ba'zi karvonlar butunlay talon-taroj qilingani sababli Buxoroda terining bahosi tushib ketdi”.

**P.S. Savelievning Buxoro bo'yicha ma'lumotlari (1835).** P.S. Savelev (1814–1859) – taniqli rus arxeolog, sharqshunos va tangashunosi bo'lib, oliy ta'limni Sankt-Peterburg universitetiga oлган. Sharq mamlakatlarini tadqiq etishni qaror qilganidan Tashqi ishlar vazirligi huzuridagi Sharq tillari institutida ham tahsil olib, uni 1827-yilda tamomlagan.

1836-yilda Sankt-Peterburgda “1835-yilda Buxoro. Bu shaharga 1835-yil va ungacha tashrif buyurgan yevropalik barcha sayyoohlarning ma'lumotlari qo'shilgani bilan” (“Бухара в 1835 году. С присоединением известий обо всех европейских путешественниках, посещавших этот город до 1835 года включительно”) nomli kitobini chop ettirgan.

P.S. Saveliev Buxoro haqidagi ma'lumotlarni jamlashda mashhur sayyoohlarning yozganlarini umumlashtirgan. Xussan, Meyendorfning 1820-yilgi Buxoroga tashrifi paytida to'plagan ma'lumotlar asosida shaharga ta'rif beradi: “Buxoro uchburchak shaklida qurilgan. Baron Meyendorf uning atrofini taxminan o'n to'rt verstga teng deb hisoblaydi. Uning o'rtaidan Shohrud kanali kesib o'tib, shahardan o'n verst naridan oqib o'tuvchi Zarafshon daryosidan suv oladi”.

P.S. Sevlev XIX asrning 30-yillarda Buxoroga sayohat qilgan P.I. Demezonning qaydlaridan ham foydalangan: “Janob Demezonning 1834 va 1835-yillardagi tashrifi chog'ida eng gavjum joylardan biri devonbegi maydoni bilan “bozori cho'p” (yog'och bozori)i edi”.

P.S. Saveliev yana yozadi: “Bozor, hammom va karvonsaroylar ikkinchi o'rinda turgan. Hammomlar ko'pincha juda keng va hashamatli bo'lib, ularning soni o'n sakkiztagacha bo'lgan. Kar-

vonsaroylar Janob Meyendorfning davrida o'n to'rtta bo'lgan, janob Demezonning xabariga ko'ra, hozirda ularning soni oshib, yigirma beshtagacha yetgan".

Yana Buxoro aholisi haqida xabar berib, "Baron Meyendorf 70 000 ta, poruchik Byorns 160 000 ta, doktor Eversman 200 000 ta kishidan iborat hisoblashadi. Janob Demezon esa janob Meyendorf qabul qilgan miqdorni taxminan boshqalarni-kidan to'g'ri deb o'ylaydi. ...Byornsning hisobicha, boshqa mu-sulmon shaharlariga qaraganda bu yerda 4000 ga yaqin yahudiyalar ko'proq istiqomat qilishlarini va o'z hayotidan mam-nun ekanligini aytib o'tadi", deb keltirgan.

P.S. Savelyev keltirgan ma'lumotlarda Rossiya-Buxoro savdo aloqalariga atroflicha sharh berilgan: "Rossiya Buxoro bo-zorlarini Osiyoda ishlab chiqariladigan mahsulotlar bilan ta'minlashda eng katta va yagona bozor hisoblanadi hamda bu shahardan bizning chegaralarimizgacha oltita savdo yo'li olib boradi. Ulardan eng yaqini Buxorodan Xiva orqali, undan Orol va Kaspiy dengizlari bo'ylab, Saraychik orqali Astraxanga, bu yerdan Volga daryosi bo'ylab yuqorilab to'g'ri Nijegorod yarmarkasigacha boriladi.

...Buxoroning Rossiya bilan savdosidan keyingi eng ahamiyatli tijorat aloqalari Xitoy Turkistoni bilan bo'lgan. Ushbu savdo yo'li Buxorodan shimoli-sharqqa Qo'qonga, u yerdan Marg'ilon va O'sh orqali janubi-sharqiy yo'nalishda davom etib, Buluttag' tizmasining tog'li darasi orqali Koshg'ar va Turkistonning Ko'ksu degan joylarigacha boradi".

Shu o'rinda Buxoroning elchilik aloqalari ham P.S. Savelyevning diqqatidan chetda qolmagan: "...Buxoro to'g'risidagi xabarni yevropalik sayohatchilardan birinchi bo'lib Jenkinson bergen..."

...Rossiya Buxoro bilan muntazam savdo munosabatlari-qa ramay, ikki yarim asr davomida, 1820-yilga qadar yevropalik birorta sayohatchi bu shaharga tashrif buyurmagan. 1816 va

1820-yillarda Peterburgda bo'lgan Buxoro vakillari xonning Buxoroda ham rus elchiligini ham ko'rish istagi borligini bildirishgan".

**Ya.V. Vitkevichning Buxoroga sayohati (1835–1836) hikoyalari asosidagi qaydlari.** Yan Viktorovich Vitkevich (1808–1839) sharqshunos, sayyoh, asli polshalik. 1823-yilda maxfiy aksil-hukumat tashkilotida qatnashganligi bois, oddiy askar sifatida Orenburgga jo'natiladi. 1824-yil martidan Orsk qal'asida xizmatni o'tay boshlagan.

1829-yilda mashhur nemis olimi va sayyohi Aleksandr Gumboldt bilan tanishib, uning Rossiyaga sayohati paytida biroz vaqt tarjimonlik qilgan. A. Gumboldtning Orenburg harbiy gubernatori va Sankt-Peterburg ma'murlariga tavsiyasi bilan 1830-yilda unter-ofitser unvoni berilgan.

1835-yil 9-noyabrda Orsk qal'asidan savdo karvonlarining biri bilan yo'lga chiqib, 1836-yil 2-yanvarda Buxoroga keldi. U O'rta Osiyodagi siyosiy vaziyat Qo'qon, Xiva xonligi va Buxoro amirligi o'rtasidagi munosabatlar, ularning Rossiya hukmdorlariga oid qarashlari va Britaniyaning Markaziy Osiyodagi maqsadlari bo'yicha ma'lumotlar to'pladi.

Ya.V. Vitkevich Tiflis (Tbilisi) va Eron orqali Afg'onistonga diplomatik missiya bilan borgan (1837-yil oxirida). Kobulda afg'on amiri Do'stmuhammadshoh huzuridagi ingliz diplomatik missiyasining rahbari Aleksandr Byorns bilan tanishgan. 1839-yil 1-mayda Afg'oniston safari bo'yicha barcha ma'lumotlari bilan Sankt-Peterburgga qaytgan.

Ya.V. Vitkevichning Buxoroda to'plagan barcha ma'lumotlarini "10-sonli Orenburg batalon liniya praporshigi Vitkevichning Buxoroga borishi va qaytishiga doir hikoyalari bo'yicha tuzilgan qaydlar" ("Записка, составленная по рассказам Оренбурнского линейного батальона № 10 прaporщика Виткевича, относительно пути его в Бухару и обратно") nomi bilan leksikograf V.I. Dalye undan yozib olgan. Sababi

Ya.V. Vitkevich rus tilini juda yaxshi bilmagan. Hozirda qaydlarning asl nusxasi Rossiya davlat harbiy-tarix arxivida saqlanmoqda.

Ya.V. Vitkevichning Buxoro amirligi bo'yicha sayohati qaydlari rus tilida professor N.A. Xalfin muharrirligi ostida Moskvada chop etilgan (1983).

Sayyoh Buxoro atrofidagi manzilgohlar haqida shunday ma'lumotni keltirgan: "...Vobkentdan yarim verst yurgandan keyin yog'och ko'prik o'tgan shu nomdagi daryo keladi, daryoning kengligi 10–12 sajen, ko'prik uzunroq.

...Vobkentda minora bor, masjidi yo'q; minora g'ishtdan ancha mohirlik bilan qurilgan. Shunday rivoyat bor, qaysidir xon Buxorodagiday minorani qurban ustalarни ular boshqa joyda ham xuddi shunday minorani qurmasliklari uchun o'ldirishga buyruq bergen ekan. Ammo ustaning shogirdi Vobkentga qo'chib, bir kechada minorani bunyod etib, aqldan ozgan emish. Minoraning balandligi 40 gaz ..."

Buxoro shahrining istehkom devorlari haqida ham qimmatli ma'lumotlar berilgan: "...Shahar paxsa devor va qoziq bilan o'rالgan, balandligi qariyb 5 sajen, poydevorining qalinligi 5 arshin; aylanasi bir farsaxdan 10 verstgacha bo'lishi mumkin.

...Devor atrofida xandaq yo'q, uning izlari qolgan. Aytishlaricha, darvozalari 12 ta. Buxoroliklarni darvozalarni nomi bilan aytishga majbur qilsam-da, har gal ba'zi darvozalarning nomi sanalmasdi. Keyin eshitsam, ular vayron bo'lgan, ulardan yurilmas ham ekan".

Ya.V. Vitkevich Buxoroning bozorlari, karvonsaroylari, madrasalaridagi ta'llim va ko'cha-ko'ylarini quyidagicha ta'riflaydi: "...E'tiborni tortadigan inshootlar: bozorlar, hammomlar, karvonsaroylar, masjidlar, madrasalar va Ark yoki saroy. Uch asosiy bozor: gazlamalar, gilamlar va ipak matolar sotiladigan lim: turli xildagi mayda-chuydalar, tayyor liboslar, idish-tovoq, egar jabduqlar sotiladigan chorsu; savdo ham bo'ladigan, lekin

ko'proq sarroflar, hindlar o'tiradigan sarrafon. Uchala bozor ham yagona me'morchilik usulida: aylana, g'ishtin gumbaz, xuddi shunday ustunlar, ularga kichikroq gumbazlar tutashgan. Gumbazlar o'rtasida usti yopilmagan uchburchak bo'shliqlar bor. Gumbazlar ostida sotuvchilar ustunlarga taqalib o'tiradi...

...Karvonsaroy yoki Buxoroda oddiygina saroy deb atashadiganlari, kamida 25 ta. Ajoyiblari: Rajabbek Devonbegi; ayozdan kelib unda to'xtadim. Bu to'rtburchak g'ishtin bino, bir darvozali, o'rtasida hovlisi bor. Uch qatorli amfiteatr uslubida, bir-biridan oshib turgan, pastda otxonalar va bir nechta xonalar mavjud, ikkinchi ustunda omborxona; uchinchisida eni uch qadam va uzunligi besh qadam keladigan yashash uchun xonalar qurilgan. Xonalarda qozon yoki chovgunlar uchun kichkina o'choqlar mavjud. Xona uchun oyiga 2–4 tanga, bir tanga taxminan 20 kopeykli kumushga teng; ombor uchun 7–14 tanga; otxona uchun alohida to'lov joriy etilmagan".

«...Madrasa yoki o'quv yurtlari 70 tacha; ular saroylarning qurilishiga o'xshaydi, farqi shundaki, shifti yoki tomi tekis emas, balki gumbazsimon. Talabalar mullalar bilan hujralarda birgalikda yashab, ulardan bilim oladi. Har bir hujrada mulla yashaydi, u madrasa daromadidan, hadya etilgan hammomlar, yerlar yoki saroylardan keladigan foydadan o'z ulushlarini oladi. Mullaning bir nechta talabasi bo'lib, ular mullaga xizmat qiladi va mulla o'zi lozim topgan narsani talabalarga beradi. Mulla bu joyni tark etayotganda uni boshqa bir safdoshiga sotib ketadi. Eng mashhur madrasa Mir-Arab masjid ro'parasida joylashgan. Unda 80 tacha hujra mavjud va shuncha mulla bor...

...Buxoroda 300 ko'cha va tor ko'chalar bor; aholisining aytishicha 100 mingta emish; lekin, shubhasiz, bu ma'lumot had-dan ziyod bo'rttirilgan..."

**K.F. Butenevning Buxoro missiyasiga oid qaydlari.**  
1842–1842-yillarda Rossiya ma'murlari tomonidan Buxoroga muhandis Konstantin Fyodorovich Butenev (1805–1869) rah-

barligida missiya kelgan. K.F. Butenev 1826-yilda Tog'-kon kadet korpusini tamomlagan, ushbu sohada faoliyat olib borgan hamda keyinroq Freybergdag'i tog'-kon akademiyasida o'qib, Germaniya, Vengriya, Transilvaniyadagi konlar va zavodlarda bo'lgan. 1832-yilda esa Tog'-kon institutiga o'qituvchi etib tayinlanadi. 1841-yilda Buxoroga yuborilgan elchilikka boshchilik qilgan. Buxorodan qaytgach, Peterburg zarbxonasida ishlab (1843), Peterburg texnologiya institutiga direktor etib tayinlanadi (1853). Keyinroq, 1858–1863-yillarda Peterburg zarbxonasini boshqargan.

K.F. Butenev missiyasiga amirlikda rus konsulligini ochish orqali Rossiya–Buxoro munosabatlariga doir bo'lg'usi hujjatlar ni mustahkam rasmiylashtirish vazifasi yuklatilgan. Bu taklif amir Nasrulla tomonidan ma'qullanmagan. Missiya jo'natilgan davrda Buxoroda joususlikda ayblanib, ingлиз zabitlari Stoddart va Konolli hibsga olingan edi. Angliya hukumatining iltimosiga ko'ra, Rossiya imperiyasi podsho hukumati K.F. Butenevga ularni ozod qilish bo'yicha amirga arznama qilish haqida maxsus topshiriq ham bergen. Bu arznama ham rad etilib, K.F. Butenev inissiyasidan so'ng, ingлиз zabitlari o'limga hukm qilingan.

K.F. Butenev Tashqi ishlar vazirligiga taqdim etgan qaydlarida Rossiya–Buxoro iqtisodiy, siyosiy munosabatlarining kelgusidagi rivoji uchun qimmatli tavsiyalarni bergen.

K.F. Butenev o'zining Buxoroga tashrifi natijalari va bu verdagi mineral boyliklar, tog'-kon ishlari hamda pul zarbxonalari haqida "Tog'-kon jurnalii" ("Горный журнал")ning 1842-yil sonlarida maqolalar chop ettirgan. K.F. Butenev missiyasi va uning qaydlari XX asrning 20–90-yillarida taniqli tariixchi olimlar V.V. Bartold, M. Solovyov, O.V. Maslova, N.A. Xalitin, B.V. Lunin tomonidan tadqiq etilgan.

K.F. Butenev mineral boyliklar haqida yozib, Buxoro amirligi hududida oltin, temir, firuza, ko'mir, tuz, grafit, ohaktosh ko'plab uchrashi va ular qayerlarda mavjudligini bat afsil yozadi.

Xususan, mis konlari bo'yicha quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: "...Buxoro yeri mis rudalariga boy... Buxorodan shimoli-sharqdagi Nurota tog'larida mis konlarining izlari bo'lib, Buxoroda bu tog'larning turli joylaridan keltirilgan namunalarini menga ko'rsatishdi".

K.F. Butenevning qayd etishicha, Nurota tog'lari va Bo'kantovda firuza, Zarafshon daryosining yuqori oqimi va Qarshi ortidagi tog'larda ko'mir, Nurota va G'uzor yaqinidagi tog'larda grafit, Samarqand shahri atroflarida ohaktosh ko'plab uchraydi.

Amirlik hududida temirni eritish haqida quyidagilarni yozadi: "Buxoroda temir eritish o'ziga xos qozonlarda amalgamashiriladi. Shahardan 10 verst uzoqlikdagi Galosiyo orqali o'tadigan yo'ldagi Otko'chi qishlog'idagi men ko'rgan zavodda ikkita ana shunday qozonlar bo'lib, shu atrofdagi eng yaxshi sanalar ekan".

Buxoroda oltin, kumush tanga va mis chaqalar zarb qilinishi haqida ma'lumot berib, K.F. Butenev shunday yozadi: "Oltin tanga tilla deb, kumushi esa tanga, mis tanga esa pul deb atladi. Bir tilla 21 tanga, bir tanga esa 44 pulga teng".

**G.I. Danilevskiyning Xiva xonligi tavsifi (1842–1843).** 1842-yili Xivaga podvolkovnik G.I. Danilevskiy boshchiligidagi missiya yuborilgan. Uning tarkibida tabiatshunos F.I. Baziner, topograflar Zelenin birinchi va Zelenin ikkinchi, tarjimon Grigoryev va feldsher Chertorogovlar bo'lgan. Missiya Orenburgdan yo'lga chiqib, Ustyurt, Orol dengizi bo'yłari va Ko'hna Urganch, Toshhovuz orqali Xiva va Xazoraspga kelgan.

Missiya mobaynida qimmatli botanik va geologik kolleksiyalar to'plandi, geografik, etnografik va meteorologik kuzatuqlar amalga oshirilgan. Qadimiy tangalar to'plangan. Xiva xonligiga oid ko'plab geografik, tarixiy ma'lumotlar yig'ilgan. Natijada "Xiva xonligining umumiy kartasi" shuningdek, xonlik aholi yashash qismining orqidrografik kartasi ishlab chiqilgan.

Missiya faoliyati yakuni bo'yicha G.I. Danilevskiyning "Xiva xonligi tavsifi" ("Описание Хивинского ханства") nomli asari (Sankt-Peterburg, 1851) va F.I. Bazinerning esa bir qator maqolalari nashr etilgan (Sankt-Peterburg, 1844, 1848, 1851). Mashhur geolog I.V. Mushketov o'zining "Turkiston" asarida ularni "Xiva, Ustyurt va Orol to'g'risida ajoyib ma'lumotlarni chop etganliklarini" ta'kidlagan.

G.I. Danilevskiyning "Xiva xonligi tavsifi" asari 12 ta bo'limdan iborat. Dastlabki bo'limlarda o'lkaning geografik va hidrografik ma'lumotlari berilgan.

Beshinchi bo'limda Amudaryoning g'arbiy qismidagi aholi istiqomat qiluvchi vodiyning umumiyligi tavsifi yoritilgan. Oltinchi bo'limda xalqlarning tarkibi va soni, yettinchi bo'limda esa xonlikning 25 ta shahri hamda ularning alohida ahamiyatiga ega bo'lgan binolari, masjid va madrasalari, karvonsaroylari haqida ma'lumot berilgan. Jumladan, bu bo'limda xonlik shaharlari haqida quyidagi tafsifni o'qishimiz mumkin: "Xonlikdagi barcha shaharlardan faqatgina Xiva va Yangi Urganch ko'proq aholi hamda ahamiyatiroq savdo faoliyati belgilari aloqalari nuqtayi nazaridan e'tiborga loyiq tom ma'noda shu nomga loyiq.

...Xivaliklar tarafidan qurilish uchun ishlataladigan materiallar: terakdan ishlangan ustunlar, qamish va loy, mustahkam bo'lishi uchun poxol aralashtirilgan.

...Urganchda do'konlar 320 ga yaqin; ularning bir qismi shaharda, Bozor Darvoza darvozasiga yaqin joyda, qolgani esa tashqi tarafda va uch qatorda. Mazkur joyda haftada ikki marotaba ya'ni chorshanba va yakshanba kuni bozor bo'ladi. Shahar aholisi erkak va ayollar arang 2000 ga yaqin jonni tashkil qilar, ular sart va ko'p sonli bo'limgan o'zbeklardan iborat. Bandalvat xivalik savdogarlar asosan Xiva xonligining asosiy savdo va hunarmandchiligi jamlangan Yangi Urganchda joylashgan".

Sakkizinch bo'limida suv va quruqlikdagi aloqa yo'llari, to'qqizinch bo'limida esa Xivaning sanoat tarmoqlari va qishloq

xo'jaligi haqida so'z boradi. G.I. Danilevskiy xonlikning qishloq xo'jaligi haqida shunday ma'lumotni beradi: "Xivaning qishloq xo'jaligi g'allakorlik, bog'dorchilik, chovrachilik va ipakchilik bilan chegaralanadi. Xonlikda qolgan dehqonchilik sohalari mavjud emas".

Asarning o'ninch bo'limida G.I. Danilevskiy Xivaning ichki va tashqi savdosi haqida ma'lumot berib, Xivaning Qo'qon bilan Hirot va Mashhad singari to'g'ridan to'g'ri savdo aloqalari mavjud emasligi, garchi Eron karvonlari Marvdan o'tsa-da, Xiva xonligida hech qachon to'xtamay, to'g'ri Buxoroga yo'l olishini yozgan.

O'n birinchi bo'limida Xiva xonligining boshqaruv tizimi va so'nggi o'n ikkinchi qismida esa moliyasi haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

G.I. Danilevskiyning kitobi keng ko'lamli, o'lkashunoslik hamda umumgeografik ahamiyatga ega bo'lgan asarlardan biri sanaladi.

**N.V. Xanikov.** XIX asrning 40-yillarida muhim natijalar bergen K.F. Butenov ekspeditsiyasida (1841–1842) ishtirok etgan geograf N.V. Xanikov Buxoro amirligi, Qizilqum va Zarafshon vodiysi to'g'risida boy material to'pladi. Bu materiallar N.V. Xanikovning "Buxoro xonligi tavsifi" ("Описание Бухарского ханства") nomli ensiklopedik mazmunli yirik asarida ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilinib, umumlashtirildi. Asar 1843-yilda dastlab Sankt-Peterburgda nashr etilgan bo'lib, jami 229 sahifadan iborat.

Nikolay Vladimirovich Xanikov (1822–1878) boshlang'ich ta'limni Sarskoselskiy litseyida tamomlab (1837), Sankt-Peterburg universitetida 2 yil davomida ma'ruzalarda qatnashib yurgan. 1838-yilda Tashqi ishlar vazirligiga tarjimon sifatida ishga kirib, 1839-yilda Orenburgga – harbiy gubernator huzurida o'ta muhim ishlar bo'yicha amaldor sifatida jo'natiladi. 1839–1840-yillarda Xiva ekspeditsiyasida, 1841–1842-yillarda

muhandis K.F. Butenevning 8 oy davom etgan Buxoro elchili-gida ishtirot etgan.

N.V. Xanikov 1845-yilda Kavkazorti o'lkasida arxeologik tadqiqotlar bo'yicha ishlab, 1858-yilda Afg'oniston va Xuro-songa ekspeditsiya rahbari etib jo'natilgan. 1866-yildan Parijda muqim yashab qolgan. Sankt-Peterburg universiteti unga Sharq tarixi bo'yicha doktorlik darajasini bergen. Rossiya Fanlar Akademiyasi uni muxbir-a'zolikka, qator ilmiy jamiyatlar (Parij, London, Italiya, Vengriya) esa faxriy a'zosi etib saylashgan.

"Buxoro xonligi tavsifi" asarining birinchi qismida geografik, topografik, ma'lumotlar va mamlakat aholisi haqida dalillar keltirilgan. O'zbeklarning 97 ta urug'inining ro'yxati ilova qilinib (ulardan 28 tasi Buxoroda), yashash joylari ham ko'rsatilgan.

"Xonlikning topografiyasi" qismida Buxoro shahridagi ja-moat binolari, saroylar, masjid va madrasalar, karvonsaroy-lar, hammomlar, bozorlar, qamoqxona haqida, Buxorodan Sa-marqandgacha bo'lgan yo'llar, Samarqandning inshootlari va yodgorliklari, yana Samarqanddan Qarshiga eltuvchi yo'llar, Qarshining arki, madrasalari va masjidlarining tavsifi beril-gan. Buxorodagi karvonsaroylar haqida N.V. Xanikov shun-day yozadi: "...Karvonsaroylarning tuzilishi, madrasalarning tuzilishiga o'xshab ketadi. Faqatgina farqi – pastida mutolaa uchun zal o'rniда ombor va mahsulotlarni sotish uchun rastalar o'rnatilgan. Buxoroda jami 38 ta karvonsaroylar bo'lib, ular-ning 24 tasi toshdan va 14 tasi yog'ochdan; bir nechtasi xususiy shaxslarga, ba'zilari davlatga qarashli va to'lov to'lashadi..."

Kitobning keyingi bo'limida amirlikdagi dehqonchilik, savdo va hunarmandchilik haqida, jumladan bog'dorchilik, to-morqa hamda donli ekinlar, sohaning mehnat qurollari, mah-sulotlarning tannarxi, ichki savdo, Rossiya, Xiva, Mashhad, Kobul, Qo'qon, Toshkent, Koshg'ar, Yorkent bilan tashqi savdo aloqalari batafsil yoritilgan. N.V. Xanikov Buxoro amirligida to-morqa xo'jaligining taraqqiy etib, dehqonchilikda muhim o'rin

egallashi haqida shunday yozadi: "...Tomorqalar bizdagidan bir necha bor farq qilib, aynan hecham jo'yaklar tortilmaydi, yerni sug'orish mumkin qadar bo'lganicha tekislab va borona qilib, urug' sochishadi".

Kitobning yettinchi bo'limida Buxoro amirligining ma'muriyati (said va xojalar, mullalar, harbiy, saroy va diniy amaldorlar) va ularning vazifalari atroflicha bayon etilgan. "...(Buxoro) xonligi eng namunali.. Buxoroda o'rnatilgan tartib uncha ko'bo'lмаган о'згаришлари bilan Xiva, Qo'qon, Toshkent va hokazo joylarda qabul qilingan", deb yozadi muallif.

Sakkizinch bo'lim "Xonlikda ta'lim" deb atalib, maktab va madrasalardagi ta'lim, ularning o'quv jarayoni, kitoblari, folbin, munajjimlar haqida so'z boradi.

Kitobning oxirida amir Nasrullohning hukmronlik tarixi haqida ma'lumot berilgan. Ilova qismida shaharlar va aholi manzillarining alifbo ko'rsatkichi, Buxoro shahri va atroflarining plani va karta ham ilova qilingan.

Mazkur asar hozirga qadar O'rta Osiyo tarixiy geografiya-siga oid o'z ahamiyatini yo'qotmagan yirik ilmiy-adabiy manbalardan birdir.


N.V. Xanikovning 1841-yilning sentabrida Samarqanda tashrifi asosida birmuncha keyinroq Parijda yozganlari 1868-yilning iyuni bilan qayd etilgan. Muallifning Samarqand tavsifiga bag'ishlangan bu ishining ba'zi ma'lumotlari "Buxoro xonligi tavsifi" asaridan olingan bo'lib, qolganlari yangi materiallar asosida yozilgan. "Samarkand (Ko'zi bilan ko'rgan kishining hikoyasi)" ("Самарканд (Рассказ очевидца") sarlavhasi bilan Sankt-Peterburgdagi "Русский инвалид" (1868) jurnalida nashr etilgan.

**A.I. Butakovning "Orol dengizi bo'ylab sayohati kundalik qaydlari" (1848–1849).** XIX asrning 40-yillardagi yirik ekspeditsiyalardan biri A.I. Butakovning Orol ekspeditsiyasi bo'lib, uning keng miqyosda o'tkazilgan ikki

yillik gidrografik tadqiqotlari yakuni 1850-yil tuzilgan Orol dengizi kartasida o'z ifodasini topdi. Bundan tashqari, A.I. Butakov Sirdaryo gidrografiysi va undagi kema qatnovi sharoitini o'rganish bilan maxsus shug'ullandi. Bu tadqiqot katta amaliy ahamiyatga ega bo'lgan.

Asli dengizchi va sayohatchi bo'lgan Aleksey Ivanovich Butakov (1816–1869) dengiz korpusini tugatib (1832), flotda michman bo'lib xizmat qilgan. 1840–1842-yillarda "Abo" transport kemasida dunyo bo'ylab sayohatda ishtirok etgan. 1848-yilda leytenant A.I. Butakovga Orol flotiliyasi boshlig'i sifatida Orol dengizini o'rganish vazifasi topshiriladi va u ikki marta ekspeditsiyada ishtirok etgan (1848–1849). A.I. Butakov ekspeditsiyasi tarkibiga A. Maksheyev, Pospelov, Akishev, A. Istromin, T. Shevchenko, F. Verner, Ribin kabi harbiylar kiritilgan.

Orol dengizini yaxshi o'rgangach, A.I. Butakov 1852-yilda dengizda paroxod qatnovini tashkil qiladi. Orol dengizining tadqiqi uchun A.I. Butakov 1853-yilda Berlin Geografiya jamiyatining faxriy a'zosi etib saylanadi, 1867-yildan Rus Geografiya jamiyati kengashining a'zosi bo'lgan.



**Kemalarni hozirlash (Ekspeditsiya ishtirokchisi  
T. Shevchenko chizgan akvarel, 1848)**

A.I. Butakov Orol dengizining g'arbiy qismida Vozrojdeniya deb nom olgan va yana bir qancha kichik orollarni ochgan. 1855-yilda A.I. Butakov, shuningdek, quyi Sirdaryo, 1859-yilda Amudaryo deltasini, 1861–1863-yillarda esa Sirdaryoning o'rta oqimini tavsiflab bergen. Orol flotiliyasining kemalari bilan Ing-natevning Xiva elchiligiga hamrohlik qilgan.

A.I. Butakovning Orol dengiziga sayohati kundaligida-gi qaydlarda Orol ekspeditsiyasining mashaqqatlari, ichimlik suvining yetishmasligi, dovullar, dengizdagi orollar, geografik punktlar, aholi, o'simlik va hayvonot dunyosi haqidagi ma'lumotlar joy olgan.

Ilk bor (1953) uni O'zbekiston va Ukraina kutubxonalaridagi qo'lyozma materiallar asosida mashhur bibliograf, tarixchi Ye.K. Betger rus tilida, Toshkentda chop ettirgan ("Дневные записки плавания А.И. Бутакова на шкуне "Константин" для исследования Аральского моря в 1848–1849 гг.").

A.I. Butakov shunday yozadi: "[1848-yil (13-sentabr)] umuman, Orol dengizi eng notinch, dengizchilar uchun biror xavfsiz va qulay qo'nimi yo'q: mabodo agarda bir shamol ko'tarilganda biror bo'g'ozda undan yashirinib, panoh topsangiz, havo o'zgarib qolganda aynan o'sha yer notinch bo'lishi mumkin, shundan unda suzish juda xatarlidir.

[1849-yil (29-iyul)]. Ertalab langarlarni ko'tarib, qirg'oq bo'ylab suzib, o'lchovlar qildim. Kun yarmidan o'tgach, Kum-suat ko'rfazida langar tashlab, shu yerdan Orol dengizining g'arbiy qismini tasvirga oldim.

Tushdan so'ng topografi Ribinni qurollangan guruh bilan asosiy chiziqni o'lchash uchun jo'natdim. Kum-suat ko'rfazi, menimcha, Orol dengizining asta-sekin pasayganini ko'rsatmoqda..."

A.M. Butakov ekspeditsiyasi harbiy va dengiz vazirliklari ning homiyligi ostida amalga oshirilganligi uning bosh maqsadi harbiy asosga ega bo'lganligini bildiradi.

## XIX ASR BIRINCHI YARMIDA XONLIKLARGA JO'NATILGAN DIPLOMATIK MISSIYA, ELCHILIK VA EKSPEDITSIYALAR NATIJASIDA YARATILGAN MANBALAR

### Savol va topshiriqlar

1. Mir Izzatullaning Qo'qon xonligiga sayohatining asosiy maqsadi nimadan iborat bo'lgan?
2. Buxoro amirligiga uyushtirilgan missiya va ekspeditsiyalarning asosiy natijalari aks etgan manbalarni sanab bering.
3. XIX asrning birinchi yarmida Xiva xonligiga doir manbalar haqida Internet veb-sahifalaridan ma'lumot to'plang.
4. Qo'qonga tashrif buyurgan rus mutaxassislarining asarlarida xonlikdagi qaysi sohalar o'z aksini topgan?
5. O'rta Osiyoning tabiiy shart-sharoitlari yoritilgan manbalarni alohida turkumga ajratib, ulardagi ma'lumotlarni o'zaro taqqoslang.
6. Aleksandr Byornsdan tashqari Buxoroga tashrif buyurgan inglz sayyoohlari haqida ma'lumotlar to'plab, alohida jadvalga: a) ismi sharifi va faoliyati; b) Buxorodagi tashrif buyurgan manzillari; c) tashrifining asosiy natijalari ko'rinishida yozib chiqing.
7. O'zbekistonning mustaqillik yillarda diplomatik missiya, elchilik va ekspeditsiyalarning faoliyati yoritilgan asarlar haqida ma'lumot bering.
8. XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyoga jo'natilgan diplomatik missiya, elchilik va ekspeditsiyalar natijasida yaratilgan manbalarning xususiyatlari jihatlari nimalardan iborat deb o'ylaysiz?

### Manbalar va adabiyotlar

1. Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари (қадимги замон ва ўрта асрлар). – Т.: Ўқитувчи, 2001.
2. Бартольд В.В. История изучения Востока в Европе и России. – Л., 1925.
3. Гвоздецкий Н.А., Федчина В.Н., Азатьян А.А., Донцова З.Н. Русские географические исследования Кавказа и Средней Азии в XIX – начале XX в. – М.: Наука, 1964.
4. Записки о Бухарском ханстве (Отчеты П.И.Демезона и И.В. Виткевича) / Отв. редактор Н.А. Халфин. – М.: Наука, 1983.
5. Дневные записки плавания А.И. Бутакова на шкуне "Константин" для исследования Аральского моря в 1848–1849 гг. По рукописным материалам Узбекской и Украинской

- государственных публичных библиотек подготовил к печати Е.К. Бетгер. – Т.: Изд-во АН УзССР, 1953.
6. История Узбекистана в источниках. Узбекистан в сообщениях путешественников и ученых (20–80-е годы XIX в.) / Составитель Б.В. Лунин. – Т.: Фан, 1990.
  7. *Мейендорф Е.К.* Путешествия из Оренбурга в Бухару. – М.: Наука, 1975.
  8. *Муравьев Н.Н.* Путешествие в Туркмению и Хиву в 1819 и 1820 гг. Гвардейского генерального штаба капитана Николая Муравьева, посланного сии страны для переговоров. – М.: Типография Августа Семена, 1822. Ч. I-II.
  9. *Мушкетов В.И.* Туркестан. – СПб., 1886. Т. I.
  10. *Назаров Ф.* Записки о некоторых народах и землях Средней части Азии. – М.: Наука, 1968.
  11. Обзор русских путешествий и экспедиций в Среднюю Азию. Материалы к истории изучения Средней Азии. В 4-х частях. Ч. I. 1715–1856 / Составитель О.В. Маслова. – Т.: Издательство САГУ, 1955.
  12. Путешествие Мир Иззет Уллы в Кокандское ханство в 1812 году / Перевод и примечания Ю.А. Соколова // Научные труды САГУ. Вып. LXXVIII. Исторические науки. – Т.: Изд-во САГУ, 1956.
  13. *Saidboboyev Z.* Yevropada O'rta Osiyoga oid tarixiy-kartografik ma'lumotlar (XVI–XIX asrlar) – Т.: "Fan", 2008.
  14. *Ханыков Н.В.* Описание Бухарского ханства. – СПб.: Типография Императорской Академии Наук, 1843.
  15. *Чабров Г.Н.* Поездка в Бухару переводчика П.И. Демезона (1833–1834 гг.) // Научные труды САГУ. Вып. XCIV. – Т.: Изд-во САГУ, 1957.
  16. *Burnes, Alexander.* Travels into Bokhara; being the account of a journey from India to Cabool, Tartary and Persia; also, Narrative of a voyage on the Indus, from the sea to Lahore, with presents from the king of Great Britain; performed under the orders of the supreme government of India, in the years 1831, 1832, and 1833. In three volumes. Vols. I–III. – London: John Murray, 1834.

## MUSTAMLAKA DAVRI TARIXIGA OID MANBALAR

### 12-MAVZU: XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI TURKISTON TARIXIGA OID MANBALAR

*Turkistonda XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida yaratilgan huquqiy-normativ hujjatlar sharhi (nizomlar, buyruq va farmoyishlar, ustav va aktlar, shartnomalar, ish yuritish materiallari, raporilar, shar'iy-diniy xarakterdagi manbalar, vaqf hujjatlari, shaxsiy fond hujjatlari). XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlaridagi Turkiston matbuoti, vizual materiallari, statistik manbalar va ularning turlari.*

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlari Turkiston tarixiga oid manbalar turlarida bir qancha o'zgarishlar yuz berdi. Jumladan, turli xil ro'yxatga olish ishlari natijasida statistik ma'lumotlar to'plana boshlandi. Bu davrda matbuot nashr etila boshlaganligi sababli tarixiy manbalarning yana bir turi paydo bo'ldi hamda matbuot ichida gazetalar chop etish ustun darajaga ega bo'ldi. Shuningdek, bu davrda o'lkaga oid dastlabki foto materiallari hamda mashinada terilgan hujjatlar paydo bo'ldi.

**Huquqiy-normativ hujjatlar.** *Huquqiy hujjatlar* – yuqori hokimiyat tomonidan tasdiqlangan normativ hujjatlarni birlashtiruvchi tarixiy manbalar turidir. Huquqiy hujjat materiallari tarixiy va tarixiy-huquqiy tadqiqotlarda keng qo'llaniladi, lekin huquqiy tizim sifatida o'rjanilmagan. Tarixiy tadqiqotlarda odatda mavzu bo'yicha tanlangan huquqiy hujjatlardan foy-

dalaniladi. Huquqiy hujjatlar huquqshunoslar va huquq tarixi bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilar tomonidan huquqiy manba sifatida tizimli ravishda o'rganiladi.

Huquqiy hujjatlar yangi tarixiy davrda paydo bo'lmasdan, oldingi tarixiy davrda ham mavjud bo'lgan. O'rganilayotgan davrga kelib huquqiy hujjatlar chop etila boshlangan. Bu huquqiy hujjatlarga nizomlar, shartnomalar, ustavlar, farmonlar va kodekslar kiradi.

*Nizomlar.* Rossiya imperiyasi hukumati tomonidan Turkistonni boshqarish uchun maxsus Nizomlar ishlab chiqilgan. Boshqaruv ishlarini tartibga solishda maxsus komissiy tomonidan 1867-yilda ishlab chiqilgan "Yettisuv va Sirdaryo viloyatlaridagi boshqarish haqidagi Nizom" loyihasi huquqiy asos sifatida xizmat qildi. Nizom loyihasi rasman davlat boshlig'i tomonidan tasdiqlanmagan bo'lsa-da, to 1886-yilgacha Turkiston o'lkasida amal qilgan. "Nizom" loyihasiga binoan, harbiy boshqaruv bo'yicha Turkiston general-gubernatori imperiya harbiy vaziriga bo'ysunib, uning boshqaruv sohasidagi huquqiy maqomi esa, imperianing boshqa qismlari guberniyalari boshliqlarining huquqiy maqomiga tenglashtirilgan. Unga qo'shni davlatlar bilan diplomatik aloqalar olib borish, yerdan va yetishtirilgan hosildan olinadigan soliqlar, soliq yig'uvchilarga beriladigan pochta va telegraf boshqarmasi bilan kelishilgan holda aloqa xizmatidan foydalanganlik uchun, harbiy harakatlar vaqtida yuklarni tashigani uchun to'lanadigan haq miqdorini, o'lkani boshqarishga ajratilgan mablag'lar doirasida harbiy xalq boshqaruvining turli yo'naliishlari bo'yicha xarajatlarni belgilash, o'lkadagi o'quv yurtlariga homiylik qilish, sudlarning chiqargan hukmlarini tasdiqlash kabi vakolatlar berilgan.

"Nizom" loyihasi bo'yicha harbiy va fuqarolik hokimiyati viloyatlarda harbiy gubernator qo'lida to'plangan. Harbiy gubernator huzurida viloyat boshqarmasi bo'lib, uni harbiy

gubernator yordamchisi boshqargan. Viloyat boshqarmasida farmoyish beruvchi, xo'jalik ishlari va sud bo'limlari bo'lib, harbiy gubernator lozim topgan barcha masalalar boshqarma majlisida muhokama qilinib, u bo'yicha tegishli qaror qabul qilingan.

"Nizom" loyihasi bo'yicha viloyatlar ma'muriy-hududiy jihatidan uyezdlarga bo'lingan, ular ma'muriy va politsiya hokimiyatini amalga oshiruvchi uyezd boshlig'i tomonidan boshqarilgan. Unga uyezdda osoyishtalik, tartib-intizomni va xavfsizlikni ta'minlash choralarini amalga oshirish, mahalliy ma'murlar faoliyatini, volost va pul yig'implari o'tkazilishini, xalq sudyalari (biy va qozilar) faoliyatini, davlat va mahalliy soliqlarni to'g'ri va o'z vaqtida undirilishi, yo'llar, ko'priklar yaroqlilagini, makkablar ochish va obodonlashtirish ishlarini nazorat qilish vakolatlari berilgan va savdo sanoat tarmoqlarining har tomonlama rivojlanishi uchun qulayliklar yaratish vazifasi yuklatilgan edi. Har bir uyezd boshlig'i huzurida boshqarma tashkil qilingan bo'lib, unda o'rta hisobda sakkiz nafar zabit xizmat qildi. Volostlarni boshqarish o'tovlar vakillari tomonidan saylandigan starshinalarga (oqsoqollarga) yuklatilgan. O'troq aholi yashaydigan joylarda nufuzli va huquqiy maqomi jihatidan bo'lisga tenglashtirilgan oqsoqolliklar tashkil qilindi. Ularni boshqarish xalq yig'inlarida saylanadigan oqsoqollarga yuklatildi. Oqsoqollar volostlar va ovullarning boshliqlariga o'zları boshqaradigan hududlarda ma'muriy va politsiya hokimiyatini amalga oshirish vakolati berildi. O'troq aholi jamoa xo'jaligini boshqarishda undiriladigan soliqlarni belgilash maqsadida shaharlar va qishloqlarda xo'jalik ishlari bo'yicha jamoatchilik ishlari asosida ishlaydigan boshqarmalar tuzildi. 1867-yildagi "Nizom" loyihasida Toshkentdan boshqa shaharlarda boshqaruv idorasini tashkil etish ko'zda tutilmagan edi. Loyihaga binan shaharlar va kattaroq aholi yashaydigan joylar dahalarga bo'linib, ular oqsoqol tomonidan boshqarilgan.

“Turkiston o’lkasini boshqarish haqidagi Nizom” loyihasini 1886-yil 12-iyunda Rossiya imperatori tasdiqladi. Mazkur “Nizom” uncha ko’p bo’lmagan qo’shimchalar bilan 1917-yilning o’rtalarigacha amal qildi. “Nizom”ga ko’ra ma’muriy-hududiy tuzilishda Rossiya imperiyasi hukumatining Turkistondagi hukmronligini yanada mustahkamlash, uni boshqarish uchun sarflanadigan davlat mablag’larini qisqartirish, o’lka xalqlarini ekspluatatsiya qilish va uning tabiiy boyliklarini talash evaziga keladigan daromadlarni yanada ko’paytirishdan iborat edi.

Bundan tashqari, “Zarafshon okrugini boshqarish haqidagi Muvaqqat Nizom” (1868), “Farg’ona viloyatini boshqarish haqidagi Nizom” loyihasi (1873), “Amudaryo bo’limini boshqarish haqidagi Muvaqqat qoidalar” (1873) kabi Nizomlar qabul qilingan.

Boshqaruvgaga taalluqli Nizomlardan tashqari Turkiston general-gubernatori tomonidan u yoki bu soha bo'yicha alohida Nizomlar ham e'lon qilindi. Jumladan, savdo-sotiqning rivojlanishi bilan bog'liq holda tuzilgan shartnomalarni notarial guvohlantirish ehtiyoji hisobga olinib, 1880-yil 1-mayda “Notarial qism haqidagi” Nizomi kuchga kirdi. “Nizom”ga binoan, Toshkent va Verniy shaharlarida notarial idoralar tashkil etilgan. Boshqa shaharlarda esa notariuslik vazifasi tuman sudyalariga, katta notariuslik vazifasi esa, viloyat boshqarmalari sud bo’limi boshliqlari zimmasiga yuklatilgan. Yana bir misol sifatida Turkistonda mahalliy xotin-qizlar uchun Toshkentda maxsus tibbiy muassasani tashkil etish to’g’risidagi Nizomni (1883-yil) keltirish mumkin. Ushbu hujyatdan tadqiqotchi ambulatoriyaning tashkiliy tuzilmasi, mablag’i, unda faoliyat yuritadigan shifokorlar haqida ma'lumotlarga ega bo’lishi mumkin.

*Buyruq va farmoyishlar* – huquqiy hujjalarning keng tarqalgan turi bo’lib, davlat va jamiyat hayotining qator jahalarini o’z ichiga olishgan, ular yuqori tashkilotlar tomonidan quyi tashkilotlarga jo’natilgan. Masalan, Turkiston general-gubernatori general-adyutant Kuropatkin 1916-yil 23-avgustda

o'lka mahalliy aholisini front orqasidagi ishlarga safarbar qilish haqida buyrug'ini e'lon qildi. Unda Turkistonning beshta viloyatidan jami 220.000 nafar kishini 18-sentabrdan safarbar qilish boshlanishini ma'lum qiladi. Viloyat harbiy gubernatorlariga ishchilarni jo'natishni tashkil etish vazifasi yuklatilib, mahalliy aholiga mazkur buyruqni keng tushuntirish va uning bajarilishini talab qilish zaruriyatni ta'kidlanadi.

*Ustav* – ma'lum bir sohani boshqarish, tartibga soluvchi maxsus huquqiy rasmiy hujjat (Harbiy ustav, Bojxona ustavi va boshqalar).

*Aktlar* – ikki yoki undan ortiq o'zaro shartnoma tuzgan kishilarning huquqiy munosabatlarini aks ettirgan huquqiy xarakterdagi hujjatlar bo'lib, kontragent sifatida jismoniy va yuridik shaxslar, shuningdek, davlat ham aks etishi mumkin.

Akt hujjatlari birinchi o'rinda fuqarolik huquqi sohasidagi o'zgarishlar bilan bog'liq, xususan, mol-mulk munosabatlarini boshqarish, tartibga solish bilan bog'liq. Aktlarning asosiy turi ko'chmas mulkni sotib olish-sotish aktlaridir. Ularni tuzish davlat tomonidan nazorat qilingan.

*Shartnomalar* – majburiyat huquqini amalga oshirish shakli bo'lib, og'zaki va yozma shaklda tuzilgan. Fuqarolik huquqida shartnomaning quyidagi turlari: tortiq qilish, almashtirish, sotish-sotib olish, mulkni ijara olish, pudrat va yetkazib berish, mulk zayomi va ssudasi (qarzi), shirkat, sug'urta, ishonchnoma mavjuddir. Rossiya imperiyasi bilan Buxoro amirligi o'rtasida 1868-yildagi "Sulh" va 1873-yil 28-sentabridagi shartnomalarni misol qilish mumkin. Mazkur shartnoma ikki tilda – rus va o'zbek tillarida yozilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivining I-126 "Buxoro amirligi qo'shbegisi" jumg'armasida saqlanmoqda. Xususan, 1873-yilda imzolangan shartnomada Rossiya savdogarlarining amirlik ichida bemalol yurishi, ularni har qanday xavf-xataridan himoya qilish, Rossiya mahsulotlaridan soliq olish tartibi, ya'ni ularning mollaridan

qirqdan bir zakot olish haqida yoziladi. Bundan tashqari, tranzit holatida Buxorodan olib o'tiladigan mahsulotlardan boj olinmasligi kabi masalalar yoritiladi. Shuningdek, 1873-yil 12-avgustda Xiva yaqinidagi Gandimiyon qishlog'ida mamlakat hukmdorining yozgi bog'ida Turkiston general-gubernatori K.P. fon Kaufman va Xiva xoni Sayyid Muhammad Rahim II (Feruz) o'rtaida sulu shartnomasi imzolandi. Mazkur shartnomada Xiva davlat "Ichan qal'a" tarixiy-me'moriy muzey qo'riqxonasi hujjatlar jamg'armasida 3241 inventar raqami ostida saqlanmoqda. Sulu shartnomasi 18 bobdan iborat bo'lib, unda Xiva xonligining Rossiya imperiyasiga tobelligi va rus savdogarlariga mamlakat huddida berilgan imtiyozlarning huquqiy asoslari o'z aksini topgan.

Bundan tashqari, "Buxoro stansiyasi bojxona shartnomasi"ni o'rganish 1894-yildan Buxoro amirligi Rossiya imperiyasi bojxona tizimiga kiritilgandan so'ng amirlikning tashqi savdo aloqalari imperiya manfaatlariga bo'ysundirilib, xorijiy mamlakatlar bilan savdo-sotiq aloqalariga cheklovlar qo'yildi.

Veksel ham shunday hujjat turlaridan biri bo'lib, belgilangan muddatda ma'lum mablag' to'lashga mo'ljallangan qimmat-baho qog'ozlardir. XIX asr oxirlarida aksionerlik jamiyatları aktları vujudga keldi. Aksionerlik jamiyatları ustavlari omma-viy manba turlaridan hisoblanadi, chunki bunday jamiyatlarini tashkil etish jarayonining muhim bir bo'lagidir. Ustavda jamiyatni tashkil etish maqsadi, uning nomi, joyi, kapital hajmi, aksiyalar miqdori haqida ma'lumotlar aks etadi.

*Ish yuritish materiallari.* Ularni 3 guruhg'a ajratish mumkin: 1) muassasalar yozishmalari; 2) raportlar; 3) iltimosnomalar.

Arxiv hujjatlarida turli muassasalar orasidagi *yozishmalar* ko'pchilikni tashkil qiladi. Bunday yozishmalar ichida Turkiston general-gubernatorligi, viloyat harbiy boshqarmasi, uyezd boshqarmasi, turli soha boshqarmalari o'rtaсидаги yozishmalar aksariyatni tashkil etib, ularda tashkiliy, moliyaviy masalalar,

yechilishi kerak bo'lgan muammolar va ularni hal qilish yo'llari haqidagi masalalar aks etgan, shuningdek, turli ma'lumotlar yig'ish topshirilgan. Masalan, 1909-yil 3-yanvarda Farg'ona viloyati o'quv muassasalari inspektorining Andijon uyezdi boshlig'iغا yozishmasida Turkiston o'lkasi o'quv muassasalari Bosh inspektori barcha joylarda rus-tuzem maktablari sonini ko'paytirish maqsadida qaysi shahar va qishloqlarda bunday maktablar tashkil etish mumkinligi va ularni tashkil etishga ketadigan mablag' miqdori haqida ma'lumot toplash topshirildi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi fondlarida Turkiston general-gubernatorining Rossiya imperiyasi harbiy vaziri bilan turli mavzulardagi yozishmalari saqlanmoqda. Shulardan biri 1898-yil Andijon qo'zg'olonida ishtirok etgan qo'zg'olonchilarga turli jazo choralar qo'llash haqidagi yozishma bo'lib, qo'zg'olonchilarni Sibirga surgun qilish, tergovdan yashirinib yurgan kishilarni izlab topish to'g'risida ma'lumotlar mavjud.

*Raportlar.* Ular asosan quyi tashkilotlar tomonidan yuqori tashkilotlarga yuborilgan. Asosan yuqori tashkilotlarning topshirig'iغا binoan u yoki bu masalada ma'lumotlar to'planib jo'natilgan. Masalan, 1910-yil 7-sentabrida Andijon uyezdi boshlig'i Farg'ona viloyati harbiy gubernatori nomiga yozgan raportida Turkiston general-gubernatori ko'rsatmasiga binoan o'lkada rus kolonizatsiyasi masalasiga doir to'plangan ma'lumotlar jo'natiladi. Bunday reportlarda, tashkil etilgan posyolkalar soni, aholisi, mashg'uloti, dini, mahalliy aholiga munosabati, ular hayotidagi ijtimoiy kamchiliklar haqidagi ma'lumotlar o'z aksini topgan.

*Shar'iy-diniy mazmundagi manbalar.* Bunday manbalariga qozilik hujjatlari, fatvolarni kiritish mumkin. Musulmon jamiyatining huquqiy instituti sifatida tanilgan qozilik sudi kanselyariyasidagi manbalar mazmunidan kelib chiqib hukm, xatti nikoh, vasiqa, vasiyatnoma, xatti iqror, xatti ijara, xatti

vakolat, xatti davo, ibro (haqdan kechish) kabi hujjatlarga ajratiladi. Ular kishilarning mulkiy huquqi, ishlab chiqarish va oldisotdi ishlaridagi o'rni va ishtiroki haqida tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

Qozilik hujjatlari O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivida I-164 fondida saqlanayotgan "Toshkent qozikaloni" hamda I-364 fonddagi "Ko'kcha dahasi qozisining jamg'armasi"da saqlanadi. "Toshkent qozikaloni" jamg'armasida 1869–1892-yillarda Toshkent shahrining Sebzor dahasi qozisi lavozimida xizmat qilgan Muhammad Muhiddinxo'ja va uning ajdodlari, qarindoshlari faoliyatiga oid hujjatlar saqlanadi. Hujjatlar davriy jihatdan 1822–1922-yillarni qamrab olgan. Ularning asosiy qismi Muhammad Muhiddinxo'ja tomonidan to'plangan. Jamg'armaning "Toshkent qozikaloni" deb atalishining sababi undagi qator hujjatlar Muhammad Muhiddinxo'janing otasi, Toshkent shahrining qozikaloni Hakimxo'ja Eshon ibn Norxo'ja faoliyatiga oidligi bilan izohlanadi. Mazkur jamg'armadagi jami 800 dan ortiq hujjat 58 jildga jamlangan bo'lib, ular asosan o'zbek, fors-tojik, qisman rus tilida yozilgan. "Ko'kcha dahasi qozisining jamg'armasi" 91 ta yig'ma jild hamda 3 ta kitobdan iborat bo'lib, ular "Ko'kcha qozisining hukmi va e'lонлари китоби", "Hukmlar kitobi", "Dalolatnomalar kitobi" deb nomlanadi.

Diniy mazmundagi hujjatlar qatorida yana fatvolarni ham sanab o'tish mumkin. Bu hujjat turlari ayniqsa XIX–XX asr boshlarida keng tarqalgan. Bugungi kungacha fatvolar islam dini huquqiy asoslarini, O'rta Osiyodagi turli mazhablar va ularning rituallari, mintaqqa ijtimoiy va iqtisodiy masalalarini, muftiylarning faoliyatini ochib beruvchi bir manba sifatida tadqiq qilindi.

*Vaqf hujjatlari.* Ma'lumki, Markaziy Osiyo umuman muslimon olami tarixida mulkchilik tizimi va iqtisodiy faoliyatning asosiy institutlaridan biri bu vaqf instituti bo'lib, ushbu tuzilma hujjatlari Markaziy Osiyo mintaqasi iqtisodiy tarixini



o'rganishda muhim o'rin tutadi. Asosiy hujjatlar Markaziy davlat arxivida (O'zR MDA), Sharq qo'lyozmalari markazida, O'zbekiston tarixi davlat muzeyi fondida, Samarqand Davlat birlashgan tarixiy-me'moriy va badiiy muzey-qo'riqxonasida, O'zbekiston Milliy universiteti nodir asarlar muzeyi fondida, shaxsiy kolleksiyalarda saqlanadi. Xorijiy fondlardan A.L. Kun shaxsiy arxivi – Sankt-Peterburgdagi Sharq qo'lyozmalari institutida, Rossiya milliy kutubxonasi fondlarida saqlanmoqda. Tadqiqotchi O'. Sultonov tadqiqotlarda qozixonalarda tuzilgan vaqfnoma, bayi-bot, ijara, iqror, da'vo va hukm, rivoyat kabi hujjatlarning yuzaga kelishi va funksiyasi o'zbek tilidagi tarjimalar bilan birga ochib berilgan.

*Shaxsiy fond hujjatlari.* O'zbekiston Respublikasi ilmiy-texnika, tibbiyot hujjatlari Markaziy davlat arxivida saqlanayotgan tibbiyot fanlari doktori, professori A.A. Shoroxovaning shaxsiy jamg'armasida (f.192) aholiga tibbiy yordam ko'rsatish, ayniqsa o'lka xotin-qizlariga tibbiy xizmat masalalari haqidagi hujjatlar qiyoslash maqsadida o'rganilib, tadqiqotga jalb qilinishi mumkin. Mazkur fondda 406 ta ish mavjud bo'lib, ularda 1891–1973-yildagi davriy chegaradagi voqeliklar o'z aksini topgan. A.A. Shoroxovaning shaxsiy jamg'armasi bir necha qismlarga bo'lingan. Xususan, ilmiy faoliyatiga doir materiallar, xizmat faoliyatiga oid ma'lumotlar qismi, yozishmalar, avtobiografik materiallar hamda uning turmush o'rtog'i tibbiyot doktori S.P. Shoroxov faoliyatiga doir materiallar qismidan iborat. Ushbu hujjatlar Turkistonda xotin-qizlarga tibbiy yordam ko'rsatish masalasida tadqiqotchilarga qimmatli ma'lumotlar beradi. Massalan, bunday hujjatlardan birida 1916-yilning dekabrida doktor A.A. Shoroxova Toshkentning "eski" shahar qismida uy sharoitida "kesarevo sechenie" operatsiyasini o'tkazishga majbur bo'lganligi, operatsiya yaxshi o'tkazilib, ona va bolaning hayoti saqlanib qolginganligi haqida yoziladi.

1916-yilning dekabrida Toshkent shahar shifoxonasining jarrohlik bo'limi qoshida ginekologiya bo'limi ochilishi ayol-

larga tibbiy yordam ko'rsatish ishida muhim voqeal bo'lgan edi. Unga kerakli asbob-uskunalar Peterburgdan olib keltingan. Bu shifoxonaga dastlab Toshkent aholisi yevropalik qatlam ayollari murojaat etgan bo'lsalar, keyinchalik mahalliy aholi ham tibbiy yordam so'rab kela boshlagan. Bu shifoxonani tashkil etishda va uning faoliyatida doktor A.A. Shoroxova jonbozlik ko'rsatgan.

Arxivdagi fondlar qatorida "Xotiralar"ni o'z ichiga olgan "Ish"lar ham mavjud. Bu "Xotiralar" odatda, turli ishtirokchi, ta-niqli odamlardan voqealar kechayotgan paytda emas, balki ko'p yillar o'tgandan keyin yozilganligi bilan ajralib turadi. Tabiiyki, voqealarga baho berishda o'sha shaxsning o'z munosabati, tal-qini va ma'lum bir davrdagi mafkuraviy muhitning ta'siri ham bo'ladi. Boz ustiga "Xotiralar" ayrim noaniqliklardan ham xoli bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun ham "Xotiralar"ga tarixiy manba sifatida yondashilayotganda ehtiyyotkorlik bilan qarash foydadan xoli bo'lmaydi. Lekin shunga qaramasdan, "Xotiralar" alohida bir shaxsning voqeaga munosabati va voqelikni qabul qilishini o'zida aks ettiradi, u shuning uchun ham manba sifatida muhim ahamiyatga ega. Masalan, yuqorida nomi tilga olin-gan O'zbekiston Respublikasi ilmiy-texnika, tibbiyot hujjatlari Markaziy davlat arxivida saqlanayotgan A.A. Shoroxovaning shaxsiy jamg'armasining 269–276 ishlari uning xotiralaridan iborat, ularning ba'zilari hajm jihatdan juda qisqa bo'lsada, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Rossiyada xotin-qizlar oliv tibbiy ta'limi, o'lkada ayollarga akusherlik yordami ko'rsatilishi tarixi, o'sha davr xotin-qizlariga tibbiy yordam ko'rsatgan shifokorlar haqida ma'lumotlar olish mumkin, ularning ba'zilari qo'lyozma holatida, ba'zilari esa mashinada yozilgan. Xotiralarning eng muhim jihat shundaki, ularda inson hissiyotlari, uning shaxsiy hayoti o'z aksini topadi, bu esa uning subyektiv xususiyatga egaligidan kelib chiqadi.

**XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlaridagi Turkiston matbuoti.** XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr

boshlari Turkiston tarixiga oid manbalar turlarida bir qancha o'zgarishlar yuz berdi. Bu davrda matbuot nashr etila boshlaganligi sababli tarixiy manbalarning yana bir turi gazetalar paydo bo'ldi, matbuot ichida chop etishda ustun darajaga chiqdi.

Jahonda davriy matbuot tarixiga e'tibor qaratilsa, ommaviy axborot vositalarining biri bo'lgan gazetalarning paydo bo'lishi bilan jamiyatda axborot yetkazish jarayonlari jadallahшиб ketganligini ko'rish mumkin. Dastlabki bosma gazeta Pekinda chiqqan "King pao" (Markaziy shahar bildirishi) gazetasи edi, 911-yilda ta'sis etilgan ushbu gazeta 1361-yildan haftada bir marta chiqqan bo'lsa, 1800-yildan kundalik gazetaga aylangan edi. Unda imperator farmonlari hamda muhim voqealar haqida xabarlar chop etilgan. Bu gazetalar ieroglislar o'yilgan taxtalariga bo'yoq surtilib, nusxa olingan holda ko'paytirilgan.

XVI asrda inson hayotiga "gazeta" so'zi kirib kelgan. Bu so'z italyancha "gazzetta" so'zidan olingan bo'lib, "chaqa" degan ma'noni bildiradi, ya'ni yangiliklar varag'ini Venetsiyada bir chaqaga sotib olishgan. Hozirgi zamonaviy gazetalarga yaqin bo'lgan bosma gazetalar XVII asrda Yevropada va XVIII asrning boshlarida esa Rossiyada bosib chiqarila boshlangan edi. 1702-yildan boshlab, Londonda kundalik gazeta "Daily Courant" chiqqa boshlagan. Turkiy olamda ilk gazeta Istanbulda 1831-yilda tanzimat davrida vujudga kelgan edi. Mazkur gazeta "Taqvim ..." nomi ostida chiqib, 10 sahifadan iborat edi. Hukumat yordami bilan chiqqan bu haftalik gazetaning tiraji besh ming bo'lib, bir yilda 30 ta soni chiqib turgan va 1878-yilga kelib 2119 sonidan so'ng to'xtab qolgan. 1890-yildan boshlab bu gazeta yana qaytadan 13 oy nashr etilib, yana to'xtatildi. 1908-yilda bu gazeta yana takror paydo bo'ldi va Turkiya jumhuriyati hukumati vujudga kelguncha chiqib turdi. Hammasi bo'lib bu gazetaning 4608 soni chiqqan edi.

Turkistonda matbuot Yevropa va Osiyodagi ko'pchilik davlatlarga qaraganda ancha kech vujudga kelgan edi. 1870-yilda

o'lkada birinchi gazeta chop etilganda, Rossiyada 36ta nomdag'i gazeta chiqayotgan edi. Bu davrda, aniqrog'i XIX asr oxiriga kelib dunyoda gazetalar minglab va millionlab kishilar tomonidan har kuni o'qiladigan axborot vositasi bo'lib qoldi. Bu davrda gazetalar yagona ommaviy axborot vositasi edi. Shunday qilib, davriy matbuot paydo bo'lishi bilan tadqiqotchilar uchun yozma manbaning yana bir turi vujudga keldi.

Davriy matbuot uch guruhg'a – gazetalar, jurnallar, ilmiy jamiyatlarning nashrlariga bo'lingan. Gazeta va jurnallar o'rtasidagi asosiy farq birinchi navbatda materialni yetkazib berish shaklida bo'lib, gazeta bo'layotgan voqealar to'g'risidagi ma'lumotlarni kichikroq hajmdagi nashrlar sifatida bersa, oylik jurnallarda umumlashtiruvchi ma'lumotlar, muammoviy va tahliliy xarakterga ega bo'lgan maqolalar chop etilgan.

Turkiston matbuoti tarixida 1870–1890-yillarda faqatgina rasmiy gazeta mavjud edi. 1890-yillardan boshlab esa xususiy gazetalar nashr etila boshlandi. 1906-yildan boshlab, milliy matbuotga asos solindi va jadid gazetalari chop etila boshlandi. Aynan shu davrdan boshlab, o'lkada turli siyosiy partiya va tashkilotlarning gazetalari ham chiqa boshladi.

Davriy matbuotning manbaviy tasnifi qoidalariga ko'ra, Turkiston matbuotini quyidagicha tasniflash mumkin:

- 1. Davriylik bo'yicha.* Turkiston matbuotida haftasiga bir yoki bir necha marotaba hamda har kuni chop etiladigan gazetalar bo'lgan. O'lkada muntazam va uzoq vaqt nashr etilgan gazetalar "Туркестанские ведомости" va "Turkiston viloyatining gazeti" edi. Xusan, "Туркестанские ведомости" gazetasi 1871–1892-yillarda haftasiga bir marta, 1893–1903-yillarda haftasiga ikki marta, 1907–1917-yillarda kundalik gazeta ga aylandi. Turkistonda faqat shu gazeta ma'lum davrda kechki sonlarini ham nashr etgan.

- 2. Hududiy belgisiga ko'ra* o'lka matbuoti poytaxtda – markazda va viloyat hamda uyezdda chop etiladigan gazetalar-

dan iborat edi. O'lkada bosilgan gazetalarning aksariyat qismi Turkiston general-gubernatorligining ma'muriy va madaniy markazi bo'lgan Toshkent shahrida nashr etilgan. Lekin keyinchalik boshqa shaharlarda ham, xususan Samarqandda "Окраина" (1890–1894) va "Samarqand" (1913), Qo'qonda "Sadai Farg'ona" (1914–1915) va "Туркестанский край" (1916), Andijonda "Туркестанский голос" (1916–1917) bosib chiqarilgan.

3. *Tili bo'yicha*. Turkistonda o'zbek, rus, fors va qozoq tillarida gazetalar chiqarilgan. Xususan, "Turkiston viloyatining gazeti" (1870–1883) o'zbek, rus tillarida, Behbudiy muharirrigida chiqqan "Samarqand" gazetasi esa o'zbek, rus va fors tillarida nashr etilgan.

4. *Noshirlari bo'yicha* gazetalar rasmiy va xususiy bo'lib, ular alohida xususiy shaxs – noshirlar tomonidan yoki ma'muriyat, turli tashkilot va partiyalar organi sifatida nashr etilgan. 1870–1917-yil fevraligacha o'lkada Turkiston general-gubernatorligi-



"Turkiston viloyatining gazeti", 1907-yil 15-iyuldag'i soni

ning rasmiy organi bo'lgan "Туркестанские ведомости" va "Turkiston viloyatining gazeti" uzlusiz nashr etilgan. 1907-yildan esa Farg'ona viloyati ma'muriyatining organi "Ферганские областные ведомости" gazetasi (1907–1917) chop etila boshlangan. "Окраина" (1890–1898), Toshkentda chiqqan "Русский Туркестан" (1898–1907) gazetalari rus tilidagi xususiy gazetalar bo'lib, Turkistondagi sotsial demokratlarning bolsheviklar oqimiga mansub namoyandalari ular orqali o'z g'oyalarini targ'ib etishda foydalanganlar. 1913-yilda bittagina soni chiqqan "Ташкентский рабочий" gazetasidan tashqari, 1917-yil oktabr to'ntarishiga qadar hozirgi O'zbekiston hududida ham bolshevistik yo'nalishdagi biron ta'qib va nazorat ostida bo'lgan. Turkistondagi sotsial-revolutsionerlar partiyasi esa o'zining "Земля и воля" (1906) va "Молот" (1907–1908) nomli gazetalarini chop qilgan. O'zbek tilida xususiy gazetalar asosan milliy taraqqiy parvarlar organi bo'lib, ularning g'oyalarini eks ettirgan.

5. *Senzura masalasi*. O'lkadagi gazetalar orasida faqatgina rasmiy nashrlar senzuradan ozod bo'lib, xususiy gazetalar doimo ta'qib va nazorat ostida bo'lgan. Bundan tashqari, yashirin ravishda chiqqan gazetalar ham bo'lib, bular siyosiy partiyalarning matbuot organlari edi. Rossiyada 1865-yildagi o'zgarishlar asosida senzura nashr ishlari bo'yicha bosh boshqarmaga o'tkazilgan edi. 1882-yildan senzura yanada mu'rakkablashtirildi va Ichki ishlar vaziri, maorif vaziri va yustitsiya vaziri hamda Sinod ober-prokurori birgalikda har qanday nashrni chop etishni taqiqlash huquqiga ega bo'lgandi.

6. *Mazmun va yo'nalishi*. Turkistondagi gazetalar asosan adabiy-ijtimoiy va siyosiy yo'nalishda bo'lib, o'lkada 1913-yilda bitta humoristik gazeta va Toshkentda "Туркестанский Каракут" gazetasi haftasiga bir-ikki marta chiqib turgan.

Davriy matbuot tarixi asosan ikki xil yondashuvda o'rganilmoqda. Birinchi yondashuv bevosita matbuot tarixiga oid tadqiqotlarga xosdir. Ikkinci yondashuv matbuot organla-

rini tarixiy manba sifatida o'rganishdan iborat bo'lib, bu borada S. Shodmonova, A. Mingnorov va Q. Rahmonovning tadqiqotlarini qayd etish mumkin.

O'zbekistonda mustaqillik davri tarixshunosligida turli ijtimoiy fan vakillari tomonidan jadid matbuotiga katta e'tibor qaratilib, atroficha o'rganilmoqda. Xususan, tarixiy yo'nalishdagi tadqiqotlarda jadidlarning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy qarashlarini o'rganishda davriy matbuotga muhim manba sifatida murojaat etildi. Tarixiy tadqiqotlarda aniq tarixiy mavzu yoki muammolarga oid ma'lumotlarni aniqlash uchun davriy matbuot bo'yicha ilmiy ma'lumotnoma, jurnal va gazetalar ilmiy-bibliografik ko'rsatkichi, O'zR Milliy kutubxonasi nodir nashrilar bo'simi xodimlari tomonidan tayyorlangan kartotekalarga murojaat qilish lozim.

O'rganilayotgan davr matbuotidan manba sifatida foydalananishda chop etilgan maqola janriga e'tibor qaratish muhim. Maqola, xabarlar, felyeton, bibliografiya, korrespon-



"Туркестанские ведомости" gazetası,  
1913-yil 1-oktabr soni

densiya, hisobotlar, taqriz, nekrolog va h.k. Maqolalar bosh maqola, publitsistik va ilmiy yo'nalishda bo'lib, bosh maqola gazetaning yo'nalishini belgilab berishda yordam beradi, unda gazeta tahririyati ichki va tashqi siyosatning turli masalalariga munosabat bildirgan. Bosh maqola birinchi betda ko'rinarli joyga joylashtirilgan. Xabarlar esa ichki ahamiyatga molik va xorijdan kelgan xabarlarg'a bo'linadi. Masalan, "Туркестанские ведомости" gazetasi o'lkadagi xabarlarni va xorijiy xabarlarni alohida ustunlarda ajratilgan holda berib borgan.

Xorijiy xabarlar XIX asrning oxirida Rossiyada vujudga kelgan birinchi yirik telegraf agentligi tomonidan yetkazib berilgan. 1866-yilda Rossiya telegraf agentligi (RTA), 1872-yilda Xalqaro telegraf agentligi (XTA) vujudga kelib, ular jahon mamlakatlarida ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy voqe'a va hodisalar to'g'risida ma'lumot berib borgan. 1882-yilda RTA va XTA o'rniغا 1894-yilgacha faoliyat yuritgan Shimoliy telegraf agentligi ish boshlagan. U Rossiyaning barcha hududida va Yevropaning asosiy siyosiy markazlarida o'z bo'limlariga va muxbirlariga ega edi. Bundan tashqari, Fransiyadagi Gavas, Angliyadagi Reyter, Germaniyadagi Wolf agentliklaridan xorijiy telegrammalar olingan. Rasmiy matbuotda rasmiy xabarlar, buyruqlar, e'londarga katta o'r'in ajratilgan.

Shuningdek, "Туркестанские ведомости" gazetasi Rossiya imperiyasida chiqqan musulmonlar gazetalaridan, hamda Turkistondagi xususiy gazetalardan ham xabarlar olib bosgan.

Felyetonlar satirik va she'riy ko'rinishda bo'lib, o'z davrining dolzarb, keskin masalalarini aks ettirgan. Korrespondensiya esa faqat gazetaga xos bo'lib, u qisqa va tezkor xabarlardan iborat bo'lgan. "Туркестанские ведомости" gazetasi ta'kidlaganidek, o'lkadagi gazetalarining asosiy kamchiliklariidan biri ham Turkiston viloyatlari va uyezdlaridan berilayotgan korrespondensianing kamligida edi.

Bundan tashqari, gazetada “sud zalidan” rubrikasi ostida o’lkadagi sud ishlari haqida axborotlar, yangi spektakllar va yangi chop etilgan kitoblarga taqrizlar hamda ta’ziyalar e’lon qilib borilgan.

Gazetalar aksariyat hollarda katta formatda, 4–6 (ba’zan 8) betdan iborat bo’lib, har bir bet oltita ustunga bo’lingan, sahi-fanining quyi qismida maqola, ocherk, felyeton joylashtirilgan.

Bu davrda gazetalarning daromad manbalaridan biri reklama va e’lonlar edi. “Туркестанские ведомости” gazeta-sida dastlab sotiladigan uylar va dala hovililar to‘g’risidagi xu-susiy e’lonlar kichik hajmda va oz sonda berib borilgan, keyin-chalik esa reklama va e’lonlarda shirkatlar, banklar, maga-zinlar, mehmonxonalar faoliyati, xizmatlari haqida, kundalik ehtiyoj mollari hamda maishiy xizmat turlari haqida tez-tez keng ma’lumotlar berilib borgan. Matbuotni moliyaviy jihat-dan ta’minlashda reklama va e’lonlarning ahamiyati katta bo’lgan.

Gazeta chop etishdan avval noshir o’z dasturini ko’rsatib, avvalo hukumatdan ruxsat olishi zarur edi. Ruxsatnomani Turkiston general-gubernatorligi bergen. Bu dasturiga oid e’lon berilgan, ba’zida uning yo’nalishi va tahririyat a’zolari to‘g’risida, uning bahosi, obuna va sotuv manzili haqida ham xabar beril-gan. Noshirlarning iltimosnomalari va ularda ko’rsatilgan dastur gazeta va jurnallarning vujudga kelishi sharoitini o’rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki davriy matbuot chiqishi to‘g’risidagi e’lonlar tahlili ularning xarakteri va yo’nalishini belgilashda dastlabki ma’lumotlarni beradi.

Ko’p holatlarda rasmiy ruxsat olish uchun berilgan dastur bilan amaldagi dastur o’rtasida juda katta farq bo’lgan. Sen-zura kuchli bo’lgan vaqtida noshirlar ruxsat tegishi uchun o’z dasturlarida turlichayonotlar berishgan. Gazetaning birin-chi sonida e’lon qilingan maqolalar juda katta ahamiyatga ega bo’lgan.

Yangi nashrlarga ruxsat olish jarayoni juda murakkab kechganligi sababli noshirlar va muharrirlar avval chop etilgan boshqa bir matbuotni davom ettirish yo'lini ham qo'llaganlar.

Davriy matbuotda chop etilgan maqola va materiallar asosan mualliflari anonim holatda berilgan. Bundan tashqari, aksariyat mualliflar taxallus yoki ismi va otasining ismining bosh harfini ko'rsatish yoki familiyasini qisqartirib berish bilan cheklanganlar.

Matbuotda chop etilgan ma'lumotlarning haqqoniyigini aniqlash esa, uni boshqa matbuot materiallari va boshqa manba turlari bilan qiyosiy tahlil qilishni taqozo etadi.

Shuningdek, o'lkada chop etilgan gazetalar sahifalarida Turkiston qishloq xo'jaligi muammolariga oid materiallar ham muntazam berib borilgan, ayniqsa paxtachilik va pillachilik haqidagi ma'lumotlar doimiy ravishda chop etilgan edi. Bundan tashqari, chorvachilikning turli sohalariga oid maqolalar muntazam ravishda e'lon qilib borilgan. Qishloq xo'jaligiga yangi iqtisodiy munosabatlarning kirib kelishi hamda bu sohada yangicha texnikaning ishlatila boshlashi, o'tkazilgan tajribalar va ularning natijalari haqida ma'lumotlar tez-tez uchrab turadi.

Ma'lumki, Rossiya imperiyasi hukumatini o'lkaning qazilma boyliklari qiziqtirgan va bu borada keng izlanish ishlari olib borilgan. Shuning uchun ham gazetada turli konlar haqida ma'lumotlar berib borilgan.

Matbuot sahifalarida o'lkaning savdo aloqalarining holatiga doir materiallar chop etilib, ularda ichki va tashqi savdoning ahvoli, eksport va import qilingan mahsulotlar, boj tizimi va o'lkadagi karvonsaroylar, bozorlar to'g'risidagi ma'lumotlar ahamiyatga molikdir, gazetalarda bu haqda batafsil ma'lumotlarni ko'rish mumkin.

Bundan tashqari, gazetada huquqiy masalalarga alohida e'tibor qaratib, qozilik sudi va uning faoliyati, nikoh masalalari, advokatlik ishi to'g'risida qator maqolalar berib borilgan, maqo-

lalar mualliflari Turkistonda xizmat qilayotgan huquqiy organlar amaldorlari bo'lgan. Shuningdek, babs va munozaralarga sabab bo'lgan mavzular yuzasidan mutaxassislarning fikrlari ham joy olgan.

Gazetada ta'lif tizimiga oid masalalar keng yoritib borilgan. Ularda madrasa va maktablar, rus-tuzem maktablari, hunar maktablari, yangi usuldagagi maktablar faoliyati batafsil ochib berilgan.

Gazeta sahifalarida aholiga tibbiy yordam ko'rsatish masalalari ham o'rin olgan. Masalan, shifoxonalar faoliyati, ularning hisobotlari hamda tibbiy xodimlar kuzatuvlari, o'lka shahar va qishloqlaridagi sanitar ahvol, turli yuqumli kasalliklar va ularning oldini olish choralar, dorixonalar faoliyati kabi masalalarga oid maqolalar shular jumlasidan bo'lib, o'sha davrdagi tibbiyot xizmati darajasini o'rganishda katta ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, gazeta turli ilmiy markazlar faoliyati natijalarini ham yoritib borgan. Masalan, meteorologik kuzatuvlar jadvali, Toshkent ximiya laboratoriyasida qilingan tahlillar, turli ilmiy jamiyatlar, xususan arxeologiya havaskorlari to'garagi, tabiiy bilimlar havaskorlari to'garagi, bog'dorchilik jamiyatni va boshqa jamiyatlarning hisobotlari, Turkistonda va Rossiyaning boshqa joylarida o'tkazilgan ko'rgazmalar hamda ularda Turkistonning ishtiroki, teatr hayotiga oid va musiqiy olamga doir xabarlar alohida e'tiborga molik. Umuman, o'lkaning hayvonot va o'simlik dunyosi, geografiyasini o'rganishga kelgan olimlar o'z tadqiqotlari natijalari bilan gazeta o'quvchilarini tanishtirishga harakat qilgan edi. Shunday olimlardan biri, 1868–1871-yillarda Turkiston tabiatini tadqiq qilgan A.P. Fedchenko bo'lib, u Zarafshon vohasi, Iskandarko'l, Qo'qon xonligi, Oloy tog'lari, Qizilqum va Toshkent atroflarini o'rganish natijasida yozgan maqolalarini "Туркестанские ведомости" gazetasini sahifalarida e'lon qilib bordi.

**Buxoro amirligida matbuot.** Buxoroda 1912-yilning 11-martida fors-tojik tilida “Buxoroi Sharif” gazetasining ilk soni chop etildi. Gazetaga Mirhaydar Qosimxo‘ja o‘g‘li Mirbadalov hamda Jalol Yusufzodalar muharrirlik qilgan, noshiri esa K.L. Levin bo‘lgan. 1912-yil 20-apreldan yil oxirigacha gazetaga Jalol Yusufzoda, yil oxiridan Mirhaydar Qosimxo‘ja o‘g‘li Mirbadalov muharrirlik qilgan. Ushbu gazeta deyarli har kuni nashr qilingan. Uning sahifalarida amirlik hayotidagi muammolar ko‘rsatib borildi, yangi usul maktablari targ‘ib qilindi, aholi dunyo voqealaridan xabardor qilib borildi. Shuningdek, ushbu gazetaga ilova tarzida “Turon” nomli gazeta o‘zbek tilida 1912-yil 11-iyulidan chop etila boshlandi. Gazetaning jami 50 ta soni chiqqan bo‘lib, oxirgisi 1913-yilning 3-yanvarida nashr etilgan, uning 14-soniga Mirzo Jalil Yusufzoda muharrirlik qilgan, noshiri esa K.L. Levin bo‘lgan. 15-sondan keyin noshiri “Buxoroi Sharif” shirkati ixtiyoriga o‘tadi. Mazkur sondan boshlab 21-sonigacha Mirhaydarxo‘ja Mirbadalov, 22-sonidan 25-sonigacha Husayn Ibrohimov, 26-sondan oxirigacha yana Mirhaydarxo‘ja Mirabdalov muharrirlik qilgan. Gazeta islom dini rivoji uchun xizmat qilishi va o‘z navbatida islom dini taraqqiyotiga yo‘l beruvchi, rag‘batlantiruvchi din ekanligini alohida ta’kidlagan holda birinchi o‘rinda mактаб va madrasalarni isloҳ qilish masalasini ko‘tarib chiqadi. Masalan, gazetaning 19-avgustdagi 9-sonida No‘sirvon Yovushevning “Usuli ta’lim va tarbiyadan” nomli maqolasida gazetxonlarga usuli savtiyaning nima ekanligi tushuntiriladi.

Xulosa qilib aytganda, XIX asrning oxiri – XX asrning boshlaridagi Turkiston tarixini o‘rganishda davriy matbuot muhim manba hisoblanadi. Unda nafaqat faktik ma'lumotlar, balki ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy masalalarga nisbatan zamondoshlar qarashlari o‘z aksini topgan. Shuningdek, turlicha yo‘nalishdagi gazetalar o‘sha davrda matbuotda mujassam bo‘lgan turlicha qarashlarni jamlagan va tadqiqotchilarga voqealar talqinini

xolisona baholash imkonini beradi. XIX asrning oxiri – XX asrning boshlaridagi gazetalar o'lkani tadqiq etgan olimlar va tadqiqotchilar, mutaxassislar uchun o'ziga xos minbar bo'lib xizmat qildi. Xususiy gazetalarning paydo bo'lishi Turkiston ijtimoiy-madaniy hayotida muhim ahamiyat kasb etdi, ular hukumatga qarshi yo'nalishda bo'lib, o'z sahifalarida madaniy va ma'rifiy masalalar bilan bir qatorda ijtimoiy-siyosiy muammolarni ko'tarib chiqishga ham urindi. Ta'qib va tazyiqlar iskanjasida bo'lgan milliy matbuot esa millatning milliy ongini oshirishda alohida o'rin tutdi. Milliy ziyorolar matbuotning ijtimoiy hayotda tutgan o'rnini yaxshi anglagan holda millatni moddiy va ma'naviy taraqqiyotga yetishtirish uchun muhim chora milliy matbuot ekanligini ta'kidladilar. Ular "Ona tilisiz va milliy matbuotsiz dunyoda hech bir millat taraqqiy va madaniyat yo'liga qadam qo'ymadni" deb uqtirdilar va xalqni gazeta o'qishga chaqiradi, ya'ni bu bilan xalqning ijtimoiy ongini oshirishga harakat qiladi. Millatni bir yoqadan bosh chiqarib, taraqqiyot yo'lida birlashishga chaqiradi va bunda vositachi gazeta bo'lishiga ishonadi. Bu davr gazetalari sahifalaridagi muammolar yuzasidan olib borilgan bahs va munozaralar tadqiqtchilar uchun ko'p masalalarni oydinlashtirishga yordam beradi.

**Vizual manbalar.** Bu davrda voqeа va hodisalarni, dunyonи fiksatsiya qilib qo'yishning yangi shakli sifatida analog foto suratga olish vujudga keldi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida surat (fotografiya) mustamlakachilik qarashini o'zida aks ettirgan, chunki suratlar o'lkada o'z maqsadlariga va o'z qarashlariга ega bo'lgan rusiyabon kishilar tomonidan olingan edi. Bosisib olingan hududning suratlardagi eng to'liq obrazи "Turkiston albomi"da yaratilgan edi. Turkiston general-gubernatorligining birinchi general-gubernatori general Konstantin Petrovich fon Kaufman (1818–1882) buyrug'iiga asosan tayyorlangan "Turkiston albomi"da 1200 dan ortiq surat, shuningdek, arxitektura rejaları, akvarelda chizilgan rasm va xaritalar o'rin olgan.

1871–1872-yilda tayyorlangan mazkur to‘plam 4 qism va 6 томдан iborat bo‘lib, “Arxeologiyaga oid qism” ikki томни, “Etnografiyaga oid qism” 2 томни, “Hunarmandchilikka oid qism” 1 томни va “Tariixa oid qism” 1 томни tashkil etgan. Albomning arxeologiya va etnografiyaga oid qismi sharqshunos olim A.L. Kun tomonidan tayyorlangan. Hunarmandchilikka doir materiallarni agronom M.I. Brodovskiy va botanik I.I. Krauze, bo‘yoqchilikka doir materiallarni V.P. Ivanov, harbiy tarixga oid materiallarni tayyorlashda rotmistr M.A. Terentev va boshqalar ishtirok etdi. “Turkiston albomi” suratlari N.N. Nekoroshev tomonidan bajarilgan.

“Turkiston albomi” kirish so‘zini yozgan A.L. Kun uning maqsad va vazifalari haqida quyidagilarni ta’kidlagan edi: “Rus qo’shinlari mamlakatni egallaganicha Sirdaryoning o’rta oqimida joylashgan, Qo’qon va Buxoro xonliklariga qarashli bo’lgan yerlar haqida juda cheklangan ma’lumotga ega edik... Rus qo’shinlari Yevropa sivilizatsiyasi uchun O’rta Osiyoning katta qismini oshib berdi. Toshkentning, undan keyin Samarqandning bosib olinishiga juda katta qiziqish bilan qarayotgan rus tadqiqotchilariga O’rta Osiyo bilan har tomonlama tanishish imkonini berdi. Umumiyligi qiziqishni qoniqtirish va o‘quvchilarni qo’shib olingan hududlar bilan tezlikda tanishtirish maqsadida Turkiston general-gubernatori K.P. fon Kaufman buyrug’iga binoan boshqa tadbirlar kabi suratlar albomi tashkil etildi. Albomning asosiy vazifasi quyidagilarni yaqqol ko’rsatish edi: 1) o’lkada saqlanib qolgan qadimiy yodgorliklarni (arxeologiya qismi); 2) aholining zamonaviy hayotini – guruhlari, diniy qarashlari, urf-odatlari, kiyimlari va turar joylari (etnografiya qismi); 3) o’lkaning sanoat, hunarmandchiligi (hunarmandchilikka oid qism); 4) ruslarning harbiy harakatlari o’tgan joylar va O’rta Osiyoga yo’l ochgan shaxslar portreti (tarixiy qism)”.

Arxeologiyaga oid qismining birinchi tomidagi Sirdaryo viloyatining tarixiy obidalari, shaharlar, ularning ko’rinishiga



**“Turkiston albomi”**

oid suratlar o'rin olgan. Ikkinci tomi esa asosan Samarqandning qadimiy obidalari tasvirlangan suratlar va rasmlardan iborat.

Hunarmandchilikka oid qismida esa shahar aholisining, asosan savdogarlar va hunarmandlarning hayoti tasvirlangan suratlar o'rin olgan. “Tarixga oid qismi”da rus generallari, zabitlari suratlari berilgan, ayniqsa, O'rta Osiyon bosib olishda alohida o'rin tutgan, ordenlar bilan mukofotlangan zabitlarga alohida e'tibor qaratilgan. Bundan tashqari, janglar o'tgan joylarning surati ham berilgan.

Ta'kidlash joizki, “Turkiston albomi”da va boshqa surat kolleksiyalaridagi rasmlarda Edvard Said yozganidek, oriyentalizm mavjud edi. Ularda “bizniki” va “ularniki” orasida aniq chiziq tortilib, O'rta Osiyo jamiyatining begonaligi va o'zgachaligiga alohida urg'u berilgan. Umuman olganda boshqa madaniyat noodatiy bo'lgan tomoshabinni hayratlantirish maqsadida qadimiy arxitektura yodgorliklari, qishloq va shaharlar ko'rinishi, mahalliy aholining urf-odatlari, kiyim-

lari, musiqa asboblarining suratlari namoyish qilindi. Bundan tashqari, Imperiya vakillari tomonidan yaratilgan suratlar, Edvard Said yozganidek, Rossiyaning O'rta Osiyo ustidan hukmronligini va ustunligini ko'rsatishga xizmat qilgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida o'lka xotin-qizlarining ijtimoiy hayoti haqida tasavvur hosil qilishda vizual manbalar ham o'ziga xos o'rinni egallaydi. Mazkur davrga xos vizual manbalar mahalliy kishilar tomonidan hamda keyinchalik o'lkaza kelgan rossiyalik va yevropalik kishilar tomonidan yaratilgan. Jumladan, "Ash'ori nisvon" kitobida Ibrohim Davron chizgan bir nechta realistik suratlar mavjud. Shulardan biri "Bir shoirai najiba" surati bo'lib, bu bir shoiraning asl suratimi bunisi aytilmagan, lekin tashqi va ichki go'zallikni o'zida jamlagan ayol surati aks etgan. Kitobda bundan tashqari "Hasratli shoira", "Xayol olamida", "Kitob o'qib yig'lagan xotin", "O'sh (Imom ota vodiysida) bir shoiraning mozori", shoira Nozihaning "Ohangi oshiqona" sarlavhali she'ri mazmuniga qarab chizilgan "Skripka ushlagan qiz" surati bor. O'lka hayotiga fotosuratlarga olish kirib kelishi bilan xotin-qizlar ham undan chetda qolmadidi. Ular ham turli holatlarda suratga tusha boshladilar. Endi ularni miniyatyrularda chizibgina qolmasdan, suratlarga olish ham paydo bo'ldi.

**Statistik materiallar.** Statistika – boshqaruv tizimining turli darajalarida boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish maqsadida qayta aloqa o'rnatish uchun to'plashgan ma'lumotlardir. Statistik materiallar tarixiy manbalarning muhim turlaridan biri hisoblanadi.

XIX asrning 70-yillarida o'lka tabiatni, iqtisodi va tarixi bo'yicha materiallarni to'plashda 1868-yilda tashkil etilgan Turkiston statistika komiteti katta hissa qo'shdidi. Uning raisi A.K. Geyns bo'lib, 1869-yilda o'lkadan ketishi bilan komitet raisi sifatida Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori, kotibi esa N.A. Mayev bo'ldi.

1872-yilda dastlabki statistik to'plam "Turkiston o'lkasi statistikasiga doir materiallar" ("Материалы для статистики Туркестанского края") nomi ostida chop etildi. Komitet tomonidan "Yilnomalar" ("Ежегодники") nashr qilina boshlandi. Unga arxeologiya, tarix, etnografiya, geografiya, foydali qazilmalar, iqtisod va statistikaga oid (sanoat, hunarmandchilik, qishloq xo'jaligi, savdo, yo'llar, sog'liqni saqlash, ta'lif) materiallar kiritildi.

Ushbu "Materiallar" dastlab demografiyaga oid statistikadan iborat bo'lsa, uning keyingi nashrlarida ko'p mualliflar ishtirok etib, o'lkashunoslik to'plamiga aylandi.

1886-yildagi "Turkiston o'lkasini boshqaruv haqidagi Nizom"ga ko'ra, 1887-yil yanvaridan o'lkada viloyat statistika komitetlari – Sirdaryo (markazi Toshkentda), Samarqand (Samarqand), Farg'ona (Yangi Marg'ilon) va Zakaspiy (Ashxobod) viloyatlarida tashkil etildi (1887-yil 1-yanvarda viloyat statistika komitetlari tashkil etilishi bilan Turkiston statistika komitetining faoliyati tugatildi).

Viloyat statistika komitetlari tomonidan viloyat obzorlari chop etilib, ularda iqtisod, sug'orish tizimi, yo'llar, aholi va uning mashg'ulotlari, soliqlar, ma'muriy tuzilishi, sog'liqni saqlash va ta'lif, metereologik kuzatuvlar haqidagi ma'lumotlar jamlangan.

100 ga yaqin obzorlar, jumladan, "Sirdaryo viloyati obzori" ("Обзоры Сырдарьинской области") (obzor – umum-lashtiruvchi qisqacha ma'lumot) 1886–1913-yillar uchun (Toshkent, 1887–1916), "Farg'ona viloyati obzori" ("Обзоры Ферганской области") (1904-yildan ular "Статистические обзоры Ферганской области" deb nomlana boshlangan). 1884–1913-yillar uchun (Yangi Marg'ilon–Skobelev, 1889–1916), "Yettisuv viloyati obzori" ("Обзоры Семиреченской области"), 1892–1912-yillar uchun (Verniy, 1893–1914), "Zakaspiy viloyati obzori" ("Обзоры Закаспийской области"), 1891–1914-yillar uchun (Ashxobod, 1893–1916) chop etilgan (1882–1890 va 1890–1896-yillarda "Obzor"larning 2 ta yig'ma tomi chop

etilgan bo'lib, unga har yilgi ma'lumotnomalarga kirmagan qo'shimcha statistik ma'lumotlar qo'shilgan).

Bundan tashqari, viloyat obzorlaridan boshqa to'plamlar ham nashr qilingan. Masalan, Sirdaryo viloyati komiteti tomonidan "Sirdaryo viloyati statistikasi uchun to'plamlar" ("Сборники для статистики Сырдарьинской области") (Toshkent, I–XIII, 1891–1907)ning 13 ta nashri, shuningdek, "Turkiston o'lkasi adres-ma'lumotnomasi" ("Адрес-справочник Туркестанского края с календарем на 1910 год") chop etilgan.

Samarqand viloyati statistika komiteti tomonidan M. Virskiy tahriri ostida 1890-yilda "Samarqand viloyati statistikasi uchun materiallar to'plami" ("Сборник материалов для статистики Самаркандинской области") chop etilgan va unda 1887–1888-yillarga doir ma'lumotlar, shuningdek, o'lakashunoslik xarakteridagi bir nechta maqola chop etilgan. Shuningdek, komitet "Samarqand viloyati ma'lumotnomma kitobi" ("Справочная книжка Самаркандинской области") (1893–1914) nomli to'plamning 10 ta nashrini chop etgan.

Zakaspiy viloyati statistik komiteti faqat "Zakaspiy viloyati adres-taqvimi" ("Адрес-календарь Закаспийской области") (Ashxobod, 1902) va "Zakaspiy viloyati adres-ma'lumotnomasi" ("Адрес-справочник по Закаспийской области на 1915 г.") (Ashxobod, 1915) chop etgan. Farg'ona viloyati statistika komiteti "Farg'ona viloyati yilnomasi" ("Ежегодник Ферганской области") (Yangi Marg'ilon, I–III, 1902–1904) 3 ta tomini va "Farg'ona viloyati adres ma'lumotnomma kitobi" ("Адресная справочная книга Ферганской области") (Skobelev, 1912)ni nashr qilgan.

Statistika komitetlari nashrlarida vaqf va vaqf hujjatlari doir, sharq qo'lyozmalari tarjimalari va ularga izohlar, folklor materiallar, hunarmandchilikka doir materiallar chop etilgan. Ushbu nashrlarda keltirilgan ma'muriy punktlar va aholi yashash joylari, fuqarolik va harbiy muassasalarining shax-

siy tarkibi ro'yxati, o'quv muassasalari haqidagi ma'lumotlar tadqiqotchilar uchun katta ilmiy qimmatga egadir. Statistika komitetlari nashr qilgan materiallar XIX asr oxiri – XX asr boshlari Turkiston tarixi bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar uchun muhim manbalardan bo'lib, ularni boshqa manbalar bilan qiyoslagan holda o'rganish lozim.

*Turkistonda demografik statistika.* Turkiston aholisi haqida statistik ma'lumotlar toplash 1867-yildan Turkiston general-gubernatorligi tashkil qilingandan so'ng boshlangan bo'lsa-da, XIX asrning 80–90-yillaridagina o'lkada demografiyaga oid bir qancha to'plamlar nashr qilindi. Aholini hisobga olish birinchi o'rinda boshqaruvin tizimi, ma'muriy-hududiy chegaralash, aholidan soliq yig'ish kabi ishlarni amalga oshirish maqsadida qilingan. Turkistonda aholini hisobga olishda o'z xususiyatlariga ega bo'lishiga qaramay, u Rossiya imperiyasi aholini ro'yxatga olish tizimi bo'yicha amalga oshirildi.

XIX asrning 60–90-yillarida Rossiya imperiyasi hududida aholini ro'yxatga olish krepostnoy huquq bekor qilinishi va islohotlar o'tkazilishi bilan bog'liq edi, chunki yangi ijtimoiy voqelik natijasida eski ro'yxatga olish tizimi davlat talablariga javob bermay qo'ygan. Eski hisobga olish tizimida reviziya qilish mobaynida tuzilgan soliq to'lovchilar ro'yxatga olingan. Ular aholi haqida aniq ma'lumotlar bera olmaydi. Rossiya-Turkiya urushi va byurokratik qog'ozbozlik tufayli aholini ro'yxatga olish 1897-yilga qolib ketdi. Shuning uchun hukumat aholi haqidagi statistik ma'lumotlarni boshqa manbalardan, xususan, ma'muriy-politsiya hisobi, mahalliy ro'yxatga olish va metrik kitoblarda bitilgan aholining tabiiy harakatini hisobga oluvchi cherkov hisobidan foydalandi.

1858–1897-yillarda Rossiyada aholining soni va uning tarkibi haqidagi ma'lumotlarning asosiy manbasi bo'lib ma'muriy-politsiya hisobi xizmat qildi. 1897-yilgacha Rossiya imperiyasi hududida 6 marta ma'muriy-politsiya hisobi – 1859, 1864, 1868,

1871, 1886 va 1896-yil 1-yanvarigacha bo'lgan holat bo'yicha o'tkazilgan, unda politsiya aholining ro'yxatiga qarab mamlakat aholisi soni aniqlangan. Ushbu ro'yxatlar har xil bo'lib, dvoryanlar, ruhoniylar, meshchan va dehqonlar turli instansiylalar tomonidan hisobga olingan.

Turkiston o'lkasida ma'muriy-politsiya hisobi o'z xususiyatiga ega bo'lib, u aholidayan soliq yig'ish tizimi bilan bog'liq edi, ya'ni Rossiyaning Yevropa qismidagi kishi boshiga emas, balki xo'jalikdan soliq to'langanligi sababli uy va o'tovlar ro'yxatga olingan. Ularni dastlabki tizimli hisobga olish tashkiliy komissiyalar tomonidan amalga oshirilib, ularning vazifalariga volostlarda mahalliy boshqaruviniz tizimini tashkil etish va mahalliy aholidayan olinadigan soliqlarni belgilash kiritilgan.

1867-yil dekabridan 1869-yil martigacha tashkiliy komissiyalar Sirdaryo viloyati uyezdlarida ish olib bordi, komissiya a'zolari qishloq va ko'chmanchilar manzilini aylanib chiqishgan. 1872-yilda ular tomonidan Zaravshon okrugida, 1876–1877-yillarda Farg'ona viloyati va Amudaryo bo'limi hisob ishlarini amalga oshirdi.

"Sirdaryo viloyatining 1886-yilgi obzori"da (1887) keltirilishiha, keyinchalik uy va o'tovlar aholi yerlarini hisobga olish mobaynida har uch yilda amalga oshirilib, quyi ma'muriyat boshliqlarini saylash vaqtiga to'g'irlangan. Mazkur hisob-kitob davomida uy xo'jaliklari egalari tekshirilgan va to'ldirilgan. Keyin uylar va o'tovlar soni "5" ga, ya'ni uy xo'jaliklari a'zolarining taxminiy o'rtacha soniga ko'paytirilgan, shunday qilib, Turkiston general-gubernatorligi aholisining soni aniqlangan.

Ushbu hisob-kitoblar orasida mahalliy boshqaruvdag'i amaldorlar yordamida uy xo'jaliklari ro'yxatiga o'zgartirishlar kiritishga harakat qilingan. Lekin bu harakat Turkiston o'lkasi soni haqida aniq ma'lumotlar toplashni ta'minlay olmagan. Masa-lan, 1897-yil 28-yanvarida Farg'ona viloyatida 1.572.214 nafar kishi ro'yxatga olingan bo'lsa, mahalliy amaldorlar tomonidan

shu yilning 1-yanvarida faqat 1.184.700 nafar kishi ro'yxatga olingan, ya'ni ular tomonidan 387.514 nafar kishi kam hisoblangan (24,6%). Sirdaryo va Samarcand viloyatlarida ham shu holatni kuzatish mumkin bo'lgan.

O'lka aholisida tug'ilganlik guvohnomasi bo'limgaganligi sababli aholining tabiiy harakati haqidagi ma'lumotlar volost boshliqlaridan yozma so'rovnama o'tkazib aniqlangan, volost boshliqlari uyezd boshliqlariga xabar yetkazishlari kerak bo'lgan. Ammo volost boshliqlari va ularga bo'ysunuvchi ovul boshliqlari ularni qayd etib bormaganligi tufayli tug'ilganlar, vafot etganlar va nikohi qayd etilganlar to'g'risida aniq ma'lumotga ega bo'limgan. Bundan tashqari, ushbu taxminiy hisob-kitoblarni ham bir qancha uyezdlar o'z vaqtida jo'natmagan yoki umuman jo'natmagan. Shuni ta'kidlash joizki, ba'zi viloyatlarda yashovchi yarim ko'chmanchi aholini ro'yxatga olish va tabiiy harakatini hisobga olish murakkab bo'lgan. Natijada so'rovnama asosida to'plangan ma'lumotlar haqiqatga ancha zid va tarqoq holda bo'lganligi tufayli o'lka ma'muriyati ularni deyarli chop etmagan.

Aholini ro'yxatga olishning yana bir turi alohida bir joy aholisini ro'yxatga olish hisoblangan. Jumladan, 1869–1889-yillar orasida 79 marta turli joylarda ro'yxatga olishlar amalga oshirilgan. Turkistonda lokal ro'yxatga olish ko'pincha Toshkent shahrida amalga oshirilgan va bu mazkur shaharning general-gubernatorlik ma'muriy markazlik mavqeyi bilan bog'liq bo'lgan.

Toshkentda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish Rossiya imperiyasining boshqa joylariga nisbatan o'z xususiyatiga ega bo'lib, shaharning "eski" va "yangi" qismida alohida amalga oshirilgan. Jumladan, 1871–1874, 1887, 1890-yillardagi aholini ro'yxatga olish "eski" shaharda olib borilgan bo'lsa, 1871, 1875, 1881 va 1893-yillarda "yangi" shaharda bir kunlik aholini ro'yxatga olish ishlari amalga oshirilgan. 1871–1874-yillardagi olib borilgan ro'yxatga olishda ma'muriyat amaldorlari aholini, ularning mol-mulkini va kasbini ro'yxatga olgan.


1887-yilda Toshkent shahar boshlig'i buyrug'iga binoan uchastka oqsoqollari shaharning Eski shahar qismida birinchi marta aholini kishi boshiga ko'ra ro'yxatga olgan. Erkaklar har bir daha masjidlarida to'plangan va oqsoqollar ularni nommamon qayd etgan hamda olingan ma'lumotlar maxsus daftarnarga yozib borilgan.

Ammo, bu holatda ham Eski shahar aholisi to'liq hisobga olinmagan, ya'ni ro'yxatga olish natijalarida 81.504 nafar kishi ro'yxatga olingan bo'lsa, 1885-yildagi ma'muriy-politsiya hisobiga ko'ra aholi soni 121.470 nafarni tashkil etgan. Shuningdek, 1890-yilda ham Eski shahar aholisining soni 96.541 nafar ekanligi qayd etilgan, ya'ni bunda ham noaniqlik kuzatiladi.

Shu bilan birga Toshkent shahrining Yangi shahar qismida ma'muriyat to'rt marotaba bir kunlik aholini ro'yxatga olishni amalga oshirishga harakat qilgan (1871, 1875, 1881 va 1893). Ammo, faqat 1893-yilda bir kunlik aholini ro'yxatga olish amalga oshirilgan. Dastlabki ikkita ro'yxatga olish – 1871 va 1875-yil-

#### ТІКІҮ НАРОДНОСТЕЙ ТУРКІСТАНСКОГО КРАЯ

536 с.кн.



**Turkiston o'lkasi o'zbeklari, "Turkiston albomi"**

larda bir necha kun davomida amalga oshirildi. 1881-yil 28-oktabrda o'tkazilishi rejalahtirilgan ro'yxatga olish ham yaxshi natija bermadi. Aksariyat uy egalari to'liq bo'lмаган va noaniq ma'lumotlar berishganligi natijasida ularni bir necha kun davomida tekshirishga to'g'ri keldi. Shunga qaramasdan Toshkentning Yangi shahar qismi bo'yicha olingan ma'lumotlar nisbatan to'liq va haqiqatga to'g'ri keladi.

1892-yil 28-noyabrda Samarcand shahrining Zangi shahar qismida ham aholi ro'yxatga olindi va bunda ham turli statistik ma'lumotlar yig'ildi.

Xulosa qilib ta'kidlash joizki, XIX asrning 60–90-yillarida Toshkent va Samarcand shaharlarining Yangi shahar qismlarida amalga oshirilgan ro'yxatga olish ishlaridan tashqari Turkiston o'lkasining Sirdaryo, Samarcand va Farg'ona viloyatlarida o'tkazilgan barcha aholini ro'yxatga olish ishlari aholining soni, tarkibi va tabiiy harakati to'g'risida aniq ma'lumotlar bera olmadi. Bunga sabab esa aholini kishi boshiga alohida hisobga olmaslik, tug'ilganlik to'g'risida guvohnoma mavjud emasligi va ro'yxatga olishning yaxshi tashkil etilmasligi edi. Ta'kidlash joizki, mustamlaka ma'muriyati boshqaruvni takomillashtirish, mahalliy aholidan soliq toplash va o'lkani yanada mustamlakaga aylantirishni davom ettirish rejalarini amalga oshirish maqsadida aholi haqida turli ma'lumotlarga ega bo'lishdan manfaatdor bo'lganligi sababli aholini ro'yxatga olishda yo'l qo'yilgan kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etish uchun harakat qildi. Ammo, buning uchun qat'iy tadbirlar, jumladan kishi boshiga hisob-kitob qilish va tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomalarni joriy qilish zarur edi. Biroq bu ishlarni amalga oshirilmadi. Shuning uchun ham 1897-yilda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olishgacha bo'lgan davrda o'lka aholisi haqida aniq ma'lumotga ega bo'linmadi. Turkistonda Rossiya imperiyasi hukumati tomonidan to'plangan statistik materiallar XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi Turkistondagi demografik holatni o'rGANISH uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

**Savol va topshiriqlar**

1. Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida Turkiston o'lkasida qanday huquqiy hujjatlar amalda bo'lgan va ularning manbashunoslikdagi ahamiyati?
2. Manbaviy tasnif qoidalariga ko'ra, Turkiston matbuotini qanday tasniflash mumkin?
3. Arxiv shaxsiy fondlari hujjatlarining bu davr o'lka tarixini o'rghanishdagi ahamiyati nimadan iborat?
4. Turkistonda xususiy gazetalarning vujudga kelish sharoitlari, ularning muharrirlari, gazeta faoliyatida ishtirok etgan mualliflar haqida gapirib bering.
5. XX asr boshlarida Buxoro amirligida qanday gazetalar nashr etilgan?
6. XIX asr oxiri – XX asr boshlari Turkiston tarixiga oid qanday vizual manbalarni bilasiz?
7. "Turkiston albomi" qanday qismlardan tashkil topgan?
8. Turkiston tarixiga oid statistik manbalar xususida so'zlab bering.
9. Turkistonda jadidchilik harakati namoyondalari tomonidan qanday davriy nashrlar chop qilingan?

**Manbalar va adabiyotlar**

1. Абашин С.Н. Власть и фотография: визуальная презентация в имперской рамке // Неприкосновенный запас 2012, 4(84).
2. Abduazizova N. Milliy jurnalistik tarixi (Genezis va evolyutsiya). Birinchi jild. – T.: Sharq, 2008.
3. Abduazizova N. O'zbekiston jurnalistikasi tarixi. (1870–2000) – T.: Akademiya, 1999.
4. Абдурахимова Н.А., Рустамова Г. Колониальная система власти в Туркестане во второй половине XIX – первой четверти XX в. – Ташкент: Университет, 1999.
5. Alimova D.A., Rashidova D.A. Mahmudxo'ja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri. – T.: Akademiya, 1999.
6. A catalog of Arabic-Script documents from Samarcand museum. Samarcand, 2012.
7. A notable exception to this trend is the work of Mathieu Tillier. See, e.g., his "Judicial Authority and Qaḍīs' Autonomy under the

- Abbasids," *Al-Masaq: Journal of the Medieval Mediterranean* 26.2 (2014), 119–31.
8. *Бабаджанов Б., Мухаммадаминов С.* Собрание Фетв по обоснованию зикра джахр и сама, Алматы-Ташкент, Дайк Пресс, 2008.
  9. *Do'stqorayev B.* O'zbekiston jurnalistikasi tarixi. Darslik. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009.
  10. *Dikovitskaya M.* Central Asia in Early Photographs: Russian Colonial Attitude and Visual Culture // Uyama T. (Ed.). Empire, Islam, and Politics in Central Eurasia. Sapporo: Slavic Research Center, Hokkaido University, 2007. P. 104–108.
  11. *Jalolov A., O'zganboyev X.* O'zbek ma'rifatparvarlik adabiyotining taraqqiyotida vaqtli matbuotning o'rni. – T.: Fan, 1993.
  12. *Isogai, Kimura.* Seven fatwa documents from early 20th century Samarcand, The function of Mufti in the Judicial proceedings adopted at Central Asian Islamic court, Annals of Japan Association for Middle East Studies, No. 27, 1, 2011, 262.
  13. *Муминов А.* Значение фетв в изучении региональной формы бытования ислама / Uzbek-Japanse Scientific cooperation: History and Culture of Central Asian Sources and Methodological issues, Tashkent International conference 2009, 16–17.
  14. *M. Khalid Masud, R. Peters and D. Powers.* "Qadīs and Their Courts: An Historical Survey," in Dispensing Justice in Islam: Qadīs and Their Judgments, ed. M. Khalid Masud, R. Peters, and D. Powers (Leiden: Brill, 2006): 1–44.
  15. *Paolo Sartori.* Visions of Justice: Sharī'a and Cultural Change in Russian Central Asia (Leiden: Brill, 2016), 40–103.
  16. *Sultonov O'.* Toshkent vaqf xo'jaligida an'analar, islohotlar va muammlar (XVI–XX asr boshlariga oid tarixiy hujjatlar asosida), – T., 2016.
  17. *Shodmonova S.* Turkiston tarixi – matbuot ko'zgusida. – T.: Yangi nashr, 2011.
  18. *Eshonova Sh.* O'rta Osiyoda qozilik sudsari faoliyatining huquqiy asoslari (XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning 20-yillari). – T., 2010.
  19. *Qosimov B.* Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. – T.: Ma'naviyat, 2004.
  20. O'zbekistonning yangi tarixi. I jild. – T.: Sharq, 2000.

## 13-MAVZU: O'ZBEKISTON TARIXIGA OID XORIJY MANBALAR (XIX ASR IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARI)

*Xorijiy sayyohlar safarnomalari. "Turkiston to'plami"* ("Туркестанский сборник") – tarixiy xorijiy nashrlar jamlanmasi. "Turkiston to'plami"ning yaratilish tarixi. "Turkiston to'plami"ning tarkibiy tuzilishi va mazmuni.

### **Xorijiy sayyohlar va tadqiqotchilar safarnomalari.**

O'rta Osiyo, xususan, O'zbekiston tarixini yorituvchi tarixiy manbalar turi nihoyatda ko'p va serqirra bo'lib, fors, arab tillaridagi mahalliy qo'lyozmalar, qadimgi yunon, rim, xitoy, so'g'd, turkiy tillaridagi manbalar, arxiv ma'lumotlari va matbuot materiallari, xotiralar shular jumlasidandir.

O'zbekiston tarixiga oid manbalarning yana bir katta mintaqaga XVII asrdan boshlab tashrif buyurgan sayyohlar safarnomalari bo'lib, ularning katta qismi rus, ingliz, nemis, fransuz tillarida yozilgan.

Mazkur mintaqaga qiziqish ayniqsa XIX asrda kuchayib, bu davrda xorijdan turli maqsadlarda ko'plab ekspeditsiyalar uyushtirildi, ko'plab tadqiqotchilar, sayyohlar tashrif buyurdilar. Ularning asarlari, ya'ni safarnomalarni shartli ravishda ikkiga bo'lish mumkin:

1. Sayohat natijalarini birlashtirgan safarnomalar.
2. Ilmiy ekspeditsiyalar xulosalari.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, mintaqaga tashrif buyurgan sayohatchilarining tashriflari tasodifiy bo'lmay, albatta aniq maqsadlarni ko'zlagan holda, maxsus topshiriq va obyektlarga yo'naltirilgan holda, katta mablag'lar ajratilib amalga oshirilgan. Dastlab alohida shaxslar, keyinchalik esa ekspeditsiya gu-

ruhlari tomonidan amalga oshirilgan tashriflar avvaliga sayohat sifatida, keyinchalik esa ilmiy safar sifatida qayd etilgan. Ularni amalga oshirish uchun hukumat ruxsatnomasi, ilmiy jamiyatlar, aksariyat hollarda maxsus Geografiya jamiyatlarining yo'llanmalari tayyorlangan, mahalliy hukumat tomonidan kuzatuvchilar ajratilgan.

Xorijiy sayyoohlар va tadqiqotchilarining safar va ekspeditsiyalari davomida aniqlagan ma'lumotlari, taassurotlari asosida ingliz, nemis va fransuz tillarida tadqiqot hamda memuarlar chop etilgan. Bu asarlar O'zbekiston tarixiga oid muhim manbalar hisoblanadi, zero ularda mintaqqa tarixi, geografiyasi, tabiatи, xalq turmush tarzi, madaniyati, shaharlar haqida juda qiziqarli ma'lumotlar qayd etilgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida o'lkaga tashrif buyurgan xorijiy sayyoohlар kelib chiqishiga qarab bir necha guruhga bo'linadi:

1. Rossiyadan tashrif buyurgan sayyoohlар.
2. Yevropadan tashrif buyurgan sayyoohlар.
3. Osiyo mamlakatlaridan kelgan sayyoohlар.

Rossiyadan tashrif buyurgan sayyoohlар asosan Rossiya tajovuziga qadar kelgan bo'lsalarda, ular rasmiy missiya bilan kelganlar va mintaqadagi ichki vaziyat, salohiyat hamda xalqlarni siyosiy maqsadlarda o'rganganlar. Ularning asarlari rus tilida chop etilgan, shu sababli ularning ma'lum qismi tadqiqotlarda tahlil etilgan.

Mintaqaga tashrif buyurgan xorijiy sayyoohlар qatorida rus sayyoohlari va tadqiqotchilarining asarlari alohida o'rinnegallaydi. Zero bu sayohatlar oddiy kuzatuvlar emas, balki tadqiqotchi olimlar tomonidan amalga oshirilgan o'ziga xos ilmiy tadqiqotlar bo'lib, mintaqqa tabiatи, iqlimi, tabiiy resurslari, o'simlik va hayvonot dunyosini o'rganishda muhim rol o'yinaydi. Ularning aksariyati "Rus geografiya jamiyati" tomonidan uyushtirilgan edi.

Rus sayyohi va geografi N.M. Prjevalskiy 1876–1885-yillarda Markaziy Osiyoga 4 marta sayohat uyuşdırıldı, o'z safar taas-surotlari va tadqiqotlari asosida mintaqalarning relyefi, iqlimi, daryo va ko'llari, o'simlik va hayvonot dunyosini tavsiflab bergan. Markaziy Osiyodagi asosiy tog' tizmalarining yo'nalishini aniqlagan. Ekspeditsiyalar davrida zoologiya, botanika va mineralogiyaga doir kolleksiya, mahalliy xalqlarga va ularning turmushiga oid etnografik ma'lumotlar to'plagan. Rossiya imperiyasi O'rta Osiyo hududlarini bosib olishda N.M. Prjevalskiy to'plagan ma'lumotlardan unumli foydalangan. Uning asarlari ko'pgina xorijiy tillarga tarjima qilingan. Markaziy Osiyo va Alyaskadagi bir nechta tabiiy obyektlar, bir qancha hayvon va o'simlik turlari Prjevalskiy nomi bilan atalgan.

"Rus geografiya jamiyatı" raisi P.P. Semenov Tyan-Shanskiy tomonidan mintaqaga juda ko'p sayohat va ekspeditsiyalar uyuştırıldı. Uning sayohatlari va tadqiqotlari asosida yozilgan asarlarda mintaqalarning tabiatini, geografiyasi, tog' tizmalari, aholisi, xo'jaligi, iqlimi haqida (metereologik kuzatuvlarga asoslangan) qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lib, o'sha davr bo'yicha muhim manba hisoblanadi.

Mintaqaga sayohat qilib uning tabiatini churur o'rgangan rus tadqiqotchilaridan yana biri N.A. Severtsov edi. U Sirdaryo, Chuy daryolari oralig'i, Tyanshan tog'lari, Issiqko'l ko'li, Xo'jand uyezdiga 1857–1858, 1864, 1865–1868-yillarda uyuştirган sayohatlari asosida qator yirik asarlar yozib qoldirgan. Ushbu asarlarda mintaqalarning tabiatini zoologiya, geologiya, orfografiya, hayvonot dunyosiga oid qimmatli ma'lumotlar qayd etilgan.

Yana bir rus tadqiqotchisi I.V. Mushketovning mintaqaga sayohatlari davomida o'lkaning geologik xaritasi, tabiatning ilmiy tafsifi yaratilishiga asos bo'ldi.

Bulardan tashqari rus tadqiqotchilarini tomonidan turli yo'nalishlarda juda ko'p ilmiy safar, ekspeditsiyalar amalga os-hirildi. Ularning natijalari sifatida chop etilgan asarlar bugungi kunda muhim ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, mintaqalarning tarixi, ta-

biati, iqtisodi, tabiiy shart-sharoiti, iqlimi, geologiya, mineralogiya, seysmologiya, arxeologiya, gidrologiya, qishloq xo'jaligi zohalari haqida muhim ma'lumotlarga ega.

Olkaga katta qiziqish bilan tashrif buyurgan, mintaqaga aholisi hayotini yoritgan sayyoohlarni tarixiy manba sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Bu avvalo sayyoohlarning mutlaqo boshqa mamlakat vakili bo'lganligi, ularda siyosiy maqsadlar emas, o'lkani o'rganish, bilishga qiziqish, ma'lumotga ega bo'lish istagi ustunligi sababli masalaga nisbatan xolis yondashuv, kundalik hayot tafsilotlarining ko'pligi, mahalliy mentalitet va turmush tarziga alohida e'tibor qaratilganligi, shaxsiy kuzatuv va fikr-mulohazalarga asoslanganligi, sayyoohlarni tarixiy voqe'likni o'sha davr zamondoshi sifatida tahlil etganligi, mahalliy hayotni Yevropa yoki boshqa mamlakatlar hayoti bilan taqqoslanishi, mintaqadagi bir hududdan ikkinchi hududdagi tafovutlarni shaxsiy kuzatuv asosida tahlil etilishi bilan ajralib turadi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, so'nggi o'rta asr manbalarining katta qismi saroy tarixchilar qalamiga mansubligi sababli ularda hukmdor va amaldagi siyosat hamda mamlakat hayoti haqida xolisona fikrlar kam uchraganligi sababli sayyoohlarning safarnomalari bu boradagi axborotlarni to'ldiradi.

Olkaga tashrif buyurgan sayyoohlarni safar yo'nalishlariga qarab bir necha guruuhga bo'lish mumkin:

1. Aynan Markaziy Osiyoga tashrif buyurgan sayyoohlarni.

2. Qo'shni mamlakatlarga sayohati chog'ida Markaziy Osiyo orqali o'tgan sayyoohlarni.

Olkaga tashrif maqsadlariga ko'ra xorijiy sayyoohlarni quydagicha guruuhlash mumkin:

1. Maxsus missiya yoki topshiriq bilan kelgan sayyoohlarni.

2. Ilmiy taddiqot maqsadida tashrif buyurganlar.

3. Sayohat maqsadida tashrif buyurganlar.

Ozbekiston Markaziy davlat arxividagi Turkiston general-gubernatori jamg'armasida o'sha davrda Turkistonga kelgan xorijiy sayyoohlarning tashrifi bilan bog'liq ko'pgina hujjatlar mavjud. Bu

hujjatlarda sayyohlarga ruxsat berish, ularga o'lka shaharlarida va yo'llarda hamrohlik qilishi kabi masalalar bilan bog'liq rasmiy hujjatlar saqlangan. Shuningdek, mahalliy ma'muriyat vakillariga sayyohlarni qabul qilish haqida ko'rsatmalar ham saqlangan.

Mazkur asarlarning katta qismi AQSH hamda Yevropa, xususan, Kembridj, Oksford va Germaniya kutubxonalarida saqlanadi.

Shunday tadqiqotchilardan biri vengriyalik mashhur sayyoh Arminiy Vamberi (1832–1913) o'zining Markaziy Osiyoga 1863–1864-yillarda uyuştirgan safari asosida yaratgan "Travels in Central Azia" ("Markaziy Osiyoga tashrif") nomli asari bilan dunyoga tanildi. U 1864-yilda yuqorida nomi keltirilgan asarini nashr etdi. Deyarli barcha Yevropa tillariga shuningdek, rus tiliga tarjima qilingan mazkur asarda muallifning safar davomida Xiva, Buxoro hamda Qo'qon xonliklari hududida ko'rgan-kechirganlari, kuzatgan voqealari, mahalliy amaldor va mansabdorlar bilan suhbatlari, shaxsiy taassurotlari asosida ushbu hududlarning, ma'muriy-hududiy tuzilishi, ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmasi, qurolli kuchlari, soliq va sud tizimi, qishloq xo'jaligi, aholisi va uning etnik tarkibi, shaharlari haqidagi qiziqarli va muhim ma'lumotlar qayd etiladi. Asarda ayrim atamalar va tarixiy voqealar, joy nomlarida qator chalkashliklar, mahalliy xususiyatlар va mentalitetdan bexabarlik bois ba'zi masalalarga Yevropa voqeligidan kelib chiqqan holda yonda-shish holatlari yaqqol namoyon bo'lsa-da, ushbu asar hanuzga-cha tarixiy manba sifatida o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Buyuk Britaniyalik missioner va sayyoh, Qirollik Fanlar akademiyasi va Qirollik geografiya jamiyatiga a'zosi Henri Lansdellning Turkiston general-gubernatorligi va Buxoro amirligiga uyuştirgan sayohati davomida shahar va qishloqlar aholisining etnik tarkibi, kasb-hunarlar, mahalliy yahudiylarning ijtimoiy va iqtisodiy ahvoli, qamoq va zindonlarda saqlanayotgan mahbuslar hayotiga oid ma'lumotlar to'plagan. Henri Lansdell safar taassurotlari asosida 1885-yilda chop etgan "Kursian Central Azia

including Kuldja, Bokhara, Khita and New” nomli 2 jildli asarida mintaqadagi turli sohalarga oid muhim statistik ma'lumotlar ham keltirgan. Muallif o'z asarida nafaqat safar taassuroti va suhabatlari natijalari, balki o'z zamondoshlarining tadqiqotlari hamda memuarlaridan ham o'rinni foydalangan.

Yana bir Buyuk Britaniya fuqarosi, sayohatchi va zabit, Rossiya imperiyasining Geografiya jamiyati a'zosi Frederik Gustavus Bernabi o'zining Londondan Kalkuttaga amalga oshirgan safari davomida Xiva shahrida o'tkazgan kunlari, Xiva xoni bilan uchrashuvi asosida 1875-yilda “A Ride to Khiva” “Travels and adventures in Central Azia” (“Xivaga tashrif. Markaziy Osiyoga sayohat va sarguzashtlar”) asarini nashr qiladi. Asarda muallif Xiva xonligining soliq tizimi, bozorlari, hunarmandchiligi, qal'alarning o'lchamlari, poytaxt aholisi va ta'lif muassasalari haqida atroflicha ma'lumot beradi. Bundan tashqari Frederik Gustavus Byornabi shimaldan Xiva xonligiga olib boradigan yo'llar, quduqlar haqida qiziqarli ma'lumotlarni ham keltirgan.

AQSHning Rossiya imperiyasidagi elchisi, AQSH Geografik jamiyati va Rossiya imperiyasi Geografik jamiyati a'zosi Yujin Skayler (Yevgeniy Shuler) 1873-yilda Sankt Peterburgdan O'rta Osiyoga sayohati taassurotlari asosida 1976-yilda ikki jildli “Turkistan” nomli asarini chop ettirdi. Asarda muallif o'z kechinmalari bilan birga, mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy holati, tabiiy va geografik sharoitlari haqida ma'lumotlar keltiradi. Bundan tashqari, muallif shaharlardagi hayot, bozorlar va savdo munosabatlarini ham qisman tasvirlaydi. Markaziy Osiyoga, keyinchalik Eronga, Hindi-Xitoy, Koreyaga, Afg'oniston va Pomirga safari, Amudaryoni tadqiq etish bo'yicha faoliyati uchun, Qirollik geografiya jamiyatining “Royal Geographical Society” oltin medali bilan taqdirlangan edi.

Ingliz tadqiqotchisi Jorj Nataniel Kerzon 1888–1889-yillarda Buyuk Britaniya siyosiy arbobi, Angliyaning Hindistondagi vitse-qiroli, general-gubernatori (1899–1905), Tashqi ishlar davlat kotibi (1919–1924), Lordlar palatasi raisi (1924–1925) kabi yuqori lavozimlarda ishlagan. Rossiya va Marka-

ziy Osiyoga, keyinchalik Eronga, Hindi-Xitoy, Koreyaga, Afg'oniston va Pomirga safar qilgan. Amudaryoni tadqiq etish bo'yicha faoliyati uchun, Qirollik geografiya jamiyatining "Royal Geographical Society" oltin medali bilan taqdirlangan. Uning Markaziy Osiyoga safari taassurotlari asosida tayyorlangan "Russia in Central Azia in 1889 and the Anglo-Kursian question" nomli ("Rossiya Markaziy Osiyoda 1889-yilda. Ingliz-rus masalalar") asarida Rossiya va Angliya davlatlarining Markaziy Osiyo masalasidagi raqobati va ko'zlagan manfaatlari o'z aksini topgan. Asarda Turkiston general-gubernatorligi, Buxoro hamda Xiva xonliklaridagi ijtimoiy ahvolga ham e'tibor qaratilgan bo'lib, bu masalani yoritishda statistika va matbuot materiallari, hukumatning rasmiy hisobotlari manbaviy asos bo'lgan.

XIX–XX asr boshlarida Markaziy Osiyo mintaqasi fransuz-zabon tadqiqotchilar tomonidan eng ko'p va tizimli ravishda o'r ganilganligi bilan o'ziga xos ahamiyatga ega. Fransuz ilm va ma'rifat namoyandalari hamda sayyoohlarining aksariyat ko'pchiligi esa mintaqaga shaxsan tashrif buyurib, bevosita ko'r gan va eshitganlari haqida yozib qoldirishgan.

1840–1917-yillarda Markaziy Osiyo mintaqasiga Fransiyadan jami 161 nafar tadqiqotchi-sayyoohlar turli maqsadlarda tashrif buyurganlar. Mintaqalar ular tomonidan turlicha yo'nalishlarda (elchilar, missionerlar, sayyoohlar, harbiylar, olimlar, geologlar) o'r ganilib, bu ekspeditsiyalar ilmiy, harbiy, muhandislik, tijorat va turizmga oid bo'lgan maqsadlar asosida amalga oshirilgan. Mintaqaga tashrif buyurgan fransuz tadqiqotchilari sayohatchi, diplomat, muhandis, harbiy, geograf, havaskor-sayohatchi, antropolog, tarixchi kabi soha vakillari edilar.

Markaziy Osiyo tushunchasi ham ilk marotaba tadqiqot natijalari fransuz tilida nashr etilgan manbada, ya'ni Aleksandr fon Gumboldt (nemis olimi) (Alexander von Humboldt, 1769–1859) tomonidan Parijda 1843-yilda nashr etilgan "Central – Asien. Unteryuchungen veber die Gebiryzketten und die vergleichende klimatologie" nomli ("Markaziy Osiyo tog' tizma-

larini tadqiq etish va iqlimini taqqoslash") uch jildlik asarida qo'llanilgan.

Unda tadqiqotchi hududning sug'orish tizimi va tog' tizmlarini o'rganib, Markaziy Osiyoni mustaqil o'ziga xos mintaqasi sifatida ta'riflaydi. Kitobning dastlabki ikki jiddlari Markaziy Osiyodagi tog' tizmalari va ularda aniqlangan yirik farqlarga bag'ishlangan, uchinchi jilda esa yerning tortish kuchi va mintaqasi iqlimiga oid tadqiqotlar natijasi yoritilgan. Kitob asosan geografik nuqtayi nazardan yozilgan bo'lib, unda gidrografik ma'lumotlar, tarixiy joy nomlari, toponimlar va ularning kelib chiqishi to'g'risida ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin.

Fransuz tadqiqotchisi Bonvalo Per Gabriel 1880-yilda Markaziy Osiyoga qilinadigan birinchi missiyaga javobgar shaxs edi. U Giyom Kapyu bilan birgalikda Samarqanddan Buxorogacha bo'lgan joylarni o'rganib tahlil qilgan. 1882-yil yana qaytib kelib, Zarafshon vohasida buzilgan shaharlarni o'rgana boshladi. Uning qilgan safar tafsilotlari "De Moscov en Bactriane" ("Moskvadan Baqtriyagacha") (1884) hamda "En Asie Centrale. Du Kohistan ala Cospienne" ("Markaziy Osiyoda Ko'histondan to Kaspiy den-gizigacha") (1885) nomli ikki asarida jamlanib nashr etildi.

Umuman olganda, sayyoohlар tomonidan Markaziy Osiyom mintaqasi haqida juda ko'p ma'lumotlar to'plangan edi. 1882-yil Buxoro amirligi va Xiva xonligiga safar uyushtirgan tadqiqotchilar mintaqasi haqida bir olam taassurot va yangiliklar, madaniy kolleksiya namunalari bilan Fransiyaga jo'nab ketishdi.

Shundan so'ng, ko'plab fransuz sayohatchi-tadqiqotchilar Markaziy Osiyoni yangidan kashf etish maqsadida ushbu mintaqaga tashrif buyurishdi.

Kapyu Jan-Giyom – J. Kapyu G. Bonvalo bilan Volgadan to Permgacha, Ural, Sibirdan o'tib Balkashgacha borishdi. 1882-yil u Bonvalo va Pepin hamrohligida Turkistonga qaytdi. G. Bonvalo va J. Kapyu maqsadi Markaziy Osiyoni geografik mintaqasi sifatida etnik tarixi, flora va faunasini o'rganish edi. G. Bonvalo mintaqasi etnik tarixini, J. Kapyu esa tabiiy fanlarni o'rgandi. J. Kapyuning

safar taassurotlari uning “A travers le Royaume de Tamerlan” (“Temur sultanati bo’ylab”) (1892) nomli asarlarida o’z aksini topdi.

Mazkur davr tadqiqotchi-sayyoohlardan yana biri Eduard Blan (*Édouard Blanc, 1858–1923*) bo’lib, 1890–1892, 1894–1895-yillarda Markaziy Osiyoga ikki marotaba sayohat uyushtirgan. E. Blan sayohatchi, geograf, tabiatshunos va temir yo’l qurilishi bo’yicha yirik mutaxassis edi. 1890-yildan boshlab Parij geograflari jamiyatni a’zosi, shu yili Toshkentda o’tkazilgan ko’rgazmada mazkur tashkilot vakili sifatida ishtirok etgan. Shundan so’ng Turkiston general-gubernatorligi ma’muriyati tomonidan unga transkasbiy temir yo’llari qurilishini o’rganish va loyihibalarini ishlab chiqishda qatnashish haqida taklif beriladi. Shu tarzda, keyingi o’n besh yil davomida ayrim uzilishlarni inobatga olmaganda E. Blan Rossiya imperiyasi va uning mustamlaka hududlarida tadqiqotlar olib boradi.

A. Sholening (*Armand-Pierre Cholet*) “Excursion en Turkestan et sur la frontiere russe-afghan” (“Turkistonga ekskursiya va rus-afg’on chegaralari bo’ylab”), P. Lessarning (*Pavel Lessar*) “La Russie et l’Angleterre en Asie Centrale” (“Rossiya va Angliya Markaziy Osiyoda”), M. Debizingen (*M. Debize*) “Etude sur l’Asie Centrale” (“Markaziy Osiyoga oid tadqiqot”), G. Kraftning (*Hugues Krafft*), “a travers le Turkestan Rutrie” (“Rus Turkistoni bo’ylab”), J. de Rialning (*Girard de Raille*) “Memorie sue l’Asie Centrale” (“Markaziy Osiyo xotiralari haqida”), J. Gatteyriasning (*J. Gatteyrias*) “A travers l’Asie Centrale” (“Markaziy Osiyo orqali”) kabi asarlar ham fransuz tilida chop etilgan xorijiy manba sifatida katta ahamiyatga ega.

Maxsus missiya bilan Turkistondagi temir yo’l qurilishini o’rganish uchun yuborilgan injener E. Bulanje (*Edgar Boulangier, 1850–1899*)ning hisobotlari “Sibirga sayohat xotiralari. Transsibir temir yo’li va Xitoy” nomli nashrida aks ettirilib, fransuz yozuvchisi Jyul Vern o’z asarlarida ulardan foydalangan.

XIX asrning 80–90-yillarida amalga oshirilgan ilmiy ekspeditsiyalar ishtirokchisi Jozef-Ferdinand Grenar (*Joseph-*

*Ferdinand Grenard*) va J.L. Dyutrey de Renning safar tafsilotlari uch jilddan iborat “Turkestan et be Tibet. Mission Scientifique” nomli (“Turkiston va Tibet. Ilmiy safar”) nomli asarda o'z aksini topdi. Unda Markaziy Osiyo xalqlari etnografiyasi, shu jumladan, Toshkent va sharqiy Turkiston haqidagi masalalarga alohida e'tibor qaratilgan.

Xyugges Kraftning “Rus Turkistoni bo'ylab” nomli asari 1902-yilda yozilgan bo'lib, unda Samarqand, Buxoro, Marg'ilon shaharlari, ulardag'i bozorlar, do'konlar, choyxona, xiyobonlar, hunarmandchilik ustaxonalar, Samarqandning yirik obidalari, o'lkaning tog' va landshafti, aholining turmush-tarzi, axloqi, ko'rinishi va kiyimlari, musulmonlarning yirik bayramlari kabi masalalarda qiziqarli ma'lumotlar beriladi. Bularidan tashqari asarda juda ko'plab (200 dan ortiq) fotosuratlar keltirilgan.

Parij geografiya jamiyatining a'zosi, tarix va geografiya fanlari bo'yicha mutaxassis, professor J.B. Pakyuer tomonidan yozilgan “Le Pamir. Etude de geografie Physique et histuzigue sur (“Asie Centrale” “Pomir. Markaziy Osyoning tabiiy-geografik va tarixiy o'rganilishi”) nomli asarda esa Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari, sartlar, o'zbeklar va tojiklar, savdo yo'llari va savdogarlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Leon Kosharning “Parij-Buxoro-Samarqand” nomli asari fransuz tadqiqotchisining shaxsiy sayohati va kechinmalari haqida yozilgan bo'lib, unda Buxoro amirligi bozorlari, unda Buxoro va Samarqand madrasalari haqida ma'lumot beriladi. Qayd etilgan memuarlar juda keng qamrovli bo'lib, ular qatorida nemis tilida yozilgan asarlar ham katta hajmga ega.

Markaziy Osyoni o'rganish uchun yuborilgan yirik tadqiqotchilardan yana biri bu Sharl Ejen de Ujfalvi (Yujfalvi) de Mezo-Kovezddir (*Charles-Eugène Ujfalvy de Mező Kövesd, 1842–1904*). Fransuz hukumati tomonidan Sh. Yujvalfi rahbarligida Turkistonga 1876, 1887-yillarda ikki marotaba maxsus ilmiy ekspeditsiya jo'natiladi. Bu ikki ekspeditsyaning natijalari “Expedition scientifique frac ise en Russie, en Sibérie et dans

le Turkestan..." ("Fransuz ilmiy ekspeditsiyasi Rossiya, Sibir va Turkistonda") nomli olti jilddan iborat asarda umumlashtiriladi (1–3-jildlar yozma ma'lumotlar va hisobotlar, 4–6-jildlar ilovalar, fotosuratlar, gravyuralar). Ekspeditsiya natijalari Yujfalviga Parijdagi Jonli Sharq tillari maktabida (*l'École des langues orientales vivantes*) iqtisod, tarix, siyosat, etnografiya va antropologiya kabi sohalarni o'z ichiga olgan Markaziy Osiyo maxsus kursi bo'yicha ma'ruzalar o'qishga imkon yaratdi. Yujfalvi o'z ishlarida etnografik tadqiqotlarga katta ahamiyat bergenligi uning quyidagi fikrlaridan dalolat beradi: "Rossiya, Sibir va Turkistonda o'tgan ikki yil davomida men ushbu xalqlarni asosan etnografik nuqtayi nazardan o'rganiib, ularning urf-odatlari, an'analari va e'tiqodlariga e'tibor qaratdim".

Uning ekspeditsiyalari kompleks xarakterga ega edi. Tarihiy-geografik, arxeologik tadqiqotlar bilan birga flora va fauna ham kuzatilgan. Yujfalvi Samarqanddagi Afrosiyob xarobalarida ilk arxeologik tadqiqotlarni boshlab bergen, qazishmalar davomida ko'plab suyak qoldiqlari, kumush va tilla tangalar topilgan. 1876–1877-yillardagi Yujfalvi ekspeditsiyasining asosiy maqsadi antropologik va etnologik tadqiqotlar olib borishdan iborat bo'lganligi sababli, uning asosiy natijalari ham shunda ko'rinish, Farg'ona vohasining etnologik xaritasi hamda Markaziy Osiyo etnik atlasining yaratilishiga olib keldi. Uning ilmiy ekspeditsiyasiga har doim hamrohlik qilgan rafiqasi Mariya de Yujfalvi Burdon xonim (*Ujfalvy – Burdon M. de.*) ham o'z safari taassurotlarini "Expedition Syienfique francaise en Russie, en Sibérie et davs le Turkestan. Le Kohistan, le Ferghah et Kouldja avec un appendice sur la Kachgarie" ("Parijdan Samarqand, Farg'ona, Kulja va G'arbiy Sibirga: parijlik xonimning safar taassurotlari") nomli asarida keltiradi. Ushbu asarda 300 dan ortiq foto illyustratsiyalar o'r'in olgan bo'lib, u orqali fransiyaliklar Markaziy Osiyo bilan yaqindan tanishishga muvaffaq bo'ldilar.

P. Kuznetsovning "Markaziy Osiyoda sivilizatsiya va tillar kurashi" deb nomlangan mazkur asari mintaqamizga sayyoh-

ning shaxsiy tadqiqotlari natijasida yaratilgan bo'lib, ikki bo'limdan iborat. Uning ikkinchi bo'limida, xonliklarning vujudga kelishi, aholisi, ayollar masalasi islom va tasavvuf hamda Markaziy Osiyodagi dunyoviy fanlar holati haqida ma'lumotlar keltiriladi. Shu bilan birga mamlakatlar etnografiyasи va ruslar bosqini masalalari ham keltirilgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida mintaqamizga tashrif buyurgan ushbu tadqiqotchilar haqiqatan ham Turkistonni Yevropa uchun yangidan ochib berishda katta hissa qo'shdilar, garchi ular qoldirgan ma'lumotlarda ba'zi noaniqliklar uchrasha-da, fransuzlar tomonidan Markaziy Osiyo mintaqasini o'rganilishi tarixida sezilarli iz qoldirishga muvaffaq bo'ldilar.

Ularning har biri o'z uslubi va tadqiqot yo'nalishiga ega bo'lib, Markaziy Osiyodagi turli yo'nalishlar va sohalar ularning tadqiqotlarida aks etgan. Ularning ayrimlari amirlarning g'aroyib haramlarini, afsonaviy boyliklarini ko'rish uchun kelgan bo'lsa (Sharqning ekzotik xususiyatlari), boshqalari ingliz-rus raqobatini (geosiyosiy to'qnashuvlar) o'rgangan. Markaziy Osiyoda bir necha dinlar mavjud bo'lgan, sivilizatsiyalar kesishgan, jahonga mashhur sarkardalarning e'tiborini tortgan, o'rta asr madaniyatining o'chog'i sifatidagi tamaddun beshiklaridan biri ekanligini ko'rsatuvchi tadqiqotlar ham vujudga keldi.

XIX asr oxiri va XX asrning boshlarida Markaziy Osiyoga tashrif buyurgan sayohatchilar sonining ko'pligi va bu masalada tadqiqotlarning miqdorini inobatga olgan holda ularning ma'lumotlarini qiyosiy tahlil asosida o'rganish maqsadga muvofiqdir.

**"Turkiston to'plami"** ("Туркестанский сборник") – tarixiy xorijiy nashrlar jamlanmasi. **"Turkiston to'plami"**ning yaratilish tarixi. "Turkiston to'plami"ning to'liq nomi "Turkiston o'lkasi va O'rta Osiyoga tegishli bo'lgan maqola va asarlar to'plami" bo'lib, unga 1867-yilda Turkiston general-gubernatori K.P. Kaufmanning shaxsiy topshirig'i bilan Rossiya imperiyasi boshqaruv apparatini Turkiston o'lkasi hayotiga oid turli xil ma'lumotlari bilan tanishtirib borish maqsadida tash-

kil etilgan. Unda asosan rus va xorijiy tillarda Markaziy Osiyo haqida Rossiya va xorijda chop etilgan nashrlar – gazeta, jurnal, kitoblardan parchalar o'rin olgan. O'lkani o'rganish uchun bo'lgan ehtiyoj, undagi tabiiy, iqtisodiy salohiyat, boyliklarning joylashuvini o'rganish, metropoliya sanoati uchun zarur bo'lgan xomashyo manbalarini aniqlash va jamlash – ushbu to'plamning tashkil etilishiga asosiy sabab bo'ldi.

Jami 594 jilddan iborat, bugungi kunda Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxonasida saqlanayotgan "Turkiston to'plami" ning asosiy qismini, ya'ni 1–416-jildlari K.P. Kaufman topshirig'i bilan V. Mejov boshchiligida tuzilgan. To'plam 1867–1887-yillarda Sankt-Peterburg shahrida tuzilgan. 1907–1910-yillarda tuzilgan 417–543-jildlari, 1911–1916-yillarda tuzilgan 544–591-jildlari Toshkentda nashr etilgan. "Turkiston to'plami"ning so'nggi 3 jildi (592-jilddan 594-jildgacha) kutubxonashunos Ye.K. Beger boshchiligida tuzilgan.

1876-yil "Maxsus qo'mita" tashkil etiladi va uning zimmasiga "Turkiston to'plami"ni tartibga solish vazifasi topshiriladi. 1907-yili kuzatuv tarkibiga I.V. Dmitrovskiy, etnograf A.A. Divayev, Turkiston kutubxonasi mudiri I.P. Zikov kiritilib, ular tomonidan 127 ta jild tuziladi. Bu vazifani amalga oshirishda N.V. Dmitrovskiyning xizmatlari katta edi. "Turkiston to'plami"ni yaratish jarayonida gazeta maqolalari qirqib olinib, oq qog'ozlarga yelimgangan, jurnal va kitoblar davriy izchillikda tikib borilgan. Jurnal maqolalarining soni 10 000 dan ortiq bo'lgan.

N.V. Dmitrovskiy boshchiligida tuzilgan "Turkiston to'plami"ning 417–543-jildlari V. Mejov tuzgan jildlardan ancha katta farq qilgan. 127 jilddan 81 tasi (64%) gazeta materiallari asosida (bularning ichidan 4 tasi o'zbek va tatar tillarida) tuzilgan. To'plam 1887-yilgacha muntazam tuzilgan va yiliga 20 tadan jild tayyorlangan. 1887-yildan ma'muriyat buyrug'i bilan bu ish 20 yil to'xtab qolgan.

1910-yildan "Turkiston to'plami"ni chop etish uchun yana mablag'lar yetishmay qoladi. Shu yili N.V. Dmitrovskiy va

fot etishi munosabati bilan 1911-yildan to'plamni tuzish mas'uliyati sharqshunos A.A. Semyonov zimmasiga yuklatildi. A.A. Semyonov (1873–1958) boshchiligidagi 48 ta jild chop etildi. A.A. Semyonov "Turkiston to'plami"ning ushbu jildlariga katta o'zgarishlar kiritdi. Har bir jildga alohida mavzu berildi.

1916-yili A.A. Semyonovni Rossiyaga ketishi munosabati bilan "To'plam" ustidan ishlar tamomila to'xtab qoldi.

Sovet davrida "Turkiston to'plami" ustida ishlarni o'lka-shunos Ye.K. Betger davom ettirdi. 1939-yili Ye.K. Betger boshchiligidagi so'nggi 3 ta jild – 592–593–594 jildlar chop etildi.

**"Turkiston to'plami"ning tarkibiy tuzilishi va mazmuni.** "Turkiston to'plami"ni yaratish jarayonida 546-jilddan boshlab alohida mavzular bo'yicha tashkil etila boshlangan. To'plamning 546–590-jiddari quyidagi tartibda yo'nalishlarga ajratilgan:

- tarix va arxeologiya – 546–548, 570, 588–589, 591-jildlar;
- memuarlar – 559-jild;
- etnografiya – 555, 566–569, 584, 589-jildlar;
- tilshunoslik – 556–557, 587-jildlar;
- geografiya – 554, 572–573, 575, 582–583, 585-jildlar;
- geologiya – 552–553, 562, 571-jildlar;
- o'simlik dunyosi – 551, 560, 579-jildlar;
- suvdan foydalanish – 549–550-jildlar;
- erdan foydalanish va kanalizatsiya – 565, 576–578, 586-jildlar;
- qishloq xo'jaligi – 561, 564, 574-jildlar;
- shaharlar hayoti 590-jild.

To'plamning 566–569-jiddari A.A. Divayev asarlariga bag'ishlangan bo'lib, uning 59 ta etnografik nashrlari o'rin olgan. 556–557 va 587-jiddarda Markaziy Osiyo xalqlari tilshunoslik masalalariga bag'ishlangan 15 ta asar joylashgan. 576–578 va 580-jiddarda Turkistonda yerdan foydalanish masalalari bilan bog'liq ma'lumotlar jamlangan.

"Turkiston to'plami" sahifalarida asosan rus, qisman fransuz, ingliz, nemis, italyan, ispan va lotin tillaridagi 4313 nom-

dagi nashrlar (maqola, ocherk, xabar va b.) o'rin olgan. Gazeta va jurnallardan olingan maqolalar soni o'n mingdan ortiq.

"Turkiston to'plami" ma'lumotlari geografik mansublik jiha-tidan quyidagi hududlarni qamrab olgan:

- O'rta Osiyo haqidagi umumiy ma'lumotlar (siyosiy, tarihiy, geografik mazmunga ega asarlar, mintaqalab sayohat va ilmiy ekspeditsiyalar);

- O'rta Osyoning Rossiya tasarrufiga o'tgan qismiga oid ma'lumotlar. Bu ma'lumotlar turli sohalar bo'yicha guruhlarga ajratilib, joylashtirilgan (geografiya va etnografiya, tarix, siyosiy-iqtisodiy va huquqiy fanlar, qishloq xo'jaligi, paxta, uzumchilik, ipakchilik, tog'-kon sanoati, tabiiy fanlar va matematika, tabobat, kutubxonashunoslik, tilshunoslik);

- mintaqadagi Rossiyaga tobe bo'lмаган mamlakatlar (Buxoro-Xiva, Turkmaniston, Sharqiylar, Mo'g'iliston, Qoshg'ar, Afg'oniston, Hirot va boshqalar) haqidagi ma'lumotlar.

"Turkiston to'plami" uchun Ye.K. Betger tomonidan 1948-yilda jildlar uchun Turkistonga qo'shni mamlakatlarga tegishli ma'lumotlar ko'rsatkichi tayyorlangan. Ko'rsatkich o'ziga xos bibliografik qo'llanma bo'lib, o'lkaga qo'shni mamlakatlar haqida keng ma'lumot beradi.

Ko'rsatkich materiallari mamlakatlar bo'yicha davriy izchilikda keltirilgan bo'lib, har bir kitob, maqolaga aniqlik kirituvchi sharhlar berilgan. Ko'rsatkich so'ngida esa har bir muallif, ismlar, etnografik va geografik nomlar ro'yxati keltirilgan.

"Turkiston to'plami" uchun ishlab chiqilgan ko'rsatkich 2 qismdan va tizimlashtirilgan ma'lumotlardan iborat.

Alifboli ko'rsatkich uch qismiga bo'lingan:

- mualliflar, tarjimonlar va bibliografiyada uchraydigan ismlar ko'rsatkichi;

- joy nomlari va ismlar ko'rsatkichi;

- xorijiy bibliografiya mualliflari va buyumlari ko'rsatkichi.

"Turkiston to'plami"ning tizimlashtirilgan ko'rsatkichida esa materiallar quyidagicha guruhlangan:

I. O'rta Osiyo (umumiy):

- tarixiy, geografik, siyosiy mazmundagi nashrlar;
- O'rta Osiyo bo'ylab sayohatlar va turli ilmiy ekspeditsiyalar.

II. O'rta Osiyoning Rossiya tasarrufidagi qismlari:

- geografiya, statistika, etnografiya;
- tarix va yordamchi fanlar;
- siyosiy, iqtisodiy va huquqiy fanlar;
- qishloq xo'jaligi: dehqonchilik, bog'dorchilik, chorvachilik, konchilik, asalarichilik, baliqchilik.

III. Tog' – kon sanoati:

- tabiiy va matematika fanlari;
- tibbiyot;
- bibliografiya, tilshunoslik va notiqlik.

IV. Markaziy Osiyoning Rossiya imperiyasi tasarrufiga kirmagan qismi:

- Buxoro-Xiva;
- Turkmaniston;
- Mo'g'iliston, Jung'oriya, Sharqiy Turkiston;
- Qoshg'ar.

V. Angliya tasarrufidagi Hindistonning O'rta Osiyo, Afg'oniston, Hirot va boshqa mamlakatlarga munosabati.

To'plam o'z tarkibi bo'yicha juda boy va xilma-xil bo'lib, uning sahifalarida O'rta Osiyoga qarshi harbiy yurishlar, mamlakatning iqtisodiy salohiyati, ishlab chiqarish quvvati, tabiiy resurslari, savdo-sotiq, bozorlari, mahalliy aholining yashash tarzi va o'lkaning salohiyatini aks ettiruvchi qimmatli ma'lumotlar o'z aksini topgan.

To'plamning dastlabki jiddlarida o'sha davr matbuotida muhokama etilgan masalalar, xususan, mintaqaning istilo etish jarayonlari, uning mustamlakaga aylantirilishi, o'lkani boshqarish masalalari muhokamasi, mahalliy aholi bilan munosabat, iqtisodiy, ishlab chiqarish kuchlari, mahalliy xalqlar tarixi va etnografiyasini kabi mavzulardagi maqolalar o'rinni olgan.

“Turkiston to’plami”ning 5-jildidan boshlab uning sahifalarida mintaqadagi bozorlar, savdo munosabatlariga oid maqolalar o’rin olgan.

“Turkiston to’plami”ning 6–7-jildlarida esa Qo’qon, Buxoro va Xivaning zabit etilish jarayonlari o’z aksini topgan.

V.I. Mejov iqtisodiy yo’nalishdagi nashrlarni to’plashga urg’u bergen. Xususan, savdo-sotiq holati va uning istiqbollari, foydali qazilmalar, sanoat korxonalari va temir yo’llar qurilishi kabi masalalarga alohida e’tibor qaratilgan.

### Savol va topshiriqlar

1. Sayyoohlар kelib chiqishlari, maqsad va vazifalari hamda sayohat marshrutlariga ko’ra qanday guruhlarga bo’linadi?
2. Ingliz tilida o’z memuarlarini chop etgan sayyoohlarning qanday asarlari mavjud?
3. Fransuz sayyoohlarning memuarlari qaysi asarlarda o’z aksini topgan?
4. Sayyoohlар asarida O’zbekiston tarixi bo’yicha qanday ma’lumotlar bor?
5. “Turkiston to’plami” qanday maqsadlarda va kim tomonidan tuzilgan edi?
6. “Turkiston to’plami” jildlari mazmunan qanday tuzilgan?
7. “Turkiston to’plami”ning tarkibiy tuzilishi qanday edi?
8. “Turkiston to’plami”dan qaysi tillardagi nashrlar o’rin olgan?

### Manbalar va adabiyotlar

1. *Bonvalot G.* En Asie Centrale: Du Caucase aux Indes, Plon, Paris, 1989, p.8.
2. *Bonvalot G.* Et H.D’Orleans. En Asie Centrale. De Moscou en Bacatriane, Paris, Plon, 1884; *Bonvalot G.* En Asie Centrale. Du Kohistan ala Caspienne, Paris, Plon, 1885.
3. *Boulangier E.* Notes de voyage en Sibérie. Le chemin de fer transsibérien et a chine par Edgar Boulangier. – Paris, Societe d’editons scientifiques. 1891, – 398 p.



4. *Burnaby Fred.* A ride to Khiva. Travels and adventures in Central Asia. 1876.
5. *Capus G.* A travers le Royaume de Tamerlan. Voyage dans la Sibérie occidentale, le Turkestan, la Boukharie, aux bords de l'Amoudarya, à Khiva, et dans l'Oust-Ourt. – Paris, A. Hennuyer, 1892. XVI – 434 p., carte.
6. *Capus G.* Le climat et la végétation du Turkestan // Annales des sciences naturelles Botanique. XV, 199–213 p.
7. *Cochard L.* Paris-Boukara-Samarcande. Notes de voyage. – Paris, Librairie Hachette et Cie 79, boulevard Saint-Germain. 1891, – 147 p.
8. *Cholet E.* Excursion en Turkestan et sur la frontière russo-afghan. – Paris, 1889, – 280 p.
9. *Cholet E.* Excursion en Turkestan et sur la frontière russo-afghan. – Paris, 1889, – 280 p.
10. *Debize.* Etude sur l'Asie Centrale. Bulletin de la Société de Geographie de Lion. Vol.2. 1877. 521–572 p., Vol.3. 1879. 1–32 p. E. Blanc. Sur une cause d'erreur dans les levés topographiques faits dans les régions de montagne et particulièrement en Asie Centrale/- Paris: 1893.
11. *Dutrey Rhins de J.L.* Missions scientifique dans la Haute Asie: 1890–1895. Vol. 1–3. – Paris, E.Leroux. 1897–1898.
12. *Eugine Schuyler.* Turkistan: Notes Of A Journey In Russian Turkistan, Khokand, Bukhara And Kuldja. 1876.
13. *Humbold, Alexander.* Central-Asien. Untersuchungen ueber die Gebirgsketten und die vergleichende Klimatologie. Aus dem Franzoesischen uebersetzt und durch Zuesaetze vermehrt. 1843–1844.
14. *Catard C.* Chemin de fer central-asiatique. – L'Explorateur. 1876. No. 3, 25–29 p.
15. *Gatteyrias J.A.* A travers l'Asie Centrale. Paris:1884. Grenard, Fernand, Turkestan et le Tibet. Mission Scientifique. – Paris: 1898.
16. *Gatteyrias J.A.* A travers l'Asie Centrale. – Paris, 1884, 280 p. George Nathaniel Curzon. Russia in Central Asia in 1889 and the Anglo-Russian question. London.Longmans, Green, and Co. 1889.

17. *Gatteyrias J.A.* A travers l'Asie Centrale. – Paris, 1884, 280 p.
18. *Grenard F.* Turkestan et le Tibet. Mission Scientifique. Vol. 1–3. – Paris, 1897–1898.
19. *Krafft H.* A travers de Turkestan Russe. – Paris, Hachette et C ie, 79, B D Saint-Germain. 1902.
20. *Krafft, Hugues.* A travers de Turkestan Russe. 1902.
21. *Lansdell Henry.* Russian Central Asia including Kuldja, Bokhara, Khiva and Merv. Two volumes. London. Sampson Low, Martson, Searle and Rivington. 1888, Fleet Street. 1885.
22. *Lessar P.* La Russie et l'Angleterre dans l'Asie Centrale. Paris, 1988.
23. *Lessar, M. H.* La Russie et l'Angleterre en Asie Centrale. 4. 1886.
24. *Paquer J.B.* Le Pamir. Etude de geografie et historique sur l'Asie Centrale. Paris, 1876.
25. *Rialle G.de.* Mémoire sur l'Asie Centrale. – Paris, 1875.
26. *Ujfalvy Ch.E.* Expédition scientifique française en Russie, en Sibérie et dans le Turkestan. Le Kohistan, le Ferghanah et Kouldja avec un appendice sur la Kachgharie. Vol. 1. – Paris: Ernest Leroux, 1878. – I, V. 186 p.
27. *Ujfalvy Ch.E.* Expédition scientifique française en Russie, en Sibérie et dans le Turkestan. Le Syr-daria, le Zerafchâne, le pays des Sept-rivières et la Sibérie – Occidentale avec 4 appendice. Vol. 2. – Paris: Ernest Leroux, 1879. – I, XVI. 208 p.
28. *Ujfalvy Ch.E.* Expédition scientifique française en Russie, en Sibérie et dans le Turkestan. Les Bachkirs, les Vêpses et les antiquités finno-ougriennes et altaïques; précédés des résultats anthropologiques d'un voyage en Asie Centrale. Vol. 3. – Paris: Ernest Leroux, 1880. – IX, 170 p.
29. *Vambery Arminius.* Travels in Central Asia. London. John Murray, Albemarle Street, 1864.

## SOVET DAVRI TARIXIGA DOIR MANBALAR VA HUJJATLAR

### 14-MAVZU: O'ZBEKISTONNING SOVET DAVRI TARIXI BO'YICHA MANBALAR

*O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi (O'zbekiston MDA) fondlari tavsifi. Rossiyadagi Fevral inqilobi va Turkistondagi siyosiy jarayonlarni aks ettiruvchi materiallar. Oktabr to'ntarishidan keyin Turkistonda sovet hokimiyatining tashkil topishi va yangi davlat tarixi bilan bog'liq manbalar. Sovet hokimiyatining dekretlari. Turkiston o'lka Sovetlari syezdlarining qarorlari, partiya tashkilotlarining hujjatlari manba sifatida. Turkistonda muxtoriyatchilik va istiqlolchilik harakatlari tarixiga oid hujjatlar tarixiy manba sifatida. BXSR va XXSR tarixiga oid hujjatlar. O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish tarixiga oid hujjatlar hamda O'zbekiston SSRning tashkil topishi. O'zbekistonning 1925–1941-yillardagi tarixini yorituvchi manbalar hamda qatag'onlar tarixi aks etgan hujjatlar. 1941–1945-yillardagi urush tarixiga oid materiallar. O'zbekistonning 1945–1989-yillardagi tarixiga oid hujjatlar. O'zbekistonning mustaqillikka erishish arafasidagi tarixiga oid hujjatlar.*

Mustaqillik davrida shakllangan yangi ijtimoiy-siyosiy va ilmiy-tarixiy tafakkur tarixiy manbalar haqidagi tushuncha va qarashlarning kengayishiga va fikrlar o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. O'zbekistonning sovet davri tarixi (1917–1991-yillar) ga oid manbalarni tasniflash (klassifikatsiyalash) va turlarga

ajratish (tipologiya qilish) jarayonida ular quyidagi asosiy guruhlarga ajratildi:

- e'lon qilingan hujjatlar va materiallar to'plamlari;
- arxiv hujjatlari va ma'lumotlari;
- davriy matbuot materiallari;
- siyosat va davlat arboblarining nutq va ma'ruzalari;
- xotira va esdaliklar;
- mahalliy tarixchilarning qo'lyozma asarlari;
- dala materiallari.

**O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivvi (O'zbekiston MDA) fondlari tavsifi.** 1917-yil Oktabr to'ntarishidan so'ng Turkiston ASSR MIKning 1919-yil 5-noyabrdagi "Arxiv ishini qayta tashkil etish va markazlashtirish haqida"gi dekretiga muvofiq 15-noyabrda Toshkentda Turkiston ASSR Arxiv ishlari boshqarmasi tuzildi. O'rta Osiyo respublikalarida milliy-hududiy chegaralanish o'tkazilishi munosabati bilan 1924-yil 28-dekabrda O'zSSR Arxiv ishlari markaziy boshqarmasi tashkil etildi. 1930-yil 9-apreldan u O'zbekiston SSR Markaziy arxiv boshqarmasi deb atala boshlandi. 1931-yil 20-mayda O'zSSR Markaziy arxiv boshqarmasi huzurida O'zSSR Oktabr inqilobi markaziy davlat arxivi hamda O'zbekiston SSR Markaziy davlat tarix arxivi tashkil qilindi. Har ikkala arxiv 1958-yili birlashtirilib, yagona O'zbekiston SSR Markaziy davlat arxiviga aylantirildi. Bu arxiv 1991-yil sentyabrdan O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi (O'zbekiston MDA) deb qayta nomlandi.

O'zbekiston MDAda XIII asrdan to XXI asrning 20-yillari-gacha bo'lgan hujjatlar saqlanadi. Ular davriy jihatdan quyidagi 3 qismga bo'linadi: I fondlar – 1917-yilgacha bo'lgan hujjatlar (tarixiy fond); R fondlar – 1917–1991-yillarni o'z ichiga olgan sovet davri hujjatlari (inqilobiy fond); M fondlar – 1991-yil sentabrdan boshlab bugungi kungacha mavjud bo'lgan hujjatlar (mustaqillik fondi). Sovet davri tarixiy hujjatlari R-fondlarga kiradi.

O'zbekiston MDAdagi arxiv fondlarini umumiy tarzda quyidagicha tavsiflash mumkin:

I bo'lim – Turkiston o'lkasi hududidagi Muvaqqat hukumat muassasalarining hujjatlari kiritilgan fondlar;

II bo'lim – davlat hokimiyati va davlat boshqaruvi oliv organlari fondlari;

III bo'lim – adliya va sud organlari fondlari;

IV bo'lim – xalq xo'jaligi tashkilotlari, muassasalari va korxonalarini fondlari;

V bo'lim – madaniyat va maishiy xizmat ko'rsatish muassasalari va tashkilotlari fondlari;

VI bo'lim – mehnat va ijtimoiy ta'minot muassasalari fondlari;

VII bo'lim – kasaba uyushmalari va jamoat tashkilotlari fondlari;

VIII bo'lim – shaxsiy fondlar.

**Rossiyadagi Fevral inqilobi va siyosiy jarayonlarni aks ettiruvchi materiallar.** Bunday hujjatlar O'zbekiston MDAning Muvaqqat hukumatning Turkiston hududidagi muassasalari hamda Oktabr to'ntarishigacha bo'lgan davrdagi ishchi va soldat deputatlari Sovetlari hujjatlari kiritilgan tarixiy fondlarda (I fondlar) saqlanadi. Masalan, 1917-yil aprel-noyabr oylarini o'z ichiga oluvchi 1760-fond–Muvaqqat hukumatning Turkiston komiteti (Turkkomitet) fondida 46ta ish (yig'ma jild) bo'lib, bu ishlarda yuzlab turli hujjatlar saqlanib qolgan. Bu hujjatlarda keltirilishicha, Muvaqqat hukumatning Turkiston komiteti (Turkkomitet) Petrograddagi Muvaqqat hukumatning 1917-yil 7(20)-apreldagi qaroriga binoan tashkil etilgan. Toshkentda 1917-yil 31-oktabrda (yangi hisobda 13-noyabrd) bolsheviklar va so'l eserlar tomonidan amalga oshirilgan Oktabr to'ntarishi natijasida Turkkomitet tugatilgan.

Mazkur 1760-fondda Muvaqqat hukumatning turli qarorlari, ko'rsatmalari va telegrammalari hamda Turkiston komitetining majlislari bayonnomalari mavjud.

Turkiston soldat va ishchi deputatlari o'lka Soveti (KAAS) [I chaqiriq] fondi (1613-fond) materiallari atigi 6ta yig'majildan iborat bo'lib, bu hujjatlarda ham 1917-yil aprel-noyabrdan Turkistonda bo'lib o'tgan siyosiy jarayonlar o'z aksini topgan. Xususan, 1917-yil 7–15 (yangi hisobda 20–28)-aprelda Toshkentda bo'lib o'tgan Turkiston Soldat va ishchi deputatlari o'lka Sovetining I syezdi materiallari mayjud bo'lib, ular 1917-yil fevral–oktabr oralig'idagi Turkiston tarixini yoritishda muhim manba hisoblanadi. Shuningdek, bu fondda Turkiston o'lkasi siyosiy partiyalari hamda oblast Sovetlari vakillarining 1917-yil 12–15 (yangi hisobda 25–28)-iyulda Toshkentda bo'lib o'tgan konferensiyasi protokollari ham mavjud.

**Oktabr to'ntarishidan keyin Turkistonda sovet hokimiyatining tashkil topishi va yangi davlat tarixi bilan bog'liq manbalar.** O'zbekiston MDAdagi 17-fond – Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi Xalq Komissarlari Soveti (SNK Turkestanskoy ASSR) fondlarida Turkiston ASSRdagi davlat va hukumat oliy organlarining hujjatlari mavjud. Bu fondlardagi hujjatlar 1917–1924-yillarni o'z ichiga qamrab olib, ular katta hajmda mavjudligi bilan ajralib turadi. Masalan, arxivdagi 17-fondda 1709 ta yig'majild hamda 25-fondda 1279 ta yig'majild saqlanib qolgan.

Turkistonda sovet hokimiyatining o'rnatilishiga oid manbalar orasida davriy matbuot materiallari ham alohida ajralib turadi. 1917–1991-yillarda O'zbekiston hamda RSFSRning markaziy shaharlarida chop etilgan 100dan ortiq turli nashrlar (gazetalar, jurnallar, byulletenlar va h.k.)da sovet davri tarixi yoritilgan.

Jumladan, "Buxoro axbori", "Вечерние известия", "Еженедельник политработника", "Жизнь национальностей", "Известия" (Moskva; Toshkent; Buxoro; Andijon; Skobelev; Qo'qon), "Inqilob quyoshi", "Ishtirokiyun", "Наша газета", "Красная звезда" (Toshkent), "Красная Фергана", "Красноармейская

газета”, “Красный фронт”, “Набат революции”, “Ozod Vuxogo”, “По басмачу”, “Сводобный Самарканд”, “Sovet O'zbekistoni” “Советский Туркестан”, “Туркестанская правда”, “Туркестанский коммунист”, “Туркестанский курьер”, “Turkiston”, “Ulug' Turkiston”, “Farg'ona”, “El bayrog'i”, “Qizil O'zbekiston”, “Qishloq haqiqati”, “Hurriyat” kabi gazetalar; “Борьба классов”, “Бухарская жизнь”, “Военная мысль”, “Военная мысль и революция”, “Военное дело в Средней Азии”, “Военный работник Туркестана”, “Еженедельник политработника”, “Жизнь национальностей”, “За партию”, “Историк марксист”, “Коммунист” (Ташкент), “Коммунистическая мысль”, “Коммунистическая революция”, “Красная казарма”, “Красный архив”, “Красный рубеж”, “Maotif va o'qituvchi”, “Народное хозяйство Средней Азии”, “Народное хозяйство Туркестана”, “Наука и просвещение”, “Наш путь”, “Новый Восток”, “Революционный Восток”, “Революция национальностей”, “Советские острова”, “Экономические обозрения”, “O'zbekiston kommunisti” nomli jurnallar nashr etilgan.

Davriy matbuot nashrlaridagi manbalardan foydalanishda maqolalar kim tomonidan qanday vaziyatda tayyorlangani, kommunistik mafkuraning unga ta'siri masalalarini qarab chiqish kerak. Matbuot xabarlari boshqa manbalar bilan qiyosiy o'r ganilib, xolislik darajasi aniqlangach, undan foydalanish lozim.

Bundan tashqari yana “Бюллетень партработника”, “Бюллетень прессы Среднего Востока”, “Бюллетень Первой Экономической Конференции Средне-Азиатских Республика (Туркестанской, Бухарской и Хорезмской)”, “Бюллетень Средне-Азиатского Государственного Университета”, “Бюллетень Центрального статистического управления Туркестанской Республики”, “Бюллетень VI Конференции Коммунистической партии Туркестана”, “Бюллетень VI

съезда Коммунистической партии Туркестана”, “Информационный бюллетень Совета Народных Комиссаров и Экономического Совета Туркеспублики” va boshqa byuletendardan foydalanish mumkin.

Shuningdek, sovet davri tarixini o'rganishda xorijda nashr qilingan “Yeni Turkistan” (Istanbul, 1927–1932), “Yas Turkistan” (Parij-Berlin, 1929–1939), “Milli Turkistan” (Germaniya; 1942–1945, 1959–1974) jurnallari va “Hür Türkistanicin” (Istanbul, 1975) gazetalaridagi manbalar muhim rol o'ynadi. “Yas Turkistan” jurnalining 1929–1932-yillarda nashr qilingan sonlarida “Turkiston xabarları” va “Bosmachilik to'g'risida” ruknlari ostida doimiy ravishda maqolalar va xabarlar berib borilgan. Jurnal sahifalarda Anvar Posho va Shermuhammadbek qo'rzboshining faoliyatiga bag'ishlangan she'rlar bosilgan. Xususan, “Eldor” taxallusli shoirning “Turkiston qo'rzboshilariga” (1930, 11-son, 24-bet) she'ri o'zining originalligi bilan ajralib turadi.

**Sovet hokimiyatining dekretlari.** Oktabr to'ntarishi natijasida hokimiyat tepasiga kelib qolgan bolsheviklar partiyasi va sovet hokimiysi rahbarlari V.I. Lenin va I.V. Stalin dastlab Rossiya hududida yashovchi turli millatlar va xalqlar, shuningdek, ishchilar, soldatlar va dehqonlarni o'z tomonlariga og'dirib olish uchun “Sulh to'g'risida”, “Yer to'g'risida” kabi dekretlar hamda “Mehnatkash va ekspluatatsiya qilinuvchi xalq huquqlari deklaratsiyasi”, “Rossiya xalqlari huquqlarining deklaratsiyasi”, “Rossiya va Sharqning barcha musulmon mehnatkashlariga” singari deklaratsiyalar qabul qilib, xalqni aldashdi. Biroq ularning bu hiyla-nayrangi tez orada fosh qilingach, aholining muayyan qismi sovet hokimiyatiga qarshi kurashga ko'tarildi. Turkiston ASSRdagi sovet hukumati ham Markazdan o'rnak olib, yana shunday turli dekretlar va qarorlar chiqardi.

**Turkiston o'lka Sovetlari syezdarining qarorlari, partiya tashkilotlarining hujjatlari.** 1917-yil 15-noyabrda

Toshkentda bo'lgan Turkiston o'lka Sovetlarining III syezdida Turkiston o'lkasini Xalq Komissarlari Soveti tuzilgan edi. Mintaqadagi dastlabki sovet hukumati – Turkiston Sovnarkomiga Fyodor Kolesov rais bo'ldi. 1918-yil 20-aprel – 1-mayda bo'lgan Turkiston o'lka Sovetlarining V syezdida esa RSFSR tarkibida Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi (Turkiston ASSR) tashkil topdi. Pyotr Kobozev, Andrey Solkin, I. Tobolin 1918-yil aprelda Turkiston ASSR Markaziy Ijroiya Komiteti hamraislari lavozimiga saylanishdi. Bolsheviklar Turkistondagi birinchi sovet hukumati tarkibiga bitta ham mahalliy millat va-killarini kiritishmadi.

1917–1924-yillarda Turkiston ASSR Sovetlarining 12 ta syezdi bo'lib o'tdi. Dastlabki 2 ta syezd 1917-yil oktabr voqealaridan oldin bo'lgan edi. Turkiston o'lka sovetlarining 1918–1924-yillarda bo'lgan VI–XII syezdlarining stenografik hisobotlari O'zbekiston MDAning 17-fondida saqlanadi.

1918-yil 17–25-iyunda Toshkentda Turkiston bolshevistik tashkilotlarining tashkiliy o'lka syezi bo'lib o'tib, unda Rossiya kommunistik partiyasi – RKP(b)ning tarkibiy qismi bo'lgan Turkiston Kommunistik partiyasi (TKP) tashkiliy jihatdan rasmiylashtirildi. 1918–1924-yillarda Turkiston Kompartiyasining 8 ta syezi bo'lib o'tdi. Turkiston Kompartiyasi syezdlarining stenografik hisobotlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni arxivining 60-fondi – Turkiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti (TKP MK) fondida saqlanadi.

Arxivlarda saqlanayotgan mazkur syezdlarning stenografik hisobotlari, turli dekret va qarorlarning katta qismi sovet hokimiyyati yillarida chop etilgan.

Ularni shartli ravishda ikkita yirik turkumga ajratish mumkin. Birinchisi, sovet hukumatining rasmiy hujjatlari bo'lsa, ikkinchisi – ma'lum mavzuga bag'ishlangan hujjatlar va materiallar to'plamlaridan iborat. Ulardan ayrimlari 1918–1924-yillarda e'lon qilingan.

Birinchi turkumdagি kitoblar o'rtasida Bokuda 1920-yil 1-8-sentabrda bo'lib o'tgan Sharq xalqlarining I qurultoyi va Moskvada 1923-yil 9-12-iyunda bo'lgan RKP(b) MK milliy respublikalar va viloyatlar mas'ul xodimlarining IV kengashi stenografik hisobotlari muhim o'rин tutadi. Mazkur anjumanlarda Turkiston, Buxoro, Xorazm respublikalari rahbarlari, milliy ziyorilar namoyandalari qatnashib, sovet rejimining mustamlakachilik siyosatini qisman ochib tashlashgan va qurolli harakat ishtirokchilariga xayrioxhlik bildirishgan.

Ikkinci turkumdagи asarlar orasida Turkiston o'lkasi Musulmonlar byurosining materiallari jamlangan va Rossiya qizil armiyasi bosh shtabining Maxsus xizmat xodimlari tomonidan nashr qilingan kitoblar ajralib turadi. "Farg'onadagi bosmachilik..." nomli kitobda Farg'ona qo'rzboshilarining jangovar faoliyati va shaxsiy hayoti, ularning strategiya va taktikasi to'g'risida ayrim noyob ma'lumotlar mavjud. Shuningdek, Turkiston fronti shtabi chiqargan "Bosmachilikka qarshi kurash" nomli maxsus qo'llanmada qizil askarlarga "bosmachilar"ni qanday qilib qirib tashlash haqida SSSR Qurolli kuchlarining Oliy bosh qo'mondoni S.S. Kamenev tomonidan maxsus ishlab chiqilgan 123 ta moddadan iborat ko'rsatmalar tavsiya qilinadi. Bu kitoblar shu paytgacha tarixchilar tomonidan ilmiy tahlil doirasiga negadir jalb qilinmayotgan edi.

Sо'nggi yillarda nashr qilingan hujjatli materiallar o'rtasida SSSRdagи chegara qo'shinlari (4 ta kitob), BXSR tarixi va XXSR tarixiga oid hujjatlar kiritilgan to'plamlar diqqatga sazovor bo'lib, ularda qurolli harakatning barcha tarixiy davri va ko'plab jihatlari o'z aksini topgan.

**Turkistonda muxtoriyatchilik va sovet hokimiyatiga qarshi harakatlar tarixiga oid hujjatlar.** Bolsheviklar hokimiyatni qo'lga olgandan so'ng, Turkiston, Rossiya va Kavkaz musulmonlari o'rtasida muxtoriyat harakati yuzaga kela

boshladi. Rossiya musulmonlariga milliy-madaniy muxtoriyat, Turkiston musulmonlariga esa milliy-hududiy muxtoriyat to'g'ri kelishi haqida munozaralar bo'ldi.

Turkistonda muxtoriyat g'oyasi birinchi bo'lib Turkiston musulmonlarining I qurultoyida ko'tarildi. Uning yuzaga kelishi Turkistonda taraqqiyparvar demokratik ziyolilarning ta-shabbusi va ayni paytda bevosita Toshkent "Sho'roi Islomiya" jamiyatining faoliyati bilan bog'liqdir. 1917-yil 26–28-noyabrda (yangi hisob bilan 9–11-dekabrda) Qo'qonda Butunturkiston musulmonlarining favqulodda IV qurultoyi bo'lib, unda Turkiston Muxtoriyati hukumati tuzildi. Muhammadjon Tinishboyev va Mustafo Cho'qay Turkiston Muxtoriyati hukumatining Bosh vazirlari etib saylandilar.

1918-yil 22-fevralda Turkiston Muxtoriyati hukumati qizil armiya tomonidan tugatildi. Qo'qon shahri va atroflari talontaroj qilindi, 10 000 nafardan ortiq mahalliy aholi ommaviy ravishda qirg'in qilindi. 1918-yil fevral oyining oxirida Turkiston mintaqasida istiqlolchilik harakati boshlandi. Bu harakat sovet rejimi va bolsheviklar hokimiyatiga, ularning harbiy tayanchi bo'lgan qizil armiyaga qarshi qaratilgan edi. Turkistondagi muxtoriyatchilik va istiqlolchilik harakatlarini o'rganishda milliy matbuot materiallari, arxiv hujjalari hamda o'sha davr voqealarining bevosita ishtirokchilari tomonidan yaratilgan turli xotiralar va esdaliklar hamda mahalliy tarixchilarning qo'lyozma asarlari muhim rol o'ynaydi.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, Turkiston musulmonlarining I, II, III va IV Qurultoylari materiallarini manba sifatida alohida baholash lozim. Ayniqsa, Islom Shoahmedov tomonidan tayyorlangan "Turkiston Federatsiya" loyihasining manba sifatidagi ahamiyati katta. Loyiha "Ulug' Turkiston" gazetasining 1917-yil 7–10-sentabr kungi sonlarida nashr qilingan. "Loyiha qurultoy ishida oltinchi masala bo'lib muhokamaga qo'yildi va ushbu qonun Turkistonning hamma viloyatlariga yuborilib,

Turkiston aholisini ushbu dastur bilan tanishtirib, shundan keyingina Umumturkiston musulmonlarining qurultoyida tasdiqlash kerakligi haqida qaror qabul qilindi.

Ushbu dastur 27 moddadan iborat bo'lib, unda muxtoriyat hukumatining barcha jabhalarini o'z ichiga qamrab olgan edi. Agar loyiha sinchiklab tahlil qilinsa, uning moddalarida Turkiston Muxtoriyatining to'liq mustaqilligi masalasi ilgari surilganligini ko'rish mumkin. Masalan, loyihaning 21-moddasida Turkiston Muxtoriyatining ichki va tashqi ishlari, shuningdek, moliya, iqtisod va savdo sohasidagi ishlari mustaqil ravishda olib borilishi nazarda tutilgan bo'lsa, 24-moddada davlat muassasalarining barchasi Turkistonning mulki sanalishi aytilgan. Faqat 26 va 27-moddalarda Turkiston o'lkasida armiya mahkamalari, pochta, telegraf ishlari Ta'sis majlisi ochilgunga qadar Rossiya hukumati qo'l ostida bo'lishi, keyinchalik barcha muassasalar Turkiston hukumati ixtiyoriga o'tishi va ularda Turkiston majlisining qonuni bo'yicha o'zgarishlar amalga oshirilishi ko'rsatilgan. Shuningdek, 27-moddada Turkiston Muxtoriyati hukumati o'z faoliyatini boshlaganiga besh yil to'lishida loyihalardagi moddalarining hayotga tatbiq etilishi, erkin va to'g'ridan to'g'ri hech qanday referendum o'tkazmaslik sharti bilan amalga oshirilish to'g'risidagi punktlar bo'lishining o'zi juda katta ahamiyatga ega hisoblanadi". Turkiston Markaziy sho'rosi a'zosi Islom Shoahmedov tomonidan taqdim etilgan ushbu loyihami Markaziy Sho'roning muxtoriyat to'g'risidagi dasturi sifatida talqin etish mumkin.

"Ulamo" jamiyati tomonidan 1917-yil 17–20-sentabr kunlari bo'lib o'tgan Turkiston musulmonlarining III qurultoyi ham katta ahamiyatga ega. Shu qarorga binoan Turkiston o'zining mustaqil milliy askar va militsiyasini tuzishni nazarda tutgan edi.

Turkistondagi sovetlar hokimiyatiga qarshi harakatning tarixini yoritishda arxiv hujjatlari muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston

MDA da saqlanayotgan 30 ga yaqin fondlarda Turkiston, Buxoro, Xorazm respublikalari Markaziy Ijroiya Qo'mitasi (MIK) Sovetlari (f. 17, 47, 71), uchala respublika hukumatlari (f. 25, 48, 72), BXSR Markaziy inqilobi qo'mitasi (f. 46), uchala respublikadagi ichki ishlar, milliy ishlar, oziq-ovqat xalq komissarliklari va nozirliklari, ishchi-dehqon inspeksiyasi va iqtisodiy kengashlarning rasmiy hujjatlari (f. 18, 27, 35, 36, 39, 41, 49, 59, 73, 76), Turkiston fronti harbiy inqilobi tribunali va III armiyasining boshqarmasiga qarashli harbiy xarakterdagи materiallar (f. 344, 945) o'rın olgan.

Mazkur arxiv hujjatlarda mintaqadagi qurolli harakatning Turkistondagi siyosiy jarayonlarga ta'siri, sovet rejimi ning unga munosabati, qizil askarlar bilan muxolifat kuchlari o'rtasidagi janglar to'liq ko'rsatilgan. Xususan, Turkiston respublikasi rahbarlari T. Risqulov, Q. Otaboyev, I. Xidiraliyev, A. Rahimboyev, qisman N. To'raqulov, Buxoro respublikasi rahbarlari F. Xo'jayev, A. Muhitdinov, Usmon Xo'ja (Usmonxo'ja Po'latxo'jayev), Otaulla Xo'jayev (Otaullaxo'ja Po'latov)ning o'sha paytda Moskva, Toshkent, Buxoroda o'tkazilgan oliy darajadagi rasmiy anjumanlarda muxolifatchilar haqida bildirgan turli fikr-mulohazalari qurolli harakat mohiyatini ko'rsatishda muhim rol o'ynadi.

I. Xidiraliyev tomonidan yozilgan "Farg'ona bosmachiligi ning tarixiy tahlili" (1923-yil 15-iyun) nomli 17 varaqlik yirik hujjatda vodiyyagini bu harakatning mohiyati, kurashning harakatlantiruvchi kuchlari, harbiy qo'mondonlari va g'oyaviy rahnamolari haqida ma'lumotlar uchraydi. Birlamchi manbalarda ham bu ma'lumotlar yanada to'ldirilib, Farg'ona vodiyisidagi qurolli harakatning yaxlit manzarasi namoyon bo'ladi.

Turkiston, Buxoro, Xorazm respublikalari Sovetlarining syezdlari bayonnomalarida, turli konferensiylar materiallariда muxolifat harakatiga tegishli masalalar aks etgan. Mazkur arxivda bunday hujjatlarning hajmi katta. Shuningdek, Rossiya

imperiyasining Buxorodagi siyosiy agentligi, Turkiston rayon muhofaza bo'limi (chor oxranka) hujjatlari, O'zbekiston SSR Oliy sudining materiallari hamda tarixchi olim H.Sh. Inoyatovning shaxsiy fondidagi hujjatlar Markaziy Davlat arxivida saqlanadi (f. I-3, I-461; 1714, 2786).

Mavzuga tegishli hujjatlар O'zbekiston RPDA (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devonining arxivi)ning 5 ta fondida ham saqlanadi. Turkiston o'lkasi Musulmonlar byurosining konferensiyalari va yig'ilishlarining protokollarida ham ushbu muammo bo'yicha ko'plab hujjatlar mavjud. Shuningdek, O'zbekiston RPDA materiallari orasida Turkiston Kompartiyasi VI syezdi (1921-yil 19-avgust)da N.To'raqulov tomonidan qilingan "Farg'ona masalasi haqida"gi ma'ruza va boshqa birlamchi manbalar (f.60) mavjud bo'lib, unda Farg'ona vodiysidagi qurolli harakat maxsus muhokama qilingan.

Shuningdek, VCHK, GPU, OGPU, NKVD kabi sovet rejimining qatag'on organlari va Turkfront jangchilarining qurolli harakat qatnashchilari va tub aholiga qarshi olib borgan shafqatsiz xunrezliklari, Markazning Turkkomissiya, Turkbyuro, O'rta Osiyo byurosi kabi cheklanmagan vakolatga ega favqulodda organlarining "siyosiy" faoliyati o'z aksini topgan "mutlaqo maxfiy" tamg'ali hujjatlar mintaqadagi bu harakatning shu paytga cha o'rganilmagan tomonlarini yoritish uchun muhim manba bo'lib xizmat qildi.

O'zbekiston RMXXA (O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati arxivi)dagи yirik qo'rleshilar (Ibrohimbek, Hamro Polvon, O'rmon Polvon va b.), jadidchilik harakatining taniqli vakillari (Fitrat, Munavvar Qori, Sadriddinxon Sharifxo'jayev, Cho'pon, S. Tillaxonov va b.), siyosiy va harbiy arboblar (S. Tursunxo'jayev, Otaulla Xo'jayev, M. Saidjonov, M. Aminov, M. Burhonov, Porso Xo'jayev, R. Inog'omov, A. Islomov, R. Islomov, M. Mirsharopov, U. Asadullaxo'jayev (Ubaydulla Xo'jayev), F. Xo'jayev, A. Ikromov va boshqalarga qo'yilgan nohaq aybno-

malar, shuningdek, ulamolar, "Milliy Ittihod" va "Milliy Istiqlol" tashkilotlari a'zolari, qurolli harakatning harbiy va siyosiy rahbarlari haqida muhim ma'lumotlar bor.

O'zbekiston Respublikasining turli viloyatlarida faoliyat ko'rsatayotgan davlat arxivlarida, jumladan, Andijon, Buxoro, Namangan, Samarqand, Toshkent, Farg'ona, Xorazm, Qashqadaryo, shuningdek, Qoraqalpog'istonagi arxivlarda ham muammoga tegishli mavjud hujjatlar ko'pchilikni tashkil qiladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi kino, surat va ovozli hujjatlar Markaziy davlat arxivi, Rossiya Federatsiyasi davlat arxivi (GARF) fondlaridagi materiallardan ham foydalanish mumkin. Xususan, Nukusdagi Qoraqalpog'iston Til va adabiyot instituti kutubxonasi arxivida saqlanayotgan Junaidxon haqidagi muhim birlamchi manbalar Xorazm vohasidagi qurolli harakat tarixini yoritishda juda qo'l keladi.

Rossiya davlat harbiy arxivi (RGVA)ning 10 ta fondida ushbu mavzu bo'yicha katta miqdordagi hujjatlar mavjud. Hujjatlarning aksariyat qismi harbiy xususiyatga ega bo'lib, ularda Turkiston fronti (Turkfront) shtabi va armiyalarining boshqarmasi, Turkfrontga qarashli Farg'ona armiya guruhining boshqarmasi, qisqa muddat mavjud bo'lgan Farg'ona fronti shtabi, unga qarashli 3-Andijon-O'sh jangovar guruhining boshqarmasi, SSSR Revvoensoveti raisining kotibiyati, Turkiston respublikasi qo'shinlari shtabi kabi harbiy muassasalarning materiallari mavjud (f. 110, 148, 149, 157, 265, 278, 895, 1143, 25859, 33987). Bu materiallarda qarama-qarshi tomonlar o'rtasidagi jang harakatlari, kuchlar nisbati, sovet qo'mondonligining muxolifat kuchlari to'g'risidagi razvedka va josuslik ma'lumotlari nisbatan ko'pchilikni tashkil qiladi.

Rossiya ijtimoiy-siyosiy tarixi davlat arxivi (RGASPI)dagi 9 ta fondning hujjatlari mazkur muammoni yoritishda katta ahamiyatga ega. RKP(b) Markaziy Komiteti, RSFSR XKS va Butunrossiya MIKning Turkiston ishlari bo'yicha komissiyasi (Turk-

komissiya), RKP(b) MK Turkiston byurosi (Turkbyuro), VKP(b) MK O'rta Osiyo byurosi (Sredazbyuro) va boshqa fondlardagi materiallarda (f. 2, 5, 17, 61, 62, 79, 85, 87, 122, 558, 670) partiya syezdlari va konferensiyalari, Turkkomissiya, Turkbyuro, O'rta Osiyo byurosi majlislarining stenografik hisobotlari, turli qo'llanmalar (instruksiyalar) va yo'l-yo'riqlar, Turkistondagi qurolli harakat va unga qarshi kurash haqidagi ma'lumotlar bor.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi arxivlarida saqlangan birlamchi manbalar, asosan sovet, partiya, xo'jalik va harbiy organlarining hujjatlari sovet hokimiyatiga qarshi kurash masalalarini, kurashuvchi tomonlar taktika va strategiyasini o'zida qamrab olganligi bilan xarakterlidir. Barcha arxiv hujjatlari va materiallari xronologik jihatdan tadqiq etilayotgan davrga taalluqli hisoblanadi. Barcha arxiv materiallarini tahlil qilish, ularni o'zaro taqqoslash va solishtirish, xususan, sovet rasmiy hujjatlariga tanqidiy yondashish jarayonida bu manbalar quyidagi guruhlarga ajratildi:

1. Turkistondagi sovet rejimiga qarshi qurolli harakatning yirik namoyandalari, g'oyaviy va siyosiy rahnamolari, harbiy rahbarlar va qo'rbosehilarning maktublari.
2. Harakatning siyosiy va harbiy yo'lboschilarini tomonidan chiqarilgan turlicha xarakterdagi murojaatnomalar, bayonnomalar, chaqiriqlar va varaqalar.
3. Muxolifat kuchlariga qarshi kurash olib borayotgan sovet qo'mondonligi vakillarining direktiva shaklidagi yo'l-yo'riqlari, rasmiy hujjatlari va axborotlari.
4. Turkiston o'lkasi Musulmonlar byurosi yig'ilishlarining protokollari.
5. Turkiston ASSR, BXSR va XXSR Sovetlarining syezdlari va plenumlari majlislarining stenografik hisobotlari va bayonomalar.
6. Turkiston, Buxoro, Xorazm Kompartiyalarining syezdlari va konferensiyalari majlislarining stenografik hisobotlari va materiallari, turli kengashlarning qarorlari.

7. Turkkomissiya, Turkbyuro, O'rta Osiyo byurosini kabi Markazning vakolatli organlari yig'ilishlarining protokollari va ma'ruzalar matnlari.

8. Jang harakatlari tasvirlangan ma'lumotnomalar, qarama-qarshi tomonlarning harbiy kuchlari nisbatini bildiruvchi razvedka va josuslik axborotlari.

9. Janglarda o'ldirilgan, yarador qilingan yoki taslim bo'lgan qo'rбoshilar va yigitlarining miqdori; qizil askarlarning talafoti bo'yicha hijjatlar.

10. Yuzlab qo'rбoshilarga tavsif (xarakteristika) berilgan hujjatlar, qo'rбoshilar faoliyati tasnif (klassifikatsiya) qilingan manbalar.

11. Ocharchilikka qarshi kurash komissiyasining statistik ma'lumotlari.

12. Sovet hokimiyatiga qarshi harakatning qo'shni Sharq davlatlari, Afg'onistonda turgan Said Olimxon va Rossiyadagi oqlar harakati rahbarlari bilan aloqalari va o'zaro imunosabatlari.

Manbalarning maxsus turi bo'lgan xotira va esdalikkarni alohida aytib o'tish kerak. Xotiralarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin: Birinchi guruh xotiralari orasida faqat "Qum-dagi janglar" va M. Muhammadjonovning "Turmush urinishlari" nomli kitoblari nisbatan xolisligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, VCHK-OGPUning Sharq bo'limi mudiri, chekist G. Agabekovning avval Parijda, so'ngra Moskvada rus tilida e'lon qilingan xotiralarida Turkiston qo'rбoshilar faoliyati to'g'risida ayrim ma'lumotlar mavjud. Marshal S. Budyonniy, komandarm Ya. Melkumov, chekist A. Valishev va general-leytenant M.A. Verevkin-Raxalskiy xotiralarida ham mavzuga oid faktlar bor.

Ikkinci guruh xotiralariga asosan avval xorijda, so'nggi yillarda esa O'zbekistonda e'lon qilingan turli xotiralar va esdalikkarni kiritish mumkin. Ularning mualliflari Turkistonning o'sha davrdagi mashhur siyosiy va harbiy arboblari amir Said Olimxon, Mustafo Cho'qay, Ahmad Zakiy Validiy To'g'on, Sher-

muhammadbek, Munavvar Qori, Polvonniyoz Hoji Yusupov, Alixonto'ra Sog'uniy, Salimxon Tillaxonov, shuningdek, Ibrohim Yorqin, Mariya Cho'qay (Mustafo Cho'qayning rafiqasi), Muhid-dinbey (Anvar Poshoning adyutanti) bo'lishgan. Bu xotiralarda Turkiston xalqlarining sovet rejimiga qarshi olib borgan milliy ozodlik kurashi o'zining xolis talqinini topgan. Bundan tashqari o'sha paytda Turkistonda harbiy asirlikda bo'lgan turk zabit (subayi) Roji Chaqiruzning xotiralari ham qimmatlidir.

Xotiralardan foydalanishda asosiy ilmiy mezon qilib ulardagi ma'lumotlar arxiv hujjatlari va boshqa birlamchi manbalar bilan tanqidiy va qiyosiy solishtirilishi, taqqoslanishi lozim.

Turkiston mintaqasida sovet rejimiga qarshi olib borilgan qurolli harakat to'g'risida o'sha davr voqealarining bevosita shohidi bo'lgan mahalliy tarixchilarining qo'lyozma asarlarida ham ko'plab ma'lumotlar mavjud. Bu qo'lyozma asarlar O'zbekiston FA Sharqshunoslik instituti va O'zbekiston MDAda saqlanadi. Masalan, qo'qonlik tarixchi va shoir Mulla Abdulla-jon Mirza Muhammad Solih o'g'li (XIX asr oxiri – XX asrning birinchi yarmi; u Nasimiyl taxallusi bilan she'rlar ham yozgan) Qo'qon atroflarida harakat qilgan Katta Ergash va Islom Polvon qo'rbosehilarning faoliyati haqida 1927-yilda tarixiy qissa (doston) bitgan. Shu narsa xarakterli holatki, muallif mazkur qo'rbosehilarning Qo'qon yaqinidagi Yangiqo'rg'on qishlog'idiagi qarorgohida ular huzurida mirzalik (kotiblik) qilgan.

Buxorolik mashhur tarixchi va davlat arbobi Mirza Muham-mad Salimbek ibn Muhammad Rahim (1850–1930; uning taxall-lusi Salimiyl bo'lib, she'rlar ham yozgan) o'zining "Tarixi Salimiyl" (1920) asarida Buxoro amirligining so'nggi davrini (Yosh buxoroliklar faoliyati, F. Kolesovning Buxoroga xuruji va b.) tasvirlash bilan bирgalikda Farg'ona vodiysida faoliyat ko'rsatgan Madamin-bek va Katta Ergash qo'rbosehilar to'g'risida ham to'xtalib o'tgan. Mahalliy tarixchilar o'z asarlarida qurolli harakatni "Turkiston xalqlarining ozodlik kurashi" deb baholashgan.

XX asr birinchi choragida Xiva xonligi va XXSRdagи siyosiy voqealar tahliliga bag'ishlangan xorazmlik jamoat arboblari va tarixchilar Jumaniyoz Hoji Boboniyozovning "Xivadagi inqilobiy harakat tarixiga oid materiallar (1908–1924)" va Hasan Madaminovning "Xiva xonligi tarixidan parchalar (1910–1913)" asarlari qo'lyozmasida (bu asarlar XX asr 40-yillarida yozilgan bo'lib, ularning o'zbek va rus tillaridagi qo'lyozmasi O'zbekiston MDA fondlarida saqlanadi) Xorazm vohasidagi qurolli harakat va Junaidxon to'g'risida muhim ma'lumotlar mavjud.

**BXSR va XXSR tarixiga oid hujjatlar.** 1920-yil 1-fevralda qizil armiya Xiva xonligini bosib oldi. Bolsheviklar yordamida Yosh xivaliklar partiyasi hokimiyat tepasiga keldi. 26-aprelda Xiva shahrida bo'lgan Butunxorazm xalq vakillarining I qurultoyida Korazm Xalq Sovet Respublikasi (XXSR) tashkil topganligi e'lon qilindi. XXSR Nozirlar Sho'rosining raisi qilib Polvonniyoz Yusupov saylandi. 1920–1924-yillarda Butunxorazm xalq vakillarining 5ta qurultoyi o'tkazildi.

1920-yil 2-sentyabrdan Turkiston fronti qo'mondoni M. Frunze boshchiligidagi qizil armiya Buxoro shahrini bosib oldi, amir Said Olimxon hokimiyati ag'darildi. Yosh buxoroliklar partiyasi hokimiyat tepasiga keldi. 1920-yil 6-oktyabrda Buxoro amirining yozgi saroyi Sitorai Mohi Xosada bo'lgan Butunbuxoro xalq vakillarining I qurultoyida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSR) tashkil topganligi e'lon qilindi. BXSR Nozirlar Sho'rosining raisi qilib Fayzulla Xo'jayev saylandi. 1920–1924-yillarda Butunbuxoro Xalq vakillarining 5 ta qurultoyi bo'lib o'tdi.

BXSR va XXSR tarixiga oid hujjatlar to'plamlari Toshkentda 1976-yili rus tilida e'lon qilingan edi. Manbalarning asosiy qismini esa arxiv hujjatlari va davriy matbuot tashkil qiladi.

Bu o'rinda O'zbekiston Respublikasi MDAdagi Buxoro Inqilobiy Qo'mitasi (46-f.), Buxoro Markaziy Ijroiya Qo'mitasi (47-f.), Buxoro Xalq Nozirlar Sho'rosi (48-f.), Buxoro Iqtisodiy

Kengashi (49-f.), BXSR Yer ishlari nozirligi (51-f.), BXSR Savdo-sanoat nozirligi (53-f.), Xorazm Iqtisodiy Kengashi (73-f.), Xorazm Markaziy Ijroiya Qo'mitasi (71-f.), Xorazm Xalq Nozirlar Sho'rosi (72-f.), XXSR Yer ishlari nozirligi (74-f.), XXSR Savdo-sanoat nozirligi (75-f.) fondlaridagi hujjatlarni alohida ta'kidlash kerak bo'ladi.

Ayniqsa, O'zbekiston MDAning 49-fondidagi hujjatlarda Buxoro Iqtisodiy Kengashining tashkil topishi, uning vazifalari, quyi tarmoqlari bo'lgan viloyat iqtisodiy kengashlarining faoliyati, Buxoro Iqtisodiy Kengashining BXSRdagi iqtisodiy islohotlarni amalgalashdagi ko'rsatmalariga doir hujjatlarni uchratish mumkin.

Shu arxivning 73-fondida Xorazm Iqtisodiy Kengashining tashkil etilish sabablari, xalq xo'jaligini tiklashdagi jonbozliklari, Butun Xorazm Markaziy Ijroiya Qo'mitasi, XXSR Xalq Nozirlar Sho'rosi va O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashiga tayyorlagan hisobotlari, xususan, asosiy tarmoq bo'lgan paxtachilik sohasidagi islohotlar, ya'ni, Rus-Xorazm paxtachilik shirkatinning tashkil etilishi, faoliyati, sabablari haqidagi ma'lumotlarni ko'rish mumkin.

Shuningdek, 49 va 73-fondlardagi Buxoro va Xorazm Iqtisodiy Kengashlarining O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashiga 1923–1924-yillar uchun tayyorlagan xo'jalik rejalarini hisobotlarni alohida ta'kidlash kerak.

**O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish tarixiga oid hujjatlar hamda O'zbekiston SSRning tashkil topishi.** 1924-yil 27-oktabrda Moskvada bo'lgan Butunittifoq Markaziy Ijroiya Komiteti (SSSR MIK)ning ikkinchi chaqiriq 3-sessiyasida Turkiston ASSR MIK favqulodda sessiyasi, Butunbuxoro xalq vakillarining V qurultoyi va Butunxorazm xalq vakillarining V qurultoyi qarorlari asosida O'rta Osiyoda milliy respublikalar tuzish to'g'risida maxsus qaror qabul qilindi. Sessiyada BSSR Nozirlar Sho'rosining raisi Fayzulla Xo'jayev O'rta

Osiyoda milliy-hududiy chegaralanishning o'tkazilishi to'g'risida nutq so'zladi. 1924-yil 31-oktabrda Toshkentda O'zbekiston SSR Muvaqqat Inqilobiy Komiteti (Markaziy revkom), ya'ni muvaqqat ishchi-dehqon hukumati tashkil topdi. Unga taniqli davlat arbobi Fayzulla Xo'jayev rais qilib tayinlandi. 18-noyabrda Turkiston ASSR, Buxoro SSR va Xorazm SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitalari maxsus qo'shma qaror qabul qildilar hamda shu qarorga binoan o'z vakolatlarini O'zbekiston SSR Sovetlarining ta'sis qurultoyiga qadar ish ko'rvuchi Fayzulla Xo'jayev raisligida tashkil qilingan O'zbekiston SSR Muvaqqat Inqilobiy komiteti (Markaziy revkom)ga topshirdilar.

1925-yil 13–17-fevralda Buxoroda maxsus qurilgan Xalq uyida Butuno'zbek Sovetlarining I ta'sis qurultoyi bo'lib o'tdi. "Qurultoy tomonidan 17-fevralda "O'zbekiston Soviet Sotsialistik Respublikasining tashkil topishi to'g'risida Deklaratsiya" qabul qilindi. O'zbekiston SSR tarkibida 1929-yilgacha Tojikiston ASSR bo'lgan, 1936-yildan Qoraqalpog'iston ASSR O'zbekiston SSR tarkibiga kirgan. Fayzulla Xo'jayev O'zbekiston SSR Xalq Komissarları Soveti raisi, Yo'dosh Oxunboboyev O'zbekiston SSR MIK raisi lavozimlariga saylanishgan. O'zbekiston SSR 1925-yil 13-mayda SSSR tarkibiga qabul qilingan. 1925–1937-yillarda O'zbekiston SSR Sovetlarining 6 ta qurultoyi o'tkazildi.

1925-yil 6–12-fevralda Eski Buxoro shahrida O'zbekiston Kommunistik partiyasining I ta'sis syezdi (qurultoyi) bo'lib o'tdi. Syezdda O'zbekiston Kommunistik (bolsheviklar) partiyasi tashkiliy jihatdan rasmiylashtirildi. O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti mas'ul sekretarlari qilib V. Ivanov va A. Ikromov saylandi. O'zbekiston Kompartiyasi Sovet Ittifoqi kommunistik partiyasi (KPSS)ning O'zbekistondagi filiali hisoblangan. 1925–1991-yillarda O'zbekiston Kompartiyasining 23ta syezdi o'tkazildi.

O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanishning o'tkazilishi hamda O'zbekiston SSRning tashkil topishi tarixiga oid man-

balar asosan o'sha davrdagi partiya va davlat arboblari bo'lgan F. Xo'jayev, A. Ikromov, Y. Oxunboboyev, U. Yusupov, I. Zelenskiy va boshqalarning nutq va maqolalari, arxiv hujjatlari, rasmiy matbuot materiallaridan iboratdir.

Masalan, "Turkiston", "Qizil O'zbekiston" va boshqa gazetalarda F. Xo'jayev, Vareykis, Ismoilzoda, Nurmat, Ramz, A. Islomov, A. Rahimboyev, I. Xidiraliyev, Y. Oxunboboyev va boshqalarning turli maqolalari, suhbatlari va nutqlari chop etilgan.

**O'zbekiston SSRning 1925–1941-yillardagi tarixini yorituvchi manbalar hamda qatag'onlar tarixi aks etgan hujjatlar.** Mazkur yillar O'zbekiston tarixining sovet davridagi fojiali sahifalari, jumladan, yer-suv islohoti, kollektivlashтирish va qulqlashtирish siyosati, o'zbek siyosiy elitasining ommaviy ravishda qatag'on qilinishi, "katta terror", O'zbekiston sotsialistik iqtisodiyoti asosini paxta yakka hokimligi tashkil etganligi bo'lib, bu kabi masalalar manbalarda o'z aksini topgan.

Xususan, sovet rejimining totalitar mohiyati va uning repressiv xarakteri O'zbekistonda yer-suv islohoti va kollektivlashтирishni amalga oshirishda, qulqlarga qarshi kurashda, ulamolar va ziylolarni qatag'on qilishda yaqqol namoyon bo'ldi. Sano-atlashtирish siyosatini amalga oshirish va sanoatni rivojlantirish davrida O'zbekiston SSR iqtisodini ma'muriy-buyruqbozlik tizimi orqali boshqarishning dastlabki elementlari shakllandi.

O'zbekistonda sovet hokimiyatining qatag'on siyosati to'g'risidagi arxiv hujjatlari va materiallari mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, o'zbek va rus tillarida Toshkentda chop etildi. Xususan, "Shahidlar xotirasi" xayriya jamg'armasi va "Qatag'on qurbanlari xotirasi" muzeyi tomonidan "Tarixning noma'lum sahifalari" nomi ostida 2009–2016-yillarda chop etilgan 5ta kitobda arxiv hujjatlari va materiallari hamda xotiralardan tashqari ilmiy maqolalar ham kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivida saqlanayotgan O'zSSR ishchi, dehqon va qizil askar deputatlari Soveti

Markaziy Ijroiya Qo'mitasi (R-86-fond), O'zSSR Xalq Komissarlar Soveti (R-837-fond), O'zSSR Ishchi-dehqon inspeksiyasi xalq komissarligi (R-95-fond), O'zSSR Adliya xalq komissarligi (R-904-fond), O'zSSR Prokuraturasi (R-1710-fond), O'zSSR Oliy Sudi (R-1714-fond), O'zSSR Davlat plan komissiyasi (R-88-fond), O'zSSR Moliya xalq komissarligi (R-93-fond), O'zSSR Yer ishlari xalq komissarligi (R-90-fond), O'zSSR qishloq xo'jalik kollektivlari Soyuzi (R-196-fond), O'zSSR Ijtimoiy ta'minot xalq komissarligi (R-96-fond), O'zSSR Mehnat xalq komissarligi (R-97-fond) fondlarining hujjatlari ilmiy tahlil doirasiga tortildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoni arxivi (O'zR PDA)dagi O'zbekiston Kommunistik partiyasi Markaziy Komitetining (58-fond) hujjatlari ham mavzuning qimmatli manbalaridandir. Bu fonddan nafaqat kompartiyaning faoliyatini, balki barcha sovet organlari, sud, prokuratura, OGPU, NKVD hamda MTSlar qoshidagi siyosiy bo'limlarning kollektivlashtrish jarayonidagi faoliyatini oshib beruvchi ma'ruza varaqalari va hisobotlar o'rinni olgan.

O'zbekiston Respublikasining Andijon, Buxoro, Namangan, Farg'ona, Samarqand viloyatlari davlat arxivlaridagi mavjud hujjat va materiallarini sinchiklab o'rganish orqali mahalliy partiya va sovet organlarining qarorlarini joylardagi ijrosi bilan bog'liq muammoli vaziyatlar, ziddiyatli jarayonlar kuzatiladi.

Rossiya Federatsiyasi Markaziy Davlat arxivi (TSGA RF)ning SSSR Ichki ishlar xalq komissarligi (F. R-9401), SSSR Ichki ishlar ministrligi 4-maxsus bo'limi (F. R-9479), SSSR Ichki ishlar ministrligi Jazoni o'tash Bosh boshqarmalari (F. R-9414)ning uchta fondidagi hujjat va materiallar umumlashgan xarakterga egadir.

Rossiya Federatsiyasi Federal xavfsizlik xizmati markaziy arxivi (TSGA FSB RF)dagi OGPU muxtor vakolatxonalarini bilan aloqalar bo'limi (F-2-fond) fondidan O'zbekistondan Shimoliy Kavkaz, Ukraina va Shimoliy Qozog'istonga surgun qilingan dehqonlarning mehnat posyolkalaridagi ahvoli haqidagi ma'lumatlar o'rinni olgan.

Rossiya hududidagi bu arxivlarda VKP(B) Markaziy Komiteti va uning Siyosiy byurosi, tashkiliy byurosi va sekretariati, SSSR Sovetlar Markaziy Ijroiya Qo'mitasi (MIQ), Xalq Komissarlar Soveti, Ichki ishlar xalq komissarligi (NKVD), Birlashgan Davlat Siyosiy boshqarmasi (OGPU), SSSR Oliy sudi hamda Prokuraturasining ilgari foydalanish cheklangan maxfiy hujjalari orasidan O'zbekistonga taalluqli bo'lganlaridan hozir foydalanish mumkin.

Arxiv hujjat va materiallari katta hajm va ko'lamda bo'lga-ni bois, ularning mazmun-mohiyati va tuzilishiga qarab sovet davri tarixiy-huquqiy va iqtisodiy-statistik manbalar guruhiga ajratilgan holda tahlil qilindi.

Sovet davri tarixiy-huquqiy manbalari o'zini vujudga kelish xarakteriga qarab uchta toifaga bo'linadi:

- kommunistik partiya hujjat va materiallari;
- davlat hokimiyati va boshqaruvi me'yoriy hujjat va materiallari;
- ish yuritish hujjatlari.

**1941–1945-yillardagi urush tarixiga oid materiallar.** Ikkinci jahon urushi (1939–1945) davri o'zbek xalqini jiddiy sinovdan o'tkazdi. Bunda o'zbek xalqi Sovet Ittifoqining boshqa xalqlari singari front va front ortida mardlik va qahramonlik ko'rsatdi. Fashistik Germaniya va militaristik Yaponiyaga qarsi urushda yuz minglab o'zbekistonliklar faol qatnashdilar.

1942-yil 31-oktabrda "Правда" (Moskva) gazetasida rus va o'zbek tillarida "O'zbek xalqining jangchilariga ularning el-yurtlaridan maktub" bosilib chiqdi. Maktub ostiga O'zbekiston SSR mehnatkashlaridan 2 412 000 kishi qo'l qo'ygan edi.

1943–1944-yillarda sovet hokimiyati tomonidan O'zbekistonga qrim tatarlari, chechenlar, ingushlar, balqorlar, pontiya greklari va mesxeti turklari zo'ravonlik bilan ko'chirildi. Bunda tashqari O'zbekistonga urush yillarida front hududidan 1 mln kishi, jumladan, 200 000 bolalar evakuatsiya qilindi. Tanti va mehmondo'st o'zbek xalqi ularni o'z bag'riga oldi.

Ikkinchı jahon urushi tarixiga oid hujjatlar O'zbekistonda-gi davlat arxivlarida juda oz saqlanib qolgan. Bunday hujjat-larning asosiy qismi Rossiya davlat harbiy arxivida saqlanadi. Urush davriga tegishli matbuot materiallarida turli manbalar borligini aytib o'tish joiz.

### **O'zbekistonning 1945–1985-yillardagi tarixiga oid hujjatlar.**

Bu davr O'zbekiston SSR tarixining yangi bosqichini tashkil etadi. XX asr 50-yillari boshlaridan to 70-yillari o'rtalarigacha sovet siyosiy va iqtisodiy tizimining evolutsiyasi kuzatiladi. Le-kin iqtisod va ijtimoiy hayotda, ayniqsa, meditsina, ilm-fan va ta'lindagi muayyan muvaffaqiyatlarga qaramasdan sovet ho-kimiyyati, xususan, O'zbekiston sotsialistik tuzumning umumiyy rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan katta qiyinchiliklarni boshidan kechirar edi. 1959–1983-yillarda O'zbekistonning siyosiy rahbari Sharof Rashidov bo'lgan.

XX asr 80-yillari boshlarida bu qiyinchiliklar kuchayib bordi hamda inqiroz ijtimoiy-siyosiy hayotning boshqa jabhalarini ham qamrab oldi. Mazkur davrga tegishli manbalar orasida arxiv hujjatlari, davriy matbuot materiallari hamda xotiralar alohida ajralib turadi.

1985-yil aprelda SSSRning yangi siyosiy rahbari M.S. Gor-bachyov tomonidan yangi yo'l e'lon qilindi. Keyinchalik kom-munistik mafkura tomonidan bu sana SSSRda qayta qurishning boshlanishi deb jar solindi. Mamlakatda qayta qurish 2 bosqichga ajratiladi: 1985–1986-yillar – birinchi bosqich; 1987–1990-yillar – ikkinchi bosqich.

Qayta qurish siyosati O'zbekistonga ham o'z ta'sirini o't-kazdi. Sovet rejimi "Paxta ishi" natijasida O'zbekistonda nav-batdagi qatag'on siyosatini yuritish natijasida minglab kishilar nohaq jazolandи.

Bu davrdagi matbuot materiallari asosiy manba hisobla-nadi. Gazeta va jurnallarda o'tkir tanqidiy maqolalar bosildi, tarixni yoritishga e'tibor kuchaydi.

**O'zbekistonning mustaqillikka erishish arafasida-gi tarixiga oid hujjatlar.** 1989–1991-yillardar o'zbek xalqi tarixi uchun yangi davr bo'lib, bu yillarda O'zbekiston mustaqillikka erishish uchun kurashdi. Islom Karimov boshchiligidagi O'zbekistonning yangi siyosiy rahbariyati respublikaning siyosiy va iqtisodiy suverenitetini ta'minlash, o'zbek xalqining milliy va diniy qadriyatlari tiklanishi uchun kurashdi.

1990-yil 20-iyunda O'zbekiston SSR Oliy Soveti o'n ikkinchi chaqiriq 2-sessiyasida "Mustaqillik Deklaratsiyasi" qabul qilindi. Bu jarayonlar shiddatli tus olib, 1991-yil 31-avgustda "O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida" Qonun qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi parlament yo'li bilan mustaqillikka erishdi. 1922-yil 30-dekabrda tashkil topgan SSSR davlati 1991-yil 25-dekabrda xalqaro huquq subyekti sifatida barham topdi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov asarlari, "Mustaqillik Deklaratsiyasi", turli hujjat va qonunlar, rasmiy va norasmiy davriy matbuot materiallari, arxiv hujjatlari, xotiralar va esdaliklar mazkur davr tarixini yozishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

#### Savol va topshiriqlar

1. O'zbekistonning sovet davri tarixini yoritishda arxiv manbalari qanday rol o'ynaydi?
2. Muxtoriyatchilik va istiqlolchilik harakatlari tarixini tadqiq etishda qanday manbalar ustuvor rol o'ynaydi?
3. BXSR va XXSR tarixiga oid hujjatlarda O'zbekiston tarixiga oid qanday ma'lumotlar aks etgan?
4. O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish siyosatining amalga oshirilishi va uning oqibatlari to'g'risidagi fikringizni bayon qilib bering.
5. O'zbekistonning 1925–1941-yillardagi tarixini yorituvchi manbalar hamda qatag'onlar tarixi aks etgan hujjatlar xususida ma'lumot keltiring.

6. O'zbekistonning 1939–1945-yillardagi ikkinchi jahon urushi davridagi tarixiga oid qanday manbalarni bilasiz?
7. O'zbekiston mustaqillikka erishish arafasidagi voqealar yoritilgan manbalar haqida so'zlab bering.

### Manbalar va adabiyotlar

1. Alimova D.A., Golovanov A.A. O'zbekiston mustabid sovet tuzumi davrida: siyosiy va mafkuraviy tazyiq oqibatlari (1917–1990). – T.: "O'zbekiston", 2000.
2. Alixonto'rə Sog'uniy. Turkiston qayg'usi. Nashrga tayyorlovchilar: A. G'apporov, Q. Shokirov. 1-kitob. – T.: "Sharq", 2003.
3. Amir Sayyid Olimxon. Buxoro xalqining hasrati tarixi. Forsiyidan A. Irisov tarjimasi. – T.: "Fan", 1991.
4. Validiy, Ahmad Zaki Validiy To'g'on. Xotiralar. Turkistonda mustaqillik va ozodlik uchun kurashlar tarixi. Tarjimon, ilmiy tahrir muallifi va nashrga tayyorlovchi M. Abdurahmonov. – T.: "Istiqlol nuri", 2014.
5. История Бухарской Народной Советской Республики (1920–1924 гг.). Сборник документов. – Т.: "Фан", 1976.
6. История Хорезмской Народной Советской Республики (1920–1924 гг.). Сборник документов. – Т.: "Фан", 1976.
7. Культурное строительство в Туркестанской АССР (1917–1924 гг.). Сборник документов. – Т.: "Узбекистан", 1973. Т. I. (1917–1920 гг.).
8. Mingnarov A. Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning milliy matbuotda yoritilishi (1917–1918-yillar). – Т.: "Istiqlol nuri", 2013.
9. Munavvar Qori Abdurashidxonov. Xotiralarimdan (Jadidchilik tarixidan lavhalar). Nashrga tayyorlovchi S. Xolboyev. – Т.: "Sharq", 2001.
10. Мустафа Чокаев. Отрывки из воспоминаний о 1917 г. Составление и предисловие С.М. Исхакова. – Токио – Москва, 2001.
11. Polvonniyoz Hoji Yusupov. Yosh xivaliklar tarixi (Xotiralar). Nashrga tayyorlovchi M. Matniyozov. – Urganch: Xorazm, 1999.
12. Rajabov Q. Buxoroga qizil armiya bosqini va unga qarshi kurash: tarix haqiqati (1920–1924-yillar). – Т.: "Ma'naviyat", 2002.
13. Rajabov Q. Farg'ona vodiysisidagi istiqlolchilik harakati: mohiyati va asosiy rivojlanish bosqichlari (1918–1924-yillar). – Т.: "Yangi nashr", 2015.

14. *Rajabov Q., Inoyatov S.* Buxoro tarixi. – T.: "Tafakkur", 2016.
15. *Rajabov Q., Haydarov M.* Turkiston tarixi (1917–1924-yillar). – T.: "Universitet", 2002.
16. *Rasulov A.* Turkiston va Volgabo'yi, Uraloldi xalqlari o'rtaсидаги муносабатлар (1917–1924-yillar). – T.: "Universitet", 2005.
17. *Salmonov A.* O'zbekistonda sovet hokimiyatining diniy siyosati: uydirma va tarix haqiqati (1917–1960-yillar). – T.: "Tafakkur", 2015.
18. Сборник важнейших декретов, постановлений и распоряжений Правительства ТАССР за 1917–1922 гг. – Т.: Изд. Комиссии СНК, 1922.
19. Узбекистан за 15 лет. Статистический сборник. – Т.: Госиздат научно-технической и социально-экономической литературы УзССР, 1939.
20. O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. – T.: "Sharq", 2001.
21. O'zbekistonda XX asrning 20–30-yillaridagi siyosiy va ijtimoiy jayaronlar (Arxiv hujjatlari va boshqa materiallar asosida) [o'zbek va rus t.]. Mas'ul muharrir hamda nashrga tayyorlovchi, so'zboshi, izoh va sharhlar muallifi Q.K.Rajabov. – T.: "Navro'z", 2014.
22. O'zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob. O'zbekiston sovet mustam-lakachiligi davrida. Ilmiy muharrir M. Jo'rayev. – T.: "Sharq", 2000.
23. O'n sakkizlar guruhi. Дело восемнадцати (Arxiv hujjatlarining izohli to'plami). Nashrga tayyorlovchi va so'zboshi mualliflari: Q.K. Rajabov, A.J. Yaxshiyev. Izoh va sharhlar muallifi: Q.K.Rajabov. – T.: "Akademiya", 2012.
24. *Haydarov M.* O'zbekistonda sovet davlati boshqaruvi tizimi: shaklanishi, bosqichlari va mohiyati (1917–1941-yillar). – T.: "Abu matbuot-konsalt", 2012.
25. *Hayitov Sh.* O'zbek muhoyirligi tarixi (1917–1991-yillar). – T.: "Abu matbuot-konsalt", 2008.

## MUSTAQILLIK DAVRI MANBALARI VA HUJJATLARI

### 15-MAVZU: O'ZBEKISTONNING MUSTAQILLIK YILLARI TARIXIGA OID MANBALAR VA HUJJATLAR

*O'zbekiston Respublikasi asosiy qonun va huquqiy-me'yoriy hujjatlari mamlakatning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotini o'rganish bo'yicha muhim manba sifatida.*

*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va nutqlarida O'zbekistonning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari.*

*Mustaqillik davriga oid statistik to'plamlar, arxiv hujjatlari, davriy matbuot nashrlari tarixiy-manbaviy ahamiyati.*

**O'zbekiston Respublikasi asosiy qonun va huquqiy-me'yoriy hujjatlari mamlakatning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotini o'rganish bo'yicha muhim manba sifatida.**

O'zbekiston Respublikasining tashkil topishi, suveren davlat maqomida taraqqiy etishi, uning mustaqillik davridagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ma'nnaviy hayotini o'rganishda mazkur davr manbalari muhim ahamiyat kashb etadi.

O'zbekiston davlatining suveren rivojlanish yo'lida mustaqillik yillarida olib borilayotgan siyosati mazkur davrda qabul qilingan qonunlar, qonun to'plamlari, davlat rahbari, hukumati tomonidan chiqarilgan qaror, farmon, farmoyishlar, buyruqlar, boshqa turdag'i me'yoriy hujjatlar, statistik to'plamlar, davriy

nashrlar, boshqaruv organlari hujjatlari kabi manbalarda o'z aksini topgan.

Mustaqilligi e'lon qilingan yangi davlatning qonun va qonunosti hujjatlari o'z davriga ko'ra turli sohalarda amalgamoshirilgan islohotlarining ilk qadamlari sifatida jahonshumul ahamiyatga ega bo'lgan siyosiy, tarixiy-manbaviy, yuridik kuchga ega hujjatlar hisoblanadi. Dastlabki siyosiy hujjatlar qatorida O'zbekiston Respublikasining "Mustaqillik Deklaratsiyasi" hamda "O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi Qonunini e'tirof etish lozim. Ushbu hujjatlar o'zbek xalqining mustaqillikka erishishidagi katta siyosiy-ijtimoiy o'zgarishlarni aks ettiruvchi birlamchi tarixiy manbalar hisoblanadi.

**O'zbekiston Respublikasi "Mustaqillik Deklaratsiyasi"** 1990-yil 20-iyunda O'zbekiston SSR Oliy Sovetining ikkinchi sessiyasida qabul qilingan bo'lib, unda O'zbekiston SSRning Davlat mustaqilligi e'lon qilingan. Ushbu hujjat O'zbekistonning mustaqillikka erishishida qo'yilgan muhim qadamlardan biri edi. Deklaratsiya o'n ikki banddan tashkil topgan, bandlarda respublikaning o'z hududida tanho hokimligining o'rnatilishi, davlat hududi chegarasi dahlsizligi, davlat hokimiyati barcha tarkibiy va bo'linmas qismlari hamda shu hududda yashaydigan aholiga taalluqliligi, respublika ichki va tashqi siyosatiga tegishli barcha masalalar davlat hokimiyati vakolatiga kiritilishi, o'zining taraqqiyot yo'lini, o'z nomini belgilashi va davlat ramzlari (gerb, bayroq, madhiya)ni o'zi ta'sis etishi, o'z qonun chiqaruvchi hokimiyati tarkibini shakllantirishi, umumxalq muhokamasi asosida demokratik huquqiy davlat tuzishga qaror qilinganligi, ayni vaqtda respublika hududida yashayotgan barcha millat va elatlarning qonuniy, siyosiy, iqtisodiy, etnik, madaniy huquqlariga hamda ona tillari rivojlantirilishiga kafillik berilishi, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi manfaatlarining himoya qilinishi bayon etilgan.

Mazkur tarixiy hujjatning so'nggi bandida quyidagi satrlar bitilgan: "Ushbu Deklaratsiya O'zbekiston SSRning yangi Konstitutsiyasi hamda yangi ittifoq shartnomasini ishlab chiqish uchun asosdir".

Ta'kidlash joizki, O'zbekistonning sovetlar Ittifoqi tarkibidan chiqishi hamda suverenitetga erishishiga qadar bo'lgan o'tish davri murakkab kechgan va turli siyosiy jarayonlarga boy bo'lgan. Aynan shu vaqt mobaynida respublikani boshqarishda Mustaqillik Deklaratsiyasida e'tirof etilgan ko'rsatmalar mustaqillik sari yo'naltirilgan teran va dadil davlat siyosatini olib borishda tuyanch asos sifatida muhim bo'lgan.

1990-yil iyun – 1991-yil avgust oralig'ida respublikamizning Sovet davlati tarkibidan mustaqil davlat bo'lib chiqishi uchun sa'y-harakatlar mamlakatimizning birinchi Prezidenti I.A. Karimov boshchiligidagi amalga oshirildi. Suveren davlat qurish yo'lini tanlagan o'zbek xalqi va respublika rahbariyati Sovet davlatining Markaziy hokimiyatining keskin qarshiligidagi uchragan, yuzaga kelgan inqiroz holatida O'zbekiston hukumatni tomonidan qator qonunlar qabul qilingan bo'lib, ularning asosiy maqsadi respublikani mustaqil davlat bo'lishiga qaratilgan. Xususan, 1991-yil 31-avgustda O'zbekiston Oliy Kengashining XII chaqiriq navbatdan tashqari oltinchi sessiyasida mamlakatimizning mustaqilligini e'tirof etuvchi **O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risidagi" Qonuni** qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov o'z ma'rzasida mustaqil davlatlar maqomiga to'xtalib quyidagi jihatga e'tibor qaratdi: "...Oliy Kengash diqqatiga faqat bir masalani qo'ymoqchiman: O'zbekistonning mustaqilligi haqidagi Qonunni muhokama etish va uni qabul qilishni taklif etaman. Bu qonunda qadimiy va yangilanayotgan diyormizda istiqomat qilayotgan barcha kishilarning xohish-iodasi o'z ifodasini topgan. Xalqimizning bu ezgu xohish-irodasi biz uchun muqaddasdir".

Oliy Kengash deputatlari moddama-modda muhokama-dan so'ng O'zbekiston Respublikasining Davlat Mustaqilligi to'g'risidagi qonunni qabul qildilar. O'zbekiston SSRning nomi O'zbekiston Respublikasi deb o'zgartirildi.

Ushbu sessiyaning yana bir tarixiy ahamiyati, bu unda Bayonot hamda Mustaqillik kuni to'g'risidagi qarorning qabul qilinishidadir. Jumladan, "O'zbekiston Respublikasining Davlat Mustaqilligi to'g'risida Oliy Kengash Bayonoti" qabul qilindi. Oliy Kengash mazkur Bayonot orqali xalqaro huquqiy hujjatlar-da qayd etilgan o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga asoslanib, respublika xalqlarining taqdiri uchun butun mas'uliyatni ang-lab, O'zbekistonning davlat mustaqilligini va ozod suveren davlat – O'zbekiston Respublikasi tashkil etilganligini tanta-nali ravishda e'lon qildi. Oliy Kengash sessiyasi "O'zbekiston Respublikasining Davlat Mustaqilligini e'lon qilish" to'g'risidagi qarorni qabul qildi. Qarorda: "1-sentabr O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni deb belgilansin va 1991-yildan bosh-lab bu kun bayram va dam olish kuni deb e'lon qilinsin", deb belgilab qo'yildi.

O'zbekiston Oliy Kengashining XII chaqiriq navbatdan tashqari oltinchi sessiyasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi haqidagi bu hujjatlar o'zbek xalqining asriy orzusi ro'yobga chiqqanligining huquqiy ifodasi bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risidagi" Qonuni asosida O'zbekistonning huquqiy holati tubdan o'zgardi. O'n yetti mod-dadan iborat ushbu qonun suveren O'zbekiston Respublikasi ning asosiy belgilarini aniqlab berdi hamda o'z mohiyatiga ko'ra davlatda vaqtinchalik asosiy qonun rolini ham bajardi.

Umuman olganda, "O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risidagi" Qonunda O'zbekiston Respublikasi o'z tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi bilan birga, mustaqil, demokratik davlat, uning xalqi suveren ekani,

O'zbekiston to'la davlat hokimiyati, milliy davlat va ma'muriy-huquqiy davlat tuzilishi va boshqaruv idoralari tizimini mustaqil belgilashi, respublikaning Konstitutsiyasi va uning qonunlari ustunligi, davlat mustaqilligining moddiy asosi uning mulki ekani, O'zbekiston Respublikasi o'z pul birligini joriy etishga haqliligi, mustaqil ravishda moliya va kredit siyosatini amalga oshirishi, chet davlatlar bilan aloqalar o'rnatishi, xalqaro shartnomalar tuzishi, xalqaro tashkilotlarning a'zosi bo'lishi, respublika hududida inson huquqlari umumiy deklaratasiyaga muvofiq holda Respublika fuqaroligi joriy etilishi, O'zbekiston Respublikasi o'z davlat ramzlarini ta'sis etishi hamda davlat tili ni belgilashi, o'z tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasining hududiy butunligini va mustaqilligini e'tirof etishi xususida ta'kidlab yozilgan. O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risidagi qonun O'zbekistonning mustaqillik deklaratasiyasi va davlat mustaqilligi to'g'risidagi bayonetga asoslangan. Mazkur Qonunning 4-moddasida "O'zbekiston Respublikasining davlat chegarasi va hududi daxlsiz va bo'linmas bo'lib, uning xalqi o'z xohish-irodasini erkin bildirmasdan turib o'zgartirilishi mumkin emas", deb yozilgan.

Bunday Qonunning qabul qilinishi Mustaqillik davrida qo'lga kiritilgan yutuqlarning natijasi hisoblanadi va huquqiy, iqtisodiy hamda ma'naviy-axloqiy munosabatlarni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Shu sababdan ushbu Qonunga O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil 30-sentabrda bo'lib o'tgan VII sessiyasida qabul qilingan qarori bilan Konstitutsiyavii Qonun maqomi berildi.

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgan dastlabki yildanoq o'zining qonunchilik asosini yaratishda izchil harakatlar amalga oshirdi. Bunda respublika rahbariyati boshchiligidagi o'zbek xalqining tarixi, urf-odatlari, orzu-intilishlari, tinch va osuda hayot kechirishi, jahonda barcha davlatlar bilan teng huquqli bo'lib taraqqiy etishi uchun shart-sharoitlar yaratishga huquqiy

zamin bo'lib xizmat qiluvchi asosiy qonun – Konstitutsiya va turli sohalarni tartibga soluvchi kodekslar, qonunlar, huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilinishini qayd etish lozim.

**O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.** Mustaqillik mustabid tuzum davrida toptalgan haq-huquqlar, milliy an'ana, urf-odat va qadriyatlarimiz, o'zlikni anglash tushunchasi,adolat ustuvorligini qayta tiklanishiga olib kelibgina qolmay, uning qonuniy-huquqiy asosi bo'l mish davlatimizning asosiy qonuni, mezon hujjati – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yaratilishiga sabab bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992-yil O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XI sessiyasida qabul qilingan bo'lib, muqaddima, 6 bo'lim, 26 bob, 128 moddadidan iborat. Birinchi bo'lim – "Asosiy prinsiplar", ikkinchi bo'lim – "Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari", uchinchi bo'lim – "Jamiyat va shaxs", to'rtinchchi bo'lim – "Ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi", beshinchi bo'lim – "Davlat hokimiyatining tashkil etilishi", oltinchi bo'lim – "Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish tartibi" deb nomlanadi. Mamlakatimizning davlat boshqaruvi va fuqarolarning davlat bilan o'zaro munosabatlari, davlatning turli sohalardagi amaliy faoliyatining huquqiy asosini yaratib bergen Konstitutsiyamiz mustaqillikdan so'ng mamlakatimiz qay yo'nalishda rivojlanishi, har bir sohaning huquqiy-me'yoriy asosi rivojlangan davlatlar qatoriga chiqish uchun qay holatda va tartibda bo'lishi va amalga oshirilmog'i lozimligini ko'rsatib beribgina qolmay, bugungi kunda O'zbekistonning huquqiy demokratik davlat hamda kuchli fuqarolik jamiyati sari tarixiy rivojlanib borishida davlatimiz siyosiy strategiyasini belgilovchi, munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi asosiy tayanch vazifasini o'tamoqda.

Asosiy qonunimiz orqali shaxs, davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning aniq mexanizmiga asos solindi. Ushbu hujjat davlatimizning huquqiy ahamiyatga ega ustuvor hujjati hisobla-

nadi. Unga ko'ra boshqa Qonunlar ishlab chiqiladi va u barcha huquqiy hujjatlarning debochasi hisoblanadi.

Konstitutsiya demokratlashayotgan jamiyatimiz va modernizatsiya qilinayotgan mamlakatimiz istiqbolini belgilovchi yuridik hujjat sifatida avvalambor umuminsoniy qadriyatlар va xalqaro huquq ustuvorligi tamoyiliga asoslanadi. Unda siyosiy fikrlarni chegaralovchi, ijtimoiy sinflarni qarama-qarshi qo'yuvchi yagona mafkura yoki yakkahukmronlik uchun mezon mavjud emas. Davlat va hokimiyyat organlari fuqarolar manfaatini ta'minlashga xizmat qiladi, shuningdek, inson hayoti, uning shaxsi va erkinligining daxlsizligi prinsipi kafolatlangandir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIX bobi 89-moddasida "O'zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig'i idir va davlat hokimiyyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlaydi" deb belgilab qo'yilgan. Respublika Prezidenti respublikada qabul qilinayotgan qonunlarni imzolaydi va e'lon qiladi, Konstitutsiya va qonunlarga asoslanib hamda ularni ijro etish yuzasidan respublikaning butun hududida majburiy kuchga ega bo'lgan farmonlar, qarorlar va farmoyishlar chiqaradi. Prezident tomonidan chiqarilgan farmon, qarorlar va imzolangan boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlar haqidagi ma'lumotlar rasmiy hujjatlar va nashrlarda, shu jumladan, "**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devonining nashri Xabarnoma'larda** e'lon qilinadi va yillar davomida mujassamlanadi.

Prezident devoni – bu davlat rahbari tomonidan shakllantiriladigan axborot-tahlil va tashkiliy-nazorat organidir. U Prezidentga bo'ysunadi va bevosita unga hisobdordir. Prezidentning konstitutsiyaviy vakolatlari amalga oshirilishini ta'minlash, aholi bilan to'g'ridan to'g'ri muloqotni tashkil etish, davlatning ichki va tashqi siyosati asosiy yo'naliishlarini shakllantirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish, mamlakatda qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlashga ko'maklashish kabilar Devon-

ning asosiy vazifalari qatoriga kiradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1-mart 2017-yildagi PF-4974-son Farmoni bilan Prezident devoni to'g'risidagi nizom va uning yangilangan tuzilmasi tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Xabarnomasi 1992, 1993-yillarda "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Xabarnoma"si (sonlar tartib raqamida ko'rsatilgan holda), keyinchalik 1994-yildan buyon to hozirgi vaqtga qadar, "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devonining nashri Xabarnoma"si deb nomlangan (nashr soni qayd etilgan). Bir yilda 4 tagacha soni nashr qilinib, ularda muayyan davr mobaynida (ushbu son Xabarnomasi bag'ishlangan yilning ma'lum oylari davomida) Respublika Prezidenti tomonidan chiqarilgan farmon, qarorlar, shuningdek, qabul qilingan qonunlar, davlat rahbarining nutqlari, tashriflari haqidagi axborotlari, boshqa mamlakatlar rahbarlari bilan imzolagan bayonot, bitimlar matni, Prezident faoliyati solnomasi (xronikasi), O'zbekiston fuqarolari tomonidan Respublika Prezidentiga yo'llagan xatlari va bergen arizalari to'g'risida axborot, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining o'zbek xalqiga bayramlar munosabati bilan yo'llagan tabrigi, turli hududlarga uyushtirgan safarlaridagi nutqlari, aholiga murojaatlari, turli soha vakillari bilan uchrashuvlari va so'zlagan nutqlari, respublika hukumati, rahbar xodimlari bilan bo'lgan uchrashuvlari mazmuni, konferensiya va boshqa tadbirdarda so'zlagan nutqlari haqidagi ma'lumotlar o'rinni olgan. Xabarnomalarda Prezident nutqlari o'zbek tilida, Prezident farmonlari, qarorlari, qonunlar, solnoma (xronika)lar esa o'zbek va rus tillarida berilgan.

Misol tariqasida mazkur Xabarnomalardan birining tarkibi-ga to'xtalib o'tamiz:

**"O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devonining nashri  
Xabarnoma 2-son (104)"  
2017-yil aprel-iyun**

Mundarija:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari. [24 ta farmon]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari. [35 ta qaror]

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning Qo'shma bayonoti.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 9-may – Xotira va Qadrlash kuniga bag'ishlangan qabul mafrosimidagi nutqi.

O'zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasining Strategik sheriklik munosabatlarini yanada chuqurlashtirish to'g'risida Qo'shma bayonoti.

"Barkamol avlod" sport o'yinlari qatnashchilariga.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofli-gini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqi.

Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati IV Qurultoyidagi nutqi.

Xronika (aprel–iyun).

"O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devonining nashri Xabarnoma" sonlarida O'zbekiston Respublikasi davlat rahbari tomonidan mamlakatimiz ravnaqi yo'lida tinimsiz, izchil, tizimli tarzda amalga oshirayotgan ishlari, sa'y-harakatlari haqida aniq, asosli ma'lumotlar o'rinni olgan bo'lib, ular mustaqillik davri tarixiy voqealarini o'zida aks ettiradi. Bunday manbalarni o'rganish orqali O'zbekistonning mustaqillik davrida respublika hayotida yuz bergan muhim voqealar to'g'risida asosli ma'lumotlar qo'lga kiritiladi, davlat rahbarining Vatan taraqqiyoti, o'zbek xalqining tinch, farovon, baxtli hayat kechirishi uchun olib borayotgan siyosati xususida bat afsil axborot mujassamlanadi.

O'zbekistonning suveren davlat sifatida taraqqiy etib kelayotgan mustaqillik davri tarixini tadqiq etishdagi rasmiy hujjatlar qatorida davlatimizning qonun chiqaruvchi organi Oliy Majlisga tegishli bo'lgan davriy nashr – "**O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi**" qimmatli manba sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi davlat boshqaruvi bo'g'inlarining eng asosiyisi, ya'ni mamlakat taraqqiyotining huquqiy asoslarini belgilab beruvchi – Qonun chiqaruvchi organ hisoblanib, ushbu organ tomonidan ishlab chiqilgan va amalga tatbiq etilgan qonun, qonunosti hujjatlari jamiyat taraqqiyoti va rivoji uchun amaliy asos vazifasini o'taydi. Bunguni kunda iqtisodiyot, siyosat, madaniyat, ijtimoiy hayot, davlat boshqaruvi, huquq va sud sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi – O'zbekiston xalqi uchun munosib turmush sharoitini yaratish, odamlarning daromadi va farovonligini oshirib borish, har bir insonga o'zining intellektual, kasb va ma'naviy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur imkoniyatlar yaratib berish bo'lganligi sabab, bu sohalarda qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning takomillashuvi alohida tarixiy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi tomonidan qabul qilingan qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlar uning maxsus nashri hisoblangan "Oliy Majlis Axborotnomasi"da muntazam chop qilinadi va jamoatchilik e'tiboriga taqdim qilinadi. To'plam 1991-yildan buyon to hozirgi davrgacha nashr qilib kelinadi. Axborotnomada ma'lumotlar ikki tilda – o'zbek va rus tillarida berib boriladi. Dastlab uning nomi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi" ("Ведомости Верховного Совета РУз") deb nomlangan. Keyingi davrlarda, 1995-yil aprel oyи № 4–6-sonlaridan boshlab "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi" ("Ведомости Олий Мажлиса Республики Узбекистан") deb atalgan. 2005-yilda to'plam

nomi “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi” (“Ведомости палат Олий Мажлиса Республики Узбекистан”) deb o'zgartirilgan.

Axborotnoma tarkibi yillar mobaynida o'zgarib takomillashib borganini alohida qayd etish joiz. Xususan, 1991–2004-yillarda uning tarkibida asosan ikki bo'lim va ilovalar bo'lgan. Birinchi bo'limda O'zR Oliy Majlisi Qarorlari, ikkinchi bo'limda O'zR Prezidenti Farmonlari, ilovalarda esa respublikada qabul qilinayotgan qonunlar va boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlar o'rinni olgan. 2005-yilda O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvi tizimida olib borilgan islohotlar natijasida qonun chiqaruvchi organ Oliy Majlis ikki palatali tizimga o'tgan va bu holat siyosiy hujjatlarda o'z aksini topgan. Jumladan, Oliy Majlis Axborotnomasi tarkibiga yangi bo'limlar kiritilgan:

I bo'lim – O'zbekiston Respublikasi Qonunlari.

II bo'lim – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Qarorlari.

III bo'lim – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Qarorlari.

IV bo'lim – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari.

V bo'lim – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati qo'shma Qarorlari.

Quyida misol tariqasida Oliy Majlis Axborotnomasining bir soni tarkibini keltirib o'tamiz:

#### “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi”

2008-yil dekabr № 12-soni

Mundarija:

1-bo'lim. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari – 628–641 gacha.

2-bo'lim. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik Palatasi Qarorlari – 642–657 gacha.

3-bo'lim. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Qarorlari – 658–683 gacha.

- 4-bo'lim. 1) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari – 684–694 gacha.
- 2) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarorlari – 695–702 gacha.
- 3) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi Kengashi qarori – 703 (yil yakunlari bo'yicha).
- 4) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Kengashi qarorlari – 704–717 gacha.

Mazkur Axborotnomada Oliy Majlis tomonidan 2008-yilning yakunida olib borgan faoliyatini aks ettiruvchi va, albatta, O'zbekiston davlati siyosatida amalga oshirilayotgan islohotlar bilan bog'liq muhim ma'lumotlarning huquqiy asoslariga oid axborot keltirilgan. Jumladan, Birinchi bo'limda jami 14 ta qonun qayd etilgan (masalan, № 628 – "O'zR Fuqaroviylar siyosiy huquqlari to'g'risida"gi Xalqaro paktga doir, o'lim jazo-sini bekor qilishga qaratilgan Ikkinchchi fakultativ Protokolga (Nyu-York, 1989-yil 15-dekabr) qo'shilishi haqida"gi O'zRning Qonuni); Ikkinchchi bo'limda 16 ta qaror matni keltirilgan (masalan, № 652 – "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi O'zR Qonuniga o'zgartirish va qo'shimcha kiritish haqida"gi O'zR Qonuni loyihasi to'g'risidagi O'zR Oliy Majlisning Qonunchilik Palatasining Qarori (2008-yil 18-dekabr – 30-oktabr); Uchinchi bo'limda 26 ta qaror berilgan (masalan, № 660 – O'zRning 2009-yilgi Davlat budjeti to'g'risidagi O'zR Oliy Majlisi Senatining Qarorlari); To'rtinchi bo'limda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11 ta Farmoni, 8 ta Qarori yozilgan (masalan, № 684 – Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to'g'risida O'zR Prezidentining Farmoni), Oliy Majlis palatarining 15 ta qarori matnlari o'rinn olgan.

O'zbekistonda mustaqillik yillarda huquqiy-demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lida olib borilayotgan davlat siyosatiga oid tarixiy ma'lumotlarni o'rganishda

qonun chiqaruvchi organ Oliy Majlisning faoliyati doirasida yuzaga kelayotgan huquqiy-me'yoriy hujjatlarni o'zida aks ettirib kelayotgan nashr – "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnoma"si alohida muhim ahamiyatga egadir.

Davlatimiz Qonunchilik bazasining yaratilishi davomida respublikada har bir sohaga oid qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlari qabul qilinadi, respublika rahbariyati, xalq hokimiyyat organlari, mutasaddi tashkilotlar tomonidan tegishli qaror, buyruqlar chiqariladi. Ularni bilish nafaqat huquq sohasida faoliyat yurituvchi shaxslar, balki barcha fuqaro uchun majburiy sanaladi. O'zbekiston Respublikasi qonunlari alohida rasmiy nashrlarda chop qilinadi, ommaviy-axborot vositalari orqali xalqqa targ'ib etiladi, kodekslar va boshqa huquqiy adabiyyotlarda yozib boriladi. Bunday adabiyyotlar qatorida davriy tarzda nashr qilinadigan qonun hujjatlari to'plamini qayd etish joiz. Mazkur manba "**O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami**" deb atalib, 2000-yildan to hozirgi vaqtga qadar nashr qilib kelinadi. Bugungi kunda ushbu to'plam tarkibiga kiritilgan beshta bo'lim uning mundarijasida qayd etib boriladi. Bu quyidagilar:

1-bo'lim. O'zbekiston Respublikasi qonunlari va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari.

2-bo'lim. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror va farmoyishlari.

3-bo'lim. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari.

4-bo'lim. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy suding qarorlari.

5-bo'lim. O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralarining O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan normativ-huquqiy hujjatlari.

Biroq, qayd etish o'rinniki, "O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami" tarkibidagi 1- va 4-bo'limgar ushbu to'plam sonlariga kiritilmaydi. Sababi, ular alohida to'plamlar sifatida chop qilib kelinadi. Xususan, 1-bo'limga doir O'zbekiston Respublikasi qonunlari va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi"da, 4-bo'limga tegishli O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining qarorlari esa "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Sudi Axborotnomasi" deb nomlangan davriy nashrda e'lon qilinadi.

Shuningdek, to'plamda O'zbekiston Respublikasi Hukumatining o'z kuchini yo'qotgan qarorlari ro'yxati berib boriladi (ba'zida o'z kuchini yo'qotgan qarorlarning o'zi, ba'zan qarorlardagi ilovalar, ayrim hollarda faqat qaror bandlari yoki ilovalardagi bandlar matnlari keltiriladi). Bunday ro'yxatlar to'plamning har bir bo'limi ichida uchrashi mumkin.

Har bir to'plamda bir nechta son jamlangan bo'lib, yil davomida chop qilingan to'plam sonlari o'n bitta va undan ziyod bo'lishini qayd etish lozim (masalan, 2000-yilda 11 ta son to'plam tarkibida bo'lgan, 2004-yilda esa Qonun hujjatlari to'plami 52 ta son va Ko'rsatkichdan iborat edi).

"O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami" nashri O'zbekiston Respublikasi qonunchilik sohasini o'rganish, davlatimizning ichki va tashqi siyosatining huquqiy asoslarini targ'ib qilish, aholining huquqiy savodxonligini oshirish, jamiyatimizda demokratik mezonlarga amal qilishni ta'minlash borasidagi sa'yi-harakatlarni kuzatib borish imkonini beruvchi muhim manba hisoblanadi.

**"O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari".** O'zbekiston davlatida qabul qilingan qonunlar, Prezident farmonlari va boshqa boshqaruv organlari qarorlarining bajarilishi, ya'ni ularning ijro etilishini tashkil qilish,

ta'minlash hamda nazoratga olish respublika hukumati tomonidan Vazirlar Mahkamasi boshchiligidagi amalga oshiriladi. Vazirlar Mahkamasi tarkibida mamlakat taraqqiyoti sohalari kesimida Vazirliliklar, qo'mitalar ish olib boradi. Vazirlar Mahkamasi bajarilgan ishlar bo'yicha yillik hisobotlarni Oliy Majlisiga taqdim etadi.

Vazirlar Mahkamasi tomonidan chiqarilgan qarorlar va ularning ilovalari mazkur davlat organining rasmiy davriy nashri – “O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari” (“Постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан”) nomli to'plamda e'lon qilib boriladi. Ushbu nashr 1991-yildan to'ozirgi davrgacha chop qilinadi. Bir yilda to'plamning 12 ta soni nashr etiladi.

Turli davrlarda Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan qarorlar soni o'zgarib turgani bois, to'plam sonlarning hajmi va tarkibi ham bir-biridan farq qiladi. Masalan, 1991-yilning 9-sonida № 233--249-son qarorlar mavjud (jami 17 ta qaror), 12-sonida esa № 304-318-son qarorlar (jami 15 ta qaror), 2017-yilining 10-sonida № 782-885-son qarorlar (jami 103 ta qaror) matnlari bayon qilingan. Qarorlar davlatimiz va jamiyatimiz hayotining turli sohalarini qamrab olgani ularning nomi va mazmunida aks etadi. Masalan, 2017-yilgi 10-sonli to'plamda № 809-son qaror – “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarining harbiy tayyorgarlik o'quv bo'linmalari to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqidagi”gi Qaror, № 825-son qaror – “Qadimiy Buxoro” turizm zonasini qurish” loyihasini amalga oshirishga doir chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qaror, № 885-son qaror – “O'z R VMning “Toshkent shahrini obodonlashtirish ishlarini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2010-yil 11-noyabr 251-son qaroriga o'zgartirishlar kiritish haqidagi”gi Qaror.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari to'plamlarida o'z kuchini yo'qotgan yoki

qo'shimchalar kiritilgan qarorlar to'g'risida muntazam tarzda axborot berib boriladi.

Mazkur manbada O'zbekistonda qonunlarni ijro etish sohasida respublika hukumati tomonidan amalga oshirib kelinayotgan ishlar xususida aniq rasmiy ma'lumotlar aks etgan. Ularni tadqiq etish natijasida mustaqillik davrida O'zbekiston Respublikasida turli sohalarda yuz berayotgan o'zgarishlar, erishilgan yutuqlar, kuzatilayotgan kamchiliklar va ularni bartaraf etish yo'lidagi sa'y-harakatlar, rivojlanish dasturlari, rejalarini va istiqboli, o'tkazilayotgan islohotlarning samaradorligi va yanada takomillashtirilishi chora-tadbirlari kabi muhim ma'lumotlar qo'lga kiritiladi. Bu esa, o'z navbatida, O'zbekistonning mustaqillik davri tarixing turli qirralarini haqqoniy va xolis yoritishga xizmat qiladi.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va nutqlarida O'zbekistonning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishining ustuvor yo'naliishlari.**

**O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov asarlari O'zbekistonning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga oid ma'lumotlar.** O'zbekiston suveren davlat qurishi yo'lida dastlabki yigirma besh yillik davrda olib borilgan davlat siyosati hamda jamiyat hayotida yuz bergan ulkan o'zgarishlarning asosiy yo'naliishlari mohiyati O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning doklad va nutqlarida, monografik asarlari va to'plamlarida aks etgan. I.A. Karimov asarlari mustaqillik davri tarixini aks ettirishi bilan bir qatorda, O'zbekiston tarixini o'rganishda ham muhim metodologik ko'rsatmalarni o'z ichiga olgan manba hisoblanadi.

Islom Karimovning yirik asarlari ingliz, fransuz, ispan, nemis, hind, xitoy, arab kabi o'nlab turli xorijiy tillarga tarjima qilinib, chet ellarda bir necha bor chop etilgan. Respublikamizda esa I.A. Karimovning alohida kitoblari hamda asarlarining 23 jildi nashr qilingan.

*I.A. Karimov asarlari, nutqlari asosida jamlangan yigirma uch jılddan iborat asarlar to'plami* uning davlat rahbari sifatida amalga oshirgan siyosatini o'rganishda muhim adabiyot hisoblanadi. Jildlarda ma'lumotlar davriy ketma-ketlikda, muayyan mavzular bo'yicha tizimli tarzda joylashtirilgan. Asarlarni o'rganish orqali insonda mustaqil O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'ziga xos yo'l bilan o'tib borishining xususiyatlarini aniq tushunish imkonini yaratiladi, siyosiy ong va savodi oshib boradi, o'zbek xalqining boy madaniy va ma'naviy merosi to'g'risida bilimlari ko'lami ken-gayadi, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish borasida aniq tasavvurlar hosil bo'ladi.

Ushbu tizimni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Iqtisodiyot, davlat dasturlari mavzusi (masalan, 1-jıldda: "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li", "O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li", 7-jıldda: "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda", 9-jıldda: "Vatan ravnraqi uchun har birimiz mas'ulmiz", 16-jıldda: "O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Islom Abdug'aniyevich Karimovning dasturi").

2. Siyosiy muammolar, yurt tinchligi, jahonda, mintaqada xavfsizlik masalalari (masalan, 2-jıldda: "BMT Bosh assambleyasining 48-sessiyasidagi ma'ruba, 10-jıldda: "Tinchlik uchun kurashmoq kerak", 19-jıldda: "BMT sammiti Mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisdagi nutq").

3. Demokratiya mezonlari, mustaqillik mavzusi (masalan, 1-jıldda: "Adolat mezoni buzilsa", 11-jıldda: "O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari", 23-jıldda: "Bizning maqsadimiz – erkin va farovon, demokratik hayot qurish").

4. Xalqaro aloqalar va hamkorlik masalalari (masalan, 2-jıldda: "O'zbekiston yo'li – jahon hamjamiyatiga qo'shilish

yo‘lidir”, 8-jilddagi “Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Istanbul sammitida so‘zlagan nutq”, 23-jilddagi “Orol dengizi mintaqasidagi ekologik ofat oqibatlarini yumshatish bo‘yicha hamkorlikni rivojlantirish”).

5. Qonunchilik masalalari, ijtimoiy hayot jarayonlari (masalan, 4-jilddagi “Asosiy qomusimiz tantanasi”, 6-jilddagi “Kuchli ijtimoiy siyosat va ayol ijtimoiy faolligining ortishi”, 12-jilddagi “Konstitutsiya – yurtimizda yangi hayot, yangi jamiyat barpo etishning huquqiy poydevori”, 21-jilddagi “Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta’minlash hayotimizning yanada erkin va obod bo‘lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir”).

6. Milliy g‘oya va milliy mafkura tamoyillari (masalan, 6-jilddagi “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivalining ochilish marosimidagi tabrik so‘zi”, 9-jilddagi “Mafkuraviy kurash masalasi bo‘yicha”, 23-jilddagi “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma uch yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi tabrik so‘zi”).

7. Madaniy va ma’naviy merosni asrash, tarixiylik, milliylikni tiklash mavzusi (masalan, 5-jilddagi Amir Temur – faxrimiz, g‘ururimiz”, 6-jilddagi “Buxoro shahrining 2500 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi tabrik so‘zi”, 13–23-jildlarda “O‘zbek xalqiga Navro‘z tabrigi”, 15-jilddagi “O‘zbekistonning Islom sivilizatsiyasi rivojiga qo‘sghan hissasi” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ishtirokchilari bilan Oqsaroyda bo‘lib o’tgan uchrashuvdagi so‘z”).

8. Kadrlar masalasi, barkamol avlodni yetishtirish, ta’limtarbiya muammolari (masalan, 7-jilddagi “Farzandlarimiz bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo‘lishlari shart”, 8-jilddagi “Sog‘lom avlod – xalqimiz kelajagi”, 11-jilddagi “Maktab – taraqqiyot, madaniyat va saodat kaliti”, 20-jilddagi “Barkamol avlod – mamlakatimizning mustahkam tayanchi”).

9. Oilani e’zozlash, ayolga ehtirom bildirish muammoasi (masalan, 6-jilddagi “Oila farovonligi – millat farovonligi”,

16–23-jiddarda: “O'zbekiston xotin-qizlariga bayram tabrigi”, 20-jidda: “Ona va bola salomatligi – oliv saodat”).

10. Baynalmilallik, totuvlik, bag'rikenglik muammolari (masalan, 5-jidda: “Xalqlarimiz do'stligining ramzi”, 7-jidda: “Alloh qalbimizda, yuragimizda”, 20-jidda: “Respublika Baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilganining 20 yilli-giga bag'ishlangan tantanali yig'ilish ishtirokchilariga bayram tabrigi”).

11. Ilm-fan taraqqiyoti, ommaviy axborot vositalari faoli-yati (masalan, 7-jidda: “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q”, 9-jidda: “Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga”, 19-jidda: “Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga”).

12. Vatan himoyachilar, xotira va qadrlashning ahamiyati (masalan, 4-jidda: “Harbiy ta'lim zamon talablariga mos kel-sin”, 10-jidda: “Vatan himoyachilariga bayram tabrigi”, 21-jidda: “O'zbek xalqiga tinchlik va omonlik kerak”).

13. Ustoz va murabbiylarga bo'lgan hurmat masalasi (masalan, 17-jidda: “Vatanni sharaflagan el-yurt ardog'ida”, 18–23-jiddarda: “O'zbekiston o'qituvchi va murabbiylariga”).

14. Sport va san'atga qaratilayotgan e'tibor mavzusi (masa-lan, 3-jidda: “Sport birdamlik va totuvlikka chorlaydi”, 14-jidda: “Sport – barkamol avlodni tarbiyalashning muhim vositasi”, 21-jidda: “Zamonaviy, go'zal va betakror”, 23-jidda: “O'zbek Milliy akademik drama teatri jamoasiga”).

Islom Karimov asarlarini tizimli tarzda o'rganish natijasi-da O'zbekiston yoshlarida hayotda o'z fikriga ega bo'lish va uni himoya qila bilish, yod mafkuralar ta'siriga hech qachon tobe bo'lmaslik, doimo bilimga intilib yashash, zamonaviy fan, texnika yutuqlarini o'zlashtirib, jahon hamjamiyatchili-gida o'z xalqining nufuzini oshirish va uning mustahkam pozitsiyasini ta'minlashga o'z hissasini qo'shish xususiyatlari shakllantirish imkonini yaratiladi; ushbu boy meros o'zbek farzandlarini o'z Vatanining mustaqilligini munosib himoya

qilishga chorlovchi ulkan kuchga ega manba bo'lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, I.A. Karimovning yuqoridagi 23 jildga kirmay alohida kitob holida chop qilingan, Vatanimizning ma'nnaviy hayotini chuqur va keng ko'lamda tasvirlab beradigan, O'zbekistonda siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy rivojlanishni yoritishga xizmat qiluvchi bir qator asarlari mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning "*O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida*" nomli asarida O'zbekiston mustaqilligi e'lon qilingandan keyin o'tgan to'rt yillik davr mobaynida amalga oshirilgan ishlarga yakun yasalgan, sodir bo'lgan ijtimoiy silihishlar, iqtisodiy islohotlar, kishilar ongida ro'y berayotgan o'zgarishlar tahlili keltirilgan (T.: "O'zbekiston", 1995. – 270 b.). Ma'lumki, ushbu yillarda yangi tashkil topgan davlat – O'zbekiston Respublikasining davlat va xo'jalik qurilishining yangi nazariyasi hamda amaliyoti jahondagi yetakchi iqtisodchilar, siyosatshunoslarning e'tiborini tortdi. Mazkur asarda ushbu nazariya va amaliyot rivojlantirilgan. Mamlakat iqtisodiyotini isloh qilishning birinchi bosqichida, mulkchilikning turli shakllarini joriy etishda qo'lga kiritilgan yutuqlarga tayanilgan holda, shu yo'ldan olg'a borish, yosh mustaqil respublikada boshlangan islohotlarning ikkinchi bosqichi vazifalarini bajarish uchun yangi ustuvor iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy yo'nalishlar ajratib olinib, yanada murakkabroq bo'lgan masalalarni hal etish vazifalari aniq-ravshan ko'rsatib berilgan.

Mazkur asarda O'zbekistonda iqtisodiy islohotlardan ko'zdautilgan maqsadlar – mamlakat aholisi uchun insonga munosib bo'lgan hayot va faoliyat sharoitini yaratish, xalqni ma'nnaviy-axloqiy jihatdan tiklash, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlash muammolari ham chuqur, har tomonlama tahlil etilgan. Kitobda bayon etilgan ma'lumotlar O'zbekiston Respub-

likasi mustaqillikka erishgan dastlabki yillarda o'tkazilgan iqtisodiy islohotlar mohiyatini hamda ahamiyatini tadqiq etishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Mustaqillik davrining dastlabki yillarida O'zbekistonning suveren davlat sifatida rivojlanishi yo'lida mavjud muammolar, xavfsizligi masalalari va ularni bartaraf etishning samarali yo'llari Birinchi Prezident Islom Karimovning "**O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari**" nomli asarida aniq va tizimli tarzda yoritib berilgan (T.: "O'zbekiston", 1997. – 328 b.). Jahon hamjamiyatiga kirib kelgan O'zbekiston Respublikasining yangi ming yillikda barqarorlik va xavfsizlik yo'lida tahdid bo'lib turgan muammolari va ularni hal qilish imkoniyatlari, jamiyatning izchil va barqaror rivojlanishi uchun mintaqada jug'rofisyosiy muvozanat saqlanishining kafolatlari, jahoning barcha mamlakatlari bilan o'zaro manfaatli, har tomonlama keng hamkorlik qilish turlari, o'tish davrining dastlabki bosqichlarida demokratik va siyosiy islohotlarning amalga oshirish tamoyillari masalalari asarning asosiy mazmunini tashkil qiladi.

Mazkur kitobda O'zbekiston va u bilan birga Markaziy Osiyo mintaqasidagi boshqa davlatlar yangi ming yillik arafasida kechirayotgan murakkab, g'oyat keskin muammollar – xavfsizlik, rivojlanishni ta'minlash, barqarorlik va sobitqadamlik muammolari, shuningdek, mazkur davrda yosh suveren O'zbekiston Respublikasida yuritilayotgan ichki siyosatning mohiyati, taraqqiyoti uchun to'sqinlik qilayotgan jihatlar va ularni bataraf etish yo'llari, o'zbek xalqining ahil bo'lib yashashining muhimligi va mamlakatimizda tinchlikni ta'minlash uchun yaratilayotgan imkoniyatlar, respublikaning istiqboli uchun zaruriy shart-sharoitlar xususida bat afsil to'xtalib o'tilgan. Ushbu ma'lumotlar O'zbekistonning eng yangi tarixini o'rganishda alohida manbaviy salohiyatga ega.

Prezident I.A. Karimovning "Turkiston-press" axborot agentligi muxbirining savollariga javoblari (T.: "O'zbekiston", 1999) "***Olloh qalbimizda, yuragimizda***" kitobidan o'rin olgan. Islom Karimov muqaddas dinimiz mazmun-mohiyati haqida to'xtalar ekan, nafaqat bizning matbuotimiz, balki xorijiy matbuotning turli noaniq axborotlariga o'z munosabatini bildiradi: "*Bu e'tiqod yurtimizdagи millionlab vatandoshlarim qatori mening ham dunyoqarashimga asos bo'lib, butun borlig'im, ma'naviy olamim mazmunini tashkil etadi*". I.A. Karimov diniy qadriyatlar, islomiy ta'limotlarning hayotimizga singib ketgani, uni hech qanday kuch, hech qanday tashviqot bilan chiqarib bo'lmasligini ta'kidlab, *Olloh bizning qalbimizda, yuragimizda*, degan g'oyani ilgari suradi. Bu o'rinda I.A. Karimov muqaddas islom dini xalqimizning ruhiyati, yuragiga singib ketgani, u milliy o'zligimiz, xislatimizning belgisiga aylangani, buning mohiyatini to'liq anglamasdan, tushunib yetmasdan so'zlaydiganlar adashishini uqtiradi. Darhaqiqat, kishilar qalbidan chuqur joy olgan diniy tuyg'ularni salkam bir asrlik ateistik targ'ibot siqib chiqara olmadi. Odamlarimiz o'z ajdodlari ruhi, milliy an'analarini, tarixiy xotirasiga qanday ehtirom bilan qaragan bo'lsa, dinu diyonatimizga ham shunday munosabatda bo'lib keldi. Istiqlolning dastlabki yilidan boshlab, islom dini va islomiy qadriyatlar qaytadan tiklandi. Mazkur intervyuda islom dinining insonparvarlik g'oyalari yosh avlod yuragidan joy olishi, dunyoviy bilimlar bilan bir qatorda, diniy hikmatlar asosida tarbiya topishi to'g'risidagi samimiy va asosli fikrlar ham o'z ifodasini topgan. I.A. Karimov ta'kidlaganidek: "*Biz o'z muqaddas dinimiz va e'tiqodimizdan hech qachon voz kechmaymiz. Shu bilan birga, muqaddas dinimiz sha'niga dog' tushirmoqchi bo'lgan kimsalar bilan hech qachon murosa qilolmaymiz*". Istiqlol yillarda ulug' shoiru alloma mutafakkirlarimizning merosi xalqimizga qaytarildi. Imom Buxoriy, Imom Iso Termiziy, Mahmud Zamaxshariy, Imom Abu Mansur Mo-

turudiy, Shayx Najmuddin Kubro, Ahmad Yassaviy, Aziziddin Nasafiy, Abduxoliq G'ijduvoniy, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror Valiy, Mahdumi A'zam kabi ulug' olimlar, tariqat peshvolari, azizu avliyolarning nomlari tiklandi, asarlari o'rganildi, tarjima qilindi. Shu orqali islom falsafasi, jumladan, tasavvuf ta'lomi tadqiq etilib, katta ma'nnaviy xazina kashf etildi. Qur'oni karim, Imom Buxoriy va Imom Termiziylarning hadis kitoblari, Imom G'azzoliy asarlari tarjima qilindi. Samarqand, Buxoro hadisshunoslik va fiqh maktablari, Markaziy Osiyoda shakllangan tariqatlar haqida qator tadqiqotlar dunyoga keldi. Bularning barchasi xalqimizning bilimi, ma'rifatini oshirish bilan birga, Vatanimizning ulug'vor, sharaflı o'tmishi, dunyoga ma'rifat, ilm nurini taratgan ajodolarimiz xizmatini chuqurroq anglashga yordam beradi.

O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimovning odamzot uchun hamma zamonlarda ham eng buyuk boylik bo'lib kelgan ma'nnaviyatning ma'no-mazmuni, uning inson va jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyati, bu murakkab va serqirra tushunchaning nazariy va amaliy tomonlari har tomonlama keng qamrovli fikr va xulosalari "**Yuksak ma'nnaviyat – yengilmas kuch**" asaridan o'rin olgan (T.: "Ma'nnaviyat", 2008. – 176 b.). Kitobda istiqlol yillarida yurtimizda milliy ma'nnaviyatimizni tiklash, uni zamon talablari asosida rivojlan-tirish bo'yicha amalgal oshirilgan ulkan ishlar, bu borada oldimizda turgan maqsad va vazifalar haqida atroflicha fikr yuritil-gan. "Muqaddima", 4 bob ("Ma'nnaviyat – insonning ulg'ayish va kuch-qudrat manbayidir", "Mustaqillik – ma'nnaviy tiklanish va yuksalish", "Ma'nnaviyatga tahdid – o'zligimiz va kelajagimizga tahdid", "Vatanimiz taraqqiyotining mustahkam poydevori") va "Xulosa"dan iborat ushbu kitobda bugungi murakkab global-lashuv davrida ma'nnaviyat sohasida vujudga kelayotgan dol-zarb muammolar, xalqimiz ma'nnaviyatini asrash va yuksalti-rish, ayniqsa, yosh avlod qalbi va ongini turli zararli g'oya va

mafkuralar ta'siridan saqlash va himoya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, asarda ma'naviyat sohasidagi dolzarb muammolar va vazifalar teran tahlil etilib, xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmay yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarni safarbar qilish hamda bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etishi qayd qilingan.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev asarlari mamlakatimiz taraqqiyotini o'rGANISHDA MUHIM manba.** O'zbekiston davlatida mustaqillik yillarda xalqning siyosiy ongini oshirish, siyosiy madaniyatini shakllantirish, siyosiy dunyoqarashini boyitish masalasiga alohida e'tibor qaratilib, bunda davlatimiz rahbari boshchiligidagi jadal sa'y-harakatlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan Harakatlar strategiyasi siyosatni muvaffaqiyatli amalga oshirishda tayanch uslubiy dastur vazifasini bajarmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan mamlakat salohiyatini ko'tarish maqsadida **2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi** ishlab chiqilgan va uning loyihasi keng muhokamadan o'tkazilgan. Mazkur Dasturda O'zbekiston davlati va jamiyatini hayotining barcha sohalarida besh yillik davr mobaynida bajariladigan vazifalar va amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar beshta ustuvor yo'nalishlar bo'yicha belgilab berilgan.

Birinchi yo'nalish – Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari bo'lib, uning tarkibiga quyidagilar kiritilgan: 1.1. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalarining rolini yanada kuchaytirish; 1.2. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish; 1.3. Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish.

Ikkinchi yo'naliш – Qонун ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari: 2.1. Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish; 2.2. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash; 2.3. Ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini takomillashtirish; 2.4. Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish; 2.5. Sud-huquq tizimida qonuniylikni yanada mustahkamlash; 2.6. Yuridik yordam va xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish.

Uchinchi yo'naliш – Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberal-lashtirishning ustuvor yo'nalishlari: 3.1. Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish; 3.2. Tarkibiy o'zgartirishlarni chuhurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish; 3.3. Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish; 3.4. Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulkning huquqlarini himoya qilish va uning istiqbolli rolini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishini rahbatlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish; 3.5. Viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va muvozanatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning salohiyatidan samarali va optimal foydalanish; 3.6. Turizm sohasini rivojlantirish.

To'rtinchi yo'naliш – Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari: 4.1. Aholining bandligi va real daromadlarini bosqichma-bosqich oshirish; 4.2. Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish; 4.3. Arzon uy-joylar qurish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta'minlovchi yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish

hamda modernizatsiya qilish; 4.4. Ta'lim va fan sohasini rivojlan-tirish; 4.5. Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish.

Beshinchi yo'nalish – Xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar: 5.1. Xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash sohasidagi ustuvor yo'nalishlar; 5.2. Chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyo-sat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar.

Mazkur dasturda O'zbekistonda iqtisodiyotni boshqarish, turli sohalarni rivojlantirish bo'yicha davlat dasturini amalgaloshirish, aholining turmush darajasi va sifatini yaxshilash, jumladan, shahar va qishloqlarimizda arzon va qulay uy-joylar qurish, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni, maktabgacha ta'lim muassasalari tar-moqlarini rivojlantirish va modernizatsiya qilish bo'yicha keng ko'lamli vazifalar belgilab berilgan va ularni bajarish borasida aniq ko'rsatmalar keltirilgan. Shu jumladan, O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlar, jahon bozorida raqobat kuchayib borayotgan hozirgi murakkab vaziyatda iqtisodiyotga xorijiy investitsiya-lar, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq muhim vazifalar bat afsil ko'rsatib berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev nutqlari va asarlari O'zbekistonning eng yangi tarixi davrini o'rganish bo'yicha muhim manba hisoblanadi. Ularda mamlakatimizning siyosiy, iqtisodiy, madaniy rivoj-lanishi bilan bog'liq masalalar davr nuqtayi nazaridan tahlil etilib, taraqqiyot istiqboli uchun yaratilishi lozim bo'lgan shart-sharoitlar xususida fikr-mulohazalar va amaliy takliflar berilgan.

2016-yil so'nggi choragi – 2017-yilning birinchi yarmi davri-da Prezident Shavkat Mirziyoyevning to'rtta kitobi nashrdan

chiqarildi. Ular quyidagicha nomlanadi: "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz", "Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birqalikda barpo etamiz", "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi", "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak".

Ma'lumki, 2016-yil 4-dekabrdagi O'zbekiston hayotida muhim siyosiy voqe – respublika Prezidenti saylovi bo'lib o'tdi. Saylovda Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan ko'rsatilgan nomzod Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 88,61 foiz ovoz olib, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti etib saylandi. Saylovdan oldin Sh.M. Mirziyoyev mamlakatimizning turli hududlariga safarga chiqib, xalqni o'zining respublika rahbari sifatida amalga oshirishni rejalashtirgan tadbirlarining dasturlari bilan tanishtirdi. Bu haqda **President Shavkat Mirziyoyevning "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz"** nomli kitobida batafsil ma'lumotlar to'plangan (Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 485 b.). Ya'ni, mazkur kitobda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2016-yil 1-noyabrdan 24-noyabrغا qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o'tkazgan saylovoldi uchrashuvlarida so'zlagan nutqlari o'rinni olgan.

Jami 14 ta uchrashuv nutqlari bayon qilingan: "Zamon bilan hamnafas diyor" (Andijon viloyati saylovchilar vakillari bilan uchrashuvdagi nutq), "Oltin vodiylardurdonasi" (Farg'onan viloyati saylovchilar vakillari bilan uchrashuvdagi nutq), "Go'zal va betakror o'lka" (Namangan viloyati saylovchilar vakillari bilan uchrashuvdagi nutq), "Mamlakatimizning javohir xazinasini" (Navoiy viloyati saylovchilar vakillari bilan uchrashuvdagi nutq), "Ilmu ma'rifat, dinu diyonat, bunyodkorlik bilan nom qozongan

xalq” (Buxoro viloyati saylovchilar vakillari bilan uchrashuvdagi nutq), “Samarqand – Yer yuzining sayqali” (Samarqand viloyati saylovchilar vakillari bilan uchrashuvdagi nutq), “Yuragimga, qalbimga yaqin insonlar” (Qoraqalpog’iston Respublikasi saylovchilar vakillari bilan uchrashuvdagi nutq), “Oqqan daryo aslo to’xtamas” (Xorazm viloyati saylovchilar vakillari bilan uchrashuvdagi nutq), “Oqko’ngil, oriyatli va mehnatkash insonlar yurti” (Surxondaryo viloyati saylovchilar vakillari bilan uchrashuvdagi nutq), “Har qanday sinovlarni yengishga qodir xalq” (Qashqadaryo viloyati saylovchilar bilan uchrashuvdagi nutq), “Shunday o’lka doim bor bo’lsin!” (Jizzax viloyati saylovchilar vakillari bilan uchrashuvdagi nutq), “Sahro bag’rida mo’jizalar yaratayotgan el” (Sirdaryo viloyati saylovchilar vakillari bilan uchrashuvdagi nutq), “Yuksak ta’riflarga munosib zamin” (Toshkent viloyati saylovchilar vakillari bilan uchrashuvdagi nutq), “Toshkent – bar-chamiz uchun onadek ulug’ va mo’tabardir” (Toshkent shahri saylovchilar vakillari bilan uchrashuvdagi nutq).

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan har bir hududga tashrif chog’ida so’zlagan nutqlarida aynan shu zaminning xalqi, tabiiy boyliklari, tarixiy kechinmlari, mashhur shaxslari, iqtisodiy salohiyati, ijtimoiy holati, siyosiy faolligi, madaniy-ma’naviy taraqqiyoti, mavjud muammolari, istiqboldagi taraqqiyot dasturlari, shuningdek, mamlakatimiz hayotida tutgan o’rni haqida qimmatli ma’lumotlar mujassam etilgan. Kitobdan o’rin olgan ushbu masalalarga oid yangi faktlar, aniq dalillar, tarixiy hamda iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlar tafsilotlari o’ziga xos ensiklopedik qiymatga ega bo’lib, chuqr manbaviy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur adabiyot hajmi va mazmuni jihatidan ancha keng, uning har sahifasida keltirilgan axborot O’zbekistonning o’tmishda, zamонавиy davrda hamda istiqboldagi taraqqiyotiga bevosita taalluqli bo’lib, ma’lum muammolarga oydinlik kiritadi. Tabiiyki, bunday serqirra va sermazmun manbani o’rganish

uchun muayyan bir tizimga asoslanish maqsadga muvofiq. Jumladan, bu adabiyotdan o'rin olgan o'n to'rtta nutq matnlari bilan alohida tarzda quyidagi ichki rejalar bo'yicha tanishish mumkin:

1. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov xotirasi.
2. Respublikada o'tkaziladigan Prezidentlikka saylovlar ning ahamiyati.
3. Viloyat, hududlarda yashab o'tgan tarixiy shaxslar, zamonaviy davrda faol mehnat qilayotgan taniqli insonlar haqidagi mulohazalar, shuningdek, o'lka xalqiga berilgan ta'rif.
4. Mazkur o'lkaning respublika taraqqiyotida tutgan o'rni, zamonaviy davrdagi iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy salohiyati, mavjud muammolarini.
5. Mamlakatni taraqqiy ettirish maqsadida Respublika Prezidenti rahbarligida hukumat tomonidan ishlab chiqilayotgan 15 ta dastur asosida har bir viloyat uchun mo'ljallangan muvofiq tarzda rejalashtirilayotgan taraqqiyot dasturlari xususida ma'lumot.
6. O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatingin hududlarda olib borilishi imkoniyatlari, shart-sharoitlari.
7. O'zbekistonning tashqi siyosatiga doir mulohazalar.

Nutqlarda keltirilgan axborot ma'lum sohalar bo'yicha, davriylik, tadrijiylik tizimida joylashtirilgan. Har bir viloyatga tashrif chog'ida Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan so'zlangan ma'ruzalarda ko'tarilayotgan muammolar bar-cha hududlarda uchrasa-da, ularni hal etish bilan bog'liq ko'rsatmalar har bir o'lka uchun individual yondashilgan tarzda berilgani mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy holatini tasavvur qilishda, alohida holatda tahlil qilishda hamda o'lka xususida bayon etilganlarni umumlashtirishda katta ahamiyataga ega.

Ushbu dasturlar kitobda har bir viloyat uchun uning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishiga Pre-

zident Sh.M. Mirziyoyev tomonidan alohida ahamiyat qaratilgani va bu holat kitobdan o'r'in olgan nutqlarda aniq namoyon bo'lishini ta'kidlash joiz. Umuman olganda, mazkur adabiyot O'zbekistonning eng yangi tarixi davrini o'rganishda, xususan uning mustaqillik yillarda erishgan yutuqlari, salohiyati, zamonaviy jarayonlarining o'ziga xos jihatlari, davlatning ichki va tashqi siyosatidagi ustuvor yo'naliishlari, jamiyat taracqiyoti yo'lida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlari, istiqbolga mo'ljallangan strategik yo'li, istiqbollarini o'rganishda qimmatli manba hisoblanadi.

**"Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz"** / "Мы все вместе построим свободное, демократическое и просвещивающее государство Узбекистан" nomli kitobda Sh.M. Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylangani munosabati bilan Prezident lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi bayon qilingan (Toshkent: "O'zbekiston", 2016. – 54 b. Matn o'zbek va rus tillarida berilgan).

Mazkur kitobda matn yaxlit bir qism tuzilishida joylashtirilgan; uni mazmun jihatdan besh qismga taqsimlab o'rganish mumkin. Birinchi qismda Prezident Shavkat Mirziyoyevning o'zbek xalqi tomonidan unga bildirilgan ishonch va davlat rahbari lavozimiga saylanishi uchun o'z minnatdorchilagini bildirgan, shuningdek, O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov xotirasiga alohida ehtirom izhor etgan, mamlakatimizning eng yangi tarixi davrida erishgan yutuqlarini qayd etib, kelgusida davlat rahbariyatining xalq bilan muloqotini kuchaytirish zarurati xususida o'z fikr-mulohazalarini qayd qilgan. Mazkur qismning yana bir muhim jihatlaridan biri, bu yerda Sh.M. Mirziyoyev davlat rahbari sifatida mamlakatni rivojlantirish yo'lida o'z oldiga belgilagan vazifalari xususida bat afsil ma'lumotlar taqdim etgan.

Ikkinci qismda Prezident Sh.M. Mirziyoyev respublika rahbariyati oldiga qo'yiladigan talab va vazifalari xususida so'z

yuritilgan, jumladan, Vazirlar Mahkamasining harakat dasturi-ga zamon talablaridan kelib chiqqan holda, qo'shimchalar kiritish lozimligini ta'kidlagan va asosiy diqqat-e'tiborni quyidagi strategik yo'naliishlarga qaratish lozimligini qayd etgan.

Uchinchi qismda mamlakatimiz bank tizimi va bozor infrazilmasining boshqa organlari faoliyati samaradorligini oshirish masalasining dolzarbligiga e'tibor qaratilib, davlat banklari oldiga asosiy vazifalar belgilab, buning asosiy maqsadini Prezident Shavkat Mirziyoyev "har bir fuqaro o'zining kuch va imkoniyati, qobiliyati va salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun keng sharoit va imkoniyat yaratib berish" zarurligida, deb izoh bergen.

To'rtinchi qismda mamlakatni modernizatsiya qilish, jamiyatimizni isloh etish va demokratlashtirishni ta'minlashda muhim o'r'in va javobgarlik Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatga yuklanganligi ta'kidlangan. Buning uchun Oliy Majlis tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan uchta vazifa alohida ko'rsatib o'tilgan.

Beshinchi qismda davlat rahbari Sh.M. Mirziyoyev O'zbekistonda 2017-yil "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" deb e'lon qilinganligini alohida ta'kidlab o'tgan. Mamlakat ravnaqi va xalq farovonligiga erishish yo'lida belgilangan vazifalarni bajarish uchun kadrlar bilan ishslashning butun tizimini takomillashtirishga doir bir qator ishlarni amalga oshirish zarurligini qayd etgan.

Prezident Sh.M. Mirziyoyev, shuningdek, respublika tashqi siyosati sohasi xususida to'xtalib o'tib, jahondagi ilg'or tajriba-larni chuqur o'rganish va amalda joriy etish, o'zaro ishonech va manfaatlarni hisobga olish asosida xorijiy davlatlar, eng avvalo, qo'shni davlatlar, shu bilan birga xalqaro institutlar bilan yaqinidan hamkorlik qilishni zamon talablari darajasida tashkil etish muhimligini ta'kidlab o'tgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda (7-dekabr

2016-yil) Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan qilingan ma’ruza “*Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi*” / “Обеспечение верховенства закона и интересов человека – гарантия развития страны и благополучия” kitobida bayon etilgan (Toshkent: “O’zbekiston”, 2017. – 47 b. Matn o’zbek va rus tillarida berilgan).

Mazkur kitob yaxlit bir asardan iborat bo’lsa-da, unda keltirilgan ma’lumotlarni olti guruhga tasniflab o’rganish maqsadga muvofiq. Jumladan: 1) O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yaratilishida O’zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning beqiyos xizmatlari haqida Prezident Sh.M. Mirziyoyevning xotiralari; 2) Asosiy qonunimizning mamlakatimiz hayotidagi muhim o’rni va ahamiyati; 3) O’zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga nomzodning saylanishida xalq ishtiroki; 4) Qonunlarning islohotlar samarasiga ta’sirini kuchaytirish; 5) O’zbekistonda 2016 yil – “Sog’lom ona va bola” Davlat dasturining bajarilishi; 6) 2017-yilning – “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” deb e’lon qilish taklifi.

Konstitutsiyamizning davlat va jamiyat uchun muhim ahamiyatiga to’xtalib o’tib, Prezident Sh.M. Mirziyoyev Asosiy qonunimizda muhrlab qo’yilgan tamoyil va qoidalar negizida yurtimizda milliy qonunchiligimiz barpo etilayotgani, ular esa, o’z navbatida, mamlakatda o’tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va harbiy salohiyati yuksalishiga, hayotning barcha sohalalarida amalga oshirilayotgan samarali islohotlarga zamin bo’lib kelayotganini, shuningdek, O’zbekistonda fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, ularning siyosiy faolligini oshirishda ham Bosh qomusimizning muhim o’rni borligini qayd etgan. “*Mustaqil taraqqiyot yillarida Konstitutsiyamiz yurtimizda huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyat, erkin bozor munosabatlari va xususiy mulk ustuvorligiga*

*asoslangan iqtisodiyotni qurish, xalqimiz uchun tinch, obod va farovon hayot barpo etish, O'zbekistonning xalqaro maydonda munosib o'r'in egallashida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda".*

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqida Prezident Shavkat Mirziyoyev Asosiy qonunimizda belgilangan qonun ustuvorligi prinsipining mohiyati va dolzarbligi to'g'risida ma'lumotlar keltirib o'tib, qabul qilingan 400 ga yaqin yaxlit qonunlar O'zbekiston xalqi hayotining barcha sohalarini huquqiy tartibga solishga xizmat qilayotganini ta'kidlagan. Ayni vaqtida bu borada ayrim kamchiliklar kuzatilishini ham nazardan chetda qoldirmagan, ya'ni qonunlarning respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning samarasiga ta'siri yetarlicha emasligini qayd etgan va qonunchilikda mavjud kamchiliklarni bartaraf etish uchun o'z takliflarini bergan.

O'zbekistonning mustaqillik yillaridagi taraqqiyotini o'rganish bo'yicha navbatdagi muhim manba, bu Prezident Shavkat Mirziyoyevning "*Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak*" / "Критический анализ, жесткая дисциплина и персональная ответственность должны стать повседневной нормой в деятельности каждого руководителя" nomli kitobi. Unda Prezident Sh.M. Mirziyoyevning 2017-yil 14-yanvar kuni Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi bayon qilingan (Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 104 b.).

Bo'lib o'tgan majlisning asosiy mazmuni 2017-yilning "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" deb e'lon qilinganligi va 2017-yil uchun mo'ljallangan iqtisodiy hamda ijtimoiy das-

turning o'n bitta eng muhim ustuvor vazifasini belgilash taklifi kiritilishi, ushbu munosabat bilan muhim sanalgan masalalar bilan bog'liqligi Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan qayd etilgan.

Mazkur yig'ilishda Prezident Sh.M. Mirziyoyev hukumat a'zolari oldida shunchaki hisobotlar berib o'tish emas, balki asosiy e'tiborni muayyan sohalarda mavjud kamchiliklar va ularning sabablarini puxta tahlil qilish talabini qo'ygan, mamlakat Prezidenti va hukumati darajasida yechiladigan aniq takliflar hamda muammoli masalalarga e'tibor berish shartligini qayd qilgan.

Ushbu kitobda keltirilgan axborotda uchta asosiy jihat e'tiborni tortadi. Birinchidan, ma'lum soha bo'yicha kuzatilgan kamchiliklarning aniqlanishi, tahlil qilinishi va yuzaga kelgan vaziyat sabablarining ko'rsatilishi, shuningdek, rahbar xodimning o'rniga alohida baho berilishi; ikkinchidan, mavjud kamchiliklarni bartaraf qilish yo'lida belgilanadigan vazifalarning ketma-ketlikda belgilanib berilishi va rahbarlar uchun alohida ko'rsatmalar berilishi; uchinchidan, turli sohalarni rivojlantirish bo'yicha amaliy takliflarning kiritilishi va ularning samaradorligi yuzasidan fikr-mulohazalarning bildirilishi.

O'zbekiston hukumatining islohotchilik siyosati bevosita xalq dunyoqarashi, uning ming yillar mobaynida shakllangan urf-odatlari, an'analari bilan uyg'un holda amalga oshirila boshlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan va jamiyat hayotiga muvaffaqiyatli tatbiq etilayotgan Harakatlar strategiyasida (2017–2021-yillar) mamlakatning barcha sohalarini izchil rivojlantirish va jahon darajasiga olib chiqish, ayni vaqtida aholining farovon hayoti uchun shart-sharoitlar yaratish, davlat boshqaruvida odil siyosat olib borish, qonunchilik nazoratini kuchaytirish, xalqning siyosiy faolligini oshirish, davlat rahbariyati va aholi o'rtasida muloqotni kengaytirish asosiy vazifalar sifatida belgilangan. Bugungi O'zbekistonning tom ma'noda jahonda tanilishi va xalqaro mu-

nosabatlarning faol ishtirokchisiga aylanib borishi, mamlakatda iqtisodiy, ijtimoiy sohalarda islohotlarning samarali amalga oshirilishi, xalqning ma'nnaviy va madaniy jihatdan rivojlanishi, bularning barchasi davlatimiz rahbariyati tomonidan eng ezgu niyatlar asosida amalga oshirayotgan davlat siyosati va xalq orzu umidlarining uyg'unligi hamda faol harakatlari natijasidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ushbu kitobi mustaqillik davrida respublika hayotida kechgan hodisalarga tanqidiy yondashish, ularni xolisona baholash, shuningdek, mamlakat ravnaqi yo'lida davlat rahbariyati tomonidan belgilangan ustuvor vazifalar to'g'risida aniq bilimlarga ega bo'lishda muhim manba hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev asarlari xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni O'zbekistonning eng yangi tarixini chuqur anglab va idrok etib, Vatanimizning boy tarixi va qadimiy shuhrati, mustaqillik sharofati ila bugungi qudrati va salohiyati, jahon maydonidagi obro'-e'tiboriga har tomonlama munosib bo'lib yashashga o'rgatishi bilan ulkan ahamiyatga egadir. Ushbu manbalar O'zbekiston davlati tarixini, shu jumladan uning eng yangi tarixi davrini o'rganuvchi tadqiqotchilar uchun metodologik asos va nazariy manba sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

**Mustaqillik davriga oid statistik to'plamlar, davriy matbuot nashrlari, arxiv hujjatlari tarixiy-manbaviy ahamiyati.**

**Statistik to'plamlar.** O'zbekiston Respublikasida har yili mamlakatimiz taraqqiyotining turli sohalariga oid statistik ma'lumotlar jurnal, to'plam shaklida e'lon qilib boriladi va ular mamlakatimizdagi barcha soha vakillarining qo'lga kiritgan yutuqlari, istiqbolli rejalari va kelajakdagi amaliy harakatlarini o'zida aks etiruvchi asosiy ma'lumotlardan iborat bo'lib, aynan mamlakatimiz taraqqiyotining amaliy harakatlari bilan bog'liq ma'lumotlarni raqamli ko'rsatkichlar orqali yilma-yil bayon etib boradi hamda

keng xalq ommasi, jamoatchilik va ilm ahliga taqdim etadi. Statistik to'plamlar O'zbekistonning tarixiy, jahonshumul taraqqiyoti odimlarini yaqqol tasavvur etish, chuqur tadqiq etish, umumlashtiruvchi xulosalar chiqarishda manbaviy asos bo'ladi.

Mustaqillik yillarda respublikamizda statistik ma'lumotlarning salmoqli qismini *O'zbekiston Respublikasi davlat Statistika Qo'mitasi* tomonidan har yili e'lon qilinadigan nashrlarda uchratish mumkin. Xususan, statistik to'plamlar quyidagi nomlanishda nashr qilingan: "O'zbekistonda ta'lim", "O'zbekiston mintaqalarining statistik yilligi", "O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimi", "Yillik statistik to'plam", "O'zbekiston sanoati", "Ijtimoiy-iqtisodiy yillik statistik to'plam", "O'zbekistonda mehnat va bandlik", "O'zbekiston qishloq xo'jaligi", "O'zbekiston aholisi", "O'zbekiston ayollari va erkaklari", "O'zbekiston raqamlarda" va b.

Mazkur nashrlar turli sohalar, hududlar, muayyan mavzular bo'yicha tuzilgan va ulardagi ma'lumotlar shunga mos ravishda tizimlashtirilgan. Masalan, bir sohaga oid statistik ma'lumotlarni aks ettiruvchi yillik nashr – "*O'zbekistonda ta'lim*" (Образование в Узбекистане) to'plamida mamlakatimiz ta'lim tizimi jarayoni bilan bog'liq raqamlar yilma-yil berilgan va to'plamda beshta yo'nalishga tegishli statistik ma'lumotlar qayd etilgan: maktabgacha ta'lim, umumiyy ta'lim, o'rta va maxsus kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim muassasasi ta'limi, ilmiy va ilmiy mutaxassislik (akademik ta'lim).

Bir necha sohalarni qamrab oluvchi to'plamlar sirasiga kiruvchi nashrlardan "*O'zbekiston raqamlarda*" (Узбекистан в цифрах) to'plamini qayd etish lozim. Ushbu manbada O'zbekiston Respublikasining mustaqillik yillarda ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga oid statistik ma'lumotlar tizimli tarzda tasniflab berilgan va uning tarkibi quyidagicha: kirish (3 ta qism), O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holatlari (10 ta qism), yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarish (3 ta qism), aholi (12 ta qism), aholi bandligi (6 ta qism), aholining

yashash darajasi – aholi daromadi (3 ta qism), aholining ijtimoiy himoyasi (3 ta qism), aholining turar-joy sharoitlari (1 ta qism), huquqbuzarliklar (2 ta qism), ta'lim (6 ta qism), aholi sog'ligini saqlash (4 ta qism), madaniyat va dam olish (6 ta qism), korxona va tashkilotlarning umumiy xarakteristikasi (7 ta qism), xususiylashtirish (1 ta qism); O'zbekiston Respublikasining umumiqtisodiy ko'rsatkichlari (4 ta band), sanoat-sanoatning umumiqtisodiy ko'rsatkichlari (5 ta qism), sanoatning alohida tarmoqlaridagi ishning asosiy ko'rsatkichlari (10 ta qism), qishloq xo'jaligi (8 ta qism), o'simlikshunoslik (2 ta qism), hayvonchilik (2 ta qism); qurilish–qurilish faoliyati (5 ta qism), turar-joy va ijtimoiy madaniy qurilish (7 ta qism); investitsiya – moliyasiz aktivlarni investitsiyalash (6 ta qism), xorijiy investitsiyalar (4 ta qism); transport – yuk tashish (2 ta qism), yo'lovchi tashish (2 ta qism), transportning material-texnik bazasi (1 ta qism); aloqa xizmatlari (7 ta qism); aholiga xizmat ko'rsatish va savdo-sotiq – chakana va ulgurji savdo (8 ta qism), aholiga xizmat ko'rsatish (5 ta qism); tashqi iqtisodiy aloqalar – tashqi savdo (7 ta qism), xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar faoliyati (2 ta qism); atrof-muhit muhofazasi (5 ta qism); fan va innovatsiyalar (4 ta qism).

O'zbekistonning mustaqillik yillarida nashr etib kelinayotgan statistik to'plamlar, ulardag'i keltirilgan ma'lumotlarning amaliy ahamiyati va jihatiga ko'ra turli sohalaridagi – boshqaruv, tashqi va ichki siyosat, xavfsizlik, turmush darajasi, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, demografik, iqtisodiyot, madaniyat, san'at, qurilish, kommunikatsiya, transport, savdo va boshqalarga oid umumiy ko'rsatkichlarni o'zida jamlagan holda, ularga asoslanib xulosa chiqarish, ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borish, istiqbol reja tuzish, bashoratlar qilish borasida muhim tarixiy manbalar sanaladi. Ushbu ma'lumotlarning har biri mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ishlarning nafaqat hisoboti tarzida, balki bu ko'rsatkichlardan keng foydalanish, ularni tadqiq etish

orqali turli sohalarda yuz berayotgan tarixiy o'zgarishlarni, kechayotgan jarayonlarni aniq tushunib yetish, tarixiy kelajak uchun istiqbol rejalarini tuzish va amaliy ahamiyatini oshirishda eng asosiy tarixiy manbalardan hisoblanadi.

***Arxiv hujjatlari tarixiy manba sifatida.*** Ma'lum tarixiy davrda kechgan jarayonlarni o'rganishda mazkur vaqt oralig'ida yaratilgan hujjatlarning beqiyos orni bor. Tarixiy hujjatlar mazmuniga ko'ra siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ma'nnaviy hayotni aks ettiradi va shu bilan bog'liq hodisalar haqidagi axborotni o'zida saqlaydi. Ayni vaqtida hujjatlarning katta qismi rasmiy manba sifatida ham haqqoniylarini yoritishda muhim dalil hisoblanadi. Tarixiy hujjatlaning paydo bo'lishi qadimgi davrlardan boshlangan va asrlar davomida ular yozilgan materiallar takomillashib borgan. Dastlab sopol taxtachalar, buyumlar, yog'ochlar, daraxt va boshqa o'simliklarning po'stloqlari, qamish, turli matolar, hayvon terisi, qoya-toshlar, metall buyumlar, o'rta asrlardan boshlab qog'oz, keyingi davrlarda, magnit lenta, fotoplyonka, elektron vositalarga matn va tasvirlar bitilgan hamda ular turli tarixiy davrlarga oid hujjatlar deb atalgan. Muhim sanalgan tarixiy hujjatlar alohida saqlovxonalar, arxivlarda saqlangan.

Hozirgi zamonda tarixiy hujjatlar davlatlarda ularning umumiyligi arxiv fondini tashkil qiladi. Jumladan, O'zbekistonda saqlanayotgan tarixiy hujjatlar ham Milliy arxiv fondini tashkil qiladi. Arxivlar o'z turiga ko'ra davlat arxivasi, idoraviy arxiv, nodavlat tashkiloti arxivsi, shaxsiy arxiv va boshqalarga tasniflanadi.

Mamlakatimiz tarixiga doir eng muhim arxiv hujjatlari markaziy davlat arxivlariga topshiriladi. O'zbekistonda O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivsi, O'zbekiston Respublikasi kino, surat va ovozli hujjatlar Markaziy davlat arxivsi, O'zbekiston Respublikasi ilmiy-texnikaviy va tibbiyot hujjatlari Markaziy davlat arxivsi faoliyat yuritadi va ularda Vatanimiz tarixiga doir hujjatlar doimiy, vaqtinchalik saqlov muddatlarida saqlanadi. Arxiv hujjatlari turli tarixiy davrlarga

ko'ra tasniflanadi va mos ravishda jamg'armalarga–arxiv fondlariga butlashtiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivida (O'zR MDA) arxiv hujjatlari uchta yirik bo'lim – tarixiy (I fondlar), sovet davri (R fondlar), mustaqillik davri (M fondlar)ga va shaxsiy fond bo'limida mujassamlashtirilib boriladi.

O'zR MDAda O'zbekistonning mustaqillik davri tarixi bilan bevosita bog'liq arxiv hujjatlari jamlangan M fondlar hozirgi davrda 150 tadan ziyod bo'lib, ularda davlat boshqaruvi, xalq xo'jaligi tarmoqlari boshqaruv organlari va alohida davlat tashkilotlari tomonidan mustaqillik yillarida topshirilgan arxiv hujjatlaridir. Ushbu fondlar hujjatlarida muayyan soha yoki muassasa tarixi, rivojlanishi, tarkibi, faoliyati va boshqa jarayonlariga tegishli ma'lumotlar aks etgan. Masalan, M-110 – O'zbekiston Respublikasi statistika va prognozlashtirish davlat qo'mitasi jamg'armasida hozirgi davrda qo'mitaning 1997–2001-yilga tegishli 6500 dan ziyod arxiv hujjatlari jamlangan. Bularda Statistika qo'mitasi tarkibidagi moliya ishlari bo'limi, sarmoyalarni statistik hisoblash va prognozlashtirishni umumlashtirish bo'limi, devonxona, ijtimoiy rivojlanishni statistik hisoblash va prognozlashtirishni umumlashtirish bo'limi, sanoat ishlab chiqarishni statistik hisoblash va prognozlashtirishni umumlashtirish bo'limi, tashqi aloqalar va jahon bozori konyunkturasi bo'limi hujjatlari mavjud. Mazkur jamg'arma hujjatlari ikki jiddan iborat № 1 raqamli sharhga (opis № 1) davrlar va bo'limlar bo'yicha butlashtirilgan. Bo'linmalar ichida esa ular zarurligi va muhimligi darajasi bo'yicha joylashtirilgan. Hujjatlar tarkibida statistik ishlanmalar, Davlat statistika qo'mitasining statistik to'plamlari, statistik byulletenlar, iqtisodiyot va boshqa sohalar bo'yicha hisobotlar hamda tahliliy yozuvlar, jadvallar, umumlashtirilgan hisobotlar, respublikada olib borilgan tadqiqotlar, tekshiruvlarning statistik ma'lumotlari uchraydi. Ushbu fond statistik hujjatlari O'zbekiston Respublikasi, uning viloyatlari, Qoraqalpog'iston

Respublikasi taraqqiyotini o'zida aks ettiruvchi ma'lumotlarga ega va ular mustaqillik davri tarixini yoritishda muhim manbaviy ahamiyatga ega.

O'zbekiston davlat arxivlaridan yana biri, bu yuqorida nomi qayd etilgan O'zbekiston Respublikasi Kino, surat, ovozli hujjatlar Markaziy davlat arxiv (O'zR KSOHMDA) bo'lib, unda ham mustaqillik davrida vujudga kelgan arxiv manbalari jamlangan. Arxiv hujjatlari fotoqog'oz, magnitli va elektron turdag'i axborot tashuvchi vositalarga yozilgan, ya'ni kinolenta, magnitofon kassetalari, audiolentalar, fotoplyonka, fotosuratlar, elektron disklar va boshqa shu turkumdag'i hujjatlardir. Mazkur arxiv saqlovxonalarida mustaqillik davriga oid materiallar ana shu turkumlar bo'yicha jamlangan bo'lib, ularning nomlanishi, joylashishi, sanasi, hajmi va h.k. axborot katalog varaqalariga yozilgan, ushbu varaqalar katalog xonalarda saqlanadi. Hujjatlarni tasniflashda bir nechta jihatlar e'tiborga olin-gan. Xususan, mustaqillik davrida yaratilgan kinohujjatlarga maxsus kinohujjatlar katalogi tuzilgan va hujjatlarning nomlari kartotekalarda beshta turga bo'lib tasniflangan: davriga ko'ra, soha tarmoqlar bo'yicha (bunda umumiy klassifikatorga amal qilingan), taniqli shaxslarning ismi, familiyasiga qarab, muallifligiga ko'ra, alfavit ketma-ketligida. Mazkur yillarga oid fotohujjatlar esa ikki jihatga ko'ra tizimlashtirilgan: hujjatlar yaratilgan davrlar bo'yicha hamda hujjatlarning mavzusiga ko'ra. KFOHMDAning ovozli hujjatlar (fonohujjatlar, audiohujjatlar) katalogi ikki turga ko'ra tuzilgan: badiiy ovozli yozuvlar katalogi va hujjatli tovushli yozuvlar katalogi. O'z navbatida kataloglarda ovozli hujjatlar dastlab ikki guruhga, ya'ni ismlar va mavzular bo'yicha, keyingi navbatda esa har bir guruhda boshqa jihatlarga qarab tasniflangan. Jumladan, ismli kataloglarda kinostudiya nomi, film muallifi, rejissori ismi, yoki qo'shiq bastakori, muallifi, ijrochisi ismlari bo'yicha hujjatlar tizimlashtirilgan; mavzuli kataloglarda mazkur turdag'i arxiv

hujjatlari muayyan mavzularga ko'ra guruhlarga ajratilgan, xususan, sohalar bo'yicha, shaharlar, turli joylarga ko'ra tasniflangan. Mazkur arxiv hujjatlari bilan ishlash jarayonida tadqiqotchi tanlangan mavzu yoki izlayotgan hujjatlarning mualliflari, sanasi, yaratilgan joyi bo'yicha kerakli ma'lumotlarni topishi mumkin va bunda kataloglar arxiv ma'lumotnomasi vazifasini bajaradi.

Masalan, O'zR KSOHDA kataloglaridan biri bo'lgan Kinohujjatlar katalogida «Uzkinoxronika» nomli katalog tuzilgan va undagi varaqalar sanalar bo'yicha taxlangan, ya'ni ushbu katalog davriy turga mansub va buni tadqiqotchi e'tiborga olishi lozim. Jumladan, mustaqillik yillariga oid ma'lumotlar yillar bo'yicha 2007-yilga qadar berilgan. Katalog varaqasi namunasi quyidagicha:

O'zR kino, surat va ovozli hujjatlar

Markaziy davlat arxivsi

Arxiv raqami	2271
Yil	1995
Kinohujjat nomi	- «Behzod, musavvirlar sultonii»
Mualliflar:	rais – G. Shadmonov, operator – O. Rizayev
Studiya nomi	- Uzkinoxronika
Komplektlilik	- N-3, F-1, K-2 o'zb.
Varaqa tuzuvchi familiyasi	.....
lavozimi, imzo	.....
Sana	- 20.12.10.

O'zR KSOHDAda saqlanayotgan O'zbekistonning mustaqillik yillarida yaratilgan kino, surat, ovozli hujjatlar respublikaning madaniyat va san'at, ommaviy axborot vositalari xodimlari, shuningdek, ilm-fan va xalq xo'jaligining turli mutaxassislari ishtirokida yaratilgan kino, teleko'rsatuv, radioeshittirish, fotosuratlar, turli madaniy tadbirlar tasvirlari va tovushli

yozuvlarini o'zida saqlash bilan birga, ushbu davrda mam-lakatimizda kechgan voqealar, bo'lib o'tgan muhim tadbirlar, olib borilayotgan islohotlar bosqichlari va jarayonlari, siyosat, iqtisodiyot, madaniyat sohalarida bo'lib o'tgan boshqa turli vo-qealar haqida qimmatli ma'lumotlarni mujassam etadi. Mazkur manbalar mustaqil O'zbekistonning tarixini yangi ma'lumotlar bilan boyitishda alohida qimmatli sanaladi.

**Davriy matbuot nashrlari.** O'zbekiston Respublikasi ning mustaqillik yillari tarixini yoritishda kundalik hayotda so-dir bo'layotgan voqelikni o'zida muntazam aks ettiradigan man-balarning alohida o'rni bor. Bu o'rinda davriy matbuot nashrlarini qayd etish lozim. Davriy nashrlarga gazeta, jurnal, jurnal tipidagi nashrlar (byulletenlar, ilmiy axborotlar va b.) kiradi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi davrda O'zbekistonda 700 dan ziyod gazeta, 250 dan ortiq jurnal, 20 ga yaqin axborot byulletenlar nashr etiladi.

Gazetalar, o'z navbatida, bir qancha turlarga bo'linadi – umumsiyosiy va ixtisoslashgan; mutaxassisligiga ko'ra – hu-kumat idoralari, xalq harakatlari, partiyalar, uyushmalari, jamg'armalar, tijorat, reklama-tijorat, diniy tashkilotlar va boshqa, shuningdek, xususiy gazetalar; hududiy yo'nalishga qa-rab – markaziy (mamlakat miqyosida), viloyat, shahar, tuman, quyi matbuot organlari bo'ladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, gazetalarga mafkuraviy yakkahokimlik barham topdi. Shundan so'ng gazetalar o'z siyo-siy yo'nalishini, mazmun-mohiyatini tubdan o'zgartirdi. Ayrim larining nomi ham o'zgardi. Gazetalar o'zbek, rus, qozoq, tojik, qoraqalpoq, koreys, ingliz va b. tillarda chiqadi. O'zbekistonning yetakchi gazetasi – "Xalq so'zi" va "Народное слово" O'zR OM va VMning nashridir. Bu gazetalar haftasiga 5 marta chop etiladi. Mazkur davrda O'zbekistondagi oshkoraliq va demokratiya muhi-tida yuzaga kelgan yangi partiyalar ham o'z gazetalarini nashr eta boshladilar ("O'zbekiston ovozi", "Milliy tiklanish", "Adolat",

“Fidokor”). Bundan tashqari turli hukumat idoralari, xalq harakatlari, uyushmalar, jamg'armalar muassisligida nashr etilayotgan gazetalar – “Birlik” – “Единство”, “Hurriyat”, “O'zbekiston adabiyoti va san'ati”, “Mulkdor”, “Mening mulkim” – “Частная собственность”, “Sog'lom avlod”, “Savdogar” va b. ham chiqadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ko'plab reklama-tijorat, xususiy gazetalar paydo bo'ldi. “Darakchi”, “Tasvir”, “Бизнес-вестник Востока”, “EKO”, “Sado”, “7x7”, “Zakovat” kabi gazetalar shular jumlasidandir.

Jurnallar mohyatiga ko'ra – ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy, adabiy-badiiy, tabiiy-ilmiy, qishloq xo'jaligiga oid va sh.k.; yo'naliishiga qarab – bolalar, yoshlar, xotin-qizlar uchun va b. nashrlarga bo'linadi. Muassisligiga ko'ra – hukumat idoralari, nodavlat tashkilotlar, xususiy jurnallar ham chiqmoqda.

O'zbekiston davlat mustaqilligi e'lon qilingach, keng om-maga mo'ljallangan mavjud jurnallar faoliyati qayta tashkil qilindi. Respublikada jami 165 jurnal nashr etiladi (2002-y.), ularning yillik o'rtacha adadi 704,7 ming nusxa. Yangi ijtimoiy munosabatlarni shakkantirishda, milliy ongni o'stirishda ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy va adabiy-badiiy jurnallar yetakchilik qilmoqda. Bu turkumga mansub “Sharq yulduzi”, “Guliston”, “Saodat”, “Muloqot”, “Fan va turmush”, “Yoshlik”, “Mushtum” jurnallari qatoriga istiqlol davri jurnallari – “Tafakkur”, “Sog'lom avlod uchun”, “Jahon adabiyoti” qo'shildi.

Bulardan tashqari yangi ijtimoiy, iqtisodiy, moliyaviy munosabatlarni aks ettiruvchi maxsus jurnallar – “Bozor, pul, kredit”, “Menedjer”, “Оптовик”, “Jamiyat va boshqaruvi”, “Buxgalter kutubxonasi”, “Tijorat” ham tashkil topdi.

O'zbekistonda ilmiy jurnallarning keng tarmogi mavjud. O'zbekistonda FA ilmiy tadqiqot institutlari tomonidan 12 ta ilmiy akademik jurnal nashr qilinadi (2002-y.). Ularda mamlakat olimlarining nazariy va amaliy tadqiqotlari, tajribalari yakunlari yoriltiladi. “O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ma'ruzaları”

jurnali ilmiy akademik nashrlarning yetakchisi hisoblanadi. Jurnal sahifalarida fanning barcha sohalariga oid tadqiqotlar nati-jasining qisqa mazmuni e'lon qilinadi. "O'zbekistonda ijtimoiy fanlar", "O'zbek tili va adabiyoti" jurnallari ijtimoiy fan sohalari, "Informatika va energetika muammolari", "Mexanik muammo-lari", "Узбекский химический журнал" nashrlari aniq va tabiiy fanlar tarmog'idagi ilmiy yutuqlarni aks ettiradi.

Istiqlol yillarida mamlakatimizda matbuot erkinligini ta'minlashga imkoniyat yaratilib, o'ndan ziyod qonunlar, qator huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida", "Axborot olish erkinligi va kafolatlari to'g'risida", "Noshirlik faoliyati to'g'risida", "Mualliflik va tur-dosh huquqlar to'g'risida", "Reklama to'g'risida", "Axborot olish prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi qonunlar shular jumlesi-dan. O'zbekiston davlat matbuot qo'mitasi O'zbekiston matbuot va axborot agentligiga aylantirildi. Bu agentlikning vazifalari dan biri OAVLarining mustaqil faoliyatiga doir konstitutsiyaviy huquqlar – qonunchilikning so'zsiz bajarilishi, so'z va matbuot erkinligi kafolatlarini ta'minlash monitoringini olib borish deb belgilandi. Mustaqillik yillarida tashkilotlar, partiyalar, uyushmalar, ayrim jamoalar, fuqarolar ham matbuot nashrla-rini ta'sis etish huquqiga ega bo'ldilar.

"Bugun O'zbekiston barcha sohalarda taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'yemoqda. Oldimizda turgan, bir-biridan muhim va dolzarb vazifalarni hal etishda, yurtimizda tinchlik- osoyishtalik, o'zaro hamjihatlik muhitini yanada mustahkam-lash, xalqimizning bunyodkorlik salohiyatini, uning o'z kuchiga, ertangi kunga bo'lgan ishonchini oshirish, hayotimizda qonun vaadolat ustuvorligini ta'minlash, davlat idoralari faoliyati us-tidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, bir so'z bilan aytganda, xalq manfaatining chinakam himoyachisi bo'lishda ommaviy axborot vositalari bundan buyon ham faol harakat olib boradilar, deb ishonaman", – deb ta'kidlaydi O'zbekiston

Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev Respublika ommaviy axborot xodimlari bilan bo'lgan uchrashuvdagi nutqida.

Davriy matbuot sahifalarida mamlakatimiz taraqqiyoti, xalqning turmush tarzi, davlatimizning ichki va tashqi siyosati, islohotlar samaradorligi, boshqaruv organlari, turli sohalarga tegishli muassasa, idora, tashkilotlar faoliyati, jamiyatimiz va fuqarolarimiz hayotida yuz berayotgan turli voqealar va boshqa ko'plab mavzularga oid axborot, maqola, xabarlar berib boriladi. O'z navbatida, mazkur ma'lumotlar O'zbekistonda mustaqillik yillarida kechayotgan tarixiy jarayonlarni faktlar asosida, xolis va asosli tarzda yoritishga yordam beradi.

Xulosa o'rnidida ta'kidlash joizki, O'zbekistonning mustaqillik davrida vujudga kelgan tarixiy manbalar mazkur yillarda respublikada kechgan tarixiy jarayonlarning asosini tushunish, mohiyatini anglashga yordam beradi. Ularning mazmuni turli sohada olib borilgan islohotlar samarasini tadqiq etishda alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Mustaqillik Deklaratsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risidagi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, Prezident asarlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari Axborotnomalari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari to'plamlari, O'zbekiston Respublikasi qonunlari va qonunosti hujjatlari to'plamlari, boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi hujjatlari, statistik to'plamlar, davriy matbuot nashrlari materiallari O'zbekiston Respublikasining mustaqillik, barqaror demokratik taraqqiyoti, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatni qurish yo'lidagi tarixiy voqealarни aks ettiruvchi hujjatlar bo'libgina qolmasdan, "O'zbekiston tarixi manbashunosligi" fani, ixtisosligining ishonchli va muhim birlamchi manbalari hisoblanadi.

**Savol va topshiricilar**

1. O'zbekistonning mustaqillik davri manbalari tarkibiga qanday ma'lumotlarni kiritish mumkin?
2. O'zbekiston Respublikasi Mustaqillik Deklaratsiyasini tarixiy manba sifatida sharhlab bering.
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligi assoslari to'g'risidagi Qonunning mazmun-mohiyati va uning tarixiy ahamiyatini yoritib bering.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tarixiy-manbaviy ahamiyati qanday?
5. O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan mustaqillik yillarida qabul qilingan rasmiy hujjatlар to'g'risida ma'lumot keltiring.
6. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov asarlarini O'zbekistonning mustaqillik davri tarixini yoritishdagi o'rnnini ta'riflang.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning asarlarini va nutqlarida keltirilgan tarixiy ma'lumotlar bo'yicha mustaqil ish tayyorlang.
8. O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi hujjatlari mustaqillik davri tarixini tadqiq qilishda qanday ahamiyatga ega? Misollarda sharhlab bering.
9. O'zbekistonning mustaqillik davriga oid statistik ma'lumotlarning manbaviy jihatlarini izohlab bering.
10. Davriy matbuot nashrlari O'zbekistonning mustaqillik davri tariхining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy sohalarini yoritishda muhim manba ekanligiga misollar keltiring.

**Manbalar va nadabiyotlar**

1. Karimov I.A. Asarlar to'plami. 1–23 jildlar. – T.: "O'zbekiston", 1996–2015.
2. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. – T.: «O'zbekiston», 1993.
3. Karimov I.A. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari". – T.: "O'zbekiston", 1997. – 328 b.
4. Karimov I.A. "Olloh qalbimizda, yuragimizda". – T.: "O'zbekiston", 1999.

5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: «Ma'naviyat», 2008.
6. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: "O'zbekiston", 2016.
7. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: "O'zbekiston", 2017.
8. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: "O'zbekiston", 2017.
9. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. Toshkent shahar. 2017-yil 7-fevral PF-4947-son; 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga 1–8-ilovalar / O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda, 20-son, 354-modda, 23-son, 448-modda, 37-son, 982-modda. LexUZ.
11. O'zbekiston Respublikasi Mustaqillik Deklaratsiyasi. / I.A. Karimov. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2011.
12. O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risidagi Qonun. / I.A. Karimov. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2011.
13. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2017.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Xabarnoma № 8. Press-byul-leten, 1992.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Xabarnoma № 1. Press-byul-leten, 2005.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Xabarnoma № 8. Press-byul-leten, 1992.
17. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Xabarnoma № 2-son (104). 2017 aprel-iyun.
18. O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining Axborotnomasi – Ведомости Олий Мажлиса Республики Узбекистан. № 4. 1995.

19. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi – Ведомости палат Олий Мажлиса Республики Узбекистан. 2017-yil. № 12.
20. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Sudi Axborotnomasi (Вестник Конституционного Суда Республики Узбекистан). 2004–2005-yillar.
21. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Sudi Axborotnomasi (Вестник Конституционного Суда Республики Узбекистан). 2015.
22. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari. 1991-yil. №№ 9, 12. 2017-yil. № 10.
23. O'zbekiston Statistika Qo'mitasi nashrlari to'plami. 1–12 kitoblar. – T.: O'zSTAT, 2013.
24. Узбекистан в цифрах. Государственный Комитет Республики Узбекистан. Статистический сборник. – T.: UzSTAT, 2013.
25. O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxiv. M-1–M-154 fondlari ro'yhatlari.
26. O'zbekiston Respublikasi Kino, surat, ovozli hujjatlar Markaziy davlat arxiv "Uzkinoxronika" kataloglari.
27. Pidayev T. Matbuot – millat chirog'i. – T., 1999.
28. Saidov A. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: mustaqil va demokratik taraqqiyotning huquqiy asosi. – T.: O'zbekiston, NMIU, 2012.
29. Buriyeva X.A. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning "Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan quramiz" asarida O'zbekiston taraqqiyotining strategik masalalari / O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi va mamlakatning ma'nnaviy-madaniy taraqqiyoti. Ilmiy to'plam materiallari. – Toshkent, 2018.
30. Zaxidova S.A. O'zbekiston mustaqillik yillari tarixiga oid materiallar. / O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi va mamlakatning ma'nnaviy-madaniy taraqqiyoti. Ilmiy to'plam materiallari. – Toshkent, 2018.
31. Новейшая история Центральной Азии: проблемы теории и методологии. – Москва: ИВРАН, 2018. (Отв. редакторы: А.К. Аликберов, М.А. Рахимов);
32. Новейшая история Узбекистана. Учебник / Под ред. М.А. Рахимова. – Ташкент: "Адабиёт учқунлари", 2018.

## MUALLIFLAR HAQIDA MA'LUMOT

**1. Alimova Dilorom Agzamovna** – tarix fanlari doktori, professor. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti “Tarixshunoslik va manbashunoslik” bo'limi mudiri. E-mail: Rahbar-D@yandex.ru.

**2. Abduraximova Nodira Abdullovna** – tarix fanlari doktori, professor.

**3. Ahmedov Bo'riboy Ahmedovich** – tarix fanlari doktori, akademik.

**4. Aminov Bobir Bomurodovich** – tarix Fanlari momzodi, katta ilmiy xodim. O'zR FA huzuridagi O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz bo'lim mudiri. E-mail: sitmihr@yahoo.com.

**5. Bo'riyev Omonulla** – tarix fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti “Qo'lyozmalarни kataloglashtirish va elektron kataloglarni texnik nazorati” bo'limi yetakchi ilmiy xodimi. E-mail: family\_buri@rambler.ru.

**6. Buriyeva Xayriya Amanullayevna** – tarix fanlari nomzodi, dotsent. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti “Manbashunoslik va arxivshunoslik” kafedrasi dotsenti; O'zR FA huzuridagi O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz ilmiy xodimi. E-mail: burieva73@mail.ru.

**7. Zaxidova Saxovat Abdukadirovna** – tarix fanlari nomzodi. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Tarix

fakulteti: Manbashunoslik va tarixshunoslik kafedrasи dotsenti. E-mail: sakhoverat\_2009@mail.ru.

**8. Ziyayeva Dono Xamidovna** – Tarix fanlari doktori, professor. O'zR FA Tarix instituti “O'zbekistonning XIX asr 2-yarmi – XX asr boshlari tarixi” bo'limi mudiri. E-mail: dono61@mail.ru.

**9. Ismoilov Maxsudxon Maxdiyevich** – tarix fanlari nomzodi, dotsent. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti “Manbashunoslik va arxivshunoslik” kafedrasи dotsenti. E-mail: masudkhon@yandex.ru.

**10. Munavvarov Zohidullo Inomxodjayevich** – siyosiy fanlar doktori, professor. O'zbekiston Xalqaro Islom akademiyasi “Xalqaro munosabatlар” kafedrasи mudiri. E-mail: z.munavvarov@mail.ru.

**11. Mamadaliyev Xusniddin Mo'ydinovich** – O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti “Qadimgi va o'rta asrlar tarixi” bo'limi doktoranti. E-mail: khusnidinm@gmail.com.

**12. Rajabov Qahramon Kenjayevich** – tarix fanlari doktori, professor. O'zR FA Tarix instituti “Yangi va eng yangi tarix” bo'limi guruh rahbari. E-mail: Kahramon-62@mail.ru.

**13. Rasulova Durdona Baxromovna** – Samarqand davlat universiteti huzuridagi Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash bo'yicha malaka oshirish instituti o'qituvchisi. E-mail: durdona.rasulova@inbox.ru.

**14. Raximov Mirzoxid Akramovich** – tarix fanlari doktori, professor. O'zR FA huzuridagi O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz direktori. E-mail: mirzohidr@mail.ru.

**15. Raxmonqulova Matlyuba Bayxurazovna** – Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston Milliy universiteti tarix fakulteti “Manbashunoslik va arxivshunoslik” kafedrasi erkin tad-qiqotehisi. E-mail: rahmankulova.zumrad@yandex.com.

**16. Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich** – tarix fanlari doktori, akademik. O’zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti “Arxeologiya va etnologiya” kafedrasi professori. E-mail: ansagd@gmail.com.

**17. Saidboboyev Zokirjon Abdurahimovich** – tarix fanlari nomzodi, dotsent. Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti “Manbashunoslik va arxivshunoslik” kafedrasi dotsenti. E-mail: saidboboev@rambler.ru.

**18. Saidboboyeva Gulzora Nematjonovna** – Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti “Manbashunoslik va arxivshunoslik” kafedrasi o’qituvchisi. E-mail: gulzora@rambler.ru.

**19. Tog’ayev Jasur Erkinovich** – Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zMU Tarix fakulteti “O’zbekiston tarixi” kafedrasi o’qituvchisi. E-mail: jasur.erkinovich.1990@mail.ru.

**20. Shadmanova Sanobar Bazarbayevna** – O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti “O’zbekistonning XIX asr 2-yarmi – XX asr boshlari tarixi” bo’limi mudiri yetakchi ilmiy xodimi, t.f.d. prof. E-mail: shadmanova.sanobar@gmail.com.

**21. Yusupova Dilorom Yunusovna** – tarix fanlari doktori, akademik. O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti yetakchi ilmiy xodimi.

**22. Qo’ldoshev Sherali Temiraliyevich** – Toshkent davlat sharqshunoslik instituti “Xitoy siyosati, tarixi va iqtisodiyoti” kafedrasi doktoranti, tarix fanlari nomzodi, dotsent. E-mail: sherali.kuldashev@mail.ru.